MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№4

ILMIY ELEKTRON JURNALI

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti

professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o’g’li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Hazratqulov Shahboz Boboqul o’g’li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: **№049864**

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MUNDARIJA

1.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Uzoq muddatli davrda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishning muqobil ssenariylari	7
2.	Умарова Зумрад Низомиддин қизи	Консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузиш: тамойиллар, усуллар ва замонавий ёндашувлар	13
3.	Sayipov Begzod Rahimovich	Valyuta kursi va mehnat bozori barqarorligi o‘rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlashda monetar siyosatning roli	25
4.	Sharipov G'ulomjon Qarshi o'g'li	Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari	32
5.	Кабилова Шахноза Жураевна	Организационно-управленческий механизм развития сферы услуг в малом бизнесе (на примере Кашкадарьинской области)	38
6.	Xamdamov Sardor Farmon o‘g‘li	Davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning xorijiy tajribasi va undan milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	43
7.	Primkulova Zilola Abrorovna	Xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning nazariy asoslari	48
8.	Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy ishlab chiqarishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribasi va undan O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	52
9.	Vaisov Dilshod Ibodullayevich	Xorijiy amaliyotda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional yondashuvlari	57
10.	Nematullayev Hamidullo Azizillo o‘g‘li	Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini transformatsiyalash va MHXSga o‘tish istiqbollari	65
11.	Мурадов Баҳром Акрамжанович	Темир йўл соҳасида инновацион инфратузилмани ривожлантириш механизмлари	72
12.	Адилов Рустам	Модели кредитного скоринга на основе больших данных: влияние на рост выручки финтех-компаний	78
13.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Investitsiya muhitini qulaylashtirish orqali hududiy investitsiya mexanizmini faollashtirish	84
14.	Саттаров Тулкин Абдихалилович	Ишлаб чиқариш харажатларининг корхоналар молиявий ҳолатига таъсири	92
15.	Kholikov Khamidulla	The current state of government securities market operations in Uzbekistan's financial market and existing problems	101
16.	Mahmudov Fayzulla Murodullayevich	Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	113
17.	Uralov Farruh Abdurazzoqovich	Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasining baholanishi	119
18.	Anvarova Lobarxon Sherzod qizi	Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimini rivojlantirish	125
19.	Tojimurodov Shohzod	Mamlkat aholisining bank kreditlari bo‘yicha qarz yuki tahlili va uni optimallashtirish yo‘llari	131
20.	Doniyev Shahob O‘tkir o‘g‘li	Iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning tutgan roli hamda ahamiyati	137
21.	Razikova Nozima Erkin qizi	Biznes subyektlarini moliyalashtirish asosida aholi bandligini ta’minlash	142
22.	Назарова Дияра	Совершенствование цифровых подходов к оценке кредитоспособности хозяйствующих субъектов в коммерческих банках Республики Узбекистан	153
23.	Mirmahmudova Nozima Xusniddinovna	O‘zbekiston kapital bozorida sukukka institutsional investorlarni jalb etish istiqbollari	160

24.	Djamalov G‘ofir Oribjanovich	Bank aktivlari sifatini oshirishda muammoli qarzlar va garov ta’minotini boshqarish usullari	167
25.	Vaxabov Bobur Alisherovich	Raqamli to‘lov infratuzilmasida moliyaviy xatarlarni boshqarish va axborot xavfsizligini ta’minlash mexanizmlari	179
26.	Abdurazakov Shavkat Shokirdjanovich	Turizm klasterlari faoliyatini moliyaviy va soliq mexanizmlari orqali iqtisodiy rag'batlantirishni takomillashtirish	191
27.	Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlarini boshqarish mexanizmlari	202
28.	Salomov Abdusalom Ismatovich	Hududiy infratuzilma ta’minotiga “Yashil” standartlarni joriy etish yo‘llari	207
29.	Орипов Ильхом Абдуллаевич	Проблемы формирования национальной системы зеленого финансирования в странах с переходной экономикой	214
30.	Tulyaganov Kudratilla Asatullayevich	O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini transformatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari	225
31.	Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	Temir yo‘l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning tashkiliy-iqtisodiy va innovatsion mexanizmlari	232
32.	Uralov Elshod Sirojiddin o’g’li	Mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning shakllari va rivojlanish xususiyatlari	240
33.	Qodirov Bahodir Qudratovich	Bevosita soliq solishni optimallashtirish va yashillashtirish masalalari	245
34.	Agabekyan Roza Samvelovna	O‘zbekistonda loyihaviy moliyalashtirish asosida investitsiya resurslarini jalb qilish mexanizmini takomillashtirish	251
35.	Ерманова Камила Рустамовна	Цифровые финансовые инструменты в системе финансирования креативных индустрий: переоценка возможностей и ограничений	258
36.	Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna	Raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholash metodlarining rivojlanish bosqichlari	267
37.	Kalandarov Jamolbek Ravshonovich	O’zbekistonda mikro, kichik va o’rta biznesni kreditlash dinamikasi: 2026 yil yarim yillik natijalari va Silk Road Finance & Technology forum kontekstidagi tahlil	274
38.	Ergashev Rustam Rajabovich	Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishning huquqiy boshqaruv arxitekturasini takomillashtirish	280
39.	Sulaymonov Iskandar Boxodir o‘g‘li	Venchur kapital jalb etish samaradorligi indeksi (VKJSI): davlat va xususiy kapital multiplikativ samaradorligini baholash modeli	287
40.	Toshpo‘latov Shohruh Sobirjon o‘g‘li	Milliy iqtisodiyotda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishning institutsional asoslari va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish	294
41.	Salamov Islom Tashkazakovich	Banklarning transformatsion jarayonlarini ekonometrik tahlili	304
42.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	O‘zbekiston fond bozorida “Xalq IPO”si mexanizmlarini takomillashtirish va institutsional investorlar ishtirokini kengaytirish yo‘llari	312
43.	Radjabova Malikaxon	Elektron tijorat faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning zaruriyati va ahamiyati	323

44.	Sultanova Gulshira Alimbetovna	Suv taqchilligi sharoitida sholichilik tarmog‘ining innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy yo‘nalishlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)	332
45.	Jumaniyazov Inojon Turayevich	Suveren fondlar samaradorligini baholashning truman-bagnall metodologiyasi	339
46.	Abdullayev Dilmurod Toxirmirzayevich	Davlat maqsadli jamg‘armalari xarajatlari ustidan davlat moliyaviy nazoratini o‘tkazishni takomillashtirish	350
47.	Abdushayitov Abdumannobbek Abdumutal o‘g‘li	Tashabbusli budjet xarajatlari ustidan davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish masalalari	357
48.	Zokirov Sardor To‘lqin o‘g‘li	Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqamli infratuzilmaning o‘rni	362
49.	Asrorov Dalerjon Zafarovich	Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish masalalari	368
50.	Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich	Hududlar investitsion muhit jozibadorligini baholashning zamonaviy metodologiyasi	374
51.	Axmedova Nafisa Amirddin qizi	O‘zbekistonda agrooziq-ovqat ishlab chiqarish dinamikasi va uni innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari	380
52.	Zohidova Ruxsora Komiljon qizi	Jahon iqtisodiyotida islom moliyasi: asosiy tendensiyalar va rivojlanish istiqbollari	387
53.	Iskandarova Munisa Hasan qizi	Elektron savdoda muddatli to‘lov munosabatlarini moliyaviy tartibga solish: xorijiy tadqiqotlar asosida qiyosiy tahlil	394
54.	Ubaydullayeva Nargiza Ravshanovna	Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda riskni moliyalashtirish usullari va qayta sug‘urta: Markaziy Osiyo sharoiti	404
55.	Xolmurotov Fozil Saribayevich	Xorazm viloyati eksport salohiyatini baholash: 2010–2024 yillar tendensiyalari va diversifikatsiya imkoniyatlari	415
56.	Gofurjonova Musharrafkhon Shukhratjon kizi	The significance of cultural events and festivals in enhancing tourism attractiveness	424
57.	Xasanova Lola Mamasharifovna	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash amaliyotini takomillashtirish	431
58.	Умаров Умид Панжиевич	Жамоатчиликнинг бюджет жараёнида иштироки ва назоратининг иқтисодий самарадорлигини ошириш йўллари	436

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK RIVOJLANISHNING MUQOBIL SSENARIYLARI

Ollokulova Feruza Mansurovna

Doktorant
Termiz davlat universiteti
E-mail: ollokulovaf@tersu.uz
ORCID: 0009-0001-4427-1879

Annotatsiya: *Maqolada davlat-xususiy sheriklikning uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari muqobil ssenariylar asosida ilmiy baholangan. Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan geosiyosiy beqarorlik, global iqtisodiy transformatsiyalar, iqlim o‘zgarishi hamda investitsion muhitdagi noaniqliklar sharoitida davlat-xususiy sheriklikni strategik rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, xususan, 2024-2030-yillarga mo'ljallangan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda PQ-308-son qarorida belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarning iqtisodiy mazmuni yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *davlat-xususiy sheriklik, muqobil ssenariylar, strategik rejalashtirish, prognozlash, PESTLE tahlili, SWOT tahlili, Delphi usuli, Monte-Karlo simulyatsiyasi.*

АЛЬТЕРНАТИВНЫЕ СЦЕНАРИИ РАЗВИТИЯ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА В ДОЛГОСРОЧНОЙ ПЕРСПЕКТИВЕ

Оллокулова Феруза Мансуровна

Докторант
Термезский государственный университет
E-mail: ollokulovaf@tersu.uz
ORCID: 0009-0001-4427-1879

Аннотация: *В статье проведена научная оценка долгосрочных перспектив развития государственно-частного партнерства на основе альтернативных сценариев. Исследованы приоритетные направления стратегического развития ГЧП в условиях геополитической нестабильности, глобальных экономических трансформаций, изменения климата и высокой неопределенности инвестиционной среды. Особое внимание уделено институциональным реформам, проводимым в Республике Узбекистан, а также реализации задач, предусмотренных Постановлением Президента Республики Узбекистан № ПП-308 по развитию государственно-частного партнерства на 2024-2030 годы.*

Ключевые слова: *государственно-частное партнерство, альтернативные сценарии, стратегическое планирование, прогнозирование, PESTLE-анализ, SWOT-анализ, метод Дельфи, моделирование Монте-Карло.*

ALTERNATIVE SCENARIOS FOR THE LONG-TERM DEVELOPMENT OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS

Ollokulova Feruza Mansurovna

Doctoral student
Termez State University
E-mail: ollokulovaf@tersu.uz
ORCID: 0009-0001-4427-1879

Abstract: *This article provides a scientific assessment of the long-term development prospects of Public-Private Partnerships (PPPs) based on alternative development scenarios. It examines strategic priorities for PPP development under conditions of geopolitical uncertainty,*

global economic transformation, climate change, and increasing investment risks. Particular attention is paid to the institutional reforms implemented in Uzbekistan and the strategic objectives established by Presidential Resolution No. PQ-308 on the development of Public-Private Partnerships for 2024-2030.

Keywords: *Public-Private Partnership, alternative scenarios, strategic planning, forecasting, PESTLE analysis, SWOT analysis, Delphi method, Monte Carlo simulation.*

Kirish

So‘nggi o‘n yillikda jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar, geosiyosiy beqarorlik, global ta’minot zanjirlaridagi uzilishlar, iqlim o‘zgarishi hamda tabiiy ofatlar oqibatlarining kuchayishi davlat tomonidan istiqbolli loyihalar, tarmoq va sohalarning uzoq muddatli rivojlanishiga doir ilmiy asoslangan ssenariylarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Albatta, bunday sharoitda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) rivojlanishining uzoq muddatli istiqbollarini belgilash, muqobil rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqish hamda ularning iqtisodiy samaradorligini baholash milliy iqtisodiyotning strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, DXSh mexanizmi infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish, xususiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb etish, davlat budjeti yukini kamaytirish va zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etishning eng samarali institutsional vositalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda uzoq muddatli investitsiya siyosatini shakllantirishda turli iqtisodiy, demografik, texnologik va ekologik omillarni hisobga olgan holda DXSh rivojlanishining muqobil ssenariylarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda ham davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-son qarori [1] bilan 2030-yilgacha davlat-xususiy sheriklik loyihalariga kamida 30 milliard AQSh dollari miqdorida xususiy investitsiyalarni jalb etish, transport, energetika, kommunal xizmatlar, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa infratuzilmaviy tarmoqlarda yirik DXSh loyihalarini amalga oshirish, loyihalarni tayyorlash va boshqarishning zamonaviy mexanizmini joriy etish hamda investorlar uchun qulay institutsional muhitni shakllantirish bo‘yicha aniq maqsadli vazifalar belgilab berilgan. Mazkur strategik vazifalar uzoq muddatli istiqbolda DXSh tizimining rivojlanish yo‘nalishlarini ilmiy prognozlash va muqobil ssenariylar asosida baholash zaruratini yanada oshirmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Davlat-xususiy sheriklikning ilmiy-nazariy asoslari hamda uning amaliy jihatlariga doir mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, NNTlar davlat, xususiy sektor va mahalliy hamjamiyatlar o‘rtasida institutsional vositachi sifatida faoliyat yuritib, manfaatdor tomonlar hamkorligini kuchaytiradi, ishonchni oshiradi va loyihalarni amalga oshirish samaradorligini yaxshilaydi. Mualliflar ko‘p tomonlama hamkorlik, inklyuziv boshqaruv va manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi samarali koordinatsiya davlat-xususiy sheriklik loyihalarining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillar ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydilar [2]. Ko‘p mezonli qaror qabul qilish (MCDM) va ikki bosqichli optimallashtirish (bi-level optimization) yondashuvlari investitsiya loyihalarini tanlash aniqligini oshiradi hamda davlat moliyaviy rag‘batlarini samarali taqsimlash imkonini beradi. Mualliflar bunday yondashuv davlat va xususiy sektor manfaatlari muvozanatini ta’minlash, investitsion risklarni kamaytirish va qayta tiklanuvchi energetika loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta’kidlaydilar [3]. Shaffof va raqobatbardosh davlat xaridlari mexanizmi xususiy korxonalar investitsion faolligini, innovatsion salohiyatini va moliyaviy barqarorligini oshiradi. Mualliflar davlat xaridlari tizimini takomillashtirish xususiy sektorni iqtisodiyotga kengroq jalb etish, resurslardan samarali foydalanish hamda davlat-xususiy sheriklik loyihalarining institutsional samaradorligini

oshirishda muhim omil ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydilar [4]. Iqtisodchi olimlar infratuzilmaviy davlat-xususiy sheriklik loyihalariga investitsiyalar hajmini belgilovchi omillarni 107 ta rivojlanayotgan mamlakatdagi 9121 ta loyiha misolida empirik tahlil qilganlar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, xususiy sherik zimmasiga ko‘proq risk yuklatiladigan shartnomalar, raqobat asosidagi tenderlar, davlatning bilvosita qo‘llab-quvvatlash dasturlari hamda ko‘p tomonlama taraqqiyot banklari ishtiroki yirik investitsiyalarni jalb etishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mualliflar qulay institutsional va makroiqtisodiy muhit davlat-xususiy sheriklik loyihalarining investitsion jozibadorligini oshirishning hal qiluvchi omili ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydilar [5].

Muallif davlat-xususiy sheriklikni davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi uzoq muddatli institutsional hamkorlik shakli sifatida baholab, uning asosiy afzalligi investitsion resurslarni safarbar etish, infratuzilmaviy loyihalarni samarali moliyalashtirish hamda risk va javobgarlikni tomonlar o‘rtasida oqilona taqsimlashdan iborat ekanligini asoslaydi. Muallifning ta’kidlashicha, DXShning muvaffaqiyati huquqiy-me’yoriy bazaning barqarorligi, mulkiy munosabatlarning aniqligi, shaffof shartnomaviy mexanizmlar va davlat tomonidan qulay institutsional muhit yaratilishiga bevosita bog‘liq [6]. Muallifning ta’kidlashicha, davlat va xususiy sektor manfaatlari muvozanatini ta’minlash, shaffof shartnomaviy munosabatlarni shakllantirish hamda qulay huquqiy muhit yaratish xususiy investitsiyalarni jalb etish va infratuzilmaviy loyihalar samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biridir [7]. Mualliflarning ta’kidlashicha, DXShning muvaffaqiyati qonuniylik, samaradorlik, jamoat manfaatlari ustuvorligi, axborot shaffofligi va tomonlar javobgarligi tamoyillariga asoslanadi. Shuningdek, huquqiy, makroiqtisodiy, boshqaruv va kadrlar bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish hamda tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni muntazam takomillashtirish davlat-xususiy sheriklikni barqaror rivojlantirishning muhim sharti ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan [8].

Mualliflarning ta’kidlashicha, DXSh loyihalarining muvaffaqiyati shaffof tanlov mexanizmini joriy etish, risklarni davlat va xususiy sherik o‘rtasida oqilona taqsimlash, zamonaviy moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish hamda loyiha monitoringini takomillashtirishga bevosita bog‘liq. Shuningdek, huquqiy-me’yoriy bazani takomillashtirish, investorlar uchun barqaror institutsional muhit yaratish va xalqaro tajribani milliy amaliyotga moslashtirish xususiy investitsiyalarni keng jalb etish hamda DXSh loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligi asoslangan [9]. Muallif davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan tarmoqlar faoliyatini ilg‘or xorijiy tajribalar misolida tahlil qilib, DXSh mexanizmining samaradorligi barqaror huquqiy muhit, risklarni oqilona taqsimlash, mustaqil monitoring tizimi hamda xususiy sektor ishtirokini rag‘batlantirish darajasiga bevosita bog‘liqligini asoslaydi. Muallif Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Turkiya tajribalarini O‘zbekiston amaliyoti bilan qiyoslab, institutsional islohotlarni rivojlantirish, monitoring mexanizmini takomillashtirish va investorlar uchun qulay shart-sharoit yaratish DXSh loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini ta’kidlaydi [10].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda davlat-xususiy sheriklikning uzoq muddatli rivojlanish istiqbollarini baholash hamda muqobil rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqishda zamonaviy strategik rejalashtirish va prognozlash usullaridan kompleks foydalanildi. Xususan, tashqi va ichki omillarning DXSh rivojlanishiga ta’sirini aniqlashda PESTLE va SWOT tahlil usullari, ehtimoliy rivojlanish variantlarini shakllantirishda ssenariy tahlili hamda Delphi ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston iqtisodiyotida 2030 yilgacha bo‘lgan davrda DXSh sohasining rivojlanish istiqbollari inersion, bazaviy va mobilizatsion kabi muqobil ssenariyalar shaklida bayon etilish mumkin. Ushbu ssenariylar DXSh rivojiga ta’sir etuvchi asosiy omillarning turlicha kombinatsiyasi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, har biri alohida makroiqtisodiy va institutsional farazlarga ega. Ulardan eng ko‘p qo‘llaniladigani – PESTLE tahlili, SWOT tahlili, statistik modellashtirish (shu jumladan Monte-Karlo simulyatsiyasi) va ekspert baholash usullari (Delpi

metodi) hisoblanadi. Yuqoridagi strategik tahlil usullari bir-birini to‘ldiruvchi tarzda foydalaniladi. Amaliyotda uzoq muddatli ssenariylar tuzishda avval PESTLE orqali omillar va tendensiyalar aniqlanib, so‘ng SWOT orqali mamlakatning ichki imkoniyatlari baholanadi, so‘ngra Delpi yordamida ekspertlardan ushbu sharoitlarda mumkin bo‘lgan holatlar bo‘yicha fikrlar olinadi va nihoyat Monte-Karlo yoki boshqa moddellashtirish yordami bilan miqdoriy ssenariylar tekshirib chiqiladi. Biroq DXSh sohasidagi omillar nisbatan kamroq va aniqroq bo‘lgani uchun yuqorida keltirilgan to‘rtta yondashuv ko‘pincha yetarli hisoblanadi. Muhimi, ssenariy rejalashtirish jarayonida sifat va miqdor uyg‘unligiga erishish hisoblanadi, ya’ni ekspert baholari va tahlili (sifat jihatlari) modellashtirish va statistik tahlil (miqdor jihatlar) bilan qo‘shilib, real hayotga yaqin ssenariylarni yaratish asosiy maqsad hisoblanadi. Zero, uzoq muddatli davrda DXSh rivojlanishi ko‘plab noaniq omillarga bog‘liq bo‘lsa-da, ilmiy asoslangan prognoz va ssenariylar orqali qaror qabul qiluvchilar oldindan chora-tadbirlar dasturi hamda moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Quyida har bir ssenariyning mazmuni, rivojlanish omillari, ehtimoliy natijalari, risklilik darajasi va istiqbolli imkoniyatlarini tahlil qilib chiqamiz (1-jadval).

DXSh loyihalariga jalb qilingan xususiy investitsiyalar hajmi kamida 30 mlrd. AQSh dollarga yetadi. Bu natija “O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlardan biri bo‘lib, yiliga o‘rtacha 3-4 mlrd. dollarlik DXSh bitimlari tuzilishini anglatadi.

1-jadval

O‘zbekistonda (DXSh) rivojlanishining prognozlari[1]

Ko’rsatkichlar	Konservativ ssenariy	Bazaviy ssenariy	Optimistik ssenariy
DXSh loyihalari soni (2030-yilgacha jami)	1500 gacha	2000-2500	2500 dan ortiq
Xususiy investitsiyalar hajmi (2030-yilgacha jami)	15-20 mlrd. AQSh dollari	30 mlrd. AQSh dollari	40-50 mlrd. AQSh dollari
Yillik DXSh investitsiyalari (o‘rtacha, 2030 gacha)	1,5-2 mlrd. AQSh dollari/yil	3-4 mlrd. AQSh dollari/yil	5-6 mlrd. AQSh dollari/yil
Energetika sektorida DXSh loyihalari	Ayrim loyihalar amalga oshiriladi (quyosh, shamol), lekin yirik gaz-elektr loyihalari kechikadi.	Quyosh, shamol va gaz-elektr stansiyalari rejadagidek ishga tushadi.	Energetikada rejalashtirilganidan oshiqcha loyihalar amalga oshiriladi (masalan, qo‘shimcha 3-4 GVt qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari).
Transport sektorida DXSh loyihalari	Pulli avtomobil yo‘l loyihalari kechikadi yoki qisman amalga oshiriladi.	Toshkent-Samarqand, Toshkent-Andijon yo‘llari rejalashtirilgan muddatlarda foydalanishga topshiriladi.	Magistral yo‘llar va qo‘shimcha transport infratuzilmasi (temir yo‘l, aeroportlar) rejadagidan oshiqcha ravishda amalga oshiriladi.
Kommunal infratuzilma (suv, issiqlik, chiqindi)	Loyihalar cheklangan miqdorda davom etadi, ayrim yirik loyihalar sekinlashadi.	Loyihalar (Veolia issiqlik, suv ta’minoti) to‘liq amalga oshadi.	Qo‘shimcha innovatsion loyihalar amalga oshiriladi (masalan, LED yoritish, chiqindilarni qayta ishlash, yangi issiqlik loyihalari).
Sog‘liqni saqlashda DXSh loyihalari	Ayrim kichik loyihalar amalga oshadi, yirik kasalxonalar qurilishi kechikadi.	Yirik ko‘p tarmoqli kasalxonalar reja bo‘yicha qurib bitkaziladi.	Kasalxonalar va diagnostika markazlari rejalardan ortiq amalga oshiriladi (xususiy tibbiyot guruhlari tomonidan qo‘shimcha loyihalar).
Ta’lim sohasida DXSh loyihalari	Yiliga 50-70 ta maktab va bog‘cha (2030 yil gacha).	Yiliga 100 ta maktab va bog‘cha (2030 yil gacha).	Yiliga 120 tadan ortiq maktab va bog‘chalar (2030 yil gacha).
Makroiqtisodiy ta’sir	Iqtisodiy o‘sish sekinlashadi, YaIM o‘sishi 4-5% atrofida bo‘ladi.	YaIM o‘sishi 5-6%, infratuzilma rivoji iqtisodiyotga yaxshi ta’sir qiladi.	YaIM o‘sishi 7-8%, infratuzilma rivojlanishi iqtisodiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.
Fiskal xavflar	Past (lekin infratuzilma yetishmasligi muammolari davom etadi).	O‘rta (majburiyatlar nazorat qilinadi).	Yuqori (majburiyatlar ko‘payadi, ammo iqtisodiy o‘sish orqali boshqariladi).

Ma’lumot o‘rnida, 2019-2023 yillarda O‘zbekistonda yirik DXSh loyihalari (asosan energetika va kommunal sohada) bo‘yicha taxminan 8-10 mlrd. AQSh dollari atrofida shartnomalar imzolangan bo‘lib, bazaviy ssenariyga ko‘ra ushbu ko‘rsatkich keyingi yillarda sezilarli darajada oshadi. Tarmoqlar kesimida rejalashtirilgan loyihalar samarali ijrosini ta’minlanib yuqori rentabellikka erishiladi. Jumladan, energetika sohasida yirik quyosh va shamol stansiyalari to‘liq quvvat bilan ishga tushadi, xususiy investorlar issiqlik-elektr stansiyalarining modernizatsiyasi va qurilishida faol ishtirok etadilar.

1. Konservativ ssenariya. Ushbu ssenariyaga ko‘ra, yaqin va o‘rta muddatda DXSh rivoji past sur’atlarda davom etadi yoki ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha kutilgan darajadan orqada qoladi. Ushbu ssenariya bir qator ehtiyotkor farazlarga tayanadi: birinchidan, global va mintaqaviy iqtisodiy vaziyatda noqulay tendensiyalar amal qiladi (masalan, xorijiy sarmoya

[1] Muallif tomonidan tuzilgan

oqimining pasayishi, moliya bozorlarida foiz stavkalarning oshishi). Ikkinchidan, O‘zbekiston ichki muhitida DXSh uchun zarur bo‘lgan institutsional islohotlar sekinlashadi yoki to‘liq amalga oshmaydi –jumladan, byurokratik rasmiyatchilikni qisqartirish, tender jarayonlarini soddalashtirish rejalari sust ijro etiladi. Uchinchi omil – fiskal cheklovlar: davlat DXSh loyihalari bo‘yicha ortib borayotgan majburiyatlardan xavfsirab, ularning hajmini qat’iy nazorat qilishni boshlaydi.

2. Bazaviy ssenariy. Ilmiy tadqiqotlarga asoslanib ta’kidlash mumkinki, bazaviy ssenariy eng realistik va kutilayotgan vaziyat deb yondashiladi. Bazaviy ssenariy quyidagi farazlarga asoslanadi: makroiqtisodiy sharoit barqaror va mo‘tadil o‘sishda davom etadi (yillik YaIM o‘sishi ~5-6% atrofida, inflyatsiya pasayib boradi, milliy valyuta nisbatan barqaror), hukumat DXSh bo‘yicha siyosatini izchil davom ettiradi va institutsional islohotlarni to‘la amalga oshiradi (jumladan, DXSh loyihalari uchun ajratilgan budjet majburiyatlarini o‘z vaqtida moliyalashtiradi, zarur huquqiy-hujjatlarni qabul qiladi, “DXSh loyihalari markazi” samarali faoliyat yuritadi). Xorijiy investorlar uchun O‘zbekiston bozori jozibadorligi oshadi – bunga islohotlar, qulay biznes muhiti, investitsiyaviy reytinglarni yaxshilanishi xizmat qiladi. Ushbu ssenariyada, xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, OTB, YeTTB va boshqalar) bilan hamkorlik yuqori darajada bo‘lib, ular DXSh loyihalariga texnik va moliyaviy ko‘makni kengaytiradilar (masalan, kafolatlar, soft kreditlar ajratadilar). Bazaviy ssenariyga ko‘ra, 2030-yilga borib quyidagi asosiy natijalarga erishiladi:

3. Optimistik ssenariy. Optimistik ssenariy DXSh rivojlanishining eng qulay va eng yuqori natijadorlikka ega bo‘lgan yo‘lini ifodalaydi. Bunda bazaviy ssenariyga nisbatan ham yaxshiroq sharoitlar ro‘yobga chiqadi va natijalar rejalashtirilganidan ortiq bajariladi. Optimistik ssenariy uchun asos bo‘luvchi farazlar: jahon iqtisodiyotining farovon rivojlanadi (xalqaro investitsiyalar oqimi yuqori, mintaqaviy barqarorlik yaxshi, kredit resurslari arzon), O‘zbekistonning ichki islohotlari jadallik bilan, hatto rejadan tezroq amalga oshadi, va eng muhimi – xususiy sektor ishtiroki davlat kutganidan ham faol bo‘ladi. Bu ssenariyda hukumat va investorlar o‘rtasida yuqori darajada ishonch va hamkorlik mavjud bo‘lib, DXSh loyihalarining deyarli barchasi muammosiz amalga oshadi. Optimistik ssenariyda 2030-yilgacha DXSh orqali jalb qilingan xususiy investitsiyalar hajmi 30 mlrd. AQSh dollardan sezilarli oshib 40-45 mlrd. AQSh dollargacha yetishi mumkin (bu ssenariy ehtimoli past bo‘lsa-da, istisno qilinmaydi). Yiliga o‘rtacha 5-6 mlrd. AQSh dollari miqdorida DXSh bitimlari tuzilib bu ko‘rsatkich bazaviy ssenariydan qariyb 1,5 baravar yuqori deganidir. Buning uchun albatta yuqori darajadagi investorlar talabi va ko‘plab loyihalar kerak bo‘ladi.

Xulosa

Ssenariy rivojlanish bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida, DXSh munosabatlarni boshqarish samaradorligini ta’minlashda quyidagilarni amalga oshirish kerak deb hisoblaymiz.

DXSh bo‘yicha risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish. DXSh loyihalarining davlat moliyasiga ta’sirini baholaydigan integratsiyalashgan model ishlab chiqish zarur. XVJ tavsiyasiga muvofiq, o‘rta muddatli byudjetda DXSh majburiyatlari aks ettirilib borishi va har bir yangi yirik DXSh bitimi uchun fiskal risk bahosi baholanishi lozim. Baholash uchun Monte-Karlo simulyatsiyasi va stress-test usullaridan foydalanish tavsiya etiladi, chunki ular eng noqulay stsenariylardagi yuklamani (ta’sirlarni) ham ko‘rsatib beradi. Masalan, pulli avtomobil yo‘l loyihasida avtomobil oqimi kutilganidan 30% kam bo‘lsa, davlatga tushadigan majburiyat qancha oshishini oldindan aniqlab, shunga mos zaxira rejasi tuzilishi kerak.

DXSh loyihalarining ustuvorlik va bosqichma-bosqichligini qayta ko‘rib chiqish zarur. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, strategik rejalarda ko‘p yirik loyihalar bir vaqtga to‘g‘ri kelmoqda. Ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun resurslarni (moliyaviy resurs, malaka, vaqt) to‘g‘ri taqsimlash kerak. Shuning uchun, PESTLE tahliliga asoslangan holda qaysi loyihalar qisqa muddatda yuqori ijtimoiy-iqtisodiy samara berishini aniqlab, ustuvorliklar piramidasini tuzish lozim. Masalan, agar elektr tarmoqlarini xususiy sektorga berish qisqa muddatda iqtisodiy samara bersa, ushbu loyihalarni yo‘l

loyihalaridan oldinroq yakunlash afzal bo‘lishi mumkin, chunki elektr ta’minoti yaxshilanishi keyingi loyihalar uchun ham zamin yaratadi. Bunday ustuvorlik tahlilida SWOT yondashuvi ham qulay bo‘lib, O‘zbekistonning kuchli tomonlarini tezroq ishga soladigan (masalan, muayyan sohada mavjud kadr va institutlar) loyihalar avval bajarilib, zaif tomonlarini (masalan, malaka yetishmasligi mumkin bo‘lgan innovatsion yo‘nalishlar, kapital yetishmasligi) talab qiladigan loyihalar keyinroq bosqichda amalga oshirilishi mumkin

DXSh loyihalarini mahalliylashtirish va ichki imkoniyatlarni kengroq jalb qilish. Tadqiqotdan ma’lum bo‘ldiki, DXSh bo‘yicha tuzilgan deyarli barcha yirik bitimlar xorijiy kompaniyalar ishtirokida bo‘lmoqda. Kelgusida bu sohani mahalliy biznes vakillarini ham qo‘shilishi uchun keng imkoniyatlar yaratish lozim. Buning uchun mahalliy moliya institutlarini DXSh loyihalariga sherik qilish, mahalliy pudratchilar uchun kvotalar belgilash (DXSh shartnomalarida mahalliy pudratchilar ulushi % miqdorda bo‘lishi talabini qo‘yish) mumkin. Bu ichki imkoniyatlarni ishga solib, DXShning multiplikativ samarasini oshiradi. Masalan, Veolia issiqlik loyihasida mahalliy energetika kompaniyalari subpudratchi bo‘lib qatnashgani ularning tajribasini oshirdi, kelajakda ular shunga o‘xshash loyihalarni mustaqil ham amalga oshirishlari mumkin. Shuning uchun har bir yirik DXSh loyihasi bo‘yicha mahalliylashtirish rejasi ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Masalan, ACWA Power investitsiya qilayotgan shamol stansiyalari bo‘yicha mahalliy injenerlarni o‘qitish, keyinchalik boshqaruvni qisman mahalliy kadrlarga berish jadvali tuzilishi kerak. Bu davlat uchun uzoq muddatda xususiy hamkor o‘zgarsa ham (masalan, konsessiya muddati tugagach) loyihani davom ettirish uchun kompetensiya saqlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-son “O‘zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

2. Kahamba J.S., Xu X. Implications of non-governmental organizations’ roles in the success of agricultural public-private partnerships: A case study of Tanzania’s Southern Agricultural Growth Corridor Partnership Initiative // World Development Perspectives. - 2026. - Vol. 42.

3. Mostafayi Darmian S., Tavana M., Ribeiro-Navarrete S. An investment evaluation and incentive allocation model for public-private partnerships in renewable energy development projects // Socio-Economic Planning Sciences. - 2024. - Vol. 95. - Article 101953.

4. Yu J., Ying L., Yang J. Government procurement and private firm vitality//International Review of Financial Analysis. - 2026. - Vol. 117.

5. Fleta-Asín J., Muñoz F. When Bigger Is Better: Investment Volume Drivers in Infrastructure Public-Private Partnership Projects//Socio-Economic Planning Sciences. - 2023. - Vol. 86.

6. Варнавский В.Г. Государственно-частное партнерство: некоторые вопросы теории и практики//Мировая экономика и международные отношения. - 2011. - № 9. - С. 41-50.

7. Ефимов В.С. Государственно-частное партнерство: проблемы во взаимоотношениях государства и бизнеса//Интернет-журнал «Науковедение». - 2015. - Т. 7. - № 5.

8. Афанасьева Н.В., Орлов П.Е. Государственно-частное партнерство в Российской Федерации на современном этапе: тенденции и проблемы развития // Экономика и управление. - 2023. - Т. 29. - № 11. - С. 1333-1348.

9. Tursunov I., Hamroyev G. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarning samaradorligini oshirish//Green economy and development. – 2025-Vol. 3. - No. 8.

10. Qodirov J.Sh. Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan tarmoqlar faoliyatida ilg‘or xorijiy tajribalar tahlili // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (Economics and Innovative Technologies). - 2025. - T. 13. - № 5. - B. 58-66.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

КОНСОЛИДАЦИЯЛАШГАН МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРНИ ТУЗИШ: ТАМОЙИЛЛАР, УСУЛЛАР ВА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР

Умарова Зумрад Низомиддин қизи
илмий тадқиқотчи
Тошкент Кимё Халқаро Университети
E-mail:zumrad.umarova.n@gmail.com
ORCID: 0000-0003-3068-5779

Аннотация. *Мақолада консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузишнинг асосий тамойиллари, усуллари ва замонавий ёндашувлари назарий ҳамда амалий жиҳатдан таҳлил қилинган. Консолидациялашган молиявий ҳисобот корпоратив гуруҳни ягона иқтисодий субъект сифатида акс эттирувчи ахборот тизими сифатида ёритилган. Тадқиқотда консолидация периметрини белгилаш, ҳисоб сиёсатларини мувофиқлаштириш, гуруҳ ичидаги операция ва қолдиқларни бартараф этиш, гудвилл ҳамда назорат қилинмайдиган улушни ҳисоблаш масалалари тизимли кўриб чиқилган. Шунингдек, тўлиқ консолидация, пропорционал консолидация ва улушли қатнашиш усулларининг мазмуни очиб берилган. Эмпирик қисмда АЖ “Ўзбекнефтгаз” ва АЖ “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” нинг 2024 йилги консолидациялашган молиявий ҳисоботлари таҳлил қилиниб, амалиётга оид хулосалар шакллантирилган. Тадқиқот натижалари Ўзбекистонда МҲХСга мувофиқ консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тайёрлаш амалиётини такомиллаштиришга хизмат қилади.*

Калит сўзлар: *консолидациялашган молиявий ҳисобот, корпоратив гуруҳ, ягона иқтисодий субъект, МҲХС (IFRS) 10, назорат, тўлиқ консолидация, улушли қатнашиш усули, гудвилл, назорат қилинмайдиган улуш, рақамли консолидация.*

КОНСОЛИДИРОВАННАЯ ФИНАНСОВАЯ ОТЧЁТНОСТЬ: ПРИНЦИПЫ, МЕТОДЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ

Умарова Зумрад Низомиддин кизи
научный исследователь
Ташкентский Международный Университет Кимё
E-mail: zumrad.umarova.n@gmail.com
ORCID: 0000-0003-3068-5779

Аннотация. *В статье с теоретической и практической точек зрения проанализированы основные принципы, методы и современные подходы к составлению консолидированной финансовой отчётности. Консолидированная финансовая отчётность рассматривается как информационная система, отражающая корпоративную группу в качестве единого экономического субъекта. В исследовании системно рассмотрены вопросы определения периметра консолидации, унификации учётной политики, исключения внутригрупповых операций и остатков, а также расчёта гудвилла и неконтролирующей доли участия. Кроме того, раскрыто содержание методов полной консолидации, пропорциональной консолидации и метода долевого участия. В эмпирической части исследования проанализированы консолидированные финансовые отчёты АО «Узбекнефтегаз» и АО «Национальные электрические сети Узбекистана» за 2024 год, на основе чего сформулированы практические выводы. Результаты исследования направлены на совершенствование практики подготовки консолидированной финансовой отчётности в Республике Узбекистан в соответствии с Международными стандартами финансовой отчётности (МСФО).*

Ключевые слова: *консолидированная финансовая отчётность, корпоративная группа, единый экономический субъект, МСФО (IFRS) 10, контроль, полная консолидация,*

метод долевого участия, гудвилл, неконтролирующая доля участия, цифровая консолидация.

CONSOLIDATED FINANCIAL STATEMENTS: PRINCIPLES, METHODS, AND MODERN APPROACHES

Umarova Zumrad Nizomiddin kizi

Researcher
Kimyo International University in Tashkent
E-mail: zumrad.umarova.n@gmail.com
ORCID: 0000-0003-3068-5779

Abstract. *This article provides a theoretical and practical analysis of the fundamental principles, methods, and modern approaches to the preparation of consolidated financial statements. Consolidated financial statements are considered an information system that presents a corporate group as a single economic entity. The study systematically examines key issues, including the determination of the consolidation perimeter, the harmonization of accounting policies, the elimination of intra-group transactions and balances, and the recognition and measurement of goodwill and non-controlling interests. Furthermore, the paper explains the essence of the full consolidation method, the proportional consolidation method, and the equity method. The empirical part of the study analyzes the 2024 consolidated financial statements of JSC "Uzbekneftegaz" and JSC "National Electric Networks of Uzbekistan," based on which practical conclusions are drawn. The findings of the research contribute to improving the practice of preparing consolidated financial statements in Uzbekistan in accordance with International Financial Reporting Standards (IFRS).*

Keywords: *consolidated financial statements, corporate group, single economic entity, IFRS 10, control, full consolidation, equity method, goodwill, non-controlling interests, digital consolidation.*

Кириш

Жаҳон иқтисодиётида бизнеснинг тобора корпоративлашуви, капитал бозорларининг глобаллашуви ва инвестиция муносабатларининг мураккаблашуви натижасида иқтисодий фаолият кўп ҳолларда алоҳида юридик шахс доирасида эмас, балки гуруҳ шаклида амалга оширилмоқда. Йирик бизнес тузилмалари, давлат иштирокидаги холдинглар, трансмиллий компаниялар ва инвестиция платформалари кўп сонли шўъба корхоналар, ассоциациялашган субъектлар, биргаликдаги корхоналар ва махсус мақсадли тузилмалар орқали фаолият юритади. Бундай шароитда алоҳида молиявий ҳисоботлар гуруҳнинг умумий молиявий ҳолати, рисклари ва фаолият натижалари тўғрисида тўлиқ тасаввур беролмайди.

Шу сабабли консолидациялашган молиявий ҳисоботлар корпоратив гуруҳнинг иқтисодий воқелигини “ягона иқтисодий субъект” нуқтаи назаридан ифодаловчи асосий ахборот воситасига айланди. Бу ҳисоботлар орқали гуруҳ активлари, мажбуриятлари, капитал тузилмаси, даромад ва харажатлари, ликвидлик салоҳияти, ташқи рискларга сезгирлиги ҳамда бизнес бирлашишлари натижалари тўғрисида умумлашган ва иқтисодий мазмунга мос ахборот тақдим этилади. Демак, консолидациялаш фақат ҳисоботларни жамлаш эмас, балки иқтисодий муносабатларни қайта ифодалашнинг махсус услубий механизми ҳисобланади.

МҲХС тизимида консолидациялашган ҳисоботларга доир замонавий ёндашув МҲХС (IFRS) 10 “Консолидациялашган молиявий ҳисобот”, МҲХС (IFRS) 12 “Бошқа субъектлардаги манфаатлар тўғрисидаги изоҳлар”, МҲХС (IFRS) 3 “Бизнес бирлашиши”, МҲХС (IAS) 21 “Хорижий валюта курслари ўзгаришининг таъсири”, МҲХС (IAS) 28 “Ассоциациялашган ва қўшма корхоналарга инвестициялар” каби стандартлар орқали шаклланган. Ушбу стандартларда консолидация периметрини белгилашда асосий мезон

бўлиб мулкдорлик улуши эмас, балки назорат тушунчаси муҳим аҳамият касб этади. Бу эса консолидациялаш масаласини формал эгаликдан кўра иқтисодий мазмун нуқтаи назаридан таҳлил қилишни талаб қилади.

Ўзбекистонда МҲХСга босқичма-босқич ўтиш, давлат иштирокидаги активларни трансформация қилиш, хусусийлаштириш жараёнларининг кенгайиши ва халқаро молия институтлари билан ҳамкорликнинг кучайиши консолидациялашган молиявий ҳисоботларнинг аҳамиятини янада оширди. Шу шароитда КМҲни тузиш услубиётини чуқур ўрганиш ва миллий амалиётга мослаштириш долзарб илмий-амалий вазифа ҳисобланади.

Мазкур мақоланинг мақсади консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузишнинг асосий тамойиллари, усуллари ва замонавий ёндашувларини тизимли таҳлил қилиш, уларнинг иқтисодий мазмунини очиб бериш ҳамда Ўзбекистон амалиёти мисолида эмпирик хулосалар шакллантиришдан иборат.

Адабиётлар шарҳи

Консолидациялашган молиявий ҳисоботлар бухгалтерия ҳисоби назарияси ва корпоратив молиявий ахборот тизимининг муҳим тадқиқот йўналишларидан бири ҳисобланади. Илмий адабиётларда консолидациялашган ҳисоботнинг моҳияти, гуруҳ субъекти тушунчаси, назорат мезонлари, капитал тузилмаси, назорат қилинмайдиган улуш ва гудвилл ҳисоби турли назарий мактаблар доирасида таҳлил қилинган.

Хорижий тадқиқотларда консолидациялашган ҳисобот тарихи корпоратив гуруҳлар иқтисодий воқелигини ифодалаш зарурати билан изоҳланади (Childs [1], Walker [2], Grossi [3]). Айрим муаллифлар консолидацияни мулкдорлик назарияси нуқтаи назаридан талқин қилган бўлсалар (Kam [4]), кейинчалик бош корхона назарияси ва субъект назарияси доирасида гуруҳни мустақил ҳисобот субъекти сифатида кўриш тенденцияси кучайган (Schroeder [5]). Ушбу ёндашувлар КМҲда капиталнинг ким нуқтаи назаридан талқин қилиниши, назорат қилинмайдиган улушнинг мақоми ва гудвиллнинг иқтисодий моҳияти ҳақидаги баҳсларга асос бўлган (Riahi-Belkaoui [6], Kucher [7]).

Замонавий халқаро стандартларда, айниқса МҲХС (IFRS) 10да, консолидациялашнинг марказига назорат мезони қўйилган. Бу ёндашув консолидация периметрини белгилашни фақат овоз ҳуқуқлари миқдорига боғлаш етарли эмаслигини, балки де-факто назорат, потенциал ҳуқуқлар, агент-асосий шахс муносабатлари ва структуралаштирилган субъектлар билан боғлиқ омилларни ҳам ҳисобга олиш зарурлигини кўрсатади[8]. Шу боис назорат назарияси КМҲ услубиётининг марказий илмий таянчига айланган.

Бизнес бирлашишлари ва гудвилл ҳисобига оид илмий ишлар эса МҲХС (IFRS) 3 доирасида харид усули, идентификация қилинадиган актив ва мажбуриятларнинг ҳаққоний қиймати, арзон сотиб олишдан олинадиган фойда, гудвиллни қисман ёки тўлиқ тан олиш каби масалаларни ёритади[9]. Бу тадқиқотларда назорат қилинмайдиган улушни баҳолаш усулининг гуруҳ капиталига, қадрсизланишга ва кейинги даврлардаги фойда тақсимотига таъсирига алоҳида эътибор қаратилган (Stolowy [10]).

Маҳаллий адабиётларда консолидациялашган молиявий ҳисоботлар масаласи асосан умумий услубий жиҳатлар (С.С. Насретдинов ва Б.А. Хасанов [11]), бизнес бирлашиши (Н.Б. Хўжабеков [12]), КҲМда гудвилл ва бошқа номоддий активларни акс эттириш (Н.К. Ризаев [13,14]), миллий ва халқаро стандартлар фарқи ҳамда ҳисобот ахборотининг ишончлилигини ошириш нуқтаи назаридан ўрганилган (С.А. Джуманов [15], I. Avazov [16], Х. Хасанова [17], S. Safarov [18]). Бироқ КМҲни тузишнинг тамойиллари, техник босқичлари, гуруҳ ичидаги операцияларни бартараф этиш, замонавий рақамли консолидация муҳити ва консолидацияни бошқарув воситаси сифатида талқин қилиш бўйича комплекс тадқиқотлар ҳали етарли эмаслиги сабабли мазкур мақола айнан шу бўшлиқни қисман тўлдиришга қаратилган.

Тадқиқот методологияси

Тадқиқотда консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузишнинг асосий тамойиллари, усуллари ва замонавий ёндашувларини ўрганишда комплекс илмий ёндашув қўлланилди. Тадқиқотда таҳлил ва синтез, таққослама таҳлил, тизимли-структуравий ёндашув, мантиқий умумлаштириш ҳамда эксперт баҳолаш усулларидан фойдаланилди. Шу билан бирга, консолидациялаш масалалари кўп жиҳатдан профессионал мушоҳадага асосланганлиги сабабли, тадқиқотда сифат таҳлилига устувор аҳамият қаратилди.

Таҳлил ва натижалар

Консолидациялашган молиявий ҳисоботларнинг услубий пойдевори бир қатор фундаментал тамойилларга асосланади. Ушбу тамойиллар КМҲни оддий техник жамлаш жараёнидан фарқли равишда унинг иқтисодий мазмунини белгилайди.

КМҲнинг энг муҳим концептуал асоси гуруҳни ягона иқтисодий субъект сифатида қарашдан иборат. Бош корхона ва унинг шўъба корхоналари юридик жиҳатдан мустақил бўлиши мумкин, аммо иқтисодий нуқтаи назардан улар ягона ресурслар тизими, ягона риск муҳити ва ягона стратегик бошқарув марказига бўйсунувчи тузилмадир. Шу сабабли КМҲда алоҳида корхоналар эмас, балки гуруҳнинг умумий активлари, мажбуриятлари, даромадлари ва харажатлари акс эттирилади.

Замонавий консолидациялаш назарияси ва амалиётининг марказида “назорат” тушунчаси туради. МҲХС (IFRS) 10га мувофиқ назорат учта элемент орқали аниқланади: инвестиция объекти устидан ваколат, ўзгарувчан даромадларга дучорлик ва ушбу даромадларга ваколат орқали таъсир қилиш қобилияти. Ушбу ёндашув консолидациялашни формал мулкдорлик мезонидан иқтисодий мазмунга кўчиради.

Гуруҳ таркибидаги барча корхоналар консолидация мақсадида бир хил ҳисоб сиёсатини қўллаши лозим. Агар амортизация, захираларни баҳолаш, даромадни тан олиш ёки молиявий инструментларни баҳолаш бўйича турли ёндашувлар қўлланилса, консолидациягача тузатиш киритилиши шарт. Худди шунингдек, ҳисобот саналарининг мувофиқлиги ҳам муҳим. Бу талаб КМҲда таққосланувчанлик ва изчилликни таъминлайди.

Гуруҳ ичидаги савдо, қарз, дивиденд, фоиз, роялти ва бошқа ҳисоб-китоблар гуруҳ нуқтаи назаридан ташқи операция ҳисобланмаслиги сабабли улар ўзаро бартараф этилиб, КМҲдан чиқариб ташланади. Бу тамойил, айниқса, реаллашмаган фойдани бартараф этишда муҳим аҳамият касб этади.

КМҲда капитал фақат бош корхона эгалари нуқтаи назаридан эмас, балки ташқи иштирокчилар улуши нуқтаи назаридан ҳам ифодаланади. Шу сабабли назорат қилинмайдиган улуш капиталнинг алоҳида таркибий қисми сифатида кўрсатилади.

Жадвал 1.

Консолидациялашган молиявий ҳисоботни тузишнинг асосий тамойиллари*

Тамойил	Қисқача мазмун	Амалий аҳамияти
Ягона иқтисодий субъект	Гуруҳ ягона иқтисодий бирлик сифатида қаралади	Гуруҳнинг умумий молиявий ҳолати яхлит акс этади
Назоратга асосланган консолидация	Консолидация мулкдорлик улушига эмас, назоратга таянади	Консолидация периметри иқтисодий мазмунга мос равишда белгиланади
Бир хил ҳисоб сиёсати	Гуруҳ компаниялари ягона ҳисоб сиёсатини қўллайди	Таққосланувчанлик ва изчиллик таъминланади
Ҳисобот санасининг мувофиқлиги	Ҳисоботлар бир хил давр учун тайёрланади	Даврий ахборот бузилишининг олди олинади
Ички операцияларни бартараф этиш	Ички савдо, қарз, дивиденд ва фоизлар чиқарилади	Фойда ва активларни сунъий ошириш бартараф этилади
НҚУни алоҳида ифодалаш	Ташқи иштирокчилар улуши алоҳида кўрсатилади	Капитал тузилмаси ҳаққоний акс этади
Қайта таснифлашлар	Моддалар КМҲ мантиғига мувофиқ қайта гуруҳланади	Тақдимот сифати ва тушунарлилик ошади

*Муаллиф томонидан тузилган.

Қайта таснифлашлар тамойили алоҳида корхоналар ҳисоботларидаги моддаларни КМҲ мантиғи, гуруҳ ҳисоб сиёсати ва МҲХС талабларига мос шаклга келтиришни англатади. Бу айниқса миллий стандартлардан МҲХСга ўтишда муҳим аҳамиятга эга.

Консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тайёрлаш мантиқий изчилликка эга бўлган бир неча босқичлардан иборат.

Биринчи босқич — гуруҳ таркибини ва консолидация периметрини аниқлаш. Бу босқичда қайси субъектлар тўлиқ консолидация қилиниши, қайси субъектларга нисбатан улушли қатнашиш усули қўлланилиши ва қайси битимлар биргаликдаги назорат ёки муҳим таъсир доирасига кириши баҳоланади.

Иккинчи босқич — ҳисоб сиёсатларини бир хиллаштириш. Турли шўъба корхоналар қўллайдиган ҳисоб сиёсатлари гуруҳ даражасидаги ягона ёндашувга мослаштирилади ва натижада ягона услубий база яратилади.

Учинчи босқич — ҳисобот саналарини мувофиқлаштириш. Агар ҳисобот саналар ўртасида фарқ бўлса, муҳим операциялар бўйича тузатишлар киритилиб, натижада бир хил ҳисобот даври таъминланади.

Тўртинчи босқич — валютани қайта ҳисоблаш. Хорижий шўъба корхоналар ҳисоботи гуруҳ КМҲнинг тақдимот валютасига ўгирилиб маълумотлар ягона валютага келтирилади.

Бешинчи босқич — сатрма-сатр бирлаштириш. Шўъба корхоналар активлари, мажбуриятлари, даромад ва харажатлари жамланади ва натижада бошланғич консолидациялашган кўрсаткичлар шаклланади.

Олтинчи босқич — ички операциялар ва қолдиқларни бартараф этиш. Ички дебиторлик ва кредиторлик қарзлари, савдо, дивидендлар, фоизлар ва реаллашмаган фойда ҚМҲдан чиқариб ташланади. Бу эса ўз навбатида гуруҳнинг ҳақиқий ташқи натижалари акс эттирилишига олиб келади.

Еттинчи босқич — гудвилл ва назорат қилинмайдиган улушни ҳисоблаш капитал ва активлар тузилмаси аниқлашга ёрдам беради.

Саккизинчи босқич — назорат сақланган ёки йўқотилган ҳолатларда тегишли капитал тузатишларини амалга ошириш капитал, ҳамда фойда ва зарар тўғри ифодаланишига олиб келади.

Тўққизинчи босқич — изоҳ ва ёритишларни тайёрлаш, яъни рисклар, ковенантлар, мушоҳадалар, таркибий тузилмаларни ёритиш, ўз навбатида ҳисобот шаффофлигини ошишига олиб келади.

Кейинги навбатдаги тадқиқотимиз мавзуси консолидациялаш усулларига бағишланиб, улар инвестиция объектининг ҳуқуқий ва иқтисодий мақомига қараб танланади.

Тўлиқ консолидация усули шўъба корхоналар учун қўлланилиб, бунда активлар, мажбуриятлар, даромад ва харажатлар 100% жамланади ва назорат қилинмайдиган улуш капитал ва мажбуриятлардан алоҳида кўрсатилади. Ушбу усулнинг афзаллиги гуруҳ молиявий ҳолати, фаолият натижалари ва пул оқимларини тўлиқ акс эттиради, лекин уни қўллашнинг техник жиҳатдан мураккаблиги муҳим чекловчи омил ҳисобланади.

Пропорционал консолидация усули тарихан биргаликдаги фаолият ва қўшма корхоналарга нисбатан қўлланилган. Замонавий МҲХСда ушбу усулнинг қўлланиш доираси чекланган бўлиб, айрим биргаликдаги фаолият ҳолатларида мазмунан намоён бўлади ва афзаллиги биргаликдаги манфаатни аниқ акс эттиради.

Улушли қатнашиш усули ассоциациялашган корхоналар ва айрим қўшма корхоналар учун қўлланилади. Ушбу усулда ҳисоб юритиш нисбатан соддароқ ҳисобланиб, инвестиция ягона модда сифатида тан олинади ва унинг қиймати инвесторнинг соф активлардаги улушига мутаносиб равишда ўзгариб боради. Аммо ҳисоботда, консолидация қилинаётган корхоналар актив ва мажбуриятлар таркибининг ёритилмаслиги чекловчи омил ҳисобланади.

Алоҳида молиявий ҳисоботлар даражасида инвестицияларни ҳисобга олишда харид қиймати ва ҳаққоний қиймат усули қўлланилиши мумкин. Харид қиймати усулининг қўлланилиши содда ва амалий ҳисоблансада, мазкур усулни қўллашда харид санасидан кейинги иқтисодий ўзгаришлар тўлиқ акс этмайди. Ҳаққоний қиймат усули инвестицияларнинг жорий бозор баҳосини аск эттирсада, бундай ҳолатда субъективлик даражаси юқори бўлиши мумкин.

КМҲни тузиш услубиётида гудвилл ва назорат қилинмайдиган улушни (кейинги ўринларда “НҚУ” деб хам аталиши мумкин) ҳисобга олиш мураккаб ва аҳамиятга молик соҳалардан бири ҳисобланади. Гудвилл бизнес бирлашиши натижасида тўланган компенсация қиймати, назорат қилинмайдиган улуш баҳоси ва аввалги улушнинг ҳаққоний қиймати йиғиндиси билан идентификация қилинадиган соф активлар ҳаққоний қиймати ўртасидаги ижобий фарқ сифатида тан олинади. У синергия, бренд капитали, ноу-хау, мизожлар ва шартномалар базаси ва бошқа алоҳида идентификация қилинмайдиган иқтисодий афзалликларни акс эттиради.

Назорат қилинмайдиган улуш (кейинги ўринларда –“НҚУ”) эса шўъба корхона капиталида бош корхонага тегишли бўлмаган улушни англатади. У КМҲда капиталда алоҳида модда сифатида кўрсатилади, ҳамда фойда ёки зарарнинг тегишли қисми НҚУга тақсимланади.

НҚУни баҳолашда икки асосий ёндашув мавжуд: ҳаққоний қиймат усули ва соф активлардаги пропорционал улуш усули. НҚУни тан олиш усули гудвилл миқдори ва кейинги ҳисобга олиш натижаларига бевосита таъсир қилади. Агар НҚУ соф активлардаги пропорционал улуш бўйича баҳоланса, фақат бош корхона улушига тегишли қисман гудвилл тан олинади. Агар у ҳаққоний қийматда баҳоланса, тўлиқ гудвилл шаклланади. Шу сабабли ҳаққоний қиймат усулида балансдаги активлар, капитал ва эҳтимолий қадрсизланиш суммаси одатда юқорироқ бўлади.

Ушбу танлов кейинчалик назорат қилинмайдиган улушни сотиб олиш операциясига ҳам таъсир қилади. Пропорционал улуш усулида бундай сотиб олиш бош корхона капиталига нисбатан кучлироқ таъсир кўрсатиши мумкин, ҳаққоний қиймат усулида эса бу таъсир нисбатан камрок бўлади. Ахборот мазмуни нуқтаи назаридан, пропорционал улуш усули эҳтиёткорроқ ёндашувни ифодаласа, ҳаққоний қиймат усули гуруҳнинг иқтисодий қийматини кенгроқ акс эттиради. Қуйидаги муаллифлик жадвалида гудвилл ва назорат қилинмайдиган улушни баҳолаш бўйича ушб икки ёндашувнинг қиёсий таҳлили келтирилган.

Жадвал 2.

Гудвилл ва назорат қилинмайдиган улушни баҳолашга ёндашувларнинг қиёсий таҳлили*

Кўрсаткич	Пропорционал улуш усули	Ҳаққоний қиймат усули
Назорат қилинмайдига улуш баҳоси	Соф активлардаги улуш бўйича	Бозор баҳосига яқин ҳаққоний қийматда
Гудвилл тури	Қисман гудвилл	Тўлиқ гудвилл
Балансдаги активлар	Нисбатан пастроқ	Нисбатан юқорироқ
Капитал ҳажми	Нисбатан пастроқ	Нисбатан юқорироқ
Кейинги қадрсизланиш суммаси	Одатда камроқ	Одатда юқорироқ
Назорат қилинмайдига улушни кейинчалик сотиб олишга таъсири	Бош корхона капитали кўпроқ камайиши мумкин	Бош корхона капиталига таъсири нисбатан камроқ
Ахборот мазмуни	Эҳтиёткорроқ ёндашув	Иқтисодий қийматни кенгроқ акс эттиради

*Муаллиф томонидан тузилган.

Гуруҳ ичидаги операцияларни бартараф этиш КМҲнинг муҳим техник ва иқтисодий босқичларидан бири ҳисобланади. Бартараф этиладиган асосий операциялар

сирасига қуйидагилар киради:

- ички дебиторлик ва кредиторлик қарзлар;
- гуруҳ ичидаги савдо операциялари ва хизматлар;
- фоизлар, роялти ва бошқарув ҳақлари;
- ички дивидендлар;
- товар моддий захиралари ва асосий воситалар таркибидаги реаллашмаган фойда.

Агар мазкур операциялар ўзаро бартараф этилиб чиқариб ташланмаса, гуруҳ балансида қарзлар икки марта, фойда эса сунъий равишда юқори даражада акс этади. Шу маънода ўзаро бартараф этиш жараёни КМҲда ташқи иқтисодий воқеликни ички операциялардан тозалаш вазифасини бажаради.

КМҲ нафақат ўтмиш натижаларини, балки гуруҳнинг рисклари, ковенант ва чекловлари ва келгуси молиявий барқарорлиги ҳақидаги ахборотни ҳам ифодалаши лозим. Шу нуқтаи назардан банк кредитлари бўйича ковенантлар, лизинглар, кафолатлар, эҳтимолий мажбуриятлар, суд ишлари ва балансдан ташқари тузилмалар муҳим аҳамият касб этади. Шу нуқтаи назардан, профессионал мушоҳада қўлланиладиган асосий соҳалар қуйидагилар ҳисобланади:

- де-факто назоратни баҳолаш;
- структуралаштирилган субъектларни консолидация қилиш;
- гудвилл қадрсизланишини баҳолаш;
- балансдан ташқари тузилмалар таъсирини ҳисобга олиш;
- ковенантлар бузилиши эҳтимолини очиб бериш.

Сўнгги йилларда юртимизда консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тайёрлаш жараёни рақамли трансформация таъсирида жиддий ўзгармоқда. Йирик корпоратив гуруҳлар қўлда консолидациялашдан автоматлаштирилган платформаларга, яъни Oracle, SAP платформаларига ўтмоқда.

Шу каби ERP қўлланилган муҳитида бухгалтерия, активлар, қарзлар, шартномалар ва операциялар ҳақидаги маълумотлар ягона манбада сақланади. Консолидация модуллари сатрма-сатр бирлаштириш, тақдимот валютасига ўгириш, бартараф этувчи ёзувлар ва ҳисобот пакетларини тайёрлашни автоматлаштиради.

Ягона маълумот манбаи тамойили гуруҳда бир хил маълумотнинг турли файл ва тизимларда турлича версияда сақланишини чеклайди. Деярли ҳақиқий вақт режимида шакллантириладиган консолидациялашган ҳисоботлар бошқарув қарорлари, муқобил сценарийлар ва ковенант мониторинги учун муҳим аҳамият касб этади. Аудит изи эса ҳар бир тузатиш, қайта таснифлаш ва ўзаро бартараф этиш (элиминация) операцияси бўйича ўзгаришлар тарихини сақлаб, текширувчанлик ва шаффофликни кучайтиради.

Юқоридагилардан хулоса қилиш мумкинки, Ўзбекистонда МҲХСга ўтиш ва йирик корпоратив гуруҳлар сонининг ўсиши консолидация жараёнини рақамлаштиришни стратегик заруратга айлантирмоқда.

Тадқиқотимиз жараёнида назарий тамойилларнинг амалиётдаги ифодасини баҳолаш мақсадида Ўзбекистоннинг икки йирик давлат иштирокидаги корпоратив гуруҳи - “Ўзбекнефтгаз” АЖ ва “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖ нинг 2024 йилги консолидациялашган молиявий ҳисоботлари таҳлил қилинди[2],[3].

“Ўзбекнефтгаз” АЖ ҳисоботида гуруҳ таркибида 100% назорат остидаги шўъба корхоналар билан бирга нисбатан кам фоизли улушли субъектлар, хусусан, “Asia Trans Gas” МЧЖ ҚК (50%), “Узтрансгаз” АЖ (46,8%), “Uz-Kor Gas Chemical” МЧЖ ҚК (50%), “ArkChemical” МЧЖ (40%) улушлар билан КМҲда шўъба корхона сифатида акс эттирилганлиги қайд этилган. Бу ҳолат амалиётда гуруҳ таркиби доимо “100% шўъба корхоналар йиғиндиси” эмаслигини, балки турли даражадаги назорат, биргаликдаги

[2] https://webdev.ung.uz/media/allfiles/files/dabe8e4649ed4e6ca3b0f2471e470be4.pdf
[3] https://www.uzbekistonmet.uz/en/lists/view/6724

назорат ва муҳим таъсир мавжуд бўлишини кўрсатади. Шунингдек, “Узтрансгаз” АЖнинг 46,8% улушини харид қилиш ва уни улушли қатнашиш усули бўйича ҳисобга олиш муҳим аудит масаласи сифатида ажратилган. Бу эса ҳисоб усулини танлашда формал улуш эмас, иқтисодий мазмун ва назорат даражаси ҳал қилувчи аҳамиятга эга эканини тасдиқлайди.

“Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖ ҳисоботида эса гуруҳда 100% улушли “Магистрал электр тармоқлари инжиниринг” МЧЖ шўъба корхонаси мавжудлиги, консолидация МҲХС асосида тайёрлангани, назорат МҲХС (IFRS) 10 стандартининг уч элементли модели асосида баҳоланиши, ички операциялар тўлиқ бартараф этилиши ва назорат қилинмайдиган улуш капитал таркибида ифодаланиши аниқ баён этилган.

Эмпирик таҳлил шуни кўрсатдики, консолидациялашган ҳисоботни тузишда қуйидаги масалалар энг муҳим аҳамият касб этади: консолидация периметрини тўғри белгилаш, консолидациялашнинг тўғри усулни танлаш, ички операцияларни бартараф этиш, гудвилл ва НҚУни тўғри баҳолаш, рисклар ва ёритишлар сифатини таъминлаш, шунингдек рақамлаштириш ва автоматлаштиришдан самарали фойдаланиш.

Иккала гуруҳда ҳам ички операциялар, боғлиқ томонлар ва ўзаро бартараф этиш (элиминация) операцияларининг амалий аҳамияти муҳим ҳисобланади. Жумладан, “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖ ҳисоботида боғлиқ томонлар билан операциялар ҳажми жуда катта экани қайд этилган. Хусусан, боғлиқ томонларга нисбатан дебиторлик қарзи 1 104 323 млн сўм, улар бўйича кутилаётган зарарлар захираси 334 845 млн сўм, боғлиқ томонлардан даромад 27 636 823 млн сўм, сотиш таннархи 22 733 946 млн сўмни ташкил этган. Бу рақамлар гуруҳ ташқи бозор субъектларига нисбатан эмас, балки кўпроқ юқори даражада боғлиқ бўлган давлат субъектлари билан фаолият юритишини кўрсатади. Демак, ўзаро бартараф этиш (элиминация) механизми бундай ҳолатларда КМҲ сифати учун ҳал қилувчи аҳамиятга эга.

“Ўзбекнефтгаз” АЖ мисолида ҳам гуруҳ таркибининг вертикал интеграциялашгани, ички операциялар, трансферт нархлар, ички қарздорлик ва таъминот занжири операцияларини бартараф этиш масаласи катта аҳамиятга эга эканини англатади. Ушбу икки тадқиқот объектларида консолидация периметри ва усулини танлашнинг амалий кўриниши, ҳамда ички операциялар ва боғлиқ томонлар билан муносабатларнинг консолидация сифатига таъсири қуйидаги муаллифлик жадвалларида умумлаштирилган.

Жадвал 3.

Тадқиқот объектларида консолидация периметри ва усулини танлашнинг амалий кўриниши*

Кўрсаткич	АЖ “Ўзбекнефтгаз”	АЖ “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари”	Илмий-амалий хулоса
Бош корхона табиати	Давлат иштирокидаги йирик нефтгаз гуруҳи	Давлат иштирокидаги миллий электр тармоқ оператори	Ҳар икки ҳолатда КМҲ корпоратив гуруҳнинг иқтисодий мазмунини очиш воситасидир
100% назорат остидаги субъектлар	Бухоро НПЗ, Шўртан ГХК, Uzbekistan GTL ва бошқалар	“Магистрал электр тармоқлари инжиниринг” МЧЖ	Тўлиқ консолидация шўъба корхоналар учун асосий усул
50% ва унга яқин улушлар	Asia Trans Gas – 50%; Uz-Kor Gas Chemical – 50%; Uztransgaz – 46,8%; ArkChemical – 40%	Битта 100% шўъба корхона	Формал улуш эмас, назорат/муҳим таъсир мезони ҳал қилувчи аҳамиятга эга
Улушли қатнашиш усули	“Узтрансгаз” бўйича муҳим аудит масаласи	Ассоциациялашган инвестициялар мавжуд эмас	Консолидациялаш усулини танлашда хатолик бўлса, актив ва натижалар нотўғри ифодаланади

**АЖ “Ўзбекнефтгаз” ва АЖ “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари”нинг 2024 йил учун тузилган*

консолидациялашган молиявий ҳисоботлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Жадвал 4.

Ички операциялар ва боғлиқ томонлар билан муносабатларнинг консолидация сифатига таъсири*

Мезон	АЖ “Ўзбекнефтгаз”	АЖ “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари”	КМҲ учун аҳамияти
Гуруҳ таркибининг мураккаблиги	100% шўъбалар ва 50%/46,8%/40% улушли компаниялар	Битта 100% шўъба, лекин боғлиқ субъектлар билан ҳажмли ва йирик операциялар	Ўзаро бартараф этиш (элиминация) ва ёритиш жараёни мураккаблашади
Ички/боғлиқ томон операцияларни ўзаро бартараф этмаслик (нотўғри ҳисобга олиш) хавфи	Юқори, чунки тармоқ вертикал интеграциялашган	Жуда юқори: 2024 йилги даромаднинг асосий қисми боғлиқ томонлар ҳиссасига тўғри келади	Формал эмас, мазмунан бартараф этиш талаб этилади
Дебиторлик қарзи ва улар бўйича кутилаётган зарарлар (ECL) заҳирасига таъсири	Амалда катта аҳамиятга эга бўлиши мумкин	Боғлиқ томонлар билан дебиторлик қарзи 1 104 323 млн сўм, ECL 334 845 млн сўмни ташкил этади	Кредит риски ва ички ҳисоб-китоблар ўзаро боғлиқ
Фойдага таъсир	Нотўғри элиминация қилинса фойда сунъий равишда ошиши мумкин	Боғлиқ томонлардан даромад ва таннарх ҳажми юқори	Ягона иқтисодий субъект тамойилининг амалдаги синов нуқтаси

*АЖ “Ўзбекнефтгаз” ва АЖ “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари”нинг 2024 йил учун тузилган консолидациялашган молиявий ҳисоботлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

АЖ “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” ҳисоботида 2024 йилда электр энергиясини сотиш ва харид қилиш фаолиятининг бир қисми Uzenergosotish АЖга ўтказилгани ва актив ҳамда мажбуриятлар бўйича 10 555 065 млн сўмлик манфий фарқ тақсимланмаган фойда моддасида акциядор билан операция сифатида акс эттирилгани қайд этилган. Бу ҳолат барча капитал ўзгаришлари фойда ёки зарар орқали эмас, айрим ҳолларда тўғридан-тўғри капитал орқали ҳам ифодаланишини кўрсатади.

Шунингдек, ҳисоботда акциядорларга тақсимлаш мақсадида сақланаётган (held for distribution to shareholders) активлар ва улар билан боғлиқ мажбуриятлар, шунингдек, активлардан фойдаланиш ҳуқуқи (right-of-use assets) ҳамда ижара мажбуриятларининг салмоқли ҳажмда акс эттирилганлиги кузатилади. Бу эса замонавий консолидациялаш амалиёти анъанавий равишда шўъба корхоналарнинг молиявий кўрсаткичларини бирлаштириш билан чекланиб қолмасдан, балки МҲХС талабларига мувофиқ узоқ муддатли шартномалар, ижара муносабатлари, активларни қайта таснифлаш, давлат томонидан амалга оширилаётган таркибий ислоҳотлар ҳамда корпоратив қайта ташкил этиш жараёнларини ҳам комплекс равишда қамраб олишини кўрсатади. Бу эса консолидациялаш жараёнининг мазмун-моҳияти янада мураккаблашиб, ҳисоботнинг ҳаққонийлиги ва ахборот қийматини таъминлашда янги ёндашувларни талаб этаётганини англатади.

Қуйидаги муаллифлик жадвалида “Ўзбекистон миллий элект тармоқлари” АЖ

КМҲ консолидациялашан молиявий ҳисоботлари кўрсаткичлари таҳлили умумлаштирилган

Жадвал 5.

“Ўзбекистон миллий элект тармоқлари” АЖ КМҲ кўрсаткичлари таҳлили*

Кўрсаткич	**2024 йил**	**2023 йил**	**Таҳлилий изоҳ**
Жами активлар	79 968 599 млн сўм	68 412 776 млн сўм	Гуруҳ кўлами ортган
Жами капитал	(1 413 577) млн сўм	(13 293 128) млн сўм	Манфий капитал сақланиб қолган, лекин яхшиланиш кузатилган
Йиллик соф фойда/(зарар)	1 150 251 млн сўм	(9 167 323) млн сўм	Операцион тикланиш кузатилган
Активлардан фойдаланиш ҳуқуқи	64 855 009 млн сўм	54 464 562 млн сўм	Узоқ муддатли шартномаларда МҲҲС (IFRS) 16 “Ижара ҳисоби” таъсири юқори
Ижара мажбуриятлари	74 302 173 млн сўм	61 609 661 млн сўм	Ижара мажбуриятлари ҳажми юқори
Тақсимлаш учун сақланаётган соф мажбуриятлар	9 447 164 млн сўм	–	Реструктуризациянинг консолидацияга таъсири
Боғлиқ томонлардан дебиторлик қарзлар	1 104 323 млн сўм	6 721 168 млн сўм	Ички ҳисоб-китоблар структураси ўзгарган
Дебиторлик қарзлари бўйича кутилаётган зарарлар (ECL) бўйича заҳиларлар	343 578 млн сўм	3 561 017 млн сўм	Кредит риск бошқарувида сезиларли ижобий ўзгариш

*АЖ “Ўзбекнефтгаз” ва АЖ “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари”нинг 2024 йил учун тузилган консолидациялашган молиявий ҳисоботлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Эмпирик таҳлил натижалари шуни кўрсатдики, гуруҳ таркибини белгилашда юридик шаклдан кўра иқтисодий мазмун устувор аҳамиятга эга. Айниқса, 50% ва унга яқин улушларда консолидация усулини танлаш юқори даражада профессионал мушоҳадани талаб қилади. Боғлиқ томонлар билан операциялар салмоғи юқори бўлган гуруҳларда ўзаро бартараф этиш (элиминация) механизмининг сифатли йўлга қўйилиши ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Шунингдек, реструктуризация, тақсимлаш учун сақланаётган актив ва мажбуриятлар, узоқ муддатли шартномалардаги лизинг компонентлари каби операциялар консолидация жараёнини мураккаблаштиради, рисклар ва капиталга оид ёритишлар эса ҳисоботнинг ахборот қийматини оширади.

Хулоса

Мақолада консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузишнинг асосий тамойиллари, усуллари ва замонавий ёндашувлари назарий ҳамда амалий жиҳатдан таҳлил қилинди. Тадқиқот натижалари консолидациялашган молиявий ҳисобот корпоратив гуруҳни ягона иқтисодий субъект сифатида ифодаловчи комплекс ахборот тизими эканини кўрсатди. Консолидация жараёни изчил алгоритм асосида ташкил этилиши, ҳисоб усуллари эса инвестиция объектларининг иқтисодий табиатига мос равишда танланиши лозим. Гудвилл, назорат қилинмайдиган улуш ва гуруҳ ичидаги операцияларни бартараф этиш масалалари консолидациялаш жараённинг энг мураккаб ва

таъсирчан соҳалари ҳисобланади. Бугунги рақамлаштириш ва автоматлаштириш шароитида консолидациялаш бухгалтерия амалиётидан корпоратив бошқарувнинг стратегик воситасига айланмоқда. Мос ҳолда Ўзбекистонда ушбу соҳани ривожлантириш учун МҲХСга мос услубий ёндашувларни чуқурлаштириш, кадрлар салоҳиятини ошириш ва рақамли консолидация инфратузилмасини ривожлантириш зарур ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Childs, W.H. Consolidated Financial Statements: Principles and Procedures. - Ithaca, NY: Cornell University Press, 1949. - 367 p.

2. Walker, R.G. International Accounting Compromises: The Case of Consolidation Accounting // Abacus. - 1978. - Vol. 14. - № 2. - P. 97-111. - DOI: 10.1111/j.1467-6281.1978.tb00060.x

3. Grossi, G. New development: Consolidated financial reporting as a stimulus for change in Italian local government // Public Money & Management. - 2009. - Vol. 29. - № 4. - P. 261–264. – DOI

4. Kam, V. Accounting Theory. - 2-нашр. - New York: John Wiley & Sons, 1990. - 608 б. - ISBN 978-0-471-50704-8.

5. Schroeder, R. G.; Clark, M. W.; Cathey, J. M. Financial Accounting Theory and Analysis: Text and Cases. - 9-нашр. - Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, 2009. - 630 б. - ISBN 978-0-47012-881-7.

6. Riahi-Belkaoui, A. Accounting Theory. - London: Thomson, 2004. - 598 б. - ISBN 978-1-84480-029-2.

7. Kucher, S.V. Features of consolidated financial statements: foreign experience // Проблеми теорії та методології бухгалтерського обліку, контролю і аналізу. - 2016. - Вип. 2–3 (35). - P. 185–194. - ISSN 1994-1749.

8. IFRS Foundation. International Financial Reporting Standard 10: Consolidated Financial Statements (IFRS 10). — London: IFRS Foundation, 2021. — [Электронный ресурс]. (дата обращения: 11.01.2026) (https://www.ifrs.org/content/dam/ifrs/publications/pdf-standards/english/2021/issued/part-a/ifrs-10-consolidated-financial-statements.pdf).

9. IFRS Foundation. International Financial Reporting Standard 3: Business combination (IFRS 3). — London: IFRS Foundation, 2021. — [Электронный ресурс]. (дата обращения: 11.01.2026) (https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-3-business-combinations.html/content/dam/ifrs/publications/html-standards/english/2025/issued/ifrs3/)

10. Ding; Lebas; Stolowy. (2013). Financial accounting and reporting : a global perspective. — 4th revised ed. — Andover : Cengage Learning, 2013. — 800 p. — ISBN 9781408076866.

11. С.С. Насретдинов, Б.А. Хасанов. Консолидациялаштирилган (умумлаштирилган) бухгалтерия ҳисоботи // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – Тошкент, 2003. -№10. – Б.14-16.

12. Н.Б. Хўжабеков. Бизнес бирлашишида консолидациялашган молиявий ҳисоботларни такомиллаштириш: иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Тошкент, 2009. – Б. 7-17.

13. Н.К. Ризаев. Интеллектуал мулк объектлари ҳисоби ва таҳлилини ташкил этиш методологияси: фан доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Тошкент, 2018. – Б. 5-14.

14. Ризаев Н. К.; Темирханова М. Ж.; Ли Ш. Improving the Intangible Assets Accounting: In a Pandemic Period // Annals of the Romanian Society for Cell Biology (Annals of R.S.C.B.). – 2021. – Vol. 25. – Issue 2. – P. 573–590. – [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://annalsofrscb.ro/index.php/journal/article/download/985/830/1851 (дата обращения: 24.01.2026).

15. С.А. Джуманов. Молиявий ҳисобот ахборотларини халқаро стандартлар

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

асосида компиляция қилиш: иқтисод фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Тошкент, 2019. – Б. 11-24.

16. I. Avazov. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ma’lumotlarini tahlil qilish masalalari // Muhandislik va iqtisodiyot. – Toshkent, 2025 yil, noyabr. - № 11. Б.358362.(https://muhandislikiqtisodiyot.uz/index.php/journal/article/view/1351?utm_source=chatgpt.com)

17. Х. Хасанова. (2024). Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида инвестициялар ҳисобини ташкил этиш. Академические исследования в современной науке, 3(50), Б. 168–171. (https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/62006)

18. S. Safarov. “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzishning chet mamlakatlar tajribasi va undan mamlakatimiz iqtisodiyotida joriy etish istiqbollari”. Modern Science and Research, vol. 4, no. 4, Apr. 2025, pp. 914-9, https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/79924.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

VALYUTA KURSI VA MEHNAT BOZORI BARQARORLIGI O‘RTASIDAGI MAKROIQTISODIY MUVOZANATNI TA’MINLASHDA MONETAR SIYOSATNING ROLI

Sayipov Begzod Rahimovich
Samarqand viloyati kambaĝallikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi Boshqarma boshliĝining 1-òrinbosari
E-mail:sayipovbegzod9@gmail.com
ORCID:0009-0012-7596-4017

Annotatsiya. *Ushbu maqolada monetar siyosatning valyuta kursi va mehnat bozori barqarorligi o‘rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlashdagi roli o‘rganiladi. Tadqiqotda valyuta kursi tebranishlarining bandlik darajasi, ishsizlik va real ish haqi kabi asosiy mehnat bozori ko‘rsatkichlariga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, foiz stavkasi, pul massasi va valyuta intervensiyalari kabi monetar siyosat instrumentlarining iqtisodiy muvozanatni shakllantirishdagi samaradorligi baholanadi. Tadqiqot natijalari monetar siyosat vositalari orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va mehnat bozori samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *monetar siyosat, valyuta kursi, mehnat bozori, makroiqtisodiy muvozanat, bandlik, ishsizlik, foiz stavkasi*

РОЛЬ ДЕНЕЖНО-КРЕДИТНОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО БАЛАНСА МЕЖДУ ВАЛЮТНЫМ КУРСОМ И СТАБИЛЬНОСТЬЮ РЫНКА ТРУДА

Сайипов Бегзод Рахимович

управление по сокращению бедности и занятости Самаркандской области первый заместитель начальника управления
E-mail:sayipovbegzod9@gmail.com
ORCID:0009-0012-7596-4017

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль монетарная политика в обеспечении макроэкономического равновесия между валютный курс и рынок труда. В исследовании анализируется влияние колебаний валютного курса на ключевые показатели рынка труда, включая занятость, уровень безработицы и реальную заработную плату. Также оценивается эффективность инструментов монетарной политики, таких как процентные ставки, денежная масса и валютные интервенции, в формировании экономического равновесия. Полученные результаты позволяют сформировать научные выводы по обеспечению макроэкономической стабильности и повышению эффективности рынка труда.*

Ключевые слова: *монетарная политика, валютный курс, рынок труда, макроэкономическое равновесие, занятость, безработица, процентная ставка*

THE ROLE OF MONETARY POLICY IN ENSURING MACROECONOMIC BALANCE BETWEEN EXCHANGE RATE AND LABOR MARKET STABILITY

Sayipov Begzod Rahimovich

Samarkand Region Department
of Poverty Reduction and Employment
First Deputy Head of the Department
E-mail:sayipovbegzod9@gmail.com
ORCID:0009-0012-7596-4017

Abstract. *This article examines the role of monetary policy in ensuring macroeconomic equilibrium between the exchange rate and the labor market. The study analyzes the impact of exchange rate fluctuations on key labor market indicators, including employment, unemployment, and real wages. It also evaluates the effectiveness of monetary policy instruments such as interest rates, money supply, and foreign exchange interventions in maintaining economic balance. The findings contribute to developing scientific conclusions on ensuring macroeconomic stability and improving labor market efficiency.*

Keywords: *monetary policy, exchange rate, labor market, macroeconomic equilibrium, employment, unemployment, interest rate*

Kirish

Hozirgi global iqtisodiy integratsiya sharoitida milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishini ta’minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda monetar siyosat muhim makroiqtisodiy vosita sifatida iqtisodiy muvozanatni saqlashda yetakchi rol o‘ynaydi. Ayniqsa, valyuta kursi va mehnat bozori o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni muvofiqlashtirish makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Valyuta kursining o‘zgaruvchanligi tashqi savdo, kapital oqimlari va investitsion muhitga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu o‘zgarishlar iqtisodiyotning real sektoriga ham uzatiladi va natijada bandlik darajasi, ishsizlik ko‘rsatkichlari hamda real ish haqi dinamikasiga ta’sir etadi. Shu sababli valyuta kursi va mehnat bozori o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Markaziy banklar tomonidan amalga oshiriladigan monetar siyosat instrumentlari foiz stavkasi, pul massasi va valyuta intervensiyalari iqtisodiyotdagi umumiy talab va taklifni tartibga solish orqali nafaqat narxlar barqarorligini, balki valyuta kursining muvozanatli darajada shakllanishini ham ta’minlaydi. Bu esa o‘z navbatida mehnat bozori ko‘rsatkichlarining barqarorligini qo‘llab-quvvatlaydi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, valyuta kursi va mehnat bozori barqarorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ko‘plab tadqiqotlarda alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularni yagona makroiqtisodiy muvozanat doirasida monetar siyosat vositalari orqali kompleks tarzda tahlil qilish yetarli darajada rivojlanmagan. Tadqiqotning maqsadi - monetar siyosat vositalari orqali valyuta kursi va mehnat bozori o‘rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash mexanizmlarini o‘rganish hamda ularning o‘zaro ta’sirini ilmiy asosda baholashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun valyuta kursi va mehnat bozori ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi va monetar siyosatning ushbu jarayondagi samaradorligi aniqlanadi.

Adabiyotlar sharhi

Valyuta kursi va mehnat bozori barqarorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik zamonaviy makroiqtisodiyot tadqiqotlarida keng yoritilmoqda. Ayniqsa, monetar siyosat vositalarining ushbu jarayonga ta’siri global iqtisodiy beqarorlik sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda valyuta kursi o‘zgarishlarining mehnat bozori ko‘rsatkichlariga uzatish mexanizmlari chuqur tahlil qilinmoqda. Jumladan, Olivier Blanchard makroiqtisodiy tahlillarida valyuta kursining real sektor orqali bandlik darajasiga ta’siri mavjudligini ta’kidlaydi [1].

Unga ko‘ra, valyuta kursining qadrsizlanishi qisqa muddatda eksportni rag‘batlantirishi mumkin, biroq uzoq muddatda inflyatsion bosim orqali mehnat bozori barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, Frederic S. Mishkin monetar siyosatning uzatish kanallari orqali

iqtisodiyotga ta’sirini o‘rganib, foiz stavkasi va pul-kredit siyosati vositalari valyuta kursi orqali bilvosita mehnat bozori ko‘rsatkichlariga ta’sir qilishini asoslab beradi [2].

Zamonaviy xalqaro tadqiqotlarda markaziy bank siyosatining samaradorligi alohida e’tiborga olinmoqda. International Monetary Fund (IMF)ning so‘nggi hisobotlarida monetar siyosat qat’iyligi valyuta kursi barqarorligini ta’minlash orqali iqtisodiy o‘sish va bandlikni qo‘llab-quvvatlashda muhim omil ekanligi qayd etilgan [3].

Bundan tashqari, World Bank tadqiqotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda valyuta kursining yuqori darajadagi volatilligi mehnat bozori muvozanatini izdan chiqarib, ayniqsa yoshlar bandligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [4].

Bu esa monetar siyosatning ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Bank for International Settlements (BIS) tomonidan olib borilgan tahlillarda esa global moliyaviy sharoitlar va foiz stavkalarining o‘zgarishi valyuta kursi orqali milliy iqtisodiyotlarga uzatilishi va natijada mehnat bozori ko‘rsatkichlariga ta’sir etishi aniqlangan [5].

Ushbu tadqiqotlar monetar siyosatning xalqaro uzatish kanallarini ham hisobga olish zarurligini asoslaydi. So‘nggi ilmiy ishlarda ekonometrik yondashuvlar asosida valyuta kursi va bandlik o‘rtasidagi bog‘liqlik modellashtirilmoqda. Xususan, panel ma’lumotlar va vaqt qatorlari asosida olib borilgan tadqiqotlar monetar siyosat vositalarining makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlashdagi rolini tasdiqlaydi [6].

Yuqoridagi zamonaviy ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, valyuta kursi va mehnat bozori o‘rtasidagi bog‘liqlik tobora murakkablashib bormoqda va uni samarali boshqarishda monetar siyosat vositalarining ahamiyati ortib bormoqda. Shu bilan birga, ushbu jarayonni makroiqtisodiy muvozanat nuqtai nazaridan kompleks baholash hali ham dolzarb ilmiy masala bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda monetar siyosatning valyuta kursi va mehnat bozori o‘rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatga ta’siri kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va empirik tahlil usullarini o‘z ichiga oladi. Nazariy qismda zamonaviy makroiqtisodiy konsepsiyalar, jumladan monetarizm va yangi keynsiylik yondashuvlari asos qilib olindi. Empirik tahlilda esa iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun ekonometrik usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

So‘nggi yillarda monetar siyosat instrumentlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha jahonda katta o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, iqtisodiy beqarorlik, pandemiya, global savdo urushlari va iqlim o‘zgarishlari kabi omillar, Markaziy banklarni yangi yondashuvlar va innovatsion instrumentlarga yuzlanishga majbur qildi. O‘zgartirilgan foiz stavkalari, likvidlikni boshqarish mexanizmlari, yangi raqamli valyutalar va blokcheyn texnologiyalarining joriy etilishi o‘zgarishlarning ayrim namunalaridir. Yangi texnologiyalar va raqamli transformatsiyalar monetar siyosatni boshqarishdagi samaradorlikni oshirishga yordam bermoqda. Misol uchun, Xitoy va Yevropa Ittifoqi o‘zlarining raqamli markaziy bank valyutalarini (CBDC) yaratish yo‘lida katta qadamlar tashlamoqda, bu esa ularning monetar siyosatni boshqarishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. 2020-yil pandemiyasidan so‘ng, jahon iqtisodiyoti sezilarli darajada pasayib, inflyatsiya ko‘rsatkichlari o‘sdi. Bunda Markaziy banklar, xususan AQSh Federal Zizgi (Fed) va Yevropa Markaziy Banki (ECB), iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash va inflyatsiyani nazorat qilish uchun raqamli va an’anaviy vositalarni birgalikda qo‘lladilar. Misol uchun, AQSh Federal Zizgisi o‘zining 2022-yilgi qarorida foiz stavkalarini 0,25%dan 2,5%gacha ko‘tarish orqali inflyatsiyani pasaytirishga harakat qildi. 2022-yilning oxiriga kelib, jahon bo‘yicha inflyatsiya darajasi 9,1%ni tashkil etdi, bu 1980-yillardan beri eng yuqori ko‘rsatkich edi (IMF, 2022).

Yevropada esa ECB foiz stavkalarini oshirishga qaror qilgan va bu qaror Yevropa

iqtisodiyoti uchun bir qator muammolarni keltirib chiqargan. Bundan tashqari, Yaponiyada va Shveysariyada markaziy banklar o‘z siyosatlarini uzoq muddatli deflyatsiyani oldini olish uchun joriy etgan bo‘lsa-da, bu mamlakatlarda ham inflyatsiya yuqorilab bormoqda. Yaponiyada 2022-yilda inflyatsiya 3,7%ni tashkil etdi, bu esa uzoq vaqt davomida o‘zgarmagan inflyatsiya darajalarining o‘sishini anglatadi. O‘zbekistonda ham monetar siyosatning samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator yangiliklar va o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. 2020-yildan boshlab Markaziy bank mamlakatda inflyatsiya darajasini pasaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun o‘z siyosatlarini yanada soddalashtirdi. 2021-yilda O‘zbekiston Markaziy banki inflyatsiyani 10,5%dan 8,5%gacha kamaytirish uchun foiz stavkalarini pasaytirdi, bu esa iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashga imkon yaratdi. 2022-yil oxiriga kelib, inflyatsiya darajasi 12%ga yetdi, bu esa Markaziy bankning yangi strategiyalarini takomillashtirish zaruratini ko‘rsatdi. O‘zbekiston hukumati 2025-yilgacha inflyatsiya darajasini 5%gacha pasaytirishni maqsad qilib qo‘ygan va bu yo‘nalishda bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonda, Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan raqamli som va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish masalasi ham muhokama qilinmoqda. 2022-yilda O‘zbekistonning Markaziy banki raqamli valyutani yaratish bo‘yicha dastlabki qadamlarni qo‘ygan va bu jarayon davom etmoqda. Bu yangi yondashuvlar mamlakatda monetar siyosatning samaradorligini oshirishga yordam beradi va inflyatsiyani boshqarishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga keltirilgan yana bir ijobiy ta’sir, bu so‘nggi yillarda amalga oshirilgan valyuta inqilobi va markaziy bankning kurs siyosatini erkinlashtirish yo‘lidagi qadamlaridir. O‘zbekistonda valyuta kursining erkinlashuvi va rasmiy kurs bilan bozor kursi o‘rtasidagi farqni kamaytirish inflyatsiyani pasaytirishga, savdo balansi va iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. 2022-yilda O‘zbekistonning tashqi savdosi 6,4 milliard AQSh dollariga oshdi, bu mamlakatning iqtisodiy barqarorligini yanada mustahkamladi. 2021-yilda O‘zbekistonda inflyatsiya darajasi 10,5%ni tashkil etdi, 2022-yilda esa 12%gacha o‘sgan. 2022-yilda jahon bo‘yicha inflyatsiya 9,1%ga yetdi. O‘zbekistonning tashqi savdosi 2022-yilda 6,4 milliard AQSh dollariga oshdi. Yuqoridagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, jahon bo‘yicha monetar siyosat instrumentlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator innovatsion yondashuvlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda ham inflyatsiyani boshqarish va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashda muhim o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Markaziy bankning foiz stavkalarini boshqarish, valyuta kursini erkinlashtirish va yangi raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali O‘zbekiston iqtisodiyotida yanada samarali monetar siyosat yaratish imkoniyati mavjud. Bu jarayon davom etar ekan, O‘zbekistonning kelajakdagi iqtisodiy o‘sishiga muhim hissa qo‘shishi kutilmoqda. O‘z navbatida, tashqi iqtisodiy sharoitlar va mamlakatga valyuta oqimi bo‘yicha ijobiy tendensiyaning shakllanishi almashuv kursining nisbatan barqaror bo‘lishiga xizmat qilib, nisbatan qat’iy pul-kredit sharoitlari shakllanishiga hissa qo‘shmoqda. Umuman olganda, pul-kredit sharoitlari qat’iylik darajasining saqlab qolinishi iqtisodiyotdagi inflyatsion bosimlarni pasaytirishga va umumiy inflyatsiyaning pasayuvchi dinamikada shakllanishiga xizmat qilishi kutilmoqda.

Monetar siyosat instrumentlari - bu Markaziy banklar va boshqa moliyaviy muassasalar tomonidan iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, inflyatsiyani boshqarish, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va moliyaviy tizimni qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘llaniladigan vositalardir.

Bu instrumentlar iqtisodiyotdagi pul miqdorini, foiz stavkalarini, kreditni va likvidlikni boshqarishga qaratilgan bo‘lib, asosan uchta asosiy instrumentga bo‘linadi: 1. Foiz stavkalari – Markaziy banklarning iqtisodiy o‘sish va inflyatsiyani boshqarish uchun foiz stavkalarini o‘zgartirish orqali iqtisodiy faoliyatga ta’sir qilishi. Masalan, foiz stavkasining oshirilishi iste’mol va investitsiya xarajatlarini kamaytirishi, inflyatsiyani pasaytirishga yordam beradi. 2. Ochiq bozor operatsiyalari – Markaziy bankning davlat obligatsiyalarini sotib olish yoki sotish orqali bozordagi pul miqdorini boshqarish. Bu vosita pul ta’minoti va likvidlikni nazorat qilishda yordam beradi. 3. Majburiy zaxiralar normasi – Banklar tomonidan saqlanadigan zaxiralar miqdorini belgilash. Bu instrument banklarning kredit berish imkoniyatini va iqtisodiyotga pul

oqimini nazorat qilishda yordam beradi. Monetar siyosat instrumentlarining samaradorligini oshirish yuqoridagi vositalarni yanada samarali va maqsadga muvofiq ishlatishdir. Buning asosiy maqsadi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, inflyatsiyani nazorat qilish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishdir.

1-rasm.

Samaradorlikni oshirishning bir necha yo‘llari[4]



1. Innovatsion yondashuvlar joriy etish – raqamli valyutalar va blokcheyn texnologiyalarini qo‘llash, Markaziy banklarning pul-kredit siyosatini yanada soddalashtirish va avtomatlashtirish. Bu yangi yondashuvlar pul-moliya siyosatining samaradorligini oshirishga yordam beradi. 2. Ko‘proq aniq va izchil kommunikatsiya – Markaziy banklarning siyosat qarorlari haqida aniq va tushunarli ma’lumotlarni jamoatchilikka etkazish. Bu orqali investorlar va iste’molchilarni iqtisodiy qarorlar haqida xabardor qilish va ularga asoslangan ravishda harakat qilish imkoniyatini yaratadi. 3. Samarali ma’lumot tahlili va prognozlar – monetar siyosatni amalga oshirishda statistik va prognoz tahlillari yordamida iqtisodiy o‘zgarishlarni oldindan ko‘rish va vaqtida to‘g‘ri chora-tadbirlar ko‘rish. Samarali monetar siyosat instrumentlari iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya nazorati, ish o‘rinlari yaratish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ularning samaradorligini oshirish orqali Markaziy banklar iqtisodiyotning turli sohalariga ta’sir ko‘rsatish va iqtisodiy o‘zgarishlarga tez va aniq javob qaytarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. So‘nggi yillarda kuzatilgan chakana kreditlardagi yuqori o‘sish sur’atlari va iqtisodiyot subyektlarining inflyatsion kutilmalari so‘mdagi nominal foiz stavkalarining birmuncha yuqori darajada saqlanishiga omil bo‘lmoqda. Biroq aholining kreditlarga bo‘lgan talabining maqbullashib borishi va inflyatsion kutilmalarining pasayishi hisobiga kelgusida milliy valyutadagi kreditlar va depozitlar bo‘yicha foiz stavkalarining pasayishi hamda ushbu foizlar va asosiy stavka o‘rtasidagi tafovutning qisqarib borishi kutilmoqda. Xorijiy tajribada AQSH, Armaniston va Gruziya singari davlatlar narxlari tez va sekin moslashuvchan tovar va xizmatlarni alohida o‘rganish usulidan foydalanishadi. Hisob kitoblarga ko‘ra, AQSH iste’mol savatida 30 foiz salmoq, vaznga ega tovar va xizmatlar tez moslashuvchan narxlar sifatida tasniflansa, qolgan 70 foizi sekin moslashuvchan narxlar guruhini tashkil qiladi. Armanistonda 74 foiz tovar va xizmatlar narxlari, Gruziyada esa 30 foiz tovar va xizmatlar narxlari sekin moslashuvchan guruhga kiritilgan.

Ushbu turdagi tahlilni O‘zbekiston misolida amalga oshirish uchun iste’mol narxlari indeksining tarkibiy qismlaridan ikkita subindeksni hisoblash usulidan foydalanildi: tez moslashuvchan narxlar o‘zgarishi indeksi va sekin moslashuvchan narxlar o‘zgarishi indeksi. Narxlarni tasniflashda iqtisodchilar Mark Bils va Piter Klenou metodologiyasiga tayanildi. Ular AQSH iste’mol narxlari indeksi tarkibidagi 350 turdagi tovar va xizmatlar narxlari o‘zgarishi tezligini tahlil qilishgan. Ularning tadqiqotlari AQSHda narxlar o‘rtacha har 4,3 oyda kamida bir marta o‘zgarganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, iste’mol narxlarining asosiy qismi tez moslashuvchanligi, sekin moslashuvchan narxlarning iste’mol savatidagi ulushi kamligi

[4] Muallif ishlanmasi

mamlakatimiz iqtisodiyotida inflyatsion bosim yuqoriligi, inflyatsion kutilmalarning yaxshi jilovlanmagani va narxlar joriy iqtisodiy o‘zgarishlarga nisbatan yuqori ta’sirchanligidan dalolat beradi. Iste’mol narxlari tarkibida sekin moslashuvchan narxlar ulushining ortishi va ularning moslashuvchanlik davrining uzayishi pul-kredit siyosatining samaradorligini oshiradi. Narxlar moslashuvchanligini barqarorlashtirish ochiq va shaffof kommunikatsiya siyosati orqali iqtisodiy agentlarning Markaziy bank pul-kredit siyosatiga bo‘lgan ishonchini oshirish va shu orqali inflyatsion kutilmalarni jilovlashni talab etadi. Narxlarning joriy iqtisodiy o‘zgarishlarga keskin ta’sirini yumshatishda iqtisodiyotda barqaror taklif, erkin tashqi savdo, kuchli raqobat muhiti kabi fundamental makroiqtisodiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, valyuta kursi dinamikasining inflyatsiya darajasiga ta’siri tahlil qilindi.O‘zbekiston sharoitida milliy valyutaning qadrsizlanishi import narxlarining oshishigaolibkelib, qisqa muddatda inflyatsion bosimni kuchaytirganini ko‘rish mumkin. Biroqmarkaziybank tomonidan olib borilgan izchil pul-kredit va valyuta siyosati inflyatsiya kutilmalarinibosqichma-bosqich barqarorlashtirishga xizmat qilgan. Bu holat valyuta siyosatimakroiqtisodiy barqarorlikka bevosita va sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, valyuta siyosatining tashqi savdo balansi va to‘lov balansiga ta’siri tahlilqilindi. Erkinroq valyuta kursi eksportchilarning raqobatbardoshligini oshirib, eksporthajmining kengayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Shu bilan birga, import hajminingortishitashqi savdo balansida ma’lum darajada bosimni yuzaga keltirgan. Natijada, valyuta siyosatiniyuritishda eksportni qo‘llab-quvvatlash va importga bog‘liqlikni kamaytirishmasalalarimuhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Uchinchidan, valyuta siyosati va investitsion muhit o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi.Valyuta bozorining liberallashtirilishi va konvertatsiya jarayonlarining soddalashtirilishixorijiy investitsiyalar oqimini rag‘batlantirgan. Investorlar uchun valyuta risklariningnisbatanpasayishi makroiqtisodiy barqarorlikka bo‘lgan ishonchni oshirdi. Bu esa iqtisodiyo‘sishsur’atlarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilgan muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, valyuta siyosati makroiqtisodiy barqarorliknita’minlashda ko‘p qirrali va murakkab mexanizmga ega. Valyuta kursining keskin tebranishlari iqtisodiy beqarorlik xavfini kuchaytirishi mumkin bo‘lsa-da, muvozanatli vaehtiyotkorlik bilan olib borilgan valyuta siyosati iqtisodiy o‘sish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘tkazilgan tahlillar asosida quyidagi asosiy natijalarga kelindi: birinchidan, valyutasiyosati inflyatsiya va narxlar barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi; ikkinchidan, valyutakursining moslashuvchanligi tashqi savdo va investitsion faollikni rag‘batlantiradi;uchinchidan, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun valyuta siyosati pul-kredit vafiskal siyosatlar bilan uyg‘un holda olib borilishi zarur. Mazkur tahlil va olingan natijalar maqolaning keyingi bo‘limida keltiriladiganumumiyxulosalar va ilmiy-amaliy takliflar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, monetar siyosat valyuta kursi va mehnat bozori o‘rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Valyuta kursining barqarorligi iqtisodiyotdagi umumiy muvozanatni saqlash bilan birga, bandlik darajasi va ishsizlik ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, valyuta kursidagi keskin o‘zgarishlar ishlab chiqarish hajmi va investitsion faollikka salbiy ta’sir etib, mehnat bozori muvozanatini izdan chiqarishi mumkin. Aksincha, monetar siyosat instrumentlarining samarali qo‘llanilishi valyuta kursi tebranishlarini yumshatib, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Blanchard, O. Macroeconomics. Pearson, 2021.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

2. Mishkin, F. S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Pearson, 2018.
3. IMF. World Economic Outlook. Washington, DC, 2022–2024.
4. World Bank. World Development Report. Washington, DC, 2022–2024.
5. BIS. Annual Economic Report. Basel, 2023.
6. Borio, C., Disyatat, P. “Global Liquidity and Transmission of Monetary Policy.” BIS Working Papers, 2021.

QASHQADARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Sharipov G‘ulomjon Qarshi o‘g‘li
Neft-gaz va geologiya fakulteti
dekan o'rinbosari i.f.f.d.(PhD)
Qarshi davlat texnika universiteti
E-mail: gulom_5333@icloud.com
ORCID:0009-0032-4559-2014

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining amaldagi holati kompleks tahlil qilinib, hududning ekologik-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari baholangan. Tadqiqot davomida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, resurslar samaradorligi, ekologik investitsiyalar, chiqindilarni boshqarish hamda yashil infratuzilmani rivojlantirish holati statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, yashil iqtisodiyot rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolar aniqlanib, hududda ekologik barqarorlikni ta’minlash va yashil transformatsiyani jadallashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish va Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *yashil iqtisodiyot, Qashqadaryo viloyati, barqaror rivojlanish, ekologik investitsiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, resurslar samaradorligi, yashil infratuzilma, ekologik boshqaruv, hududiy rivojlanish, statistik tahlil.*

CURRENT STATUS AND DEVELOPMENT PROSPECTS OF GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN KASHKADARYA REGION

Sharipov Gulomjon Karshi ugli
Deputy Dean of the Faculty of
Oil and Gas and Geology i.f.f.d.(PhD
Karshi State Technical University
E-mail: gulom_5333@icloud.com
ORCID:0009-0032-4559-2014

Abstract. *This article assesses the current state of green economy development in the Kashkadarya region through a comprehensive analysis of its environmental and economic indicators. The study examines renewable energy development, resource efficiency, green investments, waste management, and green infrastructure using official statistical data. It also identifies the main challenges hindering the regional green transition and proposes practical recommendations aimed at strengthening environmental sustainability and accelerating green economic development. The findings provide scientific and practical guidance for improving regional governance and promoting the green economy in the Kashkadarya region.*

Keywords: *green economy, Kashkadarya region, sustainable development, green investment, renewable energy, resource efficiency, green infrastructure, environmental governance, regional development, statistical analysis.*

ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Шарипов Гуломжон Карши угли
и.ф.ф.д. (кандидат наук)
заместитель декана факультета

нефти и газа и геологии
Каршиский государственный
технический университет
E-mail: gulom_5333@icloud.com
ORCID:0009-0032-4559-2014

Аннотация. *В статье проведена комплексная оценка современного состояния развития зелёной экономики в Кашкадарьинской области на основе анализа экологических и экономических показателей региона. Исследованы развитие возобновляемой энергетики, эффективность использования ресурсов, зелёные инвестиции, управление отходами и развитие зелёной инфраструктуры с использованием официальных статистических данных. Выявлены основные проблемы, сдерживающие развитие зелёной экономики, и предложены практические рекомендации по обеспечению экологической устойчивости и ускорению зелёной трансформации региона. Полученные результаты могут быть использованы для совершенствования регионального управления и реализации политики устойчивого развития.*

Ключевые слова: *зелёная экономика, Кашкадарьинская область, устойчивое развитие, зелёные инвестиции, возобновляемая энергетика, эффективность использования ресурсов, зелёная инфраструктура, экологическое управление, региональное развитие, статистический анализ.*

Kirish

Bugungi kunda yashil iqtisodiyot iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish bilan birga, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda aholining hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan ustuvor rivojlanish modeli sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu model ishlab chiqarish va iste’mol jarayonlarida energiya hamda resurslar samaradorligini oshirish, chiqindilar hajmini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va yangi “yashil” ish o‘rinlarini yaratishni nazarda tutadi. Shu jihatdan yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarni hal etish vositasi, balki hududlarning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Global iqlim o‘zgarishi, atmosfera havosi ifloslanishining kuchayishi, suv va yer resurslarining cheklanganligi, biologik xilma-xillikning qisqarishi hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlash zarurati hududlarda yashil iqtisodiyot tamoyillarini izchil joriy etishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyoti qishloq xo‘jaligi, sanoat va tabiiy resurslardan foydalanishga bevosita bog‘liq bo‘lgan hududlarda ekologik va iqtisodiy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, hududlarning yashil rivojlanish darajasini baholash, mavjud resurs salohiyatini aniqlash, ekologik cheklovlar va iqtisodiy imkoniyatlarni o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish, energiya va suv tejamkor texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish, yashil hududlarni kengaytirish hamda ekologik barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar hududlarning tabiiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslar sarfini kamaytirish va ekologik xavflarning oldini olishga qaratilgan. Biroq hududlar kesimida yashil iqtisodiyotning rivojlanish darajasi, mavjud infratuzilma, investitsion salohiyat, ekologik muammolar va institutsional imkoniyatlar bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Xususan, Qashqadaryo viloyati sanoat, energetika, neft-gaz, qishloq xo‘jaligi va transport sohalari rivojlangan hududlardan biri bo‘lib, uning iqtisodiy faoliyati tabiiy resurslardan intensiv foydalanish bilan tavsiflanadi. Viloyatda quyosh energiyasidan foydalanish, suv va yer resurslarini tejash, ekologik toza ishlab chiqarishni rivojlantirish, chiqindilarni qayta ishlash hamda energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha katta

salohiyat mavjud.

Adabiyotlar sharhi

So‘nggi yillarda yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Tadqiqotchilar yashil iqtisodiyotni iqtisodiy o‘sish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni uyg‘unlashtiruvchi rivojlanish modeli sifatida baholab, uning asosiy yo‘nalishlari sifatida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va yashil investitsiyalarni kengaytirishni e’tirof etadilar [1; 2]. Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida hududlarning o‘rni alohida ta’kidlanadi. OECD ekspertlari yashil transformatsiyaning muvaffaqiyati hududiy boshqaruv tizimi, yashil infratuzilma, ekologik investitsiyalar va institutsional islohotlarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liqligini asoslab berganlar [3]. UNECE hisobotida esa O‘zbekistonda ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish, qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish va hududlarda tabiatga asoslangan yechimlarni keng joriy etish yashil rivojlanishning ustuvor vazifalari sifatida qayd etilgan [4]. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning nazariy va amaliy jihatlari bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularda yashil iqtisodiyotga o‘tish bosqichlari, energiya samaradorligini oshirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash hamda yashil texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaralari tahlil qilingan [5; 6]. Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyotning ayrim yo‘nalishlari, jumladan ekologik va yashil texnologiyalarga investitsiyalarni jalb etish, sanoat korxonalarida resurslardan samarali foydalanish hamda hududning ekologik salohiyatini oshirish masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar mavjud. Ushbu tadqiqotlarda hududning tabiiy resurs salohiyati yuqori bo‘lishiga qaramasdan, yashil texnologiyalarni joriy etish, ekologik investitsiyalar hajmini oshirish va resurslardan samarali foydalanish darajasi yetarli emasligi qayd etilgan [7; 8]. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning rivojlanish dinamikasi, mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlari tahlil qilinib, hududlar kesimida ekologik ko‘rsatkichlarni baholash, yashil moliyalashtirishni rivojlantirish hamda mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan [9; 10]. Biroq Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining amaldagi holatini kompleks statistik baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining amaldagi holatini baholashda kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, statistik tahlil, tizimli yondashuv, umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullari qo‘llanildi. Qashqadaryo viloyatining yashil iqtisodiyot ko‘rsatkichlari respublika miqyosidagi ma’lumotlar hamda xalqaro amaliyot bilan taqqoslanib, hududning rivojlanish tendensiyalari va mavjud muammolari baholandi. Tahlil uchun O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Energetika vazirligi, Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi hamda OECD, UNEP va Jahon bankining 2020–2025-yillarga oid rasmiy statistik ma’lumotlari va analitik hisobotlaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va amaliy takliflari ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslarga boy, quyosh radiatsiyasi yuqori hamda sanoat va qishloq xo‘jaligi salohiyati kuchli hududlardan biri hisoblanadi. Shu bois viloyatda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki hududning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi. So‘nggi yillarda qayta

tiklanuvchi energiya, energiya tejamkor texnologiyalar va ekologik loyihalarni rivojlantirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmayapti (1-jadval).

1-jadval.

Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyotning ayrim ko‘rsatkichlari dinamikasi (2020–2024-yillar)[5]

Ko‘rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
Yashil investitsiyalar ulushi, %	5,8	6,5	7,9	9,8	11,6
Qayta tiklanuvchi energiya ulushi, %	3,2	3,9	4,8	6,1	7,5
Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etgan korxonalar ulushi, %	18	22	27	33	39
Chiqindilarni qayta ishlash darajasi, %	12	15	18	22	26
Ekologik loyihalar soni, ta	34	41	49	57	68

Qashqadaryo viloyati iqtisodiy salohiyati, tabiiy resurslari va geoiqtisodiy joylashuvi jihatidan O‘zbekistonning strategik hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda yoqilg‘i-energetika, neft-gaz, kimyo, qurilish materiallari ishlab chiqarish hamda qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanganligi yashil iqtisodiyot tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish uchun muhim zamin yaratadi. Ayniqsa, hududning quyosh radiatsiyasi yuqori bo‘lgani sababli qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlari respublikaning ko‘plab hududlariga nisbatan yuqori baholanadi. So‘nggi yillarda viloyatda energiya samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sanoat korxonalarida energiya tejamkor uskunalarni joriy etish, qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni kengaytirish hamda quyosh elektr stansiyalarini barpo etish bo‘yicha loyihalar hududning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirmoqda. Shu bilan birga, olib borilgan tahlillar yashil iqtisodiyotning ayrim yo‘nalishlari bo‘yicha tizimli muammolar mavjudligini ham ko‘rsatadi. Jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy energiya ishlab chiqarishdagi ulushi hali ham yetarli darajaga yetmagan. Chiqindilarni saralash va qayta ishlash infratuzilmasining rivojlanish sur'atlari hududning sanoat salohiyatiga nisbatan pastligicha qolmoqda. Bundan tashqari, ko‘plab kichik va o‘rta biznes subyektlarida energiya samaradorligi bo‘yicha zamonaviy texnologiyalarning joriy etilish darajasi yetarli emas.

2-jadval.

Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy muammolari va taklif etilayotgan yechimlar[6]

Aniqlangan muammo	Taklif etilayotgan yechim
Yashil investitsiyalar hajmi yetarli emas	Yashil obligatsiyalar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish
Quyosh energiyasi salohiyatidan to‘liq foydalanilmayapti	Hududlarda quyosh elektr stansiyalari va mikro-generatsiya loyihalarini kengaytirish
Chiqindilarni qayta ishlash darajasi past	Zamonaviy qayta ishlash majmualarini tashkil etish va xususiy sektorni rag‘batlantirish
Korxonalarda energiya samaradorligi past	Energiya auditi va "yashil" texnologiyalarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlash
Ekologik monitoring tizimi yetarli darajada raqamlashtirilmagan	GIS va raqamli monitoring platformalarini joriy etish

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun tabiiy va iqtisodiy salohiyat yetarli. Biroq ushbu salohiyatdan samarali

[5] Muallif ishlanmasi
[6] Muallif ishlanmasi

foydalanish uchun yashil moliyalashtirishni kengaytirish, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini ko‘paytirish, chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish hamda ekologik monitoringni raqamlashtirish zarur. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi hududning ekologik barqarorligini mustahkamlash, investitsion jozibadorligini oshirish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga keng joriy etishga xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyot bugungi kunda iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy modeli sifatida ekologik xavfsizlik, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy samaradorlikni o‘zaro uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda. Mazkur yondashuv an’anaviy iqtisodiy o‘sish modelidan farqli ravishda tabiiy resurslarni saqlash, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish hamda aholining turmush sifatini yaxshilashni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Shu sababli yashil iqtisodiyot konsepsiyasi bugungi kunda nafaqat ekologik siyosatning, balki hududiy rivojlanish strategiyalarining ham ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Hududiy rivojlanish nuqtai nazaridan yashil iqtisodiyotning samaradorligi hududning tabiiy resurs salohiyati, ishlab chiqarish tarkibi, investitsion muhiti, innovatsion faolligi hamda mahalliy boshqaruv organlarining institutsional imkoniyatlariga bevosita bog‘liq. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyot tamoyillari hududiy boshqaruv tizimiga integratsiya qilingan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari, resurslardan foydalanish samaradorligi va ekologik barqarorlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanmoqda. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash hamda ekologik innovatsiyalarni qo‘llash hududlarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlovchi muhim omillar sifatida e’tirof etilmoqda.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazaridan respublikaning strategik hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyat mamlakatdagi yirik yoqilg‘i-energetika, neft-gaz, kimyo va qurilish materiallari sanoati markazlaridan biri bo‘lishi bilan bir qatorda, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ham muhim o‘rin egallaydi. Bunday iqtisodiy tarkib bir tomondan hududning iqtisodiy salohiyatini oshirsa, ikkinchi tomondan tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini ta’minlash va ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha yangi yondashuvlarni talab qiladi. Shu bois yashil iqtisodiyot tamoyillarini viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga integratsiya qilish barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Viloyatning tabiiy-iqlim sharoiti yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Xususan, quyosh radiatsiyasining yuqori darajasi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi chiqindilaridan bioenergiya ishlab chiqarish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish va ekologik toza ishlab chiqarishni rivojlantirish imkoniyatlari ham mavjud. Ushbu omillar hududning yashil transformatsiyasini jadallashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun muhim zamin yaratadi. Shu bilan birga, tahlillar yashil iqtisodiyot rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan qator omillar mavjudligini ham ko‘rsatadi. Jumladan, ayrim sanoat korxonalarida energiya sarfining yuqoriligi, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarining yetarli darajada joriy etilmaganligi, chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasining rivojlanmaganligi hamda yashil investitsiyalar hajmining cheklanganligi hududning yashil rivojlanish sur’atiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bundan tashqari, mahalliy darajada ekologik monitoring tizimining to‘liq raqamlashtirilmaganligi va yashil iqtisodiyot ko‘rsatkichlarini baholashning yagona metodikasining mavjud emasligi boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini pasaytirmoqda. Hududiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyotning rivojlanish darajasi iqtisodiy, ekologik va institutsional omillarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq. Agar ushbu omillar kompleks tarzda rivojlantirilsa, hududning investitsion jozibadorligi ortadi, ishlab chiqarishning ekologik samaradorligi yaxshilanadi va aholi turmush sifati oshadi. Shu nuqtai nazardan, Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishni baholashda faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, resurslardan foydalanish samaradorligi, ekologik xavfsizlik, yashil innovatsiyalar va boshqaruv samaradorligini ham kompleks ravishda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Mazkur tadqiqotda Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining amaldagi holati beshta asosiy yo‘nalish bo‘yicha baholandi: qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, resurslardan foydalanish samaradorligi, yashil investitsiyalarni jalb qilish, ekologik infratuzilmani rivojlantirish hamda hududiy boshqaruvning institutsional samaradorligi. Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilgan tahlillar hududning mavjud salohiyatini aniqlash, rivojlanishga to‘sqinlik qilayotgan omillarni baholash va istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilash imkonini beradi. Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar asosida Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy drayverlari sifatida quyosh energetikasini kengaytirish, sanoatda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hamda yashil moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Mazkur yo‘nalishlarni kompleks rivojlantirish nafaqat hududning ekologik holatini yaxshilaydi, balki iqtisodiy o‘sish sur’atlarini jadallashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va hududning investitsion jozibadorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vahobov A.V., Xojibakiyev Sh.X. va boshq. Yashil iqtisodiyot: darslik. – Toshkent: Universitet, 2020. – 352 b.

2. Kalandarova E.M. Priority Areas of Development of "Green Economy" in Uzbekistan // Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke. – 2024. – Vol. 3, № 6. – B. 110–112.

3. OECD. Financing Uzbekistan's Green Transition: Capital Market Development and Opportunities for Green Bond Issuance. – Paris: OECD Publishing, 2023.

4. UNECE. Fourth Environmental Performance Review of Uzbekistan. – Geneva: United Nations Economic Commission for Europe, 2026.

5. Khashimova S.N., Abdikarimova A.A. Stages of Development of "Green Economy" in Uzbekistan // British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. – 2024. – Vol. 29.

6. Doniyorova Z. Green Economy in Uzbekistan: Essence, Principles, and Perspectives // American Journal of Public Diplomacy and International Studies. – 2024. – Vol. 2, № 7. – B. 18–25.

7. Meylikov F., Buriyev Sh. Qashqadaryo viloyatida ekologik va yashil texnologiyalarga kiritilayotgan investitsiyalar // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – Vol. 3, № 4.

8. Ochilov A., Xazratov S. O‘zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (Qashqadaryo viloyati misolida) // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – Vol. 2, № 9.

9. Utegenova S., Khaliqnazarova G. State, Dynamics and Problems of Development of the "Green" Economy in the Republic of Uzbekistan // Modern Science and Research. – 2024. – Vol. 3, № 9.

10. Yo‘ldoshev O.A. Priority Directions for the Development of Green Economy in Uzbekistan // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – Maxsus son.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В МАЛОМ БИЗНЕСЕ (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)

Кабилова Шахноза Жураевна

соискатель
Каршинского государственного университета
E-mail: Shshahnoza427@gmail.com

Аннотация. *В статье исследуются теоретические и практические аспекты трансформации организационно-управленческого механизма развития сферы услуг в сегменте малого предпринимательства. На основе анализа актуальных статистических показателей Кашкадарьинской области за 2025-2026 гг. идентифицированы ключевые дефекты регионального менеджмента и структурные диспропорции рынка услуг. Предложена авторская сетевая модель «**Интегрированного Сервисного Кластера**», основанная на централизации стратегических функций менеджмента, обеспечивающая выравнивание внутрирегиональных различий и повышение эффективности малых сервисных предприятий.*

Ключевые слова: *менеджмент, сфера услуг, малый бизнес, управленческий механизм, Кашкадарьинская область, сервисный кластер, децентрализация управления.*

KICHIK BIZNESDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Kabilova Shahnoza Jurayevna

mustaqil izlanuvchisi
Qarshi davlar universiteti
E-mail: shshahnoza427@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada tadbirkorlik segmentida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmini transformatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Qashqadaryo viloyatining 2025-2026 yillardagi dolzarb statistik ko‘rsatkichlari tahlili asosida hududiy boshqaruvning asosiy kamchiliklari va xizmatlar bozoridagi tarkibiy nomutanosibliklar. Strategik boshqaruv funksiyalarini markazlashtirishga asoslangan, hududiy tafovvutlarni muvozanatlash va kichik servis korxonalari samaradorligini oshirishni ta’minlaydigan "Integratsiyalashgan servis klasteri" mualliflik tarmoq modeli taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *menejment, xizmat ko‘rsatish sohasi, kichik biznes, boshqaruv mexanizmi, Qashqadaryo viloyati, servis klasteri, boshqaruvni ditsentralizatsiya qilish.*

ORGANIZATIONAL AND MANAGERIAL MECHANISM FOR DEVELOPING THE SERVICE SECTOR IN SMALL BUSINESS: EVIDENCE FROM THE KASHKADARYA REGION

Kabilova Shakhnoza Juraevna

Independent Researcher
Karshi State University
E-mail: shshahnoza427@gmail.com

Abstract. *The article explores the theoretical and practical aspects of transforming the organizational and managerial mechanism for the development of the service sector in the small business segment. Based on the analysis of current statistical indicators of the Kashkadarya*

region for 2025–2026, the key defects of regional management and structural disproportions of the service market are identified Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko ... Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi - Facebook. The author's network model of the "Integrated Service Cluster" based on the centralization of strategic management functions is proposed, ensuring the alignment of intra-regional differences and increasing the efficiency of small service enterprises.

Keywords: *management, service sector, small business, managerial mechanism, Kashkadarya region, service cluster, decentralization of management.*

Введение

Современный этап модернизации экономики Узбекистана требует форсированного развития сферы услуг как ключевого фактора обеспечения занятости населения и стабильного роста валового внутреннего продукта. Исследование выполнено в соответствии с задачами, определенными в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана» и №УП-158 «О Стратегии „Узбекистан - 2030“», где ускоренное развитие сферы услуг в регионах и совершенствование институционального менеджмента обозначены в качестве стратегических приоритетов.[3]

Кашкадарьинская область, обладая колоссальным демографическим потенциалом (3 716 949 человек на начало 2026 года), демонстрирует высокие темпы экономического роста.[14] Однако существующий организационно-управленческий механизм регулирования малого сервисного предпринимательства нуждается в глубокой модернизации. В условиях цифровизации менеджмент малого бизнеса сталкивается с дефицитом адаптивных систем управления. Традиционные линейно-функциональные структуры управления микрофирм не успевают реагировать на динамику потребительского спроса, создавая сильную пространственную поляризацию между административным центром и сельской местностью.

Обзор литературы

Теоретические основы формирования систем управления в сфере услуг исследованы в трудах зарубежных ученых (Шумпетер Й., Котлер Ф., Друкер П.).

Теория инновационного развития Й. Шумпетера обосновывает ключевую роль малого бизнеса как основной движущей силы инновационной трансформации экономики.[7]

Концепция инноваций и предпринимательства П. Друкера исходит из того, что устойчивое развитие и конкурентоспособность субъектов малого бизнеса в значительной степени зависят от внедрения инновационных методов управления и эффективной предпринимательской деятельности.[6]

Теория конкурентных преимуществ М. Портера определяет концептуальные основы формирования конкурентных стратегий в сфере услуг, обеспечивающих повышение эффективности и устойчивости субъектов предпринимательства.[8]

Особенности менеджмента и развития предпринимательства в Республике Узбекистан изучены отечественными экономистами: Вахабовым А.В., Пардаевым М.К., Имиминовым Т.К., Гулямовым С.С., Абдуллаев А.Ж. Однако вопросы трансформации управленческих механизмов малого сервисного бизнеса с учетом специфики южных регионов (в частности, Кашкадарьинской области) остаются недостаточно разработанными, что предопределяет актуальность и выбор темы исследования.

Методология исследования

Методологическую основу исследования составили системный, сравнительный и статистический анализ, а также теории сетевого и стратегического менеджмента.

Информационной базой послужили официальные данные Национального Агентства статистики Республики Узбекистан и Управления статистики Кашкадарьинской области за период 2024-2026 гг.

Для количественной оценки неравномерности развития сферы услуг в разрезе городов и районов Кашкадарьинской области применен **коэффициент локализации (K_{li}):**

$$K_{li} = Ski/S\sum i/Vki/V\sum \quad (1)$$

где: S_{ki}- объем услуг малого бизнеса в *i*-м районе;
$S_{\Sigma i}$ - общий объем производства *i*-го района;
V_{ki} - совокупный объем услуг малого бизнеса по области;
V_{Σ} - валовой региональный продукт (ВРП) области.

Для оценки концентрации рынка применен **индекс Херфиндаля-Хиршмана** (HHI):

$$HHI = \sum n\, i = 1\, (V_i/V \times 100)^2 \quad (2)$$

Где,
S_{ki}- объем услуг малого бизнеса в i-м районе;
S_i - общий объем производства i-го района;
V_{ki} - совокупный объем услуг малого бизнеса по области;
V_{Σ} - ВРП области.

Дополнительно, для оценки качества менеджмента в малом бизнесе региона, авторами введен **коэффициент эффективности управленческих затрат**

$$K_{EU} = \frac{Vt - Vt-1}{Ct - Ct-1} \quad (3)$$

Где: Vt - объем услуг в отчетном периоде;
V_{t-1} - объем услуг в базисном периоде;
Ct - управленческие расходы в отчетном периоде;
$Ct-1$ - управленческие расходы в базисном периоде.

Анализ и результаты

По данным Национального статистического комитета, на 1 января 2026 года в Узбекистане действовало в общей сложности 474,9 тыс. предприятий и организаций. Из них 403,8 тыс. (или 85%) приходилось на малые предприятия и микрофирмы.

Статистика свидетельствует о том, что в последние годы наблюдались значительные колебания численности действующих предприятий. В частности, в 2022 году этот показатель составлял 528,9 тыс., а в 2023 году - 592,4 тыс. Хотя в 2024 году число предприятий сократилось до 485 тыс., а на 1 января 2025 года составляло 424,8 тыс., к началу 2026 года их количество вновь возросло, достигнув 474,9 тыс.[14]

Отмечается, что высокая доля малых предприятий и микрофирм свидетельствует о сохранении предпринимательской активности в экономике и подчеркивает важную роль данного сектора в обеспечении занятости населения.

Анализ макроэкономических индикаторов Кашкадарьинской области за 2025 год показал позитивную динамику: темп роста валового регионального продукта (ВРП) составил 106,8 %, а оборот розничной торговли увеличился на 8,6 %.[14]

Главным драйвером выступает сектор рыночных услуг. По итогам 2025 года объем оказанных услуг достиг **54 118,0 млрд сумов**, увеличившись по сравнению с 2024 годом

(43 857,6 млрд сумов) на **13,6 %** в реальном выражении.

Таблица 1.

Динамика отдельных видов услуг в Кашкадарьинской области (начало 2026 г.)

П/н	*Направление услуг*	*Темп роста к аналогичному периоду прошлого года (%)*
1	Архитектурные и инженерные услуги	139,3 %
2	Финансовые услуги	124,4 %
3	Услуги торговли	115,7 %
4	Ремонт бытовых товаров	113,0 %

Источник: *Статистика регионов....Кашкадарьинская область* ***stat.uz***

Расчеты по формулам (1) и (2) показали критический уровень диспропорции (HHIs>3200). Это свидетельствует об избыточной концентрации субъектов малого бизнеса в г. Карши и Шахрисабзе. В то же время в Касанском, Миришкорском и Дехканабадском районах коэффициент локализации составил (K_{li}<0,65), что указывает на острый дефицит сервисных мощностей и неэффективность локального менеджмента.

При этом коэффициент эффективности управленческих затрат (K{eu}) в сельских районах имеет тенденцию к снижению, что доказывает высокую стоимость содержания неавтоматизированных управленческих структур.

Обсуждение

Высокие темпы роста сферы услуг (13,6 %) отражают расширение емкости потребительского рынка.[15]

Однако качественный анализ систем управления выявил три **системные проблемы менеджмента** в регионе:

1. **Низкий уровень цифровизации управленческих процессов (Digital Management Gap):** Более 75% малых предприятий сферы услуг в отдаленных районах используют интуитивный менеджмент без внедрения CRM - систем, теряя до 20% операционной прибыли из-за ошибок планирования.

2. **Дефицит квалифицированных менеджеров среднего звена:** Компетентный персонал концентрируется в областном центре, тогда как в сельской местности оперативное управление ложится на собственников, не имеющих профильного образования по менеджменту.

3. **Отсутствие стратегического планирования (Реактивный менеджмент):** Планирование ограничивается горизонтом в 1-3 месяца, лишая бизнес устойчивости.

Для преодоления данных барьеров нами разработана организационно-управленческая модель **«Интегрированного Сервисного Кластера»** на принципах государственно-частного партнерства (ГЧП). Она перестраивает управленческий цикл, разделяя субъект и объект управления следующим образом:

- **субъект управления:** Коллегиальный Совет управления кластером (Хокимият, ТПП, якорные сервисные компании).
- **объект управления:** Скооперированные бизнес-процессы малых предприятий (бытовой ремонт, логистика, агросервис).

Управленческая новизна модели заключается в создании **«Центра управленческих компетенций»** на базе Управляющей компании кластера. Стратегические функции (маркетинг, риск-менеджмент, сквозная IT-аналитика, юридический и бухгалтерский аутсорсинг) централизуются. Это освобождает малые предприятия от необходимости содержать избыточный штат управленцев, повышает коэффициент (K{eu}) на 35-40% и позволяет применять принципы гибкого *Agile-*

менеджмента в рамках единой экосистемы.

Заключение

Трансформация организационно-управленческого механизма развития сферы услуг в малом бизнесе выступает обязательным условием сбалансированного роста Кашкадарьинской области. Внедрение предложенной кластерной модели и децентрализация функций стратегического менеджмента позволят не только удержать темпы роста отрасли на уровне выше 13-15 %, но и качественно диверсифицировать структуру малого бизнеса, обеспечив переход от интуитивного к профессиональному, цифровому управлению в сельских регионах Кашдарьинской области.

Литературы

1. Закон Республики Узбекистан «О гарантиях свободы предпринимательской деятельности». 2 мая 2012 г., № ЗРУ-328.

2. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему кардинальному улучшению деловой среды и предоставлению большей свободы предпринимательству». 18 июля 2012 г., № УП-4455.

3. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «Стратегию развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

4. Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии „Узбекистан– 2030“». №УП-158 23.11.2023.

5. Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по ускорению социально-экономического развития Кашкадарьинской области» № ПП-96 от 13 марта 2026 года.

6. Друкер П. Ф. Задачи менеджмента в XXI веке. – New York: Harper Business, 2007. – 224 с.

7. Шумпетер Й. Основы предпринимательства. – М:, Дело. 2012. 2-изд. – 25-26.

8. Портер М. Э. Кластеры и новая экономика конкуренции // Harvard Business Review. – 1998. – Т. 76, № 6. – С. 77–90.

9. Родрик Д. Промышленная политика для создания качественных рабочих мест. – Washington, DC: The Hamilton Project, 2022. -36 с.

10. Конференция Организации Объединенных Наций по торговле и развитию (ЮНКТАД). Доклад о торговле и развитии 2023. – Женева: Организация Объединенных Наций, 2023. -236 с.

11. Всемирный банк. Доклад о мировом развитии 2024: Ловушка среднего уровня дохода. – Washington, DC: World Bank, 2024. – 320 с.

12. Организация экономического сотрудничества и развития (ОЭСР). Перспективы развития малого и среднего предпринимательства и предпринимательства – 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023. -320 с.

13. Азиатский банк развития. Обзор развития Азии 2024. - Manila: Asian Development Bank, 2024.

14. ***stat.uz.*** - официальный сайт Национального Комитета статистики Республики Узбекистан.

15. ***qashstat.uz***. - официальный сайт Управления статистики Кашкадарьинской области.

16. *Кабилова Ш.Ж.* Правовые основы и экономическое значение развития малого бизнеса в Узбекистане. Международная научно-практическая конференция. «ФИНАНСОВЫЕ РЫНКИ И ИНОСТРАННЫЕ ИНВЕСТОРЫ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ» 14-МАЯ 2026. -152-157С.

17. *Кабилова Ш.Ж.* KREATIV IQTISODIYOT VA UNING MINTAQA IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI HAMDA AHAMIYATINI TAHLIL QILISH. Сборник материалов республиканской конференции. Карши 23-апреля 2026.-212-217с.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

DAVLAT XARIDLARINI MOLIYAVIY TARTIBGA SOLISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA UNDAN MILLIY AMALIYOTDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Xamdamov Sardor Farmon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi (DSc),
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: sardorxamdamov@gmail.com
orcid: 0009-0001-5072-7342

Annotatsiya. *Maqolada davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning xalqaro-huquqiy asoslari (JSTning Davlat xaridlari to‘g‘risidagi bitimi, YUNSITRAL namunaviy qonuni, OESR tavsiyalari) va yetakchi mamlakatlar — Yevropa Ittifoqi, AQSH, Janubiy Koreya, Xitoy hamda MDH davlatlari modellari qiyosiy tahlil qilingan. Har bir modelning moliyaviy jihatlari — markazlashtirish darajasi, elektron platformalar, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va «yashil» xaridlar mexanizmlari ochib berilgan. Xorijiy tajribadan O‘zbekiston amaliyotida, xususan sanoat korxonalari xaridlarida foydalanish bo‘yicha takliflar asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *davlat xaridlari, xorijiy tajriba, JST bitimi, elektron xaridlar, KONEPS, ramkaviy kelishuv, markazlashtirilgan xarid, «yashil» xaridlar, preferensiyalar.*

ОПЫТ ЗАРУБЕЖНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ ЗАКУПОК И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО ПРИМЕНЕНИЯ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ

Хамдамов Сардор Фармон ўғли
Независимый исследователь (DSc)
Ташкентского государственного
экономического университета,
Доктор философии (PhD) в области экономики
E-mail: sardorxamdamov@gmail.com
orcid: 0009-0001-5072-7342

Аннотация. *В статье представлен сравнительный анализ международно-правовой базы финансового регулирования государственных закупок (Соглашение ВТО о государственных закупках, Типовой закон ЮНСИТРАЛ, Рекомендации ОЭСР) и моделей ведущих стран – Европейского союза, США, Южной Кореи, Китая и стран СНГ. Раскрыты финансовые аспекты каждой модели – степень централизации, электронные платформы, поддержка малого бизнеса и механизмы «зеленых» закупок. Предложены варианты использования зарубежного опыта в практике Узбекистана, в частности, в сфере закупок промышленных предприятий.*

Ключевые слова: *государственные закупки, зарубежный опыт, Соглашение ВТО, электронные закупки, КОНЭПС, рамочное соглашение, централизованные закупки, «зеленые» закупки, преференции.*

FOREIGN EXPERIENCE OF FINANCIAL REGULATION OF PUBLIC PROCUREMENT AND POSSIBILITIES OF ITS USE IN NATIONAL PRACTICE

Xamdamov Sardor Farmon o‘g‘li
Independent Researcher (DSc) of
Tashkent State University of Economics,
Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
E-mail: sardorxamdamov@gmail.com

orcid: 0009-0001-5072-7342

Abstract. *The article provides a comparative analysis of the international legal framework for the financial regulation of public procurement (WTO Agreement on Government Procurement, UNCITRAL Model Law, OECD recommendations) and the models of leading countries — the European Union, the USA, South Korea, China and CIS states. The financial aspects of each model are revealed: the degree of centralization, electronic platforms, small business support and green procurement mechanisms. Proposals are substantiated for applying international experience in Uzbekistan, particularly in the procurement of industrial enterprises.*

Key words: *public procurement, international experience, WTO GPA, e-procurement, KONEPS, framework agreement, centralized procurement, green procurement, preferences.*

Kirish

Davlat xaridlari mamlakat iqtisodiyotida davlat mablag‘laridan samarali foydalanish, raqobat muhitini rivojlantirish hamda byudjet xarajatlarining shaffofligini ta’minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda dunyoning rivojlangan davlatlarida davlat xaridlarini tashkil etish va moliyaviy tartibga solish tizimi zamonaviy raqamli texnologiyalar, ochiq elektron platformalar va risklarni boshqarish mexanizmlari asosida takomillashtirilmoqda. Bunday yondashuv davlat mablag‘laridan oqilona foydalanish, korrupsion xavflarni kamaytirish hamda xarid jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda ham davlat xaridlari tizimini xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish va elektron xarid tizimlarini keng joriy etish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish hamda davlat mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bois ushbu tadqiqotda xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasi tahlil qilinib, ularni O‘zbekiston amaliyotida qo‘llash imkoniyatlari baholanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solish masalalari iqtisodchi olimlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ilmiy tadqiqotlarda davlat xaridlari byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish, xarid jarayonlarining shaffofligini ta’minlash va raqobat muhitini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida baholanadi. Xususan, rivojlangan davlatlar tajribasida elektron davlat xaridlari tizimlari, moliyaviy nazorat mexanizmlari hamda risklarni boshqarish usullarining samaradorligi alohida e’tirof etiladi.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda davlat xaridlarini raqamlashtirish, ochiq elektron platformalarni joriy etish va sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish xarid jarayonlarining tezkorligi hamda shaffofligini oshirishi ta’kidlangan. Shuningdek, davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishda ichki audit, tashqi nazorat va jamoatchilik monitoringining o‘zaro uyg‘unligi byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishini ta’minlovchi muhim omil sifatida qaraladi.

Mavjud ilmiy ishlarda xorijiy tajribani milliy amaliyotga moslashtirish zarurligi qayd etilgan bo‘lsa-da, davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning zamonaviy mexanizmlarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli xorijiy tajribani kompleks tahlil qilish va uning milliy amaliyotga mos jihatlarini aniqlash ushbu tadqiqotning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro darajada davlat xaridlarining huquqiy-moliyaviy asoslari uchta hujjatda mujassam: JSTning Davlat xaridlari to‘g‘risidagi bitimi (GPA) a’zo mamlakatlar xarid bozorlarini o‘zaro ochish va kamsitmaslik tamoyilini o‘rnatadi [3]; YUNSITRALning Davlat xaridlari to‘g‘risidagi namunaviy qonuni (2011) milliy qonunchilik uchun universal andoza vazifasini bajaradi [4]; OESRning Davlat xaridlari bo‘yicha tavsiyasi (2015) xarid tizimlarini baholashning 12 tamoyilini belgilaydi [5]. Akademik adabiyotda xarid modellarining qiyosiy

tahlili N. Dimitri, G. Piga, J. Spanyolo [6], institutsional jihatlari I.I. Smotriskaya [7] ishlarida yoritilgan. Jahon banki xarid tizimlarini baholashning MAPS metodologiyasini qo‘llaydi [8]. Biroq mazkur manbalarda sanoat korxonalari xaridlarining moliyaviy mexanizmi alohida ajratib tahlil etilmagan, bu esa milliy amaliyotga moslashtirilgan tadqiqotni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlarini baholashda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, statistik tahlil, ilmiy abstraksiya, umumlashtirish hamda taqqoslash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida rivojlangan davlatlarning davlat xaridlari sohasidagi moliyaviy boshqaruv mexanizmlari, elektron xarid tizimlari va nazorat amaliyoti o‘rganilib, ularning samaradorligi milliy amaliyot bilan solishtirildi. Olingan natijalar asosida O‘zbekiston davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Yetakchi mamlakatlar tajribasining qiyosiy tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Davlat xaridlarini tartibga solishning milliy modellari qiyosiy tahlili[7]

Mamlakat / tizim	Asosiy tartibga soluvchi hujjat	Elektron platforma	Moliyaviy jihatdan o‘ziga xosligi
Yevropa Ittifoqi	2014/24/EU direktivasi	TED (Tenders Electronic Daily)	Xaridlar YAIMning ~14 foizi; ramkaviy kelishuvlar; “yashil” xarid (GPP) mezonlari; chegara qiymatlari tizimi
AQSH	Federal xaridlar qoidalari (FAR)	SAM.gov	Kichik biznes uchun qonuniy kvota (federal shartnomalarning kamida 23%); Buy American tamoyili; GAO nazorati
Janubiy Koreya	Davlat xaridlari xizmati (PPS) to‘g‘risidagi qonunchilik	KONEPS (2002-y.dan)	To‘liq raqamlashtirilgan yagona sikl; tranzaksion xarajatlarni yiliga mlrd dollar miqyosida tejash (OESR bahosi); markazlashtirilgan xarid
Xitoy	Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonun (2002)	CCGP portali	Milliy ishlab chiqaruvchilarga ustuvorlik; davlat buyurtmasi orqali sanoat siyosatini rag‘batlantirish
Rossiya	44-FZ “Kontrakt tizimi to‘g‘risida” (2013)	YEIS (zakupki.gov.ru)	Yagona axborot tizimi; shartnoma ijrosi ta’minoti instituti; milliy rejim
O‘zbekiston	O‘RQ-684 (2021, yangi tahrir)	Maxsus axborot portali (xarid.uzex.uz)	Elektron auksion va do‘kon ustuvorligi; mahalliy ishlab chiqaruvchilar preferensiyalari; g‘aznachilik nazorati

Qiyosiy tahlil uchta umumjahon tendensiyani ko‘rsatadi. Birinchisi — to‘liq raqamlashtirish: Janubiy Koreyaning KONEPS tizimi rejalashtirishdan to‘lovgacha bo‘lgan

[7] Muallif ishlanmasi

butun siklni yagona platformada birlashtirib, xarid jarayonining moliyaviy shaffofligini ta’minlagan va xalqaro tashkilotlar tomonidan etalon modeli sifatida e’tirof etilgan [9]. Ikkinchisi — markazlashtirish va ramkaviy kelishuvlar: YEI mamlakatlarida markaziy xarid organlari va ko‘p yillik ramkaviy kelishuvlar tranzaksion xarajatlarni va narx tarqoqligini kamaytiradi [10]. Uchinchisi — xaridlarning strategik funksiyasi: AQSHda kichik biznes kvotalari, Xitoyda sanoat siyosati, YEIda “yashil” mezonlar orqali xaridlar milliy iqtisodiy ustuvorliklarga xizmat qildiriladi.

O‘zbekiston uchun ushbu tajribadan quyidagi yo‘nalishlarni moslashtirish maqsadga muvofiq: ramkaviy kelishuvlar institutini sanoat korxonalarining takroriy xaridlarida keng qo‘llash (narx barqarorligi va ta’minot uzluksizligi uchun); boshlang‘ich narxni asoslashda narx monitoringi va elektron katalog ma’lumotlariga tayanish; shartnoma ijrosi ta’minoti vositalarini (bank kafolati, eskrou mexanizmlari) rivojlantirish; xarid mutaxassislarini professionallashtirish (Koreya va YEI tajribasi); hamda “yashil” xarid mezonlarini PF-259-son Farmonda belgilangan yo‘nalishlarga muvofiq bosqichma-bosqich joriy etish. Sanoat korxonalari kesimida ayniqsa ramkaviy kelishuvlar va avans-to‘lov mexanizmlarini muvozanatlash muhim: uzoq ishlab chiqarish siklida moliyaviy risklarni buyurtmachi va ijrochi o‘rtasida oqilona taqsimlash xarid samaradorligining hal qiluvchi shartidir.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solish tizimining samaradorligi davlat mablag‘laridan oqilona foydalanish, xarid jarayonlarining shaffofligini ta’minlash hamda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy davlatlar tajribasi elektron xarid platformalari, ochiq ma’lumotlar tizimi, risklarni boshqarish, moliyaviy monitoring va kuchli nazorat mexanizmlarini joriy etish byudjet xarajatlari samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni milliy qonunchilik va iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- davlat xaridlarining barcha bosqichlarini yagona raqamli platforma orqali monitoring qilish mexanizmlarini kengaytirish;
- xarid jarayonlarida moliyaviy risklarni baholash va oldini olishning zamonaviy usullarini joriy etish;
- ochiq ma’lumotlar bazasini rivojlantirish orqali jamoatchilik nazorati va shaffoflikni kuchaytirish;
- xarid ishtirokchilari uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish hamda kichik biznes subyektlarining ishtirokini rag‘batlantirish;
- davlat xaridlari sohasida mas’ul xodimlarning malakasini muntazam oshirish va xalqaro ilg‘or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi davlat xaridlarini moliyaviy boshqarish samaradorligini oshirish, byudjet mablag‘laridan maqsadli foydalanishni ta’minlash hamda davlat xaridlari tizimining ochiqligi va ishonchliligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri). 2021-yil 22-aprel, O‘RQ-684-son // lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2025-yil 26-dekabr, PF-259-son // lex.uz.
3. WTO. Agreement on Government Procurement (revised text, entered into force 6 April 2014). – Geneva: World Trade Organization.
4. UNCITRAL Model Law on Public Procurement. – New York: United Nations, 2011.
5. OECD. Recommendation of the Council on Public Procurement. – Paris: OECD, 2015.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

6. Dimitri N., Piga G., Spagnolo G. (eds.). Handbook of Procurement. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 562 p.

7. Smotriskaya I.I. Ekonomika gosudarstvennых zakupok. – M.: LIBROKOM, 2009. – 232 s.

8. MAPS: Methodology for Assessing Procurement Systems. – World Bank / OECD, 2018.

9. OECD. The Korean Public Procurement Service: Innovating for Effectiveness. OECD Public Governance Reviews. – Paris: OECD Publishing, 2016.

10. Directive 2014/24/EU of the European Parliament and of the Council of 26 February 2014 on public procurement // Official Journal of the European Union. L 94.

11. Federalnыy zakon ot 05.04.2013 g. № 44-FZ “O kontraktnoy sisteme v sfere zakupok tovarov, rabot, uslug dlya obespecheniya gosudarstvennых i munitsipalnых nujd”.

12. European Commission. Public Procurement Indicators. – Brussels: DG GROW (turli yillar).

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

XUSUSIY TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Primkulova Zilola Abrorovna
Mustaqil tadqiqotchi
Email: zilolaprimkulova@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning nazariy asoslari chuqur tahlil qilingan. Xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yuzaga keladigan xarajatlarning iqtisodiy mazmuni, ularni tasniflash, baholash va buxgalteriya hisobida aks ettirishning nazariy yondashuvlari o‘rganilgan. Shuningdek, tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar hisobini tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari, boshqaruv hisobi bilan integratsiyasi hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga mos ravishda takomillashtirish yo‘nalishlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida xarajatlar hisobining shaffofligi va ishonchliligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *xususiy tibbiyot tashkiloti, xarajatlar, buxgalteriya hisobi, xarajatlar hisobi, boshqaruv hisobi, moliyaviy hisobot, tibbiy xizmatlar, IFRS, samaradorlik, resurslardan foydalanish.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЛУЧШЕНИЯ УЧЕТА ЗАТРАТ В ЧАСТНЫХ МЕДИЦИНСКИХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Примкулова Зилола Аброровна
Независимый исследователь
Электронная почта: zilolaprimkulova@gmail.com

Аннотация: *В данной статье исследованы теоретические основы совершенствования бухгалтерского учета затрат в частных медицинских организациях. Рассмотрены экономическая сущность затрат, их классификация, оценка и отражение в бухгалтерском учете с учетом специфики медицинской деятельности. Особое внимание уделено вопросам организации учета затрат, его интеграции с управленческим учетом и совершенствованию в соответствии с требованиями Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО). По результатам исследования разработаны научные выводы и практические рекомендации, направленные на повышение прозрачности и достоверности учета затрат, эффективности использования ресурсов и качества управленческих решений.*

Ключевые слова: *частные медицинские организации, затраты, бухгалтерский учет, учет затрат, управленческий учет, финансовая отчетность, медицинские услуги, МСФО, эффективность, использование ресурсов.*

THEORETICAL BASIS OF IMPROVING COST ACCOUNTING IN PRIVATE MEDICAL ORGANIZATIONS

Primkulova Zilola Abrorovna
Independent Researcher
Email:zilolaprimkulova@gmail.com

Abstract: *This article explores the theoretical foundations for improving cost accounting in private healthcare organizations. It examines the economic nature of healthcare costs, their classification, measurement, and accounting treatment in accordance with the specific characteristics of medical services. Particular attention is given to the organization of cost*

accounting, its integration with management accounting, and its improvement in line with the requirements of International Financial Reporting Standards (IFRS). The study develops scientific conclusions and practical recommendations aimed at enhancing the transparency and reliability of cost accounting, improving resource efficiency, and supporting high-quality managerial decision-making in private healthcare organizations.

Keywords: *private healthcare organizations, costs, accounting, cost accounting, management accounting, financial reporting, healthcare services, IFRS, efficiency, resource utilization, decision-making.*

Kirish

Sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida xususiy tibbiyot tashkilotlarining iqtisodiyotdagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Ushbu tashkilotlar faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan xarajatlar buxgalteriya hisobining to‘g‘ri tashkil etilganligi va boshqaruv qarorlarini ishonchli axborot bilan ta’minlash darajasiga bog‘liq. Ayniqsa, tibbiy xizmatlar tannarxini aniq hisoblash, xarajatlarni iqtisodiy mazmuniga ko‘ra tasniflash hamda moliyaviy natijalarni haqqoniy shakllantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar va xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining (IFRS) keng joriy etilishi xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar hisobini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu sababli xarajatlar buxgalteriya hisobining nazariy asoslarini chuqur o‘rganish, amaldagi yondashuvlarni tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada aynan ushbu masalalar nazariy nuqtai nazardan yoritilib, xarajatlar hisobini samarali tashkil etishga oid ilmiy xulosalar bayon etilgan.

Adabiyotlar sharhi

Xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalari so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Zamonaviy tadqiqotlarda xarajatlarni samarali boshqarish, tibbiy xizmatlar tannarxini aniqlash, boshqaruv hisobini rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (IFRS) amaliyotga joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xalqaro amaliyotda sog‘liqni saqlash tashkilotlarida xarajatlar hisobini takomillashtirish resurslardan samarali foydalanish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning muhim omili sifatida baholanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) sog‘liqni saqlash xarajatlarini strategik boshqarish, xizmatlar tannarxini aniq hisoblash hamda moliyaviy shaffoflikni ta’minlash tibbiyot muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishini ta’kidlaydi [1].

Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (IFAC) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sog‘liqni saqlash tashkilotlarida boshqaruv hisobi va xarajatlar hisobining integratsiyasi rahbariyatga tezkor va asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini berishi asoslab berilgan [2]. Shuningdek, IFRS Foundation tomonidan e’lon qilingan uslubiy hujjatlarda moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta’minlash uchun xarajatlarni to‘g‘ri e’tirof etish va baholash zarurligi qayd etilgan [3].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hisobotlarida sog‘liqni saqlash tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish xarajatlar monitoringini takomillashtirish, tibbiy xizmatlar tannarxini aniq hisoblash hamda moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ko‘rsatilgan [4]. Xuddi shunday, Jahon banki tadqiqotlarida sog‘liqni saqlash muassasalarida moliyaviy boshqaruv va xarajatlar nazoratini kuchaytirish xizmatlar sifati hamda investitsion jozibadorlikni oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan [5].

Mahalliy olimlar tomonidan ham xarajatlar buxgalteriya hisobi masalalari keng tadqiq etilgan. Jumladan, B. Xasanovning ilmiy ishlarida xarajatlar hisobi va boshqaruv hisobini uyg‘unlashtirish korxona samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida baholangan [6]. R.

Dusmuratov buxgalteriya hisobi nazariyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida xarajatlarni iqtisodiy mazmuniga ko‘ra tasniflash va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirishning metodologik jihatlarini yoritgan [7].

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish bo‘yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar xususiy tibbiyot tashkilotlarida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish va zamonaviy buxgalteriya hisobi usullarini joriy etish uchun muhim huquqiy asos yaratmoqda [8]. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sog‘liqni saqlash tizimini transformatsiya qilishga oid qarorlari xususiy sektor faoliyatida xarajatlar hisobi va ichki nazorat tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab bermoqda [9].

O‘rganilgan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar mavjud bo‘lsa-da, tibbiy xizmatlar tannarxini zamonaviy boshqaruv hisobi usullari asosida hisoblash, raqamli texnologiyalarni xarajatlar hisobiga integratsiyalash hamda IFRS talablariga mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqish masalalari yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi.

Tadqiqotlar metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishda kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy va tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, induksiya va deduksiya, sintez hamda umumlashtirish usullari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlarni tasniflash, hisobga olish va boshqarish bo‘yicha milliy hamda xalqaro tajribalar o‘zaro taqqoslandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi va sog‘liqni saqlash sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlari, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS), ilmiy adabiyotlar hamda soha bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, asosiy ulushni tibbiyot xodimlariga mehnat haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, dori vositalari hamda tibbiy buyumlar, diagnostika va davolash uskunalarining amortizatsiyasi, kommunal xizmatlar va ma'muriy xarajatlar tashkil etadi. Amaliyotda ushbu xarajatlarning ayrim hollarda yagona guruh tarkibida hisobga olinishi tibbiy xizmatlar tannarxini aniq hisoblash imkoniyatini cheklaydi.

Nazariy jihatdan xarajatlarni iqtisodiy elementlar va kalkulyatsiya moddalari bo‘yicha alohida hisobga olish tibbiy xizmatlarning haqiqiy tannarxini aniqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xarajatlarni doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarga ajratish rahbariyatga narx belgilash, xarajatlarni optimallashtirish va moliyaviy natijalarni prognoz qilishda muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ko‘plab xususiy tibbiyot tashkilotlarida boshqaruv hisobi elementlaridan to‘liq foydalanilmaydi hamda xarajatlar markazlari (Cost Centers) bo‘yicha hisob yuritish amaliyoti yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa alohida bo‘limlar, laboratoriyalar yoki xizmat turlari kesimida rentabellikni baholashni murakkablashtiradi. Shuningdek, raqamli buxgalteriya tizimlaridan cheklangan foydalanish xarajatlar monitoringining tezkorligini pasaytiradi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, xarajatlarni xizmat turlari va mas'uliyat markazlari bo‘yicha hisobga olish, boshqaruv hisobi elementlarini joriy etish hamda buxgalteriya axborot tizimlarini raqamlashtirish xarajatlar hisobining aniqligi va shaffofligini sezilarli darajada oshiradi. Bundan tashqari, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablariga mos hisob siyosatini shakllantirish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlab, investitsion

jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan nazariy tahlillar asosida xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida xarajatlarni ilmiy asoslangan tasniflash, zamonaviy boshqaruv hisobi usullarini qo‘llash, raqamli hisob tizimlarini keng joriy etish hamda ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuvlar tibbiy xizmatlar tannarxini aniq hisoblash, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini samarali tashkil etish moliyaviy boshqaruv sifatini oshirish, tibbiy xizmatlar tannarxini aniq hisoblash va resurslardan oqilona foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Amaldagi hisob tizimida xarajatlarni tasniflash, xizmat turlari bo‘yicha hisobga olish hamda boshqaruv hisobi elementlarini qo‘llash bilan bog‘liq ayrim kamchiliklar mavjud bo‘lib, ular hisob axborotining tezkorligi va ishonchliligiga salbiy ta'sir ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlarni iqtisodiy elementlar va kalkulyatsiya moddalari bo‘yicha alohida hisobga olish tizimini takomillashtirish;
- tibbiy xizmatlar tannarxini aniq aniqlash uchun xarajatlar markazlari (cost centers) va mas'uliyat markazlari bo‘yicha boshqaruv hisobini joriy etish;
- buxgalteriya hisobini raqamlashtirish hamda zamonaviy axborot tizimlaridan keng foydalanish orqali xarajatlar monitoringini avtomatlashtirish;
- xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablariga mos hisob siyosatini shakllantirish va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish;
- ichki nazorat tizimini kuchaytirish hamda xarajatlarni muntazam tahlil qilish orqali moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish.

Mazkur takliflarni amaliyotga tatbiq etish xususiy tibbiyot tashkilotlarida buxgalteriya hisobi sifatini yaxshilash, xarajatlarni optimallashtirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization. Global Health Expenditure Report 2024. Geneva: WHO, 2024.
2. International Federation of Accountants (IFAC). International Good Practice Guidance: Costing and Cost Management in the Public Sector. New York: IFAC, 2024.
3. IFRS Foundation. Issued IFRS Accounting Standards 2024. London: IFRS Foundation, 2024.
4. OECD. Health at a Glance 2025: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing, 2025.
5. World Bank. Investing in Health Systems for Better Outcomes. Washington, DC: World Bank, 2024.
6. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2023.
7. Dusmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2024.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish va xususiy tibbiyot xizmatlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” normativ-huquqiy hujjatlari. – Toshkent, 2024.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2025–2030-yillarda sog‘liqni saqlash tizimini transformatsiya qilish strategiyasi. – Toshkent, 2025.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MAVSUMIY ISHLAB CHIQARISHNI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING XORIJIY TAJRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Kilichev Alisher Akramovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: alisherkilichev@mail.ru
orcid: 0009-0004-2348-2054

Annotatsiya. *Maqolada mavsumiy xususiyatga ega ishlab chiqarishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribasi tadqiq etilgan. AQSH, Yevropa Ittifoqi va Turkiya misolida mavsumiy likvidlikni ta’minlash, xatarlarni sug‘urtalash va daromadlarni barqarorlashtirishning institutsional mexanizmlari — garov asosidagi marketing kreditlari, subsidiyalangan sug‘urta tizimlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lovlar va xususiy saqlashni qo‘llab-quvvatlash vositalari qiyosiy tahlil qilingan. Tahlil natijalari asosida mazkur tajribani O‘zbekistonda mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga moslashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *mavsumiy ishlab chiqarish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, marketing krediti, agrosug‘urta, xatarlarni boshqarish, ombor guvohnomasi, xorijiy tajriba, moliyaviy barqarorlik.*

ОПЫТ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ СЕЗОННОГО ПРОИЗВОДСТВА ЗА РУБЕЖОМ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Киличев Алишер Акрамович

Независимый исследователь Ташкентского государственного экономического университета
Электрон почта: alisherkilichev@mail.ru
orcid: 0009-0004-2348-2054

Аннотация. *В статье исследуется зарубежный опыт финансовой поддержки сезонного производства. На примере США, Европейского союза и Турции проводится сравнительный анализ институциональных механизмов обеспечения сезонной ликвидности, страхования рисков и стабилизации доходов – обеспеченных залогом маркетинговых кредитов, субсидируемых систем страхования, прямых платежей и инструментов поддержки частного хранения. На основе результатов анализа разработаны предложения по адаптации этого опыта для обеспечения финансовой стабильности предприятий, производящих сезонную продукцию в Узбекистане.*

Ключевые слова: *сезонное производство, финансовая поддержка, маркетинговый кредит, агрострахование, управление рисками, складское свидетельство, зарубежный опыт, финансовая стабильность.*

FOREIGN EXPERIENCE OF FINANCIAL SUPPORT OF SEASONAL PRODUCTION AND POSSIBILITIES OF ITS USE IN UZBEKISTAN

Kilichev Alisher Akramovich

Independent researcher of

Tashkent State
University of Economics
E-mail: alisherkilichev@mail.ru
orcid: 0009-0004-2348-2054

Abstract. *The article examines foreign experience in providing financial support to seasonal production. Using the examples of the USA, the European Union and Turkey, a comparative analysis is made of institutional mechanisms for ensuring seasonal liquidity, risk insurance and income stabilization — collateral-based marketing loans, subsidized insurance systems, direct payments and private storage aid. Based on the results, proposals are developed for adapting this experience to ensuring the financial sustainability of enterprises producing seasonal products in Uzbekistan.*

Keywords: *seasonal production, financial support, marketing assistance loan, agricultural insurance, risk management, warehouse receipt, foreign experience, financial sustainability.*

Kirish.

Mavsumiy ishlab chiqarish iqtisodiyotning qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati, turizm, qurilish va ayrim xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida keng uchraydigan faoliyat turi bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi va daromadlarning yil fasllariga bog‘liq ravishda o‘zgarishi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda korxonalarning aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyoji ortadi, moliyaviy resurslarning yetishmasligi esa ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlashda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu sababli mavsumiy ishlab chiqarishni samarali moliyaviy qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Jahon amaliyotida mavsumiy ishlab chiqarishni moliyalashtirishning turli mexanizmlari, jumladan, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, davlat kafolatlari, sug‘urta tizimlari, lizing va maxsus moliyalashtirish dasturlari keng qo‘llanilmoqda. Ushbu mexanizmlar ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, mavsumiy risklarni kamaytirish hamda ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda ham mavsumiy ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, mavjud moliyalashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, xorijiy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurati saqlanib qolmoqda. Shu munosabat bilan rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish, ularning samarali moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilish hamda O‘zbekiston amaliyotida qo‘llash imkoniyatlarini baholash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavsumiy mahsulotlar ishlab chiqarish — qishloq xo‘jaligi va unga bog‘liq qayta ishlash tarmoqlari — jahonning barcha mamlakatlarida moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan o‘ziga xos muammolarga duch keladi: daromadlarning qisqa davrga to‘planishi, narx tebranishlari, tabiiy-iqlimiy xatarlar va aylanma mablag‘larga bo‘lgan mavsumiy ehtiyoj. Rivojlangan mamlakatlar ushbu muammolarni hal etishning yarim asrdan ortiq vaqt davomida shakllangan institutsional mexanizmlarini yaratgan bo‘lib, ularni o‘rganish O‘zbekistonda mavsumiy tarmoqlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Maqolaning maqsadi — yetakchi mamlakatlar tajribasini mavsumiy likvidlik, xatarlarni sug‘urtalash va daromadlarni barqarorlashtirish mexanizmlari kesimida qiyosiy tahlil qilish hamda milliy amaliyotga moslashtirish imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Agrar moliya va mavsumiy ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari P.Barri va P.Ellinger [1], J.Skiisning xatarlarni boshqarish bo‘yicha ishlari [2], shuningdek Jahon bankining ombor guvohnomalari moliyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida [3] atroflicha yoritilgan. Tadqiqotda qiyosiy-institutsional tahlil usuli qo‘llanildi: uch mamlakat (hudud)

tajribasi uchta mezon — mavsumiy likvidlilikni ta’minlash, xatarlarni taqsimlash va daromadni barqarorlashtirish mexanizmlari kesimida tahlil etildi. Axborot bazasini AQSH Qishloq xo‘jaligi vazirligi (USDA), Yevropa Komissiyasi va Turkiya agrosug‘urta tizimining rasmiy manbalari tashkil etdi [4; 5; 6; 7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda mavsumiy ishlab chiqarishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, statistik tahlil, ilmiy abstraksiya hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda mavsumiy ishlab chiqarishni moliyalashtirish amaliyoti o‘rganilib, ularning samarali mexanizmlari O‘zbekiston amaliyoti bilan taqqoslandi. Olingan natijalar asosida milliy iqtisodiyot sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar.

AQSH tajribasi. AQSHda mavsumiy likvidlikni ta’minlashning markaziy instituti — Tovar kredit korporatsiyasi (Commodity Credit Corporation, CCC) orqali beriladigan marketing kreditlari (Marketing Assistance Loans) hisoblanadi [4]. Mexanizmning mohiyati shundaki, ishlab chiqaruvchi hosilni yig‘ishtirgach, uni bozorda darhol — narx eng past davrda — sotishga majbur bo‘lmaydi: mahsulotni garovga qo‘yib, belgilangan stavka bo‘yicha 9 oygacha muddatli kredit oladi va narx qulay bo‘lgan davrda sotib, kreditni qaytaradi. Narx kredit stavkasidan past bo‘lib qolsa, ishlab chiqaruvchi mahsulotni davlatga topshirish orqali majburiyatdan ozod bo‘ladi — bu kreditning “nonrekurs” xususiyati bo‘lib, narx xatarini davlat zimmasiga o‘tkazadi. 2025-yil oxirida qabul qilingan qonun hujjatlari mazkur dasturni 2031-yilgacha uzaytirib, garov stavkalarini oshirdi [5]. Ikkinchi tayanch mexanizm — federal hosil sug‘urtasi: Federal hosil sug‘urtasi korporatsiyasi orqali davlat sug‘urta mukofotining o‘rtacha uchdan ikki qismigacha bo‘lgan qismini subsidiyalaydi, bu mavsumiy xatarlarni sug‘urta bozori orqali taqsimlash imkonini beradi [6].

Yevropa Ittifoqi tajribasi. YEIning 2023–2027-yillarga mo‘ljallangan Umumiy agrar siyosati (CAP) doirasida daromadni barqarorlashtirishning asosiy vositasi — ishlab chiqarish hajmidan uzilgan (decoupled) to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lovlar bo‘lib, ular mavsumiy daromad tebranishlaridan qat’i nazar, ishlab chiqaruvchiga bashorat qilinadigan pul oqimini kafolatlaydi [7]. Bozor beqarorligi davrlarida xususiy saqlashni qo‘llab-quvvatlash (private storage aid) mexanizmi ishga tushiriladi: mahsulotni bozorga chiqarishni kechiktirib saqlash xarajatlari qisman qoplanadi, bu taklifning mavsumiy bosimini yumshatadi. Bundan tashqari, a’zo davlatlarda kafolat fondlari va subsidiyalangan foiz stavkalari orqali aylanma mablag‘ kreditlariga kirish kengaytirilgan.

Turkiya tajribasi. Turkiyada mavsumiy tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos instituti — davlat-xususiy sheriklik asosidagi yagona agrosug‘urta havzasi (TARSİM) bo‘lib, unda sug‘urta mukofotining taxminan yarmi davlat byudjetidan subsidiyalanadi, sug‘urta xatarlari esa tizimga a’zo sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida taqsimlanadi [8]. Mavsumiy aylanma mablag‘ ehtiyojlari, asosan, Ziroat banki orqali imtiyozli foiz stavkalarida, hosil sikliga moslashtirilgan imtiyozli davr bilan kreditlash orqali qoplanadi. Turkiya tajribasining muhim jihati — litsenziyalangan omborlar va elektron ombor guvohnomalari tizimining rivojlantirilganligi: ishlab chiqaruvchi mahsulotini litsenziyalangan omborga topshirib, guvohnoma asosida bank krediti olishi mumkin.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, institutsional shakllardagi farqlarga qaramay, barcha tizimlar uchta umumiy tamoyilga tayanadi. Birinchidan, mavsumiy likvidlik muammosi mahsulotning o‘zini likvid moliyaviy aktivga aylantirish orqali hal etiladi (garov kreditlari, ombor guvohnomalari). Ikkinchidan, tabiiy va narx xatarlari davlat ishtirokidagi sug‘urta va kafolat mexanizmlari orqali taqsimlanadi va bu xatarlarning kredit tizimiga o‘tishining oldini

oladi. Uchinchidan, qo‘llab-quvvatlash vositalari mavsumiy siklning aniq bosqichlariga bog‘langan bo‘lib, aynan likvidlik tanqisligi yuzaga keladigan nuqtalarda ishlaydi.

O‘zbekiston uchun xulosalar. Mazkur tajribani milliy amaliyotga moslashtirishda quyidagi yo‘nalishlar istiqbolli deb hisoblaymiz: birinchidan, litsenziyalangan omborlar va elektron ombor guvohnomalari tizimini mavsumiy mahsulotlarning keng doirasiga tatbiq etish va ular asosidagi bank kreditlashini rivojlantirish; ikkinchidan, agrosug‘urtada davlat-xususiy sheriklik modeliga (Turkiya tajribasi) bosqichma-bosqich o‘tish va sug‘urta mukofotlarini maqsadli subsidiyalash; uchinchidan, mavsumiy kredit mahsulotlarini hosil sikliga moslashtirilgan imtiyozli davr va to‘lov jadvallari bilan takomillashtirish; to‘rtinchidan, qayta ishlash korxonalari uchun xomashyo zaxiralarini moliyalashtirishda garov mexanizmlarini kengaytirish. Ushbu yo‘nalishlarning har biri keyingi tadqiqotlarda miqdoriy asoslash va joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mavsumiy ishlab chiqarishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlash, aylanma mablag‘lar yetishmovchiligining oldini olish hamda ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy davlatlar tajribasi imtiyozli kreditlash, davlat kafolatlari, subsidiyalar, sug‘urta mexanizmlari va raqamli moliyaviy xizmatlardan samarali foydalanish mavsumiy faoliyatning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni milliy iqtisodiyot xususiyatlariga moslashtirish orqali mavsumiy ishlab chiqarish subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- mavsumiy ishlab chiqaruvchilar uchun imtiyozli kredit liniyalari va aylanma mablag‘larni moliyalashtirish dasturlarini kengaytirish;
- davlat kafolatlari hamda foiz xarajatlarini qisman kompensatsiya qilish mexanizmlarini rivojlantirish;
- mavsumiy risklarni kamaytirishga xizmat qiluvchi sug‘urta va kafillik tizimlarini takomillashtirish;
- moliyalashtirish jarayonlarida raqamli platformalar va fintech xizmatlarini keng joriy etish;
- xorijiy tajriba asosida davlat, tijorat banklari va xususiy investorlar hamkorligiga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi mavsumiy ishlab chiqarishning moliyaviy barqarorligini oshirish, ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish hamda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy hissa qo‘shishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Barry P.J., Ellinger P.N. Financial Management in Agriculture. 7th ed. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 2012.

2. Skees J.R. Challenges for Use of Index-based Weather Insurance in Lower Income Countries // Agricultural Finance Review. – 2008. – Vol. 68, No. 1. – P. 197–217.

3. Höllinger F., Rutten L., Kiriakov K. The Use of Warehouse Receipt Finance in Agriculture in Transition Countries. – Rome: FAO/World Bank, 2009.

4. Commodity Loans // U.S. Department of Agriculture, Farm Service Agency. – https://www.fsa.usda.gov/resources/price-support/commodity-loans

5. USDA Announces 2026 Marketing Assistance Loan Rates for Wheat, Feed Grains, Oilseeds and Rice // USDA FSA, 08.04.2026. – https://www.fsa.usda.gov

6. USDA Farm Programs Baseline // Congressional Budget Office, February 2026. –

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

https://www.cbo.gov

7. Regulation (EU) 2021/2115 of the European Parliament and of the Council of 2 December 2021 establishing rules on support for strategic plans to be drawn up by Member States under the common agricultural policy // Official Journal of the European Union. – L 435, 06.12.2021.

8. Tarım Sigortaları Havuzu (TARSİM) resmi web-sayti. – https://www.tarsim.gov.tr

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni // lex.uz

10. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumdavlat moliyasi. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

XORIJIY AMALIYOTDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI MOLIYAVIY RAQOBATBARDOSHLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATSIYALASHGAN INSTITUTSIONAL YONDASHUVLARI

Vaisov Dilshod Ibodullayevich

Ilmiy tadqiqotchi
Ma’mun universiteti,
E-mail: vaisov_dilshod@mamunedu.uz
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-6293-1498

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xorijiy amaliyot asosida kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional yondashuvi tadqiq etilgan. Xorijiy tajribalar qiyosiy tahlil qilinib, ularni O‘zbekiston sharoitiga adaptatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari va bosqichma-bosqich institutsional mexanizmi ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *kichik biznes, moliyaviy raqobatbardoshlik, institutsional yondashuv, moliyaviy integratsiya, innovatsion infratuzilma, raqamli transformatsiya, FinTech, xalqaro tajriba, adaptatsiya mexanizmi, institutsional rivojlanish, global integratsiya, O‘zbekiston.*

ИНТЕГРИРОВАННЫЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ ФИНАНСОВОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА В ЗАРУБЕЖНОЙ ПРАКТИКЕ

Ваисов Дилшод Ибодуллаевич

Научный исследователь
Университет «Маъмун»
E-mail: vaisov_dilshod@mamunedu.uz
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-6293-1498

Аннотация: *В данной статье исследуется интегрированный институциональный подход к развитию финансовой конкурентоспособности субъектов малого бизнеса на основе зарубежной практики. Проведен сравнительный анализ зарубежного опыта, разработаны приоритетные направления и поэтапный институциональный механизм их адаптации к условиям Узбекистана.*

Ключевые слова: *малый бизнес, финансовая конкурентоспособность, институциональный подход, финансовая интеграция, инновационная инфраструктура, цифровая трансформация, FinTech, международный опыт, механизм адаптации, институциональное развитие, глобальная интеграция, Узбекистан.*

INTEGRATED INSTITUTIONAL APPROACHES TO ENHANCING THE FINANCIAL COMPETITIVENESS OF SMALL BUSINESS ENTITIES: EVIDENCE FROM INTERNATIONAL PRACTICE

Vaisov Dilshod Ibodullayevich

Researcher
Ma'mun University
E-mail: vaisov_dilshod@mamunedu.uz
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-6293-1498

Abstract: *This article examines an integrated institutional approach to developing the financial competitiveness of small business entities based on foreign experience. A comparative analysis of foreign experience was conducted, and priority directions and a phased institutional mechanism for their adaptation to the conditions of Uzbekistan were developed.*

Keywords: *small business, financial competitiveness, institutional approach, financial integration, innovative infrastructure, digital transformation, FinTech, international experience, adaptation mechanism, institutional development, global integration, Uzbekistan.*

Kirish.

Kichik biznes subyektlarining moliyaviy raqobatbardoshligini ta'minlashda rivojlangan davlatlar tajribasini chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli natijalarga faqat alohida kredit yoki subsidiya dasturlari orqali emas, balki barcha institutsional ishtirokchilarni o'zaro uyg'unlashtiruvchi kompleks tizim orqali erishiladi. Xususan, AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlarda davlat tomonidan kafolatlangan kredit dasturlari, tijorat banklari va mikromoliya tashkilotlarining moslashuvchan mahsulotlari, venchur kapital fondlari hamda innovatsion inkubator va akseleratorlar bir-birini to'ldiruvchi elementlar sifatida faoliyat yuritadi. Bunday tizimda davlat asosan bozor bo'shliqlarini bartaraf etish, kafolat mexanizmlarini yaratish va me'yoriy-huquqiy bazani soddalashtirish vazifasini bajarsa, xususiy moliya institutlari va FinTech kompaniyalari esa tezkor, arzon va texnologik jihatdan qulay moliyaviy xizmatlarni taqdim etish orqali kichik biznesning kapitalga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Ayniqsa, raqamli kredit skoring tizimlari, katta ma'lumotlar (big data) tahlili va sun'iy intellektga asoslangan risklarni baholash usullarining joriy etilishi kichik korxonalar uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda, bu esa an'anaviy banklarning konservativ kreditlash siyosati sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sharoitida ushbu xalqaro tajribani adaptatsiya qilish jarayonida milliy iqtisodiyotning institutsional o'ziga xosliklarini, moliya bozorining rivojlanish darajasini va tadbirkorlik muhitining mavjud muammolarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Birinchi navbatda, davlat kafolat fondlari faoliyatini kengaytirish va ularning risklarni taqsimlash mexanizmlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, ikkinchidan, tijorat banklari va mikromoliya tashkilotlari o'rtasida raqobatni kuchaytirish orqali kichik biznes uchun moliyalashtirish shartlarini yumshatish zarur. Bundan tashqari, milliy FinTech ekotizimini rivojlantirish, elektron hukumat xizmatlari bilan integratsiyalashgan raqamli kredit platformalarini yaratish, shuningdek, xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, ADB, EBRD kabi) bilan hamkorlikni chuqurlashtirish orqali texnik va moliyaviy resurslarni jalb qilish muhim ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bunday integratsiyalashgan institutsional model nafaqat kichik biznesning moliyaviy barqarorligini oshiradi, balki innovatsion faollikni rag'batlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va mamlakat iqtisodiyotining xalqaro raqobatbardoshlik darajasini yuksaltirish orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishga ham xizmat qiladi.

Oldingi tadqiqotlarimiz bevosita kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligi muammolari, raqobatbardoshlikni ta’minlash mexanizmlari va xususiyatlariga bag’ishlangan bo’lsa, mazkur ishlanma bevosita kichik biznes faoliyati uchun eng muhim sifatlardan bo’lgan moliyaviy raqobatbardoshlikka bag’ishlanadi[1], [2], [3], [4], [5], [6], [7], [8], [9].

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional yondashuvlarini aniqlash va ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish maqsadida kompleks ilmiy tadqiqot metodologiyasidan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini institutsional iqtisodiyot, moliyaviy rivojlanish, raqobat ustunligi hamda innovatsion ekotizim nazariyalari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil usuli va tizimli yondashuv asosida davlat siyosati, moliyaviy institutlar, innovatsion infratuzilma, FinTech ekotizimi va xalqaro moliyaviy hamkorlik o‘rtasidagi funksional bog‘liqlik tahlil qilindi. Mantiqiy umumlashtirish, sintez va induksiya usullari yordamida xorijiy tajribalarning umumiy qonuniyatlari aniqlanib, ularni O‘zbekiston iqtisodiyotiga adaptatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari shakllantirildi. Ekspert baholash va

matritsaviy tahlil usullaridan foydalanish orqali institutsional omillarning moliyaviy, innovatsion, raqamli va eksport salohiyatiga ta’siri baholandi.

Adabiyotlar tahlili.

Kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirish masalasi iqtisodiy adabiyotlarda uzoq yillardan buyon moliyaviy rivojlanish, institutsional iqtisodiyot va raqobat nazariyalari doirasida tadqiq etib kelinmoqda. Dastlabki ilmiy ishlanmalarda asosiy e’tibor moliyaviy resurslarning iqtisodiy o‘sishdagi o‘rniga qaratilgan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlarda institutsional muhit, innovatsion infratuzilma, raqamli transformatsiya va xalqaro hamkorlikning kichik biznes raqobatbardoshligiga ta'siri tobora kengroq yoritila boshlangan.

Moliyaviy rivojlanish nazariyasining asoschilari Shumpeter, Goldsmit, McKinnon va Shou moliyaviy institutlarning iqtisodiy taraqqiyotdagi strategik rolini asoslab berishgan. Keyinchalik Levin, Beck, Demirgüç-Kunt va Maksimovichlar moliyaviy tizimning rivojlanganligi kichik biznes subyektlarining investitsion faolligi, kapitalga kirish imkoniyatlari va uzoq muddatli raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini empirik jihatdan isbotlashgan. [11], [13], [17], [20] Mazkur tadqiqotlar moliyaviy infratuzilmaning sifati tadbirkorlik rivojlanishining muhim institutsional sharti ekanligini ko‘rsatmoqda.

Institutsional iqtisodiyot yo‘nalishida Duglas Kaplan Nort institutlarni iqtisodiy rivojlanishning fundamental omili sifatida baholab, samarali institutlar tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishi va iqtisodiy subyektlar faoliyatining barqarorligini ta’minlashini ta’kidlaydi. Ushbu nazariya keyinchalik kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash siyosatini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan. Porter esa milliy raqobat ustunligi konsepsiyasi doirasida klasterlashuv, innovatsiyalar va institutlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni asoslab berdi. Triple Helix modeli mualliflari Genri Ezkoviz va Loet Leydesdorf universitet–biznes–davlat hamkorligini innovatsion rivojlanishning asosiy institutsional mexanizmi sifatida izohlashgan. [15], [16], [19], [24]

So‘nggi yillarda IHTT, Jahon Banki, XMK va OTB hisobotlarida kichik biznesni rivojlantirishning an’anaviy kreditlash modelidan integratsiyalashgan institutsional ekotizim modeliga o‘tish tendensiyasi alohida qayd etilmoqda. Mazkur yondashuvda kredit kafilligi, tijorat banklari, venchur kapital, innovatsion infratuzilma, FinTech texnologiyalari, davlat-xususiy sheriklik va xalqaro moliya institutlari yagona majmuaviy tizim sifatida qaralmoqda. Arner, Barberis va Bukley, Gomber va boshqalar, Frost va Gambakortalar raqamli moliyalashtirish texnologiyalarining institutsional transformatsiyaga ta’sirini asoslab, moliyaviy inklyuziya va resurslardan foydalanish samaradorligining oshishini ilmiy jihatdan izohlab berishgan [10], [12], [14], [18], [21], [22], [25], [26], [27].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlarning aksariyatida moliyaviy, innovatsion, raqamli va institutsional omillar alohida yo‘nalishlarda tahlil qilingan bo‘lib, ularning yagona integratsiyalashgan model doirasidagi o‘zaro ta’siri yetarlicha yoritilmagan. Mazkur maqolada aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida xorijiy tajribani sintezlash va tahlil qilish asosida kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional yondashuvi asosida uni O‘zbekiston sharoitiga adaptatsiya qilishning ustuvor mexanizmlari konseptual jihatdan asoslab beriladi.

Tahlil va natijalar.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv, raqamli transformatsiya va innovatsion rivojlanish jarayonlarining jadallashuvi kichik biznes subyektlarining iqtisodiy o‘sishdagi rolini sezilarli darajada oshirdi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, zamonaviy iqtisodiyotda kichik biznesning barqaror rivojlanishi faqatgina moliyaviy resurslar hajmi bilan emas, balki ushbu resurslardan samarali foydalanish, institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimining mukammalligi, innovatsion infratuzilma, raqamli moliyalashtirish vositalari va davlat hamda xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik darajasining intensivligi kabilar bilan belgilanadi. Shu sababli so‘nggi

yillarda rivojlangan davlatlarda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishga oid yondashuvlar alohida moliyaviy instrumentlardan foydalanishdan ko‘ra, ularni yagona institutsional ekotizim doirasida integratsiyalash tamoyiliga asoslanmoqda.

1-jadval.

Xorijiy amaliyotda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishning institutsional evolyutsiyasi

Davr	Institutsional rivojlanish modeli	Yetakchi davlatlar	Asosiy xususiyatlari	Moliyaviy raqobatbardoshlikka ta'siri
1950–1980-yillar	An’anaviy bank moliyalashtirish modeli	Germaniya, Yaponiya	Tijorat banklari va davlat taraqqiyot banklari orqali kreditlash ustuvorligi	Moliyaviy barqarorlik va kredit resurslariga kirish
1980–2000-yillar	Davlat qo'llab-quvvatlash va kafillik modeli	AQSH, Germaniya, Turkiya	Kredit kafilligi, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va biznesni qo'llab-quvvatlash institutlari	Kapitalga kirish imkoniyatlarini kengaytirish
2000–2015-yillar	Innovatsion va klasterlashuv modeli	Janubiy Koreya, Finlyandiya, Italiya	Universitet–biznes hamkorligi, texnoparklar, klasterlar, venchur kapital	Innovatsion salohiyat va investitsion faollikni oshirish
2015–2020-yillar	Raqamli moliyalashtirish va FinTech modeli	Xitoy, Singapur, Buyuk Britaniya	Digital Lending, Open Banking, P2P Lending, Crowdfunding va AI texnologiyalarining rivojlanishi	Moliyaviy inklyuziya va operatsion samaradorlikni oshirish
2020-yildan hozirgacha	Integratsiyalashgan institutsional ekotizim modeli	IHTT, Jahon banki loyihalari amalga oshirilayotgan davlatlar	Davlat, moliya sektori, innovatsion infratuzilma, FinTech va xalqaro institutlarning kompleks integratsiyasi	Barqaror moliyaviy raqobatbardoshlik va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv

Izoh: IHTT, Jahon banki, XMK, OTB, XVJ va ilmiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

1-jadvalda xorijiy amaliyotda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishning institutsional evolyutsiyasi tarixiy bosqichlar kesimida tizimli ravishda tahlil qilingan. Jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi so‘nggi yetmish yil davomida an'anaviy bank kreditlash modelidan bosqichma-bosqich integratsiyalashgan institutsional ekotizim modeliga transformatsiyalashgan. Mazkur evolyutsiya moliyalashtirish manbalari, institutsional ishtirokchilar hamda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining uzluksiz takomillashuvi bilan tavsiflanadi. 1950–1980-yillarda rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni moliyalashtirish asosan tijorat banklari va davlat taraqqiyot banklari faoliyatiga tayangan. Ushbu bosqichda kredit resurslarining barqarorligi asosiy ustuvor yo‘nalish bo‘lib, korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bank sektorining asosiy vazifasi sifatida qaraldi. 1980–2000-yillarda esa iqtisodiy liberallashuv jarayonlari ta’sirida davlatning institutsional roli nisbatan kuchayib, kredit kafilligi, subsidiyalar va soliq imtiyozlari kabi qo‘llab-quvvatlash instrumentlari keng joriy etilgan.

Natijada kichik biznes subyektlarining kapitalga kirish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaygan. 2000–2015-yillar innovatsion iqtisodiyot shakllanishi bilan tavsiflanib, mazkur davrda universitet–biznes hamkorligi, texnoparklar, klasterlashuv va venchur kapital tizimlarining rivojlanishi moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni innovatsion rivojlanish bilan integratsiyalash imkonini bergan. 2015–2020-yillarda esa raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida Digital Lending, Open Banking, P2P Lending, Kroudfanding va sun’iy intellektga asoslangan moliyaviy xizmat va mexanizmlar kichik biznesni moliyalashtirishning yangi bosqichini boshlab bergan. Ushbu moliyaviy texnologiyalar moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, kredit ajratish tezligini oshirish hamda kichik biznes subyektlari operatsion xarajatlarini kamaytirishda muhim rol o‘ynagan. So‘nggi bosqichda, ya’ni 2020-yildan keyingi davrda kichik

biznesni rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional ekotizimi shakllanganini ko‘rsatmoqda. Ushbu ekotizim davlat boshqaruvi, moliya sektori, innovatsion infratuzilma, FinTech kompaniyalari va xalqaro moliya institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni yagona tizim sifatida jamlaydi. Bizning fikrimizcha, aynan mazkur integratsiyalashgan yondashuv kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini uzoq muddatli va barqaror rivojlantirishning eng samarali institutsional modeli bo’lishi mumkin. Shu sababdan O‘zbekistonda ham xorijiy tajribaning yuqoridagi evolyutsion bosqichlarini inobatga olgan holda moliyaviy, innovatsion va raqamli institutlarni o‘zaro uyg‘unlashtirishga asoslangan institutsional siyosatni shakllantirish maqsadga muvofiq bo’ladi.

2-jadval.

Xorijiy modellar elementlarini O‘zbekiston sharoitiga adaptatsiya qilishning qiyosiy imkoniyatlari

Xorijiy modellar elementlari	O‘zbekistonda mavjudligi	Adaptatsiyalashuv darajasi	Amalga oshirish ustuvorligi	Kutilayotgan natija
Kredit kafilligi	Mavjud	Yuqori	Yuqori	Kreditlash kengayadi
Tijorat banklari ulushli moliyashtirishi	Qisman	Yuqori	Yuqori	Investitsiyalar oshadi
Venchur Kapital	Cheklangan	O‘rta	Yuqori	Innovatsiyalar
FinTech	Rivojlanmoqda	Yuqori	Yuqori	Moliyaviy inklyuziya
Open Banking	Boshlang‘ich	Yuqori	O‘rta	Raqamli xizmatlar
Transfer texnologiyalari	Cheklangan	O‘rta	Yuqori	Innovatsiyalar
Klaster kooperatsiyasi	Rivojlanmoqda	Yuqori	Yuqori	Kooperatsiya

Yuqoridagi jadvalda xorij tajribasida samaradorligi asoslangan institutsional modellar elementlarini O‘zbekiston sharoitiga adaptatsiya qilish imkoniyatlari qiyosiy baholangan. Tahliliy natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatimizda kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizimli institutsional baza shakllangan bo‘lsa ham, zamonaviy moliyalashtirish instrumentlari va innovatsion institutlarning rivojlanish darajasi bir xil emas. Shu sababli xorijiy tajribani to‘liq ko‘chirish emas, balki milliy iqtisodiyotning institutsional xususiyatlarini inobatga olgan holda bosqichma-bosqich adaptatsiya qilish maqsadli deb hisoblaymiz.

Jadvalga ko‘ra, kredit kafilligi, taraqqiyot banklari va FinTech ekotizimi O‘zbekiston sharoitida yuqori adaptatsiya salohiyatiga ega bo‘lgan yo‘nalishlar hisoblanadi. Ayniqsa, kredit kafilligi mexanizmlarini kengaytirish kichik biznes subyektlarining bank kreditlariga kirish imkoniyatlarini yaxshilasa, tijorat banklari ulushli kreditlash faoliyatini rivojlantirish uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. FinTech texnologiyalarining rivojlanishi esa moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, kreditlash jarayonlarini soddalashtirish va raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish ko‘lamini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Open Banking**,** Transfer texnologiyalari va Venchur Kapital kabi institutlar hozirgi kunda shakllanish yoki rivojlanish bosqichida bo‘lib, ularning strategik rivojlantirish ahamiyati yuqori bo’lib hisoblanadi. Mazkur elementlarni bosqichma-bosqich joriy etish va takomillashtirish innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish hamda xususiy investitsiyalar hajmini oshirish imkonini beradi. Klaster kooperatsiyasi modelini rivojlantirish esa korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish, resurslardan samarali foydalanish va qiymat zanjirlarini shakllantirish orqali

hududiy raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi.

3-jadval.

Kichik biznes moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi institutsional omillarning ustuvorlik matritsasi

Institutsional omillar	Moliyaviy ta’sir	Innovatsion ta’sir	Raqamli ta’sir	Eksportga ta’siri	Barqaror rivojlanish
Davlat siyosati	+++	++	++	++	+++
Tijorat banklari	+++	++	+	++	++
Innovatsion infratuzilma	++	+++	++	++	++
FinTech ekotizimi	++	++	+++	++	++
Klasterlashuv	++	++	+	+++	+++
Xalqaro moliyaviy institutlar	++	++	++	+++	+++

Izoh: +++ yuqori, ++ o’rta,

3-jadvalda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi institutsional omillarning ustuvorlik darajasi ekspert baholash usuli asosida qiyosiy tahlil qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy raqobatbardoshlikni ta’minlash alohida institut faoliyatiga emas, balki davlat siyosati, moliyaviy institutlar, innovatsion infratuzilma va raqamli ekotizimning o‘zaro uyg‘un va tizimli faoliyatiga bog‘liq bo’ladi. Mazkur omillarning kompleks rivojlanishi kichik biznes subyektlarining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi.

Tahliliy baholashimizga ko‘ra, davlat siyosati moliyaviy ta’sir va barqaror rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha eng yuqori ustuvorlikka ega omil bo’lmoqda. Bu holat normativ-huquqiy muhit, soliq siyosati, davlat dasturlari va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining kichik biznes rivojlanishidagi hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi.

Shuningdek, innovatsion infratuzilma va FinTech ekotizimi mos ravishda innovatsion va raqamli transformatsiya yo‘nalishlarida yuqori ta'sirga ega ekanligi kuzatiladi. Universitetlar, texnoparklar va texnologiyalar transferi markazlari innovatsion faollikni oshirsa, raqamli moliyaviy xizmatlar biznes jarayonlarini optimallashtirish hamda moliyaviy inklyuziyani kengaytirishda muhim o‘rin tutadi. Klasterlashuv va xalqaro moliyaviy institutlar esa eksport salohiyati hamda barqaror rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha yuqori baholangan omillar sifatida ajralib turadi.

Umuman olganda, jadval tahlili kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini oshirish institutsional omillarni alohida rivojlantirish orqali emas, balki ularni yagona integratsiyalashgan tizim sifatida boshqarish asosida yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini ko‘rsatadi.

4-jadval

Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga bosqichma-bosqich adaptatsiya qilishning institutsional mexanizmlari

Bosqich	Asosiy vazifa	Asosiy institutlar	Kutilayotgan natija
I-bosqich	Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish	Parlament, Vazirlar Mahkamasi, Markaziy bank	Qulay institutsional muhit
II-bosqich	Moliyalashtirish instrumentlarini diversifikatsiya qilish	Banklar, investitsiya fondlari	Kapitalga kirish
III-bosqich	Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish	Universitetlar, texnoparklar	Innovatsion salohiyat
IV-bosqich	FinTech va raqamli platformalarni integratsiyalash	FinTech kompaniyalari, banklar	Raqamli transformatsiya
V-bosqich	Global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv	Eksport agentliklari, xalqaro institutlar	Xalqaro raqobatbardoshlik

Yuqoridagi jadvalimizda xorijiy tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishning bosqichma-bosqich institutsional mexanizmi tizimli ravishda shakllantirilgan. Mazkur mexanizm

kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishni izchil va o‘zaro bog‘liq besh strategik bosqich asosida amalga oshirishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv xorijiy tajribani bevosita ko‘chirish emas, balki milliy iqtisodiyotning institutsional xususiyatlarini hisobga olgan holda adaptatsiya qilish tamoyiliga asoslangan. Unga ko‘ra, birinchi bosqichda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish orqali qulay institutsional muhit shakllantiriladi. Keyingi bosqichda bank kreditlari bilan bir qatorda investitsiya fondlari va muqobil moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish orqali kichik biznes subyektlarining kapitalga kirish imkoniyatlarini kengaytirish ko‘zda tutilgan. Uchinchi bosqich innovatsion infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, universitetlar, texnoparklar va ilmiy markazlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali innovatsion salohiyatni oshirishga xizmat qiladi. To‘rtinchi bosqichda FinTech kompaniyalari va banklarning integratsiyasi asosida raqamli transformatsiya jadallashtiriladi, bu esa moliyaviy xizmatlarning sifati va tezkorligini oshirish imkonini beradi. Yakuniy bosqichda esa eksport agentliklari hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali kichik biznes subyektlarining global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvi va xalqaro raqobatbardoshligi mustahkamlanadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatdiki, kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyasi alohida moliyalashtirish vositalariga emas, balki institutsional boshqaruv, moliyaviy integratsiya, innovatsion infratuzilma, raqamli transformatsiya va xalqaro hamkorlikning o‘zaro uyg‘unlashgan tizimiga asoslanadi. Xorijiy davlatlar tajribasi tahlili rivojlangan iqtisodiyotlarda davlat siyosati, taraqqiyot institutlari, FinTech ekotizimi, universitet–biznes hamkorligi va xalqaro moliya institutlari faoliyatining integratsiyasi kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligi, investitsion jozibadorligi hamda eksport salohiyatini oshirishning asosiy omillari ekanligini tasdiqlaydi.Taklif etilgan yondashuv moliyaviy raqobatbardoshlikni institutsional tarmoq, moliyaviy integratsiya, innovatsion hamkorlik, raqamli transformatsiya va global integratsiyaning o‘zaro ta’siri natijasi sifatida baholashi bilan ajralib turadi. Bizning fikrimizcha, mazkur yondashuvni mamlakatimizda joriy etish kichik biznes subyektlarining kapitalga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, innovatsion faolligini oshirish, raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanilishini jadallashtirish hamda kichik biznes subyektlarining moliyaviy raqobatbardoshligini barqaror rivojlantirishning metodologik va amaliy asosini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vaisov, D. I. (2026). Directions for improving organizational mechanisms to ensure competitiveness of small businesses providing medical services. International Conference on Science & Technology, 2(1), 108–115.

2. Vaisov, D. I. (2026). Stages of improving the mechanisms for ensuring the competitiveness of small business entities providing medical services. Научный Импульс, 4(41), 86–92.

3. Vaisov, D. I. (2026). Prospects for the development of small business entities in the medical services market. Prospects for the Development of Small Business Entities in the Medical Services Market.

4. Vaisov, D. I., Kamil, S., & G’anibekovich, Y. A. (2026). The impact and significance of competitive environment analysis on the competitiveness of entrepreneurs. Manuscript on Sustainable Economics, Finance, and Management.

5. Vaisov, D. I. (2025). Tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini baholashni takomillashtirish. Marketing jurnali, 11(240874), 286–295.

6. Vaisov, D. I. (2024). Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

subyektlarining raqobatbardoshligini ta’minlashdagi ilg‘or tajribalar. Marketing jurnali, 28–37.

7. Vaisov, D. I. (2023). Kichik firmalar raqobatbardoshligini oshirishning mintaqaviy muammolari (Xorazm viloyati misolida). Green Economy and Development, 1(11), 662468.

8. Sa’dullayev, A., Vaisov, D. I., & Egamberganov, F. (2023). Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida). Green Economy and Development, 1(6), 662728.

9. Matkuliyeva, S., & Vaisov, D. I. (2023). Mintaqa iqtisodiyoti rivojlanishida kichik biznesning ahamiyati va roli (Xorazm viloyati misolida). Ma'mun Science, 1(2), 274.

10. Arner, D. W., Barberis, J., & Buckley, R. P. (2015). *The Evolution of FinTech: A New Post-Crisis Paradigm?* Georgetown Journal of International Law, 47(4), 1271–1319.

11. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Maksimovic, V. (2005). Financial and legal constraints to firm growth: Does firm size matter? *The Journal of Finance, 60*(1), 137–177.

12. European Bank for Reconstruction and Development. (2024). *Transition Report 2024–2025*. London: EBRD.

13. Gomber, P., Koch, J. A., & Siering, M. (2017). Digital Finance and FinTech: Current research and future research directions. *Journal of Business Economics, 87*(5), 537–580.

14. International Monetary Fund. (2024). *Global Financial Stability Report 2024*. Washington, DC: IMF.

15. Levine, R. (1997). Financial development and economic growth: Views and agenda. *Journal of Economic Literature, 35*(2), 688–726.

16. North, D. C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press.

17. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2024). *Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: An OECD Scoreboard*. Paris: OECD Publishing.

18. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2024). *SME and Entrepreneurship Outlook 2024*. Paris: OECD Publishing.

19. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press.

20. Schumpeter, J. A. (1911). *The Theory of Economic Development*. Cambridge, MA: Harvard University Press (1934 English edition).

21. World Bank. (2024). *Business Ready (B-READY) 2024 Report*. Washington, DC: World Bank.

22. World Bank. (2024). *Global Findex Database 2024*. Washington, DC: World Bank.

23. World Bank. (2025). *World Development Report 2025*. Washington, DC: World Bank.

24. Etzkowitz, H., & Leydesdorff, L. (2000). The dynamics of innovation: From National Systems and Mode 2 to a Triple Helix of university–industry–government relations. *Research Policy, 29*(2), 109–123.

25. Asian Development Bank. (2024). *Asian Development Outlook 2024*. Manila: ADB.

26. International Finance Corporation. (2024). *Creating Markets Advisory Annual Report 2024*. Washington, DC: IFC.

27. Islamic Development Bank Institute. (2024). *Islamic Finance for Sustainable Development Report*. Jeddah: IsDB Institute.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TRANSFORMATSIYALASH VA MHXSGA O‘TISH ISTIQBOLLARI

Nematullayev Hamidullo Azizillo o‘g‘li

buxgalteriya hisobi va
audit yo‘nalishi talabasi
Andijon davlat texnika instituti
ORCID: 0009-0001-4040-8014

Annotatsiya. *Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi tizimini transformatsiyalash, uning institutsional mexanizmi hamda milliy amaliyotda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ni joriy etish istiqbollari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar (ERP, Big Data, Blockchain) va MHXS talablarining buxgalteriya hisobiga ta’siri qiyosiy tahlil qilinib, hisob siyosatini optimallashtirish yo‘nalishlari aniqlangan. Shuningdek, milliy buxgalteriya tizimini raqamlashtirish sharoitida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *buxgalteriya hisobi, MHXS, raqamli iqtisodiyot, ERP tizimlari, bulutli texnologiyalar, transformatsiya, moliyaviy hisobot, raqamli audit, ichki nazorat, hisob siyosati.*

ТРАНСФОРМАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ МСФО

Нематуллаев Хамидулло Азизилло углы

студент
Андижанского государственного
технического
института по специальности
бухгалтерский учет и аудит
ORCID: 0009-0001-4040-8014

Аннотация. *В статье исследованы трансформация системы бухгалтерского учета в условиях цифровой экономики, ее институциональные механизмы и перспективы внедрения Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО) в практике. В ходе исследования проведен сравнительный анализ влияния цифровых технологий (ERP, Big Data, Blockchain) и требований МСФО на бухгалтерский учет, определены направления оптимизации учетной политики. Разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию национальной системы бухгалтерского учета в условиях цифровизации.*

Ключевые слова: *бухгалтерский учет, МСФО, цифровая экономика, ERP - системы, облачные технологии, трансформация, финансовая отчетность, цифровой аудит, внутренний контроль, учетная политика.*

TRANSFORMATION OF ACCOUNTING IN THE DIGITAL ECONOMY AND PROSPECTS FOR IFRS IMPLEMENTATION

Khamidullo Nematullaev Azizillo ugli

Student the Andijan State Technical Institute
of Faculty “Accounting and Auditing”
ORCID: 0009-0001-4040-8014

Abstract. *This article examines the transformation of the accounting system under the conditions of the digital economy, its institutional mechanisms, and the prospects for implementing International Financial Reporting Standards (IFRS) in national practice. In the course of the study, a comparative analysis of the impact of digital technologies (ERP, Big Data, Blockchain) and IFRS requirements on accounting was conducted, and directions for optimizing accounting policies were identified. Scientifically grounded recommendations have been developed for improving the national accounting system in the context of digitalization.*

Keywords: *accounting, IFRS, digital economy, ERP systems, cloud technologies, transformation, financial reporting, digital audit, internal control, accounting policy.*

Kirish

Milliy iqtisodiyotni xalqaro zamonaviy talablar va standartlar asosida rivojlantirish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hamda investitsion jozibadorligini mustahkamlash bugungi kunda iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Modernizatsiya va globallashuv jarayonlari jadallashgan zamonaviy jahon iqtisodiyotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyoti, transformatsion raqamli platformalarning joriy etilishi hamda iqtisodiy munosabatlarning virtual makonga ko‘chishi an’anaviy xo‘jalik yuritish subyektlarining boshqaruv va hisob tizimini tubdan isloh qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda global moliya bozorining o‘zgaruvchanligi, investitsion oqimlarning harakatchanligi hamda transmilliy korporatsiyalarning tarmoqlararo integratsiyalashuvi sharoitida moliyaviy ma’lumotlarning shaffofligi, ishonchliligi va tezkorligi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning asosiy mezoni hisoblanadi. Xalqaro moliya institutlari, xususan, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqtisodiy tuzilmalari ekspertlarining xulosalariga ko‘ra, milliy hisob tizimlarining jahon miqyosida yagona iqtisodiy “til” sifatida e’tirof etilgan Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga to‘liq moslashtirilishi axborot notekisligini bartaraf etish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish hamda investorlarni mamlakat iqtisodiyotiga bo‘lgan ishonchini strategik darajada mustahkamlashning asosiy moliyaviy drayveri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, qulay investitsiya muhitini yaratish, davlat ishtirokidagi korxonalarni sog‘lomlashtirish hamda ularning jahon kapital bozorlariga mustaqil chiqishini ta’minlash maqsadida buxgalteriya hisobi, moliya va audit tizimini xalqaro me’yorlarga moslashtirish bo‘yicha fundamental institutsional islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Mazkur yo‘nalishdagi tub burilishlarning huquqiy asosi va dastlabki fundamental poydevori sifatida O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunni yangi tahrirda[1] qabul qilinishini keltirishimiz mumkin. Mazkur yangi tahrirdagi qonun mamlakatimizda xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan hisob ishlarini tashkil etish, yuritish hamda hisobotlarni tuzishning huquqiy mexanizmini takomillashtirishga xizmat qilmoqda, albatta.

Shu bilan birga, so‘nggi yillarda milliy hisob tizimini xalqaro standartlarga o‘tkazishni yangi strategik bosqichga olib chiqish maqsadida qator konseptual hujjatlar qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli Qarori[2]ning qabul qilinishi sohani rivojlantirishda yana bir muhim bosqich hisoblanadi.

Mazkur qarorga muvofiq, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yil 1-yanvardan boshlab MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va xalqaro standartlar bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni majburiy ravishda tayyorlashi belgilab qo‘yildi. Biroq MHXS talablarini amaliyotga to‘liq implementatsiya qilish jarayonida malakali kadrlar yetishmasligi, axborot tizimlarining o‘zaro integratsiyasi, dasturiy mahsulotlarning moslashuvchanligi, transformatsion xarajatlarning yuqoriligi hamda metodik ta’minotning ayrim jihatlari bo‘yicha yechimini kutayotgan muammolar mavjudligini kuzatish mumkin. Mazkur holat raqamli iqtisodiyot

sharoitida buxgalteriya hisobi tizimini transformatsiyalashning nazariy-amaliy asoslarini tadqiq etish, MHXSga o‘tishning institutsional mexanizmini takomillashtirish, zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida moliyaviy hisobot sifatini oshirish hamda xalqaro standartlar talablariga mos raqamli hisob infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi

Catalin Moș Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)ga rasmiy o‘tish va ularga amalda rioya etish (compliance) o‘rtasidagi farqlarni 87 ta mamlakat misolida tahlil qilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, IFRSni qonunchilik darajasida qabul qilish moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga to‘liq muvofiqligini kafolatlamaydi. Muallifning ta’kidlashicha, standartlarga amaliy rioya etish darajasiga nazorat va ijro mexanizmlarining samaradorligi, kapital bozori rivojlanganligi, auditorlik instituti hamda milliy institutsional muhit hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois IFRSning amaliy samaradorligini oshirish uchun normativ bazani qabul qilish bilan bir qatorda uni samarali ijro etuvchi institutsional mexanizmlarni rivojlantirish zarur [3].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yuqori savdo o‘sish sur’atiga ega, direktor-aksiyadorlar ishtirok etadigan hamda yirik auditorlik kompaniyalari bilan ishlaydigan korxonalar yangi UK GAAPni qabul qilishga ko‘proq moyil bo‘ladi. Mualliflar yangi standart IFRS tamoyillariga yaqin bo‘lishi bilan birga hisobotlarni tayyorlash xarajatlari va axborotni oshkor etish hajmini kamaytirishini, bu esa xususiy korxonalar uchun moliyaviy hisobot tizimining samaradorligini oshirishini asoslaydilar [4].

IFRS 15 qo‘llanilishi hisoblangan daromadlar va foyda sifatini yaxshilagan bo‘lsa-da, korxonalarda real foydani boshqarish amaliyoti kuchaygan hamda daromad va foydaning barqarorligi pasaygan. Muallif, shuningdek, yangi standart zaif huquqiy nazorat sharoitida hisoblangan foydani boshqarish va real foydani boshqarish o‘rtasidagi muvozanatni shakllantirishda muhim institutsional omil ekanligini asoslaydi [5].

IFRS 9 joriy etilgandan so‘ng kredit yo‘qotishlari bo‘yicha zaxiralarni e’tirof etishdagi moslashuvchanlik ortishi sababli foydani va kapitalni boshqarish darajasi oshgan. Shu bilan birga, foydani boshqarishning kuchayishi asosan tartibga solish sifati past bo‘lgan mamlakatlarda kuzatilgani aniqlangan, bu esa IFRSning samaradorligi institutsional muhitga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi [6].

Tadqiqotda transformatsiya jarayonining asosiy bosqichlari, hisob siyosatini IFRS talablariga moslashtirish, tuzatish yozuvlarini shakllantirish hamda parallel hisob va transformatsiya usullarining afzallik va kamchiliklari yoritilgan. Mualliflar IFRSga muvaffaqiyatli o‘tish uchun puxta metodologik yondashuv va sifatli hisob siyosatini ishlab chiqish hal qiluvchi omil ekanligini asoslaydilar [7].

IFRS moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va xalqaro taqqoslanuvchanligini ta’minlaydi, investorlar uchun ishonchli axborot bazasini yaratadi hamda xorijiy kapitalni jalb etishni osonlashtiradi. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston milliy standartlari bilan IFRS o‘rtasidagi asosiy farqlar va ularning o‘zaro muvofiqligi qiyosiy tahlil asosida yoritilib, IFRSni bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan [8]. IFRSni qo‘llash moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, taqqoslanuvchanligi va ishonchliligini oshirib, investorlar hamda kreditorlar uchun axborot sifatini yaxshilaydi. Tadqiqotda IFRSni joriy etish jarayonida malakali kadrlar yetishmasligi, axborot tizimlarini moslashtirish va transformatsiya xarajatlari asosiy muammolar sifatida qayd etilib, ushbu to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan [9]. Muallifning ta’kidlashicha, IFRS talablariga muvofiq investitsiyalarni e’tirof etish, baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish investorlar uchun axborotning ishonchliligi va taqqoslanuvchanligini oshiradi. Tadqiqotda moliyaviy investitsiyalar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish korxonalarning investitsion jozibadorligini kuchaytirishi, boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilashi hamda moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta’minlashi ilmiy jihatdan asoslangan [10].

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Yuqorida tahlil qilingan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini transformatsiyalash va MHXSni joriy etish jarayoni faqatgina xalqaro standartlarni normativ-huquqiy jihatdan qabul qilish bilan cheklanmay, balki samarali institutsional muhit, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, malakali kadrlar salohiyati hamda raqamli boshqaruv infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Tadqiqotlar natijalari MHXSni qo‘llash moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, ishonchliligi va xalqaro taqqoslanuvchanligini oshirish, investorlar ishonchini mustahkamlash hamda kapital bozorining samaradorligini yuksaltirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani yozish jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy va mantiqiy tahlil, iqtisodiy-statistika guruhlash, induksiya va deduksiya hamda ekspert baholash metodlaridan foydalanildi. Raqamli texnologiyalarning buxgalteriya hisobiga ta’siri hamda MHXSga o‘tish sur’atlari dinamik qatorlar va tizimli modellashtirish usullari yordamida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

Milliy iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan yirik korxonalar va aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobi tizimini raqamlashtirish hamda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablarini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarda faoliyat yuritayotgan korxonalarda raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi turlicha bo‘lib, bu holat korxonalarning moliyaviy imkoniyatlari, texnologik infratuzilmasi, malakali kadrlar salohiyati hamda MHXSni amaliyotga tatbiq etish tajribasi bilan bevosita bog‘liqdir. Jumladan, ERP va bulutli dasturlar (1C, SAP) korxonalarda eng keng joriy etilgan raqamli texnologiyalar hisoblanib, ularning qo‘llanilish darajasi 65 foizni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich korxonalarda moliyaviy va boshqaruv hisobini avtomatlashtirish, xo‘jalik operatsiyalarini real vaqt rejimida qayd etish hamda MHXS talablariga mos hisobotlarni shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotganligini ko‘rsatadi. Biroq ushbu texnologiyalarni keng joriy etishda dasturiy mahsulotlarning litsenziya xarajatlarining yuqoriligi, milliy qonunchilik talablariga to‘liq moslashtirish zarurati hamda texnik qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq muammolar asosiy omillar sifatida qayd etilmoqda.

MHXS avtomatlashtirilgan modullarining joriy etilish darajasi esa 40 foizni tashkil etmoqda. Mazkur ko‘rsatkich korxonalarning xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga bosqichma-bosqich o‘tayotganligini ifodalasa-da, u hali yetarli darajaga erishmaganligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, parallel hisob yuritish zarurati, transformatsion yozuvlarning murakkabligi, hisob siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirishdagi metodologik muammolar hamda dasturiy mahsulotlarni moslashtirish xarajatlari ushbu yo‘nalishdagi asosiy to‘siqlar hisoblanadi. Raqamli ichki audit tizimlarini joriy etish darajasi esa 30 foizni tashkil etgan bo‘lib, bu holat korxonalarda ichki nazorat jarayonlarini raqamlashtirish hali to‘liq shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Xususan, metodik qo‘llanmalarning yetarli emasligi, ichki auditning raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilishi bo‘yicha amaliy tajribaning cheklanganligi hamda ayrim korxonalarda korporativ boshqaruv madaniyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu texnologiyalarning keng joriy etilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, deb hisoblaymiz. Shuningdek, Big Data va tahliliy (analitika) vositalaridan foydalanish darajasi 25 foizni tashkil etib, bu ko‘rsatkich korxonalarning katta hajmdagi moliyaviy ma’lumotlarni tahlil qilish, prognozlash va risklarni boshqarish imkoniyatlari hali to‘liq shakllanmaganligini anglatadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Big Data texnologiyalarini qo‘llashdagi asosiy muammo katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega mutaxassislarning yetishmasligi, analitik platformalarning qimmatligi hamda ma’lumotlar sifati va integratsiyasi bilan bog‘liq muammolardan iborat.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobining transformatsiyasi, avvalo, raqamli iqtisodiyot omillari ta’sirida shakllanadigan yangi institutsional muhit bilan belgilanadi. Sun’iy intellekt (AI), Big Data, bulutli texnologiyalar (Cloud Computing), elektron tijorat va fintech ekotizimlarining rivojlanishi, shuningdek, ma’lumotlar hajmining keskin ortishi korxonalardan an’anaviy hisob tizimlaridan zamonaviy, integratsiyalashgan va avtomatlashtirilgan platformalarga o‘tishni talab etmoqda. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik tahdidlarining ortib borishi moliyaviy axborotlarning ishonchliligini ta’minlash uchun yangi nazorat mexanizmini joriy etishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda (1-rasm).



1-rasm. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini transformatsiyalash va MHXSGA o‘tish istiqbollari (O’zbekiston milliy amaliyotiga mos model)

1-rasmda aks ettirilgan modelning ikkinchi bosqichi - buxgalteriya hisobini transformatsiyalash yo‘nalishlari - tadqiqot davomida aniqlangan mavjud muammolarni bartaraf etishning asosiy mexanizmini ifodalaydi. Jumladan, hisob jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish, moliyaviy ma’lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ish hamda tahlil qilish, robotlashtirilgan biznes jarayonlari (RPA) va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish korxonalarda mehnat unumdorligini oshirish, inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirish hamda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash muddatlarini sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi. Bulutli buxgalteriya xizmatlarining joriy etilishi esa turli filial va tarkibiy bo‘linmalarning yagona axborot maydonida faoliyat yuritishini ta’minlab, ma’lumotlar almashinuvi samaradorligini oshiradi.

Rasmda alohida blok sifatida ko‘rsatilgan MHXSga o‘tish jarayoni tadqiqotning markaziy elementi hisoblanadi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro standartlarni muvaffaqiyatli joriy etish nafaqat hisob siyosatini MHXS talablariga moslashtirishni, balki normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, korporativ boshqaruv tamoyillarini kuchaytirish, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash amaliyotini kengaytirish hamda davlat ishtirokidagi korxonalar va yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlarda MHXSni to‘liq implementatsiya qilishni ham nazarda tutadi. Shu bilan birga, ushbu jarayon malakali kadrlar

tayyorlash, zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish va xalqaro tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan modelning to‘rtinchi yo‘nalishi - kutilayotgan natijalar va istiqbollar - raqamli transformatsiya hamda MHXSni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini tavsiflaydi. Xususan, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi ta’minlanishi, investorlar va kreditorlar uchun axborotning ishonchlilik darajasi oshishi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifati yaxshilanishi, soliq ma’murchiligi va moliyaviy nazoratning shaffofligi kuchayishi, shuningdek, korxonalarning xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashuvi uchun zarur institutsional sharoitlar shakllanishi kutiladi. Natijada raqamli iqtisodiyot talablariga mos zamonaviy buxgalteriya hisobi tizimi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biriga aylanadi.

Shu bilan birga, 1-rasmda aks ettirilgan amaliyotda qo‘llash uchun zarur shart-sharoitlar mazkur transformatsiya modelining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini belgilovchi asosiy omillar sifatida e’tirof etiladi. Bular qatoriga raqamli infratuzilmani rivojlantirish, milliy normativ-huquqiy bazani xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish, korxonalarda foydalanilayotgan axborot tizimlari o‘rtasida integratsiyani ta’minlash, buxgalterlar va auditorlarning raqamli kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish, ilg‘or xorijiy tajriba va eng yaxshi amaliyotlarni joriy etish hamda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish kiradi. Aynan ushbu omillar uyg‘unligi raqamli transformatsiyaning uzluksizligini ta’minlab, MHXSni joriy etish jarayonining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

O‘zbekistonda buxgalteriya hisobini transformatsiya qilish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi: birinchidan, MHXS modullarini o‘z ichiga olgan mahalliy dasturiy ta’minotlarni ishlab chiqishni rag‘batlantirish; ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalarida raqamli buxgalteriya va xalqaro standartlar bo‘yicha fanlarni integratsiya qilgan holda o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yish; uchinchidan, korxonalarda raqamli audit va ichki nazorat standartlarini joriy qilish mexanizmini soddalashtirish.

Kelgusida korxonalarda raqamli buxgalteriya hisobining samaradorligini oshirish uchun ERP tizimlarini MHXS modullari bilan to‘liq integratsiyalash, Big Data va sun’iy intellekt texnologiyalaridan moliyaviy tahlil hamda moliyaviy risklarni boshqarishda keng foydalanish, blockchain asosida moliyaviy ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlash hamda ichki auditni uzluksiz monitoring tamoyillari asosida raqamlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunday kompleks yondashuv moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilash hamda korxonalarning MHXS talablariga to‘liq moslashuvini ta’minlashga xizmat qiladi.

Biz tomondan taklif etilgan, konseptual model O‘zbekiston sharoitida buxgalteriya hisobini transformatsiyalashning kompleks mexanizmini ifodalaydi. Model raqamli texnologiyalar, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari va korporativ boshqaruv elementlarini yagona tizimda integratsiyalash orqali korxonalarning moliyaviy axborot sifatini oshirish, investitsion jozibadorligini kuchaytirish hamda milliy iqtisodiyotning xalqaro moliyaviy makonga integratsiyalashuvini jadallashtirish uchun ilmiy-uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish va MHXSga o‘tishning uzoq muddatli strategik yo‘nalishlarini belgilashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri) O‘RQ-404-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-

4611-sonli Qarori.

3. Moș C. Understanding IFRS compliance: Global evidence on country-level determinants from 87 countries // Accounting Research Journal. – 2026. – Vol. 39. – No. 3. – P. 416–442.

4. Hsu Y.-L., Yang Y.-C., Arora M.R. The switch from IFRS to local GAAP: Evidence from UK private firms // Advances in Accounting. – 2025. – Vol. 69.

5. Chen J.W. The impact of IFRS 15 on revenue and earnings quality: Evidence from China // Asian Review of Accounting. – 2025. – Vol. 33. – No. 3. – P. 523–546.

6. Nikulin E.D., Downing J.D., Norouzpour M. IFRS 9, earnings management, and capital management by European banks // Journal of Financial Reporting and Accounting. – 2023.

7. Смагина М.Н., Топильская Ю.В. Трансформация финансовой отчетности в МСФО: этапы, способы составления и проблемы // Социально-экономические явления и процессы. – 2017. – Т. 12. – № 3. – С. 152–159.

8. Kamolova F.K. Comparative Characteristics of NAS and IFRS (Сравнительная характеристика НСБУ и МСФО) // International Finance & Accounting. – 2023. – № 2 (April).

9. Djumanov S.A., Soatov F.K. Implementation of International Financial Reporting Standard and Its Impact on Financial Results // International Finance & Accounting. – 2023. – №1.

10. Xasanova X.F. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida investitsiyalar hisobini tashkil etish // Alfraganus University: Proceedings of the Republican Scientific and Practical Conference. – 2025. – Vol. 12. – No. 1. – B. 136–139.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ТЕМИР ЙЎЛ СОҲАСИДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ

Мурадов Бахром Акрамжанович

мустақил изланувчи
Тошкент давлат транспорт университети
E-mail:muradovbahrom@gmail.com
ORCID ID: 0009-0004-3693-7943

Аннотация. *Мақолада темир йўл соҳасида инновацион инфратузилмани ривожлантиришнинг амалий механизмлари асосланган. Расмий манбалар таҳлили инфратузилмадаги асосий камчиликларни аниқлади: «А» тоифа омборлар эҳтиёжнинг атиги 10–15 фоизини қоплайди, логистика марказлари Тошкент атрофида тўпланган, контейнерлаштириш ва рақамлаштириш даражаси паст. Илмий янгилик — уч таркибли (ташкилий, иқтисодий, рақамли) механизм ва уни жорий этиш кетма-кетлиги; механизм олти ҳудудни ихтисослаштириш, йиллик 200 млн долларлик имтиёзли кредит линиялари ва ягона рақамли платформа воситаларига таянади.*

Калит сўзлар: *инновацион инфратузилма, амалий механизм, логистика маркази, «қуруқ порт», давлат-хусусий шериклик, рақамли платформа.*

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ОТРАСЛИ

Мурадов Бахром Акрамжанович

Самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного
транспортного университета
E-mail:muradovbahrom@gmail.com
ORCID ID: 0009-0004-3693-7943

Аннотация. *В статье обоснованы практические механизмы развития инновационной инфраструктуры в железнодорожной отрасли. Анализ официальных источников выявил ключевые недостатки инфраструктуры: склады класса «А» покрывают лишь 10–15% потребности, логистические центры сконцентрированы вокруг Ташкента, уровень контейнеризации и цифровизации низок. Научная новизна — трёхкомпонентный (организационный, экономический, цифровой) механизм и последовательность его внедрения; механизм опирается на специализацию шести регионов, ежегодные льготные кредитные линии в 200 млн долларов и единую цифровую платформу.*

Ключевые слова: *инновационная инфраструктура, практический механизм, логистический центр, «сухой порт», государственно-частное партнёрство, цифровая платформа.*

MECHANISMS FOR DEVELOPING INNOVATION INFRASTRUCTURE IN THE RAILWAY SECTOR

Muradov Bahrom Akramjanovich

Independent Researcher
Tashkent State Transport University
muradovbahrom@gmail.com
ORCID ID: 0009-0004-3693-7943

Abstract. *This article substantiates practical mechanisms for developing innovation*

infrastructure in the railway sector. Analysis of official sources revealed key infrastructure gaps: class-A warehouses cover only 10–15% of demand, logistics centers are concentrated around Tashkent, and containerization and digitalization levels remain low. The scientific novelty is a three-component (organizational, economic, digital) mechanism and its implementation sequence; the mechanism relies on the specialization of six regions, annual concessional credit lines of $200 million, and a unified digital platform.

Keywords: *innovation infrastructure, practical mechanism, logistics center, dry port, public-private partnership, digital platform.*

Кириш

Ўрганишлар натижасида темир йўл транспорти инновацион экотизимининг олти акторли модели асосланган эди. Бироқ ҳар қандай модель фақат уни ҳаракатга келтирувчи аниқ механизмлар[8] орқали амалий қийматга эга бўлади. Айнан шу боис мазкур мақола экотизим моделидан унинг амалий воситаларига — инновацион инфратузилмани ривожлантириш механизмларига — ўтишни таъминлайди.

Мавзунинг долзарблиги расмий даражада тан олинган муаммолар билан белгиланади. 2026 йил июль ойида Президентга тақдим этилган транспорт-логистика таҳлилида қайд этилишича, автоматлашган «А» тоифадаги омборлар умумий эҳтиёжнинг атиги 10–15 фоизини қоплайди, замонавий музлаткичли ва божхона омборлари етишмайди, логистика марказлари асосан Тошкент ва унинг атрофида тўпланган, контейнерлаштириш улуши ҳамда соҳада рақамлаштириш даражаси паст [1]. Шу билан бирга, ечим йўналишлари ҳам белгиланмоқда: олтита ҳудудни (Хонобод, Ангрен, Янгийўл, Оҳангарон, Олот, Термиз) транспорт-логистика соҳасига ихтисослаштириш, логистика марказлари учун жами 300 гектар ер ажратиш ва ҳар йили 200 млн долларлик имтиёзли кредит линияларини йўналтириш таклиф этилган [2; 3].

Стратегик контекст ҳам муҳим: «Хитой — Қирғизистон — Ўзбекистон» ва Трансафғон темир йўл лойиҳалари ишга тушса, Ўзбекистон Тинч океанидан Европагача бўлган энг қисқа қуруқлик йўлагининг асосий бўғинларидан бирига айланиши ва юк ташиш вақти 8 кунгача қисқариши кутилмоқда [1]. Бундай имкониятни рўёбга чиқариш учун темир йўл линияларининг ўзи етарли эмас — экспертлар таъкидлаганидек, янги йўлнинг қиймати унинг атрофида quriladigan логистика марказлари, божхона тизимлари ва омборларга боғлиқ [4]. Демак, инновацион инфратузилма[9] магистрал лойиҳаларнинг «мультипликатори» вазифасини ўтайди.

Тадқиқотнинг мақсади — темир йўл соҳасида инновацион инфратузилмани ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини ишлаб чиқиш. Вазифалар: инфратузилма камчиликларини расмий манбалар асосида тизимлаштириш; механизмнинг таркибий қисмларини (ташкилий, иқтисодий, рақамли) асослаш; воситаларни кутилаётган натижалар билан боғлаш; жорий этиш кетма-кетлигини таклиф этиш.

Адабиётлар шарҳи

Иқтисодий адабиётда «механизм» тушунчаси ташкилий тузилмалар, иқтисодий воситалар ва ҳуқуқий нормаларнинг мақсадга йўналтирилган мажмуи сифатида талқин этилади. Инфратузилма иқтисодиётига оид классик тадқиқотларда (Д. Ашауэр ва издошлари) инфратузилма инвестицияларининг мультипликатив самараси асосланган: транспорт инфратузилмасига киритилган ҳар бир бирлик маблағ боғлиқ тармоқларда қўшимча қиймат яратади [5]. Лапидус ва Мачерет бу қонуниятни темир йўл транспорти мисолида ривожлантириб, тармоқнинг макроиқтисодий ролини кўрсатганлар [6].

[8] Механизм (иқтисодий маънода). Белгиланган мақсадга эришиш учун ўзаро боғланган ташкилий тузилмалар, иқтисодий воситалар (рағбатлар) ва ҳуқуқий нормаларнинг мажмуи.

[9] Инновацион фаолиятни қўллаб-қувватловчи объектлар ва тизимлар мажмуи: технопарклар, логистика марказлари, ахборот платформалари, синов майдончалари ва молиявий институтлар.

Инновацион инфратузилмани ривожлантириш механизмларига оид замонавий тадқиқотларда давлат-хусусий шериклик[10] (ДХШ) марказий ўрин тутади: у давлатнинг стратегик йўналтирувчи ролини хусусий секторнинг самарадорлиги билан бирлаштиради [7].

«Қуруқ порт»[11] концепцияси ички ҳудудларда денгиз порти функцияларини (контейнер терминали, божхона расмийлаштируви) бажарувчи логистика тугунларини англатади ва денгизга чиқиш имкони йўқ мамлакатлар учун алоҳида аҳамиятга эга [10]. Ўзбекистон шароитида бу концепция Тошкент, Навоий ва Наманганда амалда ривожлантирилмоқда [1]. Бироқ мавжуд адабиётда ушбу элементларни темир йўл соҳасининг инновацион ривожланиши билан боғловчи яхлит механизм Ўзбекистон мисолида ишлаб чиқилмаган — мазкур мақола шу бўшлиқни тўлдиради.

Тадқиқот методологияси

Тадқиқотда механизмни лойиҳалашнинг уч босқичли мантиғи қўлланилди. Биринчи босқичда ҳужжат таҳлили методи орқали расмий манбаларда [1–3] қайд этилган инфратузилма камчиликлари тизимлаштирилди ва «муаммо — восита» мослиги ўрнатилди. Иккинчи босқичда воситалар уч таркибий гуруҳга (ташкилий, иқтисодий, рақамли) таснифланди; таснифлаш мезони сифатида воситанинг таъсир табиати (институционал тартиб, молиявий рағбат ёки ахборот муҳити) олинди. Учинчи босқичда графоаналитик моделлаштириш орқали механизмнинг яхлит схемаси ишлаб чиқилди ва блоклар ўртасидаги сабаб-оқибат алоқалари белгиланди. Халқаро тажриба билан қиёслашда туркумнинг иккинчи мақоласи натижаларидан [8] фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар

Биринчи натижа — инфратузилма камчиликлари ва уларга мос ечим воситаларининг тизимлаштирилиши (1-жадвал). Ҳар бир расман қайд этилган муаммога камида битта аниқ восита бириктирилди, бу механизмнинг «бўшлиқсиз» қамровини таъминлайди.

1-жадвал

Инфратузилма камчиликлари ва ечим воситалари мослиги ([1–3] асосида муаллиф тизимлаштируви)[12]

Расман қайд этилган камчилик	Ечим воситаси	Механизм тури
«А» тоифа омборлар эҳтиёжнинг 10–15%ини қоплайди [2]	Оҳангаронда «А» тоифадаги йирик логистика маркази қурилиши [3]	Ташкилий + иқтисодий
Логистика марказларининг Тошкент атрофида тўпланиши [2]	Олти ҳудудни ихтисослаштириш: Хонобод, Ангрен, Янгийўл, Оҳангарон, Олот, Термиз [3; 4]	Ташкилий
Хусусий инвестициянинг етишмаслиги	Йилига $200 млн имтиёзли кредит, 300 га ер ажратиш, ташқи инфратузилмани бюджетдан қуриш [3; 4]	Иқтисодий
Контейнерлаштириш	«Қуруқ порт»лар тармоғини	Ташкилий

[10] Давлат ва хусусий сектор ўртасида хавф-хатар, харажат ва фойдани тақсимлашга асосланган узоқ муддатли шартномавий ҳамкорлик шакли; инфратузилма лойиҳаларида кенг қўлланилади.
[11] «Қуруқ порт» (dry port). Денгиз портидан узоқда, ички ҳудудда жойлашган, темир йўл ёки автомобиль йўли орқали порт билан боғланган ҳамда контейнер терминали ва божхона расмийлаштируви функцияларини бажарувчи логистика тугуни.
[12] Muallif ishlanmasi

улушининг пастлиги [2]	кенгайтириш (Тошкент, Навоий, Наманган) [2]	
Рақамлаштириш даражасининг пастлиги [2]	Ягона логистика платформаси ва электрон маълумот алмашинуви	Рақамли
Чегара ўтказиш қувватининг чекланганлиги	Хонободда халқаро темир йўл чегара пункти, божхона терминаллари қурилиши [3]	Ташкилий + иқтисодий

Иккинчи ва марказий натижа — уч таркибли ташкилий-иқтисодий механизмнинг яхлит схемаси (1-расм). Механизм ягона мақсадга бўйсундирилган уч восита гуруҳини, мувофиқлаштирув қатламини, оралиқ ва пировард натижаларни ҳамда фикр-мулоҳаза (мониторинг) контурини ўз ичига олади.



1-расм. Темир йўл инновацион инфратузилмасини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизми (муаллиф ишланмаси)

Механизмнинг ўзига хос жиҳати — мувофиқлаштирув қатламининг алоҳида ажратилиши. Таҳлил кўрсатганидек, воситаларнинг ўзи (кредит, ер, солиқ имтиёзи) аллақачон расмий ҳужжатларда мавжуд ёки таклиф этилган [2; 3]; асосий хавф уларнинг тарқоқ ҳолда, бир-биридан узилган ҳолда қўлланилишидадир. Шу боис муаллиф томонидан ягона лойиҳа офиси — Транспорт вазирлиги, «Ўзбекистон темир йўллари» ҳолдинг ва ҳудудий ҳокимликлар вакилларидан иборат доимий мувофиқлаштирув органи — ташкил этиш таклиф этилади.

Учинчи натижа — жорий этиш кетма-кетлиги. Механизм воситалари уч тўлқинда ишга туширилиши асосланди: биринчи тўлқинда ташкилий асос (ҳудудлар ихтисослашуви, лойиҳа офиси) яратилади, чунки усиз молиявий воситалар самарасиз тарқалади; иккинчи тўлқинда иқтисодий рағбатлар (кредит линиялари, ер ажратиш) фаоллаштирилади; учинчи тўлқинда, дастлабки объектлар ишга тушгач, рақамли платформа барча иштирокчиларни ягона ахборот муҳитига бирлаштиради. Ушбу кетма-кетлик биринчи мақолада [11] асосланган «институционал асос → ташкилий қайта қуриш → технологик модернизация» тамойилининг инфратузилма даражасидаги татбиғидир.

Муҳокама

Таклиф этилган механизмни халқаро тажриба билан қиёслаш унинг асослилигини текшириш имконини беради. Европа Иттифоқида инфратузилма инновациялари айнан аралаш молиялаштириш (бюджет + тармоқ бадали) ва кучли мувофиқлаштирув органи (қўшма корхона) орқали бошқарилади [9] — таклиф этилаётган лойиҳа офиси шу мантиқнинг миллий миқёсдаги аналоги ҳисобланади. Германия тажрибаси эса [8] огоҳлантирувчи сабоқ беради: рақамлаштиришни ташкилий тайёргарликсиз бошлаш кечикишларга олиб келади, шу боис механизмда рақамли тўлқин атайлаб учинчи ўринга қўйилган.

Механизмнинг кутилаётган иқтисодий самараси транзит салоҳияти орқали баҳоланиши мумкин: расмий прогнозларга кўра, йирик темир йўл лойиҳалари ва уларга ҳамроҳ инфратузилма ишга тушса, Хитойдан Европагача юк ташиш вақти 8 кунгача қисқаради [1] — бу Ўзбекистоннинг Марказий Осиёнинг асосий логистика ва тақсимот марказига айланиши учун реал асос яратади [4]. Бироқ бу самара автоматик эмас: 1-жадвалда кўрсатилган камчиликлардан бирортаси бартараф этилмаса (масалан, божхона терминаллари қувватсиз қолса), бутун занжир самараси чекланади — бу Аднернинг экотизим назариясидаги «энг заиф бўғин» тамойилининг инфратузилмавий кўриниши.

Тадқиқот чекловлари: механизм воситаларининг миқдорий самарадорлиги (масалан, ҳар бир восита бўйича кутилаётган ROI) ушбу мақолада баҳоланмади — бу туркумнинг инвестицияларни бошқариш ва лойиҳаларни баҳолашга бағишланган кейинги мақолалари вазифаси; шунингдек, механизм миллий даражада лойиҳаланган бўлиб, ҳудудий хусусиятларга мослаштирув алоҳида тадқиқот талаб қилади.

Хулоса

Биринчидан, расмий манбалар таҳлили темир йўл инновацион инфратузилмасидаги олти асосий камчиликни тизимлаштириш ва ҳар бирига аниқ ечим воситасини бириктириш имконини берди; воситаларнинг аксарияти давлат даражасида аллақачон таклиф этилган бўлиб, асосий муаммо уларнинг мувофиқлаштирилмаганлигида экани аниқланди.

Иккинчидан, уч таркибли (ташкилий, иқтисодий, рақамли) механизм ишлаб чиқилди; унинг марказий янгилиги — воситаларнинг ўзида эмас, балки уларни ягона контурга бирлаштирувчи мувофиқлаштирув қатлами (лойиҳа офиси) ва уч тўлқинли жорий этиш кетма-кетлигидадир.

Учинчидан, механизм назарий тамойиллар (кичик тизимлар кетма-кетлиги, экотизим ёндашуви) билан узвий боғланган ҳолда лойиҳаланди ва кейинги жараёнлар — рақамли трансформация, инвестицияларни бошқариш ва KPI тизими — учун амалий асос яратади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёевга транспорт-логистика ва транзит салоҳияти таклифлари тақдим этилди // Sputnik Ўзбекистон. — 2026. — 1 июль. — URL: https://sputniknews.uz/20260701/

2. Ўзбекистоннинг олтита ҳудудини транспорт-логистика соҳасини ривожлантиришга ихтисослаштириш таклиф этилди // Gazeta.uz. — 2026. — 1 июль. — URL: https://www.gazeta.uz/uz/2026/07/01/logistics/

3. Ўзбекистон транзит салоҳиятини ошириш бўйича янги таклифлар кўриб чиқилди // Anhor.uz. — 2026. — июль. — URL: https://anhor.uz

4. Ўрта коридор ягона йўналиш сифатида ишлаши керак — экспертлар // Gazeta.uz. — 2026. — 19 июнь. — URL: https://www.gazeta.uz/uz/2026/06/19/middle/

5. Aschauer D.A. Is public expenditure productive? // Journal of Monetary Economics. — 1989. — Vol. 23, № 2. — P. 177–200.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

6. Лапидус Б.М., Мачерет Д.А. Макроэкономическая роль железнодорожного транспорта. — М.: КРАСАНД, 2014. — 234 с.

7. Yescombe E.R. Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance. — Oxford: Butterworth-Heinemann, 2007. — 350 p.

8. Europe’s Rail Joint Undertaking: European partnership for rail research and innovation. — Brussels: EU-Rail, 2024. — URL: https://rail-research.europa.eu

9. UNCTAD. Review of Maritime Transport: The concept of dry ports. — Geneva: United Nations, 2020.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

МОДЕЛИ КРЕДИТНОГО СКОРИНГА НА ОСНОВЕ БОЛЬШИХ ДАННЫХ: ВЛИЯНИЕ НА РОСТ ВЫРУЧКИ ФИНТЕХ-КОМПАНИЙ

Адилов Рустам
студент бакалавриата, кафедра компьютерных наук
Университет ИНХА в Ташкенте
ORCID: 0009-0004-7250-4627
Email: rstmadylov@gmail.com

Аннотация. *В статье анализируется влияние моделей кредитного скоринга на основе больших данных и машинного обучения на выручку финтех-компаний. Автор рассматривает механизмы роста дохода через уровень одобрения, уровень дефолта и операционные издержки, а также сопоставляет типы скоринговых моделей по их экономической отдаче.*

Ключевые слова: *кредитный скоринг, большие данные, машинное обучение, финтех, рост выручки, уровень дефолта, уровень одобрения, альтернативные данные, финансовая инклюзия, кредитный риск, операционные издержки.*

KATTA MA’LUMOTLARGA ASOSLANGAN KREDIT SKORINGI MODELLARI: FINTEX KOMPANIYALARI DAROMADINI OSHIRISHDAGI TA’SIRI

Adilov Rustam
Bakalavriat talabasi, Kompyuter fanlari kafedrasi
Toshkentdagi INHA universiteti
ORCID: 0009-0004-7250-4627
Email: rstmadylov@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada katta ma’lumotlar va mashinali o‘qitish asosidagi kredit skoringi modellarining fintex kompaniyalari daromadiga ta’siri tahlil qilinadi. Muallif tasdiqlash darajasi, defolt darajasi va operatsion xarajatlar orqali daromad o‘sishi mexanizmlarini ko‘rib chiqadi hamda skoring modellari turlarini qiyoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *kredit skoringi, katta ma’lumotlar, mashinali o‘qitish, fintex, daromad o‘sishi, defolt darajasi, tasdiqlash darajasi, muqobil ma’lumotlar, moliyaviy inklyuziya, kredit riski, operatsion xarajatlar.*

BIG DATA-DRIVEN CREDIT SCORING MODELS: IMPACT ON FINTECH COMPANY REVENUE GROWTH

Adilov Rustam
Undergraduate Student, Department of Computer Science
INHA University in Tashkent
ORCID: 0009-0004-7250-4627
Email: rstmadylov@gmail.com

Abstract. *This article analyzes the impact of Big Data- and machine-learning-based credit scoring models on the revenue of fintech companies. The author examines revenue-growth mechanisms through approval rates, default rates and operating costs, and compares scoring model types by their economic returns.*

Keywords: *credit scoring, big data, machine learning, fintech, revenue growth, default rate, approval rate, alternative data, financial inclusion, credit risk, operating costs.*

Введение

Развитие технологий больших данных, искусственного интеллекта и машинного

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

обучения существенно трансформировало финансовый сектор, особенно сферу цифрового кредитования. Современные финтех-компании ежедневно обрабатывают большие объёмы информации о потенциальных заёмщиках, используя как традиционные финансовые показатели, так и альтернативные источники данных, включая транзакционную активность, поведенческие характеристики и цифровой след пользователей. Это позволяет принимать решения о выдаче кредита значительно быстрее и точнее по сравнению с классическими подходами. Одним из ключевых инструментов оценки кредитоспособности заёмщиков является кредитный скоринг. От качества скоринговой модели напрямую зависят объём одобренных кредитов, уровень кредитных потерь, операционные расходы и, как следствие, финансовые результаты деятельности финтех-компании. Повышение точности прогнозирования кредитного риска позволяет одновременно расширять клиентскую базу, снижать вероятность дефолтов и повышать эффективность использования капитала. Несмотря на значительное количество исследований, посвящённых разработке и сравнению алгоритмов кредитного скоринга, влияние качества скоринговых моделей на финансовые показатели компаний, прежде всего на выручку, остаётся изученным недостаточно системно. Большинство работ сосредоточено на сравнении точности моделей или прогнозировании дефолтов, тогда как экономические механизмы формирования прироста выручки рассматриваются фрагментарно.

Целью настоящего исследования является анализ влияния моделей кредитного скоринга, основанных на технологиях больших данных и машинного обучения, на выручку финтех-компаний, а также систематизация основных каналов, через которые повышение точности скоринга способствует росту финансовой эффективности организаций.

Обзор литературы

Кредитный скоринг является одной из наиболее коммерчески значимых областей применения технологий больших данных в финтех-индустрии, поскольку напрямую определяет качество и объём кредитного портфеля организации. Систематический обзор публикаций по машинному обучению в кредитном скоринге за 2018–2024 годы, охвативший 330 научных работ, показывает устойчивый рост интереса исследователей к сравнению классических статистических моделей и современных алгоритмов машинного обучения применительно к задаче оценки кредитоспособности заёмщиков [4].

Ключевым эмпирическим результатом последних лет стало исследование, выполненное на данных крупного банка, обслуживающего свыше 50 миллионов клиентов: внедрение AI-модели кредитного скоринга, использующей «слабые сигналы» (нетрадиционные данные о поведении заёмщика), одновременно повысило уровень одобрения кредитов для недообслуженной части населения и снизило уровень дефолта как для этой группы, так и для основной клиентской базы [1]. Данный результат опровергает распространённое представление о неизбежном компромиссе между расширением охвата клиентов и ростом кредитного риска, демонстрируя, что более точная модель способна одновременно увеличивать объём выдаваемых кредитов и снижать потери от невозврата.

Сопоставление отдельных алгоритмов машинного обучения также свидетельствует о существенных различиях в их прогностической способности. В исследованиях, посвящённых прогнозированию кредитного дефолта, модель случайного леса (Random Forest) продемонстрировала точность около 95%, тогда как логистическая регрессия - базовая модель, традиционно применяемая банками, показала точность на уровне 80% [5]. Аналогичным образом в работах, посвящённых объяснимому искусственному интеллекту в оценке кредитного риска, градиентный бустинг LightGBM был признан «бизнес-оптимальной» моделью, обеспечивающей наилучшее соотношение между уровнем

одобрения заявок и уровнем дефолта [6].

Отдельное направление литературы связано с использованием альтернативных, поведенческих и транзакционных данных для скоринга клиентов, не имеющих формальной кредитной истории. Показано, что учёт временных рядов транзакционной активности. Например, устойчивой динамики выручки малого бизнеса позволяет выявлять признаки надвигающегося дефолта до его наступления и одновременно расширять доступ к финансированию для сегментов, которые ранее считались «нескоринговыми» [7].

Экономическая значимость точности скоринговых моделей подтверждается и на уровне отдельных компаний. Так, финтех-кредитор, использующий модели машинного обучения на основе альтернативных данных (включая уровень образования, историю коммунальных платежей и использование мобильной связи), нарастил клиентскую базу до 6,2 миллиона пользователей, а выручка компании за двенадцать месяцев, закончившихся в середине 2023 года, выросла более чем на 70% в годовом выражении [10]. Хотя данный рост определяется комплексом факторов, аналитики связывают его в значительной степени с масштабируемостью продуктовой линейки, ставшей возможной благодаря точному скорингу на основе данных.

На макроуровне исследования также фиксируют связь между развитием финтех-кредитования на основе данных и агрегированными показателями финансовой системы: более совершенные модели оценки риска ассоциируются со снижением кредитного риска коммерческих банков [8] и повышением общей эффективности финансовой деятельности [9]. Таким образом, обзор литературы позволяет утверждать, что качество скоринговой модели выступает не только инструментом управления риском, но и самостоятельным фактором роста выручки финтех-организаций, однако количественная систематизация каналов этого влияния в существующих работах представлена фрагментарно, что определяет направленность настоящего исследования.

Методология исследования

Для изучения влияния моделей кредитного скоринга на выручку финтех-компаний в работе использован комплексный методологический подход. На первом этапе применён метод систематизации научных и отраслевых источников, посвящённых сравнению эффективности различных типов скоринговых моделей - от логистической регрессии до ансамблевых алгоритмов машинного обучения и полностью автоматизированных AI-систем [1; 4; 5; 6].

На втором этапе построена аналитическая модель декомпозиции выручки, позволяющая связать точность скоринговой модели с финансовым результатом финтех-компании. В основу модели положено представление о том, что изменение выручки от кредитования (ΔR) складывается из трёх компонентов: прироста процентного дохода за счёт увеличения объёма одобренных кредитов (ΔApproval × Средний размер кредита × Процентная маржа), сокращения потерь от дефолта (ΔDefault × Losses given default) и экономии на операционных издержках за счёт автоматизации процесса принятия решений. Такая декомпозиция носит иллюстративный характер и предназначена для структурирования каналов влияния, выявленных в литературе, а не для получения точных количественных прогнозов для конкретной организации.

Третий этап включал сравнительный анализ моделей по критерию соотношения «одобрение - дефолт», что является ключевым индикатором экономической эффективности скоринга: модель признаётся экономически более эффективной, если она позволяет одобрять больше платёжеспособных заявителей при сохранении или снижении общего уровня дефолта портфеля [1; 6]. Результаты сопоставления моделей по данному критерию обобщены в разделе «Анализ и результаты».

Четвёртый этап методологии включал качественную оценку роли альтернативных источников данных (транзакционных, поведенческих, геолокационных) в расширении

«скорингуемой» клиентской базы, что особенно актуально для развивающихся финтех-рынков, включая Узбекистан, где значительная доля населения не имеет формальной кредитной истории [7]. Информационной базой исследования послужили рецензируемые научные публикации 2012–2025 годов, а также отраслевые аналитические отчёты, содержащие количественные оценки эффектов внедрения AI-скоринга. Ограничением методологии является отсутствие собственных эконометрических расчётов на первичных данных, что определяет направление дальнейших исследований в сторону построения регрессионных моделей на данных конкретных финтех-организаций Узбекистана.

Анализ и результаты

Проведённый анализ позволил выделить три основных канала, через которые модели кредитного скоринга на основе больших данных влияют на выручку финтех-компаний: расширение объёма одобренных и обслуживаемых кредитов, снижение потерь от невозврата и сокращение операционных издержек на обработку заявок. Обобщённые результаты сопоставления типов моделей по данным каналам представлены в таблице 1.

Таблица 1.

Сопоставление типов моделей кредитного скоринга и каналов их влияния на выручку финтех-компаний (составлено автором на основе [1; 4; 5; 6; 10; 11])

Тип модели скоринга	Точность / AUC (по данным исследований)	Влияние на уровень одобрения и дефолта	Канал воздействия на выручку
Логистическая регрессия (базовая модель)	Точность около 80%	Консервативное одобрение, ограниченный охват «тонких» кредитных досье	Низкий прирост выручки, минимальные потери от дефолта
Random Forest / градиентный бустинг (XGBoost, LightGBM)	Точность до 95–99%; наилучший баланс одобрения и дефолта у LightGBM	Рост одобрения при контролируемом уровне дефолта за счёт нелинейных зависимостей	Расширение кредитного портфеля без пропорционального роста потерь
AI-модель на альтернативных данных (транзакции, поведенческие сигналы)	Повышение точности прогнозирования дефолта на 15–25% относительно традиционных моделей	Рост одобрения для «недообслуженных» клиентов при снижении дефолта у всей популяции	Новые источники дохода за счёт финансово исключённых сегментов, рост процентного дохода
Полностью автоматизированный AI-скоринг с реал-тайм данными	Обработка заявок за минуты вместо дней	Сокращение доли ручной проверки заявок до 60%	Снижение операционных издержек, рост маржинальности кредитных операций

Как показано в таблице 1, переход от базовой логистической регрессии к ансамблевым алгоритмам машинного обучения (Random Forest, градиентный бустинг) сопровождается ростом точности прогнозирования дефолта до 95–99% против примерно 80% у логистической регрессии [5]. Более высокая точность позволяет точнее разделять

заёмщиков по уровню риска, что даёт возможность одобрять дополнительные заявки без пропорционального роста потерь — соответствующий эффект прямо формирует прирост процентного дохода финтех-компании.

Наиболее показательным с точки зрения влияния на выручку является случай применения AI-моделей на альтернативных данных: в исследовании, охватившем более миллиона заявителей крупного банка, внедрение такой модели одновременно повысило одобрение кредитов для ранее недообслуженной группы клиентов и снизило уровень дефолта как для этой группы, так и для основной клиентской базы [1]. Это означает, что выручка от кредитования выросла не за счёт принятия на себя дополнительного риска, а за счёт более точной идентификации платёжеспособных заёмщиков, которые ранее отклонялись из-за ограниченности традиционных данных.

Экономический эффект на уровне отдельной компании иллюстрируется случаем финтех-кредитора, применяющего скоринг на основе альтернативных данных (образование, коммунальные платежи, использование мобильной связи): рост клиентской базы до 6,2 миллиона пользователей сопровождался увеличением выручки более чем на 70% в годовом выражении за двенадцать месяцев [10]. Хотя данный показатель отражает совокупный эффект бизнес-модели, а не изолированное влияние скоринга, масштабируемость кредитного портфеля в данном случае напрямую опирается на способность модели быстро и точно оценивать заявителей без формальной кредитной истории.

Третий канал влияния сокращение операционных издержек связан с автоматизацией процесса рассмотрения заявок. По отраслевым оценкам, полностью автоматизированные AI-системы скоринга способны сокращать долю заявок, требующих ручной проверки, до 60%, а также значительно уменьшать срок принятия решения с нескольких дней до нескольких минут [11]. Для финтех-компаний, работающих с высоким потоком розничных заявок, подобное сокращение издержек напрямую повышает маржинальность кредитных операций и, соответственно, чистую прибыль при неизменной выручке от процентных доходов.

Обобщая результаты анализа с помощью предложенной декомпозиции выручки (ΔR = ΔApproval-эффект + ΔDefault-эффект + ΔOpEx-эффект), можно заключить, что наибольший вклад в рост выручки финтех-компаний обеспечивают модели, одновременно повышающие точность прогнозирования дефолта и расширяющие охват альтернативных данных, поскольку именно они позволяют реализовать положительный эффект по первому и второму каналам без ухудшения качества кредитного портфеля. Модели с высокой автоматизацией дополнительно усиливают эффект за счёт третьего канала, однако его вклад носит по преимуществу затратный, а не доходный характер.

Вместе с тем анализ выявил и ограничивающие факторы: экономический эффект скоринговых моделей на основе больших данных зависит от доступности качественных альтернативных данных, зрелости регуляторной среды в части защиты персональных данных и обоснованности выбора порога отсечения (cut-off score), балансирующего между уровнем одобрения и допустимым уровнем риска [6]. Игнорирование данных ограничений способно нивелировать потенциальный прирост выручки за счёт непропорционального роста кредитных потерь.

Заключение

Проведённое исследование показало, что модели кредитного скоринга на основе больших данных и машинного обучения оказывают прямое и структурированное влияние на выручку финтех-компаний через три канала: расширение объёма одобренных кредитов без пропорционального роста дефолта, снижение потерь от невозврата за счёт более точной идентификации риска и сокращение операционных издержек благодаря автоматизации процесса принятия решений.

Установлено, что переход от традиционных статистических моделей (логистическая регрессия) к ансамблевым алгоритмам машинного обучения и полностью автоматизированным AI-системам сопровождается ростом точности прогнозирования дефолта и позволяет реализовать так называемый «двойной эффект» одновременное расширение клиентской базы и снижение кредитного риска, что напрямую отражается на финансовых показателях финтех-организаций.

Практическая значимость результатов состоит в том, что финтех-компаниям и коммерческим банкам предлагается предложенная в статье декомпозиция выручки как инструмент для приоритизации инвестиций в развитие скоринговых моделей: наибольшую отдачу обеспечивают инвестиции в качество альтернативных данных и точность прогнозирования дефолта, тогда как автоматизация процессов преимущественно влияет на издержки, а не на объём выручки.

Перспективным направлением дальнейших исследований является количественная оценка предложенной декомпозиции выручки на данных конкретных финтех-компаний и коммерческих банков Узбекистана с использованием эконометрических методов, что позволит получить эмпирически обоснованные оценки вклада каждого канала в прирост выручки применительно к национальному финтех-рынку.

Литературы

1. Li C., Wang H., Jiang S., Gu B. The Effect of AI-Enabled Credit Scoring on Financial Inclusion: Evidence from an Underserved Population of over One Million // MIS Quarterly. – 2024. – Vol. 48, No. 4. – P. 1803–1834.

2. Chen H., Chiang R. H. L., Storey V. C. Business Intelligence and Analytics: From Big Data to Big Impact // MIS Quarterly. – 2012. – Vol. 36, No. 4. – P. 1165–1188.

3. Financial Stability Board. FinTech Credit: Market Structure, Business Models and Financial Stability Implications. – Basel: FSB, 2017.

4. Machine Learning Powered Financial Credit Scoring: a Systematic Literature Review // Artificial Intelligence Review (Springer). – 2025.

5. Bank Loan Prediction Using Machine Learning Techniques // arXiv preprint arXiv:2410.08886. – 2024.

6. Explainable Artificial Intelligence Credit Risk Assessment Using Machine Learning // arXiv preprint arXiv:2506.19383. – 2025.

7. Machine Learning for Credit Scoring and Loan Default Prediction Using Behavioral and Transactional Financial Data. – 2025.

8. Cheng M., Qu Y. Does Bank FinTech Reduce Credit Risk? Evidence from China // Pacific-Basin Finance Journal. – 2020. – Vol. 63. – Art. 101398.

9. Wu Y. H., Bai L., Chen X. How Does the Development of Fintech Affect Financial Efficiency? Evidence from China // Economic Research-Ekonomska Istraživanja. – 2023. – Vol. 36, No. 2. – P. 2980–2998.

10. Machine Learning Algorithms for Bank Credit Scoring: Case of SoFi Technologies // Svitla Systems, analytical review. – 2023.

11. AI Credit Scoring for Banks: Model Types, Implementation Guide // Neontri, analytical report. – 2026.

12. Rahman S. U., Faisal F., Ali A., Sulimany H. G. H., Bazhair A. H. Do Financial Technology and Financial Development Lessen Shadow Economy? Evidence from BRICST Economies // Quarterly Review of Economics and Finance. – 2023. – Vol. 90. – P. 201–210.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

INVESTITSIYA MUHITINI QULAYLASHTIRISH ORQALI HUDUDIY INVESTITSIYA MEXANIZMINI FAOLLASHTIRISH

Kenjayev Ikrom Ergashboyevich

University of Business and Science
“Moliya” kafedrasi mudiri,
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
E-mail: ikromk@mail.ru
ORCID: 0009-0007-3775-039X

Annotatsiya. *Mazkur maqolada investitsiya muhitini qulaylashtirish orqali hududiy investitsiya mexanizmi harakatlanishini faollashtirishning huquqiy, institutsional, moliyaviy va tashkiliy jihatlari tadqiq etilgan. Investitsiya muhitining hududlarga yo‘naltiriladigan investitsiya oqimlari hajmi, tarkibi va moliyalashtirish manbalariga ta’siri ochib berilgan. O‘zbekiston sharoitida investorlar huquqlarini himoya qilish, mulk daxlsizligini ta’minlash, investitsiyalardan olingan daromadlarni erkin tasarruf etish, mablag‘larni repatriatsiya qilish, stabilizatsiya kafolatini qo‘llash va ma’muriy tartib-taomillarni soddalashtirishning investitsiya faolligiga ta’siri asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *investitsiya muhiti, hududiy investitsiya mexanizmi, asosiy kapitalga investitsiyalar, investitsion kreditlash, sanoat kapitali, moliyaviy kapital.*

АКТИВИЗАЦИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ИНВЕСТИЦИОННОГО МЕХАНИЗМА ПОСРЕДСТВОМ УЛУЧШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОГО КЛИМАТА

Кенжаев Икром Эргашбоевич

заведующий кафедрой «Финансы»
University of Business and Science,
доктор философии по экономическим наукам (PhD),
доцент.
E-mail:ikromk@mail.ru
ORCID: 0009-0007-3775-039X

Аннотация. *В данной статье исследованы правовые, институциональные, финансовые и организационные аспекты активизации функционирования регионального инвестиционного механизма посредством улучшения инвестиционного климата. Раскрыто влияние инвестиционного климата на объём, структуру и источники финансирования инвестиционных потоков, направляемых в регионы. Обосновано влияние защиты прав инвесторов, обеспечения неприкосновенности собственности, свободного распоряжения доходами от инвестиций, репатриации денежных средств, применения стабилизационной гарантии и упрощения административных процедур на инвестиционную активность в условиях Узбекистана.*

Ключевые слова: *инвестиционный климат, региональный инвестиционный механизм, инвестиции в основной капитал, инвестиционное кредитование, промышленный капитал, финансовый капитал.*

ACTIVATING THE REGIONAL INVESTMENT MECHANISM THROUGH IMPROVEMENT OF THE INVESTMENT CLIMATE

Ikrom Ergashboyevich Kenjayev

Head of the Department of Finance,

University of Business and Science,
Doctor of Philosophy (PhD) in Economics,
Associate Professor
E-mail: ikromk@mail.ru
ORCID: 0009-0007-3775-039X

Abstract. *This article examines the legal, institutional, financial, and organizational aspects of activating the regional investment mechanism through the improvement of the investment climate. It reveals the impact of the investment climate on the volume, structure, and financing sources of investment flows directed to regions. The study substantiates the influence of protecting investors' rights, ensuring the inviolability of property, freely disposing of income derived from investments, repatriating funds, applying stabilization guarantees, and simplifying administrative procedures on investment activity in Uzbekistan.*

Keywords: *investment climate, regional investment mechanism, fixed capital investment, investment lending, industrial capital, financial capital.*

Kirish

Hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi va yuqori unumdor ish o‘rinlarini yaratish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish ko‘p jihatdan investitsiya resurslarining yetarli hajmda jalb etilishi va ularning ustuvor yo‘nalishlarga samarali yo‘naltirilishiga bog‘liq. Investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, balki zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va hududlarning iqtisodiy tarkibini diversifikatsiya qilishda ham muhim omil hisoblanadi.

Mazkur jarayonda investitsiya muhiti investitsiya mexanizmini harakatga keltiruvchi asosiy shartlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki investorlarning muayyan hudud yoki tarmoqqa kapital kiritish bo‘yicha qarori, avvalo, ushbu hududda shakllangan iqtisodiy, huquqiy va institutsional sharoitlarning jozibadorligi bilan belgilanadi. Investorlar uchun yaratilgan huquqiy kafolatlar, davlat boshqaruvi va institutsional tizimlarning barqarorligi, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari, soliq va bojxona imtiyozlari, muhandislik-kommunikatsiya hamda transport infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi, shuningdek, tashkiliy va ma’muriy jarayonlarning soddaligi hududning investitsiyaviy jozibadorligini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi.

Investitsiya muhitini qulaylashtirish faqat investorlar uchun soliq yoki bojxona imtiyozlarini taqdim etish bilan cheklanmaydi. Mazkur jarayon investorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, investitsiyalardan olingan daromadlarni erkin tasarruf etish, mablag‘larni xorijga o‘tkazish va repatriatsiya qilish imkoniyatlarini yaratish, investitsiya shart-sharoitlari yomonlashgan holatlarda stabilizatsiya kafolatini qo‘llash hamda ma’muriy tartib-taomillarni soddalashtirishni ham qamrab oladi.

Shuningdek, investitsiya muhitining samaradorligi investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, tanlash, moliyalashtirish va monitoring qilish tizimining sifati bilan belgilanadi. Investitsiya takliflari bo‘yicha marketing tadqiqotlarining yetarli darajada olib borilmasligi, loyiha tashabbuskorlarining muqobil moliyalashtirish vositalaridan foydalanish imkoniyatlari cheklanganligi va bank monitoringining ayrim hollarda ortiqcha ma’muriy bosimga aylanishi investitsiya loyihalarining amalga oshirilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Hududiy investitsiya mexanizmining samarali ishlashi sanoat va moliyaviy kapitalning o‘zaro integratsiyasiga ham bog‘liq. Sanoat korxonalarining modernizatsiya, texnologik yangilanish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish ehtiyojlari uzoq muddatli moliyaviy resurslar bilan ta’minlanmasa, investitsiya mexanizmi to‘liq harakatga kelmaydi.

Adabiyotlar sharhi

Investitsiya muhiti va investitsiya mexanizmlarini rivojlantirish masalalari ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. J.M. Keynes investitsiyalarni iqtisodiy o‘sish va bandlikning muhim omili sifatida baholagan bo‘lsa, J. Schumpeter ularning innovatsiyalar va texnologik yangilanishdagi rolini asoslab bergan [1; 2]. D. North investitsiya faolligi mulk huquqlarining himoyalanganligi, qonunchilik barqarorligi va institutlar samaradorligiga bog‘liqligini ta’kidlagan [3]. M. Porter esa hududlarning investitsion jozibadorligini infratuzilma, raqobat muhiti, ishlab chiqarish omillari va bozor salohiyati bilan izohlagan [4].

J. Stiglitz va A. Weiss kredit bozoridagi axborotlar nomutanosibligi hamda yuqori foiz stavkalari investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklashini ko‘rsatgan [5]. Jahon banki va OECD tadqiqotlarida esa investorlar huquqlarini himoya qilish, ma’muriy tartib-taomillarni soddalashtirish va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish investitsiya muhitini yaxshilashning asosiy shartlari sifatida qayd etilgan [6; 7].

Mavjud tadqiqotlarda investitsiya muhiti va investitsion kreditlash masalalari keng yoritilgan bo‘lsa-da, ularning hududiy investitsiya mexanizmi hamda moliyalashtirish manbalari tarkibiga ta’sirini o‘zaro bog‘liq holda baholash yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasining investitsiya faoliyatiga oid qonunchilik hujjatlari, investitsiyalar va investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar, Namangan viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bo‘yicha 2020–2025-yillarga tegishli statistik ma’lumotlar hamda investitsiya va kreditlash jarayonlariga oid ilmiy manbalar tashkil etdi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, mantiqiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, statistik guruhlash, dinamik qatorlar tahlili, qiyosiy tahlil, tarkibiy tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Investitsion kreditlash mexanizmini baholashda kredit resurslarining qiymati, kredit muddati, loyiha pul oqimlari, investitsiya loyihasining rentabelligi, garov ta’minoti, tarmoq istiqbollari, loyiha tavakkalchiligi va hududiy ustuvorliklar asosiy mezonlar sifatida qabul qilindi.

Natijalar va muhokama.

O‘zbekistonda investitsiya faoliyatini tartibga solish tizimi investorlarning teng huquqliligini ta’minlash, investitsiya faoliyatini erkin amalga oshirish, investitsiyalardan olingan daromadlarni reinvestitsiya qilish yoki boshqa maqsadlarda ishlatish hamda qonunchilikda belgilangan tartibda mablag‘larni erkin o‘tkazish tamoyillariga asoslanadi.

Investitsiya muhiti qulayligini ta’minlovchi asosiy institutsional elementlar quyidagilardan iborat:

- investorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash;
- davlat organlarining investitsiya faoliyatiga asossiz aralashuviga yo‘l qo‘ymaslik;
- daromadlarni reinvestitsiya qilish va erkin tasarruf etish;
- mablag‘larni konvertatsiya qilish va repatriatsiya qilish imkoniyatlarini ta’minlash;
- investitsiya sharoitlari yomonlashganda qonunchilikda nazarda tutilgan kafolatlarni qo‘llash;
- davlat xizmatlarini raqamlashtirish va ma’muriy tartib-taomillarni soddalashtirish;
- investitsiya loyihalarini tanlash va monitoring qilishning shaffof mexanizmlarini joriy etish.

Biroq huquqiy kafolatlarning mavjudligi o‘z-o‘zidan investitsiya faolligining yuqori darajasini ta’minlamaydi. Investorlarning qarorlariga hududiy infratuzilmaning holati, energiya va transport ta’minoti, malakali mehnat resurslarining mavjudligi, mahalliy bozor sig‘imi, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari hamda davlat boshqaruvi organlari faoliyatining sifati ham ta’sir ko‘rsatadi.

Namangan viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi 1-jadvalda keltirilgan [9;10].

1-jadval

Namangan viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi, mlrd so‘m[13]

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Asosiy kapitalga investitsiyalar jami	11982,5	13302,4	14348,2	20734,5	53340,5	61125,3
Markazlashgan investitsiyalar	1511,4	1914,3	1696,2	1307,6	1692,7	3378,4
Markazlashmagan investitsiyalar	10471,1	11388,1	12652,0	19426,9	51647,8	57746,9
Korxona mablag‘lari	2929,5	3337,2	2842,7	4507,0	4991,7	5012,3
Aholi mablag‘lari	1592,0	2161,0	2345,3	2713,9	2942,1	3484,1
Korxona va aholi mablag‘lari jami	4521,5	5498,2	5188,0	7220,9	7933,8	8496,4
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	2925,4	2202,0	3215,0	2626,6	400,7	489,0
To‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiyalar hamda kreditlar	3024,2	3687,9	4248,9	9579,4	43313,3	48794,6
Respublika budjeti mablag‘lari	627,1	1015,5	868,5	449,6	1046,3	1833,8
O‘zR kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	770,8	652,0	670,1	783,8	645,9	1544,6

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, Namangan viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2020-yildagi 11 982,5 mlrd so‘mdan 2025-yilda 61 125,3 mlrd so‘mga yetgan. Natijada investitsiyalar hajmi 5,1 baravarga yoki 410,1 foizga oshgan. Mazkur davrdagi o‘rtacha yillik nominal o‘sish sur’ati taxminan 38,5 foizni tashkil etgan.

Markazlashmagan investitsiyalar hajmi 2020-yildagi 10 471,1 mlrd so‘mdan 2025-yilda 57 746,9 mlrd so‘mga ko‘paygan. Ularning jami investitsiyalardagi ulushi 2025-yilda 94,5 foizni tashkil qilgan. Markazlashgan investitsiyalar ulushi esa 5,5 foizga teng bo‘lgan. Bu hududdagi investitsiya jarayonlarida bozor tamoyillari, xususiy tashabbus va jalb qilingan moliyaviy resurslarning ustunligini ko‘rsatadi.

Korxona va aholi mablag‘lari hajmi 2020-yildagi 4 521,5 mlrd so‘mdan 2025-yilda 8 496,4 mlrd so‘mga oshgan. Biroq ularning jami investitsiyalardagi ulushi 2020-yildagi 37,7 foizdan 2025-yilda 13,9 foizgacha pasaygan. Demak, ichki mablag‘larning mutlaq hajmi oshgan bo‘lsa-da, jami investitsiyalar tarkibidagi nisbiy ahamiyati kamaygan [10].

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari 2020-yilda 2 925,4 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda ushbu ko‘rsatkich 489,0 mlrd so‘mgacha kamaygan. Uning jami investitsiyalardagi ulushi 24,4 foizdan 0,8 foizgacha qisqargan. Ushbu holat hududdagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda mahalliy tijorat banklarining uzoq muddatli kredit resurslari yetarli darajada faol ishtirok etmayotganini anglatadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiyalar hamda kreditlar hajmi 2020-yildagi 3 024,2 mlrd so‘mdan 2025-yilda 48 794,6 mlrd so‘mga yetgan. Mazkur manbaning jami investitsiyalardagi ulushi 2020-yildagi 25,2 foizdan 2025-yilda 79,8 foizgacha oshgan [10].

Natijada Namangan viloyatida hududiy investitsiya mexanizmi ichki resurslarni safarbar etishga asoslangan modeldan jalb qilingan va xorijiy kapital ishtiroki ustun bo‘lgan modelga o‘tmoqda. Bunday o‘zgarish hududga yirik investitsiya loyihalarini jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, tashqi moliyalashtirish manbalariga yuqori darajada bog‘lanish valyuta, foiz, tashqi qarz va kapital oqimlarining barqarorligi bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni kuchaytirishi mumkin.

Investitsiya mexanizmining samarali ishlashi moliyaviy resurslarning real sektor ehtiyojlariga muvofiq yo‘naltirilishini talab qiladi. Sanoat korxonalarining texnologik modernizatsiya, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va eksportga yo‘naltirilgan

[13] Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha loyihalari katta boshlang‘ich xarajatlar hamda uzoq muddatli qoplash davri bilan tavsiflanadi.

Shunga ko‘ra, sanoat kapitali bilan moliyaviy kapital integratsiyasini ta’minlash quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasini kengaytirish;
- investitsiya banklari va taraqqiyot institutlari faoliyatini rivojlantirish;
- bank kreditlari bilan bir qatorda obligatsiyalar va boshqa qarz instrumentlaridan foydalanish;
- moliyaviy lizing va faktoring xizmatlarini rivojlantirish;
- investitsiya fondlari, sug‘urta tashkilotlari va boshqa institutsional investorlar mablag‘larini real sektorga jalb etish;
- davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan keng foydalanish;
- investitsiya loyihalarini sindikatlashgan kreditlash amaliyotini rivojlantirish;
- hududiy investitsiya platformalari va loyiha ofislarini tashkil etish.

Investitsiya mexanizmini moliyalashtirish xususiyatiga ko‘ra ikki asosiy modelga ajratish mumkin.

Birinchi model – ichki resurslarni safarbar etishga asoslangan investitsiya mexanizmi. Ushbu modelda korxonalar o‘z foydasi, amortizatsiya ajratmalari, ta’sischilar mablag‘lari va aholi jamg‘armalari hisobidan investitsiya loyihalarini moliyalashtiradi. Mazkur model korxonaning moliyaviy mustaqilligini oshiradi, biroq yirik modernizatsiya loyihalarini amalga oshirish uchun uning imkoniyatlari cheklangan bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi model – tashqi resurslarni jalb etishga asoslangan investitsiya mexanizmi. Bunda bank kreditlari, xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari, obligatsiyalar, lizing va boshqa moliyaviy vositalar orqali investitsiya resurslari jalb etiladi. Ushbu model yirik loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini oshiradi, biroq qarz yuki, valyuta tavakkalchiligi va moliyaviy barqarorlik bilan bog‘liq talablarni kuchaytiradi.

Namangan viloyatida kuzatilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar ikkinchi modelning ustunlik qilayotganini ko‘rsatadi. Shu sababli tashqi resurslarni jalb qilish bilan bir vaqtda mahalliy korxonalar va banklarning investitsiya jarayonidagi ishtirokini ham kengaytirish zarur.

Investitsion kreditlash oddiy aylanma mablag‘larni moliyalashtirishdan mazmunan farq qiladi. Investitsiya loyihalari katta boshlang‘ich xarajat, uzoq muddatli qaytim davri va nisbatan yuqori tavakkalchilik bilan tavsiflanadi. Shuning uchun investitsion kreditlarni baholashda faqat qarz oluvchining mavjud moliyaviy holati yoki garov ta’minotiga tayanish yetarli emas.

Investitsion kreditlash bo‘yicha qaror qabul qilishda quyidagi mezonlarni kompleks baholash lozim:

- loyiha doirasida shakllanadigan pul oqimlari;
- sof joriy qiymat va ichki rentabellik darajasi;
- investitsiyalarning qoplanish muddati;
- kredit mablag‘larining qiymati;
- mahsulotga bo‘lgan bozor talabi;
- loyiha tashabbuskorining moliyaviy barqarorligi;
- garov va sug‘urta ta’minoti;
- texnologik, valyuta, foiz va bozor tavakkalchiliklari;
- loyihaning hududiy va tarmoq ustuvorliklariga muvofiqligi;
- yaratiladigan ish o‘rinlari va budjet samaradorligi.

Sanoat korxonalarini investitsion kreditlashning institutsional mexanizmi bank muassasalari, milliy va xorijiy kredit resurslari, davlat kafolatlari, moliyaviy lizing kompaniyalari, investitsiya banklari, sug‘urta tashkilotlari hamda boshqa moliyaviy vositachilar o‘rtasidagi aloqalarni qamrab oladi (1-rasm).



1-rasm. Sanoat korxonalarini investitsion kreditlashning institutsional mexanizmi[14]

Mazkur mexanizmning samaradorligi moliyaviy institutlarning sanoat korxonalari ehtiyojlariga moslashuvi, kredit resurslarining muddatlari va qiymati hamda investitsiya loyihalarining sifatli ekspertizasiga bog‘liq.

Kredit resurslarining qiymati sanoat korxonalarining real rentabellik darajasi bilan muvofiq bo‘lishi kerak. Kredit stavkasi loyiha daromadliligidan yuqori bo‘lgan sharoitda investitsion kredit ishlab chiqarish kapitalining kengayishiga emas, balki qarz yukining oshishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun foiz stavkalarini maqbullashtirish, foiz xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish, davlat kafolatlari va sug‘urta mexanizmlarini qo‘llash investitsion kreditlashni rag‘batlantiruvchi vositalar sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari investitsiya muhitini qulaylashtirish hududiy investitsiya mexanizmini faollashtirishning zarur sharti ekanini ko‘rsatmoqda. Biroq qulay huquqiy muhitning o‘zi investitsiya mexanizmining samarali ishlashini to‘liq ta’minlamaydi. Investitsiya oqimlarini real iqtisodiy natijalarga aylantirish uchun huquqiy kafolatlar moliyaviy resurslar, institutsional infratuzilma, malakali kadrlar va investitsiya loyihalarini boshqarish tizimi bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.

Namangan viloyatidagi tarkibiy o‘zgarishlar hududga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasida sezilarli natijalarga erishilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, 2025-yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiyalar hamda kreditlarning jami investitsiyalardagi ulushi qariyb 80 foizga yetgani moliyalashtirish manbalarining yuqori darajada konsentratsiyalashganini anglatadi.

Investitsiya manbalarining bunday tarkibi bir tomondan yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatini kengaytiradi. Ikkinchi tomondan, tashqi kapital oqimlari kamaygan yoki moliyalashtirish shartlari yomonlashgan vaziyatda hududiy investitsiya faolligining pasayish xavfini yuzaga keltiradi. Shu sababli investitsiya mexanizmining barqarorligini ta’minlash uchun ichki va tashqi manbalar o‘rtasida maqbul mutanosiblikni shakllantirish zarur.

Tijorat banklari kreditlarining jami investitsiyalardagi ulushi 0,8 foizgacha kamaygani alohida e’tibor talab qiladi. Ushbu holat bank tizimida uzoq muddatli va maqbul qiymatdagi

[14] Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib muallaf ishlanmasi

resurslarning cheklanganligi, kredit tavakkalchiliklarining yuqoriligi, garov talablarining qattiqligi yoki xorijiy moliyalashtirish manbalarining keskin ko‘payishi bilan izohlanishi mumkin.

Banklarning investitsiya jarayonidagi ishtirokini faollashtirish uchun kreditlash yondashuvini garov qiymatiga asoslangan modeldan loyiha pul oqimlariga asoslangan modelga bosqichma-bosqich o‘tkazish maqsadga muvofiq. Bunda banklar loyiha tashabbuskorlarining joriy aktivlarini emas, balki investitsiya loyihasi natijasida kelajakda shakllanadigan pul oqimlarini asosiy qaytarish manbasi sifatida baholashi lozim.

Shuningdek, hududiy investitsiya mexanizmini rivojlantirishda lizing, faktoring va franchayzing kabi muqobil vositalarning imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayapti. Lizing korxonalarga yirik boshlang‘ich xarajatlarsiz zamonaviy uskunalarni jalb qilish, faktoring debitorlik qarzlarini tezkor moliyaviy resurslarga aylantirish, franchayzing esa tayyor biznes modeli, texnologiya va savdo belgisidan foydalanish imkoniyatini beradi.

Olib borilgan tahlillar asosida hududiy investitsiya mexanizmini faollashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlar taklif etiladi:

1. Hududlarning investitsiya salohiyati va tavakkalchiliklarini ifodalovchi yagona raqamli investitsiya pasportlarini shakllantirish.
2. Investitsiya loyihalari bo‘yicha marketing tadqiqotlarini mustaqil professional tashkilotlar ishtirokida amalga oshirish.
3. Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini loyiha pul oqimlari asosida moliyalashtiruvchi maxsus bo‘linmalarni rivojlantirish.
4. Uzoq muddatli investitsion kreditlar bo‘yicha foiz xarajatlarining bir qismini davlat tomonidan kompensatsiya qilish mexanizmini takomillashtirish.
5. Yuqori iqtisodiy va ijtimoiy samaraga ega hududiy loyihalarga davlat kafolati va kafilliklarini tanlov asosida taqdim etish.
6. Lizing, faktoring, franchayzing, korporativ obligatsiyalar va sindikatlashgan kreditlash vositalaridan foydalanishni kengaytirish.
7. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarda mahalliy korxonalar bilan kooperatsiya va texnologiyalar transferi talablarini kuchaytirish.
8. Investitsiya loyihalarini monitoring qilishni jazolovchi nazoratdan maslahat va muammolarni tezkor hal etishga yo‘naltirilgan servis modeliga o‘tkazish.
9. Tashqi moliyalashtirish manbalariga bog‘liqlikni kamaytirish maqsadida aholi jamg‘armalari va institutsional investorlar mablag‘larini investitsiya jarayoniga jalb etish.
10. Hududiy investitsiya loyihalarining iqtisodiy, ijtimoiy, budjet va ekologik samaradorligini kompleks baholash tizimini joriy etish.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, investitsiya muhiti hududiy investitsiya mexanizmini harakatga keltiruvchi asosiy shartlardan biri bo‘lib, uning sifati investitsiya oqimlarining hajmi, tarkibi, moliyalashtirish manbalari va hududiy taqsimotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Investitsiya muhitini takomillashtirish soliq va bojxona imtiyozlaridan tashqari investorlar huquqlarini himoya qilish, mulk daxlsizligini ta’minlash, daromadlarni repatriatsiya qilish, ma’muriy tartib-taomillarni soddalashtirish va investitsion servislarni rivojlantirishni talab qiladi.

Ikkinchidan, Namangan viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2020–2025-yillarda 5,1 baravarga oshgan. Bu hududda investitsiya faolligi sezilarli ravishda kuchayganini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiyalar hamda kreditlarning jami investitsiyalardagi ulushi 2025-yilda 79,8 foizga yetgan. Natijada hududiy investitsiya mexanizmi ichki resurslarga tayanuvchi modeldan tashqi va jalb qilingan kapital ishtiroki ustun bo‘lgan modelga o‘tmoqda.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

To‘rtinchidan, korxona va aholi mablag‘larining mutlaq hajmi oshganiga qaramay, ularning jami investitsiyalardagi ulushi 13,9 foizgacha pasaygan. Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘larining ulushi esa 0,8 foizni tashkil etgan. Bu mahalliy moliya institutlarining investitsiya jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Beshinchidan, sanoat va moliyaviy kapital integratsiyasini ta’minlash uchun uzoq muddatli kredit resurslarini kengaytirish, investitsiya banklari va taraqqiyot institutlarini rivojlantirish, lizing, faktoring, franchayzing, obligatsiyalar va sindikatlashgan kreditlash vositalaridan foydalanish zarur.

Oltinchidan, investitsion kreditlashda asosiy e’tibor faqat garov ta’minotiga emas, balki loyiha pul oqimlari, rentabellik darajasi, qoplanish muddati, tarmoq istiqbollari, hududiy ustuvorliklar va tavakkalchiliklarni kompleks baholashga qaratilishi lozim.

Umuman olganda, investitsiya muhitini qulaylashtirish investitsiya mexanizmini faollashtirishning zarur, biroq yakka holda yetarli bo‘lmagan shartidir. Hududiy investitsiya mexanizmining barqaror va samarali ishlashi huquqiy, moliyaviy, institutsional va tashkiliy vositalarning o‘zaro uyg‘unligi, moliyaviy va real sektorlar o‘rtasidagi mutanosiblik hamda hududiy xususiyatlarni hisobga oluvchi kompleks boshqaruv yondashuvini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 25-dekabr, O‘RQ–598-son.
2. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. London: Macmillan, 1936.
3. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. Cambridge: Harvard University Press, 1934.
4. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
5. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.
6. Stiglitz J.E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // American Economic Review. 1981. Vol. 71. No. 3. P. 393–410.
7. World Bank. Investment Climate Assessments: An Integrated Approach. Washington, D.C.: World Bank.
8. OECD. Policy Framework for Investment. Paris: OECD Publishing.
9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
10. Namangan viloyati statistika boshqarmasining 2020–2025-yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar bo‘yicha ma’lumotlari.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ХАРАЖАТЛАРИНИНГ КОРХОНАЛАР МОЛИЯВИЙ ҲОЛАТИГА ТАЪСИРИ

Саттаров Тулкин Абдихалилович
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
ORCID: 0009-0001-3779-4508,
E-mail: sattarovozfdtek@gmail.com

Аннотация: *Мазкур мақолада корхоналарнинг молиявий ҳолатига таъсир этувчи анъанавий омиллар мазмуни тадқиқ этилган. Мақола матнида айрим муҳим кўрсаткичларнинг мазмуни ўрганилган бўлиб, уларнинг миқдори бевосита корхоналарнинг молиявий барқарорлигига таъсир қилади. Мақолада корхонанинг фаолияти ҳолатига жиддий таъсир этиши мумкин бўлган ҳар бир кўрсткичларга таҳлилий баҳо берилган. Мақолада корхонанинг зарар билан фаолият кўрсатиши ёки фаолияти самарадорлигига баҳо беришнинг аниқ усуллари, шунингдек корхонанинг молиявий кщрсаткичларига мувофиқ келгуси даврлар учун аниқ йўналишлари келтирилмоқда.*

Калит сўзлар: *молиявий ҳолати, зарар, даромад, фойда, маржинал даромад, доимий ва тўғри харажатлар, харажатлар, аралаш харажатлар.*

THE IMPACT OF PRODUCTION COSTS ON THE FINANCIAL CONDITION OF ENTERPRISES

Sattarov Tulkin Abdikhalilovich
Samarkand Institute of Economics and Service
doctor of philosophy (PhD) in economic sciences,
ORCID: 0009-0001-3779-4508,
E-mail: sattarovozfdtek@gmail.com

Abstract: *This article examines the content of traditional factors affecting the financial condition of enterprises. The content of some important indicators is studied in the article, and their magnitude directly affects the financial stability of enterprises. An analytical assessment is provided for each indicator that may seriously impact the state of the enterprise's activities. The article presents precise methods for assessing whether the enterprise is operating at a loss or evaluating the efficiency of its activities, as well as specific directions for future periods in accordance with the enterprise's financial indicators.*

Keywords: *financial condition, loss, income, profit, marginal income, fixed and direct costs, costs, mixed costs.*

ВЛИЯНИЕ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ЗАТРАТ НА ФИНАНСОВОЕ СОСТОЯНИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ

Саттаров Тулкин Абдихалилович
Самаркандский институт экономики и сервиса
доктор философии (PhD) по экономическим наукам,
ORCID: 0009-0001-3779-4508,
Электронная почта: sattarovozfdtek@gmail.com

Аннотация: *В данной статье исследовано содержание традиционных факторов, влияющих на финансовое состояние предприятий. В тексте статьи изучено содержание некоторых важных показателей, размер которых напрямую влияет на финансовую устойчивость предприятий. В статье дана аналитическая оценка каждому показателю, который может существенно повлиять на состояние деятельности предприятия. В статье приводятся конкретные методы оценки убыточности или эффективности*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

деятельности предприятия, а также конкретные ориентиры на будущие периоды в соответствии с финансовыми показателями предприятия.

Ключевые слова: *финансовое состояние, убыток, доход, прибыль, предельный доход, постоянные и прямые расходы, расходы, смешанные расходы.*

Мавзунинг долзарблиги.

Корхоналарнинг молиявий барқарорлигини таъминлаш чора-тадбирлари тизимида ишлаб чиқариш харажатлари муҳим ўрин тутади. Корхоналар фаолиятининг инновацион ривожланиши шароитида харажатлар турли омиллар таъсирида доимий равишда ўзгариб боради. Шу билан бирга, энг аввало жами харажатлар, даромад (фойда) ва нарх (ёки нархни шакллантириш) каби асосий иқтисодий кўрсаткичларни молиявий соғломлаштириш чоралари билан уйғунлаштириш муҳим аҳамиятга эга [1]. Ушбу кўрсаткичлар мажмуавий тарзда корхонанинг молиявий ҳолати қандай шаклланишини белгилайди. Албатта, молиявий ҳолатга таъсир кўрсатувчи бошқа иқтисодий омиллар ҳам мавжуд. Жумладан, зарарлар, солиқлар, экспорт ҳажмининг қисқариши ҳамда инфляция (аслида корхонага ижобий иқтисодий самара бермайдиган инфляцион даромад) шулар жумласидандир. Айрим ҳолларда инфляцион даромад (фойда) корхонанинг молиявий ҳолатини нисбатан яхшироқ кўрсатиш ва ноқулай хўжалик юритиш шароитларида унинг фаолияти қандай кечаётганини намоён этиш мақсадида ҳисобга олинади.

Шунинг учун корхоналарнинг молиявий ҳолати ҳаракатчанлик, фаоллик, мустаҳкамлик, барқарорлик, аҳоли эҳтиёжларига яқинлик, капитал сиғимининг нисбатан пастлиги ҳамда юқори ликвидлик каби хусусиятлар билан таъминланиши лозим. Шу билан бирга, у ноқулай иқтисодий вазиятларда корхона фаолиятини янги шароитларга мослаштириш ва қайта йўналтиришга хизмат қилувчи муҳим омил вазифасини бажариши керак.

Корхоналарнинг молиявий ҳолатини тавсифловчи кўрсаткичлар орасида ишлаб чиқариш фаолиятининг молиявий салоҳияти энг аниқ ва очиқ намоён бўладиган кўрсаткич ҳисобланади. Бу, айниқса, кенг маънодаги харажатлар, хусусан, ишлаб чиқариш харажатлари билан боғлиқ қуйидаги кўрсаткичларда яққол намоён бўлади. Уларни фақатгина корхонанинг молиявий ҳолатига бугунги иқтисодий шароитларда таъсир кўрсатувчи омиллар билан изоҳлаб бўлмайди. Бундай кўрсаткичлар қуйидагилардан иборат:

- мол-мулкнинг умумий қийматида активлар улуши;
- ишлаб чиқариш активларининг эскириш даражаси;
- белгиланган ўртача меъёрлар доирасидаги амортизация ажратмалари;
- узоқ муддатли молиявий инвестициялар таркибида капитал қўйилмалар улуши.

Бу ерда ишлаб чиқариш активларининг умумий қиймати $\sum П_{роиз}А_{кт}$) анъанавий усул асосида (1-формула) қуйидагича аниқланади:

$$\sum П_{роиз}А_{кт} = \sum ОС + \sum П_{роиз}З_{ап} + \sum Н_{езав}П_{роиз} \quad (1)$$

Бу ерда: $\sum ОС$ - асосий воситаларнинг умумий қиймати;

$\sum П_{роиз}З_{ап}$ - ишлаб чиқариш захираларининг умумий қиймати;

$\sum Н_{езав}П_{роиз}$ - тугалланмаган ишлаб чиқаришнинг умумий қиймати.

Шундан келиб чиқиб, моддий ишлаб чиқаришни аниқлашга нисбатан янги ёндашувлар шаклланади. Амалиётда мазкур йиғиндидан табиат кучлари таъсирини чиқариб ташлаш орқали ўтган меҳнат харажатлари ҳамда жонли меҳнат харажатларини шакллантириш мумкин.

Иқтисодий адабиётлар таҳлили.

Кенг маънода харажатлар иқтисодий жараёнларда мутаносиб, яъни бир хил қонуниятлар асосида шаклланади. Бу фикр оддий туюлса-да, ҳақиқат ҳар доим ўртада бўлади. Кўплаб олимлар ўнлаб йиллар давомида шаклланган харажатларни аниқлаш

тизимидан воз кечишни таклиф этмайдилар. Аксинча, «харажатлар тўғрисидаги низом»нинг сақланиб қолиши корхоналар харажатларини бозор механизмлари орқали тартибга солишнинг муҳим афзаллиги сифатида баҳоланади. Бироқ мазкур афзалликдан нотўғри ёки ҳаддан ташқари соддалаштирилган тарзда фойдаланиш инновацион ривожланаётган корхоналар фаолиятига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Бир-бирига қарама-қарши кўринган ушбу ёндашувлар аслида бир хил, ҳали тўлиқ аниқлаштирилмаган қарашга асосланади. Яъни, харажатларни прогноз қилиш фақат жорий асрнинг дастлабки ўн йиллигида шаклланган амалиёт билан чекланади, деган фикр мавжуд. Бироқ бу тўғри эмас. Харажатларни ҳисоблаш усуллари жуда хилма-хил ҳисобланади. Шунинг учун аввал шаклланган ҳисоб-китоб усулларини бутунлай инкор этиш ёки улардан воз кечиш натижасида, айниқса солиқ солиш базасини ҳисоблашда, «харажатлар тўғрисидаги низом»дан фойдаланиш имконияти йўқолади, деб ҳисоблаш нотўғри бўлади. Шу билан бирга, ҳисоб-китоблар янги харажатларни ҳисоблаш тизими талабларига мослаштирилиши лозим. Шунингдек, маҳсулот турига, айниқса инновацион маҳсулотлар ишлаб чиқариш хусусиятига қараб харажатларни ҳисоблаш ишлаб чиқариш ҳажмининг ўзгариши билан бирга ўзгариши ҳақидаги қарашлар ҳам мавжуд. Бунда айрим маъмурий-бошқарув харажатлари ўзгармасдан қолиши мумкин, ҳолбуки ишлаб чиқариш харажатлари маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмига бевосита боғлиқ бўлади. Харажатлар миқдорининг ўзгаришини тўғри англаш учун корхона фаолияти ҳолатини турли таҳлил усуллари асосида ўрганиш зарур. Масалан, инновацион маҳсулотлар (товарлар ва хизматлар) ишлаб чиқариш ҳажми, харажатлар ва фойда ўртасидаги боғлиқлик таҳлили доирасида қуйидаги ёндашувлардан фойдаланиш мумкин:

- корхоналарнинг ишлаб чиқариш фаолияти самарадорлигини баҳолаш орқали;
- ишлаб чиқариш ҳажми ва фойдани молиявий прогноз қилиш (режалаштириш) орқали;
- қисқа муддатли бошқарув қарорларини қабул қилиш орқали;
- умуман нархларни, хусусан, инновацион маҳсулотлар (товарлар ва хизматлар) учун нархларни белгилаш бўйича қарорлар қабул қилиш орқали.

Бу ерда, Ж.Р. Зайналов [4], С.С. Алиева ва З. Ахроров таъкидлаганидек, харажатларни аниқлаш бўйича амалга ошириладиган ҳисоб-китобларнинг йўналтирилганлиги муҳим аҳамиятга эга. Ушбу вазифани ҳал этиш осон эмас. Чунки бошқарув органлари харажатлар миқдорини қатъий тартибга солиш сиёсати юритади ва бу харажатлар давлат бюджети даромадларининг ўсишига хизмат қилиши лозим.

Шунинг учун, ишлаб чиқариш харажатлари миқдори қандай бўлишидан қатъи назар (1-расмга қаранг), улар корхоналар фаолиятининг фаоллашувини ифода этиши ва уни рағбатлантириши керак.

1-расм. Корхоналар фаолиятини фаоллаштиришга йўналтирилган харажатлар[15]

Инновацион маҳсулотлар бозорида харажатларни бундай тарзда таснифлаш муҳим аҳамиятга эга. Бироқ бунда харажатларнинг ҳар бир йўналиши бўйича уларнинг кўлами ёки ҳажмига нисбатан мақбул чегараларни белгилаш етарли даражада аниқ эмас[4].

[15] Муаллиф томонидан корхоналарни таҳлил қилиш асосида тайёрланган.

Харажатларнинг иқтисодий чегарасини аниқлаш ишлаб чиқариш ҳажми ёки унинг динамикаси, шунингдек харажатларнинг ўзгарувчан ва доимий турлари ҳамда маҳсулотни сотиш нархи ҳисобга олинган ҳолда амалга оширилиши лозим. Фақат шундагина харажатлар чегарасини янада аниқ белгилаш ва олдиндан башорат қилиш мумкин бўлади [2].

Муаммонинг ҳозирги ҳолати таҳлили.

Қисқача айтганда, мамлакатимиз корхоналари ўз фаолиятини тез суръатларда ва сезиларли даражада янгиламоқда. Корхоналар пул маблағлари харажатларини тартибга солишдаги энг муҳим ўзгаришлардан бири уларни реструктуризация қилиш ва инновацион фаолиятга йўналтириш билан боғликдир. 2021–2023 йилларда Самарқанд шаҳрида инновацион маҳсулотлар ишлаб чиқаришнинг умумий ишлаб чиқариш ҳажмидаги улуши ўртача 11,3 фоиздан 17,5 фоизгача ошди. Шунингдек, 2025 йилга келиб бошқа саноат корхоналарида инновацион маҳсулотлар улушини умумий ишлаб чиқариш ҳажмининг 40 фоизига етказиш белгиланган*(Самарқанд шаҳридаги 6 та саноат корхонаси, жумладан, умумий махсулот хажмининг 30 фоизидан ортиғини инновацион маҳсулотлар ташкил этган “Асл Нафис” МЧЖ материаллари асосида тайёрланган.)*.

Бунда ўзгарувчан харажатларнинг асосий йўналишларини, аввало, материал харажатлари ва меҳнатга ҳақ тўлаш харажатлари ташкил этади. Шу билан бирга, мазкур ўзгарувчан харажатлар таркибига устама харажатлар моддалари (ПНР) ҳам кириши мумкин (ПНР схемаси 2-расмда келтирилган).



2-расм. Ўзгарувчан устама харажатларни шакллантиришга хизмат қилувчи кўрсаткичлар.[16]

Ушбу омилларнинг корхоналарнинг барқарор молиявий ҳолатини таъминлашдаги самарадорлигини кўриб чиқамиз.

Доимий харажатлар. Бундай турдаги харажатлар иқтисодий назария ва амалиёт олдига доимий равишда янги масалаларни қўймоқда [3]. Бунинг сабаби шундаки, қуйида келтирилган устама харажатлар $П_oНР$) кўрсаткичлари ҳам доимий харажатлар таркибига киради (2-расмга қаранг).



2-расм. Доимий устама харажатлар $П_oНР$ таркибига кирувчи кўрсаткичлар

[16] Муаллиф томонидан корхоналарни таҳлил қилиш асосида тайёрланган.

Корхоналар харажатлари ҳолатини таҳлил қилиш фақат ушбу икки устувор турдаги харажатлар билан чекланмайди. Шунинг учун аралаш (ярим ўзгарувчан) харажатлар $С_м НР$ ҳам чуқурроқ таҳлил қилиниши лозим.

Табиатига кўра, бундай харажатларнинг элементлари сифатида воситачиларга тўланадиган ҳақлар, яъни савдо-саноат агентларига тўланадиган хизмат ҳақлари намоён бўлиши мумкин. Шу сабабли мазкур харажатлар таркибига агентларга тўланадиган лавозим маоши ҳамда кўрсатилган хизматлар учун комиссион тўловлар киради (3-расмга қаранг).



3-расм. Аралаш устама харажатлар ($С_м НР$)ни шакллантирувчи харажатлар кўрсаткичлари

1–3-расмларда келтирилган маълумотлардан кўриниб турибдики, мазкур харажат турлари XX асрнинг 90-йиллари ўртасига қадар мавжуд бўлган кўринишида асосан бозор иқтисодиётига ўтиш давридан олдин шаклланган. Кейинчалик эса уларни тубдан ўзгартиришга деярли уринилмаган. Бу эса ушбу турдаги харажатларни шакллантириш тизимининг барқарорлигини намоён этади. Мазкур тизим ички жиҳатдан ўз-ўзини ривожлантиришга эҳтиёж сезмаган ва фақат ташқи омиллар таъсирида ўзгариши мумкин бўлган. Уларнинг барчаси, моҳиятан, устама харажатлардан иборат бўлиб, иқтисодий табиатига кўра аралаш харажатлар АХга турига киради.

Шуни таъкидлаш лозимки, сўнгги йиллардаги иқтисодий адабиётларда доимий ва ўзгарувчан харажатлар масаласига кенг эътибор қаратилган. Айниқса, XX асрнинг 80-йиллари ҳамда XXI асрнинг дастлабки йилларига оид тадқиқотларда ушбу масалалар атрофлича ёритилган. Бу табиий ҳол, чунки айнан ўша даврда иқтисодиётни юритиш тизими қайси йўналишда ривожланиши масаласи ҳал қилинган эди.

Бироқ корхоналар харажатларининг ҳақиқий ҳолатини комплекс таҳлил қилишга деярли эътибор берилмаган. Бу эса гўёки ўша йилларда барча соҳаларда ҳолат ижобий бўлган ва таҳлил қилишга эҳтиёж бўлмаган, деган тасаввурни уйғотади. Аслида эса бундай эмас. Ўша даврда ҳам ижобий тажрибалар, ҳамда бугунги кун учун муҳим аҳамиятга эга бўлган кўплаб сабоқлар мавжуд эди.

Молиявий таҳлилда «харажатлар – ишлаб чиқариш – фойда» $Х_{ар} - ИЧ_{ҳаж} - Ф$, модели молиявий қарорларни прогноз қилиш самарадорлигини баҳолаш ва қабул қилинган қарорларнинг иқтисодий моҳиятини англаш мезони сифатида муҳим аҳамиятга

эга. Шу нуқтаи назардан, айниқса, аралаш харажатлар АХга алоҳида эътибор қаратиш лозим.

Шу нуқтаи назардан, “аралаш харажатлар АХ”ни ўзгарувчан ва доимий таркибий қисмларга ажратиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. “Харажатлар – ишлаб чиқариш ҳажми – фойда” $Х_{ар} - ИЧ_{ҳаж} - Ф$ ўртасидаги ўзаро боғлиқликни таҳлил қилиш, бу ерда $ИЧ_{ҳаж}$ – ишлаб чиқариш ҳажмини англатади, корхоналарнинг молиявий маблағлар ва моддий ресурслардан тежамкорлик билан фойдаланиши ҳамда уларнинг иқтисодий мустақиллигини кенгайтиришга оид вазифаларни ҳал этишга хизмат қилади.

CVP-таҳлилнинг (Cost–Volume–Profit Analysis) асосий мақсади эришилган натижаларни баҳолашдан иборат бўлиб, унда молиявий натижаларнинг ўсиши, меҳнат унумдорлигининг ошиши ёки ишлаб чиқариш ҳажмининг кўпайиши аниқланади.

Шу билан бирга, барча молиявий кўрсаткичлар прогноз кўрсаткичларига тўлиқ мос келиши керак, деб ҳисоблаш тўғри эмас. Қулай молиявий натижа, аввало, корхонанинг даромади, сотиш ҳажми, харажатлари ва фойдасига боғлиқ бўлади. Мутахассислар ҳеч қачон фойда, ишлаб чиқариш ҳажми, қиймат кўрсаткичлари ва бошқа иқтисодий кўрсаткичларнинг ўсиши бўйича ҳисоб-китобларни мутлақ аниқликда амалга оширмаганлар. Ҳар қандай прогноз, айниқса узоқ муддатли истиқболга мўлжалланган прогноз, доимо маълум даражада ноаниқлик элементларини ўз ичига олади (4-расмга қаранг).



4-расм. Корхоналар харажатларининг ортиши ва фойданинг камайишига олиб келувчи ҳолатларни мутлақ аниқлик билан олдиндан башорат қилишнинг мумкин эмаслиги[17]

Буларнинг барчаси қуйидаги кўрсаткичларга бевосита таъсир кўрсатади:

- ўзгарувчан харажатларга;
- маҳсулот (товарлар, хизматлар)нинг сотиш нархига;
- бирлик маҳсулотга тўғри келадиган маржинал даромадга (бу кўрсаткич, одатда, ишлаб чиқариш ҳажмига боғлиқ эмас деб ҳисобланади);
- доимий харажатларга (уларнинг таркибий элементлари ишлаб чиқариш ҳажмининг ўзгаришига боғлиқ равишда ўзгармайди).[18]

Таклиф ва тавсиялар.

Мазкур кўрсаткичларни аниқлаш методикасининг тўғрилигига ҳозирча шубҳа билдирмаган ҳолда, уларни амалий жиҳатдан баҳолашга ҳаракат қиламиз. Агар

[17] Муаллиф томонидан корхоналарни таҳлил қилиш асосида тайёрланган.

[18] Однако меняются в расчете на единицу, т.к. при изменении уровня производства $П_{ост}$ Р распределяются между единицами продукции. Так как $П_{ост}$ $З_{ед}$ на 1ед. продукции постоянно меняется в зависимости от уровня производства и прибыли.

Бироқ, доимий харажатлар бир бирликка ҳисобланганда ўзгаради, чунки ишлаб чиқариш даражаси $ИЧ_{дар}$ ўзгарганда улар маҳсулот бирликлари ўртасида тақсимланади. Шунинг учун 1 бирлик маҳсулотга тўғри келадиган доимий харажатлар ДХ на ишлаб чиқариш даражаси ва фойдага қараб доимий равишда ўзгариб туради

корхоналарнинг ҳақиқий фойдаси прогноз қилинган фойдадан паст бўлса, унда корхоналарнинг молиявий ҳолатига холис молиявий баҳо бериш имконияти пайдо бўлади.

Албатта, харажатлар параметрларининг ҳақиқий кўрсаткичлари корхоналарнинг прогноз топшириқларига қанчалик яқин бўлса, баҳолаш натижалари шунчалик ишончли бўлади. Бундай ҳолатда ҳисоб-китоблардан икки кўрсаткич – ишлаб чиқариш ўсиш суръати ҳамда сотиш (товар айланмаси ёки хизматлар ҳажми) ўсиш суръати чиқариб ташланади. Қолган кўрсаткичлар бўйича эса мувофиқлик даражаси анча юқори ҳисобланади. Масалан, доимий харажатлар ҳамда аралаш харажатларнинг айрим элементлари бўйича бундай мувофиқлик кузатилади.

Шунингдек, даромадлар таркибидаги таркибий ўзгаришларнинг, хусусан, маржинал даромад улушининг ўсиши ҳозирча нисбатан паст даражада сақланиб қолмоқда. Бу соҳада ҳамон «харажатлар тўғрисидаги низом» асосида даромадни тўғридан-тўғри ҳисоблаш усуллари қўлланилмоқда. Бироқ ушбу низомда маржинал даромадни аниқлаш механизми етарлича ёритилмаган.

Хорижий тажрибани ҳисобга олган ҳолда, CVP-таҳлил ҳар доим маржинал даромад (МД), хусусан, бирлик маҳсулотга тўғри келадиган фойда асосида амалга оширилиши лозим. Шунинг учун мазкур кўрсаткичнинг ўзгариш хусусиятини олдиндан баҳолаш муҳим аҳамиятга эга. Чунки айнан ушбу кўрсаткич кўп ҳолларда маҳсулот (товар ёки хизмат) ишлаб чиқариш ҳажмининг ортиши ёки камайишидан мустақил равишда ўзгариши мумкин.

Шунинг учун маржинал даромадни, айрим ҳолларда эса фойдани аниқлаш жараёнида юзага келиши мумкин бўлган барча қийинчиликлар ва салбий оқибатларни олдиндан баҳолаш муҳим аҳамиятга эга.

Шу муносабат билан, янги иқтисодий шароитларда CVP-таҳлилни амалга оширишда зарарсизлик нуқтаси ($З_н$)ни ҳисоблашдан фойдаланиш зарур. Зарарсизлик нуқтаси — бу маҳсулот (товар ёки хизмат)ни сотишдан олинадиган жами даромад $\sum Д_{сот}$) жами харажатлар $\sum Х_{жами}$ га тенг бўлган ҳолатдир. Мазкур нуқтада корхона на фойда олади, на зарар кўради.

Бизнинг фикримизча, ушбу ёндашув корхона фаолиятини комплекс баҳолашга хизмат қилиши лозим. Чунки зарарсизлик нуқтасидаги барча ҳисоб-китоблар бевосита корхона фаолияти билан боғлиқ бўлади. Шунинг учун жами фойда (∑Ф) ёки жами зарар (∑З) жами маржинал даромад $\sum МД$ билан жами доимий харажатлар $\sum Ў_{зг}Х$ ўртасидаги фарқ сифатида аниқланади.

Фойда (ёки зарар) қуйидаги фарқ сифатида аниқланади: $\sum МД - \sum ДХ$ Бу зарарсизлик нуқтаси $З_н$ жами маржинал даромад $\sum МД$ жами доимий харажатлар $\sum ДХ$ га тенг бўлган нуқтада юзага келишини англатади (2 – 5 – формулалар) .

Бирлик маҳсулот бўйича маржинал даромад қуйидаги формула орқали аниқланади:

$$\sum МД = Ц - \sum Ў_{зг}Х, \quad (1)$$

Шунингдек, жами маржинал даромад ($\sum МД$) кўрсаткичини ҳам эътибордан четда қолдирмаслик лозим. Шундан келиб чиқиб:

$$\sum СМД_{ох} = \sum ОП_{роиз} \times \sum МД_{ох} = \sum ОП_{роиз} \times (Ц - П_{ер}З_{ат}) \quad (2)$$

$$\sum СМД_{ох} = ДХ + \sum Ф, \quad (3)$$

$$ТБУ_{б} = П_{ост}З_{ат} : К_{оэф}В_{ыр} \quad (4)$$

бу ерда: Туш $К_{оэф}$ - тушум коэффициенти.

Шундай қилиб, пул оқимлари бўйича зарарсизлик нуқтаси ($З_н$) – бу корхонада на пул маблағи қолдиғи, на овердрафт мавжуд бўлган ҳолатни англатади.

Бюджетни ишлаб чиқиш жараёнида зарарсизлик нуқтаси лойиҳалар ва бизнес-режаларнинг ҳаётийлигини баҳолашда энг муҳим мезонлардан бири ҳисобланади.

Бизнинг фикримизча, прогноз қилинган тушум билан зарарсизлик нуқтаси ўртасидаги фарқни хавфсизлик захираси (яъни хавфсизлик маржаси ёки мувозанат захираси) деб аташ мумкин. Одатда, ушбу кўрсаткич фоизларда ифодаланади ва у ҳақиқий тушум режалаштирилган тушумга нисбатан неча фоизга камайганда корхона зарар кўриш ҳудудига ўтишини аниқлаш имконини беради. Бундан ташқари, хавфсизлик захираси маҳсулот бирликларида ҳамда қиймат ифодасида ҳам ҳисобланиши лозим.

Жами маржинал даромад (∑МД)ни ҳисоблаш кўрсаткичлари таҳлили шуни кўрсатадики, уларнинг барчаси бевосита корхона фаолиятига тегишли бўлиб, айни вақтда молиявий натижалар таркибида акс эттирилади.

Ушбу кўрсаткичлар мажбурий иқтисодий кўрсаткичлар сифатида қўлланилиши учун уларни корхоналарнинг сифат кўрсаткичлари таркибига киритиш мақсадга мувофиқ. Чунки маржинал даромад (МД), жами харажатлар (∑Х), ишлаб чиқариш ҳажми ($ИЧ_{хар}$) ҳамда фойда (Ф) каби кўрсаткичлар айнан уларнинг миқдорига боғлиқ. Бизнинг фикримизча, мазкур кўрсаткичларни бошқаришда корхоналар манфаатларини ҳисобга олган ҳолда эркин ва мослашувчан ёндашув қўлланилиши лозим.

Шу билан бирга, зарарсизлик тушунчасини эътибордан четда қолдирмаслик зарур. Чунки жами фойда (∑Ф) ва жами харажатлар (∑Х) ишлаб чиқариш ҳажмининг ўзгаришига қараб ўзгариши мумкин.

Шундан келиб чиқиб, жами харажатлар (∑Х) билан ишлаб чиқариш ҳажми ($∑ИЧ_{хар}$), шунингдек сотиш ҳажми (∑Сҳ) билан соф фойда (∑Сф) ўртасидаги ўзаро боғлиқликни таъминлайдиган самарали иқтисодий механизмларни жорий этиш зарур.

Мазкур кўрсаткичларни тартибга солиш учун тадбиркор тизимли ва мувозанатли таҳлилга таянган ҳолда энг мақбул бошқарув қарорларини қабул қилиши лозим. Бу эса сотишнинг мувозанат ҳажми нуқтаси ($ТР_{ав}ОР_{реал}$)ни аниқлаш имконини беради. Ушбу нуқтада маҳсулотни сотишдан олинадиган тушум харажатлар миқдорига тўлиқ тенг бўлади. Бироқ мазкур ҳолат корхоналарнинг даромадлар тўғрисидаги молиявий ҳисоботларида тўлиқ акс эттирилмайди.

Шубҳасиз, харажатлар ҳисобини тўғри юритиш корхоналарда харажатларни самарали бошқариш ва зарар кўришнинг олдини олишнинг муҳим шарти ҳисобланади.

Тадқиқот мавзуси бўйича хулоса

Янги хўжалик юритиш тизими шароитида нафақат молиявий кўрсаткичлар ўсишининг ижобий жиҳатларини, балки зарарсизлик даражасини ҳам чуқур ўрганиш зарурати юзага келади. Ушбу масалани таҳлил қилиш, аввало, тизимли таҳлил натижаларига асосланиши лозим. Бу эса ишлаб чиқариш жараёнларига самарали таъсир кўрсатиш имконини беради.

Агар зарарсизликни таҳлил қилиш жараёнида илгари ҳисобга олинмаган янги омиллар (масалан, техник ихтиролар, ташқи иқтисодий муҳитдаги ўзгаришлар ва бошқалар) юзага келса, тадбиркор томонидан қабул қилинадиган молиявий қарорлар ушбу ўзгаришларга ўз вақтида мослашиши керак. Янги шароитлар ва кутилмаган ҳолатларга мослашишнинг энг самарали воситаси режада назарда тутилган захиралар, яъни аввал тақсимланмаган ва ишга солинмаган ресурслардан оқилона фойдаланиш ҳисобланади.

Кўриб чиқилган молиявий тартибга солиш воситалари, шунингдек ўзгарувчан иқтисодий кўрсаткичлардан фойдаланишда очиқлик ва шаффофлик тамойилларига қатъий риоя қилиниши лозим. Уларни тартибга солиш жараёни алоҳида эҳтиёткорлик ва масъулиятни талаб этади. Бу эса қуйидаги масалалар бўйича мақбул ечимларни таъминлаш орқали амалга оширилиши мумкин:

умуман солиққа тортиш тизимини такомиллаштириш;

маҳсулотлар (товарлар ва хизматлар)ни сотишда қўлланиладиган меъёр ва нормативларни такомиллаштириш;

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

нархлар ҳамда кредит фоиз ставкаларини тартибга солишни ўзаро мувофиқлаштириш ва уларни режалаштирилаётган инновацион ўзгаришлар билан узвий боғлиқ ҳолда амалга ошириш.

Бу ёндашувлар корхоналарнинг молиявий барқарорлигини мустаҳкамлаш, харажатларни самарали бошқариш ҳамда рақобатбардошлигини оширишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 5 февралдаги 54-сон қарори. *«Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида».*

2. Глазов М.М., Черникова С.Ю. *Харажатларни бошқариш: янги ёндашувлар.* Монография. – Санкт-Петербург: РГГМУ, 2009. – 169 б.

3. Костюкова С.Н. *Харажатларни бошқариш: иқтисодий мутахассисликлар талабалари учун ўқув-услубий мажмуа.* – Новополоцк: ПГУ, 2010. – 180 б.

4. Зайналов Ж.Р., Алиева С.С., Ахроров З.О. ва бошқалар. *Молия (Корхоналар молияси).* Дарслик. – Тошкент, 2018. – 265 б.

5. Никитина Е.Б., Жуковская С.Л. *Харажатларни бошқариш ва контроллинг.* Электрон ўқув қўлланма. – Пермь: Перм давлат миллий тадқиқот университети, 2019. – 129 б.

6. Хамидуллина Г.Р. *Харажатларни бошқариш.* – Москва: «Экзамен», 2004. – 352 б.

7. Холт Р.Н. *Молиявий менежмент асослари.* – Москва: «Дело», 1993. – 128 б.

8. Шеремет А.Д. *Бошқарув ҳисоби.* Ўқув қўлланма. – Москва: «ИД ФБК-ПРЕСС», 2001.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

THE CURRENT STATE OF GOVERNMENT SECURITIES MARKET OPERATIONS IN UZBEKISTAN'S FINANCIAL MARKET AND EXISTING PROBLEMS

Kholikov Khamidulla

Senior specialist,
the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, PhD
Email: khamidullakholikov@gmail.com

Abstract: *Government securities market (GSM) operations, meaning issuance, auctions, secondary trading, settlement, and the monetary-policy use of sovereign paper, are a defining component of a modern financial system. They give the state a domestic, market-based financing channel and give the central bank a benchmark instrument for liquidity management and interest-rate transmission. This article assesses the current state of government securities market operations in Uzbekistan's financial market and identifies the structural, institutional, and operational problems that continue to limit their effectiveness. Since the reintroduction of domestic treasury bonds in 2018, Uzbekistan has built a rapidly growing government securities market: annual placement volumes rose from roughly UZS 0.4 trillion in 2018 to over UZS 28.6 trillion by 2025, and the market now finances close to a sixth of total state debt in local currency. Even so, the market remains bank-dominated, secondary trading is thin, the investor base lacks depth among pension funds, insurance companies and retail participants, and the operational infrastructure for auctions, settlement, and market-making needs further modernization. Using a five-dimension framework for market operations and drawing on international practice from the United States, Japan, Malaysia, South Korea, Chile, Mexico, India, and Indonesia, together with IMF and World Bank guidance, the article sets out practical measures to strengthen the primary and secondary markets and to align Uzbekistan's government securities market with the Central Bank's 2026–2028 monetary policy priorities of low, stable inflation and deeper market-based transmission.*

Key words: *Government securities market, market operations, public debt management, Uzbekistan, primary market, secondary market, liquidity, investor base, monetary policy, financial market development.*

O‘ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA DAVLAT QIMMATLI QOG‘OZLARI BOZORI FAOLIYATINING HOZIRGI HOLATI VA MAVJUD MUAMMOLAR

Холиқов Ҳамидулла

Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг
катта мутахассиси, PhD
Электрон почта: khamidullakholikov@gmail.com

Аннотация: *Давлат қимматли қоғозлари бозори (ДҚБ) операциялари, яъни эмиссия, кимошди савдолари, иккиламчи савдолар, ҳисоб-китоблар ва суверен қоғозлардан пул-кредит сиёсатида фойдаланиш замонавий молия тизимининг муҳим таркибий қисми ҳисобланади. Улар давлатга ички, бозорга асосланган молиялаштириш каналини беради ва марказий банкка ликвидликни бошқариш ва фоиз ставкасини узатиш учун эталон воситани тақдим этади. Ушбу мақолада Ўзбекистон молия бозоридаги давлат қимматли қоғозлари бозори операцияларининг ҳозирги ҳолати баҳоланиб, уларнинг самарадорлигини чеклаб қўяётган таркибий, институтсионал ва операцион муаммолар аниқланган. 2018 йилда ички ғазначилик облигациялари қайта жорий этилганидан бери Ўзбекистон тез суръатлар билан ривожланаётган давлат қимматли қоғозлари бозорини яратди: йиллик жойлаштириш ҳажми 2018 йилдаги тахминан 0,4 триллион сўмдан 2025 йилга келиб 28,6 триллион сўмдан ошди ва бозор ҳозирда маҳаллий валютадаги умумий давлат қарзининг олтидан бир қисмини молиялаштирмоқда. Шунга қарамай, бозорда*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

банклар ҳукмронлиги сақланиб қолмоқда, иккиламчи савдолар сийрак, пенсия жамғармалари, суғурта компаниялари ва чакана савдо иштирокчилари ўртасида инвесторлар базаси чуқур эмас, аукционлар, ҳисоб-китоблар ва маркет-мейкинг учун операцион инфратузилмани янада модернизация қилиш зарур. Бозор операциялари учун беш ўлчовли тизимдан фойдаланган ҳолда ва АҚШ, Япония, Малайзия, Жанубий Корея, Чили, Мексика, Ҳиндистон ва Индонезиянинг халқаро амалиётига таянган ҳолда, ХВФ ва Жаҳон банкининг кўрсатмалари билан биргаликда, мақолада бирламчи ва иккиламчи бозорларни мустаҳкамлаш ҳамда Ўзбекистон давлат қимматли қоғозлари бозорини Марказий банкнинг 2026-2028 йилларга мўлжалланган пул-кредит сиёсатининг паст, барқарор инфляция ва янада чуқур бозорга асосланган ўтказишга қаратилган устувор йўналишларига мувофиқлаштириш бўйича амалий чора-тадбирлар баён этилган.

Таянч сўзлар: *Давлат қимматли қоғозлари бозори, бозор операциялари, давлат қарзини бошқариш, Ўзбекистон, бирламчи бозор, иккиламчи бозор, ликвидлик, инвесторлар базаси, пул-кредит сиёсати, молия бозорини ривожлантириш.*

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОПЕРАЦИЙ НА РЫНКЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЦЕННЫХ БУМАГ НА ФИНАНСОВОМ РЫНКЕ УЗБЕКИСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ

Холиков Хамидулла

Старший специалист
Центрального банка Республики Узбекистан, PhD
Электронная почта: khamidullakholikov@gmail.com

Аннотация: *Операции на рынке государственных ценных бумаг (РГЦ), то есть эмиссия, аукционы, вторичная торговля, расчеты и монетарно-политическое использование суверенных бумаг, являются определяющим компонентом современной финансовой системы. Они предоставляют государству внутренний, рыночный канал финансирования и предоставляют центральному банку эталонный инструмент для управления ликвидностью и передачи процентных ставок. В данной статье оценивается текущее состояние операций на рынке государственных ценных бумаг на финансовом рынке Узбекистана и выявляются структурные, институциональные и операционные проблемы, которые продолжают ограничивать их эффективность. С момента введения внутренних казначейских облигаций в 2018 году в Узбекистане сформировался быстрорастущий рынок государственных ценных бумаг: ежегодные объемы размещения выросли с примерно 0,4 трлн сумов в 2018 году до более 28,6 трлн сумов к 2025 году, и рынок теперь финансирует почти шестую часть общего государственного долга в местной валюте. Несмотря на это, на рынке по-прежнему доминируют банки, вторичная торговля остается скудной, среди пенсионных фондов, страховых компаний и розничных участников не хватает глубины базы инвесторов, а операционная инфраструктура для аукционов, расчетов и создания рынка нуждается в дальнейшей модернизации. Используя пятимерную структуру рыночных операций и опираясь на международную практику США, Японии, Малайзии, Южной Кореи, Чили, Мексики, Индии и Индонезии, а также руководства МВФ и Всемирного банка, в статье излагаются практические меры по укреплению первичного и вторичного рынков и приведению рынка государственных ценных бумаг Узбекистана в соответствие с приоритетами денежно-кредитной политики Центрального банка на 2026–2028 годы: низкая, стабильная инфляция и более глубокая рыночная трансмиссия.*

Ключевые слова: *Рынок государственных ценных бумаг, операции на рынке, управление государственным долгом, Узбекистан, первичный рынок, вторичный рынок, ликвидность, инвесторская база, денежно-кредитная политика, развитие финансового рынка.*

Introduction

The government securities market (GSM) occupies a central place in the architecture of any modern financial system. It is the channel through which the state finances budget deficits in domestic currency, the venue in which the central bank conducts open market operations to manage banking-system liquidity, and the source of the risk-free yield curve against which every other domestic financial instrument — corporate bonds, bank loans, mortgages — is ultimately priced. According to the Bank for International Settlements, government bonds account for roughly 45 percent of the global fixed-income market, underscoring how fundamental well-functioning GSM operations are to the broader capital market [1].

For Uzbekistan, the operational side of the government securities market — how securities are issued, auctioned, traded, settled, and used in monetary policy — has undergone a substantial transformation since the country resumed the issuance of local currency treasury bonds in 2018 after a long period of near-dormancy. The Ministry of Economy and Finance and the Central Bank of Uzbekistan (CBU) have progressively expanded the range of instruments, lengthened maturities, and increased placement volumes, turning a marginal segment of the financial system into one of its fastest-growing components. By 2025 total placement of government securities exceeded UZS 28.6 trillion, compared with UZS 0.4 trillion in 2018, and around 16 percent of Uzbekistan's total state debt is now financed domestically through treasury bonds [2].

Yet growth in issuance volumes has not been matched by a proportional improvement in the operational depth of the market. Trading in the secondary market remains episodic, the investor base is concentrated in a small number of commercial banks, and the technical and regulatory infrastructure supporting auctions, market-making, and settlement is still evolving. As the Central Bank of Uzbekistan enters the 2026–2028 policy cycle with an explicit medium-term inflation target of 5 percent, a policy rate of 14 percent as of late 2025, and projected real GDP growth of 5.5–6.5 percent in 2026 and 6–7 percent in 2027–2028, the efficiency of government securities market operations becomes increasingly important: a deeper and more liquid GSM strengthens the transmission of the policy rate into the broader economy and gives the CBU a more precise instrument for liquidity management [3].

This article examines the current state of government securities market operations in Uzbekistan, identifies the principal problems that constrain their efficiency, and draws lessons from international experience, including the United States, Japan, Malaysia, South Korea, Chile, Mexico, India, and Indonesia, to propose measures for strengthening the primary market, the secondary market, the investor base, and the regulatory, data, and analytical infrastructure that connects them.

Literature review

The theoretical literature on government securities market operations distinguishes between primary market design (issuance strategy, auction mechanisms, and debt management objectives) and secondary market functioning (liquidity, price discovery, and market microstructure), while treating institutional coordination and regulatory infrastructure as the connective tissue between the two.

On the primary market side, Duffie (1996) and Greenwood and Vayanos (2014) show that predictable, regular issuance and the deliberate construction of benchmark securities are central to building investor trust and concentrating liquidity in reference maturities rather than dispersing it across many small, illiquid issues [4][5]. Dunne, Moore, and Portes (2007) similarly find that consolidating debt into benchmark bonds and extending average maturity improves market depth and supports a more reliable yield curve [6].

On the secondary market side, Fleming (2003) identifies market-making and electronic trading infrastructure as the operational mechanisms that most directly determine bid-ask spreads and trading frequency, while Pagano (1989) and Amihud and Mendelson (1991) demonstrate that transparency and liquidity are mutually reinforcing — narrower information asymmetries

attract more active trading, which in turn improves liquidity and lowers the cost of capital [7][8][9]. Kyle (1985) frames liquidity itself as the market's capacity to absorb large transactions without significant price impact, a capacity that depends heavily on the presence of committed intermediaries such as primary dealers [10].

Institutional design is treated by Claessens, Klingebiel, and Schmukler (2007) as a determinant of operational efficiency in its own right: clear separation of roles between the debt manager (ministry of finance), the monetary authority (central bank), and the market operator (exchange), together with sound legal and settlement frameworks, reduces transaction risk and attracts long-term investors [11]. Eichengreen and Luengnaruemitchai (2006) extend this argument to Asian markets, showing that much of the historical underperformance of regional government bond markets stemmed not from a lack of institutions but from methodological and operational weaknesses in issuance calendars, disclosure, and secondary-market assessment [12].

Empirical work specific to emerging markets — Burger and Warnock (2006), Allen, Carletti and Gu (2014), and the IMF's own guidance on local currency bond market development — consistently finds that operational depth (auction predictability, settlement reliability, market-making obligations) and investor-base diversification (institutional and retail participation alongside banks) jointly determine whether a government securities market becomes a genuine source of liquidity or remains a passive vehicle for bank balance-sheet management [13][14][15]. For countries transitioning from directed, bank-based financing toward market-based public debt management — a category that includes Uzbekistan — this literature suggests that operational reform (how the market is run day to day) is at least as important as headline issuance growth in determining whether a GSM can support fiscal financing, monetary policy transmission, and the development of the broader capital market.

Analytical framework

Assessing the operational state of a government securities market is best done by looking jointly at five interlinked dimensions: (i) primary-market operations, meaning issuance calendars, auction design, and instrument diversification; (ii) secondary-market operations, meaning trading venues, market-making, turnover, and price discovery; (iii) the investor base, meaning its composition, concentration, and depth; (iv) regulatory and data infrastructure, meaning disclosure standards, settlement systems, and the availability of transaction-level information; and (v) analytical and institutional capacity, meaning the modeling, forecasting, and coordination tools that the Ministry of Economy and Finance, the Central Bank of Uzbekistan, and the Uzbekistan Republican Currency Exchange (UZCE) use to run the market day to day. A weakness in any one of these dimensions limits the overall efficiency of GSM operations, however large nominal issuance volumes become. The remainder of this article applies the framework twice: first to organize the empirical account of Uzbekistan's market below, and then to structure the problems identified later, so that each diagnosed weakness maps back to a specific point made here.

Analysis and results

The current state of government securities market operations in Uzbekistan

Since December 2018 the domestic government securities market has expanded from a near-standing start into one of the most dynamic segments of Uzbekistan's financial system. Annual placement volumes rose from UZS 400 billion in 2018 to UZS 1.55 trillion in 2019, UZS 4.9 trillion in 2020, and continued climbing through 2022–2024, reaching a historic peak of over UZS 28.6 trillion placed against UZS 33.2 trillion offered in 2025 — a more than seventy-fold increase over seven years [16]. Submitted-order volumes have consistently exceeded placement, reflecting healthy demand at auctions; growth rates in placed volumes reached 390.8 percent in 2019 and 309.9 percent in 2020, before moderating to more sustainable rates of around 112–142 percent in 2024–2025 as the base effect diminished [16].

This expansion has been reinforced by the Central Bank of Uzbekistan's parallel use of short-term CBU notes — on the order of UZS 8 trillion outstanding — as an operational tool for

managing banking-sector liquidity, which has deepened the domestic money-market infrastructure alongside the treasury bond segment [16]. The government securities yield curve has also become more structured, rising from approximately 13.6 percent for one-year paper to 17.6 percent for ten-year paper, an upward slope consistent with a still-maturing market in which investors continue to price in inflation expectations and duration risk, but one that now provides a usable benchmark for pricing longer-term instruments [16].

Despite this progress, the operational depth of the market has not kept pace with its nominal growth. The gap is clearest along the first three dimensions of the framework set out above, the primary market, the secondary market, and the investor base, each considered in turn below. The remaining two dimensions, regulatory and data infrastructure and analytical capacity, are taken up in the dedicated discussion of problems later in this section, once the international comparison has been introduced.

First, **primary market operations remain concentrated in the banking sector and short-to-medium maturities.** More than thirty commercial banks are active across the UZCE's currency, money, and government securities segments, with large state-linked banks, the National Bank for Foreign Economic Activity, Asaka Bank, Agrobank, and Ipoteka Bank, dominating primary allocations. Banks generally hold government securities to maturity to meet liquidity and prudential requirements rather than to trade them, which stabilizes the primary market but starves the secondary market of the free float needed for active trading. This is the same dynamic that concerns Duffie (1996) and Greenwood and Vayanos (2014) in markets where issuance is not concentrated in a small set of benchmark maturities [4][5][17].

Second, **secondary market trading remains thin.** Turnover ratios, bid-ask spreads, and other standardized liquidity indicators used by advanced markets are not yet consistently published or used domestically, which limits the ability of policymakers to monitor secondary-market health or benchmark it internationally. Non-bank intermediaries, investment companies such as Freedom Finance, Portfolio Investments, and Leader Finance Capital, have begun providing brokerage and asset-management services in the secondary segment, but their market share remains modest relative to bank holdings, leaving the market short of the committed market-making presence that Fleming (2003) identifies as the main driver of trading frequency elsewhere [7][17].

Third, **the investor base outside the banking sector is underdeveloped.** Institutional investors, pension funds, insurance companies, and mutual funds, account for a limited share of holdings, constraining the long-term, buy-and-hold demand that typically stabilizes yields and deepens secondary trading in more mature markets. Retail participation is minimal, held back by limited financial literacy, the absence of low-denomination retail instruments, and the lack of a dedicated digital retail platform comparable to those introduced elsewhere in the region. Foreign participation is nascent and largely represented by a single institution (Bank of Georgia, category B), reflecting currency-conversion and market-depth constraints of the kind that Burger and Warnock (2006) and Allen, Carletti and Gu (2014) link to shallower domestic bond markets generally [13][14][17].

These operational gaps sit against a monetary policy backdrop that makes GSM efficiency increasingly consequential. The Central Bank's Monetary Policy Guidelines for 2026 and 2027–2028 set a policy rate of 14 percent as of late 2025, target headline inflation of around 8 percent by end-2025 declining toward the 5 percent medium-term target by 2027–2028, and project real GDP growth of 5.5–6.5 percent in 2026 and 6–7 percent in 2027–2028, alongside a commitment to strengthen the transmission mechanism of monetary policy decisions and to develop the analytical and forecasting capacity that underpins them [3]. A shallow, bank-concentrated government securities market weakens exactly the transmission channel the CBU is seeking to strengthen, since changes in the policy rate pass through to the broader economy largely via the pricing of government securities and the yield curve they generate.

Statistical analysis of primary auction data (2018–2026)

To assess operational performance more precisely, the author compiled and processed the full record of primary auctions for Ministry of Economy and Finance treasury bonds, Central Bank of Uzbekistan short-term liquidity notes, and special Ministry of Finance bonds, covering every issue placed between December 2018 and August 2026. It is worth being explicit that the indicators below come from this auction-level compilation, not from a series the exchange or the regulator publishes on a routine basis; the absence of such a routinely published series is itself one of the regulatory and data-infrastructure problems discussed later in this article. The following figures summarize the resulting statistical patterns in issuance volume, pricing, and maturity structure.



Figure 1. Ministry of Finance treasury bond placements and average auction yield, 2018–2025.

Source: *Author's calculations based on data of the Ministry of Economy and Finance.*

Figure 1 shows that annual placement of MoF treasury bonds grew from UZS 0.6 trillion in 2018 to a peak of UZS 35.4 trillion in 2024, before easing slightly to UZS 32.9 trillion in 2025 as the Ministry moderated new issuance following several years of rapid expansion. Average auction yields moved from roughly 11.6 percent in 2019 to a high of about 17.2 percent in 2023, before declining to 14.9 percent in 2025 — a pattern consistent with the tightening and subsequent stabilization of monetary policy described in the Central Bank's 2026–2028 guidelines, and evidence that primary market pricing in Uzbekistan already responds to the broader interest-rate cycle.



Figure 2. MoF treasury bonds versus CBU short-term liquidity notes, annual placement volume (log scale), 2020–2025.

Source: *Author's calculations based on data of the Ministry of Economy and Finance and the Central Bank of Uzbekistan.*

Figure 2 compares MoF treasury bond placements with the Central Bank's own short-

term notes, which are used purely as a liquidity-management tool rather than as fiscal financing instruments. On a log scale, CBU notes consistently exceed MoF bonds in gross placement volume — reflecting their very short maturities and frequent rollover rather than a larger financing role — and the gap widened sharply in 2025 as the Central Bank relied more heavily on short-term notes to manage banking-sector liquidity. This divergence illustrates why the two instruments should be analyzed separately: MoF bonds measure the depth of market-based fiscal financing, while CBU notes measure the intensity of monetary operations.



Figure 3. Maturity structure of MoF treasury bond placements, 2018–2026 (share of total volume placed).

Source: *Author's calculations based on data of the Ministry of Economy and Finance.*

Figure 3 shows that medium-term paper (7–12 months) accounts for the largest share of cumulative placements (39 percent), followed by long-term bonds of over two years (32 percent), short-term paper of up to six months (19 percent), and 1–2 year bonds (10 percent). The meaningful long-term share indicates that the Ministry has already begun extending the average maturity of domestic debt, consistent with international practice of building a benchmark yield curve across the maturity spectrum, though the market would benefit from further consolidation around a smaller number of standard, regularly reopened maturities.



Figure 4. Average auction yield by maturity segment, MoF treasury bonds, 2018–2026.

Source: *Author's calculations based on data of the Ministry of Economy and Finance.*

Figure 4 shows a broadly upward-sloping relationship between maturity and yield, from 15.3 percent for short-term paper to 16.4 percent for 1–2 year bonds, before easing slightly to

15.8 percent for longer maturities above two years — a pattern that echoes the government securities yield curve reported in the author's earlier work and confirms that Uzbekistan's domestic market is progressively building a usable, if still-maturing, term structure of interest rates.

International best practice in government securities market operations

International experience shows that the operational efficiency of a government securities market — as distinct from its nominal size — depends on a combination of predictable primary-market design, active secondary-market infrastructure, and a genuinely diversified investor base.

In the United States, the Treasury's predictable, pre-announced issuance calendar, standardized benchmark securities, and a deep and active repo market together ensure continuous price discovery and make U.S. Treasuries the world's most liquid government securities market [28]. In Japan, the Ministry of Finance and Bank of Japan rely on quantitative liquidity indices and transaction-based indicators to guide policy and monitor secondary-market health, providing a model for data-driven market oversight [24]. Malaysia combined a primary dealer system with the integration of Islamic finance instruments (Sukuk) and transparent auction schedules, broadening its investor base and improving liquidity by an estimated 35 percent between 2010 and 2020 [18][25]. South Korea's K-Bond electronic trading platform automates post-trade reporting and provides real-time transparency, a template increasingly relevant as Uzbekistan considers upgrading its own electronic trading and settlement infrastructure [26]. Chile achieved yield-curve stability through close coordination between the Ministry of Finance and the Central Bank and by cultivating strong pension-fund demand for long-dated government paper [27]. Mexico's transparent electronic auctions and open framework for foreign investors set a regional benchmark for operational credibility [29]. India's Retail Direct platform (2021) represents a methodological leap toward inclusive market operations, standardizing retail access and integrating digital issuance with trading systems, while its use of state government bonds (SDLs) shows how market-based instruments can also finance subnational and regional development [30]. Indonesia broadened its investor base through retail and green Sukuk issuance, demonstrating how instrument innovation can be paired with active investor engagement to deepen a still-developing market [18][31].

Table 1 summarizes these international operational practices, each drawn from a distinct national source, together with their principal impact on market functioning.

Table 1.

International best practice in government securities market operations

Country	**Key operational practices**	**Impact on market**
United States	Predictable issuance calendar, standardized benchmark bonds, deep and active repo market	World's deepest, most liquid GSM; continuous price discovery
Japan	Quantitative liquidity indices, transaction-based benchmark monitoring	Enhanced transparency and data-driven oversight
Malaysia	Primary dealer system, Sukuk integration, transparent auction schedules	Broader investor base; liquidity improved ~35% (2010–2020)
South Korea	K-Bond electronic trading platform, automated post-trade reporting	Higher trading efficiency and secondary-market depth
Chile	MoF–Central Bank coordination, strong pension-fund demand	Yield-curve stability; long-term liquidity
Mexico	Transparent electronic auctions, open access for foreign investors	Improved credibility; attracted global capital
India	Retail Direct digital platform, diversified instruments (T-bills, SDLs)	Expanded retail and subnational participation

Indonesia	Retail and green Sukuk, active investor engagement	Broadened participation; promoted sustainable finance

Source: *Author's compilation based on IMF, BIS, World Bank, and national treasury/central bank reports, 2023–2025.*

Taken together, these cases suggest that operational efficiency is not a by-product of issuance volume alone. It follows instead from deliberate choices about auction design, trading infrastructure, and investor-base policy, precisely the dimensions in which Uzbekistan's market still has room to develop.

Existing problems in Uzbekistan's government securities market operations

Building on the analytical framework above and the comparative evidence, the principal problems constraining efficient GSM operations in Uzbekistan can be grouped into five categories, summarized in Figure 5 and discussed in turn below.



Figure 5. Principal operational problems constraining Uzbekistan's government securities market.

Source: *Author’s compilation based on a review and comparative analysis of international country experiences.*

- **Primary market problems.** Issuance is not yet organized around a small number of predictable, regularly reopened benchmark maturities in the way that supports concentrated liquidity internationally; the range of instruments (fixed-rate, floating-rate, inflation-linked, Sukuk-type) remains narrow relative to markets such as Malaysia and Indonesia; and coordination between the Ministry of Economy and Finance's debt-issuance calendar and the Central Bank's liquidity-management operations, while improving, still allows for analytical inconsistencies between the two institutions' frameworks for issuance and trading oversight. This is closer to the methodological weakness that Eichengreen and Luengnaruemitchai (2006) describe in several Asian bond markets than to a simple lack of institutions [12][17].
- **Secondary market problems.** There is no fully developed primary dealer system with formal market-making obligations comparable to those in the U.S., Malaysia, or Mexico; standardized liquidity indicators (turnover ratios, bid-ask spreads, transaction-based indices) are not systematically compiled and published; and electronic trading and post-trade infrastructure, centered on the UZCE, has not yet reached the level of automation and real-time transparency achieved by South Korea's K-Bond system. The market therefore still lacks the committed intermediaries that Kyle (1985) treats as central to a market's capacity to absorb large trades without moving prices [10].
- **Investor-base problems.** The market remains heavily bank-dominated; institutional

investors, pension funds, insurance companies, and mutual funds, are underdeveloped relative to Chile or Malaysia; retail investors lack a dedicated low-denomination, digitally accessible instrument comparable to India's Retail Direct platform; and foreign investor participation is limited by currency-conversion procedures, disclosure practices, and market-depth constraints, the same institutional and legal factors that Claessens, Klingebiel and Schmukler (2007) find decisive for attracting long-term investors elsewhere [11].

- **Regulatory and data-infrastructure problems.** Disclosure standards, credit-assessment practices, and the availability of consistent transaction-level data are still being built out; harmonization with international standards, such as the IMF's Government Securities Market Development framework and the World Bank's Developing Government Bond Markets guidelines, remains a work in progress rather than a completed reform [19][20].
- **Analytical and capacity problems.** The use of econometric and computational models, of the kind employed in the U.S. and Japan to assess liquidity risk and forecast market behavior, is still limited domestically. The analytical and forecasting capacity the CBU has identified as a 2026–2028 priority for monetary policy more broadly [3] applies equally to the government securities market, where more sophisticated modeling of yield-curve dynamics and liquidity conditions, in the spirit of the pricing-efficiency literature reviewed earlier [8][9], would improve both debt-management decisions and monetary operations.

Policy directions for strengthening market operations

Addressing these problems requires coordinated action across all five dimensions of the analytical framework. On the primary market, Uzbekistan can move toward a smaller number of regularly reopened benchmark bonds, publish a firm forward issuance calendar, and gradually diversify instruments, including floating-rate and inflation-linked bonds, following the Malaysian and Indonesian precedent of instrument innovation paired with predictable auctions. On the secondary market, establishing a formal primary dealer system with defined market-making obligations, together with continued modernization of UZCE's electronic trading and settlement infrastructure along the lines of South Korea's K-Bond platform, would narrow spreads and increase turnover. On the investor base, targeted incentives for pension funds and insurance companies, a dedicated retail access channel modeled on India's Retail Direct platform, and continued engagement with foreign institutional investors as macroeconomic stability and transparency improve would collectively diversify demand. On regulatory and data infrastructure, closer coordination between the Ministry of Economy and Finance and the Central Bank of Uzbekistan, including joint publication of standardized liquidity and performance indicators, combined with progressive alignment with IMF and World Bank guidance, would strengthen governance and investor confidence. Finally, on analytical capacity, investing in in-house modeling and forecasting tools, supported by partnerships with the IMF, World Bank, and Asian Development Bank, would give both the Ministry and the CBU better instruments for managing the market as it grows in scale and complexity.

CONCLUSIONS

Uzbekistan's government securities market has undergone remarkable quantitative growth since 2018, evolving from a marginal segment of the financial system into a market that placed over UZS 28.6 trillion in securities in 2025 and now finances roughly 16 percent of total state debt in domestic currency. This growth reflects genuine progress in fiscal financing strategy and the resumption of a market-based approach to public debt management. The operational depth of the market, meaning how efficiently it is organized and run on a day-to-day basis, has nonetheless not kept pace with the growth in issuance volumes. Measured against the five-dimension framework proposed in this article, the market remains concentrated among a small number of commercial banks, secondary trading is thin and largely unmeasured by standardized indicators, the institutional and retail investor base is underdeveloped, and the regulatory, data, and analytical infrastructure supporting the market is still being built out.

International experience points to a clear, and largely precedented, way forward: the

predictable issuance and deep repo market of the United States, Malaysia's primary dealer and Sukuk framework, South Korea's electronic trading platform, Chile's institutional coordination, Mexico's transparent auctions, and India's and Indonesia's retail-inclusive innovations all show that these gaps can be closed by an emerging market. As the Central Bank of Uzbekistan enters its 2026–2028 policy cycle with a firm commitment to a 5 percent medium-term inflation target and to strengthening monetary policy transmission, deepening the operational efficiency of the government securities market is not a peripheral technical matter. It is a precondition for that broader macroeconomic strategy to succeed. A more liquid, diversified, and well-governed government securities market would lower the government's borrowing costs, sharpen the transmission of the CBU's policy rate, and lay the foundation for the future development of corporate bonds and other capital-market instruments in Uzbekistan.

References and bibliography:

1. Bank for International Settlements (2024). Quarterly Review: Global Bond Market Developments. https://www.bis.org/publ/quarterly_reviews.htm

2. Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan (2024). Public Debt Bulletin.

3. Central Bank of the Republic of Uzbekistan (2025). Guidelines for the Main Directions of Monetary Policy for 2026 and 2027–2028. Monetary Policy Department, Tashkent. https://cbu.uz/upload/medialibrary/0dc/oap212cbtuwxqtu6b3w6usgd1bb2mdz3/Asosiy-Yo_nalishlar_2026_2028-lotin_5_website.pdf

4. Duffie, D. (1996). Special Repo Rates. Journal of Finance, 51(2), 493–526. https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1111/j.1540-6261.1996.tb02692.x

5. Greenwood, R., & Vayanos, D. (2014). Bond Supply and Excess Bond Returns. Review of Financial Studies, 27(3), 663–713. https://academic.oup.com/rfs/article-abstract/27/3/663/1581525

6. Dunne, P., Moore, M., & Portes, R. (2007). Benchmark Status in Fixed-Income Asset Markets. Journal of Business Finance & Accounting, 34(9–10), 1615–1634. https://pjse.hal.science/halshs-00754214v1

7. Fleming, M. J. (2003). Measuring Treasury Market Liquidity. Federal Reserve Bank of New York Economic Policy Review, 9(3), 83–108. https://fedinprint.org/item/fednsr/12391

8. Pagano, M. (1989). Trading Volume and Asset Liquidity. Quarterly Journal of Economics, 104(2), 255–274. https://academic.oup.com/qje/article-abstract/104/2/255/1854625

9. Amihud, Y., & Mendelson, H. (1991). Liquidity, Maturity, and Yields on U.S. Treasury Securities. Journal of Finance, 46(4), 1411–1425. https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/j.1540-6261.1991.tb04623.x

10. Kyle, A. S. (1985). Continuous Auctions and Insider Trading. Econometrica, 53(6), 1315–1335. https://www.econometricsociety.org/publications/econometrica/1985/11/01/continuous-auctions-and-insider-trading

11. Claessens, S., Klingebiel, D., & Schmukler, S. L. (2007). Government Bonds in Domestic and Foreign Currency. Review of International Economics, 15(2), 370–413. https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/j.1467-9396.2007.00682.x

12. Eichengreen, B., & Luengnaruemitchai, P. (2006). Why Doesn't Asia Have Bigger Bond Markets? BIS Papers, No. 30. https://www.bis.org/publ/bppdf/bispap30g.pdf

13. Burger, J. D., & Warnock, F. E. (2006). Local Currency Bond Markets. IMF Staff Papers, 53(Special Issue), 133–146. https://www.imf.org/External/Pubs/FT/staffp/2006/03/burger.htm

14. Allen, F., Carletti, E., & Gu, X. (2014). The Role of Local Currency Bond Markets in Emerging Economies. Journal of Financial Stability, 10(2), 165–178.

15. IMF (2022). Developing Local Currency Bond Markets: Key Policy Challenges and Lessons from Emerging Markets.

16. Kholikov, Kh. (2025). The Role of Local Currency Government Bonds in Promoting Sustainable Economic Growth. Management, Marketing and Finance: International Scientific Journal, 2(8), 113–121; data compiled from the official website of the Currency Exchange of the Republic of Uzbekistan, www.uzrvb.uz, and the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, https://cbu.uz/en/.

17. Kholikov, Kh. Improving the Enhancement of Liquidity and the Promotion of Investor Participation in the Primary and Secondary Markets for Government Securities. Management, Marketing and Finance: International Scientific Journal.

18. Asian Development Bank (2020). Developing Local Currency Bond Markets in Asia. ADB Report. https://www.adb.org/publications/developing-local-currency-bond-markets-asia

19. World Bank (2018/2023). Developing Government Bond Markets: A Handbook. World Bank Treasury. https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/13865

20. IMF (2021). Government Bond Market Development in Emerging Economies.

21. The official website of the Currency Exchange of the Republic of Uzbekistan — www.uzrvb.uz

22. The official website of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan — https://cbu.uz/en/

23. Central Bank of the Republic of Uzbekistan (2026). Primary auction register of government securities in circulation as of 03.08.2026 (Central Bank bonds, Ministry of Finance treasury bonds, and Ministry of Finance special bonds); author's dataset and calculations.

24. Bank of Japan (2023). Financial Markets Report.

25. Bank Negara Malaysia (2022). Annual Report 2022. https://www.bnm.gov.my/-/ar2022_en_pr

26. Ministry of Economy and Finance of Korea. Korea Treasury Bond (KTB) official information portal. https://ktb.moef.go.kr/eng/abtKtbs.do

27. Central Bank of Chile (2023). Financial Stability Report, First Half 2023. https://www.bcentral.cl/en/content/-/detalle/informe-de-estabilidad-financiera-primer-semestre-2023

28. U.S. Department of the Treasury (2024). Quarterly Refunding Documents. https://home.treasury.gov/policy-issues/financing-the-government/quarterly-refunding/most-recent-quarterly-refunding-documents

29. Banco de México. El mercado de valores gubernamentales en México. https://www.banxico.org.mx/elib/mercado-valores-gub-en/OEBPS/Text/ien.html

30. Reserve Bank of India (2022). Retail Direct Scheme: Annual Review.

31. Ministry of Finance of Indonesia (2023). Green Sukuk Allocation and Impact Report 2023. https://ukifc.com/2024/01/23/ministry-of-finance-indonesia-green-sukuk-allocation-and-impact-report-2023-market-report-the-knowledge-portal/

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY SOHA TASHKILOTLARI FAOLIYATINING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Mahmudov Fayzulla Murodullayevich
mustaqil tadqiqotchi
Qarshi davlat universiteti
E-mail: 3183935@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mintaqa iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining o‘rni hamda ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari, institutsional omillar va resurslardan foydalanish samaradorligi tahlil qilindi. Hududiy iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi asosiy ko‘rsatkichlar aniqlanib, ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirish orqali mintaqa iqtisodiyotining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari asoslab berildi. Tadqiqot natijasida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini optimallashtirishga qaratilgan kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif etildi.*

Kalit so‘zlar: *mintaqa iqtisodiyoti, ijtimoiy soha, ijtimoiy xizmatlar, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, hududiy rivojlanish, boshqaruv samaradorligi, institutsional rivojlanish, iqtisodiy o‘sish.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ ОРГАНИЗАЦИЙ СОЦИАЛЬНОГО СЕКТОРА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ РЕГИОНА

Махмудов Файзулла Муродуллаевич
независимый исследователь
Каршинский государственный университет
E-mail: 3183935@gmail.com

Аннотация. *В статье исследуется роль организаций социальной сферы в развитии региональной экономики, а также вопросы совершенствования организационно-экономических механизмов повышения эффективности их деятельности. Рассмотрены современные подходы к управлению организациями социальной сферы, институциональные факторы и эффективность использования ресурсов. Определены ключевые показатели, влияющие на региональный экономический рост, и обоснованы направления обеспечения устойчивого развития региональной экономики посредством совершенствования системы социальных услуг. В результате исследования предложен комплексный организационно-экономический механизм повышения эффективности деятельности организаций социальной сферы.*

Ключевые слова: *региональная экономика, социальная сфера, социальные услуги, организационно-экономический механизм, региональное развитие, эффективность управления, институциональное развитие, экономический рост.*

IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF SOCIAL SECTOR ORGANIZATIONS IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REGION

Mahmudov Fayzulla Murodullayevich
Independent Researcher
Karshi State University
E-mail: 3183935@gmail.com

Abstract. *This article examines the role of social sector organizations in regional economic development and explores ways to improve organizational and economic mechanisms aimed at increasing their operational efficiency. The study analyzes modern management approaches, institutional factors, and resource utilization efficiency within social sector organizations. Key indicators influencing regional economic growth are identified, and strategic directions for ensuring sustainable regional development through the improvement of social service systems are substantiated. As a result, a comprehensive organizational and economic mechanism for enhancing the performance of social sector organizations is proposed.*

Keywords: *regional economy, social sector, social services, organizational and economic mechanism, regional development, management efficiency, institutional development, economic growth.*

Kirish

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida mintaqalar iqtisodiy o‘sishini ta’minlash nafaqat ishlab chiqarish tarmoqlari, balki ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining samaradorligi bilan ham bevosita bog‘liq hisoblanadi. Ijtimoiy soha tashkilotlari - ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy xizmatlar va aholini qo‘llab-quvvatlash tizimlari - inson kapitalini shakllantirish orqali hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishida muhim institutsional omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish darajasi mintaqa iqtisodiy raqobatbardoshligi va investitsion jozibadorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi globallashuv va iqtisodiy transformatsiya jarayonlari sharoitida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini boshqarishning an’anaviy usullari hududiy rivojlanish talablariga to‘liq javob bermay qolmoqda. Resurslardan samarali foydalanish, xizmatlar sifati va ularning aholiga yetkazilish darajasini oshirish, moliyalashtirish mexanizmlarini diversifikatsiya qilish hamda boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish zarurati kuchaymoqda. Bu esa ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirishni talab etadi.

So‘nggi yillarda mintaqaviy rivojlanish konsepsiyalarida inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish va hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab kelinmoqda. Biroq amaliyotda ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining samaradorligini baholash mezonlari, boshqaruv mexanizmlarining integratsiyalashuvi hamda iqtisodiy rag‘batlantirish tizimlari yetarli darajada takomillashmaganligi kuzatiladi. Natijada mavjud resurslardan foydalanish samaradorligi past darajada qolmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda ijtimoiy soha tashkilotlarining o‘rni iqtisodiy nazariya va amaliy tadqiqotlarda keng o‘rganilgan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy qarashlarga ko‘ra, hududlarning barqaror rivojlanishi inson kapitali sifati, ijtimoiy infratuzilma darajasi hamda ijtimoiy xizmatlar samaradorligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Inson kapitali nazariyasining asoschilari hisoblangan T. Schultz va G. Becker tadqiqotlarida ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning muhim omili sifatida asoslab berilgan [1]. Ushbu yondashuv keyinchalik mintaqaviy iqtisodiyot tadqiqotlarida ijtimoiy soha rivojlanishini iqtisodiy samaradorlik bilan bog‘lashga metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan. Mintaqaviy rivojlanish nazariyasida M. Porter hududlarning raqobatbardoshligi infratuzilma, institutsional muhit va xizmatlar sektorining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanishini ta’kidlaydi [2]. Olimning fikriga ko‘ra, ijtimoiy institutlarning samarali faoliyati hududiy klasterlar shakllanishi va iqtisodiy faollik oshishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy soha tashkilotlarini boshqarish samaradorligi masalalari P. Drucker tomonidan keng yoritilib, notijorat va ijtimoiy tashkilotlarda natijadorlikni oshirish uchun strategik boshqaruv va resurslardan oqilona foydalanish muhimligi qayd etilgan [3]. Bu yondashuv ijtimoiy xizmatlar sektorida tashkiliy mexanizmlarni modernizatsiya qilish zaruratini ko‘rsatadi. Zamonaviy

tadqiqotlarda ijtimoiy xizmatlar tizimining iqtisodiy rivojlanishga ta’siri institutsional iqtisodiyot nuqtai nazaridan ham tahlil qilinadi. D. North institutsional muhitning samaradorligi iqtisodiy natijalarga bevosita ta’sir qilishini asoslab, tashkilotlar faoliyatida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi [4]. Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi tadqiqotlarida ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi hududiy tengsizlikni kamaytirish hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim omili sifatida baholanadi [5]. Ushbu tadqiqotlar ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligini tasdiqlaydi. MDH mamlakatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini iqtisodiy boshqaruv mexanizmlari asosida rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Xususan, Abalkin ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishda davlat va ijtimoiy institutlar hamkorligi muhimligini ta’kidlaydi [6]. O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tadqiqotlarida esa hududiy rivojlanishda xizmatlar sohasi va ijtimoiy infratuzilmaning roli alohida yoritilgan. Jumladan, A. Vahobov va Sh. Xajibakiyevlar tomonidan mintaqaviy iqtisodiyot barqarorligi ijtimoiy xizmatlar tizimining samaradorligi bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy asoslangan [7]. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini kompleks tarzda, ayniqsa hududiy iqtisodiy rivojlanish bilan integratsiyalashgan holda baholash yetarli darajada tadqiq etilmagan. Bu esa mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda mintaqa iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini o‘rganishda kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil, mantiqiy umumlashtirish hamda institutsional yondashuv usullari qo‘llanildi. Ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda rasmiy statistik ma’lumotlar, hududiy rivojlanish ko‘rsatkichlari hamda ilmiy manbalar tahlil qilindi. Shuningdek, mintaqaviy iqtisodiy ko‘rsatkichlar va ijtimoiy xizmatlar rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun qiyosiy va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida olingan ma’lumotlar asosida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning konseptual modeli ishlab chiqildi hamda ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar

Hududlar o‘rtasida investitsiya, bandlik va yashash darajasidagi o‘zgarishlarni dinamik model asosida o‘rganish mintaqaviy rivojlanish jarayonlarini tizimli va vaqt bo‘yicha ketma-ketlikda tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur yondashuvning mohiyati shundaki, u iqtisodiy jarayonlarni o‘zaro bog‘liq omillar majmui sifatida baholab, ularning dinamik rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Dinamik model statik usullardan farqli ravishda nafaqat joriy holatni aks ettiradi, balki kelgusidagi rivojlanish trayektoriyalarini prognozlash imkonini ham yaratadi. Mazkur modelda investitsiyalarning hududlar kesimidagi taqsimoti, yangi ish o‘rinlari yaratish darajasi hamda aholi turmush darajasining o‘zgarishi o‘zaro bog‘liq omillar sifatida qaraladi. Shu asosda investitsiya oqimlarining bandlikka va yashash darajasiga qisqa hamda uzoq muddatli ta’siri aniqlanadi, hududlararo resurs taqsimoti samaradorligi baholanadi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning optimal variantlari ishlab chiqiladi. Dinamik modelning amaliy ahamiyati shundaki, u mintaqaviy siyosat ishlab chiquvchilarga ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Jumladan, qaysi hududlarga investitsiya yo‘naltirish orqali bandlikni oshirish yoki aholining turmush darajasini yaxshilash mumkinligi oldindan aniqlanadi. Shuningdek, mazkur model yordamida iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda hududlararo tengsizlik darajasining kamayishi yoki ortishi ham baholanadi. Hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlar ko‘pincha resurslarning notekis taqsimlanishi, migratsiya jarayonlari, ishlab chiqarish klasterlarining rivojlanish darajasi va infratuzilma bilan ta’minlanganlik kabi omillar

bilan bog‘liq bo‘ladi. Dinamik model aynan ushbu omillarning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda ularning kelgusidagi oqibatlarini prognoz qilish va hududlararo muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois, mamlakatda barqaror va muvozanatli rivojlanishni ta’minlashda bunday modellashtirish yondashuvi muhim ilmiy-uslubiy asos hisoblanadi. Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi hududlar o‘rtasida investitsiya oqimlari, bandlik darajasi va yashash sharoitlaridagi o‘zgarishlarni kompleks prognozlash hamda optimal boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishdan iborat. Bunda investitsiya va bandlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish, aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan integratsiyalashgan mexanizmlarni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi. Investitsiya faolligi, bandlik ko‘rsatkichlari hamda aholi turmush darajasi makroiqtisodiy barqarorlikni belgilovchi asosiy indikatorlar hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkichlarning o‘zgarishini zamonaviy ekonometrik modellar asosida tahlil qilish hududiy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni ilmiy asosda shakllantirish, resurslarni samarali taqsimlash va rivojlanish ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Tahlillarga ko‘ra, 2022-yilning I yarim yilligida Qashqadaryo viloyatiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 7 373,3 mlrd so‘mni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2021-yilning mos davriga nisbatan 5,7 foizga oshgan. Mazkur ijobiy dinamika viloyatda investitsion faollikning ortib borayotganini ko‘rsatadi. Biroq investitsiya oqimlarining hududlar kesimida taqsimoti tahlili ularning notekis joylashganligini ko‘rsatadi. Xususan, jami investitsiyalarning qariyb 70 foizi viloyatning to‘rtta hududida jamlangan bo‘lib, ulardan G‘uzor tumani 22,2 foiz, Qarshi shahri 18,4 foiz, Muborak tumani 16,4 foiz va Kitob tumani 13 foiz ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Ushbu holat investitsiya resurslarining hududlar bo‘yicha noteng taqsimlanayotganligini ko‘rsatib, boshqa hududlarda iqtisodiy faollikning nisbatan past darajada ekanligini anglatadi. Mazkur nomutanosiblik o‘z navbatida bandlik darajasi va aholi turmush sifatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Investitsiya oqimlari yuqori bo‘lgan hududlarda yangi ish o‘rinlari yaratilishi va daromadlarning oshishi kuzatilsa, investitsiya yetarli darajada jalb etilmagan hududlarda iqtisodiy rivojlanish sur’atlari pastroq bo‘lishi mumkin. Shu bois, investitsiya oqimlarini hududlar kesimida muvozanatlashtirish, ularni ijtimoiy soha tashkilotlari rivoji bilan uyg‘unlashtirish hamda bandlikni oshirishga yo‘naltirish zarur. 2020–2025 yillar davomida Qashqadaryo viloyatida investitsiya oqimlari hududlar kesimida notekis shakllangan. 1-jadval

1-jadval.

Qashqadaryo viloyati tumanlari bo‘yicha investitsiya tendensiyalari (2020–2025 yy.)[19]

Tuman	2020–2025 tendensiya	Izoh
Mirishkor	5,5–6 baravar o‘sish	Energetika va yirik sanoat loyihalari hisobiga
Kitob	2–2,5 baravar o‘sish	Turizm va xizmatlar sohasi rivojlanishi
Koson	1,8–2 baravar o‘sish	Qishloq xo‘jaligi va kichik biznes kengayishi
Qamashi	1,5–1,7 baravar o‘sish	Hududiy infratuzilma va investitsiya loyihalari
Qarshi sh.	2,5–3 baravar o‘sish	Ma’muriy markaz sifatida investitsiya jalb qilishi
G‘uzor	3–3,5 baravar o‘sish	Transport-logistika va sanoat zonalari rivoji
Muborak	–60% dan –70% gacha kamayish	Energetika loyihalarining qisqarishi va beqarorlik
Dehqonobod	–75% dan –85% gacha kamayish	Investitsiya jalb qilish darajasi past
Yakkabog‘	–70% dan –80% gacha kamayish	Infratuzilma cheklanganligi
Shahrisabz	–30% dan –40% gacha kamayish	Turizm salohiyati to‘liq ishga solinmagan

1-jadvalda 2020–2025 yillar davomida Qashqadaryo viloyati tumanlari kesimida

[19] Muallif ishlanmasi

investitsiya oqimlarining dinamikasi tahlil qilinib, hududlararo rivojlanish tendensiyalari aniqlangan. Tahlil natijalari investitsiya faolligining hududlar kesimida sezilarli darajada differensiyalashganligini ko‘rsatadi. Birinchi guruh — yuqori o‘sish sur’atiga ega hududlar (Mirishkor, G‘uzor, Qarshi shahri, Kitob) hisoblanadi. Ushbu hududlarda investitsiya hajmining keskin oshishi, avvalo, yirik sanoat va energetika loyihalarining amalga oshirilishi, transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi hamda investitsion jozibadorlikning yuqoriligi bilan izohlanadi. Xususan, Mirishkor tumanida investitsiya hajmining 5–6 baravar oshishi hududda amalga oshirilgan yirik ishlab chiqarish va energetika loyihalarining samarasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Qarshi shahri esa ma’muriy va iqtisodiy markaz sifatida investitsiya oqimlarining asosiy qismi jamlanadigan hudud sifatida ajralib turadi. Ikkinchi guruh — o‘rtacha o‘sish sur’atiga ega hududlar (Koson, Qamashi) bo‘lib, bu hududlarda investitsiya hajmining barqaror, ammo nisbatan pastroq o‘sishi kuzatiladi. Mazkur holat ushbu hududlarda asosan qishloq xo‘jaligi, kichik biznes va xizmatlar sohasining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, yirik investitsiya loyihalarining yetarli emasligi bilan izohlanadi. Uchinchi guruh — investitsiya kamayishi kuzatilgan hududlar (Dehqonobod, Yakkabog‘, Muborak, Shahrisabz) hisoblanadi. Ayrim tumanlarda (Mirishkor, G‘uzor, Qarshi shahri) yuqori o‘sish kuzatilgan bo‘lsa, boshqa hududlarda investitsiya hajmining kamayishi iqtisodiy rivojlanishdagi hududlararo tafovutlarni kuchaytirgan.

Ushbu hududlarda investitsiya hajmining keskin qisqarishi infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, investorlar uchun jozibador muhitning shakllanmaganligi hamda iqtisodiy faoliyatning nisbatan pastligi bilan bog‘liq. Ayniqsa, Dehqonobod va Yakkabog‘ tumanlarida investitsiya hajmining 70–80 foizgacha kamayishi hududiy rivojlanishdagi muammolarning mavjudligini yaqqol ko‘rsatadi. Mazkur differensiyalashuv hududlar o‘rtasida iqtisodiy tafovutlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Investitsiya oqimlari yuqori bo‘lgan hududlarda bandlik darajasi oshib, aholi daromadlari ortayotgan bo‘lsa, investitsiya yetishmayotgan hududlarda iqtisodiy faollik past darajada qolmoqda. Bu esa ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining samaradorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, investitsiya oqimlarini hududlar kesimida muvozanatlashtirish, kam rivojlangan hududlarga maqsadli investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirish hamda hududiy iqtisodiy siyosatni differensial yondashuv asosida shakllantirish zarur hisoblanadi. Ayniqsa, dinamik modellashtirish asosida investitsiya, bandlik va yashash darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash orqali hududiy rivojlanishni samarali boshqarish imkoniyati kengayadi. Hududlar o‘rtasidagi differensiyalashuv nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarda, balki ijtimoiy soha rivojlanish darajasida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Investitsiya oqimlarining hududlar kesimida notekis taqsimlanishi natijasida ayrim tumanlarda bandlik darajasi, aholi daromadlari va ijtimoiy xizmatlar sifati yuqori sur’atlarda o‘sayotgan bo‘lsa, boshqa hududlarda ushbu ko‘rsatkichlar nisbatan past darajada shakllanmoqda. Xususan, investitsiya faolligi yuqori bo‘lgan hududlarda yangi ish o‘rinlari yaratish, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini rivojlantirish va xizmatlar sektorini kengaytirish imkoniyatlari ortib, bu aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Aksincha, investitsiya yetarli darajada jalb etilmagan hududlarda ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining samaradorligi past bo‘lib, bu bandlik muammolari, xizmatlar sifati pastligi va ijtimoiy tengsizliklarning kuchayishiga olib kelmoqda.

Xulosa

Tadqiqot natijalari mintaqa iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyati muhim institutsional omil hisoblanishini ko‘rsatdi. Ijtimoiy xizmatlar sifati va ulardan foydalanish darajasining oshishi inson kapitalining rivojlanishiga, bandlik ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga hamda hududlarning iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatida mavjud boshqaruv tizimi, moliyalashtirish mexanizmlari va resurslardan foydalanish samaradorligi hududiy rivojlanish talablariga to‘liq mos kelmaydi. Natijada xizmatlar sifati va iqtisodiy natijadorlik o‘rtasida

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

nomutanosiblik yuzaga kelmoqda. Shu bois ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida takomillashtirish zarur hisoblanadi. Tadqiqot davomida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari asoslab berildi. Jumladan, boshqaruv jarayonlarini institutsional takomillashtirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, raqamli boshqaruv elementlarini joriy etish hamda davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish muhim omillar sifatida aniqlandi. Shuningdek, ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini baholashning kompleks yondashuvini joriy etish mintaqaviy iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga xizmat qilishi asoslandi. Taklif etilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga imkon yaratadi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini modernizatsiya qilish orqali mintaqa iqtisodiyotining barqaror va inklyuziv rivojlanishini ta’minlash mumkinligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Schultz T.W. Investment in Human Capital. – New York: Free Press, 1971.
2. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
3. Drucker P.F. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. – New York: Harper & Row, 1985.
4. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
5. World Bank. World Development Report: Human Development and Social Infrastructure. – Washington DC, 2020.
6. Абалкин Л.И. Социально-ориентированная рыночная экономика. – Москва: Экономика, 2002.
7. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. Mintaqaviy iqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

HUDUDIY SANOAT KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING BAHOLANISHI

Uralov Farruh Abdurazzoqovich

mustaqil tadqiqotchi
Qarshi davlat universiteti
E-mail: F11@30f1130

Annotatsiya. *Mazkur maqolada hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasining nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Xususan, O‘zbekistonda sanoat klasterlarini shakllantirishning iqtisodiy ahamiyati, hududiy ixtisoslashuv jarayonlari hamda sanoat ishlab chiqarishining hududiy integratsiyasi tahlil qilingan. Tadqiqotda hududiy sanoat klasterlarining iqtisodiy samaradorlik, investitsion jozibadorlik, eksport salohiyati va innovatsion rivojlanishga ta’siri baholangan. Shuningdek, hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasini kuchaytirish hamda hududlarning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *hududiy sanoat klasterlari, klasterlash, sanoat ixtisoslashuvi, hududiy iqtisodiyot, iqtisodiy o‘sish, innovatsion rivojlanish, investitsion jozibadorlik, eksport salohiyati, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, aglomeratsiya, raqobatbardoshlik, sanoat siyosati.*

ОЦЕНКА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ КЛАСТЕРОВ

Уралов Фаррух Абдураззокович

независимый исследователь
Каршинский государственный университет
E-mail: F11@30f1130

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты стратегии развития региональных промышленных кластеров. В частности, анализируется экономическое значение формирования промышленных кластеров в Узбекистане, процессы региональной специализации и территориальной интеграции промышленного производства. Оценивается влияние региональных промышленных кластеров на экономическую эффективность, инвестиционную привлекательность, экспортный потенциал и инновационное развитие. Также разработаны научно-практические предложения по совершенствованию стратегии развития региональных промышленных кластеров, укреплению производственного сотрудничества и повышению конкурентоспособности регионов.*

Ключевые слова: *региональные промышленные кластеры, кластеризация, промышленная специализация, региональная экономика, экономический рост, инновационное развитие, инвестиционная привлекательность, экспортный потенциал, производственное сотрудничество, агломерация, конкурентоспособность, промышленная политика.*

EVALUATION OF THE STRATEGY FOR DEVELOPMENT OF REGIONAL INDUSTRIAL CLUSTERS

Uralov Farruh Abdurazzoqovich

Independent Researcher
Karshi State University
E-mail: F11@30f1130

Abstract. *This article studies the theoretical and practical aspects of the strategy for the development of regional industrial clusters. In particular, the economic significance of the formation of industrial clusters in Uzbekistan, the processes of regional specialization and the territorial integration of industrial production are analyzed. The study assesses the impact of regional industrial clusters on economic efficiency, investment attractiveness, export potential and innovative development. Also, scientific and practical proposals are developed to improve the strategy for the development of regional industrial clusters, strengthen production cooperation and increase the competitiveness of regions.*

Keywords: *regional industrial clusters, clustering, industrial specialization, regional economy, economic growth, innovative development, investment attractiveness, export potential, production cooperation, agglomeration, competitiveness, industrial policy.*

Kirish

Hozirgi kunda hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya etish hamda hududlarning raqobatbardoshligini oshirishning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon amaliyotida klaster yondashuvi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirish va eksport salohiyatini kuchaytirishda samarali mexanizm sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, sanoat korxonalari, logistika infratuzilmasi, ilmiy-tadqiqot markazlari va xizmat ko‘rsatish subyektlarining hududiy integratsiyasi iqtisodiy o‘sishning barqaror modelini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Aholisi 38 million kishidan oshgan va so‘nggi yillarda barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlarini namoyon etayotgan O‘zbekiston Respublikasida ham hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasini jadallashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda hududiy sanoat salohiyatidan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, mamlakatning dengiz portlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatining mavjud emasligi transport-logistika xarajatlarini oshirib, eksport faoliyatida qo‘shimcha cheklovlarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur holat hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish masalalari zamonaviy iqtisodiyotda hududiy raqobatbardoshlikni oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish va innovatsion rivojlanishni ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida keng tadqiq etilmoqda. Xorijiy olimlar tomonidan klasterlash, sanoat aglomeratsiyasi va hududiy ixtisoslashuvning nazariy-metodologik asoslari chuqur o‘rganilgan [1; 2].

Xususan, A. Marshall sanoat korxonalarining hududiy konsentratsiyasi mehnat bozori, infratuzilma va bilim almashinuvi samaradorligini oshirishini asoslab, “industrial district” nazariyasini ishlab chiqqan [1]. M. Porter “klasterlar nazariyasi” orqali hududiy klasterlarning raqobat ustunligini shakllantirishdagi o‘rnini yoritib, klasterlash innovatsion rivojlanish va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashning muhim mexanizmi ekanligini ta’kidlagan [2]. P. Krugman yangi iqtisodiy geografiya nazariyasida aglomeratsion samaralar, transport xarajatlari va hududiy ixtisoslashuv o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq qilgan [3]. M. Enright esa hududiy klasterlarning investitsion jozibadorlikni oshirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ilmiy jihatdan asoslab bergan [4].

Shuningdek, D. Foray, P. David va B. Hall tomonidan ishlab chiqilgan “aqlli ixtisoslashuv” konsepsiyasi hududlarning innovatsion salohiyatidan samarali foydalanish va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir [5]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, hududiy sanoat klasterlari iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash

hamda hududlarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish va hududiy iqtisodiy siyosat masalalari keng o‘rganilgan. Jumladan, А.Г. Гранберг hududiy iqtisodiyot va mintaqalararo iqtisodiy integratsiya masalalarini tadqiq qilgan bo‘lsa [6], Н.Н. Некрасов hududiy ishlab chiqarish majmualarining iqtisodiy samaradorligini asoslab bergan [7]. В.Н. Лексин va А.Н. Швецов hududiy boshqaruv va mintaqaviy rivojlanish mexanizmlarini o‘rganganlar [8]. Shuningdek, С.С. Артоболевский hududiy tafovutlar va aglomeratsion rivojlanishning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini tahlil qilgan [9].

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish, sanoatni hududiy tashkil etish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash masalalari yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, Q.X. Abdurahmonov hududiy iqtisodiy rivojlanish va mehnat resurslari samaradorligini tadqiq qilgan [10]. A.V. Vahobov hududiy iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasi va investitsion rivojlanish masalalarini yoritgan [11]. D.X. Toshmurodov hududiy iqtisodiy siyosat va sanoatni joylashtirish samaradorligini o‘rgangan [12]. Shuningdek, B.B. Berkinov, N.K. Yo‘ldashev va Sh.R. Xolmominovlar tomonidan klasterlash, agro-sanoat integratsiyasi va hududiy ishlab chiqarishni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan [13; 14; 15].

Mazkur ilmiy tadqiqotlarda hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari keng yoritilgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston hududlari misolida sanoat klasterlari strategiyasining amaldagi holatini kompleks baholash, ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlash va hududiy raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasining amaldagi holatini baholashda iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, guruhlash, dinamik tahlil hamda hududiy baholash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida hududlarning sanoat salohiyati, ishlab chiqarish hajmi, investitsion faolligi va eksport ko‘rsatkichlari statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, hududiy klasterlarning iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini aniqlashda kompleks yondashuvdan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Zamonaviy iqtisodiyot fani va sanoat siyosati amaliyotida klasterlar konsepsiyasi markaziy o'rinni egallaydi. M. Porterning asarlarida asos solingan va keyingi tadqiqotchilar tomonidan rivojlantirilgan klassik tushunchaga ko'ra, klaster - bu o'zaro bog'liq kompaniyalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar, turdosh sohalardagi firmalar va ular bilan bog'liq bo'lgan institutlarning (universitetlar, standartlashtirish agentliklari, savdo assotsiatsiyalari kabi) geografik jihatdan to'planishi bo'lib, ular o'zaro raqobatlashadi, lekin ayni paytda birgalikda faoliyat yuritadi. Klaster yondashuvi sanoat siyosati doirasidagi o'ziga xos tashkil etish shakli sifatida qaraladi, u bozor nosozliklarini yengib o'tish, ijobiy eksternaliyalarni yaratish va texnologik tarqalishni (spillover effects) rag'batlantirish imkonini beradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) metodologiyasiga ko'ra, klasterlar inklyuziv va barqaror sanoat rivojlanishini rag'batlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. UNIDO yondashuvi hukumatlar sun'iy ravishda “noldan” yangi klasterlar yaratishga urinishdan ko‘ra, mavjud yoki endi shakllanayotgan korxonalar aglomeratsiyalarini qo‘llab-quvvatlashi va modernizatsiya qilishi kerakligiga urg'u beradi. Klasterlarni rivojlantirishda UNIDOning ustuvor yo'nalishlari o'zaro bog'liq bizneslarni birlashtirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash, muayyan hududlarga investitsiyalarni jalb qilish hisobiga yangi ish o'rinlari yaratish, shuningdek, tijorat sektori, tadqiqot institutlari va davlat organlari o'rtasida bilim almashish, hamkorlik va tarmoqli o'zaro munosabatlarni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Klaster siyosatini shakllantirish jarayonini strategik tuzilmalashtirish uchun UNIDO to'rtta ketma-ket bosqichdan iborat standartlashtirilgan algoritmni ishlab chiqdi, bu O‘zbekiston davlat organlari uchun hududiy rivojlanishni rejalashtirishda samarali qo'llanma bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

1-jadval.

UNIDO metodologiyasi asosida klasterlarni rivojlantirish bosqichlari va ularning strategik ahamiyati[20]

UNIDO metodologiyasi bo'yicha klasterlarni rivojlantirish bosqichlari	Tavsifi va strategik ahamiyati
I Bosqich: Diagnostika, xaritalash va tanlash	Klasterning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini amaliyotga yo'naltirilgan holda tahlil qilish (SWOT-tahlil). Rivojlanish maqsadlariga erishish uchun eng mos bo'lgan o'zgaruvchilar va mezonlarni aniqlash. Texnik ekspertiza o'tkazish va milliy ishtirokchilarni jalb qilish.
II Bosqich: Kelajakni ko'rish (vision) va rejalashtirish	Butun klaster tomonidan baham ko'riladigan umumiy qarash va mos keladigan rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish. Jarayon birgalikdagi harakatlarga to'sqinlik qilayotgan muammolarni bartaraf etish uchun davlat, xususiy sektor va akademik muhit o'rtasidagi muloqotga asoslanadi.
III Bosqich: Implemtatsiya (Joriy etish)	Harakatlar rejasida belgilangan chora-tadbirlarni boshqarish va muvofiqlashtirish. Klasterni boshqarish mexanizmlarini mustahkamlash. Barqaror jamoaviy sa'y-harakatlarni ta'minlash uchun rasmiy va norasmiy tashkilotlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish.
IV Bosqich: Monitoring va baholash (M&E)	Loyihaning sifat va miqdoriy natijalarini tizimli ravishda kuzatib borish. Strategik yo'nalishga tuzatishlar kiritish uchun qayta aloqani ta'minlash va klasterning Barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG) erishishga qo'shgan hissasini baholash.

Ushbu jadvalda United Nations Industrial Development Organization tomonidan ishlab chiqilgan klasterlarni rivojlantirish metodologiyasining asosiy bosqichlari hamda ularning mazmuni va strategik ahamiyati keltirilgan. Mazkur yondashuv klaster siyosatini tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirishga xizmat qiladi. Jadvalga ko‘ra, birinchi bosqich - diagnostika, xaritalash va tanlash - klasterning hozirgi holatini chuqur tahlil qilish, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda istiqbolli yo‘nalishlarni belgilashga qaratilgan. Bu bosqich keyingi qarorlar uchun asos yaratadi. Ikkinchi bosqich - kelajakni ko‘rish (vision) va rejalashtirish - barcha ishtirokchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan umumiy strategiyani ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu jarayonda davlat, biznes va ilmiy muhit o‘rtasidagi hamkorlik muhim rol o‘ynaydi. Uchinchi bosqich - implementatsiya (joriy etish) - ishlab chiqilgan strategiya va harakatlar rejasini amaliyotga tatbiq etish, boshqaruv mexanizmlarini mustahkamlash va klaster ishtirokchilari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishni o‘z ichiga oladi. To‘rtinchi bosqich - monitoring va baholash (M&E) - amalga oshirilgan chora-tadbirlarning natijadorligini baholash, zarur tuzatishlar kiritish va klasterning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, jadval klasterlarni rivojlantirish jarayonining mantiqiy ketma-ketligi va uzluksiz boshqaruv tizimini aks ettirib, samarali iqtisodiy siyosat yuritishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy klaster nazariyasining muhim jihati bu barqaror rivojlanish tamoyillarining integratsiyasidir. Klasterlar resurslardan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, ekologik

[20] Muallif ishlanmasi

xavfsizlik va jamoalar ichida ne'matlarni adolatli taqsimlash kabi amaliyotlarni ilgari surish uchun platforma bo'lib xizmat qilishi kerak. Xususan, UNIDO klasterlarni rivojlantirish dasturlarida gender masalalarini (SDG 5) hisobga olish va biologik xilma-xillikni saqlash muhimligini anglash (SDG 15) zarurligini ta'kidlaydi. Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik oqibatlar va suv resurslari taqchilligiga duch kelgan O'zbekiston sharoitida ushbu tamoyillarni klaster siyosatiga integratsiya qilish shunchaki tavsiyaviy emas, balki hayotiy ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya etish hamda hududlarning raqobatbardoshligini oshirishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, klaster yondashuvi hududiy iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, sanoat korxonalari, logistika infratuzilmasi va ilmiy-tadqiqot institutlarining hududiy integratsiyasi iqtisodiy o‘sishning barqaror modelini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Tadqiqot davomida O‘zbekistonda hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilayotgani bilan birga, hududlararo infratuzilma tafovutlari, innovatsion faoliyatning yetarli darajada shakllanmaganligi hamda transport-logistika xarajatlarining yuqoriligi klaster siyosati samaradorligini cheklayotgan asosiy omillar sifatida baholandi.

Shu asosda hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish maqsadida hududlarning mavjud iqtisodiy salohiyati va ixtisoslashuv xususiyatlaridan kelib chiqib klasterlarni shakllantirish, ishlab chiqarish va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, innovatsion markazlar hamda texnologik xablarni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan sanoat korxonalari o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish zarur. Shuningdek, klasterlarda “aqlli ixtisoslashuv” tamoyillarini keng joriy etish, ekologik barqarorlikni ta’minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hamda eksportbop yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur takliflarni amaliyotga tatbiq etish hududiy iqtisodiy rivojlanish samaradorligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va O‘zbekiston iqtisodiyotining global bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Marshall A. Principles of Economics. – London: Macmillan, 1890.
2. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
3. Krugman P. Geography and Trade. – Cambridge: MIT Press, 1991.
4. Enright M.J. Regional Clusters and Economic Development: A Research Agenda // Business Networks: Prospects for Regional Development. – Berlin: Walter de Gruyter, 1996. – P. 190–213.
5. Foray D., David P.A., Hall B. Smart Specialisation: The Concept // Knowledge Economists Policy Brief. – 2009. – № 9. – P. 1–5.
6. Granberg A.G. Osnovy regionalnoy ekonomiki: uchebnik dlya vuzov. – Moskva: GU VShE, 2000.
7. Nekrasov N.N. Regionalnaya ekonomika. – Moskva: Ekonomika, 1978.
8. Leksin V.N., Shvetsov A.N. Gosudarstvo i regioni: teoriya i praktika gosudarstvennogo regulirovaniya territorialnogo razvitiya. – Moskva: URSS, 2007.
9. Artobolevskiy S.S. Regionalnoye razvitie i regionalnaya politika Rossii v perekhodny period. – Moskva: Editorial URSS, 2001.
10. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. – Toshkent: Mehnat, 2009.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

11. Vahobov A.V. Mintaqaviy iqtisodiyot. – Toshkent: Sharq, 2013.
12. Toshmurodov D.X. Hududiy iqtisodiyot va mintaqaviy rivojlanish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
13. Berkinov B.B. Klasterlash asosida hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2020. – № 3. – B. 45–52.
14. Yo‘ldashev N.K. Sanoatni hududiy tashkil etish va iqtisodiy samaradorlik masalalari. – Toshkent: Fan, 2016.
15. Xolmominov Sh.R. Agro-sanoat integratsiyasi va klaster tizimini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

BIG DATA VA ANALITIK PLATFORMALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

Anvarova Lobarxon Sherzod qizi
mustaqil tadqiqotchi
Qarshi davlat universiteti
E-mail: lobarxon@gmail.com
ORCID:0009-0001-7189-5097

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Big Data texnologiyalari va zamonaviy analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimlarini rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlarining boshqaruv samaradorligiga ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, analitik platformalarning prognozlash, risklarni baholash va strategik hamda operatsion qarorlarni qabul qilishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlarini shakllantirish va korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Big Data, analitik platformalar, qaror qabul qilish tizimi, ma’lumotlar tahlili, biznes analitika, raqamli transformatsiya, prognozlash, boshqaruv samaradorligi, sun’iy intellekt, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv.*

РАЗРАБОТКА СИСТЕМ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ НА ОСНОВЕ БОЛЬШИХ ДАННЫХ И АНАЛИТИЧЕСКИХ ПЛАТФОРМ

Анварова Лобархон Шерзод кизы
независимый исследователь
Каршинский государственный университет
E-mail: lobarxon@gmail.com
ORCID:0009-0001-7189-5097

Аннотация. *В данной статье исследуются теоретические и практические аспекты развития систем принятия решений на основе технологий Big Data и современных аналитических платформ. Рассматривается влияние процессов сбора, хранения, обработки и анализа больших данных на эффективность управления. Особое внимание уделено роли аналитических платформ в прогнозировании, оценке рисков и поддержке стратегических и операционных управленческих решений. Результаты исследования могут быть использованы для формирования систем управления, основанных на данных, и повышения конкурентоспособности организаций в условиях цифровой экономики.*

Ключевые слова: *Big Data, аналитические платформы, система принятия решений, анализ данных, бизнес-аналитика, цифровая трансформация, прогнозирование, эффективность управления, искусственный интеллект, управление на основе данных.*

DEVELOPMENT OF DECISION-MAKING SYSTEMS BASED ON BIG DATA AND ANALYTICAL PLATFORMS

Anvarova Lobarxon Sherzod kizi
Independent Researcher
Karshi State University
E-mail: lobarxon@gmail.com
ORCID:0009-0001-7189-5097

Abstract. *This article explores the theoretical and practical aspects of developing*

decision-making systems based on Big Data technologies and modern analytical platforms. The study examines the impact of collecting, storing, processing, and analyzing large-scale data on managerial effectiveness. Particular attention is paid to the role of analytical platforms in forecasting, risk assessment, and supporting strategic and operational decision-making processes. The research findings contribute to the development of data-driven management systems and provide practical recommendations for enhancing organizational competitiveness in the digital economy.

Keywords: *Big Data, analytical platforms, decision-making system, data analytics, business intelligence, digital transformation, forecasting, management efficiency, artificial intelligence, data-driven management.*

Kirish

Jahon iqtisodiyotida raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi va ma’lumotlar hajmining keskin ortib borishi boshqaruv tizimlarini takomillashtirishning yangi usullarini izlashni taqozo etmoqda. Zamonaviy korxonalar, davlat tashkilotlari va moliyaviy institutlar faoliyatida har kuni katta hajmdagi tuzilgan va tuzilmagan ma’lumotlar shakllanmoqda. Ushbu ma’lumotlardan samarali foydalanish, ularni qayta ishlash va tahlil qilish orqali boshqaruv qarorlarining aniqligi hamda tezkorligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, Big Data texnologiyalari va analitik platformalar ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlarini shakllantirishning muhim vositasi sifatida e’tirof etilmoqda. Big Data texnologiyalari katta hajmdagi, yuqori tezlikda shakllanadigan va turli formatdagi ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash hamda tahlil qilish imkonini beradi. Analitik platformalar esa mazkur ma’lumotlarni chuqur o‘rganish, yashirin qonuniyatlarni aniqlash, prognozlash va qaror qabul qilish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash vazifalarini bajaradi. Natijada boshqaruv subyektlari real vaqt rejimida ishonchli axborotga ega bo‘lib, strategik va operatsion qarorlarni yanada asosli ravishda qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Raqobat muhitining kuchayishi, bozorlarning globallashuvi va biznes jarayonlarining murakkablashuvi sharoitida ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tizimlarining ahamiyati yanada ortib bormoqda. An’anaviy boshqaruv usullari ko‘pincha katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash imkoniyatiga ega emasligi sababli, zamonaviy analitik platformalardan foydalanish korxonalar samaradorligini oshirish, risklarni kamaytirish va innovatsion rivojlanishni ta’minlashning muhim omiliga aylanmoqda. Bugungi kunda sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish va biznes analitika texnologiyalarining rivojlanishi Big Data asosidagi qaror qabul qilish tizimlarining imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Mazkur texnologiyalar yordamida bozor tendensiyalarini prognozlash, iste’molchilar xatti-harakatlarini tahlil qilish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirish mumkin. Shu munosabat bilan ushbu maqolada Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimini rivojlantirishning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari hamda boshqaruv samaradorligiga ta’siri tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv yondashuvlarini takomillashtirish va zamonaviy analitik platformalarni qaror qabul qilish jarayonlariga integratsiyalash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

So‘nggi yillarda Big Data texnologiyalari va analitik platformalarning rivojlanishi boshqaruv tizimlarida ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish konsepsiyasining shakllanishiga olib keldi. Ilmiy adabiyotlarda katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish orqali tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatlari keng yoritilgan. Big Data texnologiyalarining nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha tadqiqotlar ushbu yo‘nalishning zamonaviy boshqaruvdagi ahamiyatini tasdiqlaydi [1]. Big Data tushunchasining rivojlanishiga muhim hissa qo‘shgan tadqiqotchilardan biri V. Mayer-Schönberger va K. Cukier hisoblanadi. Ular katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali

an’anaviy statistik yondashuvlardan farqli ravishda yashirin qonuniyatlarni aniqlash va kelajakdagi tendensiyalarni prognozlash mumkinligini asoslab berganlar [2]. Mualliflarning fikricha, ma’lumotlarning hajmi va xilma-xilligi boshqaruv qarorlarining aniqligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Davenport va Harris o‘z tadqiqotlarida biznes analitika va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruvning korxona samaradorligiga ta’sirini tahlil qilganlar. Ularning ta’kidlashicha, analitik platformalardan samarali foydalanayotgan tashkilotlar raqobat ustunligiga ega bo‘lib, strategik qarorlarni qabul qilishda yuqori natijalarga erishadilar [3]. Manyika va hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Big Data texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligi, innovatsion rivojlanish va boshqaruv sifatiga ta’siri baholangan. Tadqiqotchilar katta ma’lumotlardan foydalanish orqali korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishi, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashi va bozor talablarini aniq prognoz qilishi mumkinligini ko‘rsatganlar [4]. Provost va Fawcett ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish (Data-Driven Decision Making) konsepsiyasini rivojlantirib, zamonaviy tashkilotlarda ma’lumotlarni tahlil qilishning strategik ahamiyatini asoslab berganlar [5]. Ularning fikricha, analitik platformalar korxonalarga katta hajmdagi ma’lumotlardan amaliy bilimlar hosil qilish va boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini beradi. Analitik platformalarning texnologik jihatlari bo‘yicha Sharda, Delen va Turban tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Mualliflar biznes-intellekt (Business Intelligence), ma’lumotlarni qazib olish (Data Mining) va prognozlash modellarining qaror qabul qilish tizimlaridagi o‘rnini yoritganlar [6]. Ushbu yondashuvlar tashkilotlarda tezkor va asosli qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish texnologiyalarining rivojlanishi Big Data asosidagi qaror qabul qilish tizimlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Russell va Norvig sun’iy intellekt algoritmlarining katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va prognozlashdagi afzalliklarini ko‘rsatib, ularning boshqaruv tizimlariga integratsiyalashuvi istiqbollarini tahlil qilganlar [7]. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimlarini rivojlantirish masalalari xalqaro miqyosda keng o‘rganilgan. Biroq ushbu texnologiyalarni korxonalarning strategik va operatsion boshqaruv tizimlariga samarali integratsiyalash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar davom ettirilishini talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv (Data-Driven Management) konsepsiyasi, biznes analitika nazariyasi hamda raqamli transformatsiya tamoyillari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Dastlab Big Data texnologiyalarining boshqaruv jarayonlariga ta’siri bo‘yicha mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar o‘rganildi hamda ularning nazariy asoslari umumlashtirildi. Shuningdek, zamonaviy analitik platformalarning qaror qabul qilish tizimlaridagi funksional imkoniyatlari va samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqotning empirik bazasi sifatida xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy maqolalar, biznes analitika platformalarining amaliy natijalari hamda raqamli boshqaruv tizimlarida qo‘llanilayotgan Big Data texnologiyalariga oid statistik ma’lumotlardan foydalanildi. Olingan ma’lumotlar asosida korxonalarda ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlari baholandi. Tadqiqot davomida Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimining konseptual modeli ishlab chiqildi. Mazkur model ma’lumotlarni yig‘ish, integratsiyalash, saqlash, analitik qayta ishlash, prognozlash va boshqaruv qarorlarini shakllantirish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Modelning samaradorligini baholashda SWOT-tahlil, komparativ tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, qaror qabul qilish sifatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar, jumladan ma’lumotlar sifati, qayta ishlash tezligi, analitik vositalarning

funksionalligi va foydalanuvchilarning raqamli kompetensiyalari o‘rganildi. Tahlil natijalari asosida Big Data va analitik platformalarni boshqaruv tizimlariga integratsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari aniqlandi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash maqsadida turli manbalardan olingan ma’lumotlar o‘zaro taqqoslandi va nazariy hamda amaliy natijalar umumlashtirildi. Qo‘llanilgan metodologik yondashuv Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimlarini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlash hamda ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda davlat va hududiy boshqaruv tizimida qaror qabul qilish jarayonining samaradorligi axborot resurslarining sifati, ma'lumotlarni qayta ishlash tezligi hamda analitik vositalarning rivojlanganlik darajasi bilan chambarchas bog'liq. An'anaviy boshqaruv tizimlarida qarorlar ko'pincha cheklangan statistik ma'lumotlar asosida qabul qilinishi natijasida ularning aniqligi va tezkorligi yetarli darajada ta'minlanmaydi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi esa katta hajmdagi ma'lumotlarni (Big Data) yig'ish, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Big Data texnologiyasi turli manbalardan kelayotgan tuzilgan va tuzilmagan ma'lumotlarni yagona platformada birlashtirish imkonini beradi. Ushbu texnologiya sun'iy intellekt, mashinali o'qitish (Machine Learning), bulutli hisoblash (Cloud Computing) va biznes analitikasi (Business Intelligence) tizimlari bilan integratsiyalashgan holda boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Ayniqsa, hududiy boshqaruvda transport, ekologiya, sog'liqni saqlash, energetika, qishloq xo'jaligi va investitsiya jarayonlari bo'yicha real vaqt rejimida ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyati strategik boshqaruv samaradorligini sezilarli oshiradi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, AQSh, Singapur, Janubiy Koreya, Germaniya va Xitoy kabi davlatlarda Big Data asosidagi analitik platformalar davlat boshqaruvining ajralmas qismiga aylangan. Ushbu mamlakatlarda davlat organlari turli vazirliklar va idoralar ma'lumotlarini yagona raqamli platformaga integratsiya qilish orqali resurslardan samarali foydalanish, byudjet xarajatlarini optimallashtirish hamda fuqarolarga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini oshirishga erishgan. Analitik platformalar faqat mavjud holatni tavsiflabgina qolmay, balki prognozlash, risklarni baholash va turli boshqaruv ssenariylarini modellashtirish imkonini ham yaratadi. Bu esa qaror qabul qilish jarayonini reaktiv boshqaruvdan proaktiv boshqaruv modeliga o'tkazadi. Natijada muammolar yuzaga kelgandan keyin emas, balki ularning kelib chiqish ehtimoli oldindan aniqlanib, profilaktik choralar ishlab chiqiladi.

1-jadval.

Big Data texnologiyalarining davlat boshqaruvida qo'llanilish yo'nalishlari[21]

Yo'nalish	Big Data texnologiyasining vazifasi	Kutilayotgan natija
Hududiy boshqaruv	Hududiy ko'rsatkichlarni real vaqt rejimida monitoring qilish	Qaror qabul qilish tezligi oshadi
Investitsiyalar	Investitsiya oqimlarini tahlil qilish	Investitsiya samaradorligi ortadi
Ekologiya	Atmosfera va ekologik holat monitoringi	Ekologik xavflar kamayadi
Transport	Transport oqimlarini optimallashtirish	Tirbandlik kamayadi
Sog'liqni saqlash	Epidemiologik vaziyatni prognozlash	Xizmat sifati yaxshilanadi
Qishloq xo'jaligi	Iqlim va hosildorlik prognozi	Resurslardan samarali foydalaniladi

* Muallif tomonidan OECD, World Bank va McKinsey Global Institute hisobotlari asosida tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlari Big Data texnologiyalarining boshqaruvning deyarli barcha

[21] Muallif tomonidan OECD, World Bank va McKinsey Global Institute hisobotlari asosida tuzilgan.

yo'nalishlarida qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi. Ayniqsa, real vaqt rejimidagi monitoring tizimlari boshqaruv organlariga tezkor va asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, Big Data asosidagi analitik platformalarni joriy etishda bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, ma'lumotlar sifati, axborot xavfsizligi, malakali mutaxassislarning yetishmasligi, turli axborot tizimlarining o'zaro integratsiyalashmaganligi hamda katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash uchun zarur texnik infratuzilmaning cheklanganligi asosiy to'siqlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun davlat boshqaruvi organlarida yagona analitik platformani shakllantirish, sun'iy intellekt asosidagi Decision Support System (DSS) tizimlarini keng joriy etish hamda ochiq ma'lumotlar (Open Data) bazalarini rivojlantirish zarur.

2-jadval.

Big Data asosida qaror qabul qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif etilayotgan mexanizmlar[22]

Muammo	Taklif etilayotgan yechim	Kutilayotgan samaradorlik
Ma'lumotlar tarqoqligi	Yagona Data Warehouse yaratish	Axborot almashinuvi tezlashadi
Past tahliliy imkoniyat	BI va AI platformalarini joriy etish	Prognozlash sifati oshadi
Axborot xavfsizligi	Cyber Security tizimlarini kuchaytirish	Ma'lumotlar himoyasi ta'minlanadi
Qaror qabul qilishning sustligi	Decision Support System (DSS) yaratish	Qarorlar tezkor qabul qilinadi
Idoralararo hamkorlikning sustligi	Integratsiyalashgan raqamli platformani yaratish	Boshqaruv samaradorligi ortadi
Malakali kadrlar yetishmasligi	Data Analytics bo'yicha kadrlar tayyorlash	Analitik salohiyat rivojlanadi

*Muallif ishlanmasi.

Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, Big Data texnologiyalarini analitik platformalar bilan integratsiyalash davlat boshqaruvida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab beradi. Mazkur yondashuv katta hajmdagi ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish, boshqaruv ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatish, rivojlanish tendensiyalarini prognozlash va strategik qarorlarni ilmiy asoslash imkonini yaratadi. Shuningdek, Big Data asosidagi boshqaruv modeli davlat organlari faoliyatining shaffofligini oshirish, korrupsion xavflarni kamaytirish, resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish hamda davlat xizmatlarini fuqarolar ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etishga xizmat qiladi. Shu sababli kelgusida sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar texnologiyalari va analitik platformalarni yagona boshqaruv ekotizimiga integratsiya qilish davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Xulosa

Mazkur tadqiqotda Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida ma’lumotlar hajmining keskin ortishi an’anaviy boshqaruv yondashuvlaridan ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish modeliga bosqichma-bosqich o‘tishni taqozo etmoqda. Big Data texnologiyalari katta hajmdagi, turli formatdagi va yuqori tezlikda shakllanadigan ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish imkonini berib, boshqaruv qarorlarining tezkorligi va asoslanganligini oshirish uchun muhim texnologik baza yaratadi. Tahlillar asosida Big Data analitikasi korxonalarda nafaqat mavjud holatni

[22] Muallif ishlanmasi.

baholash, balki kelgusidagi tendensiyalarni prognozlash, ehtimoliy risklarni oldindan aniqlash va muqobil boshqaruv qarorlarining natijalarini baholash imkonini berishi aniqlandi. Ayniqsa, deskriptiv, diagnostik, prediktiv va preskriptiv analitika vositalarini yagona boshqaruv tizimida integratsiyalash qaror qabul qilish jarayonining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qiladi. Bunda real vaqt rejimidagi monitoring va vizual analitik panellar rahbariyatga muhim ko‘rsatkichlarni tezkor kuzatish hamda o‘zgarishlarga mos ravishda boshqaruv choralarini ishlab chiqish imkonini beradi. Shuningdek, Big Data platformalarining samaradorligi faqat texnologik infratuzilmaning mavjudligi bilan belgilanmasligi, balki ma’lumotlarning sifati, ularning ishonchliligi, integratsiyalashganligi, kadrlar salohiyati va axborot xavfsizligi bilan chambarchas bog‘liqligi asoslandi. Shu sababli korxonalarda Big Data texnologiyalarini joriy etishda ma’lumotlar boshqaruvi siyosatini shakllantirish, yagona ma’lumotlar arxitekturasini yaratish, ma’lumotlar sifatini nazorat qilish va kiberxavfsizlikni kuchaytirish ustuvor vazifalardan biri bo‘lishi lozim. Tadqiqot yakunlari asosida Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimini rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari taklif etiladi: yagona raqamli ma’lumotlar platformasini shakllantirish; ERP, CRM, IoT va boshqa axborot tizimlarini integratsiyalash; sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish algoritmlaridan foydalanish; real vaqt rejimida boshqaruv monitoringini tashkil etish; xodimlarning ma’lumotlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish; ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiyligini ta’minlash. Umuman olganda, Big Data va analitik platformalarni boshqaruv tizimiga chuqur integratsiya qilish korxonalarning resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, operatsion xarajatlarni optimallashtirish, bozor o‘zgarishlariga tezkor moslashish va strategik qarorlarning sifatini yaxshilash imkonini beradi. Shuning uchun Big Data texnologiyalarini oddiy axborot texnologiyasi sifatida emas, balki ma’lumotlarga asoslangan boshqaruvning strategik infratuzilmasi sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mayer-Schönberger V., Cukier K. Big Data: A Revolution That Will Transform How We Live, Work, and Think. – Boston: Houghton Mifflin Harcourt, 2013.
2. McKinsey Global Institute. Big Data: The Next Frontier for Innovation, Competition, and Productivity. – McKinsey & Company, 2011.
3. Davenport T.H., Harris J.G. Competing on Analytics: The New Science of Winning. – Boston: Harvard Business School Press, 2007.
4. Provost F., Fawcett T. Data Science for Business: What You Need to Know about Data-Mining and Data-Analytic Thinking. – Sebastopol: O’Reilly Media, 2013.
5. Chen H., Chiang R.H.L., Storey V.C. Business intelligence and analytics: From big data to big impact // MIS Quarterly. – 2012. – Vol. 36, No. 4. – P. 1165–1188.
6. Gandomi A., Haider M. Beyond the hype: Big data concepts, methods, and analytics // International Journal of Information Management. – 2015. – Vol. 35, No. 2. – P. 137–144.
7. Kitchin R. Big Data, new epistemologies and paradigm shifts // Big Data & Society. – 2014. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–12.
8. Wamba S.F., Akter S., Edwards A., Chopin G., Gnanzou D. How “big data” can make big impact: Findings from a systematic review and a longitudinal case study // International Journal of Production Economics. – 2015. – Vol. 165. – P. 234–246.
9. Sivarajah U., Kamal M.M., Irani Z., Weerakkody V. Critical analysis of Big Data challenges and analytical methods // Journal of Business Research. – 2017. – Vol. 70. – P. 263–286.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MAMLKAT AHOLISINING BANK KREDITLARI BO‘YICHA QARZ YUKI TAHLILI VA UNI OPTIMALLASHTIRISH YO‘LLARI

Tojimurodov Shohzod

mustaqil izlanuvchi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail shahzod_77@bk.ru

Annotatsiya. *Maqolada mamlakat aholisining banklardan turli maqsadlarda olingan kredit majburiyatlari bo‘yicha qarz yuki xalqaro amaliyotda qo‘llaniladigan yondashuvlar asosida, makro va mikro tadqiqot yondashuvlarini qo‘llagan holda tahlil qilindi. Bunda, kredit yuki makro yondashuv va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik tahlillari, tijorat banklari kredit portfelidagi aholiga ajratilgan barcha kreditlar bo‘yicha kredit to‘loviga oid ma’lumotlaridan foydalanildi. Shuningdek, aholining qarz yuki me’yoriy holatiga rioya qilish muammoli kreditlarning oldini olish to‘g‘risida xulosalar shakllantirilgan.*

Kalit so‘zlar: *kredit, tijorat banki, qarz yuki, aholi daromadi, moliya, majburiyat, muammoli kreditlar, to‘lovlar.*

АНАЛИЗ ДОЛГОВОЙ НАГРУЗКИ НАСЕЛЕНИЯ СТРАНЫ ПО БАНКОВСКИМ КРЕДИТАМ И ПУТИ ЕЕ ОПТИМИЗАЦИИ

Тоджимуродов Шохзод

независимый исследователь
Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail shahzod_77@bk.ru

Аннотация. *В статье проанализирована долговая нагрузка населения страны по кредитным обязательствам, полученным в банках для различных целей, на основе подходов, применяемых в международной практике, с использованием макро- и микроисследовательских подходов. При этом использовались макроподход к кредитной нагрузке и статистический анализ Центрального банка Республики Узбекистан, данные коммерческих банков о погашении кредитов по всем кредитам, выделенным населению в кредитном портфеле. Также сформулированы выводы о соблюдении нормативного состояния долговой нагрузки населения и предотвращении проблемных кредитов.*

Ключевые слова: *кредит, коммерческий банк, долговое бремя, доходы населения, финансы, обязательства, проблемные кредиты, платежи.*

ANALYSIS OF THE COUNTRY'S DEBT BURDEN ON BANK LOANS AND WAYS TO OPTIMIZE IT

Tojimurodov Shohzod

independent researcher
Tashkent State the University
of Economics
E-mail shahzod_77@bk.ru

Abstract. *The article analyzes the debt burden of the country's population on loan obligations received from banks for various purposes based on approaches used in international practice, using macro- and micro-research approaches. At the same time, the macro approach to the credit burden and the statistical analysis of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan were used, as well as data on loan repayments for all loans issued to the population in the loan portfolios of commercial banks. Conclusions were also formulated regarding compliance with*

the regulatory state of the population's debt burden and the prevention of non-performing loans.

Keywords: *credit, commercial bank, debt burden, household income, finance, liabilities, non-performing loans, payments.*

Kirish

Bugun mamlakatimiz aholisi banklardan olgan va hali to‘lab bo‘lmagan kreditlarining umumiy qoldig‘i 2026-yil 1-iyul holatiga 235,9 trln. so‘mni tashkil etmoqda. Bir yil oldin (2025 yil 1 iyul holatiga) bu ko‘rsatkich 196,4 trln. so‘m edi. Demak, bir yil ichida aholining banklar oldidagi kredit qarzi 20 foizga ko‘payib, 39,5 trillion so‘mga yetdi. O‘zbekistonda aholining banklardan qarzdorligi yildan-yilga jadal oshib boryapti. Bu holatdan qanday xulosalar chiqarish kerak. Kelgusidagi qanday yo‘llar orqali uni optimallashtirish kerakligi bugun har doimgidanda dolzarbdir.

Tijorat banklari tomonidan aholiga taqdim etilayotgan kreditlar nafaqat taraqqiy etgan mamlakatlarda, balki rivojlanayotgan davlatlarda ham aholining turmush farovonligini oshirish, iste’mol va investitsion imkoniyatlarini kengaytirish hamda iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishning muhim moliyaviy vositalaridan biriga aylangan. Aholini kreditlash orqali uy-joy sharoitlarini yaxshilash, ta’lim olish, uzoq muddat foydalaniladigan iste’mol tovarlarini xarid qilish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki kengaytirish kabi ehtiyojlarni moliyalashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ichki talabning oshishi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi hamda iqtisodiyotda pul mablag‘lari aylanishining faollashishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur jarayonning uzviy davomi sifatida bugungi kunda tijorat banklari tomonidan aholini kreditlash amaliyoti tobora kengayib, mijozlarning ehtiyojlari va moliyaviy imkoniyatlariga mos bo‘lgan yangi kredit mahsulotlari joriy etilmoqda. Xususan, iste’mol, ipoteka, ta’lim, mikroqarz, avtokredit, oilaviy tadbirkorlik hamda boshqa maqsadli kredit turlarining rivojlanishi aholining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirmoqda. Shu bilan birga, bank tizimida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi kredit olish jarayonining soddalashishi, kredit arizalarini masofadan turib ko‘rib chiqish va mijozlarning kreditga bo‘lgan ehtiyojlarini tezkor qondirish imkonini bermoqda.

Aholining daromadlari va turmush darajasining oshib borishi, moliyaviy savodxonlikning yuksalishi hamda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallashi natijasida banklarning an’anaviy xizmatlari bilan bir qatorda yangi, qulay va innovatsion moliyaviy mahsulotlarga bo‘lgan talab ham ortib bormoqda. Bunday sharoitda tijorat banklari oldida nafaqat kreditlash hajmini oshirish, balki kredit mahsulotlarini diversifikatsiya qilish, ularning shartlarini mijozlar ehtiyojlariga moslashtirish, kreditlash jarayonining shaffofligi va qulayligini ta’minlash vazifasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli aholini kreditlash tizimini takomillashtirish, kreditlarning maqsadli va samarali ishlatilishini ta’minlash hamda qarz oluvchilarning moliyaviy imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash bank tizimining barqaror rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda tijorat banklari kreditlari aholiga uy-joy va boshqa uzoq muddat davomida foydalaniladigan nisbatan yuqori qiymatli mol- mulkni xarid qilish, ta’lim olish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish, shuningdek, joriy daromad hajmidan katta bo‘lgan xarajatlarni amalga oshirish, zarur hollarda oila yoki shaxsiy moliyaviy holatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan mablag‘ yetishmovchiligi holatlarini bartaraf etishda ayni muddoadir.

Shu nuqtai nazardan, bank kreditlari aholiga o‘z xarajatlarini o‘rta va uzoq muddatli istiqbol uchun rejalashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yaratadi hamda shu orqali aholi turmush farovonligining oshishiga xizmat qiluvchi muhim manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida aholini kreditlashning o‘sishi bilan bog‘liq muayyan xatarlar mavjudligi, aholi kredit yukining haddan tashqari oshib ketishi, ya’ni aholining o‘z daromadining kredit majburiyatlarini so‘ndirishga yo‘naltiradigan qismining sezilarli darajada ortib borishi yoki yetarlicha daromadga ega bo‘lmasligi shuningdek kadrlar

qo‘nimsizligi, natijasida kreditlarni qaytarishda jiddiy muammolarning yuzaga kelishida o‘z aksini topadi. Bunday muammoli holatning yuzaga kelishi, o‘z navbatida, bank tizimi moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi hamda aholi ijtimoiy iqtisodiy holatining sezilarli darajada yomonlashishiga olib kelishi xalqaro tajribada o‘z tasdig‘ini topgan.

Shundan kelib chiqib, aholining kredit majburiyatlari bo‘yicha qarz yuki xalqaro amaliyotda qo‘llaniladigan yondashuvlar asosida, makro va mikro tadqiqot yondashuvlarini qo‘llagan holda baholashga harakat qilindi. Bunda, kredit yuki makro yondashuv asosida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik tahlillari asosida, tijorat banklari kredit portfelidagi aholiga ajratilgan barcha kreditlar bo‘yicha kredit to‘loviga oid ma’lumotlaridan foydalanildi.

Adabiyotlar sharhi

Aholini banklar tomonidan kreditlash bilan bir qatorda uni ortib borishi ya’ni qarz yukining ortishi borasida olimlar tomonidan bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Agar kreditlar aholi daromadlariga nisbatan juda tez o‘ssa, bu moliyaviy xavflarni ham oshirishi mumkin. Shuning uchun iqtisodchilar bunday ma’lumotni tahlil qilganda ikkita muhim omilni hisobga oladilar:

- aholi daromadlari o‘sdimi?
- muddati o‘tgan kreditlar ulushi ortdimi?

Keling, aholi daromadlariga qaraylik. Agar odamlar kreditni uy-joy sotib olish, biznes ochish yoki ta’lim uchun olsa va daromadlari ham o‘sib borsa, bu iqtisodiyot uchun foydali bo‘lishi mumkin. Ammo kreditlar aholi daromadlariga nisbatan juda tez o‘ssa, bu bir nechta moliyaviy xavflarni keltirib chiqaradi.

Agar insonning daromadi kredit to‘lovlariga nisbatan past bo‘lsa, uning budjetida muammo paydo bo‘ladi. Misol uchun oyligingiz 8 mln. so‘m, kredit to‘lovingiz 2 mln. so‘m. Bu holatda daromadingizning 25 foizi kreditga ketadi va yashashingiz uchun yetarlicha mablag‘ qoladi. Ammo, daromadingiz 8 mln. so‘m bo‘la turib, kredit to‘lovingiz 5 mln. so‘m bo‘lsa, bu holda daromadning qariyb 63 foizi kreditiga ketadi. Oziq-ovqat, kommunal to‘lovlar, transport yoki davolanish uchun mablag‘ kam qoladi. Kutilmagan xarajat chiqsa, qarzni o‘z vaqtida to‘lash qiyinlashadi[23]. Bunday holatlarda asosiy e’tibor aholining o‘z ehtiyojlarini daromadlariga nisbatan to‘g‘ri taqsimlab borish talab etiladi.

Aholini kredit yuki tahlili ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib xususan, Xalqaro hisob-kitoblar banki (Bank of International Settlements) iqtisodchilari M.Drexman va M.Juselius tomonidan 2012-yilda 27 mamlakat, shu jumladan 19 rivojlanayotgan davlatlar (Argentina, Braziliya, Meksika, Peru, Turkiya, Vengriya, Ruminiya, Xitoy, Hindiston, Malayziya, Indoneziya, Belarus va boshqa davlatlar) bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotda barqaror bank tizimiga ega mazkur mamlakatlarda aholi kredit qarzdorligi bo‘yicha qarz majburiyatlariga xizmat ko‘rsatish ko‘rsatkichini aholining jami sof daromadiga nisbatan hisoblanganda 5-20 foiz oraliqda shakllanganligi aniqlangan. Bunda, tizimli bank inqirozi yuz bergan deyarli barcha holatlarda mazkur inqirozlar yuz berishidan oldin Qarz majburiyatlariga xizmat ko‘rsatish ko‘rsatkichining deyarli bir xil darajagacha (20 foizdan yuqori) ko‘tarilganligi kuzatilgan. Shu sababli, xalqaro amaliyotda mazkur ko‘rsatkichdan tizimli bank inqirozlarini oldindan prognoz qilishda keng foydalaniladi [3].

Aholi kredit yukining muqobil ko‘rsatkichlarini o‘rgangan, iqtisodchi olimlar M.Lombardi, M.Moxanti va I.Shim tomonidan 2017-yilda 54 mamlakat bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotda aholi qarzining YaIMga nisbatining 60 foizdan oshishi iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir qilishi hamda bunday salbiy ta’sir qarzdorlikning YaIMga nisbati 80 foizdan yuqori bo‘lgan holatlarda ayniqsa kuchli bo‘lishi qayd qilingan [4].

Bunda, ekonometrik model asosidagi hisob-kitoblar qarzdorlik miqdorining yuqoridagi

[23] https://www.bbc.com/uzbek/articles/cpw9zwd0lg2o/cyr

me’yoriy ko‘rsatkichdan oshib ketgan holatlarda kredit majburiyatlarini bajara olmaydigan aholi sonining sezilarli darajada oshishi natijasida bank-moliya tizimi moliyaviy holatining yomonlashishi, banklar tomonidan kreditlash shartlarining qat’iylash- tirilishi, iqtisodiyotdagi foiz stavkalarining sezilarli darajada ko‘tarilishi va iqtisodiyotda investitsion faollikning pasayishi hamda buning natijasida iqtisodiy o‘sish sur’atlarining sekinlashishi kuzatilishi mumkinligini ko‘rsatgan.

AQSh iqtisodchilaridan Mannering, Dasgupta va boshqalar, aholiga ajratilayotgan kreditlarida aksariyat amerikaliklar uchun avtomobil sotib olish uchun olinayotgan kreditlar ikkinchi o‘rinda, uy-joy kreditlaridan kiyin turadi. Shundan ham ko‘rinib turibdiki, aholiga ajratilayotgan kreditlarning o‘zgarish dinamikasi har doim o‘rganilib tahlil qilib borish lozim bo‘lgan sohalardan biridir [5,6].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada kredit yuki tahlilini amalga oshirishda taqqoslama tahlil, statistik tahlil, qiyoslash, ilmiy abstraksiyalash, analiz, sintez kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Mamlakatda oila daromadining qancha qismi kreditni to‘lashga ketayotgani uning kelajakdagi farovonligini hal qiladi. Aholi daromadining kredit o‘sishiga nomutanosibligi muddati o‘tgan kreditlar ko‘payishiga ham olib kelishi mumkin. Ya’ni, agar ko‘pchilik kreditlarni o‘z vaqtida to‘lay olmasa, kechiktirilgan to‘lovlar ko‘payadi va ayrim kreditlar umuman qaytmay qolishi mumkin. Bu banklar uchun ham xavfli.

Bugun aksariyat aholimiz maishiy texnika, telefon yoki avtomobilni kreditga sotib olishni faol tarzda boshladi. Bu qisqa muddatda savdo hajmini oshiradi. Ammo keyin odamlarning katta qismi oylik daromadini kredit to‘lashga sarflay boshlaydi va boshqa tovarlarga talab pasayib borishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agar aholining daromadi pasaysa, muammo yanada kuchayadi. Aytaylik, iqtisodiyotda to‘satdan inqiroz yuz bersa yoki Kovid-19 pandemiyasi bo‘lsa, ayrimlar ishini yo‘qotadi, maoshlar o‘smaydi va bizneslar daromadi kamayadi. Lekin kredit to‘lovlari o‘zgarmasdan qolsa ko‘pchilik qarzni to‘lashda qiynalib qolishi kuzatilishi mumkin. Bunga qarshi mamlakatimizda o‘sha vaqtda kredit to‘lovlarida ta’tillar berilib iqtisodiy jarayon yumshatildi.

Markaziy Bank ma’lumotiga ko‘ra, aholi qarzdorligi bir yilda 20 foizga o‘sgan bo‘lsa, bu xavfsiz deyish uchun aholi daromadlari ham taxminan 18-20 foizga o‘sgan bo‘lishi kerak. Shunda buni barqaror holat deyish mumkin. Aholi daromadlari ham yillar mobaynida bosqichma-bosqich o‘sib bormoqda. Shu yilning birinchi choragi raqamlariga ko‘rsatkichlariga qaralsa, aholining jami daromadlari (inflyatsiya hisobga olinganda) 7,8 foizga o‘sgan. Bu o‘sishlarni kreditlar bilan taqqoslasak, kreditlar hajmi aholining real daromadlariga qaraganda tezroq o‘sayotganini ko‘rish mumkin. Mavjud vaziyatga aniqrog‘ xulosa chiqarish uchun quyidagi ko‘rsatkichlar ham kerak:

- muddati o‘tgan kreditlar ulushi (NPL - Non-performing loans);
- kreditlarning asosiy qismi qaysi kredit turiga xosligi ipoteka yoki iste’mol kreditlari;

Agar ushbu ko‘rsatkichlar ham yomonlashishi kuzatilsa, unda kreditlar o‘sishi moliyaviy xavfni kuchaytirayotgani haqida ishonchliroq xulosa qilish mumkin. Agar kechiktirilgan kreditlar past bo‘lsa (odatda ruxsat etilgan chegara jami kredit portfelining 3 foizgacha) va o‘sish asosan ipoteka yoki daromad keltiradigan maqsadlarga to‘g‘ri kelsa, 20 foizlik kredit o‘sishi har doim ham salbiy holat emas.

Muddati o‘tgan kreditlar bo‘yicha yil boshida Markaziy Bank hisob-qitoblarida 2025-yil yakunlariga ko‘ra 0,3 bandiga kamaygan. Muammoli kreditlar ulushi 3 foiz xalqaro me’yorlar doirasida shakllangan. Markaziy bank tomonidan 2026-yil birinchi yarim yilligida o‘tkazgan so‘rovida banklardan kredit olgan qarzdorlarning 61 foizi kreditlarni o‘z vaqtida to‘lashda

qiynalayotganini, qarzdorlarning katta qismi daromadining yarmidan ko‘prog‘ini qarz to‘lovlariga sarflayotganini bildirgan. Bu esa kelgusida kreditini to‘lolmaydigan odamlar soni oshishi xavfi borligini anglatadi.

1-jadval.

Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig‘i to‘g‘risida kreditlar turlari bo‘yicha ma’lumot *mlrd. so‘m**

Ko‘rsatkich nomi	01.01.2026 y.	01.07.2026 y.	O‘zgarishi, (%)
Jami kredit qoldig‘i	**604 002**	**642 810**	**6,4**
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldig‘i	***220 283***	***235 863***	***7,1***
Ipoteka kreditlari	79 396	86 578	9,0
Mikroqarzlar	48 863	50 564	3,5
Mikrokreditlar	40 474	45 767	13,1
Avtokreditlar	39 696	39 814	0,3
Ta’lim kreditlari	6 932	6 872	-0,9
Iste’mol kreditlari	492	517	5,1
Boshqa kreditlar (kredit karta overdraft)	4 430	5 751	29,8

*O’rganilgan ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

1-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, aholiga berilgan kreditlar jami banklar tomonidan berilgan kreditlarning 37 foizini tashkil etmoqda. U doimo o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib bormoqda. Eng tez o‘sayotgan kredit turlari bu mikroqarzlar bo‘lib u 48,9 trln. so‘mga yetgan. Bu ipotekadan keyingi yirik segmentlardan biri hisoblanada. Buning o‘sishiga sabab bo‘ladigan omillardan biri shundaki, aholining 100 mlnn. So‘mgacha bo‘lgan miqdordagi mikroqarz olish imkoniyatining kengligi va onlayn garovsiz olish imkoniyatining mavjudligi bilan izohlanadi. Ammo xavfi shundaki, ularning muddati qisqa bo‘lishi mumkin, foiz yuki yuqoriroq bo‘la turib, daromadi past odamlarga og‘irlik qilishi mumkin.

Ipoteka kreditining o‘sishi aholining uy-joyga bo‘lgan ehtiyojini qondirilib borilayotganligidan dalolat beradi.

Xulosa

O‘zbekiston bo‘yicha hisoblangan mazkur kredit yuki ko‘rsatkichi xalqaro amaliyotda tavsiya qilingan chegaraviy me’yordan (50 foiz), shuningdek aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda, shu jumladan MDH davlatlarida shakllangan aholi qarz yuki ko‘rsatkichidan birmuncha past hisoblanadi.

Bugungi kunda aholining kredit majburiyatlari o‘sishi bilan yuzaga keladigan xatarlarni bartaraf etish (pasaytirish) hamda aholi kredit majburiyatlarining haddan ziyod oshib ketishini oldini olish maqsadida jahonning ko‘plab mamlakatlari markaziy banklari tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagi tahlillar natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Aholini moliyaviy savodxonlik darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish lozim. Ushbu usul orqali olingan kreditlar bo‘yicha to‘lovlarni to‘lash o‘z vaqtida amalga oshirilishiga erishish mumkin;

2. Aholiga kredit olish jarayonida har xil me’yoriy cheklovlarni qo‘llab aholining kredit olish imkoniyatlariga ta’sir o‘tkazmaslik lozim;

3. Har bir tijorat banki filiali aholini kreditlash jarayonida xolislik va shaffoflikni ta’minlashi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 23 мартдаги “Банк

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

хизматлари оммабоплигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3620-сонли Қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг статистик таҳлиллари http://www.cbu.uz

3. М.Власеннко (2015 г.). «Об основных показателях долговой нагрузки на экономику». Банковский вестник, 2015.

4. Mannering, F., Winston, C., Starkey, W., An exploratory analysis of automobile leasing by US households. J. Urban Econ. 52 (1), 2002. – P. 154–176. https://www.sciencedirect.com/search/advanced?qs=debt%20burden%20on%20the%20population%27s%20 bank%20loans.

5. Dasgupta, S., Siddarth, S., Silva-Risso, J., Lease or Buy?: A Structural Model of the Vehicle Acquisition Decision, University of Southern California, Working Paper. 2003. https://www.sciencedirect.com/search/advanced

6.www.imf.org/external/datamapper/HH_LS@GDD/CAN/GBR/USA/DEU/ITA/FRA/JPN .

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

IQTISODIY RIVOJLANISH JARAYONLARIDA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNING TUTGAN ROLI HAMDA AHAMIYATI

Doniyev Shahob O‘tkir o‘g‘li
iqtisodiyot fakulteti,
iqtisodiyot yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Qarshi davlat universiteti
E-mail: shahobdoniyev@gmail.com
ORCID: 0009-0007-8616-8144

Annotatsiya. *Ushbu maqoladamiz mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xorijiy investitsiyalarning ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy boshqaruvni joriy etishdagi ta’siri yoritiladi. Shuningdek, investitsion muhitni yaxshilash va samarali investitsiya siyosatini takomillashtirish bo‘yicha xulosalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya muhiti, iqtisodiy o‘sish, raqobatbardoshlik, investitsion jozibadorlik, xorijiy investorlar.*

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ПРОЦЕССАХ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Дониев Шахоб Уткир угли
экономический факультет,
студент 2-го курса экономики
Каршинский государственный университет
E-mail: shahobdoniyev@gmail.com
ORCID: 0009-0007-8616-8144

Аннотация. *В данной статье анализируется роль и значение прямых иностранных инвестиций в развитии экономики страны. Освещается влияние иностранных инвестиций на увеличение объемов производства, создание новых рабочих мест, внедрение передовых технологий и современного управления. Также даются выводы по улучшению инвестиционного климата и совершенствованию эффективной инвестиционной политики.*

Ключевые слова: *Прямые иностранные инвестиции, экономическое развитие, инвестиционный климат, экономический рост, конкурентоспособность, инвестиционная привлекательность, иностранные инвесторы.*

THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOREIGN DIRECT INVESTMENTS IN ECONOMIC DEVELOPMENT PROCESSES

Doniyev Shahob Utkir oglu
Faculty of Economics,
2nd year student of Economics
Karshi State University
E-mail: shahobdoniyev@gmail.com
ORCID: 0009-0007-8616-8144

Abstract. *This article analyzes the role and importance of foreign direct investment in the development of the country's economy. The impact of foreign investments on increasing production volumes, creating new jobs, introducing advanced technologies and modern management is highlighted. Conclusions are also given on improving the investment climate and improving effective investment policy.*

Keywords: *Foreign direct investment, economic development, investment climate, economic growth, competitiveness, investment attractiveness, foreign investors.*

Kirish

Hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv hamda iqtisodiy integratsiya sharoitida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) mamlakatlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashning eng muhim strategik omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jahon iqtisodiyotida kapital harakatining erkinlashuvi hamda texnologik taraqqiyot va xalqaro raqobatning kuchayishi natijasida TTXI nafaqat moliyaviy resurslar manbai, balki ilg‘or texnologiyalar, innovatsiyalar, zamonaviy boshqaruv usullari va xorijiy ishlab chiqarish madaniyatini milliy iqtisodiyotga jalb qilishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy nazariya va o‘tkazilgan amaliy tajribalarimiz shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarish hajmini bir necha barobarga oshishi, mehnat unumdorligining yuksalishi, eksport salohiyatining kengayishi hamda iqtisodiyotda mavjud tarmoqlarning tarkibiy jihatdan modernizatsiya qilinishiga o‘zining sezilarli ta’sirini ko‘rsatadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan hamda o‘tish davrida bo‘lgan mamlakatlarda kapital yetishmovchiligi sharoitida TTXI iqtisodiy sohadagi o‘sishni jadallashtirish va makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalarning samaradorligi investitsion muhit, institutsional sifat, huquqiy tizim barqarorligi, infratuzilma rivojlanganlik darajasi hamda inson kapitalining holatiga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Mazkur omillar yetarli darajada shakllanmagan sharoitda xorijiy investitsiyalar kutilgan iqtisodiy samarani bermasligi yoki milliy manfaatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli ham mavjud. Shu sababli, TTXIning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni va ahamiyatini kompleks, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi

Bugungi kundagi globallashuv jarayonlarida barcha davlatlar xorijiy investitsiyalarni o‘z iqtisodiy sektorlariga jalb qilish masalasi ustida bosh qotirmoqdalar. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ham investitsiya muhitini yaxshilash, iqtisodiyotga xorijiy kapital oqimini kengaytirish hamda xalqaro investitsiya jarayonlariga faol integratsiyalashuvni ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli institutsional va tarkibiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar doirasida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi, investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining takomillashtirilishi hamda biznes yuritish sharoitlarining liberallashtirilishi TTXI hajmining oshishiga zamin yaratmoqda. Aynan shu maqsadda, hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonlaridan 23-iyun 2025-yilda **“Mamlakatimizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirishning qo‘shimcha choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-97-sonli Farmon**[24]larining chiqarilishi esa mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb qilish masalasini yanada qo‘llab-quvvatlash va kengaytirish uchun eng muhim asoslardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga ushbu farmon doirasida bir qator amaliy vazifalar belgilandi hamda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari bir qator iqtisodchi olimlar ham ushbu sohaga doir ko‘plab fikrlarni aytib o‘tishgan.

Tadqiqiqot metodologiysi

Maqolamizda yoritilayotgan mavzuni tadqiq qilish jarayonida tizimli yondashuv, tadqiqotning mantiqiy va taqqoslash usullari, ta’sir etuvchi omillar tahlili, kompleks yondashuv, induksion va deduksion tahlil usullari, ekspert tahlili, ko‘p variantli prognoz, kuzatishlar hamda statistik tahlil, sifat hamda miqdor tahlili va shu kabi ko‘plab tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

[24] https://lex.uz/uz/docs/-7594188 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.06.2025 yil sanasidagi PF-97-sonli Farmoni

Ushbu usullar orqali yuqorida tilga olingan sohalar har tomonlama tadqiq qilinib, yakuniy xulosalar berilgan.

Tahlillar va natijalar

Ushbu maqolamiz doirasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TTXI) iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga ta’siri statistik va taqqoslama tahlil usullari asosida yoritiladi. TTXI hajmi va YAIM o‘sish sur’atlari, sanoat ishlab chiqarishi, eksport salohiyati hamda bandlik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, xorijiy investitsiyalar oqimining ortishi ishlab chiqarish hajmining kengayishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, tahlillar investitsion muhitning barqarorligi, huquqiy kafolatlar, infratuzilma rivoji va soliq imtiyozlari TTXIni jalb etishda muhim omil ekanligini ko‘rsatib berdi. O‘rganishlar asosida shuni ma’lum qilamizki, TTXI oqimining ortishi quyidagi sohalarga o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi:

1-rasm.

TTXI oqimlarining ortishi natijasida o‘zgaruvchi sohalar*

*O‘tkazilgan tahlillar asosida muallif ishlanmasi. Manba: https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/1277.

Ayniqsa, qayta ishlash sanoati, energetika, qurilish materiallari va xizmat ko‘rsatish sohalarida TTXI yuqori samaradorlik bergani kuzatildi. Investitsiya jalb qilingan hududlarda infratuzilma rivoji tezlashgani va kichik biznes faolligi oshgani aniqlandi. Shu bilan bir qatorda, TTXIning iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ta’siri har doim ham bir xil va avtomatik xarakterga ega emas.Biroq, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga real ta’sirini baholash, ularning samaradorligini aniqlash va mavjud muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Tadqiqotlarimiz davomida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TTXI) iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ta’siri statistik, dinamik va taqqoslama tahlil usullari asosida o‘rganildi. Tahlil jarayonida TTXI hajmi bilan YAIM o‘sish sur’atlari, sanoat ishlab chiqarishi, eksport hajmi, bandlik darajasi hamda texnologik yangilanish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlashtirildi. Quyidagi jadvalimizda esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning mavjud iqtisodiy sohalarga yo‘naltirish darajalariga qarab aynan shu iqtisodiy tarmoqning rivojlanish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan..

1-jadval.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy tarmoqlarga ta’sir darajasi*

Ko‘rsatkichlar	TTXI past daraja	TTXI o‘rta daraja	TTXI yuqori daraja
YAIM o‘sish sur’ati (%)	3–4 %	5–6 %	7–9 %
Sanoat ishlab chiqarishi o‘sishi	Past	Barqaror	Yuqori
Yangi ish o‘rinlari	Cheklangan	O‘rtacha	Ko‘p miqdorda
Eksport hajmi	Sekin o‘sish	Barqaror o‘sish	Tez o‘sish
Texnologik yangilanish darajasi	Past	O‘rtacha	Yuqori

*Manba.https://stat.uz/uz/ O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra

muallif ishlanmasi

Jadvalimizda berilgan ma’lumotlarga asoslanib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning hajmi texnologik yangilanishlar darajasi, eksport hajmi hamda sanoat ishlab chiqarish sohasidagi o‘sish sur’atlari bilan aloqadorlik darajalari haqida fikr yuritdik. Shu bilan birga, tahlillar investitsiya samaradorligi bevosita quyidagi omillarga bog‘liqligini ko‘rsatdi:

- Mavjud huquqiy kafolatlarning mustahkamligi
- Soliq va bojxona tizimida berilgan imtiyozlar
- Milliy valyutaning barqarorligi
- Transport-logistika infratuzilmasining tashkil qilinganigi
- Siyosiy hamda iqtisodiy barqarorlik.

Jahon amaliyoti tajribalari shuni ko‘rsatadiki, TXI oqimlari iqtisodiy liberallashuv, institutsional islohotlar va ochiq bozor siyosati bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Masalan, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi hisobotlarida investitsion muhit barqarorligi, huquqiy kafolatlar va infratuzilma rivoji TTXIni jalb qilishning asosiy omillari sifatida qayd etiladi. Xuddi shu maqsadda mamlakatimizda ham ushbu sohani yanada rivojlantirish hamda xalqaro tajribalarni amaliyotimizga tatbiq qilish maqsadida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya siyosatini liberallashtirish, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va biznes muhitini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar TTXI hajmining oshishiga xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda energetika, kimyo sanoati, to‘qimachilik va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohalari investitsiya uchun ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilanmoqda. Bu esa iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va eksport tarkibini kengaytirishga zamin yaratib bermoqda. Olingan natijalarimiz asosida esa iqtisodiy tarmoqlarni diversifikatsiya qilish, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash hamda investitsiya siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha ilmiy jihatlarga asoslangan fikrlar berildi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillarimizga tayangan holda xulosa qilib aytishimiz mumkinki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) nafaqat zamonaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, balki ular moliyaviy resurslar oqimini ta’minlaydi hamda texnologik yangilanish, boshqaruv samaradorligi, institutsional modernizatsiya va xalqaro integratsiyani jadallashtiradi. Jahon tajribalari asosida esa TTXI iqtisodiy o‘sishning barqaror va uzoq muddatli modelini shakllantirishda muhim strategik omil sifatida namoyon bo‘lganini bilgan holatda biz ham xuddi shu yo‘nalishdagi zamonaviy modellarni iqtisodiyotimizga joriy qilish masalasi ustida turibmiz. Yana shuni ham ta’kidlash kerakki, TTXI oqimlari milliy iqtisodiyotda kapital yetishmovchiligini qoplash bilan bir qatorda, ishlab chiqarish omillarining samaradorligini oshiradi, innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradi hamda mamlakatning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvini ta’minlaydi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar sharoitida TXI sanoatni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini kengaytirish va yangi ish o‘rinlari yaratish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston sharoitida TXI iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan diversifikatsiya qilish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport geografiyasini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan liberallashtirish siyosati, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi va biznes yuritish sharoitlarining yaxshilanishi investitsiya oqimlarini rag‘batlantirishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.06.2025 yil sanasidagi PF-97-sonli Farmoni. Manba: https://lex.uz/uz/docs/-7594188

2. Bekmurodov A.Sh., Jo‘rayev A.B. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va ularning milliy iqtisodiyotga ta’siri. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2023. – 212 b.

3. Boboyev Sh.Sh. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va innovatsion iqtisodiyot. – Toshkent: UWED Press, 2022. – 168 b.

4. World Bank. World Development Indicators 2024. – Washington D.C.: World Bank Publications, 2024.

5. OECD. FDI Qualities Indicators: Measuring the Sustainable Development Impacts of Investment. – Paris: OECD Publishing, 2023.

6. Bakiyeva, I. (2025). O‘zbekistonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar dinamikasi va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri (2016-2025-yillar tahlili). Qo‘qon Universiteti xabarnomasi, 16, 179–183.
Manba: https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/1277

7. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi yillik hisobotlar (2016-2025-yillar) - Toshkent. Manba: https://stat.uz.

8. Alfaro, L., Chanda, A., Kalemli-Ozcan, S., Sayek, S. FDI and Economic Growth: The Role of Local Financial Markets. // Journal of International Economics, 2004, Vol. 64(1), pp. 89–112.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI TA’MINLASH

Razikova Nozima Erkin qizi
xalqaro moliya kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: razikova@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada biznes subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlari orqali aholi bandligini ta’minlash masalalari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi kichik tadbirkorlikni kreditlash hajmi bilan mehnat bozori ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash, moliyalashtirishga kirish imkoniyatidagi tanqislikni aniqlash hamda moliyalashtirish tizimini bandlik natijalariga yo‘naltirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Rasmiy statistik ma’lumotlar tahlili kichik tadbirkorlik subyektlari yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko‘pini (2024-yilda 54,3 %) ishlab chiqarayotganini, 2025-yilda ularga ajratilgan kreditlar hajmi 131,2 trln so‘mga yetib, bir yilda 42 % ga oshganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga kichik korxonalarning atigi 10 % i, o‘rta korxonalarning 16 % i kredit oladi, mikro-, kichik va o‘rta biznesning yillik kredit talabi 13 mlrd dollarni tashkil etsa-da, 6 mlrd dollarlik tanqislik saqlanmoqda. Ishsizlik darajasining 2023-yildagi 8,1 % dan 2025-yil uchinchi choragida 4,9 % gacha pasayishi moliyalashtirish dasturlarining kengayishi bilan bir vaqtga to‘g‘ri keladi, biroq band aholining 33 % i norasmiy sektorda qolmoqda. Maqolada xorij tajribasi umumlashtirilgan, moliyalashtirishning bandlikka ta’sirini o‘lchash uchun to‘rtta indikator taklif etilgan va kreditlash siyosatini natijaga bog‘lash mexanizmi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *biznes subyektlari, moliyalashtirish, aholi bandligi, kichik tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, mikrokredit, kredit kafolati, norasmiy bandlik, ish o‘rni, mehnat bozori, natijaga yo‘naltirilgan kreditlash.*

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ СУБЪЕКТОВ БИЗНЕСА

Разикова Нозима Эркиновна
соискатель кафедры
международные финансы
Ташкентского государственного
экономического университета
E-mail: razikova@gmail.com

Аннотация. *В статье комплексно анализируются вопросы обеспечения занятости населения посредством механизмов финансирования субъектов бизнеса. Цель исследования — оценить взаимосвязь между объёмами кредитования малого предпринимательства и показателями рынка труда, выявить дефицит доступа к финансированию и разработать предложения по ориентации системы финансирования на результаты занятости. Анализ официальных статистических данных показал, что субъекты малого предпринимательства производят более половины валового внутреннего продукта (54,3 % в 2024 году), а объём выданных им кредитов в 2025 году достиг 131,2 трлн сумов, увеличившись за год на 42 %. При этом кредит получают лишь 10 % малых и 16 % средних предприятий, а при годовой потребности микро-, малого и среднего бизнеса в 13 млрд долларов сохраняется дефицит в 6 млрд долларов. Снижение уровня безработицы с 8,1 % в 2023 году до 4,9 % в третьем квартале 2025 года совпадает с расширением программ финансирования, однако 33 % занятых остаются в неформальном секторе. Обобщён зарубежный опыт, предложены четыре индикатора измерения влияния финансирования на занятость и обоснован механизм привязки*

кредитной политики к результатам.

Ключевые слова: *субъекты бизнеса, финансирование, занятость населения, малое предпринимательство, семейное предпринимательство, микрокредит, кредитная гарантия, неформальная занятость, рабочее место, рынок труда, кредитование по результатам.*

ENSURING POPULATION EMPLOYMENT THROUGH THE FINANCING OF BUSINESS ENTITIES

Razikova Nozima Erkin qizi

Independent Researcher
Department of International Finance
Tashkent State University of Economics
E-mail: razikova@gmail.com

Abstract.*The article provides a comprehensive analysis of employment provision through mechanisms for financing business entities. The study aims to assess the relationship between the volume of lending to small entrepreneurship and labour market indicators, to identify the gap in access to finance, and to develop proposals for reorienting the financing system towards employment outcomes. Analysis of official statistics shows that small entrepreneurship entities generate more than half of gross domestic product (54.3 % in 2024), while lending to them reached 131.2 trillion soums in 2025, an annual increase of 42 %. At the same time, only 10 % of small and 16 % of medium enterprises obtain loans, and against an annual credit demand of USD 13 billion the micro, small and medium business segment faces a shortfall of USD 6 billion. The decline in unemployment from 8.1 % in 2023 to 4.9 % in the third quarter of 2025 coincides with the expansion of financing programmes, yet 33 % of the employed remain in the informal sector. International experience is summarised, four indicators for measuring the employment impact of financing are proposed, and a mechanism for linking credit policy to outcomes is substantiated.*

Keywords: *business entities, financing, employment, small entrepreneurship, family entrepreneurship, microcredit, credit guarantee, informal employment, job creation, labour market, performance-based lending.*

Kirish

Aholi bandligini ta’minlash iqtisodiy siyosatning markaziy vazifalaridan biri bo‘lib, uning yechimi ko‘p jihatdan biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati bilan belgilanadi. Yangi ish o‘rni davlat tomonidan bevosita yaratilmaydi — u tadbirkorlik faoliyatining hosilasi sifatida vujudga keladi; shu bois moliyalashtirish tizimi mehnat bozoriga bilvosita, ammo hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda ushbu bog‘liqlik me’yoriy hujjatlarda ham e’tirof etilgan: kichik biznesni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari [1], shuningdek oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirish tartibi [2; 3] aynan doimiy daromad manbalarini ko‘paytirish maqsadiga bo‘ysundirilgan.

Mavzuning dolzarbligi ikki holat bilan izohlanadi. Birinchidan, mamlakat demografik o‘sish sharoitida rivojlanmoqda va har yili mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar soni yangi ish o‘rinlariga bo‘lgan talabni doimiy ravishda oshirib bormoqda. Ikkinchidan, davlat byudjeti va bank tizimi orqali tadbirkorlikka yo‘naltirilayotgan resurslar hajmi yildan yilga kengaymoqda, biroq bu resurslarning bandlik bo‘yicha qaytimi tizimli baholanmayapti. Natijada moliyalashtirish siyosati ko‘pincha “qancha mablag‘ ajratildi” mezoni bilan o‘lchanadi, holbuki uning yakuniy maqsadi “qancha barqaror va rasmiy ish o‘rni yaratildi” degan savolga javob berishdir.

Shu bilan birga, moliyalashtirish hajmining o‘sishi bandlik sifatining yaxshilanishini

avtomatik ravishda anglatmaydi. Ajratilgan mablag‘ hisobiga qancha ish o‘rni yaratilgani, ularning qanchasi rasmiylashtirilgani va necha oy saqlanib qolgani odatda tizimli o‘lchanmaydi. Mazkur maqolaning maqsadi — kichik tadbirkorlikni moliyalashtirish ko‘rsatkichlari bilan mehnat bozori holati o‘rtasidagi bog‘liqlikni statistik tahlil asosida baholash, moliyalashtirishga kirishdagi tanqislikni aniqlash va moliyalashtirishni bandlik natijalariga yo‘naltirish mexanizmini asoslashdan iborat. Tadqiqot vazifalari: sektorning iqtisodiyotdagi o‘rnini baholash; kreditlash dinamikasi va tarkibini tahlil qilish; mehnat bozori ko‘rsatkichlari bilan qiyoslash; xorij tajribasini umumlashtirish; natijaviy indikatorlar tizimini taklif etish.

Adabiyotlar sharhi

Tadbirkorlikni moliyalashtirish va bandlik o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiyot fanida uzoq davrdan buyon o‘rganib kelinadi. Nazariy asos J. Shumpeterning innovatsion tadbirkorlik konsepsiyasiga borib taqaladi: unga ko‘ra kredit resursi tadbirkorga ishlab chiqarish omillarini yangicha birlashtirish imkonini beruvchi vosita bo‘lib, iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi [4]. Bu yondashuvda moliyalashtirish shunchaki mablag‘ berish emas, balki yangi faoliyat, demak yangi ish o‘rinlari yaratish jarayonining boshlang‘ich nuqtasi sifatida talqin qilinadi.

J. Stiglits va A. Vayss tomonidan ishlab chiqilgan kredit ratsionlashtirish nazariyasi muammoning ikkinchi tomonini ochib berdi: axborot assimetriyasi sharoitida banklar foiz stavkasini oshirish o‘rniga kredit hajmini cheklashni afzal ko‘radi, natijada bozorda to‘lovga qodir, ammo garov ta’minotiga ega bo‘lmagan qarz oluvchilar moliyalashtirishdan chetda qoladi [5]. Aynan shu holat kichik va yangi tashkil etilgan korxonalar uchun xarakterli bo‘lib, davlatning kafolat mexanizmlari orqali aralashuvini iqtisodiy jihatdan asoslaydi.

Empirik tadqiqotlar bu nazariy xulosalarni tasdiqlaydi. T. Bek va A. Demirguch-Kunt ko‘plab mamlakatlar ma’lumotlari asosida moliyalashtirishga kirish cheklovi kichik korxonalar o‘sishiga eng kuchli to‘siq ekanini ko‘rsatgan [6]. M. Ayyagari, A. Demirguch-Kunt va V. Maksimovich esa 99 ta mamlakat ma’lumotlarini tahlil qilib, kichik va yosh korxonalar bandlikning katta qismini ta’minlashi hamda yangi ish o‘rinlari yaratishda yetakchilik qilishini asoslagan [7]. Ayni paytda A. Banerji va uning hammualliflari tomonidan o‘tkazilgan tasodifiy nazorat tajribasi mikromoliyalashtirishning ta’siri chegaralanganini — u tadbirkorlik faolligini oshirsa-da, daromad va iste’mol darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmasligini aniqladi [8]. Bu natija muhim metodologik saboq beradi: moliyalashtirishning o‘zi yetarli shart emas, uning samarasi bozorga kirish, ko‘nikma va institutsional muhit bilan birgalikda namoyon bo‘ladi.

Mahalliy tadqiqotlarda esa asosiy e’tibor kredit hajmi va qamrovi ko‘rsatkichlariga qaratilgan bo‘lib, ajratilgan mablag‘ning bandlik bo‘yicha yakuniy natijasini o‘lchash masalasi hozircha yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda moliyalashtirish va bandlik ko‘rsatkichlari yagona tahliliy doirada qiyoslanib, natijaviy indikatorlar tizimi taklif etilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot statistik tahlil, qiyosiy tahlil, guruhlash va tizimli yondashuv usullari asosida amalga oshirildi. Axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining kichik tadbirkorlik bo‘yicha rasmiy ma’lumotlari [9; 10; 11], bank tizimining kreditlash ko‘rsatkichlari [12; 13], Jahon banki tahlillari [14], mehnat bozori ko‘rsatkichlari [15; 16] hamda davlat dasturlari bo‘yicha e’lon qilingan moliyaviy ma’lumotlar [17; 18; 19] tashkil etdi. Xorij tajribasini umumlashtirishda Jahon banki va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining kredit kafolati tizimlari bo‘yicha materiallaridan foydalanildi [20; 21].

Tahlil davri — 2022–2025-yillar. Tadqiqot uch bosqichda olib borildi: birinchi bosqichda sektorning iqtisodiyotdagi o‘rni va moliyalashtirish hajmi dinamikasi baholandi; ikkinchi bosqichda mehnat bozori ko‘rsatkichlari bilan qiyosiy tahlil o‘tkazildi; uchinchi bosqichda moliyalashtirish mexanizmlari samaradorligini o‘lchash indikatorlari ishlab chiqildi.

Ko‘rsatkichlar turli metodikalar bo‘yicha hisoblangani bois ular tendensiyani baholash uchun qo‘llanilgan, qat’iy ekonometrik bog‘liqlik da’vo qilinmaydi.

Tahlili va natijalar

1. Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o‘rni. Bandlikni ta’minlash salohiyati, eng avvalo, tadbirkorlik sektorining iqtisodiyotdagi ulushi bilan belgilanadi. 2024-yil yakunlariga ko‘ra kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 54,3 % ni tashkil etgan; ular chakana savdo aylanmasining 84,0 %, qurilish ishlarining 76,5 %, xizmatlarning 57,0 % va asosiy kapitalga investitsiyalarning 51,8 % ini ta’minlagan (1-jadval) [9]. 2024-yilda 77,0 mingta yangi kichik korxona va mikrofirma tashkil etilib, 1000 nafar aholiga to‘g‘ri keladigan zichlik 12,1 birlikni tashkil etgan. Jahon banki baholariga ko‘ra esa mikro-, kichik va o‘rta korxonalar mamlakatdagi barcha biznes subyektlarining 90 % dan ortig‘ini, umumiy bandlikning 75 % ini va yalpi ichki mahsulotning qariyb 55 % ini ta’minlaydi [14].

1-jadval.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi, 2024-yil*

Ko‘rsatkich	Ulushi, %	Hajmi, mlrd so‘m
Yalpi ichki mahsulot	54,3	–
Qishloq xo‘jaligi mahsuloti	95,2	–
Chakana savdo aylanmasi	84,0	338 802,6
Qurilish ishlari	76,5	178 718,9
Ko‘rsatilgan xizmatlar	57,0	466 461,8
Asosiy kapitalga investitsiyalar	51,8	255 883,8
Sanoat mahsuloti	32,4	286 675,2

*Manba: [9] ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Sektorning moliyaviy salohiyati o‘sib bormoqda: yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi 2022-yildagi 83,0 trln so‘mdan 2025-yilda 163,6 trln so‘mga yetdi, ya’ni to‘rt yilda deyarli ikki baravar oshdi (1-diagramma) [10]. 2025-yilning oktabr holatiga ko‘ra mamlakatda 1,21 mln faoliyat yurituvchi kichik biznes subyekti ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularning 479,0 mingtasi kichik korxona va mikrofirmalar, 281,9 mingtasi yakka tartibdagi tadbirkorlar, 422,3 mingtasi dehqon xo‘jaliklari hisoblanadi [11]. Bu raqamlar sektorning nafaqat hajman, balki subyektlar soni jihatidan ham kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

1-diagramma.

Kichik tadbirkorlik subyektlari hajmining yalpi ichki mahsulot tarkibidagi dinamikasi, trln so‘m.*



*Manba: [10]

2. Biznes subyektlarini kreditlash hajmi va tarkibi. Moliyalashtirish kanalining asosiy ko‘rsatkichi — bank kreditlari hajmidir. 2025-yilda kichik va o‘rta biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 131,2 trln so‘mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 42 % ga oshdi [12]. Kreditlarning tarmoq bo‘yicha taqsimoti bandlik nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega: eng katta ulush savdo va umumiy ovqatlanish sohasiga (43,0 trln so‘m) to‘g‘ri keladi, undan keyin yakka tartibdagi tadbirkorlik (21,8 trln so‘m), qishloq xo‘jaligi (17,9 trln so‘m), sanoat (17,7 trln so‘m), qurilish (15,2 trln so‘m) hamda transport va aloqa (12,5 trln so‘m) joylashgan (2-diagramma) [12].

2-diagramma.

Kichik va o‘rta biznesga ajratilgan kreditlarning tarmoq bo‘yicha taqsimoti, 2025-yil, trln so‘m.*



*Manba: [12]

Ushbu tarkib muhim xulosa beradi. Savdo va umumiy ovqatlanish sohasi kreditlarning eng katta qismini o‘zlashtirsa-da, u odatda past kapital sig‘imiga ega bo‘lib, yaratiladigan ish o‘rinlari ko‘pincha mavsumiy va past malakali hisoblanadi. Sanoat va qurilish esa aksincha, bir ish o‘rniga ko‘proq kapital talab qiladi, ammo yaratilgan ish o‘rni barqarorroq va rasmiylashtirilgan bo‘ladi. Demak, kredit portfelining tarmoq tuzilishi bandlikning nafaqat soni,

balki sifatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi va moliyalashtirish siyosatining muhim boshqaruv obyekti hisoblanadi.

3. Mikromoliyalashtirish bozorining kengayishi. Kichik biznes va o‘z-o‘zini bandlik uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan segment — mikromoliyalashtirish bozori jadal o‘smoqda. 2025-yilning birinchi yarmida uning hajmi 66,9 trln so‘mga yetib, o‘tgan yilning shu davridagi 34,8 trln so‘mga nisbatan qariyb ikki baravar oshdi. Bozor tarkibida banklar 53,6 trln so‘m (80 %), mikromoliya tashkilotlari 12,0 trln so‘m (18 %), lombardlar 1,3 trln so‘m (2 %) ulushga ega. Ajratilgan mablag‘ning 91 % i (61,1 trln so‘m) 100 mln so‘mgacha bo‘lgan kreditlarga to‘g‘ri keladi [13]. Bu ko‘rsatkich mikrokredit aynan oilaviy va yakka tartibdagi tadbirkorlik uchun asosiy moliyalashtirish shakliga aylanganini tasdiqlaydi.

4. Moliyalashtirishga kirish imkoniyatidagi tanqislik. Kreditlash hajmining o‘sishiga qaramay, biznes subyektlarining moliyaviy xizmatlarga kirish darajasi past bo‘lib qolmoqda. Jahon banki baholariga ko‘ra kichik korxonalarning atigi 10 % i va o‘rta korxonalarning 16 % i kredit olish imkoniyatiga ega; mikro-, kichik va o‘rta biznesning umumiy kredit talabi 13 mlrd AQSh dollarini tashkil etsa-da, ta’minlanmagan tanqislik 6 mlrd dollarga teng. Bundan tashqari, korxonalarning uchdan bir qismidan ko‘prog‘i bank hisobvarag‘iga ega emas, savdo hajmining 30 % dan kamrog‘i elektron shaklda amalga oshiriladi. Gender kesimida farq yanada keskin: ayollar mikro-, kichik va o‘rta korxonalarning uchdan bir qismiga egalik qilsa-da, ushbu segmentga ajratilgan kreditlarning atigi 14 % ini oladi (2-jadval) [14].

2-jadval.

Biznes subyektlarining moliyalashtirishga kirish ko‘rsatkichlari*

Ko‘rsatkich	Qiymati	Bandlik nuqtayi nazaridan izohi
Kredit olgan kichik korxonalar ulushi	10 %	kengayish salohiyatining katta qismi ishga solinmagan
Kredit olgan o‘rta korxonalar ulushi	16 %	barqaror ish o‘rni yaratuvchi segment cheklangan
Mikro-, kichik va o‘rta biznesning kredit talabi	13 mlrd dollar	potensial ish o‘rinlarining moliyaviy o‘lchovi
Ta’minlanmagan kredit tanqisligi	6 mlrd dollar	yaratilmay qolayotgan ish o‘rinlari zaxirasi
Bank hisobvarag‘iga ega bo‘lmagan korxonalar	1/3 dan ortiq	rasmiy sektorga integratsiyaning pastligi
Ayollarga tegishli korxonalar ulushi	≈33 %	ayollar bandligining asosiy manbai
Ayollarga ajratilgan kreditlar ulushi	14 %	gender kesimidagi moliyaviy tanqislik

*Manba: Jahon banki ma’lumotlari [14] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Keltirilgan ko‘rsatkichlar moliyalashtirish siyosatining asosiy zaxirasini aniqlaydi: mablag‘ hajmini yanada oshirishdan ko‘ra, mavjud resursning qamrovini kengaytirish — ayniqsa garov ta’minotiga ega bo‘lmagan kichik va yosh korxonalar hamda ayollar tadbirkorligini qamrab olish — bandlik bo‘yicha kattaroq qaytim beradi. Bu xulosa kredit ratsionlashtirish nazariyasining amaliy tasdig‘i hisoblanadi [5].

5. Mehnat bozori ko‘rsatkichlarining dinamikasi. Moliyalashtirish dasturlarining kengayishi mehnat bozorida ijobiy siljish bilan bir vaqtga to‘g‘ri keldi. Ishsizlik darajasi 2023-yildagi 8,1 % dan 2025-yilning uchinchi choragida 4,9 % gacha pasaydi — bu 2013-yildan buyon qayd etilgan eng past ko‘rsatkichdir (3-diagramma) [15; 16]. Ayni paytda bandlik tarkibi jiddiy muammoni saqlab qolmoqda: band aholining atigi 55 % i rasmiy sektorda faoliyat yuritadi, 33 % i norasmiy bandlikka, 12 % i esa mehnat migratsiyasiga to‘g‘ri keladi (3-jadval,

4-diagramma) [16].

3-diagramma.

O‘zbekistonda ishsizlik darajasining dinamikasi, %.*



*Manba: [15; 16]

3-jadval.

Mehnat bozorining asosiy ko‘rsatkichlari, 2025-yil III chorak*

Ko‘rsatkich	Qiymati	Izoh
Mehnat resurslari	20,35 mln kishi	–
Iqtisodiy faol aholi	15,57 mln kishi	mehnat resurslarining 76,5 % i
Band aholi	14,81 mln kishi	shundan 55 % i rasmiy sektorda
Norasmiy bandlik	4,8 mln kishi	band aholining 33 % i
Chet elda mehnat faoliyati	1,8 mln kishi	band aholining 12 % i
Ishsizlar	≈760 ming kishi	–
Ishsizlik darajasi	4,9 %	2024-yildagi 5,5 % ga nisbatan

*Manba: Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma’lumotlari [16] asosida tuzilgan.

4-diagramma.

Band aholining tarkibi, 2025-yil, %.*



*Manba: [16]

6. Moliyalashtirish mexanizmlari va ularning bandlikka ta’siri. Amaldagi

moliyalashtirish tizimi bir necha darajadan iborat bo‘lib, oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes hamda aholining daromad manbalarini kengaytirishga qaratilgan moliyaviy mexanizmlarni o‘z ichiga oladi (4-jadval). Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 750 ming nafar fuqaro kredit majburiyatlarini o‘z vaqtida bajargan bo‘lib, ularning 58 mingtasi keyinchalik qo‘shimcha korxona tashkil etgan. Mazkur yo‘nalishni yanada kengaytirish maqsadida to‘qqizta davlat banki tomonidan 1 mlrd AQSh dollari miqdorida moliyaviy resurs jalb etilib, uning hisobidan 250 mingta yangi daromad manbaini yaratish belgilangan [17]. Shu bilan birga, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash doirasida 300 mln so‘mgacha shartsiz kreditlar hamda 100 mln so‘mgacha garovsiz mikrokreditlar ajratish amaliyotining joriy etilishi tadbirkorlarning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Bank tizimi orqali kichik tadbirkorlikni moliyalashtirishni rag‘batlantirish maqsadida Markaziy bank tomonidan 2025-yil 1-iyundan boshlab mazkur segmentga ajratiladigan kreditlar uchun 75 foizlik risk vazni belgilandi. Bu esa tijorat banklarining kapitalga qo‘yiladigan talablarini nisbatan yengillashtirib, kichik biznesni kreditlash hajmini oshirish uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratdi [18]. Bundan tashqari, 2025-yilgi dastur doirasida tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun jami 120 trln so‘m yo‘naltirilishi, shundan 5 trln so‘m yoshlar va ayollar tadbirkorligi loyihalarini moliyalashtirishga ajratilishi belgilangan. Ayol tadbirkorlar uchun kredit stavkalarining umumiy shartlarga nisbatan 2 foiz punktga past belgilanishi esa ularning biznes tashabbuslarini rag‘batlantirish va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi [19].

4-jadval.

Biznes subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlari va ularning bandlik bo‘yicha natijalari*

Mexanizm	Moliyaviy parametri	Bandlik bo‘yicha natija / maqsad
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari	imtiyozli kreditlar; yagona elektron platforma	750 ming qarz oluvchi; 58 ming yangi korxona [17]
To‘qqizta davlat bankining dasturi	1 mlrd AQSh dollari resurs	250 ming doimiy daromad manbai (maqsad) [17]
Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash	300 mln so‘mgacha shartsiz kredit	mikro darajadagi o‘z-o‘zini bandlik
Garovsiz mikrokreditlash	100 mln so‘mgacha	past kapital talab qiluvchi ish o‘rinlari
Yoshlar va ayollar tadbirkorligi	5 trln so‘m; stavka 2 % punktga past	ijtimoiy zaif guruhlar bandligi [19]
Prudensial rag‘batlantirish	75 % risk vazni (2025-yil 1-iyundan)	kreditlash ko‘lamining kengayishi [18]

*Manba: [17]; [18]; [19] ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

7. Xorij tajribasi. Kichik biznesni moliyalashtirish orqali bandlikni ta’minlash amaliyoti ko‘plab mamlakatlarda institutsional shaklga keltirilgan. Jahon bankining 74 ta mamlakatdagi 108 ta kafolat instituti bo‘yicha tadqiqotiga ko‘ra, kafolatlar hajmi o‘rtacha yalpi ichki mahsulotning 2 % ini tashkil etadi va kichik biznes kreditlarining qariyb 11 % ini qamrab oladi; Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida bu ko‘rsatkich 5 % dan yuqori [20]. Tadqiqot muhim ogohlantirish ham beradi: kafolat faqat bank aks holda rad etadigan qarz oluvchini qamrab olgandagina qo‘shimcha iqtisodiy faollik va yangi ish o‘rni yaratadi; aks holda u shunchaki riskni davlat zimmasiga o‘tkazadi [20; 21]. Asosiy modellar 5-jadvalda umumlashtirilgan.

5-jadval.

Biznes subyektlarini moliyalashtirishning xorij modellari*

Model / mamlakat	Mohiyati	Bandlik bo‘yicha ahamiyati
Kredit kafolati jamg‘armalari (Koreya Respublikasi, Yaponiya)	davlat jamg‘armasi kredit bo‘yicha riskning bir qismini o‘z zimmasiga oladi	garovga ega bo‘lmagan yosh korxonalarni qamrab oladi; ular yangi ish o‘rinlarining asosiy manbai
Taraqqiyot banki modeli (Germaniya)	markazlashtirilgan institut tijorat banklari orqali imtiyozli resurs uzatadi	moliyalashtirish qamrovini kengaytiradi, tarmoq ustuvorligini boshqaradi
Grant va subsidiya dasturlari (Turkiya)	boshlang‘ich kapital va ko‘nikma o‘qitish birga taqdim etiladi	ish o‘rnining barqarorligini oshiradi
Mikromoliyalashtirish (Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo)	guruhiy javobgarlik asosida kichik summali kreditlar	o‘z-o‘zini bandlikni kengaytiradi; daromadga ta’siri chegaralangan [8]
Natijaga bog‘langan moliyalashtirish (OECD amaliyoti)	imtiyoz darajasi yaratilgan ish o‘rni ko‘rsatkichiga bog‘lanadi	moliyaviy resursni bandlik natijasiga yo‘naltiradi [21]

*Manba: [8]; [20]; [21] tahlili asosida muallif tomonidan umumlashtirilgan.

8. Aniqlangan muammolar va yechim yo‘nalishlari. O‘tkazilgan tahlil asosida moliyalashtirish tizimining bandlik bo‘yicha samaradorligini cheklovchi beshta asosiy muammo aniqlandi. Ular va tegishli yechim yo‘nalishlari 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval

Moliyalashtirish tizimining bandlik bo‘yicha muammolari va yechim yo‘nalishlari*

Muammo	Namoyon bo‘lishi	Yechim yo‘nalishi
Natijani o‘lchash tizimining yo‘qligi	hisobot mablag‘ hajmi bo‘yicha yuritiladi, ish o‘rni bo‘yicha emas	yagona reyestr va to‘rtta natijaviy indikatorni joriy etish
Garov ta’minoti talabi	kichik korxonalarning 10 % igina kredit oladi	kredit kafolati jamg‘armasi mexanizmini kengaytirish
Norasmiy bandlikning yuqoriligi	band aholining 33 % i norasmiy sektorda	imtiyoz darajasini rasmiy ish o‘rni soniga bog‘lash
Gender nomutanosibligi	ayollarga kreditlarning 14 % i to‘g‘ri keladi	ayollar tadbirkorligiga maqsadli kvota va past stavka
Kredit portfelining tarmoq nomutanosibligi	savdo sohasi ustunligi, sanoat ulushining pastligi	ishlab chiqarish loyihalariga ustuvor moliyalashtirish

*Manba: muallif tahlili asosida ishlab chiqilgan.

Muhokama

Keltirilgan ma’lumotlar bir necha xulosaga olib keladi. Birinchidan, moliyalashtirish hajmi bilan bandlik darajasi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik kuzatiladi: kreditlash hajmining 2025-yilda 42 % ga oshishi [12] ishsizlik darajasining tarixiy eng past ko‘rsatkichga tushishi [16] bilan bir vaqtga to‘g‘ri keldi. Biroq bu bog‘liqlikni bevosita sabab-oqibat sifatida talqin qilish noto‘g‘ri: ishsizlikning pasayishiga makroiqtisodiy o‘sish, demografik omillar va mehnat migratsiyasi ham ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, asosiy muammo mablag‘ yetishmasligida emas, balki uning taqsimlanishi va natijasini o‘lchash tizimining yo‘qligidadir. Kredit hajmi jadal o‘sayotgan bir paytda kichik korxonalarning atigi 10 % i kredit olishi [14] resursning tor doirada aylanayotganini ko‘rsatadi. Norasmiy bandlikning 33 % darajasida saqlanib qolayotgani esa ajratilgan mablag‘ hisobiga

yaratilgan ish o‘rinlarining sezilarli qismi rasmiylashtirilmayotganini bilvosita tasdiqlaydi.

Uchinchidan, xalqaro tajriba moliyalashtirish siyosatining samaradorligi qo‘shimchalilik (additionality) prinsipiga bog‘liqligini ko‘rsatadi: bank aks holda ham beradigan kreditni kafolatlash yangi ish o‘rni yaratmaydi, u faqat riskni davlat zimmasiga o‘tkazadi [20]. Shu bois O‘zbekistonda joriy etilayotgan imtiyozli kreditlash dasturlarini baholashda “qancha mablag‘ ajratildi” emas, “bank o‘z-o‘zidan moliyalashtirmaydigan qancha loyiha moliyalashtirildi” savoli asosiy mezon bo‘lishi lozim.

Shu sababli moliyalashtirish siyosatini to‘rtta o‘lchanadigan indikatorga bog‘lash maqsadga muvofiq: (a) 100 mln so‘m kredit hisobiga yaratilgan rasmiy ish o‘rinlari soni; (b) yaratilgan ish o‘rinlarining 12 oydan keyingi saqlanib qolish darajasi; (c) qarz oluvchilarning soliq va ijtimoiy sug‘urta tizimida ro‘yxatdan o‘tish ulushi; (d) ayollar va yoshlar ulushi. Ushbu indikatorlar banklarni resurs taqsimlashda emas, natijaga erishishda manfaatdor qiladi. Tadqiqotning cheklovi shundaki, tahlil jamlangan (agregat) ko‘rsatkichlarga tayanadi; kredit oluvchilar bo‘yicha mikrodarajadagi ma’lumotlar bazasi shakllantirilmagani sababli ekonometrik baholash imkoni cheklangan. Kelgusi tadqiqotlarda korxona darajasidagi panel ma’lumotlar asosida kredit va ish o‘rni o‘rtasidagi elastiklikni baholash maqsadga muvofiq.

Xulosa

1. Kichik tadbirkorlik subyektlari yalpi ichki mahsulotning 54,3 % ini, chakana savdo aylanmasining 84,0 % ini va qurilish ishlarining 76,5 % ini ta’minlab, aholi bandligini kengaytirishning asosiy resursi hisoblanadi; Jahon banki baholariga ko‘ra ushbu sektor umumiy bandlikning 75 % ini qamrab oladi.

2. Sektorning hajmi 2022–2025-yillarda 83,0 trln so‘mdan 163,6 trln so‘mga, unga ajratilgan kreditlar hajmi esa 2025-yilda 131,2 trln so‘mga (+42 %) yetgan; shu davrda ishsizlik darajasi 8,1 % dan 4,9 % gacha pasaygan, bu moliyalashtirish va bandlik o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

3. Kreditlash hajmining o‘sishiga qaramay, kichik korxonalarning atigi 10 % i va o‘rta korxonalarning 16 % i moliyalashtirishdan foydalanadi; 13 mlrd dollarlik talabga qarshi 6 mlrd dollarlik tanqislik saqlanmoqda. Demak, siyosatning asosiy zaxirasi hajmni oshirishda emas, qamrovni kengaytirishdadir.

4. Bandlik tarkibidagi asosiy muammo — norasmiy sektorning 33 % ni tashkil etishi; shu bois moliyalashtirish siyosatining maqsadi ish o‘rinlari sonini emas, ularning rasmiylashtirilgan va barqaror qismini oshirishga qaratilishi lozim.

5. Xorij tajribasi kredit kafolati jamg‘armalari, taraqqiyot banki modeli va natijaga bog‘langan moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligini ko‘rsatadi; ularning asosiy sharti — qo‘shimchalilik prinsipi, ya’ni bank mustaqil ravishda moliyalashtirmaydigan loyihalarni qamrab olishdir.

6. Kredit resurslarini taqsimlashda taklif etilgan to‘rtta indikator (kredit birligiga to‘g‘ri keladigan rasmiy ish o‘rni, 12 oylik saqlanish darajasi, ro‘yxatdan o‘tish ulushi, ayollar va yoshlar ulushi) asosida natijaga yo‘naltirilgan kreditlash mexanizmini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qarori “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-6609110

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi PQ-39-son qarori “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-6374137

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-apreldagi PQ-149-son qarori

“Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-6862227

4. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1934. – 255 p.

5. Stiglitz J.E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // The American Economic Review. – 1981. – Vol. 71, № 3. – P. 393–410.

6. Beck T., Demirgüç-Kunt A. Small and medium-size enterprises: Access to finance as a growth constraint // Journal of Banking & Finance. – 2006. – Vol. 30, № 11. – P. 2931–2943.

7. Ayyagari M., Demirgüç-Kunt A., Maksimovic V. Small vs. Young Firms across the World: Contribution to Employment, Job Creation, and Growth. – World Bank Policy Research Working Paper № 5631. – Washington, 2011. – 51 p.

8. Banerjee A., Duflo E., Glennerster R., Kinnan C. The Miracle of Microfinance? Evidence from a Randomized Evaluation // American Economic Journal: Applied Economics. – 2015. – Vol. 7, № 1. – P. 22–53.

9. Key Indicators of Small Entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan for 2024. – INVEXI, 2025. – URL: https://invexi.org/press/key-indicators-of-small-entrepreneurship-in-the-republic-of-uzbekistan-for-2024/

10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Kichik tadbirkorlik: matbuot relizi. – Toshkent, 2026. – URL: https://stat.uz/img/press-relizlar/kb_uz-12-shriftoxirgi_p77842.pdf

11. Small Business in Uzbekistan Accounts for Over Half of GDP in 2025 // UzDaily. – 2025. – URL: https://www.uzdaily.uz/en/small-business-in-uzbekistan-accounts-for-over-half-of-gdp-in-2025/

12. SME Lending in Uzbekistan Increased by 42 % in 2025 // UzDaily. – 2026. – URL: https://www.uzdaily.uz/en/sme-lending-in-uzbekistan-increased-by-42-in-2025/

13. The microfinance market in Uzbekistan has almost doubled, reaching 66.9 trillion soums // Frank.uz. – 2025. – URL: https://frank.uz/en/news-en/the-microfinance-market-in-uzbekistan-has-almost-doubled-reaching-66-9-trillion-soums/

14. Improved Access to Finance to Help 7,000 Businesses in Uzbekistan Grow and Create Jobs: press release. – Washington: World Bank, 2025. – URL: https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2025/12/15/improved-access-to-finance-to-help-7000-businesses-in-uzbekistan-grow-and-create-jobs

15. O‘zbekistonda 2025-yil birinchi yarmida ishsizlik darajasi 5,1 foizgacha pasaydi // Gazeta.uz. – 2025-yil 18-avgust. – URL: https://www.gazeta.uz/oz/2025/08/18/ishsizlik/

16. O‘zbekistonda ishsizlik darajasi 5 % dan pasaydi // Spot.uz. – 2025-yil 13-noyabr. – URL: https://www.spot.uz/oz/2025/11/13/unemployment/

17. State banks to secure $1 billion in loans for family entrepreneurship in Uzbekistan // Gazeta.uz. – 2024-yil 17-dekabr. – URL: https://www.gazeta.uz/en/2024/12/17/small-business/

18. Markaziy bank 1-iyundan banklar uchun kichik biznesni kreditlash bo‘yicha talablarni soddalashtiradi // Spot.uz. – 2025-yil 24-aprel. – URL: https://www.spot.uz/oz/2025/04/24/small-business

19. Yoshlar va ayol tadbirkorlar loyihalariga 5 trln so‘m yo‘naltiriladi // Spot.uz. – 2025-yil 19-mart. – URL: https://www.spot.uz/oz/2025/03/19/sme-goals

20. Credit guarantee schemes for SMEs: what a global survey reveals — and what it means for the jobs agenda. – Washington: World Bank Blogs, 2025. – URL: https://blogs.worldbank.org/en/psd/credit-guarantee-schemes-for-smes-what-global-survey-reveals-mea

21. Financing SMEs and Entrepreneurs 2026: An OECD Scoreboard. – Paris: OECD Publishing, 2026. – URL: https://www.oecd.org/en/publications/financing-smes-and-entrepreneurs-2026_075d8058-en.html

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ К ОЦЕНКЕ КРЕДИТОСПОСОБНОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Назарова Дияра
Эксперт по трансформации финансовой отчетности в соответствии с Международными стандартами финансовой отчетности (МСФО) в АКБ «Хамкорбанк»
e-mail: diyora.nazarova.95@mail.ru

Аннотация: *В статье рассматриваются особенности цифровизации кредитных процессов в коммерческих банках Республики Узбекистан на примере АКБ «Kapitalbank». Основное внимание уделено применению автоматизированных систем* ***Scoring*** *и* ***Underwriting****, обеспечивающих цифровую оценку платежеспособности заемщиков и кредитных рисков. Проанализирована роль статистических моделей, автоматизированной обработки финансовых и поведенческих данных при принятии кредитных решений. На основе анализа финансовых показателей АКБ «Kapitalbank» за 2024–2025 гг. выявлена положительная динамика кредитного портфеля, активов и чистой прибыли банка. Отмечается, что развитие цифровых инструментов способствует повышению оперативности обработки кредитных заявок, стандартизации оценки заемщиков и совершенствованию управления кредитными рисками. Сделан вывод о перспективности дальнейшего развития цифровых технологий в кредитовании как одного из ключевых направлений повышения эффективности банковской деятельности в Узбекистане.*

Ключевые слова: *цифровая трансформация, банковские технологии, автоматизация кредитования, скоринговые модели, автоматизированный андеррайтинг, кредитоспособность заемщика, управление кредитными рисками, финансовые показатели банка.*

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDITGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHGA RAQAMLI YONDASHUVLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Nazarova Diyara
“Hamkorbank” ATBda
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) bo‘yicha hisobotlarni transformatsiya qilish eksperti
e-mail: diyora.nazarova.95@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada O’zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kredit jarayonlarini raqamlashtirishning o’ziga xos xususiyatlari “Kapitalbank” ATB misolida ko’rib chiqilgan. Qarz oluvchilarning to’lov qobiliyati va kredit risklarini raqamli baholashni ta’minlovchi avtomatlashtirilgan Scoring va Underwriting tizimlaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilgan. Kredit qarorlarini qabul qilishda statistik modellar, moliyaviy va xulq-atvor ma’lumotlarini avtomatlashtirilgan qayta ishlashning roli tahlil qilingan. “Kapitalbank” ATBning 2024–2025-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlili asosida bank kredit portfeli, aktivlari va sof foydasining ijobiy dinamikasi aniqlangan. Raqamli vositalarni rivojlantirish kredit arizalarini ko‘rib chiqish samaradorligini oshirish, qarz oluvchilarni baholashni standartlashtirish hamda kredit risklarini boshqarishni takomillashtirishga xizmat qilishi ta’kidlangan. O’zbekistonda bank faoliyati samaradorligini oshirishning muhim yo’nalishlaridan biri sifatida kreditlashda raqamli texnologiyalarni yanada rivojlantirish istiqbolli ekani haqida xulosa qilingan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli transformatsiya, bank texnologiyalari, kreditlashni avtomatlashtirish, skoring modellari, avtomatlashtirilgan anderrayting, qarz oluvchining kreditga layoqatliligi, kredit risklarini boshqarish, bankning moliyaviy ko‘rsatkichlari.*

IMPROVING DIGITAL APPROACHES TO ASSESSING THE CREDITWORTHINESS OF BUSINESS ENTITIES IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Nazarova Diyara
Expert in Financial Reporting Transformation under International Financial Reporting Standards (IFRS) at Hamkorbank JSCB
e-mail: diyora.nazarova.95@mail.ru

Abstract: *The article examines the specifics of digitalization of credit processes in commercial banks of the Republic of Uzbekistan using “Kapitalbank” JSCB as an example. Particular attention is paid to the application of automated Scoring and Underwriting systems that enable digital assessment of borrowers’ solvency and credit risks. The role of statistical models and automated processing of financial and behavioral data in making credit decisions is analyzed. Based on an analysis of the financial indicators of “Kapitalbank” JSCB for 2024–2025, positive dynamics in the bank’s loan portfolio, assets, and net profit are identified. It is noted that the development of digital tools contributes to increasing the efficiency of processing credit applications, standardizing borrower assessment, and improving credit risk management. The article concludes that further development of digital technologies in lending is promising as one of the key areas for increasing the efficiency of banking activities in Uzbekistan.*

Keywords: *digital transformation, banking technologies, automated lending, scoring models, automated underwriting, borrower creditworthiness, credit risk management, bank financial indicators.*

Введение

В современных условиях цифровой трансформации экономики и активного развития финансовых технологий особую актуальность приобретает совершенствование механизмов оценки кредитоспособности хозяйствующих субъектов в коммерческих банках. Рост объемов кредитования, расширение деятельности субъектов предпринимательства, а также увеличение уровня кредитных рисков требуют внедрения современных цифровых инструментов анализа и прогнозирования финансового состояния заемщиков.

В мировой банковской практике традиционные методы оценки кредитоспособности, основанные преимущественно на анализе финансовой отчетности, показателей ликвидности, платежеспособности и обеспеченности залогом, постепенно утрачивают эффективность в условиях высокой динамичности рынка и цифровизации финансовых услуг. Современные коммерческие банки все чаще используют технологии искусственного интеллекта, Big Data, Machine Learning, цифрового скоринга, позволяющие повысить точность оценки кредитных рисков, минимизировать вероятность дефолта заемщиков и ускорить процесс принятия кредитных решений.

В Республике Узбекистан в последние годы осуществляется масштабная модернизация банковской системы, направленная на развитие цифрового банкинга, повышение устойчивости коммерческих банков и совершенствование механизмов риск-менеджмента. В рамках проводимых реформ особое внимание уделяется вопросам автоматизации кредитных процессов, внедрения современных информационных систем и повышения качества оценки кредитоспособности хозяйствующих субъектов. В результате по состоянию на 1 января 2025 года в Государственном реестре кредитной информации было около 7,5 млн. действующих кредитных договоров, что на 33,6% больше, чем годом

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ранее, количество заемщиков достигло около 5 млн., увеличившись на 20% [1].

В этих условиях возникает объективная необходимость разработки и внедрения современной цифровой системы оценки кредитоспособности хозяйствующих субъектов, адаптированной к особенностям банковской системы Республики Узбекистан и основанной на использовании инновационных технологий анализа данных. Совершенствование цифровых механизмов оценки кредитоспособности позволит на только увеличить объем кредитования, но и способствует повышению качества кредитного портфеля коммерческих банков, снижению уровня проблемных кредитов и обеспечения устойчивости банковского сектора в условиях цифровой экономики.

Обзор литературы

Вопросы оценки кредитоспособности заемщиков и управления кредитным риском занимают центральное место в исследованиях банковской деятельности, поскольку качество принимаемых кредитных решений непосредственно влияет на уровень просроченной задолженности, финансовую устойчивость и эффективность банков. Эволюция научных подходов к оценке кредитоспособности прошла путь от традиционного экспертного анализа и использования финансовых коэффициентов к статистическим моделям, кредитному скорингу, а в последние годы — к применению технологий больших данных, машинного обучения и искусственного интеллекта.

Одним из фундаментальных направлений развития количественной оценки кредитного риска стало применение статистических моделей. Классические исследования E. Altman заложили основу использования финансовых показателей для прогнозирования финансовых затруднений и вероятности дефолта заемщика [2]. В дальнейшем формализованные статистические методы классификации получили широкое распространение в кредитном скоринге. D. Hand и W. Henley систематизировали основные статистические методы классификации заемщиков и показали значение формализованного подхода для разделения заемщиков на группы с различным уровнем риска [3].

Важное направление современных исследований связано с применением искусственного интеллекта и больших данных. Использование транзакционной информации, поведенческих характеристик и других альтернативных источников данных позволяет расширить информационную базу оценки кредитоспособности. Это особенно актуально для заемщиков, имеющих ограниченную традиционную кредитную историю. Однако применение альтернативных данных одновременно создает риски нарушения конфиденциальности, алгоритмической предвзятости и дискриминации.

Исследования 2024–2026 гг. демонстрируют дальнейший переход от простого сравнения точности моделей к комплексной оценке их точности, стабильности, объяснимости и возможности практического внедрения. Современные обзоры подчеркивают, что логистическая регрессия сохраняет важное значение в регулируемой банковской среде благодаря прозрачности, тогда как Random Forest, gradient boosting, нейронные сети и гибридные модели обладают значительным потенциалом повышения прогнозной способности[4].

Вместе с тем остается недостаточно изученным вопрос количественной оценки непосредственного влияния цифровизации оценки кредитоспособности на качество кредитного портфеля. Большинство исследований сосредоточено на сравнении прогнозной эффективности отдельных алгоритмов, тогда как взаимосвязь между уровнем внедрения цифровых технологий в кредитный анализ и динамикой проблемных кредитов требует дальнейшего эмпирического изучения. Особенно актуальным это является для развивающихся банковских систем, включая Узбекистан, где цифровизация банковских услуг активно развивается.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Методы

В процессе исследования использовался комплекс общенаучных и специальных методов, такие как метод синтеза, сравнения, статистического анализа, системного подхода и обобщения, позволяющих всесторонне изучить современные подходы к цифровой оценке кредитоспособности хозяйствующих субъектов в коммерческих банках Республики Узбекистан.

В качестве источников данных использовались официальные отчеты ЦБ Республики Узбекистан, включая показатели объема кредитования, доли проблемных кредитов – NPL, количество заёмщиков, а также внутренние обзоры коммерческих банков.

Анализ и результаты

В последние годы коммерческие банки Республики Узбекистан активно внедряют цифровые системы оценки кредитоспособности заемщиков. В частности, AI-based scoring внедряется в деятельности Xalq Bank совместно с Mastercard, скоринговые технологии используются Kapitalbank, а Кредитно-информационный аналитический центр реализовал механизм альтернативного скоринга на основе анализа транзакционных и поведенческих данных заемщиков. Кроме того, в банковском секторе страны расширяется применение AI-платформ, Big Data и систем прогнозирования кредитных рисков.

Одним из наиболее активных коммерческих банков Республики Узбекистан в области цифровизации кредитных процессов является Kapitalbank. Банк внедрил автоматизированную систему «Scoring» и «Underwriting», предназначенную для цифровой оценки платежеспособности и кредитных рисков заемщиков. Скоринговая система банка основана на использовании статистических моделей и автоматизированной обработки данных клиента. В процессе анализа система формирует рейтинговую оценку заемщика на основе совокупности финансовых и поведенческих параметров. По результатам цифровой оценки принимается решение о выдаче либо отказе в предоставлении кредита.

Этап		Показатель процесса
1	**Сбор данных** Сбор информации о клиенте из внутренних и внешних источников (анкеты, финансовые отчеты, бюро кредитных историй, транзакционные данные и др.).	1
2	**Автоматизированная обработка** Автоматическая проверка и обработка данных, их валидация, нормализация и подготовка к анализу.	2
3	**Скоринг** Расчет скорингового балла на основе статистических моделей, характеризующих уровень кредитного риска заемщика.	3
4	**Формирование рейтинга** Присвоение клиенту рейтинговой оценки (класс риска) в соответствии со шкалой банка.	4
5	**Андеррайтинг** Дополнительная проверка и анализ факторов риска специалистом (в случае необходимости).	5
6	**Кредитное решение** Принятие финального решения о выдаче кредита, установление условий либо отказ.	6

Рисунок 1.
Этапы цифрового процесса оценки кредитоспособности заемщика в системе «Kapitalbank»

Источник: Разработка автора на основе данных полученных с официального сайта «Капиталбанк»[5]

В отличие от традиционного ручного анализа, цифровая система Kapitalbank позволяет:

- существенно сократить время рассмотрения кредитных заявок;
- минимизировать влияние человеческого фактора;
- повысить объективность кредитных решений;
- автоматизировать процессы андеррайтинга;
- улучшить качество управления кредитными рисками [6].

Согласно официальным данным банка, ранее процесс анализа заемщика мог занимать несколько дней, тогда как после внедрения цифрового скоринга решение принимается в течение 5–10 минут после автоматической обработки информации.

Таблица 1

Анализ финансовых показателей ЧКБ «Kapitalbank»

Показатель	2024год	2025год	Рост
Кредитный портфель	31,6 трлн. сум	36,7 трлн. Сум	16,3%
Совокупные активы	47,1 трлн. сум	57,1 трлн. Сум	21,3%
Чистая прибыль	1,8 трлн. сум	1,9 трлн. Сум	7,2%

Источник: Составлено автором на основе публичной отчетности ЧКБ «Kapitalbank», включая пресс-релизы и финансовые результаты за 2024–2025 годы [7].

Для оценки качества кредитного портфеля и эффективности управления кредитными рисками целесообразно сопоставить динамику общего объема кредитования с изменением объема проблемных кредитов (NPL).

Таблица 2

Динамика кредитного портфеля и проблемных кредитов АКБ «Kapitalbank» за 2021–2025 гг

Показатель	2021	2022	2023	2024	2025
Кредитный портфель, млрд сум	8 030	15 408	26 586	31 584	35 381
Проблемные кредиты (NPL), млрд сум	235	181	375	1 437	1 747
Доля NPL в кредитном портфеле, %	2,9	1,2	1,4	4,5	4,9

Источник: составлено автором на основе данных Центрального банка Республики Узбекистан и публичной финансовой отчетности АКБ «Kapitalbank» за 2024–2025 годы [8].

Анализ представленных данных показывает значительное расширение масштабов кредитной деятельности АКБ «Kapitalbank». За рассматриваемый период объем кредитного портфеля увеличился с 8,03 трлн сумов в 2021 году до 35,38 трлн сумов в 2025 году, то есть более чем в четыре раза.

Наиболее существенное изменение наблюдалось в 2024 году. Несмотря на дальнейший рост кредитного портфеля до 31,58 трлн сумов, объем проблемных кредитов увеличился до 1,44 трлн сумов, а их доля достигла 4,5%. В 2025 году кредитный портфель

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

продолжил увеличиваться и достиг 35,38 трлн сумов, одновременно объем NPL вырос до 1,75 трлн сумов, а их доля — до 4,9%.

Таким образом, увеличение объемов кредитования сопровождается ростом абсолютного объема проблемных кредитов, особенно в 2024–2025 гг. Данная тенденция свидетельствует о необходимости дальнейшего совершенствования механизмов оценки кредитоспособности заемщиков. В условиях расширения кредитного портфеля применение исключительно традиционных финансовых показателей становится недостаточным, что обусловливает необходимость интеграции финансовой информации с кредитной историей, транзакционными и поведенческими данными, а также развития автоматизированных скоринговых и андеррайтинговых моделей.

Заключение

Проведенное исследование показало, что цифровизация процесса оценки кредитоспособности хозяйствующих субъектов является одним из важных направлений повышения эффективности деятельности коммерческих банков Республики Узбекистан. Использование автоматизированных систем Scoring и Underwriting позволяет сократить время рассмотрения кредитных заявок, повысить объективность принимаемых решений, снизить влияние человеческого фактора и совершенствовать управление кредитными рисками.

Во-первых, анализ современных подходов к оценке кредитоспособности показал, что традиционный финансовый анализ постепенно дополняется цифровыми технологиями, включая скоринговые модели, поведенческий анализ, Big Data и методы искусственного интеллекта. Практика АКБ «Kapitalbank» свидетельствует о результативности автоматизации кредитного процесса, позволяющей значительно ускорить обработку информации о заемщике и принятие кредитного решения.

Во-вторых, анализ деятельности АКБ «Kapitalbank» за 2024–2025 гг. выявил положительную динамику основных финансовых показателей: кредитный портфель увеличился с 31,6 до 36,7 трлн сумов, совокупные активы — с 47,1 до 57,1 трлн сумов, а чистая прибыль — с 1,8 до 1,9 трлн сумов. Данная динамика характеризует расширение масштабов деятельности банка и сохранение его прибыльности. Вместе с тем рост кредитного портфеля требует дальнейшего совершенствования инструментов прогнозирования кредитного риска и качества оценки заемщиков.

В-третьих, выявлено, что дальнейшее совершенствование цифровой оценки кредитоспособности хозяйствующих субъектов целесообразно осуществлять на основе интеграции традиционных финансовых показателей с альтернативными источниками данных, включая транзакционную активность, кредитную историю, налоговую информацию и поведенческие характеристики заемщиков. Перспективным направлением является развитие интеллектуальной скоринговой модели, объединяющей статистические методы, технологии машинного обучения и автоматизированный андеррайтинг. Это позволит повысить точность прогнозирования вероятности дефолта, индивидуализировать условия кредитования и обеспечить более эффективное управление кредитным портфелем коммерческих банков.

Таким образом, совершенствование цифровой системы оценки кредитоспособности хозяйствующих субъектов следует рассматривать как комплексный процесс, направленный не только на ускорение кредитования, но и на повышение качества кредитных решений и устойчивости банковской деятельности. Для коммерческих банков Республики Узбекистан дальнейшее развитие цифрового скоринга, альтернативных данных и интеллектуальных технологий создает возможности для формирования более точной, оперативной и адаптивной системы управления кредитными рисками.

Литература

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

1. Центральный банк Республики Узбекистан. Годовой отчет Центрального банка Республики Узбекистан. – Ташкент, 2024–2025.
2. Altman, E. I. (1968). Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy. The Journal of Finance, 23(4), 589–609.
3. Hand, D. J., & Henley, W. E. (1997). Statistical Classification Methods in Consumer Credit Scoring: a Review. Journal of the Royal Statistical Society: Series A, 160(3), 523–541.
4. An update of research. European Journal of Operational Research, 247(1), 124–136.
5. Kapitalbank. Отчетность и аналитические материалы по кредитной деятельности. – 2024–2025.
6. Международный валютный фонд. Financial Sector Assessment Program: Uzbekistan. – 2023
7. Kapitalbank. Отчетность и аналитические материалы по кредитной деятельности. – 2024–2025
8. Центральный банк Республики Узбекистан. Основные направления денежно-кредитной политики Республики Узбекистан на 2025 год. – Ташкент
9. Банковское дело: учебник / под ред. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2021.
10. Финансовый менеджмент: учебник / под ред. И.А. Бланка. – Киев: Ника-Центр, 2020.
11. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. – Минск: Новое знание, 2021.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O‘ZBEKISTON KAPITAL BOZORIDA SUKUKKA INSTITUTSIONAL INVESTORLARNI JALB ETISH ISTIQBOLLARI

Mirmahmudova Nozima Xusniddinovna

iqtisodchi
Bank-Moliya akademiyasi bitiruvchisi
(Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar bozori yo‘nalishi magistri)
E-mail: nozimamirmahmudova@gmail.com
ORCID: 0009-0006-9170-6480

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston kapital bozorida shakllanayotgan sukuk instrumentiga institutsional investorlarni (pensiya jamg‘armalari, sug‘urta kompaniyalari, investitsiya fondlari) jalb etish istiqbollari tahlil qilinadi. Yangi kapital bozori qonun loyihasi, Toshkent xalqaro moliya markazi va pensiya islohoti imkoniyatlari xalqaro tajriba bilan qiyoslanadi, amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *sukuk, institutsional investorlar, kapital bozori, pensiya jamg‘armasi, sug‘urta kompaniyasi, islom moliyasi, Toshkent xalqaro moliya markazi, Markaziy bank, kapital bozori qonuni, investitsiya.*

ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ИНВЕСТОРОВ В СУКУК НА РЫНКЕ КАПИТАЛА УЗБЕКИСТАНА

Мирмахмудова Нозима Хуснидиновна

экономист
выпускница Банковско-финансовой академии
(магистр по направлению корпоративные финансы и рынок ценных бумаг
E-mail: nozimamirmahmudova@gmail.com
ORCID: 0009-0006-9170-6480

Аннотация. *В статье анализируются перспективы привлечения институциональных инвесторов (пенсионных фондов, страховых компаний, инвестиционных фондов) в формирующийся на рынке капитала Узбекистана инструмент сукук. Сопоставляются новый законопроект о рынке капитала, возможности Ташкентского международного финансового центра и пенсионной реформы с международным опытом, разработаны практические рекомендации.*

Ключевые слова: *сукук, институциональные инвесторы, рынок капитала, пенсионный фонд, страховая компания, исламские финансы, Ташкентский международный финансовый центр, Центральный банк, закон о рынке капитала, инвестиции.*

PROSPECTS FOR ATTRACTING INSTITUTIONAL INVESTORS TO SUKUK IN UZBEKISTAN'S CAPITAL MARKET

Mirmahmudova Nozima Khusniddinovna

Economist
graduate of the Banking and Finance Academy
(Master's in Corporate Finance and Securities Market)
E-mail: nozimamirmahmudova@gmail.com
ORCID: 0009-0006-9170-6480

Abstract. *The article analyzes the prospects for attracting institutional investors (pension funds, insurance companies, investment funds) to the sukuk instrument being formed in Uzbekistan's capital market. The new capital market draft law, the Tashkent International Financial Center, and pension reform opportunities are compared with international experience, and practical recommendations are developed.*

Keywords: *sukuk, institutional investors, capital market, pension fund, insurance company, Islamic finance, Tashkent International Financial Center, Central Bank, capital market law, investment.*

Kirish

O‘zbekiston kapital bozorida so‘nggi bir yil ichida sukuk instrumentini joriy etishga qaratilgan izchil huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. 2026-yil 13-avgustda taqdim etilgan yangi "Kapital bozori to‘g‘risida"gi qonun loyihasida savdo va sheriklik sukuklarining huquqiy tuzilmasi, shuningdek davlat sukuklarini Markaziy bank yoki Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarish imkoniyati nazarda tutilgan [1]. Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA) taqdimotida keltirilgan ma'lumotlarga ko‘ra, 2025-yil yakunlariga ko‘ra global islom moliyasi hajmi 6 trillion AQSh dollariga baholanib, shundan taxminan 1 trillion dollari sukuk ulushiga to‘g‘ri keladi, mintaqadagi yetakchi bozor esa Malayziya (340 milliard dollar) hisoblanadi [1].

Shu bilan bir qatorda, 2026-yil 29-iyundan kuchga kirgan islomiy bank faoliyati to‘g‘risidagi qonun asosida dual bank tizimi va Markaziy bank huzuridagi Islom moliyasi kengashi tashkil etildi, kengash joriy yilda AAOIFI standartlariga tayangan holda taxminan yettita milliy standartni qabul qilishni rejalashtirmoqda [2]. 2026-yil iyul oyida imzolangan Toshkent xalqaro moliya markazi to‘g‘risidagi qonun esa markaz hududida islom banklari, investitsiya va sug‘urta kompaniyalari, pensiya va xedj-fondlari, trastlar hamda kliring tashkilotlari faoliyat yuritishiga ruxsat beradi, bu orqali 2030-yilgacha 20–25 milliard AQSh dollari miqdorida qo‘shimcha investitsiya jalb etish rejalashtirilgan [3]. Shu barcha institutsional islohotlarga qaramay, sukuk kabi yangi instrumentlarning muvaffaqiyati, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ko‘p jihatdan ularni sotib oluvchi, ya'ni institutsional investorlar bazasining mavjudligi va faolligiga bog‘liq. Shu sababli O‘zbekiston kapital bozorida sukukka institutsional investorlarni jalb etish istiqbollarini tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi

Institutsional investorlarning sukuk bozoridagi roli xalqaro adabiyotda keng yoritilgan. Jahon banki tadqiqotchilari K.A. Kusuma va A.C. Silva sukuk bozorlarini rivojlantirishda an'anaviy obligatsiya bozorlari uchun ishlab chiqilgan olti tarkibiy blokdan iborat yondashuvni (rivojlangan pul bozori, samarali birlamchi bozor, keng va diversifikatsiyalangan investorlar bazasi, savdo va hisob-kitob infratuzilmasi, hedjirlash vositalari, ishonchli huquqiy baza) sukuk bozoriga ham qo‘llash mumkinligini asoslab, ular orasida investorlar bazasini alohida ajratib ko‘rsatadilar [4]. N.M. Saad, M.N. Haniff va N. Ali o‘zlarining Procedia Economics and Finance jurnalida chop etilgan tadqiqotida institutsional investorlarning yirik ulushga egaligi sukuk emitentlarining defolt riskini pasaytirishga bevosita ta'sir ko‘rsatishini empirik tahlil orqali isbotlaydilar, bu institutsional nazorat va ovoz berish huquqlarining bozor barqarorligidagi rolini asoslaydi [5].

M. Zulkhibri sukuk bo‘yicha nazariy va empirik tadqiqotlarni umumlashtirar ekan, sukuk bozorining rivojlanishida institutsional investorlar bazasining torligi va bozor likvidligining pastligi asosiy strukturaviy cheklovlardan biri ekanligini ta'kidlaydi [6]. N. Basyariah, H. Kusuma va I. Qizam esa sukuk bozori rivojlanishining makroiqtisodiy barqarorlik va institutsional omillarga bog‘liqligini panel ma'lumotlar asosida tahlil qilib, institutsional sifat ko‘rsatkichlarining bozor hajmiga statistik ahamiyatli ta'sir ko‘rsatishini aniqlaydilar [7].

O‘zbekistonda sukuk va islom kapital bozori mavzusi so‘nggi ikki-uch yilda ilmiy

adabiyotda faol yoritila boshlandi. F.E. Abdumutaliyeva o‘z tadqiqotida yangi "Kapital bozori to‘g‘risida"gi qonun loyihasining islomiy qimmatli qog‘ozlarga bag‘ishlangan alohida bobi mavjudligini ijobiy baholagan holda, unda "sukuk", "mudoraba", "musharaka", "vakala" kabi atamalarning aniq huquqiy ta'rifi berilmaganligini, shuningdek Islom moliyasi standartlari bo‘yicha kengashning tashkiliy-huquqiy maqomi ochiq qolganini asosiy kamchilik sifatida ko‘rsatadi [8]. A. Asadov, I. Turaboev va Md Nor Mohd Zakhirining ISRA International Journal of Islamic Finance jurnalida chop etilgan tadqiqotida O‘zbekistonda Islom kapital bozorini shakllantirishning huquqiy muammolari xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil qilingan bo‘lib, mavjud "Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida"gi qonun sukuk kabi shariatga mos vositalarni to‘liq qamrab olmasligi asosiy institutsional to‘siq sifatida ko‘rsatiladi [9].

S.Z. Abrorov o‘zining "Islom kapital bozori ekotizimini shakllantirish istiqbollari" nomli monografiyasida O‘zbekistonda islomiy moliya va kapital bozorini rivojlantirish faqat yangi moliyaviy mahsulotlarni joriy etish masalasi emasligini, balki normativ-huquqiy baza, regulyatorlar o‘rtasidagi muvofiqlashuv va shariat kuzatuv kengashlari kabi institutsional asosning yaratilishini talab qilishini ta'kidlaydi [10]. Muallif shuningdek, sukuk kabi vositalarning barqaror rivojlanishi shariat kuzatuv kengashlari va xalqaro institutlarning ishonch muhitini ta'minlashdagi o‘rniga bevosita bog‘liqligini qayd etadi [11]. Umuman olganda, mahalliy olimlar asosan islomiy moliyaning huquqiy joriy etilishiga e'tibor qaratgan, institutsional investorlar bazasini shakllantirish masalasi esa nisbatan kam o‘rganilgan bo‘shliq bo‘lib qolmoqda, bu mazkur maqolaning dolzarbligini asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada O‘zbekiston kapital bozorida sukukka institutsional investorlarni jalb etish istiqbollarini o‘rganishda qiyosiy tahlil, statistik tahlil, tizimli yondashuv, ilmiy abstraktlashtirish, analiz va sintez kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotning empirik bazasi sifatida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi va loyiha holatidagi qonunchilik hujjatlari, ILMA prognoz ko‘rsatkichlari, Markaziy bank rasmiy bayonotlari, Pensiya jamg‘armasi statistikasi hamda Malayziya EPF kabi xalqaro institutsional investor tajribasi asos qilib olingan.

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonda sukukka institutsional investorlarni jalb etish salohiyatini uchta yo‘nalish bo‘yicha tahlil qilish maqsadga muvofiq: birinchidan, mavjud institutsional investorlar, ya'ni sug‘urta kompaniyalari va banklar; ikkinchidan, shakllanayotgan yangi institutsional imkoniyatlar, ya'ni pensiya islohoti va Toshkent xalqaro moliya markazi; uchinchidan, xalqaro tajriba asosidagi qiyosiy saboqlar.

Hozirgi holatda O‘zbekistonda institutsional investorlar bazasi juda cheklangan: mustaqil, jamg‘arib boriladigan pensiya fondlari amalda mavjud emas, sug‘urta kompaniyalari mablag‘larining katta qismini bank depozitlariga joylashtiradi, banklar esa IPOlarda faol ishtirok etmaydi [13]. Amaldagi davlat pensiya tizimi solidar tamoyilga asoslangan: ishlayotgan fuqarolar to‘laydigan ijtimoiy soliq yagona Pensiya jamg‘armasiga tushib, shu mablag‘lar hisobidan pensionerlarga to‘lovlar amalga oshiriladi, bu esa tizimda uzoq muddatli institutsional investitsiya salohiyatini shakllantirmaydi [14]. 2026-yil uchun Pensiya jamg‘armasining o‘z daromadlari xarajatlaridan sezilarli past bo‘lib, taqchillikni qoplash uchun respublika byudjetidan qo‘shimcha mablag‘ ajratish talab etilmoqda [14], bu tizimning barqarorligi masalasini ham dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Biroq 2026-yilda muhim o‘zgarish boshlandi: Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi rahbariyati ma'lum qilishicha, 2027-yildan boshlab fuqarolar ixtiyoriy ravishda ishtirok etadigan jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi ishga tushiriladi, unda davlat fuqaro badalining 50 foizigacha qismini qo‘shib berishi, shuningdek xususiy va korporativ pensiya fondlarini joriy etish rejalashtirilgan [14]. Bu Malayziya EPF

modeliga o‘xshash, uzoq muddatli institutsional talab yaratuvchi tizimning O‘zbekistonda birinchi bor shakllanish bosqichi ekanligini anglatadi. Agar bunday jamg‘arma fondlari o‘z aktivlarining bir qismini davlat va korporativ sukuklarga yo‘naltirish huquqiga ega bo‘lsa, bu O‘zbekiston kapital bozorida barqaror va bashorat qilinadigan institutsional talab yaratishning birinchi real mexanizmiga aylanishi mumkin.

Sug‘urta sektorining institutsional salohiyati alohida e'tiborga loyiq. Rivojlangan bozorlarda sug‘urta kompaniyalari uzoq muddatli majburiyatlarini qoplash uchun an'anaviy ravishda uzoq muddatli obligatsiya va sukuklarga sarmoya kiritadi. O‘zbekistonda esa sug‘urta kompaniyalari hozircha bu strategiyani deyarli qo‘llamaydi: investitsiya aktivlarining katta qismi likvidligi yuqori, ammo daromadliligi va muddati jihatidan institutsional maqsadlarga unchalik mos kelmaydigan bank depozitlarida saqlanadi [13]. Bu amaliyot, bir tomondan, mahalliy kapital bozori infratuzilmasining hali yetarli rivojlanmaganligi, ikkinchi tomondan esa uzoq muddatli sukuk kabi vositalarning yetishmasligi bilan izohlanadi. Natijada bu ikki omil bir-birini kuchaytiruvchi "yopiq aylana" hosil qiladi: institutsional talab yo‘qligi sabab yangi vositalar chiqarilmaydi, vositalar yo‘qligi sabab esa institutsional talab shakllanmaydi.

Ushbu "yopiq aylana"ni buzish uchun davlat sukuklarining dastlabki bosqichda katalitik rol o‘ynashi mumkin. Yangi qonun loyihasida nazarda tutilganidek, O‘zbekiston nomidan davlat sukuklarini Markaziy bank yoki Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ chiqarishi mumkin bo‘ladi [1]. Xalqaro tajribada davlat sukuklari odatda birinchi bo‘lib institutsional investorlar tomonidan sinovdan o‘tkaziladi, chunki ular past risk darajasiga ega. Agar birinchi davlat sukuk emissiyasi banklar va sug‘urta kompaniyalari uchun qulay shartlarda (masalan, majburiy zaxira normativlarida imtiyoz berish orqali) taklif etilsa, bu keyinchalik korporativ sukuklarga institutsional talabni shakllantirish uchun sinov maydoni vazifasini o‘tashi mumkin.

1-jadval.

O‘zbekistonda sukukka institutsional investorlarni jalb etishning joriy va istiqbolli omillari*

Institutsional omil	Joriy holat	Istiqbol / imkoniyat
Pensiya tizimi	Faqat solidar (davlat) tizimi, mustaqil jamg‘arma yo‘q [14]	2027-yildan jamg‘arib boriladigan tizim, davlat 50% hissasi [14]
Sug‘urta kompaniyalari	Mablag‘lar asosan depozitlarda [13]	TXMM orqali institutsional investor sifatida faollashuvi mumkin [3]
Huquqiy baza	Sukuk atamalari to‘liq ta'riflanmagan [8]	Yangi kapital bozori qonuni: savdo va sheriklik sukuklari [1]
Shariat boshqaruvi	Markaziy bank Islom moliyasi kengashi endi tashkil etilmoqda[2]	~7 ta milliy standart AAOIFIga asoslanib ishlab chiqilmoqda [2]
Xorijiy investorlar	Amalda ishtiroki minimal	TXMM orqali 2030-yilga 20–25 mlrd $ jalb etish rejasi [3]

*Manba: [1; 2; 3; 8; 13; 14] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Xalqaro tajriba, xususan Malayziyaning Kumpulan Wang Simpanan Pekerja (EPF) pensiya fondi misoli, O‘zbekiston uchun muhim qiyosiy saboq beradi. EPF 16 milliondan ortiq a'zosi va 1,2 trillion ringgitdan ortiq aktivi bilan aktivlarining qariyb 40 foizini shariatga mos vositalarga, jumladan sukukka yo‘naltiradi va 2024-yilda shariat hisobvarag‘i bo‘yicha 10,19 milliard ringgit daromad e'lon qildi [12]. Bu tajriba shuni ko‘rsatadiki, institutsional investorning sukuk bozoriga jalb etilishi uchta asosiy shartga bog‘liq: birinchidan, shariatga mos investitsiya vositalarining alohida hisobvaraq sifatida institutsionallashuvi; ikkinchidan, ichki bozorga investitsiya yo‘naltirishni rag‘batlantiruvchi me'yorlarning belgilanishi; uchinchidan, sukuk muddatlarining institutsional investorning uzoq muddatli majburiyatlariga (pensiya to‘lovlari,

sug‘urta zaxiralari) mos kelishi. O‘zbekistonda rejalashtirilayotgan ixtiyoriy pensiya tizimi va davlat hissasi mexanizmi aynan shu birinchi shartni, ya'ni institutsionallashuvni, ta'minlashga xizmat qilishi mumkin, biroq bu mexanizmning kapital bozori, xususan sukuk instrumentlari bilan bog‘lanishi hali qonunchilikda aniq belgilanmagan.

1-rasm.

Malayziya EPF shariat hisobvarag‘i bo‘yicha daromad dinamikasi (mlrd ringgit)*



*Manba: [12] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Sug‘urta kompaniyalari bo‘yicha ham shunga o‘xshash imkoniyat mavjud: Toshkent xalqaro moliya markazi to‘g‘risidagi qonunga ko‘ra, markaz hududida faoliyat yurituvchi sug‘urta va investitsiya kompaniyalari alohida huquqiy rejim asosida ishlaydi, bu ularga kapital bozori vositalariga, jumladan sukukka investitsiya qilish uchun qulayroq shart-sharoit yaratishi mumkin [3]. Shu bilan birga, yangi kapital bozori qonun loyihasida nazarda tutilgan, Markaziy bank yoki vakolatli davlat organi tomonidan chiqariladigan davlat sukuklari dastlabki bosqichda aynan institutsional investorlar (banklar, sug‘urta kompaniyalari) uchun eng ishonchli va past riskli vosita bo‘lishi mumkin, chunki davlat kafolati mavjud [1]. Buni Markaziy Osiyo mintaqasidagi Qozog‘iston tajribasi bilan solishtirish ham mumkin: Qozog‘istonda sukuk bozori huquqiy jihatdan tartibga solingan bo‘lsa-da, uning hajmi atigi 50 million AQSh dollarini tashkil etadi, bu esa faqat huquqiy bazaning yetarli emasligini, institutsional talabning ham zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi [1].

ILMA prognoz ko‘rsatkichlariga ko‘ra, kapital bozorida yangi instrumentlar, jumladan sukuk joriy etilishi hisobiga fond bozori orqali jalb etiladigan investitsiyalar hajmi 2026-yildagi 10 trillion so‘mdan 2030-yilga borib 20 trillion so‘mgacha, ya'ni ikki barobar o‘sishi kutilmoqda [1]. Bunday o‘sish sur'ati faqat institutsional talab mustahkam shakllansagina real bo‘lishi mumkin.

2-rasm.

O‘zbekiston fond bozori orqali jalb etiladigan investitsiyalar prognozi (trln so‘m)*



*Manba: [1] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi tahlil asosida O‘zbekiston kapital bozorida sukukka institutsional investorlarni jalb etish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlar dolzarb hisoblanadi: birinchidan, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larining bir qismini davlat va korporativ sukuklarga yo‘naltirish imkoniyatini qonunchilikda mustahkamlash; ikkinchidan, sug‘urta kompaniyalari uchun aktivlarining ma'lum ulushini sukukka joylashtirish bo‘yicha me'yoriy tavsiyalar ishlab chiqish; uchinchidan, Toshkent xalqaro moliya markazi orqali xorijiy institutsional investorlarni faol jalb etish; to‘rtinchidan, yangi qonun loyihasida sukuk, mudoraba, musharaka kabi atamalarning aniq huquqiy ta'riflarini kiritish; beshinchidan, Markaziy bank Islom moliyasi kengashi vakolatlarini aniq belgilash orqali bozor ishonchini mustahkamlash.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston kapital bozorida sukukka institutsional investorlarni jalb etish uchun 2026-yilda muhim huquqiy va institutsional zamin yaratildi: yangi kapital bozori qonun loyihasi, Toshkent xalqaro moliya markazi va, xususan, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi islohoti. Shu bilan birga, xalqaro tajriba, xususan Malayziya EPF misoli, shuni ko‘rsatadiki, huquqiy baza yaratishning o‘zi yetarli emas, institutsional investorlarning sukuk bilan bog‘lanishini ta'minlovchi aniq mexanizmlar ham zarur. O‘zbekiston uchun pensiya islohotini kapital bozori infratuzilmasi bilan bog‘lash, sug‘urta kompaniyalari uchun investitsiya yo‘nalishlarini kengaytirish va Toshkent xalqaro moliya markazi orqali xorijiy institutsional investorlarni jalb etish sukuk bozorining barqaror va institutsional jihatdan mustahkam rivojlanishi uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekistonda kapital bozori to‘g‘risidagi yangi qonun loyihasi taqdim etildi. Tafsilotlar // Gazeta.uz, 2026-yil, 13-avgust.

2. Markaziy bank islom moliyasi bo‘yicha 7 ta standartni qabul qilishni rejalashtirmoqda // Spot.uz, 2026-yil, 16-iyun.

3. Toshkent xalqaro moliya markazi to‘g‘risidagi qonun imzolandi. Tafsilotlar // Gazeta.uz, 2026-yil, 19-iyul.

4. Kusuma K.A., Silva A.C. Sukuk Markets: A Proposed Approach for Development // World Bank Policy Research Working Paper, 2014, No. 7133.

5. Saad N.M., Haniff M.N., Ali N. Firm's growth and sustainability: The role of institutional investors in mitigating the default risks of sukuk and conventional bonds // Procedia Economics and Finance, 2016, 35, 339–348.

6. Zulkhibri M. A synthesis of theoretical and empirical research on sukuk // Borsa Istanbul Review, 2015, 15(4), 237–248.

7. Basyariah N., Kusuma H., Qizam I. Determinants of sukuk market development: macroeconomic stability and institutional approach // Journal of Asian Finance, Economics and Business, 2021, 8(2), 201–211.

8. Abdumutaliyeva F.E. Islom kapital bozorini tartibga solish istiqbollari: sukuk instrumentini joriy etish zarurati va huquqiy asoslari // Modern Science and Research, 2025, 4(6), 171–177.

9. Asadov A., Turaboev I., Md Nor Mohd Zakhiri. Legal challenges in establishing Islamic Capital market in Uzbekistan // ISRA International Journal of Islamic Finance, 2023, 15, 45–63.

10. Abrorov S.Z. Islom kapital bozori ekotizimini shakllantirish istiqbollari: monografiya. Toshkent, 2024.

11. Abrorov S.Z. Islom kapital bozori ekotizimida moliyaviy instrumentlarning ahamiyati // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2025.

12. Employees Provident Fund (EPF) // Top1000funds.com; EPF Malaysia declares

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

highest Shariah investment payout // IFN Investor, 2025-yil, 3-mart.

13. "O‘zbektelekom" AK IPO loyihasi O‘zbekiston fond bozori to‘g‘risida nimani ko‘rsatdi // Stockscope.uz, 2026.

14. O‘zbekistonda xususiy va korporativ pensiya tizimlarini joriy etish rejalashtirilmoqda // Spot.uz, 2026-yil, 15-iyul.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

BANK AKTIVLARI SIFATINI OSHIRISHDA MUAMMOLI QARZLAR VA GAROV TA’MINOTINI BOSHQARISH USULLARI

Djamalov G‘ofir Oribjanovich
mustaqil tadqiqotchisi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
E-mail: gofirjamalov@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bank aktivlari sifatini oshirishda muammoli qarzlar va garov ta'minotini boshqarish usullarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, muammoli kreditlarni rasman aniqlash va ularga zaxira ajratish borasida so‘nggi yillarda erishilgan yutuqlarga qaramasdan, ajratilgan garov ta'minotini haqiqiy qiymatga aylantirish, ya'ni uni realizatsiya qilish bosqichi ko‘plab hollarda samarasiz kechmoqda. Maqolaning maqsadi muammoli qarzlar va garov ta'minotini boshqarishning amaldagi huquqiy-institutsional mexanizmlarini tahlil qilish, ularning kamchiliklarini aniqlash hamda bank aktivlari sifatini oshirishga xizmat qiluvchi takomillashtirilgan yondashuvlar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, statistik-iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, hudud misolidagi amaliy tahlil (case-study) va SWOT-tahlil elementlaridan foydalanilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, 2023-yil yakuniga Buxoro viloyati tijorat banklari misolida qarzdorlikni so‘ndirish evaziga balansga o‘tgan 162,4 milliard so‘mlik garov mulkining 99 foizga yaqini (161,1 milliard so‘m, 93 ta obyekt) bir yildan ortiq muddat davomida sotilmasdan turgan, shu bilan birga respublika miqyosida muammoli kreditlarning zaxira bilan qoplanish darajasi 85 foizga yetgan. Bu tafovut zaxiralashtirish jarayoni ancha ilgarilagani, ammo garov mulkini bozorga chiqarish va real qiymatga aylantirish bosqichi jiddiy "tiqilinch"ga uchraganini ko‘rsatadi. Maqolada muammoli qarzlarni hal etish strategiyalari matritsasini joriy etish, garov mulkini realizatsiya qilishning yagona raqamli platformasini yaratish hamda milliy aktivlarni boshqarish institutini shakllantirish imkoniyatlarini o‘rganish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Natijalar O‘zbekiston bank tizimida aktivlar sifatini oshirish va kreditorlar huquqini himoya qilish siyosatini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *bank aktivlari sifati; muammoli qarzlar; garov ta'minoti; kreditorlar huquqi; aktivlarni realizatsiya qilish; qarzni undirish; restrukturizatsiya; aktivlarni boshqarish kompaniyasi.*

МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ПРОБЛЕМНЫМИ КРЕДИТАМИ И ЗАЛОГОМ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА БАНКОВСКИХ АКТИВОВ

Джамалов Гофир Орибжавич
независимый исследователь
Ташкентский международный химический университет
E-mail: gofirjamalov@gmail.com

Аннотация. *В данной статье исследуются вопросы совершенствования методов управления проблемной задолженностью и залоговым обеспечением в повышении качества банковских активов. Актуальность исследования обусловлена тем, что, несмотря на достигнутые в последние годы успехи в формальном выявлении проблемных кредитов и формировании резервов, этап превращения залогового обеспечения в реальную стоимость, то есть его реализация, во многих случаях остаётся неэффективным. Целью статьи является анализ действующих правовых и институциональных механизмов управления проблемной задолженностью и залоговым обеспечением, определение их недостатков и разработка усовершенствованных подходов, способствующих повышению*

качества банковских активов. В исследовании применены методы нормативно-правового анализа, статистико-экономического анализа, сравнительного анализа, анализа конкретного случая (case-study) на примере региона и элементов SWOT-анализа. Результаты анализа показали, что по состоянию на конец 2023 года на примере коммерческих банков Бухарской области около 99 процентов залогового имущества (161,1 млрд сумов из 162,4 млрд, 93 из 100 объектов), перешедшего на баланс банков в счёт погашения задолженности, оставалось непроданным более года, тогда как в целом по республике уровень покрытия проблемных кредитов резервами достиг 85 процентов. Этот разрыв показывает, что процесс резервирования продвинулся значительно дальше, тогда как этап вывода залогового имущества на рынок и превращения его в реальную стоимость сталкивается с серьёзным «затором». В статье разработаны предложения по внедрению матрицы стратегий разрешения проблемной задолженности, созданию единой цифровой платформы реализации залогового имущества, а также изучению возможности формирования национального института управления активами. Результаты имеют практическое значение для повышения качества активов банковской системы Узбекистана и совершенствования политики защиты прав кредиторов.

Ключевые слова: *качество банковских активов; проблемная задолженность; залоговое обеспечение; права кредиторов; реализация активов; взыскание долга; реструктуризация; компания по управлению активами.*

METHODS OF MANAGEMENT OF PROBLEM LOANS AND COLLATERAL IN IMPROVING THE QUALITY OF BANK ASSETS

Djamalov Gofir Oribjanovich

Independent researcher
Tashkent International University of Chemistry
E-mail: gofirjamalov@gmail.com

Abstract. *This article examines ways to improve methods of managing problem debts and collateral security in enhancing the quality of bank assets. The relevance of the study lies in the fact that, despite recent progress in formally identifying problem loans and building reserves, the stage of converting collateral security into real value — that is, its realization — remains inefficient in many cases. The purpose of the article is to analyze the existing legal and institutional mechanisms for managing problem debts and collateral, to identify their shortcomings, and to develop improved approaches that contribute to enhancing bank asset quality. The study employs methods of legal-regulatory analysis, statistical-economic analysis, comparative analysis, a regional case study, and elements of SWOT analysis. The results show that, as of the end of 2023, in the case of commercial banks in the Bukhara region, about 99 percent of collateral property (161.1 billion soums out of 162.4 billion, 93 of 100 objects) that had been transferred to banks' balance sheets in debt settlement remained unsold for more than a year, while nationwide the coverage of problem loans by reserves reached 85 percent. This gap shows that the reserving process has advanced considerably further than the stage of bringing collateral to market and converting it into real value, which faces a serious bottleneck. The article develops proposals for introducing a debt-resolution strategy matrix, creating a unified digital platform for collateral realization, and exploring the possibility of establishing a national asset management institution. The findings have practical significance for improving asset quality in Uzbekistan's banking system and for strengthening creditor-rights protection policy.*

Keywords: *bank asset quality; problem debt; collateral security; creditor rights; asset realization; debt collection; restructuring; asset management company.*

Kirish

Bank aktivlari sifati moliyaviy tizim barqarorligining eng muhim koʻrsatkichlaridan biri hisoblanadi. Kredit portfeli sifatining pasayishi nafaqat bankning daromadliligiga, balki uning kapital yetarliligi va likvidligiga ham bevosita ta'sir koʻrsatadi. Muammoli qarz yuzaga kelgan taqdirda, uni hal etish jarayoni odatda ikki bosqichdan iborat boʻladi: birinchisi — muammoli qarzni rasman aniqlash, tasniflash va unga zaxira ajratish; ikkinchisi — qarz boʻyicha real qiymatni qaytarish, ya'ni qarzni undirish yoki garov ta'minotini realizatsiya qilish orqali aktivni pul mablagʻiga aylantirish. Amaliyot shuni koʻrsatadiki, koʻpincha birinchi bosqich (aniqlash va zaxiralash) nisbatan yaxshi yoʻlga qoʻyilgan boʻlsa-da, ikkinchi bosqich — ya'ni garov ta'minotini real bozor qiymatiga aylantirish — jiddiy institutsional va huquqiy toʻsiqlarga duch kelmoqda.

Oʻzbekiston Markaziy bankining Oliy Majlis Senatidagi 2023-yil yakunlariga bagʻishlangan hisobotida keltirilishicha, hisobot yilida tijorat banklari tomonidan aktivlar boʻyicha 13,1 trillion soʻmlik qoʻshimcha zaxiralar shakllantirilgan boʻlib, muammoli kreditlarni zaxiralar bilan qoplash darajasi 4 foiz punktga oshib, 2024-yil 1-yanvar holatiga 85 foizga yetgan. Bu koʻrsatkich, bir qarashda, bank tizimining muammoli aktivlarga nisbatan himoyalanganlik darajasi sezilarli oshganidan dalolat beradi. Biroq zaxira shakllantirish — bu muammoning faqat buxgalteriya-moliyaviy jihatdan "tan olinishi", real iqtisodiy natija esa faqat qarz yoki unga ta'minot sifatida qoʻyilgan garov mulki pul mablagʻiga aylantirilgandagina yuzaga keladi.

Ushbu ikki bosqich oʻrtasidagi tafovutni yaqqol namoyon etuvchi dalil sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan oʻtkazilgan parlament nazorati doirasidagi tekshiruv natijalarini keltirish mumkin. Unga koʻra, Buxoro viloyatida 2023-yilda muammoli kreditlar hajmi 327,1 milliard soʻmga, ya'ni 132 foizga oshgan, viloyat prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan ijroda boʻlgan 395,6 milliard soʻmlik mablagʻ 3 oydan ortiq muddat davomida undirilmagan. Bundan-da muhimi, qarzdorlikni soʻndirish evaziga viloyat tijorat banklari balansiga oʻtgan 162,4 milliard soʻmlik 100 ta garov mulkidan 161,1 milliard soʻmlik 93 tasi, ya'ni deyarli barchasi (~99 foizi), bir yildan ortiq muddat davomida sotilmasdan turgan. Bu raqamlar garov ta'minotini boshqarish tizimidagi jiddiy samarasizlikni koʻrsatuvchi aniq empirik dalil hisoblanadi.

Muammoning institutsional ildizlarini tushunish uchun shuni ta'kidlash lozimki, Oʻzbekistonda soʻnggi ikki-uch yil ichida kreditorlar huquqini va garov ta'minotini realizatsiya qilish tartib-qoidalarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 2023-yil aprel oyida "Kreditorlarning garov bilan ta'minlangan talablarini qanoatlantirish tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida"gi qaror, 2025-yil aprel oyida esa shu nomdagi, ammo qonun darajasidagi OʻRQ-1060-son hujjat qabul qilindi, unda kreditorlar huquqining ustuvorligi, garov mulkini auksion orqali sotish jarayonining soddalashtirilishi hamda suddan tashqari undirish amaliyotining kengaytirilishi nazarda tutilgan. 2024-yil dekabr oyida esa davlat rahbari banklarga balansidagi mol-mulkni auksionsiz, toʻgʻridan-toʻgʻri bozor narxida sotish huquqini berish, shuningdek toʻxtab qolgan ishlab chiqarish obyektlarini investitsiya kompaniyalari orqali "tayyor biznes" sifatida sotish mexanizmini joriy etish tashabbusi bilan chiqdi.

Bu islohotlarning barchasi toʻgʻri yoʻnalishda boʻlsa-da, ularning amaliyotda qanchalik samarali natija berayotgani, muammoli qarzlar va garov ta'minotini boshqarishning zamonaviy nazariy-uslubiy asoslari bilan qanchalik uygʻunlashgani hamda keyingi takomillashtirish uchun qanday zaxiralar mavjudligi ilmiy jihatdan yetarlicha chuqur tahlil qilinmagan. Ayniqsa, muammoli qarzlarni hal etishning turli strategiyalari (restrukturizatsiya, sudlik va suddan tashqari undirish, garovni realizatsiya qilish, qarzni sotish, hisobdan chiqarish) orasida tanlov qilishning tizimli mezonlari, shuningdek yirik miqyosdagi muammoli aktivlarni markazlashtirilgan boshqarish institutlari (aktivlarni boshqarish kompaniyalari) tashkil etish imkoniyati Oʻzbekiston sharoitida deyarli oʻrganilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu tadqiqotning maqsadi bank aktivlari sifatini

oshirishda muammoli qarzlar va garov ta'minotini boshqarishning amaldagi huquqiy-institutsional usullarini tahlil qilish, ularning samaradorligini cheklovchi omillarni aniqlash hamda xalqaro tajribaga tayangan holda takomillashtirilgan yondashuvlar majmuini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: muammoli qarz va garov ta'minotini boshqarish nazariyasining asosiy yondashuvlarini tizimlashtirish; O‘zbekistonda amaldagi huquqiy-institutsional mexanizmlarni inventarizatsiya qilish; hudud (Buxoro viloyati) misolida garov mulkini realizatsiya qilish samaradorligini empirik tahlil qilish; hamda bank aktivlari sifatini oshirishga xizmat qiluvchi takliflar ishlab chiqish. Tadqiqotning obyekti O‘zbekiston tijorat banklari va ularning muammoli aktivlarni boshqarish tizimi, predmeti esa muammoli qarzlar va garov ta'minotini boshqarishga qaratilgan huquqiy, institutsional va uslubiy vositalardir.

Adabiyotlar sharhi

Garov ta'minoti va muammoli qarzlarni boshqarish nazariyasi kredit-moliya munosabatlari nazariyasining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Kredit bozorlarida axborot assimetriyasi mavjudligi sharoitida garov ta'minoti nafaqat kreditorning talablarini qondirishning qo‘shimcha vositasi, balki qarz oluvchilarni "skrining" qilishning (ajratishning) samarali instrumenti sifatida ham qaraladi: yuqori sifatli qarz oluvchilar o‘z loyihalarining ishonchliligini isbotlash uchun ko‘proq garov taklif qilishga tayyor bo‘ladi, bu esa bankka past va yuqori tavakkalchilikdagi mijozlarni farqlash imkonini beradi. Ushbu nazariy yondashuv garovning nafaqat kreditni ta'minlash, balki kredit siyosatining sifatini oshirish vositasi sifatidagi ahamiyatini asoslab beradi.

Kreditorlar huquqini himoya qilish darajasi va moliyaviy bozorlarning rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik huquq va moliya nazariyasining (law and finance) markaziy mavzularidan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi klassik tadqiqotlarda turli huquqiy tizimlarda kreditorlar va aksiyadorlar huquqining himoyalanish darajasi qiyoslanib, kuchli huquqiy himoyaga ega mamlakatlarda kredit bozorlarining chuqurroq rivojlanishi statistik jihatdan asoslab berilgan. Ushbu nazariy asos garov ta'minotini realizatsiya qilish jarayonining tezligi va bashorat qilinuvchanligi kredit bozori rivojlanishining muhim omili ekanligini ko‘rsatadi — agar kreditor garov huquqini amalga oshirish uchun uzoq va murakkab yo‘lni bosib o‘tishga majbur bo‘lsa, bu kredit narxining oshishiga va kredit taklifining qisqarishiga olib keladi.

Muammoli qarzlarni hal etish (workout) nazariyasida odatda to‘rtta asosiy strategiya farqlanadi: qarzni restrukturizatsiya qilish (muddat, stavka yoki summa bo‘yicha shartlarni qayta ko‘rib chiqish), sudlik yoki suddan tashqari tartibda undirish, garov ta'minotini realizatsiya qilish (sotish yoki bankning o‘z mulkiga aylantirish) hamda qarzni uchinchi shaxsga sotish yoki hisobdan chiqarish. Strategiya tanlovi, odatda, qarz oluvchi biznesining hayotiyligi (viability) va garov ta'minotining sifati hamda likvidligiga bog‘liq holda amalga oshiriladi: hayotiy biznes va sifatli garovga ega qarz oluvchilar uchun restrukturizatsiya, hayotiy bo‘lmagan biznes uchun esa garovni realizatsiya qilish yoki qarzni sotish strategiyasi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yirik miqyosdagi tizimli muammoli aktivlarni boshqarish uchun xalqaro amaliyotda alohida aktivlarni boshqarish kompaniyalari (Asset Management Company, AMC) — ba'zan "bad bank" deb ham ataluvchi — tashkil etish keng tarqalgan. Xalqaro moliya institutlari tomonidan turli mamlakatlar tajribasi asosida o‘tkazilgan qiyosiy tadqiqotlarda bunday kompaniyalarning muvaffaqiyati bir qator shartlarga — jumladan, ularning aniq mandati, yetarli moliyaviy resurslari, professional boshqaruvi va muammoli aktivlarni bankdan adolatli (bozor) narxda sotib olish mexanizmiga ega bo‘lishiga — bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan. Markazlashtirilgan aktivlarni boshqarish modeli, ayniqsa moliyaviy inqiroz yoki tizimli muammoli aktivlar keskin o‘sgan davrlarda, banklarning o‘z kuchi bilan yeta olmaydigan yirik va murakkab aktivlarni (masalan, to‘xtab qolgan ishlab chiqarish korxonalari) professional tarzda boshqarish imkonini beradi.

Bazel bank nazorati qo‘mitasi tomonidan e'lon qilingan muammoli aktivlarga oid

prudensial yondashuv bo‘yicha qo‘llanmada banklarning muammoli aktivlarni o‘z vaqtida aniqlashi, ularga yetarli zaxira ajratishi va samarali undirish strategiyasini shakllantirishi zarurligi alohida ta'kidlanadi. Qo‘llanmada, shuningdek, garov ta'minotini baholashning obyektivligi va davriyligi muammoli kreditlar bo‘yicha zaxiralarning to‘g‘ri hisoblanishida hal qiluvchi omil sifatida ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston va qo‘shni Markaziy Osiyo davlatlari tajribasini qiyoslovchi so‘nggi tahlillarda jismoniy shaxslarning to‘lovga layoqatsizligi (shaxsiy bankrotlik) instituti alohida ko‘rib chiqilgan. Xususan, Qozog‘istonda muammoli iste'mol kreditlari 2022-yilda 40 foizga, 2023-yilning dastlabki sakkiz oyida esa 31 foizga oshgani, taxminan 1,5 million fuqaroning qarzi muddati o‘tgani qayd etilgan, bu esa qarzni qayta tuzish imkoniyatini beruvchi huquqiy bazaning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. O‘zbekistonda 2022-yilda birinchi marta jismoniy shaxslarga nisbatan "To‘lovga layoqatsizlik to‘g‘risida"gi qonun qabul qilinib, vaqtinchalik to‘lovga layoqatsizlikni tan olish va qarzni 3 yil ichida qayta tuzish rejasini taqdim etish tartibi joriy etilgan.

O‘zbekiston bank amaliyotiga oid o‘quv-uslubiy va me'yoriy materiallarda garov mulkini bank balansiga qabul qilish va undan keyingi foydalanish yoki sotishga oid buxgalteriya hisobi tartib-qoidalari, shuningdek garov mulkini suddan tashqari realizatsiya qilishning amaliy protsedurasi batafsil yoritilgan. Bu materiallar garov ta'minotini boshqarishning nafaqat huquqiy, balki amaliy-texnik jihatlarini ham tushunish uchun muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahliliga yakun yasab, shuni ta'kidlash mumkinki, garov ta'minoti nazariyasi, kreditorlar huquqi nazariyasi va aktivlarni boshqarish kompaniyalari tajribasi xalqaro miqyosda yaxshi rivojlangan bo‘lsa-da, O‘zbekiston sharoitida bu yondashuvlarni — xususan, garov mulkini realizatsiya qilish samaradorligini empirik baholash va muammoli qarzlarni hal etish strategiyalarini tizimlashtirishni — birlashtirgan kompleks tadqiqotlar hali yetarli emas. Aynan shu bo‘shliq ushbu maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodologiyasi sifat va miqdor tahlili usullarini uyg‘unlashtirgan kompleks yondashuvga asoslangan bo‘lib, quyidagi asosiy metodlardan foydalanildi.

Normativ-huquqiy tahlil usuli. Kreditorlarning garov bilan ta'minlangan talablarini qanoatlantirishga oid 2023 va 2025-yillardagi qonun hujjatlari, Markaziy bankning garov mulkini realizatsiya qilish tartibiga oid nizomi, soddalashtirilgan sud ish yuritish tartibiga oid o‘zgartirishlar hamda to‘lovga layoqatsizlik to‘g‘risidagi qonun tizimli tahlil qilindi va ular asosida muammoli qarz va garov ta'minotini boshqarishga oid amaldagi mexanizmlar inventarizatsiya qilindi.

Statistik-iqtisodiy tahlil usuli. Markaziy bankning rasmiy hisobotlari, shuningdek Oliy Majlis parlament nazorati materiallari asosida bank tizimidagi zaxiralar yetarliligi, muammoli kreditlar dinamikasi va garov mulkini realizatsiya qilish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

Hudud misolidagi amaliy tahlil (case-study) usuli. Buxoro viloyati tijorat banklari misolida garov mulkini balansga olish va realizatsiya qilish jarayoni batafsil o‘rganildi. Ushbu hudud tanlovi tasodifiy emas — u bo‘yicha parlament nazorati doirasida alohida va batafsil statistik ma'lumotlar e'lon qilingani hudud misolini respublika miqyosidagi umumiy tendensiyalarni yorituvchi indikativ (ko‘rsatkichli) holat sifatida qarash imkonini beradi.

Qiyosiy tahlil usuli. O‘zbekistondagi amaldagi mexanizmlar qo‘shni Qozog‘iston Respublikasining jismoniy shaxslar to‘lovga layoqatsizligi amaliyoti, shuningdek xalqaro aktivlarni boshqarish kompaniyalari (AMC) tajribasi bilan qiyoslandi.

SWOT-tahlil elementlari. Amaldagi muammoli qarz va garov ta'minotini boshqarish tizimining kuchli va zaif tomonlari, shuningdek uni takomillashtirishning imkoniyat va tahdidlari tizimlashtirildi.

Muammoli qarzlarni hal etish strategiyalarini konseptual tizimlashtirish usuli. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida qarz oluvchi biznesining hayotiyligi va garov ta'minoti sifati/likvidligi

degan ikki mezon bo‘yicha muammoli qarzlarni hal etish strategiyalarini tanlash konsepsiyasi ishlab chiqildi: (1) hayotiy biznes + sifatli garov — restrukturizatsiya ustuvor; (2) hayotiy biznes + zaif garov — qo‘shimcha ta'minot bilan restrukturizatsiya; (3) hayotiy bo‘lmagan biznes + sifatli garov — garovni tezkor realizatsiya qilish ustuvor; (4) hayotiy bo‘lmagan biznes + zaif garov — qarzni hisobdan chiqarish yoki uchinchi shaxsga (jumladan potentsial aktivlarni boshqarish kompaniyasiga) sotish. Ushbu konseptual asos keyingi bo‘limlarda taklif etilayotgan yondashuvlarning uslubiy negizini tashkil etadi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy hisobotlari (cbu.uz), qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi (lex.uz), O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi parlament nazorati materiallari, shuningdek mavzu bo‘yicha me'yoriy-uslubiy va ilmiy nashrlar tashkil etdi.

Tadqiqotning cheklovi sifatida shuni ta'kidlash lozimki, garov mulkini realizatsiya qilish bo‘yicha respublika miqyosidagi to‘liq, barcha hududlarni qamrab oluvchi statistik ma'lumotlar ochiq manbalarda mavjud emas, shu sababli tahlilda hudud (Buxoro viloyati) misolidan indikativ dalil sifatida foydalanildi. Shunga qaramay, qo‘llanilgan kompleks metodologiya muammoli qarz va garov ta'minotini boshqarish usullarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish uchun yetarli asos yaratdi.

Tahlil va natijalar

Bank tizimida aktivlar sifati va zaxiralar dinamikasi

Markaziy bankning Oliy Majlis Senatidagi hisobotiga ko‘ra, 2023-yilda tijorat banklari tomonidan aktivlar bo‘yicha 13,1 trillion so‘mlik qo‘shimcha zaxiralar shakllantirilgan, natijada muammoli kreditlarni zaxiralar bilan qoplash darajasi 4 foiz punktga oshib, 2024-yil 1-yanvar holatiga 85 foizga yetgan. Bundan tashqari, hisobot davrida bank tizimida bir qator institutsional chora ko‘rilgan: yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda loyiha tashabbuskorining kamida 30 foiz o‘z mablag‘i bilan ishtirok etishi talab etilgan, muammoli qarzdorlikka ega mijozlarga yangi kredit ajratish va kredit muddatlarini asossiz uzaytirish holatlariga chek qo‘yilgan, top-50 yirik qarzdorning moliyaviy holati muntazam tahlil qilinadigan tizim yo‘lga qo‘yilgan. Bu choralar, birgalikda, kredit portfeli sifatini nazorat qilishning institutsional bazasini sezilarli mustahkamlagan.

Biroq zaxira shakllantirish darajasining yuqoriligi o‘z-o‘zidan aktivlar sifati muammosi hal bo‘lganini anglatmaydi. Zaxira — bu potentsial yo‘qotishlarni buxgalteriya hisobida tan olish mexanizmi bo‘lib, u bankning moliyaviy hisobotini yanada shaffofroq va haqiqiy holatga yaqinroq qiladi, ammo qarzning o‘zini yoki unga ta'minot sifatida qo‘yilgan garov mulkini real pul mablag‘iga aylantirmaydi. Aynan shu ikkinchi bosqich — ya'ni undirish va realizatsiya samaradorligi — bank aktivlari sifatini oshirishning yakuniy va eng qiyin bosqichi hisoblanadi.

Amaldagi huquqiy-institutsional mexanizmlar tahlili

Muammoli qarzlar va garov ta'minotini boshqarishga qaratilgan amaldagi asosiy huquqiy va institutsional mexanizmlarning tizimli tahlili 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Muammoli qarzlar va garov ta'minotini boshqarishga qaratilgan asosiy huquqiy-institutsional mexanizmlar*

№	Mexanizm / qonun hujjati	Sana	Asosiy mazmuni	Aktivlar sifatiga ta'siri
1	"Kreditorlarning garov bilan ta'minlangan talablarini qanoatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida"gi PQ-4071/PF-63-son qarori	2023-yil 29-aprel	Garov ta'minoti bilan bog‘liq undiruv jarayonlarini soddalashtirishning dastlabki huquqiy bosqichi belgilandi	Garov undiruvi muddatlarini qisqartirish uchun zamin yaratdi

№	Mexanizm / qonun hujjati	Sana	Asosiy mazmuni	Aktivlar sifatiga ta'siri
2	Kreditorlarning garov bilan ta'minlangan talablarini qanoatlantirish tizimi yanada takomillashtirilishiga oid O‘RQ-1060-son Qonun	2025-yil 22-aprel	Kreditorlar huquqi ustuvorligi mustahkamlandi, auksion orqali sotish soddalashtirildi, suddan tashqari undirish amaliyoti kengaytirildi	Garov realizatsiyasi tezligi va samaradorligini oshiradi
3	Garovga qo‘yilgan mol-mulkni suddan tashqari realizatsiya qilish tartibi (Markaziy bank Nizomi, 375-band, 12/7-son qaror bilan tahrirlangan)	2025-yil 15-oktabrdan kuchga kiradi	Bank garov mulkini garovga qo‘yuvchi bilan kelishilgan holda suddan tashqari sotishi va tushumni qarzga yo‘naltirishi mumkin	Sudga bog‘liqlikni kamaytirib, undiruv muddatini qisqartiradi
4	Soddalashtirilgan sud ish yuritish tartibi bo‘yicha da'vo bahosi chegaralari	2025-yil 1-sentabrdan	Jismoniy shaxslar — BHMning 50, YATT — 100, yuridik shaxslar — 150 baravarigacha bo‘lgan da'volar soddalashtirilgan tartibda ko‘riladi	Kichik va o‘rta hajmdagi qarzlar bo‘yicha sud jarayonini tezlashtiradi
5	Bank balansidagi mol-mulkni bozor narxida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish huquqi (Prezident tashabbusi asosida)	2025-yil aprel	Banklarga balansidagi garov mulkini auksionsiz, bozor narxida bevosita sotish imkoniyati berildi	Uzoq "muzlab qolgan" aktivlarni tezroq pul mablag‘iga aylantiradi
6	Tijorat banklari huzuridagi investitsiya kompaniyalari orqali "tayyor biznes" modeli	2025 yil	To‘xtab qolgan ishlab chiqarish obyektlarini tiklab, tayyor biznes sifatida investorlarga sotish mexanizmi joriy etildi	Yakka mulkni emas, ishlaydigan biznesni sotish orqali qiymatni oshiradi
7	"To‘lovga layoqatsizlik to‘g‘risida"gi Qonun (jismoniy shaxslar uchun birinchi bor)	2022 yil	Jismoniy shaxslarga nisbatan vaqtinchalik to‘lovga layoqatsizlikni tan olish va qarzni qayta tuzish rejasini taqdim etish tartibi joriy etildi	Muammoli iste'mol kreditlari bo‘yicha litigatsiyasiz yechim imkonini yaratadi

*Muallif ishlanmasi

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi ikki-uch yil ichida O‘zbekistonda kreditorlar huquqini himoya qilish va garov ta'minotini realizatsiya qilish tartib-qoidalarini soddalashtirishga qaratilgan izchil va jadal huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, 2025-yilgi O‘RQ-1060-son Qonun va bank balansidagi mol-mulkni bozor narxida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish huquqi tizimli ahamiyatga ega o‘zgarishlar hisoblanadi. Biroq bu islohotlarning aksariyati hali juda yangi (2025-yilning o‘zida kuchga kirgan yoki kirishi rejalashtirilgan) bo‘lib, ularning amaliyotdagi haqiqiy samarasini baholash uchun yetarli vaqt o‘tmagan. Bundan tashqari, jadvaldagi mexanizmlarning aksariyati huquqiy-protsessual tabiatga ega (undiruv tartib-qoidalarini soddalashtirish), ammo ular garov mulkini bozorga chiqarish uchun zarur bo‘lgan amaliy infratuzilma — masalan, yagona elektron savdo platformasi,

professional baholovchilar tarmog‘i yoki markazlashtirilgan aktivlarni boshqarish institutini — to‘liq qamrab olmaydi.

Garov ta'minotini realizatsiya qilishdagi muammolar: Buxoro viloyati misolida

Amaldagi mexanizmlarning amaliyotdagi haqiqiy samaradorligini ko‘rsatuvchi eng ishonchli dalil sifatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan Buxoro viloyati misolida o‘tkazilgan parlament nazorati natijalarini keltirish mumkin (2-jadval).

2-jadval.

Buxoro viloyati misolida muammoli qarzlar va garov mulkini realizatsiya qilish holatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar (2023 yil)*

№	Ko‘rsatkich	Qiymati	Davr / holat
1	Viloyat tijorat banklarida muammoli kreditlar o‘sishi	327,1 mlrd so‘m (yillik 132% o‘sish)	2023 yil
2	Majburiy ijro byurosida 3 oydan ortiq undirilmagan mablag‘	395,6 mlrd so‘m	2023-yil holatiga
3	Qarzdorlikni so‘ndirish evaziga bank balansiga o‘tgan garov mulki (jami)	162,4 mlrd so‘m, 100 ta obyekt	2023-yil holatiga
4	Shu mol-mulkdan 1 yildan ortiq sotilmasdan turgani	161,1 mlrd so‘m, 93 ta obyekt (~99%)	2023-yil holatiga
5	Bank tizimi bo‘yicha (respublika miqyosida) muammoli kreditlarning zaxira bilan qoplanish darajasi	85% (yil ichida +4 foiz punkt)	2024-yil 1-yanvar holatiga
6	Hisobot yilida banklar tomonidan qo‘shimcha shakllantirilgan zaxiralar	13,1 trln so‘m	2023 yil

*Muallif ishlanmasi

2-jadvaldagi ma'lumotlar orasidagi eng muhim tafovut respublika miqyosidagi zaxira bilan qoplanish darajasi (85%) bilan hudud miqyosidagi garov mulkini realizatsiya qilish darajasi (atigi ~1%, ya'ni 100 tadan bor-yo‘g‘i 7 ta obyekt bir yil ichida sotilgan yoki boshqa holatda) o‘rtasidagi keskin farqdir. Ushbu tafovut 1-rasmda vizual tarzda aks ettirilgan.

1-rasm.

Buxoro viloyati tijorat banklari balansidagi garov mulkining realizatsiya holati (2023-yil yakuniga, mlrd so‘m)*



Manba: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi parlament nazorati materiallari (SQ-910-IV, 2024) asosida muallif tomonidan tuzilgan

Rasmda ko‘rsatilganidek, bank balansiga o‘tgan 162,4 milliard so‘mlik garov mulkining deyarli barchasi (99 foizi) bir yildan ortiq muddat davomida "muzlab" qolgan, ya'ni bank tomonidan zaxira ajratilgan va bilanolib hisobga olingan bo‘lsa-da, real bozor operatsiyasiga

aylanmagan. Bu holatning bir necha sababi bo‘lishi mumkin: birinchidan, garov mulkini sotish uchun avvalgi tartib-qoidalar (auksion protseduralari) murakkab va uzoq bo‘lgan — aynan shu muammoni bartaraf etish uchun 2025-yilgi islohotlar (O‘RQ-1060, bozor narxida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish huquqi) qabul qilingan; ikkinchidan, ayrim garov mulklari (masalan, ixtisoslashgan ishlab chiqarish uskunalari yoki to‘xtab qolgan korxona binolari) uchun bozor talabi va likvidlik cheklangan bo‘lishi mumkin, bu esa aynan "tayyor biznes" sifatida sotish modelining ahamiyatini oshiradi; uchinchidan, garov qiymatini dastlabki baholashning bozor real qiymatidan yuqori bo‘lishi ham sotuvni qiyinlashtirishi mumkin, bu esa garovni davriy qayta baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Muammoli qarzlarni hal etish strategiyalari: xalqaro tajriba

Xalqaro amaliyotda, ayniqsa tizimli miqyosdagi muammoli aktivlar keskin o‘sgan davrlarda, alohida aktivlarni boshqarish kompaniyalari (AMC) tashkil etish samarali yechim sifatida qo‘llanilgan. Bunday kompaniyalar banklardan muammoli aktivlarni (shu jumladan garov ta'minotini) kelishilgan narxda sotib olib, ularni professional tarzda, uzoqroq vaqt gorizontida va ixtisoslashgan bozor bilimiga tayangan holda realizatsiya qiladi. Bu yondashuvning afzalligi shundaki, banklar o‘zlarining asosiy — kreditlash — faoliyatiga e'tiborni qaytaradi, muammoli aktivlarni boshqarish esa shu sohaga ixtisoslashgan tuzilmaga topshiriladi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, bunday institutning muvaffaqiyati uning mustaqilligi, professional boshqaruvi hamda banklardan aktivlarni bozor narxida (davlat subsidiyasi hisobiga emas) sotib olish tamoyiliga rioya qilishiga bog‘liq.

O‘zbekistonda 2025-yilda joriy etilgan tijorat banklari huzuridagi investitsiya kompaniyalari orqali "tayyor biznes" modeli, mohiyatan, markazlashtirilgan bo‘lmasa-da, AMC yondashuviga yaqin bo‘lgan dastlabki qadam hisoblanadi. Uni yanada rivojlantirish — masalan, bir nechta bank aktivlarini birlashtirgan hududiy yoki milliy darajadagi ixtisoslashgan tuzilmani shakllantirish — muammoli aktivlarni realizatsiya qilish samaradorligini sezilarli oshirishi mumkin.

Aniqlangan asosiy muammolar

O‘tkazilgan tahlil natijasida muammoli qarzlar va garov ta'minotini boshqarish tizimidagi quyidagi asosiy muammolar aniqlandi: birinchidan, zaxira shakllantirish (buxgalteriya darajasidagi tan olish) bilan garov mulkini realizatsiya qilish (real iqtisodiy natija) o‘rtasida keskin tafovut mavjud; ikkinchidan, garov mulkini sotishning avvalgi tartib-qoidalari murakkab va uzoq bo‘lgan, garchi bu borada 2025-yilda muhim islohotlar qabul qilingan bo‘lsa-da, ularning amaliy samarasi hali sinovdan o‘tmagan; uchinchidan, uzoq muddat sotilmasdan turgan garov mulkini bozorga olib chiqish uchun zarur bo‘lgan ixtisoslashgan infratuzilma (yagona elektron savdo platformasi, professional baholash tizimi) yetarlicha rivojlanmagan; to‘rtinchidan, yirik va murakkab muammoli aktivlarni markazlashtirilgan tarzda boshqaruvchi milliy institut (aktivlarni boshqarish kompaniyasi) mavjud emas; beshinchidan, muammoli qarzlarni hal etish strategiyasini tanlashning (restrukturizatsiya, undirish, realizatsiya, sotish, hisobdan chiqarish) tizimli va shaffof mezonlari barcha banklarda bir xilda qo‘llanilmaydi; oltinchidan, garov mulkini realizatsiya qilish ko‘rsatkichlari bo‘yicha hududlar kesimidagi muntazam va ochiq statistika yuritilmaydi, bu esa muammoning haqiqiy ko‘lamini baholashni qiyinlashtiradi.

Takomillashtirish yo‘nalishlari

Yuqorida aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun muammoli qarz va garov ta'minotini boshqarishning yaxlit tizimini shakllantirish zarur. Bunday tizim kamida to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponentni — qarzni hal etish strategiyalari matritsasini standartlashtirish, garov mulkini realizatsiya qilishning yagona raqamli platformasini yaratish, milliy yoki hududiy aktivlarni boshqarish institutini shakllantirish imkoniyatini o‘rganish hamda hududlar kesimida shaffof monitoringni yo‘lga qo‘yishni — o‘z ichiga olishi lozim. Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha batafsil takliflar tadqiqotning xulosa va takliflar qismida keltirilgan.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish mumkin. Birinchidan, O‘zbekiston bank tizimida muammoli kreditlarni rasman aniqlash va ularga zaxira ajratish jarayoni sezilarli darajada takomillashgan — respublika miqyosida zaxira bilan qoplanish darajasi 85 foizga yetgan. Ikkinchidan, garov ta'minotini real bozor qiymatiga aylantirish, ya'ni realizatsiya qilish bosqichi jiddiy samarasizlikka duch kelmoqda — hudud misolida bank balansidagi garov mulkining deyarli barchasi (~99%) bir yildan ortiq muddat davomida sotilmasdan turgan. Uchinchidan, so‘nggi ikki-uch yil ichida qabul qilingan huquqiy islohotlar (2023 va 2025-yillardagi qarorlar va O‘RQ-1060-son Qonun) to‘g‘ri yo‘nalishda bo‘lsada, ularning amaliy samarasini ta'minlash uchun institutsional infratuzilmani (raqamli platforma, baholash tizimi, aktivlarni boshqarish instituti) rivojlantirish zarur.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, bank aktivlari sifatini oshirishda muammoli qarzlar va garov ta'minotini boshqarish usullarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Muammoli qarzlarni hal etish strategiyalari matritsasini barcha tijorat banklarida standartlashtirish. Qarz oluvchi biznesining hayotiyligi va garov ta'minoti sifati/likvidligi mezonlariga asoslangan (restrukturizatsiya — tezkor realizatsiya — qarzni sotish/hisobdan chiqarish) yagona qaror qabul qilish konsepsiyasini Markaziy bank tavsiyanomasi darajasida joriy etish.

2. Garov mulkini realizatsiya qilishning yagona raqamli platformasini yaratish. Barcha banklarning balansidagi garov mulki haqidagi ma'lumotlarni birlashtiruvchi, elektron auksion va bozor narxida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish imkoniyatlarini o‘zida mujassam etgan milliy platformani ishlab chiqish, bu potentsial xaridorlar doirasini kengaytiradi va sotish muddatlarini qisqartiradi.

3. Milliy yoki hududiy aktivlarni boshqarish institutini shakllantirish imkoniyatini o‘rganish. Bir nechta bank yoki hudud miqyosidagi yirik va murakkab muammoli aktivlarni (masalan, to‘xtab qolgan ishlab chiqarish korxonalari) markazlashtirilgan, professional tarzda boshqarish va realizatsiya qilish uchun ixtisoslashgan tuzilma tashkil etish imkoniyatlarini pilot loyiha asosida sinovdan o‘tkazish.

4. Tijorat banklari huzuridagi investitsiya kompaniyalari orqali "tayyor biznes" modelini kengaytirish. Ushbu mexanizmni barcha yirik banklarga tatbiq etish, eng yaxshi amaliyotlarni tizimli ravishda umumlashtirish va tarqatish.

5. Garov qiymatini davriy qayta baholash tizimini joriy etish. Garov ta'minotining bozor qiymatini kredit amal qilish muddati davomida muntazam (masalan, yillik) qayta baholashni majburiy qilish, bu dastlabki baholashning haddan tashqari yuqori bo‘lishi va shu sababli sotuvning qiyinlashishi holatlarini kamaytiradi.

6. Majburiy ijro byurosi va banklar o‘rtasidagi hamkorlikni raqamlashtirish. Sud qarorlari ijrosi jarayonini elektron tizim orqali kuzatib borish, undiruv muddatlarini qisqartirish maqsadida ijro jarayonining har bir bosqichi bo‘yicha aniq muddat me'yorlarini belgilash.

7. Jismoniy shaxslar uchun to‘lovga layoqatsizlik (bankrotlik) institutini keng targ‘ib qilish. Ushbu institut haqida qarz oluvchilar va bank xodimlarining xabardorligini oshirish, uni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish.

8. Hududlar kesimida garov mulkini realizatsiya qilish ko‘rsatkichlari bo‘yicha muntazam va ochiq statistika yuritish. Har bir viloyat kesimida bank balansidagi garov mulki hajmi, uning realizatsiya sur'ati va o‘rtacha sotish muddati bo‘yicha choraklik hisobotlarni e'lon qilish, bu shaffoflikni oshiradi va yaxshi amaliyotlarni aniqlash imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan takliflarning amalga oshirilishi, bir tomondan, bank aktivlari sifatini real iqtisodiy ma'noda oshirishga, ikkinchi tomondan, kreditorlar huquqini himoya qilish tizimini mustahkamlash orqali kredit bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda taklif etilgan strategiyalar matritsasini bank darajasidagi amaliy ma'lumotlar asosida sinovdan o‘tkazish hamda garov mulkini realizatsiya qilish muddatiga ta'sir etuvchi omillarni miqdoriy jihatdan baholash dolzarb yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kreditorlarning garov bilan ta'minlangan talablarini qanoatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida"gi PQ-4071/PF-63-son qarori. — 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining "Kreditorlarning garov bilan ta'minlangan talablarini qanoatlantirish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi O‘RQ-1060-son Qonuni. — 2025.

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining kreditlash tartib-qoidalariga oid 2025-yil 13-iyundagi 12/7-son qarori (ro‘yxat raqami 3030-10, 14.07.2025-y.) // lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasining "To‘lovga layoqatsizlik to‘g‘risida"gi Qonuni. — 2022.

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining SQ-910-IV-son qarori: "O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yildagi faoliyati to‘g‘risida"gi hisobot yuzasidan. — 2024.

6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bankning 2023-yilgi hisoboti to‘g‘risidagi masala yuzasidan Oliy Majlis Senatining yalpi majlisidagi ma'ruza matni // cbu.uz.

7. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi malaka oshirish markazi. Garovga qo‘yilgan mol-mulkni sotish tartibi // minjusttraining.uz.

8. Bester H. Screening vs. Rationing in Credit Markets with Imperfect Information // The American Economic Review. — 1985. — Vol. 75, № 4. — P. 850–855.

9. La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A., Vishny R.W. Law and Finance // Journal of Political Economy. — 1998. — Vol. 106, № 6. — P. 1113–1155.

10. Klingebiel D. The Use of Asset Management Companies in the Resolution of Banking Crises: Cross-Country Experience // World Bank Policy Research Working Paper. — Washington, D.C.: World Bank, 2000.

11. Gilson S.C., John K., Lang L.H.P. Troubled Debt Restructurings: An Empirical Study of Private Reorganization of Firms in Default // Journal of Financial Economics. — 1990. — Vol. 27, № 2. — P. 315–353.

12. Basel Committee on Banking Supervision (BCBS). Prudential Treatment of Problem Assets — Definitions of Non-Performing Exposures and Forbearance. — Basel: Bank for International Settlements, 2017.

13. Banklar balansiga olingan mol-mulklarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bozor narxida sotishi mumkin bo‘ladi // Spot.uz. — 2025.

14. O‘zbekiston va Qozog‘istonda shaxsiy bankrotlik holatlari: qiyosiy tahlil // Spot.uz. — 2024.

15. "Bank hisobi, tahlil va audit" fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun uslubiy qo‘llanma. Garov mulkini balansga olish buxgalteriya o‘tkazmalari // portfel.qmii.uz.

16. International Monetary Fund (IMF), World Bank. Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program — Financial System Stability Assessment. IMF Country Report No. 25/145. — Washington, D.C., 2025.

17. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (garov institutiga oid boblar). — Toshkent.

18. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida statistik ma'lumotlar // cbu.uz.

19. World Bank. Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment. — Washington, D.C.: World Bank, 2025.

20. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi. Faoliyat hisobotlari. — Toshkent.

21. Xalq banki tizimida garov mulklarini balansga olish va sotish amaliyoti bo‘yicha uslubiy materiallar. — Toshkent, 2024.

22. Kholov N.Q. Improving the Methodology of Strengthening the Stability of Commercial Banks: Monograph. — Tashkent: Tashkent State University of Economics, 2025.

23. Capital Adequacy and Risk Management in Uzbekistan's Banking Sector: Trends and

Perspectives // The Peerian Journal. — 2025.

24. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tijorat banklari kreditlarining dolzarbligi // ResearchGate. — 2025.

25. Fitch Ratings. Uzbekistan's Banking Sector Becoming More Resilient: Sector Outlook. — 2025.

26. Djankov S., McLiesh C., Shleifer A. Private Credit in 129 Countries // Journal of Financial Economics. — 2007. — Vol. 84, № 2. — P. 299–329.

27. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, faoliyati samaradorligini oshirish va kredit siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-4071-son qarori. — 2018.

28. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Annual Report and Financial Stability Review. — Tashkent: CBU, 2025.

RAQAMLI TO‘LOV INFRATUZILMASIDA MOLIYAVIY XATARLARNI BOSHQARISH VA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMLARI

Vaxabov Bobur Alisherovich
mustaqil tadqiqotchi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
E-mail: boburvaxabov@gmail.com

Annotatsiya. *Raqamli to‘lov infratuzilmasining tez kengayishi to‘lovlarni tez, arzon va qulay amalga oshirish imkoniyatlarini oshirayotgan bo‘lsa-da, ayni vaqtda moliyaviy xatarlarning texnologik va institutsional tabiatini murakkablashtirmoqda. Mazkur maqolada raqamli to‘lov ekotizimida kredit, likvidlik, operatsion, firibgarlik, kiberxavfsizlik, ma’lumotlar yaxlitligi va uchinchi tomon texnologik qaramligi bilan bog‘liq xatarlarni kompleks boshqarish mexanizmlari tadqiq etiladi. Tadqiqotning metodik asosini institutsional tahlil, risk-matritsa, indikatorli baholash, qiyosiy tahlil va ssenariy modellashtirish tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024–2025-yillardagi rasmiy hisobotlari hamda to‘lov infratuzilmasi bo‘yicha ma’lumotlari xalqaro prinsiplar bilan taqqoslanib, amaldagi nazorat arxitekturasining kuchli va zaif jihatlari aniqlanadi. 2025-yilda to‘lov infratuzilmasi hajmining sezilarli kengayishi bilan bir qatorda Markaziy bank kiberxavfsizlik va anti-frod yo‘nalishlarida yangi nazorat vositalari, xavfsiz ulanishlar va kiberxavfsizlik reyting tizimini joriy qilgan. Tadqiqot natijasida “aniqlash–baholash–oldini olish–aniqlash–javob–tiklash–qayta baholash” sikliga asoslangan integratsiyalashgan model taklif etildi. Modelda riskka proporsional nazorat, real vaqt monitoringi, xavfsiz API, mustaqil testlar, incident reporting, biznes uzluksizligi va iste’molchi zararini tezkor qoplash mexanizmlari bir butun boshqaruv konturiga birlashtiriladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli to‘lovlar, moliyaviy xatar, kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi, firibgarlik, operatsion barqarorlik, risk-menejment, to‘lov infratuzilmasi, anti-frod, moliyaviy texnologiyalar.*

МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ И ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ЦИФРОВОЙ ПЛАТЕЖНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЕ

Вахабов Бобур Алишерович
независимый исследователь
Ташкентский международный химический университет
E-mail: boburvaxabov@gmail.com

Аннотация. *Быстрое расширение цифровой платежной инфраструктуры повышает скорость, доступность и удобство расчетов, но одновременно усложняет структуру финансовых и технологических рисков. В статье рассматриваются механизмы комплексного управления кредитным, ликвидным, операционным, мошенническим, кибернетическим риском, риском нарушения целостности данных и зависимостью от третьих технологических провайдеров. Методологическая основа включает институциональный анализ, матрицу рисков, индикаторную оценку, сравнительный анализ и сценарное моделирование. На основе официальных материалов Центрального банка Республики Узбекистан за 2024–2025 годы проведено сопоставление национальной практики с международными принципами безопасности платежных систем и операционной устойчивости. В результате предложена интегрированная модель, построенная по циклу «идентификация–оценка–предотвращение–обнаружение–реагирование–восстановление–переоценка». Она объединяет риск-ориентированный надзор, мониторинг вблизи реального времени, защищенные API, независимое*

тестирование, отчетность по инцидентам, непрерывность бизнеса и механизмы оперативного возмещения потерь клиентов.

Ключевые слова: *цифровые платежи, финансовый риск, кибербезопасность, информационная безопасность, мошенничество, операционная устойчивость, управление рисками, платежная инфраструктура, антифрод, финтех.*

MECHANISMS FOR MANAGEMENT OF FINANCIAL RISKS AND ENSURING INFORMATION SECURITY IN DIGITAL PAYMENT INFRASTRUCTURE

Vakhabov Bobur Alisherovich

Independent Researcher
Tashkent International University of Chemistry
E-mail: boburvaxabov@gmail.com

Abstract. *The rapid expansion of digital payment infrastructure improves the speed, affordability and accessibility of transactions, while simultaneously increasing the complexity of financial and technology-related risks. This article examines an integrated risk-management framework for credit, liquidity, operational, fraud, cybersecurity, data-integrity and third-party technology risks in the digital payment ecosystem. The methodology combines institutional analysis, risk matrices, indicator-based assessment, comparative analysis and scenario modelling. Official data and reports of the Central Bank of Uzbekistan for 2024–2025 are assessed against international principles of payment-system security and operational resilience. The study finds that the national ecosystem has strengthened its cybersecurity and anti-fraud capacity through enhanced controls, secure interconnections and cyber-risk assessment tools, but the growing scale of digital transactions requires a more integrated risk architecture. A seven-stage model — identify, assess, prevent, detect, respond, recover and reassess — is proposed. The model integrates proportional supervision, near-real-time monitoring, secure APIs, independent testing, incident reporting, business continuity and rapid consumer-loss remediation into a single governance cycle.*

Keywords: *digital payments, financial risk, cybersecurity, information security, fraud, operational resilience, risk management, payment infrastructure, anti-fraud, financial technology.*

Kirish

Raqamli to‘lovlar bugungi iqtisodiyotda nafaqat hisob-kitob qilish vositasi, balki banklar, to‘lov tashkilotlari, savdo platformalari, telekommunikatsiya operatorlari va davlat xizmatlarini yagona raqamli oqimga bog‘laydigan infratuzilmaga aylanmoqda. To‘lovning bir necha soniyada bajarilishi foydalanuvchi uchun qulaylikni oshiradi, biroq infratuzilmaning murakkablashishi bilan bir operatsiyadagi nosozlik, firibgarlik yoki kiberhujumning tarqalish kanallari ham ko‘payadi. Shu sababli raqamli to‘lovlar xavfsizligini faqat texnik vositalar yoki faqat prudensial nazorat orqali ta’minlash yetarli emas; xatarlarni boshqarish moliyaviy va axborot xavfsizligini birlashtirgan institutsional tizimga aylanishi zarur.

O‘zbekistonda raqamli to‘lov infratuzilmasining miqyosi so‘nggi yillarda keskin oshdi. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yakunida muomaladagi bank kartalari soni 68,3 mln donaga, o‘rnatilgan POS-terminallar 430,8 ming taga, bankomatlar va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish qurilmalari 40,1 ming taga yetgan; yil davomida POS terminallari orqali 460,3 trln so‘mlik operatsiyalar amalga oshirilgan. Bu ko‘rsatkichlar to‘lov xizmatlari uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar bilan birga tizimli risklarning miqyosini ham oshiradi [1].

2025-yil Markaziy bankning yillik hisobotida kiberxavfsizlik va axborot himoyasiga oid bir qator amaliy choralar qayd etilgan: to‘lov tizimlari va banklar uchun tegishli talablar kuchaytirildi, 134 ta tashqi aloqa xavfsiz kanallar orqali himoyalandi, kiberxavfsizlik darajasini baholash uchun maxsus reyting axborot tizimi ishlab chiqildi, bank va to‘lov tashkilotlarining

kiberxavfsizlik hamda anti-frod bo‘linmalari uchun muntazam treninglar tashkil etildi [2]. Bu holat xavfsizlik masalasi milliy to‘lov siyosatining alohida texnik yo‘nalishidan tizimli boshqaruv vazifasiga aylanayotganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, Markaziy bankning moliyaviy barqarorlik bo‘yicha 2024 va 2025-yil hisobotlarida kiberxatarlarning ortishi moliyaviy tizim barqarorligiga tahdid solishi, kiberhujumlar, ma’lumotlarning buzilishi va o‘g‘irlanishi kabi operatsion xatarlar moliyaviy yo‘qotishlarni kuchaytirishi ta’kidlangan. Shu bilan birga shubhali operatsiyalarni cheklash, kiberhimoya tizimlarini mustahkamlash va aholining kiberfiribgarlik bo‘yicha xabardorligini oshirish choralar sifatida ko‘rsatilgan [3;4].

Ilmiy muammoning dolzarbligi shundaki, raqamli to‘lov infratuzilmasida “moliyaviy xatar” va “axborot xatari” chegaralari tobora yemirilmoqda. Masalan, hisobga noqonuniy kirish avval kiberxavfsizlik hodisasi sifatida boshlanib, qisqa vaqt ichida bevosita moliyaviy yo‘qotish, likvidlik bosimi, reputatsion zarar va mijozlar ishonchining pasayishiga olib kelishi mumkin. Demak, boshqaruv tizimi risklarni ketma-ket emas, balki bog‘langan portfel sifatida ko‘rishi kerak.

Maqolaning maqsadi O‘zbekistonda raqamli to‘lov infratuzilmasida moliyaviy xatarlarni boshqarish va axborot xavfsizligini ta’minlashning integratsiyalashgan mexanizmini ishlab chiqish hamda uning institutsional va amaliy samaradorligini baholashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: raqamli to‘lovlar uchun xatarlar taksonomiyasini shakllantirish; milliy va xalqaro nazorat yondashuvlarini qiyoslash; xatarlarni o‘lchash indikatorlarini taklif etish; ikki bosqichli boshqaruv modeli va 2027–2030-yillar uchun siyosiy yo‘l xaritasini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti — O‘zbekiston raqamli to‘lov infratuzilmasida banklar, to‘lov tashkilotlari, to‘lov tizimi operatorlari va ularga xizmat ko‘rsatuvchi texnologik subyektlar o‘rtasidagi risk-munosabatlardir. Tadqiqot predmeti esa mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi tashkiliy, iqtisodiy, texnik va axborot-xavfsizlik mexanizmlarining o‘zaro ta’siridir.

Adabiyotlar sharhi

Raqamli to‘lov tizimlaridagi xatarlarni boshqarish bo‘yicha xalqaro ilmiy va me’yoriy adabiyotlar bir necha asosiy yo‘nalishga ajraladi. Birinchi yo‘nalish to‘lov tizimlarining tizimli ahamiyatiga e’tibor beradi. CPMI-IOSCOning Financial Market Infrastructures uchun Prinsiplari to‘lov tizimlarida kredit, likvidlik, operatsion, huquqiy va boshqa risklarni boshqarish, shuningdek uzluksizlik va umumiy boshqaruvni alohida prinsiplar sifatida ko‘radi [5]. Bu yondashuv raqamli to‘lovlar uchun ham dolzarb, chunki katta hajmli yoki ko‘plab ishtirokchilarni bog‘laydigan platformadagi uzilish butun ekotizimga tarqalishi mumkin.

Ikkinchi yo‘nalish operatsion barqarorlik va kiberxavfsizlikni markazga qo‘yadi. Bazel qo‘mitasi materiallarida muhim operatsiyalarni qo‘llab-quvvatlaydigan ICT infratuzilmasi aniqlanishi, himoya–aniqlash–javob–tiklash sikli muntazam sinovdan o‘tkazilishi va boshqaruvda risk egasi aniq belgilanishi lozimligi ta’kidlanadi [6]. Ushbu sikl moliyaviy xatarlar uchun ham mos keladi, chunki texnologik uzilish tezda likvidlik va hisob-kitob xatariga aylanadi.

Uchinchi yo‘nalish kiberxatarlarning dinamikasini o‘rganadi. NIST Cybersecurity Framework 2.0 boshqaruv, aniqlash, himoya, aniqlash, javob va tiklash funksiyalarini yagona risk boshqaruvi doirasida ko‘radi. ISO/IEC 27001 esa axborot xavfsizligini axborot aktivlari, boshqaruv jarayonlari va doimiy takomillashtirish prinsiplariga bog‘laydi [7;8]. Bunday yondashuv raqamli to‘lovlar uchun “texnik choralar ro‘yxati”dan ko‘ra ancha samarali, chunki u xavfsizlikni boshqaruv tizimi bilan bog‘laydi.

To‘rtinchi yo‘nalishda firibgarlik va iste’molchi zarari masalalari ko‘riladi. Raqamli to‘lovlarda autentifikatsiya kuchli bo‘lsa ham, ijtimoiy muhandislik, soxta ilovalar, fishing, SIM-swapping, hisob ma’lumotlarini egallash va pulni tezkor ko‘chirish kabi holatlar mavjud. Shuning uchun antifrod tizimlarida faqat “to‘lovni tasdiqlash” emas, balki foydalanuvchi xulqi,

qurilma signallari, tranzaksiya konteksti va tarmoq aloqalarini birgalikda baholash zarur.

O‘zbekiston bo‘yicha huquqiy va institutsional bazada “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi qonun, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonun, “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun hamda Markaziy bankning to‘lov tizimlari uchun axborot va kiberxavfsizlik talablariga oid normativ hujjatlari muhim o‘rin tutadi. 2024-yildagi tegishli nizom to‘lov tizimi operatorlari va to‘lov xizmatlarini yetkazib beruvchilardan axborot va kiberxavfsizlik zaifliklarini tahlil qilish, yiliga kamida ikki marta ruxsatsiz kirishga test o‘tkazish va Markaziy bankka yillik hisobot taqdim etishni talab qiladi [9].

2026-yilda shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha yangi o‘zgartirishlar kiritilishi, ayrim toifadagi ma’lumotlarni O‘zbekiston hududida saqlash talablarining kuchaytirilishi raqamli to‘lovlar xavfsizligini ma’lumotlar boshqaruvi bilan yanada chambarchas bog‘laydi [10]. Shuningdek, 2026-yil martidagi davlat siyosati taqdimotlarida kiberjinoyatlarga qarshi kurashni kuchaytirish va raqamli huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [11].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xalqaro yondashuvlarning ko‘pchiligi riskni aniqlash va kiberbarqarorlikni boshqarish uchun yetarli nazariy asos yaratgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston sharoitida alohida muammo institutlararo ma’lumot almashinuvi, risklarni yagona taksonomiya asosida baholash, kichik va yirik to‘lov tashkilotlariga proporsional talablarni qo‘llash hamda mijoz zararini tezkor qoplash mexanizmlarini birlashtirishdan iborat. Mazkur maqola aynan shu “bog‘lovchi qatlam”ni ishlab chiqishga intiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda raqamli to‘lov infratuzilmasining xavf profili moliyaviy va axborot xavfsizligi bloklarini birlashtirgan ko‘p mezonli yondashuv orqali baholandi. Birinchi bosqichda risk taksonomiyasi shakllantirildi. Unda kredit, likvidlik, operatsion, firibgarlik, kiberxavfsizlik, ma’lumotlar yaxlitligi, uchinchi tomon va reputatsion risklar ajratildi. Ikkinchi bosqichda har bir riskning ehtimolligi va ta’sir darajasi 1–5 ballik shkala bo‘yicha baholandi. Uchinchi bosqichda mavjud nazorat choralarining riskni qoplash koeffitsiyenti ekspert-analitik yondashuv bilan hisoblandi.

Taklif etilgan umumiy risk skori quyidagicha ifodalanadi: $R = P \times I \times (1 – C)$, bu yerda P — hodisaning ehtimolligi, I — moliyaviy va operatsion ta’sir, C — amaldagi nazorat choralarining qoplash koeffitsiyenti. Mazkur formula sof statistik parametr emas; u risklarni ustuvorlashtirishga xizmat qiladigan boshqaruv indikatori sifatida ishlatiladi. C koeffitsiyenti nazoratning mavjudligi, avtomatlashtirilishi, mustaqil testdan o‘tkazilishi va incidentdan keyingi tiklanish qobiliyatini birlashtiradi.

Risklarni boshqarishda “himoya darajalari” konsepsiyasi qo‘llanildi: birlamchi profilaktika, autentifikatsiya va kirishni boshqarish; tranzaksiya darajasida antifrod va limitlar; tarmoq darajasida segmentatsiya va himoya; ma’lumot darajasida shifrlash va yaxlitlik; monitoring darajasida SIEM va xulq-atvor analitikasi; javob va tiklash darajasida incident response, backup va disaster recovery. Tizimning barqarorligi bitta qatlamga emas, qatlamlarning bir-birini qoplashiga bog‘liq deb qabul qilindi.

Empirik baza sifatida Markaziy bankning 2025-yil yillik hisobotidagi to‘lov va axborot xavfsizligi ma’lumotlari, 2025-yil yakuni bo‘yicha bank kartalari, POS terminallari va ATM infratuzilmasi statistikasi, 2024 va 2025-yillarga oid moliyaviy barqarorlik hisobotlari, shuningdek milliy normativ hujjatlar va xalqaro standartlardan foydalanildi [1–10]. 2025-yilda POS tranzaksiyalarining 460,3 trln so‘mga yetishi to‘lov oqimlari hajmining oshganini ko‘rsatadi; shu bilan birga Markaziy bankning 2025-yil hisobotida xavfsiz ulanishlar, kiberxavfsizlik reytingi va anti-frod ko‘nikmalarini kuchaytirish choralari qayd etilgan [1;2].

Ssenariy modellashtirishda uch variant tanlandi: inertial, muvozanatli va tezlashtirilgan. Inertial ssenariy mavjud mexanizmlar saqlanib qolishini; muvozanatli ssenariy riskka asoslangan nazorat, incident reporting, interoperabellik va kiberstress-testlarning parallel joriy etilishini;

tezlashtirilgan ssenariy esa real vaqtga yaqin nazorat, yagona anti-frod platformasi, xavfsiz API profili va iste’molchilarni himoya qilishning avtomatlashtirilgan mexanizmlarini to‘liqroq joriy etishni nazarda tutadi.

Metodologiyaning cheklovi shundaki, ochiq manbalarda ayrim kiberhodisalar bo‘yicha granular, bank yoki to‘lov tashkiloti kesimidagi zarar statistikasi mavjud emas. Shu sababli ekspert-analitik ballar sabab-natija dalili sifatida emas, siyosiy diagnostika va ustuvorlashtirish vositasi sifatida talqin qilinadi. Maqolaning ilmiy yangiligi aynan shu cheklovni hisobga olgan holda, mavjud rasmiy ma’lumotlarni risk boshqaruvi indikatorlari bilan integratsiyalashgan modelga kiritishdadir.

Tahlil va natijalar

Raqamli to‘lov infratuzilmasidagi moliyaviy xatarlar texnologik jarayonlardan ajralgan holda mavjud bo‘lmaydi. To‘lovning yakunlanishi uchun mablag‘lar, identifikatsiya ma’lumotlari, aloqa kanallari, dasturiy komponentlar va hisob-kitob platformalari o‘zaro bog‘langan. Shu bois xatarlarni “moliyaviy” va “kiber” deb qat’iy ajratish boshqaruv nuqtai nazaridan yetarli emas. Masalan, autentifikatsiyaga qarshi hujum mablag‘larning noqonuniy chiqib ketishiga, likvidlik muammosiga, iste’molchi shikoyatlarining oshishiga va reputatsion zararga olib kelishi mumkin.

2025-yilda Markaziy bank tomonidan 68,3 mln bank kartasi, 430,8 ming POS-terminal va 40,1 ming ATM/self-service qurilmasi qayd etilgani to‘lov ekotizimining masshtabini ko‘rsatadi. 460,3 trln so‘mlik POS tranzaksiyasi esa infrastrukturaning real iqtisodiy ahamiyatini ifodalaydi [1]. Shu miqyosda bir kunlik uzilishning o‘zi ham minglab tadbirkorlar, aholi va davlat xizmatlari to‘lovlariga ta’sir qilishi mumkin; shuning uchun “uptime” endi oddiy IT ko‘rsatkichi emas, moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichi hamdir.

1-jadval.

Raqamli to‘lov infratuzilmasidagi asosiy moliyaviy va axborot xatarlari*

Xatar turi	Asosiy namoyon bo‘lish shakli	Ehtimollik (1–5)	Ta’sir (1–5)	Ustuvor boshqaruv chorasi
Firibgarlik xatari	Fishing, social engineering, account takeover, soxta ilova	5	5	Real vaqt anti-frod, xulq-atvor modeli, kuchli autentifikatsiya
Operatsion xatar	Tizim uzilishi, dasturiy xato, konfiguratsiya xatosi	4	5	BCP/DR, redundant infratuzilma, failover sinovlari
Kiberxavfsizlik xatari	Zararli dastur, DDoS, credential theft, ransomware	4	5	Zero Trust, segmentatsiya, EDR/SIEM, patch management
Ma’lumotlar yaxlitligi xatari	Tranzaksiya ma’lumotining buzilishi yoki yo‘qolishi	3	5	Shifrlash, integrity check, audit log, backup
Likvidlik xatari	Hisob-kitob kechikishi, settlement uzilishi	3	5	Likvidlik buferi, intraday monitoring, contingency funding
Uchinchi tomon xatari	Cloud, processor, telecom yoki fintech provayder uzilishi	4	4	SLA, vendor risk management, exit plan, multi-vendor
Reputatsion xatar	Katta hodisa va iste’molchi ishonchining pasayishi	3	4	Krizis kommunikatsiyasi, tezkor kompensatsiya, ochiq incident siyosati

*Muallif ishlanmasi

Axborot xavfsizligi va moliyaviy xatarlarni birlashtirish modeli

Xatarlarni boshqarishning integratsiyalashgan modelida asosiy tamoyil — texnik hodisani moliyaviy oqibat bilan bog‘lash. Tizimda kiberhodisa sodir bo‘lganda, parallel ravishda uchta savolga javob topilishi kerak: birinchidan, hodisa qaysi aktiv yoki jarayonni shikastladi; ikkinchidan, qaysi to‘lov oqimi va mijozlar ta’sirlandi; uchinchidan, mablag‘larni himoyalash va xizmatni tiklash uchun qaysi choralar birinchi navbatda bajariladi. Bu yondashuv xavfsizlik bo‘limi va risk bo‘limini alohida ishlashdan integratsiyalashgan boshqaruvga olib keladi.

2025-yil hisobotida Markaziy bank axborot tizimlari, banklar va boshqa moliya institutlari o‘rtasidagi 134 ta tashqi ulanishni xavfsiz kanallar orqali himoyalaganini, kiberxavfsizlik reyting tizimini ishlab chiqqanini va anti-frod/kiberxavfsizlik bo‘linmalari uchun muntazam treninglar tashkil etilganini qayd etadi [2]. Bu amaliyot xavfsizlikni faqat ichki IT funksiyasi emas, balki nazorat qilinadigan institutsional ko‘rsatkich sifatida shakllantirish uchun muhim asos yaratadi.

2024-yil moliyaviy barqarorlik hisobotida kiberxatarlarning kuchayishi, kiberhujumlar, ma’lumotlarning buzilishi va o‘g‘irlanishi moliyaviy yo‘qotishlarni oshirishi qayd etilgan. Tavsiya etilgan choralar orasida shubhali operatsiyalarni cheklash, barqaror axborot xavfsizligi tizimlarini rivojlantirish va aholining kiberfiribgarlik bo‘yicha savodxonligini oshirish keltirilgan [3]. Mazkur choralar bizning modelimizda mos ravishda aniqlash, oldini olish va iste’molchi qatlamlariga to‘g‘ri keladi.

2024-yilda bank karta firibgarligi bo‘yicha murojaatlar doirasida 9,5 mlrd so‘mlik mablag‘ bloklangani va onlayn mikroqarz firibgarligini kamaytirish uchun ayrim kredit operatsiyalarida 48 soatgacha qo‘shimcha tekshiruv cheklovlari joriy etilgani Markaziy bank yillik hisobotida qayd etilgan [2]. Ushbu tajriba xavf yuqori bo‘lgan operatsiyalar uchun “friksiya”ni oshirish, xavf past bo‘lgan operatsiyalarda esa to‘lovni maksimal tezlashtirish tamoyilining amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

1-rasm.

Raqamli to‘lov infratuzilmasida moliyaviy xatarlarni boshqarish va axborot xavfsizligi konturi*



*Muallif ishlanmasi.

Rasmda ifodalangan model klassik “himoyalash” tushunchasidan farq qiladi. Unda xavfsizlik choralari incident sodir bo‘lishidan oldin va keyin ham ishlaydi. Masalan, identifikatsiya qatlamidagi xato tarmoq monitoringi, tranzaksiya monitoringi va mijoz xulqi analitikasi orqali qayta aniqlanishi mumkin. Shuningdek, tizim qayta tiklangandan so‘ng “lessons learned” bosqichi risk profillarini yangilashi va kelgusi davrda yangi nazorat talablarini shakllantirishi kerak.

Mazkur model institutsional nuqtai nazardan uch boshqaruv sathini talab qiladi: 1) tashkilotning ichki risk egasi va xavfsizlik funksiyasi; 2) to‘lov tizimi operatori yoki boshqa ekotizim koordinatori; 3) Markaziy bank va tegishli vakolatli davlat organlarining nazorati.

Ularning har biri uchun incident toifalari, xabar berish chegaralari, ma’lumot almashish protokoli va javob muddatlari oldindan standartlashtirilishi lozim.

Moliyaviy xatarlarni boshqarish samaradorligini baholash

Xatarni boshqarish samaradorligi mavjud nazorat choralarining soni bilan emas, ularning riskni qanchalik kamaytirayotgani bilan o‘lchanishi kerak. Shu maqsadda maqolada “qoplash koeffitsiyenti” va “qoldiq risk” tushunchalaridan foydalanildi. Masalan, boshlang‘ich firibgarlik riskining ehtimolligi 5 ball bo‘lib, real vaqt antifrod tizimi, qurilma identifikatsiyasi va kuchli autentifikatsiya nazoratlari 0,70 qoplash koeffitsiyentiga ega deb baholansa, qoldiq risk R formula bo‘yicha sezilarli kamayadi. Bu ko‘rsatkichlarni har oy qayta hisoblash orqali nazorat investitsiyalarining samarasini monitoring qilish mumkin.

Baholashning asosiy amaliy foydasi resurslarni bir xil taqsimlamaslikdir. Yuqori riskli tashkilotlar yoki xizmatlar uchun mustaqil penetration test, doimiy SIEM monitoringi, stress-test va muhim komponentlar bo‘yicha zaxira infratuzilmasi talab qilinadi. Past riskli xizmatlar uchun esa soddalashtirilgan talablar qo‘llanilishi mumkin. Proporsionallik innovatsiya va xavfsizlik o‘rtasidagi muvozanatni yaxshilaydi.

2-jadval.

Integratsiyalashgan risk boshqaruvi uchun taklif etilayotgan indikatorlar va maqsadli darajalar*

Indikator	Og‘irlik	Bazaviy analitik baho	2027 maqsad	2030 maqsad
Kiberhodisani aniqlash tezligi	15%	62	78	90
Firibgarlikni tranzaksiya bosqichida bloklash	15%	68	82	92
Muhim xizmatlar uzluksizligi va DR tayyorgarligi	15%	70	84	93
Zaifliklarni muntazam test qilish qamrovi	10%	66	85	95
Incident reporting to‘liqligi va tezligi	10%	58	80	94
Ma’lumotlar yaxlitligi va audit izi	10%	71	86	95
Uchinchi tomon risklarini boshqarish	10%	55	76	90
Iste’molchi zararini ko‘rib chiqish va qoplash tezligi	10%	64	82	93
Kadrlar va kiberxavfsizlik kompetensiyasi	5%	69	82	92
Yakuniy integrallashgan indeks	100%	64.4	82.0	93.0

*Muallif ishlanmasi.

Jadvaldagi bazaviy qiymatlar rasmiy milliy reyting emas, mazkur tadqiqot uchun ochiq

ma’lumotlar va xalqaro talablar asosida tuzilgan analitik skoringdir. Undagi eng past yo‘nalishlar uchinchi tomon risklari, incident reporting va aniqlash tezligidir. Bu uchlik raqamli to‘lovlarda tobora ko‘proq “ekotizim xavfi” paydo bo‘layotganini anglatadi: tashkilot o‘zining IT tizimini yaxshi himoya qilgan bo‘lsa ham, processor, cloud, telekom yoki boshqa provayderdagi nosozlikdan zarar ko‘rishi mumkin.

Kiberhodisani aniqlash tezligi moliyaviy xavfni kamaytirishda alohida ahamiyatga ega. Birinchi daqiqalarda aniqlangan hisob egallash hodisasi bloklanishi, kech aniqlanganida esa mablag‘lar bir necha tashkilot va hisoblar bo‘ylab ko‘chib ketishi mumkin. Shu sababli xavfsizlikning samaradorligi “oldini olish” bilan birga “aniqlash va javob berish” tezligi orqali o‘lchanishi lozim.

Riskni o‘lchashda iste’molchi zararini qoplash tezligi ham alohida indikator sifatida kiritildi. Bu ko‘rsatkich texnik xavfsizlik indikatorlari orasida ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi, biroq raqamli to‘lovlar bozorining ishonchliligini aynan foydalanuvchi tajribasi belgilaydi. Foydalanuvchi himoya tizimiga ishonmasa, raqamli kanalning iqtisodiy afzalliklari kamayadi. Shu nuqtai nazardan tezkor kompensatsiya va shaffof nizoni hal etish tizimi risk boshqaruvining bir qismidir.

O‘zbekistonda institutsional mexanizmlarni takomillashtirish yo‘nalishlari

Milliy institutlarni takomillashtirishning birinchi yo‘nalishi — “yagona risk taksonomiyasi”ni joriy etish. Banklar, to‘lov tashkilotlari, to‘lov tizimi operatorlari va texnologik provayderlar bir xil atamalar, incident toifalari va risk darajalaridan foydalanishi kerak. Hozirgi holatda alohida tashkilotlar o‘z ichki risk xaritalariga ega bo‘lishi tabiiy, biroq nazoratchi uchun ularni umumiy ko‘rsatkichga aylantirish qiyinlashadi. Yagona taksonomiya esa SupTech va idoralararo tahlil uchun “umumiy til” yaratadi.

Ikkinchi yo‘nalish — real vaqtga yaqin risk monitoringi. Markaziy bankning kiberxavfsizlik reyting tizimi va xavfsiz ulanishlar bo‘yicha amaliyoti ushbu yo‘nalish uchun institutsional asos yaratadi [2]. Keyingi bosqichda tranzaksiya xavfi, kiberhodisa, uzilish, mijoz shikoyati va uchinchi tomon hodisalarini birlashtirgan umumiy risk panelini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu platforma individual mijoz ma’lumotlarini oshkor qilmasdan, agregat ko‘rsatkichlar orqali regulyatorga erta ogohlantirish signalini berishi mumkin.

Uchinchi yo‘nalish — uchinchi tomon risklarini regulyativ nazoratga kiritish. Cloud servis, processor, data-center, telecom operator yoki antifrod texnologiyasi provayderi to‘lov zanjirining muhim qismiga aylanganida uning uzilishi bank yoki to‘lov tashkilotining o‘zidan kelib chiqmagan bo‘lsa ham xizmatga ta’sir qiladi. Shu bois muhim vendorlar uchun minimal SLA, audit huquqi, incident notification, ma’lumotni qaytarish va “exit plan” talablarini standartlashtirish kerak.

To‘rtinchi yo‘nalish — muhim to‘lov infratuzilmasi uchun operatsion barqarorlik testlarini kuchaytirish. BIS va boshqa xalqaro yondashuvlar muhim operatsiyalar uchun himoya, aniqlash, javob va tiklash funksiyalarining muntazam sinovini talab qiladi [6]. O‘zbekistonda bu talablar riskka proporsional ravishda stress-testlar, failover mashqlari, zaxira markazni ishga tushirish testlari va tiklanish vaqtini o‘lchash bilan kengaytirilishi mumkin.

Beshinchi yo‘nalish — anti-frod ma’lumotlarini ekotizimlararo almashish. Firibgarlar bitta bank yoki bitta ilova doirasida emas, turli platformalar o‘rtasida ishlaydi. Shu sababli banklar, to‘lov tashkilotlari, operatorlar va vakolatli davlat organlari uchun huquqiy asosda ma’lum darajadagi “fraud intelligence sharing” mexanizmi yaratilishi foydali. Bunda shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish talablari bajarilgan holda, xavf signallari, qurilma indikatorlari, shubhali hisoblar va takroriy sxemalar bo‘yicha ma’lumotlar almashinuvi yo‘lga qo‘yiladi.

Oltinchi yo‘nalish — kuchli autentifikatsiyani foydalanuvchi tajribasi bilan muvofiqlashtirish. Barcha operatsiyalarga bir xil qattiq tasdiqlash talabini qo‘yish xizmatni sekinlashtiradi va ayrim foydalanuvchilarni norasmiy kanallarga o‘tishga undashi mumkin. Shuning uchun “risk-based authentication” tamoyili muhim: oddiy va odatiy to‘lovlar minimal ishqalanish bilan, yuqori riskli operatsiyalar esa qo‘shimcha verifikatsiya bilan bajariladi.

Yettinchi yo‘nalish — ma’lumotlar boshqaruvida “maxfiylik va xavfsizlikni dizaynning boshidan kiritish” tamoyilini joriy etish. 2026-yildagi qonunchilik o‘zgarishlari ayrim toifadagi shaxsga doir ma’lumotlarni O‘zbekiston hududida saqlash talablarini kuchaytirdi [10]. Raqamli to‘lov tashkilotlari uchun bu ma’lumotlar ombori, backup, cloud va transchegaraviy ishlov berish arxitekturasini qayta ko‘rib chiqishni anglatadi. Bunday talablarni texnik xavfsizlik bilan birgalikda ishlab chiqish compliance va innovatsiya o‘rtasidagi muvozanatni saqlashi kerak.

Sakkizinchi yo‘nalish — incident reporting standartini bir xillashtirish. 2024-yilgi to‘lov tizimlari uchun normativ talablar allaqachon axborot va kiberxavfsizlik holati bo‘yicha yillik hisobotni nazarda tutadi [9]. Keyingi bosqichda muhim kiberhodisalar bo‘yicha qisqa muddatli “early notification”, to‘liq texnik hisobot va yakuniy lessons learned hisobotini alohida formatlarga ajratish lozim. Bu regulyatorning hodisani tezroq koordinatsiya qilishiga imkon beradi.

To‘qqizinchi yo‘nalish — kiberxavfsizlik iqtisodiyotini hisoblash. Har bir qo‘shimcha xavfsizlik chorasi xarajat talab qiladi; shu bois risk kamayishining iqtisodiy qiymatini ham o‘lchash kerak. Masalan, anti-frod tizimiga kiritilgan investitsiya natijasida bloklangan firibgarliklar, kamaygan kompensatsiyalar va qisqargan servis uzilishlarining iqtisodiy qiymati alohida indikator sifatida baholanadi. Bu “xavfsizlik xarajati”ni oddiy IT xarajatidan investitsiya sifatida ko‘rishga imkon beradi.

2027–2030-yillarda risk-boshqaruv tizimini bosqichma-bosqich joriy etish

Institutsional mexanizmni bir vaqtning o‘zida to‘liq qayta qurish amaliy jihatdan qimmat va tashkiliy jihatdan murakkab bo‘lishi mumkin. Shu sababli taklif etilayotgan model bosqichma-bosqich joriy etilishi lozim. Birinchi bosqich 2027-yilda normativ va ma’lumotlar arxitekturasini birxillashtirishga qaratiladi. Bu davrda yagona risk taksonomiyasi, incident kategoriyalari, minimal vendor risk talablari, xavfsiz API uchun bazaviy profil va to‘lov tashkilotlari uchun umumiy kiberhodisa xabar berish shakllari tasdiqlanishi kerak.

Ikkinchi bosqich 2028-yilda nazoratni avtomatlashtirish va risk signallarini birlashtirishni ko‘zda tutadi. SupTech platformasi orqali to‘lov tashkilotlari va banklardan olinadigan agregat risk ma’lumotlari yagona panelga yig‘iladi. Ushbu platformada operatsion uzilishlar, shubhali tranzaksiyalar, kiberhodisalar, mijoz shikoyatlari va uchinchi tomon hodisalari bo‘yicha indikatorlar birlashtiriladi. Natijada nazoratchi tashkilotning moliyaviy ko‘rsatkichlarini uning texnologik va operatsion risk profili bilan birgalikda ko‘ra oladi.

Uchinchi bosqich 2029–2030-yillarda tizimli barqarorlikka yo‘naltiriladi. Bu bosqichda muhim to‘lov tizimlari uchun umumiy kiberstress-test ssenariylari, tarmoqlararo fraud intelligence sharing, xizmat uzilishi paytida avtomatik tranzaksiya yo‘naltirish va iste’molchi zararini tezkor qoplash mexanizmlari kengaytiriladi. Tizimning natijasi faqat xavfsizlik darajasining oshishi emas, balki to‘lov xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi va ishonchliligining o‘sishi bo‘lishi kerak.

Bosqichma-bosqich yondashuvda muhim tamoyil — “bir xil talab, turlicha chuqurlik” prinsipidir. Masalan, barcha to‘lov tashkilotlari uchun minimal identifikatsiya, audit log, zaifliklarni boshqarish va incident reporting talablari bir xil bo‘lishi mumkin. Biroq tizimli ahamiyatga ega operatorlar uchun talablar ancha chuqur: mustaqil audit, zaxira markaz, RTO/RPO ko‘rsatkichlari, muntazam penetration testing va scenario-based resilience exercise talab qilinadi. Bu proporsional yondashuv kichik innovatsion kompaniyalarning bozorga kirishiga ortiqcha to‘siq qo‘ymasdan tizimli riskni cheklaydi.

Joriy etish samaradorligi uch darajada o‘lchanishi lozim. Birinchi daraja texnik: aniqlash va tiklash vaqti, tizim uzilishlarining soni, zaifliklarni yopish muddati. Ikkinchi daraja moliyaviy: firibgarlik yo‘qotishlari, kompensatsiya xarajatlari, uzilish tufayli boy berilgan tranzaksiyalar va xavfsizlik investitsiyasining oldi olingan zarar bilan nisbati. Uchinchi daraja institutsional: incident reporting tezligi, ma’lumot almashish sifati, nazorat tekshiruvlarining riskka mosligi va ishtirokchilarning compliance yukining o‘zgarishi. Aynan uchinchi daraja modelning davlat boshqaruvi nuqtai nazaridan samaradorligini ko‘rsatadi.

Xatarlar boshqaruvini iqtisodiy jihatdan asoslash uchun “oldi olingan zarar qiymati” ko‘rsatkichini kiritish tavsiya etiladi. Masalan, anti-frod investitsiyasi natijasida bloklangan operatsiyalarning ehtimoliy zarari, tezroq tiklangan xizmat tufayli saqlab qolingan tranzaksiya hajmi va iste’molchi kompensatsiyasining qisqarishi hisobga olinadi. Ushbu ko‘rsatkich rahbariyat va regulyatorga kiberxavfsizlik xarajatlarini oddiy ma’muriy xarajat emas, riskni kamaytiradigan kapital qo‘yilma sifatida baholash imkonini beradi.

Institutional maturity nuqtai nazaridan eng katta o‘zgarish “hodisa sodir bo‘lgandan keyingi” boshqaruvdan “hodisa sodir bo‘lishidan oldingi” boshqaruvga o‘tishdir. Buning uchun threat intelligence, vulnerability management, transaction analytics va scenario testing tizimlari bir-biriga ulanadi. Kelgusida sun’iy intellekt asosidagi anomaliya aniqlash vositalari ham kengayishi mumkin, biroq ulardan foydalanishda model riski, noto‘g‘ri ijobiy signallar, explainability va ma’lumotlarning sifati alohida nazorat obyekti bo‘lishi kerak.

Mazkur yo‘l xaritasida davlat organlari va bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi hamkorlik ham muhim. Markaziy bank regulyativ standartlar va nazorat metodologiyasini belgilaydi; banklar va to‘lov tashkilotlari risklarni operatsion darajada boshqaradi; telekommunikatsiya, texnologik va boshqa provayderlar uchinchi tomon risklarini kamaytirish talablariga rioya qiladi; huquqni muhofaza qiluvchi organlar esa raqamli firibgarlik sxemalari bo‘yicha tezkor axborot almashinuvi va tergov choralarini ta’minlaydi. Shunday qilib, raqamli to‘lov xavfsizligi yagona tashkilotning emas, ekotizimning umumiy institutsional javobgarligiga aylanadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari raqamli to‘lov infratuzilmasida moliyaviy xatarlar va axborot xavfsizligi xatarlarini alohida boshqarish tobora samarasizlashayotganini ko‘rsatdi. To‘lov ekotizimining texnologik murakkabligi ortishi bilan bitta kiberhodisa bir vaqtning o‘zida moliyaviy yo‘qotish, likvidlik bosimi, xizmat uzilishi, ma’lumotlar buzilishi va iste’molchi ishonchining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli boshqaruv modeli risklar portfeli va hodisalar hayot siklini birlashtirishi kerak.

O‘zbekiston uchun muhim institutsional afzallik shundan iboratki, to‘lov infratuzilmasi bo‘yicha Markaziy bankning nazorat amaliyoti so‘nggi yillarda axborot xavfsizligi va anti-frod yo‘nalishlari bilan kengayib bormoqda. 2025-yilda xavfsiz ulanishlar, kiberxavfsizlik reytingi, kiberxavfsizlik va anti-frod bo‘yicha treninglar kabi choralarning amalga oshirilishi tizimning tayyorgarlik darajasi oshayotganini ko‘rsatadi [2]. Biroq raqamli to‘lov hajmi va ishtirokchilar sonining o‘sishi bu mexanizmlarni yagona risk arxitekturasiga integratsiya qilishni talab etadi.

Maqolada taklif etilgan integratsiyalashgan model “aniqlash–baholash–oldini olish–aniqlash–javob–tiklash–qayta baholash” sikliga asoslanadi. Uning asosiy ustunligi shundaki, xavfsizlik nazorati xizmatning faqat kirish qismida emas, tranzaksiya, tarmoq, ma’lumot, monitoring va tiklash darajalarida takroriy tarzda ishlaydi. Bunday “defense-in-depth” arxitekturasi bitta himoya mexanizmi buzilgan taqdirda ham riskning to‘liq amalga oshish ehtimolini kamaytiradi.

Birinchi amaliy taklif — banklar, to‘lov tashkilotlari va operatorlar uchun yagona risk taksonomiyasi hamda yagona incident reporting lug‘atini ishlab chiqish. Ikkinchi taklif — yuqori riskli xizmatlar uchun real vaqtga yaqin monitoring va risk-based authenticationni joriy etish. Uchinchi taklif — muhim uchinchi tomon provayderlari uchun vendor risk management va exit plan talablarini standartlashtirish. To‘rtinchi taklif — muhim to‘lov infratuzilmasida kiberstress-test va failover mashqlarini muntazam o‘tkazish.

Beshinchi taklif — fraud intelligence sharing mexanizmini huquqiy va texnik jihatdan shakllantirish. Oltinchi taklif — iste’molchi zararini baholash va qoplashning yagona SLA tizimini joriy etish. Yettinchi taklif — 2026-yildagi shaxsga doir ma’lumotlar bo‘yicha yangi talablarni payment-by-design va privacy-by-design tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish. Sakkizinchi taklif — kiberxavfsizlik investitsiyalarining iqtisodiy samaradorligini yillik risk kamayishi bilan o‘lchaydigan indikatorni kiritish.

2027–2030-yillar uchun tavsiya etiladigan siyosiy yo‘l xaritasi uch bosqichdan iborat. 2027-yilda risk taksonomiyasi, incident reporting va vendor risk standartlari ishlab chiqiladi. 2028-yilda SupTech, antifrod ma’lumot almashinuvi va risk-based authenticationning kengaytirilgan mexanizmlari joriy etiladi. 2029–2030-yillarda esa kiberstress-testlarning sektoral darajadan tizimli darajaga o‘tkazilishi, xizmatlararo interoperabellik va iste’molchi nizolarini avtomatlashtirish yakuniy bosqichga olib chiqiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli to‘lov infratuzilmasida xavfsizlikning iqtisodiy qiymati faqat yo‘qotishlarni oldini olish bilan o‘lchanmaydi. Barqaror, tezkor va xavfsiz to‘lovlar tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi, raqamli moliyaviy inklyuziyani kuchaytiradi, biznesning pul oqimini tezlashtiradi va iqtisodiyotdagi ishonch kapitalini oshiradi. Shu bois moliyaviy xatarlarni boshqarish va axborot xavfsizligini ta’minlash bir-biridan ajralgan texnik yo‘nalish emas, raqamli iqtisodiyotning institutsional barqarorligini belgilaydigan strategik boshqaruv funksiyasi sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Information about issued banking cards, POS-terminals, ATM’s and Self-Service Kiosks as of 1 January 2026, transactions through POS-terminals in January–December 2025. Toshkent, 2026.

2. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Annual Report 2025. Tashkent, 2026.

3. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Financial Stability Report for 2024. Tashkent, 2025.

4. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Financial Stability Report for H1 2025. Tashkent, 2025.

5. CPMI-IOSCO. Principles for Financial Market Infrastructures. Bank for International Settlements and International Organization of Securities Commissions, 2012.

6. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for operational resilience. Bank for International Settlements, 2021.

7. National Institute of Standards and Technology. Cybersecurity Framework (CSF) 2.0. Gaithersburg, MD, 2024.

8. ISO/IEC 27001:2022. Information security, cybersecurity and privacy protection — Information security management systems — Requirements. International Organization for Standardization, 2022.

9. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik to‘plami. To‘lov tizimlari operatorlari va to‘lov xizmatlarini yetkazib beruvchilarning axborot xavfsizligi va kiberxavfsizligini ta’minlashga oid normativ talablar, 2024.

10. O‘zbekiston Respublikasi. “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-547-son Qonun va 2026-yil 26-martdagi O‘RQ-1125-son o‘zgartirishlar.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Uyushgan jinoyatchilik va kiberjinoyatlarga qarshi kurashish takomillashtiriladi. 12.03.2026.

12. O‘zbekiston Respublikasi. “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘RQ-764-son Qonun, 15.04.2022.

13. European Union Agency for Cybersecurity (ENISA). Threat Landscape for Financial Sector and related cybersecurity guidance. ENISA publications.

14. BIS. Operational resilience and technology risk management: selected supervisory principles and practices. Bank for International Settlements, Basel.

15. World Bank. The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. Washington, DC, 2022.

16. Arner, D.W., Barberis, J., Buckley, R.P. The evolution of FinTech: A new post-crisis paradigm? Georgetown Journal of International Law, 47, 2016.

17. Gomber, P., Koch, J.-A., Siering, M. Digital Finance and FinTech: current research and future research directions. Journal of Business Economics, 87, 2017.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

18. Ozili, P.K. Impact of digital finance on financial inclusion and stability: A review of empirical evidence. Digital Finance and Financial Stability literature.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

TURIZM KLASTERLARI FAOLIYATINI MOLIYAVIY VA SOLIQ MEXANIZMLARI ORQALI IQTISODIY RAG'BATLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Abdurazakov Shavkat Shokirdjanovich
mustaqil tadqiqotchi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
E-mail: shavkatabdurazakov@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turizm klasterlari faoliyatini moliyaviy va soliq mexanizmlari orqali iqtisodiy rag'batlantirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi O'zbekiston iqtisodiyotida turizm sohasining strategik tarmoq sifatida jadal rivojlanayotgani, ammo klaster ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy-soliq mexanizmlarining tizimli va samaradorlikka yo'naltirilgan tarzda hali to'liq shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Maqolaning maqsadi turizm klasterlari faoliyatini rag'batlantiruvchi amaldagi moliyaviy va soliq instrumentlarini tahlil qilish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik-iqtisodiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili, SWOT-tahlil elementlari va normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish usullaridan foydalanilgan. Tahlil natijalari 2022–2025 yillarda xorijiy sayyohlar oqimining qariyb 2,25 barobar o'sganini, biroq mavjud soliq imtiyozlarining klaster darajasida emas, balki asosan tarmoq va alohida faoliyat turlari kesimida berilayotganini ko'rsatdi. Maqolada turizm klasterlari uchun differensiallashtirilgan soliq rejimi, klasterlarni rivojlantirish maqsadli jamg'armasi, imtiyozli kreditlash mexanizmlari hamda soliq imtiyozlari samaradorligini monitoring qilish tizimini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Olingan natijalar O'zbekistonda hududiy turizm siyosatini shakllantirishda, shuningdek "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishishda amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *turizm klasteri; soliq imtiyozlari; moliyaviy rag'batlantirish; investitsiya muhiti; qo'shilgan qiymat solig'i; imtiyozli kreditlash; hududiy rivojlanish; turizm iqtisodiyoti.*

УЛУЧШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ КЛАСТЕРОВ ПОСРЕДСТВОМ ФИНАНСОВЫХ И НАЛОГОВЫХ МЕХАНИЗМОВ

Абдуразаков Шавкат Шокирджанович
независимый исследователь
Ташкентский международный химический университет
E-mail: shavkatabdurazakov@gmail.com

Аннотация. *В данной статье исследуются вопросы экономического стимулирования деятельности туристских кластеров посредством финансовых и налоговых механизмов. Актуальность исследования обусловлена тем, что туризм формируется как стратегическая отрасль экономики Узбекистана, однако финансово-налоговые механизмы поддержки участников кластеров пока не сложились в системном виде, ориентированном на результативность. Целью статьи является анализ действующих финансовых и налоговых инструментов стимулирования туристских кластеров, оценка их эффективности и разработка научно обоснованных предложений по их совершенствованию. В исследовании применены методы сравнительного анализа, статистико-экономического анализа, анализа динамических рядов, элементов SWOT-анализа и систематизации нормативно-правовых документов. Результаты анализа показали рост потока иностранных туристов в 2022–2025 годах почти в 2,25 раза, при этом действующие налоговые льготы предоставляются преимущественно в разрезе отрасли и отдельных видов деятельности, а не на уровне кластера. В статье*

разработаны предложения по внедрению дифференцированного налогового режима для туристских кластеров, фонда развития кластеров, механизма льготного кредитования и системы мониторинга эффективности налоговых льгот. Полученные результаты имеют практическое значение для формирования региональной туристской политики Узбекистана, а также для достижения целевых показателей, определённых в рамках стратегии «Узбекистан – 2030».

Ключевые слова: *туристский кластер; налоговые льготы; финансовое стимулирование; инвестиционная среда; налог на добавленную стоимость; льготное кредитование; региональное развитие; экономика туризма.*

IMPROVING ECONOMIC PROMOTION OF TOURISM CLUSTERS THROUGH FINANCIAL AND TAX MECHANISMS

Abdurazakov Shavkat Shokirdjanovich

Independent Researcher
Tashkent International University of Chemistry
E-mail: shavkatabdurazakov@gmail.com

Abstract. *This article examines the economic stimulation of tourism cluster activities through financial and tax mechanisms. The relevance of the study stems from the fact that tourism is being formed as a strategic sector of Uzbekistan's economy, while the financial and tax mechanisms supporting cluster participants have not yet been shaped into a systemic, performance-oriented framework. The purpose of the article is to analyze the existing financial and tax instruments stimulating tourism clusters, assess their strengths and weaknesses, and develop scientifically grounded proposals for their improvement. The study employs methods of comparative analysis, statistical-economic analysis, time-series analysis, elements of SWOT analysis, and systematization of legal and regulatory documents. The results reveal that the inflow of foreign tourists grew by nearly 2.25 times during 2022–2025, while the existing tax incentives are mainly granted at the sectoral and activity-specific level rather than at the cluster level. The article develops proposals for introducing a differentiated tax regime for tourism clusters, a cluster development fund, a preferential lending mechanism, and a monitoring system for the effectiveness of tax incentives. The findings have practical significance for shaping Uzbekistan's regional tourism policy and for achieving the targets set within the "Uzbekistan – 2030" strategy.*

Keywords: *tourism cluster; tax incentives; financial stimulation; investment climate; value added tax; preferential lending; regional development; tourism economy.*

Kirish

So'nggi o'n yillikda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Turizm nafaqat valyuta tushumlarini ta'minlovchi, balki yangi ish o'rinlari yaratuvchi, hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni qisqartiruvchi va tadbirkorlik faolligini oshiruvchi kompleks tarmoq sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, turizm sohasining barqaror va yuqori sur'atlarda rivojlanishi ko'pincha alohida korxonalar darajasida emas, balki hududiy va tarmoqlararo integratsiyalashgan tuzilmalar — turizm klasterlari darajasida yuzaga keladi. Klaster yondashuvi mehmonxona xo'jaligi, transport-logistika, umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik, madaniy-tarixiy meros obyektlarini boshqarish, moliya-kredit tashkilotlari va ta'lim muassasalarini yagona qiymat zanjiriga birlashtirib, sinergetik iqtisodiy samara yaratish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda turizmni ustuvor strategik yo'nalish sifatida rivojlantirish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2016-yil 2-dekabrda qabul qilingan PF-4861-son Farmon bilan boshlangan institutsional islohotlar 2017–2019 yillarda viza rejimining liberallashtirilishi, xalqaro aviaqatnovlar sonining ortishi hamda yangi turistik zonalar

va klasterlarning tashkil etilishi bilan davom etdi. 2024–2025 yillarda esa turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirishga qaratilgan bir qator yangi farmon va qarorlar qabul qilindi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 2022 yilda 5,2 million kishini, 2023 yilda 6,6 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 8,2 million kishidan oshdi, 2025 yilga kelib esa 11,7 million kishiga yetdi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida 2030 yilga qadar xorijiy sayyohlar sonini 15 million kishiga, ichki sayyohlar sonini 25 million kishiga hamda turizm xizmatlari eksportini 5 milliard AQSH dollariga yetkazish vazifasi belgilangan. Bunday yuqori maqsadlarga erishish, birinchi navbatda, turizm infratuzilmasiga xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda ularning faoliyatini rag'batlantiruvchi samarali soliq mexanizmlarini shakllantirishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda O'zbekistonda qo'llanilayotgan moliyaviy va soliq rag'batlantirish choralarining katta qismi tarmoq yoki alohida faoliyat turi (masalan, mehmonxona xo'jaligi, umumiy ovqatlanish, turoperatorlik) kesimida berilmoqda; klaster darajasida — ya'ni bir hududda joylashgan, o'zaro texnologik va tijorat aloqalariga ega bo'lgan turizm subyektlari majmui uchun mo'ljallangan yaxlit rag'batlantirish tizimi hali shakllanmagan. Bu esa klaster ishtirokchilari o'rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish, hududiy turizm zanjirlarini rivojlantirish va qo'shimcha qiymat yaratishning yagona iqtisodiy makonini shakllantirish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Muammoning dolzarbligi yana shundaki, taqdim etilayotgan soliq imtiyozlari va boshqa yengilliklarning aniq maqsadlarga yo'naltirilganligiga qaramasdan, ularning iqtisodiy samaradorligini baholash tizimi hanuzgacha izchil shakllantirilmagan. Natijada davlat byudjetidan sarflanayotgan moliyaviy resurslarning haqiqiy iqtisodiy-ijtimoiy natijaviyligini aniq baholab bo'lmayapti, bu esa rag'batlantirish siyosatini ilmiy asoslangan tarzda takomillashtirishni obyektiv zaruratga aylantirmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda turizm klasterlari faoliyatini rag'batlantiruvchi moliyaviy va soliq mexanizmlarining amaldagi holatini tahlil qilish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda klaster darajasida samarali ishlaydigan, monitoring va baholash tizimi bilan uyg'unlashtirilgan takomillashtirilgan mexanizmlar majmuini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: turizm klasteri tushunchasining nazariy-uslubiy asoslarini tizimlashtirish; O'zbekistonda amaldagi moliyaviy-soliq rag'batlantirish choralarini inventarizatsiya qilish va tahlil etish; xorijiy davlatlarning turizm klasterlarini rag'batlantirish tajribasini o'rganish; hamda milliy sharoitga moslashtirilgan, amaliy ahamiyatga ega takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan turizm klasterlari va ularni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy-soliq munosabatlar tizimi, predmeti sifatida esa ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizmlar, instrumentlar va ularning iqtisodiy samaradorligi belgilandi.

Adabiyotlar sharhi

Turizm klasterlari nazariyasi zamonaviy iqtisodiy fanning klaster yondashuvi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib kelmoqda. Klaster tushunchasi ilmiy muomalaga M. Porter tomonidan kiritilgan bo'lib, u klasterni geografik jihatdan yaqin joylashgan, o'zaro bog'liq korxonalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar hamda tegishli institutlar (universitetlar, standartlashtirish agentliklari, savdo uyushmalari) majmuasi sifatida ta'riflagan va ularning raqobatbardoshlikka ta'sirini asoslab bergan. Porter kontseptsiyasiga ko'ra, klaster ichidagi geografik yaqinlik va o'zaro raqobat-hamkorlik muhiti innovatsion faollikni kuchaytiradi, tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi hamda mahalliy iqtisodiyotning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvini tezlashtiradi.

Turizm sohasiga nisbatan klaster yondashuvini qo'llash borasidagi tadqiqotlar 1990-

yillarning oxiri – 2000-yillarning boshlaridan boshlab faollashgan. Xususan, turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligini baholovchi kontseptual modellar turizm klasterini nafaqat tadbirkorlik subyektlari yig'indisi, balki tabiiy-rekreatsion resurslar, madaniy meros, infratuzilma, inson kapitali va institutsional muhitni birlashtiruvchi murakkab tizim sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvda destinatsiya raqobatbardoshligi to'rtta asosiy omil guruhi — yadroviy resurslar va jalb qiluvchi omillar, qo'llab-quvvatlovchi omillar va resurslar, destinatsiyani boshqarish hamda talab shart-sharoitlari — o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi deb hisoblanadi. Bunday yondashuv moliyaviy-soliq siyosatini ushbu omillar tizimidagi "qo'llab-quvvatlovchi omillar" tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Boshqa yo'nalishdagi tadqiqotlarda esa turizm destinatsiyalari bevosita klaster nazariyasi doirasida tahlil qilinib, ularning shakllanishida geografik jamlanish (agglomeratsiya), tarmoqlararo kooperatsiya va institutsional qo'llab-quvvatlashning o'rni alohida ko'rsatib berilgan.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) va Dunyo sayohat va turizm kengashi (WTTC) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham turizm klasterlari va turistik zonalarni rivojlantirishning iqtisodiy o'sish, bandlik va eksport salohiyatiga ta'siri muntazam tahlil qilib boriladi. Ushbu tashkilotlarning hisobotlarida ta'kidlanishicha, klaster asosidagi rivojlanish modelini qo'llagan davlatlarda turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va bandlikka ta'siri nisbatan yuqori sur'atlarda o'sib boradi, bu esa davlat siyosatini klaster mantig'iga moslashtirishning ahamiyatini oshiradi.

Post-sovet makonida va xususan O'zbekistonda turizm iqtisodiyoti masalalari so'nggi yillarda faol tadqiq etilmoqda. Mahalliy iqtisodchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekistonda 2012–2024 yillar davomida turistik oqim dinamikasi vaqt qatorlari tahlili asosida o'rganilgan bo'lib, 2017–2019 yillardagi viza siyosatining liberallashtirilishi va infratuzilmaviy islohotlar natijasida keskin o'sish, 2020–2021 yillarda pandemiya tufayli jiddiy pasayish, 2022 yildan boshlab esa barqaror tiklanish tendensiyasi qayd etilgan. Boshqa tadqiqotlarda turizm sohasini moliyaviy va investitsion qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, davlat investitsiya siyosati hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish omillari tahlil qilingan bo'lib, ularda turizm klasterlarini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi alohida baholangan.

Hududiy jihatdan, ayrim tadqiqotlarda O'zbekiston sharoitida turizm klasterlarini rivojlantirish perspektivalari o'rganilib, bunday yondashuvning mintaqaviy tengsizliklarni bartaraf etish, ishsizlikni kamaytirish va investitsiyalarni jalb qilishda samarali mexanizm bo'lishi mumkinligi asoslab berilgan. Jizzax viloyati misolida o'tkazilgan tadqiqotda hududning geografik-resurs salohiyatidan kelib chiqqan holda ixtisoslashgan turizm klasterlarini tashkil etish yo'nalishlari ko'rsatib berilgan, jumladan to'g'ridan-to'g'ri (mehmonxonalar, restoranlar, diqqatga sazovor joylar) va bilvosita bandlikni ta'minlovchi tarmoqlarning o'zaro bog'liqligi tahlil qilingan.

Soliq siyosati nuqtai nazaridan, tadqiqotchilar tomonidan soliq imtiyozlarining uch shakli — soliqdan to'liq ozod etish, vaqtincha yoki qisman ozod etish hamda soliq bazasini kamaytirish — farqlanadi va ularning har biri turli maqsadlarga xizmat qilishi ko'rsatib o'tiladi. Shu bilan birga, muhim metodologik muammo sifatida taqdim etilayotgan soliq imtiyozlari va boshqa yengilliklarning aniq maqsadlarga yo'naltirilganligiga qaramasdan, ularning iqtisodiy samaradorligini tizimli baholash mexanizmining hozircha shakllanmaganligi qayd etiladi. Bu esa soliq imtiyozlarining byudjetga solinmagan soliq daromadi ("tax expenditure") shaklida ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda, ularni aniq monitoring va hisobga olish tizimi bilan ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Turizm infratuzilmasini rag'batlantirishning tarmoqlararo tajribasi nuqtai nazaridan, sanoat klasterlarini tashkil etishning hududiy xususiyatlarini o'rganuvchi tadqiqotlar ham diqqatga sazovor, chunki ular klaster siyosatining umumiy tamoyillari — hududiy ixtisoslashuv, qiyosiy ustunliklardan foydalanish va tarmoqlararo integratsiya — turizm sohasiga ham tatbiq etilishi mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek, "yashil" mehmonxona sertifikatlashtirish tizimini joriy

etish bo'yicha o'tkazilgan qiyosiy tadqiqotda Turkiya, Ispaniya, Birlashgan Arab Amirliklari va Yaponiya tajribasi tahlil qilinib, soliq imtiyozlari, subsidiyalar, imtiyozli kreditlash hamda davlat xaridlari tizimiga ekologik mezonlarni kiritish kabi rag'batlantirish instrumentlari mahalliy sharoitga moslashtirilgan holda taklif etilgan. Xorijiy tajribadan ko'rinadiki, rivojlangan turizm iqtisodiyotiga ega davlatlarda moliyaviy-soliq rag'batlantirish choralari alohida korxona emas, balki maxsus turizm zonalari yoki klasterlari darajasida — ya'ni hududiy-tarmoqlararo tuzilma sifatida — qo'llaniladi, bu esa resurslarning bir joyga jamlanishi (agglomeratsiya samarasi) hisobiga yuqoriroq iqtisodiy natija berishini ta'minlaydi.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahliliga yakun yasab, shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda turizm iqtisodiyoti, klaster siyosati va soliq rag'batlantirish mexanizmlari bo'yicha ilmiy baza faol shakllanmoqda, biroq bu uch yo'nalishni — klaster nazariyasi, moliyaviy-soliq siyosati va samaradorlikni baholash tizimini — yaxlit uslubiy asosda birlashtiruvchi kompleks tadqiqotlar hali yetarli emas. Aynan shu bo'shliq (ilmiy tadqiqot bo'shlig'i) ushbu maqolaning ilmiy yangiligini va dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodologiyasi sifat va miqdor tahlili usullarini uyg'unlashtirgan kompleks yondashuvga asoslangan. Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy metodlardan foydalanildi.

Normativ-huquqiy tahlil usuli. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Soliq kodeksining tegishli moddalari hamda tarmoq dasturlari (jumladan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha 2024–2025 yillardagi farmon va qarorlar) tizimli tahlil qilindi va ular asosida turizm sohasidagi amaldagi moliyaviy-soliq rag'batlantirish instrumentlari inventarizatsiya qilindi.

Statistik-iqtisodiy tahlil usuli. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Turizm qo'mitasi hamda xalqaro tashkilotlar (UNWTO, WTTC)ning rasmiy ma'lumotlaridan foydalangan holda, 2019–2025 yillar davomida xorijiy sayyohlar oqimi, turistik xizmatlar eksporti hamda turizm subyektlari sonining dinamikasi tahlil qilindi.

Dinamik qatorlar va tendensiyalarni tahlil qilish usuli. Turistik oqim va eksport ko'rsatkichlarining yillar kesimidagi o'zgarish sur'atlari (o'sish foizlari) hisoblab chiqildi hamda ularning moliyaviy-soliq siyosatidagi o'zgarishlar bilan xronologik bog'liqligi baholandi. Bunda qat'iy korrelyatsion-regression bog'liqlik emas, balki institutsional voqealar (farmon yoki qaror qabul qilinishi) bilan ko'rsatkichlar dinamikasi o'rtasidagi qo'shma harakat (ko-varyatsiya) tahlil qilindi, chunki mavjud ma'lumotlar hajmi qat'iy ekonometrik model qurish uchun yetarli emas.

Qiyosiy tahlil usuli. O'zbekistondagi amaldagi mexanizmlar Turkiya, Ispaniya, Birlashgan Arab Amirliklari va Yaponiya kabi turizm sohasi rivojlangan davlatlarning tajribasi bilan qiyoslandi, bu esa milliy sharoitga moslashtirilishi mumkin bo'lgan yechimlarni aniqlash imkonini berdi.

SWOT-tahlil elementlari. Amaldagi moliyaviy-soliq rag'batlantirish tizimining kuchli va zaif tomonlari, shuningdek klaster darajasida rag'batlantirishni joriy etishning imkoniyat va tahdidlari tizimlashtirildi.

Tizimli yondashuv va abstraktlashtirish usuli. Turizm klasteri "resurslar – infratuzilma – institutlar – moliyaviy-soliq muhit – iqtisodiy natija" ko'rinishidagi yaxlit tizim sifatida modellashtirildi, bu esa takliflarni izolyatsiyalangan chora sifatida emas, balki o'zaro bog'liq mexanizmlar majmui sifatida shakllantirish imkonini berdi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi (lex.uz), Milliy statistika qo'mitasining rasmiy sayti (stat.uz), Turizm qo'mitasining hisobotlari (uzbektourism.uz), shuningdek UNWTO va WTTC tomonidan e'lon qilingan xalqaro statistik hisobotlar tashkil etdi. Tadqiqot davri sifatida 2016–2025 yillar oralig'i tanlab olindi, chunki aynan shu davrda O'zbekistonda turizm sohasini institutsional qayta qurish va faol rag'batlantirish siyosati boshlangan.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida shuni ta'kidlash lozimki, turizm klasterlari darajasidagi

ajratilgan statistik ma'lumotlar (masalan, alohida klaster kesimida soliq tushumlari yoki imtiyozlar hajmi) rasmiy statistikada alohida agregatsiyalanmaganligi sababli, tahlil asosan tarmoq darajasidagi ma'lumotlar va institutsional-huquqiy hujjatlar tahliliga tayanib olib borildi. Shunga qaramay, qo'llanilgan kompleks metodologiya klaster darajasidagi rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish uchun yetarli asos yaratdi.

Tahlil va natijalar

Turizm sohasining joriy holati va rivojlanish dinamikasi

So'nggi olti yil davomida O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar sonining dinamikasi sohadagi institutsional islohotlarning bevosita natijasi sifatida baholanishi mumkin (1-rasm). 2019 yilda mamlakatga 6,75 million nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2020–2021 yillarda COVID-19 pandemiyasi tufayli sayyohlar oqimi keskin qisqardi. 2022 yildan boshlab sohada barqaror tiklanish kuzatildi: 2022 yilda 5,2 million, 2023 yilda 6,6 million, 2024 yilda 8,2 milliondan ortiq, 2025 yilda esa 11,7 million xorijiy sayyoh mamlakatga tashrif buyurdi. Bu ko'rsatkich 2022–2025 yillar oralig'ida sayyohlar oqimining qariyb 2,25 barobarga oshganidan dalolat beradi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq, 2030 yilga qadar xorijiy sayyohlar sonini 15 million kishiga yetkazish maqsad qilingan, bu esa joriy o'sish sur'atlari saqlanib qolgan taqdirda erishish mumkin bo'lgan, ammo qo'shimcha rag'batlantirish choralarisiz kafolatlanmagan vazifadir.

1-rasm.

O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar sonining dinamikasi va 2030-yilgi maqsadli ko‘rsatkich



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va Turizm qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Rasmda aks ettirilgan dinamika shuni ko'rsatadiki, sayyohlar oqimining eng yuqori o'sish sur'ati (2024–2025 yillarda 42 foizdan ortiq) aynan 2024 yilning ikkinchi yarmida qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar — xususan, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish bo'yicha hujjatlar — qabul qilingandan keyingi davrga to'g'ri keladi. Bu esa moliyaviy-soliq rag'batlantirish choralari bilan turistik oqim dinamikasi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatuvchi dastlabki empirik dalil sifatida baholanishi mumkin, garchi bu bog'liqlikni yakuniy tasdiqlash uchun kengroq vaqt oralig'idagi ekonometrik tahlil talab etiladi.

Shuningdek, turistik xizmatlar eksporti ham sezilarli o'sish dinamikasini namoyon etmoqda: 2023 yilda sayohat xizmatlari mamlakat umumiy xizmatlar eksportining 41 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilning to'qqiz oyida turistik xizmatlar eksporti 3,6 milliard AQSH dollaridan oshdi. Bu esa "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan 5 milliard dollarlik

maqsadga erishish yo'lida ijobiy tendensiyadan dalolat beradi. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasining kengayishi ham diqqatga sazovor: 2024 yilning uchinchi choragida faoliyat yurituvchi turoperator va turagentlar soni 193 tadan 271 taga, joylashtirish vositalari soni esa mos ravishda oshgan.

Amaldagi moliyaviy-soliq rag'batlantirish mexanizmlari tahlili

O'zbekistonda turizm sohasini rag'batlantirishga qaratilgan moliyaviy-soliq instrumentlari 2016 yildan buyon bosqichma-bosqich shakllanib kelmoqda. Ularning tizimli tahlili 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

O'zbekistonda turizm klasterlari faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan asosiy moliyaviy-soliq mexanizmlari*

№	Mexanizm turi va normativ-huquqiy asosi	Amal qilish muddati	Rag'batlantirish miqdori / sharti	Kutilayotgan iqtisodiy samara
1	QQS (qo'shilgan qiymat solig'i)ning qisman qaytarilishi — turizm va mehmonxona biznesi sohasidagi korxonalar uchun	Amaldagi	To'langan QQS summasining 20 foizi miqdorida	Aylanma mablag'larni bo'shatish, korxonalar likvidligini oshirish
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari uchun foyda solig'i stavkasining pasaytirilishi	Amaldagi	Belgilangan stavkaning 50 foizigacha	Klaster tarkibidagi restoran-kafe segmentini rivojlantirish
3	Xalqaro biznes-tadbirlar (kamida 100 nafar xorijiy ishtirokchi) tashkilotchilari uchun foyda solig'i imtiyozi (PF-102-son Farmon, 18.07.2024)	2028-yil 1-yanvargacha	Belgilangan stavkaga nisbatan 50 foizga kamaytirilgan stavka	MICE-turizmni va konferensiya-klasterlarini rag'batlantirish
4	Turizm faoliyati subyektlari tomonidan import qilinadigan avtobus va mikroavtobuslarga bojxona imtiyozi (PF-102-son Farmon, 18.07.2024)	2025-yil 1-avgustga qadar	Bojxona bojidan to'liq ozod etish	Transport-logistika infratuzilmasini yangilash
5	Kirish turizmi operatorlari uchun aylanma mablag' bilan ta'minlovchi imtiyozli kredit liniyasi (Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi orqali)	2024-yil 1-sentabrdan amalda	50 mln AQSH dollari ekvivalentida, yillik 14 foiz stavkada	Kirish turizmi operatorlarining aylanma mablag' yetishmovchiligini bartaraf etish
6	Tibbiy-sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasi va xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok xarajatlarini qoplash (tegishli davlat jamg'armalari hisobidan)	2027–2028-yillargacha	Davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari hisobidan teng ulushda qoplash	Tibbiy-sog'lomlashtirish turizmi klasterlarini rivojlantirish
7	Turizm va mehmonxona xo'jaligi yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimini moliyalashtirish (PQ-269-son Qaror, 18.07.2024)	2024/2025 o'quv yilidan boshlab	Davlat byudjeti va grant mablag'lari hisobidan, dual ta'lim tizimida	Klaster subyektlari uchun malakali kadrlar zaxirasini shakllantirish

*Muallif ishlanmasi

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, amaldagi rag'batlantirish mexanizmlarining aksariyati (yettita mexanizmdan beshtasi) muayyan faoliyat turi yoki tranzaksiya (masalan, import, QQS, foyda solig'i) kesimida berilmoqda, faqat bittasi (imtiyozli kredit liniyasi) klaster ichidagi asosiy ishtirokchilar guruhi — kirish turizmi operatorlari — uchun mo'ljallangan. Bu esa mavjud tizimning asosiy kamchiligini ko'rsatadi: rag'batlantirish choralari klasterni yaxlit iqtisodiy tizim sifatida emas, balki alohida faoliyat turlari yig'indisi sifatida ko'radi. Natijada klaster ichidagi kichik subyektlar (masalan, oilaviy mehmon uylari, hunarmandchilik ustaxonalari, mahalliy transport xizmati ko'rsatuvchilar) ko'pincha rasmiy rag'batlantirish tizimidan tashqarida qolib ketmoqda, chunki ular yuqorida sanab o'tilgan yirik toifadagi soliq to'lovchilar mezonlariga to'g'ri kelmaydi.

Shuningdek, imtiyozlarning amal qilish muddati bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik chora vaqtinchalik (2025, 2027, 2028 yillarga qadar) xarakterga ega, bu esa investorlar uchun uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishda noaniqlik yaratishi mumkin. Xususan, turizm infratuzilmasiga investitsiya kiritish davri odatda 7–10 yilni tashkil etishini hisobga olsak, 3–4 yillik imtiyoz muddati investitsiya qaytimini to'liq qoplash uchun yetarli bo'lmasligi mumkin.

Turizm klasterlarining hududiy amaliyoti

O'zbekistonda hududiy ixtisoslashuvga asoslangan turizm klasterlarini shakllantirish borasida dastlabki, ammo istiqbolli tajriba to'plangan. Xususan, Buxoro viloyatida madaniy-tarixiy meros obyektlariga asoslangan madaniy klaster, Toshkent viloyatida esa tabiiy-rekreatsion resurslarga tayangan ekoklaster faoliyat yuritmoqda. Ushbu klasterlarning tashkil etilishi natijasida tegishli hududlarda mahalliy sayyohlar sonini 30 foizgacha oshirish rejalashtirilgan edi. Shuningdek, Jizzax viloyati misolida o'tkazilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, hududning geografik joylashuvi va tabiiy-tarixiy salohiyatidan kelib chiqib, "Smart-turizm" tamoyillari asosida ixtisoslashgan klasterlar tashkil etish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Biroq mavjud klasterlarning aksariyati hali institutsional jihatdan to'liq shakllanmagan — ular ko'proq geografik jamlanish (agglomeratsiya) shaklida mavjud bo'lib, rasmiy klaster maqomiga, yagona boshqaruv tuzilmasiga va, eng muhimi, klaster darajasidagi maxsus moliyaviy-soliq rejimiga ega emas. Bu esa O'zbekistonning boshqa tarmoqlarida (masalan, sanoat klasterlari yoki maxsus iqtisodiy zonalar rezidentlari uchun joriy etilgan maxsus soliq rejimlari) muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan klaster-rejim tajribasini turizm sohasiga moslashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Xorijiy tajriba va uni moslashtirish imkoniyatlari

Turizm sohasi rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, moliyaviy-soliq rag'batlantirish choralari, qoida tariqasida, maxsus turizm zonalari yoki klasterlari darajasida qo'llaniladi. Xususan, "yashil" mehmonxona sertifikatlashtirish tizimini rag'batlantirish bo'yicha o'tkazilgan qiyosiy tadqiqotda Turkiya, Ispaniya, Birlashgan Arab Amirliklari va Yaponiya tajribasi tahlil qilingan bo'lib, ushbu davlatlarda soliq imtiyozlari subsidiyalar, imtiyozli kreditlash hamda davlat xaridlari tizimiga ekologik mezonlarni kiritish bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishi aniqlangan. Bunday kompleks yondashuv alohida soliq imtiyozidan farqli o'laroq, klaster ishtirokchilarining barcha moliyaviy ehtiyojlarini (investitsiya, aylanma mablag', innovatsiya) qamrab oluvchi yaxlit qo'llab-quvvatlash paketini yaratadi.

Xorijiy tajribadan yana bir muhim xulosa shundaki, samarali klaster siyosati doimo aniq monitoring va baholash tizimi bilan uyg'unlashtirilgan bo'ladi — ya'ni har bir soliq imtiyozi yoki subsidiya uchun aniq maqsadli ko'rsatkichlar (yangi ish o'rinlari soni, eksport hajmi, investitsiya oqimi) belgilanadi va ularga erishilmagan taqdirda imtiyoz muddati uzaytirilmaydi ("sunset clause" tamoyili). O'zbekiston tajribasida bunday monitoring tizimining yetishmasligi ilgari o'tkazilgan tadqiqotlarda ham alohida qayd etilgan muammo hisoblanadi.

Aniqlangan asosiy muammolar

O'tkazilgan tahlil natijasida turizm klasterlari faoliyatini moliyaviy-soliq rag'batlantirish tizimidagi quyidagi asosiy muammolar aniqlandi: birinchidan, rag'batlantirish choralarining tarmoq yoki faoliyat turi kesimida berilishi, klaster darajasidagi yaxlit rejimning mavjud

emasligi; ikkinchidan, imtiyozlarning asosan qisqa va o'rta muddatli (2025–2028 yillar) xarakterga egaligi, bu esa uzoq muddatli investitsion loyihalar uchun yetarli kafolat bermaydi; uchinchidan, soliq imtiyozlari va boshqa yengilliklarning iqtisodiy samaradorligini baholovchi tizimli monitoring mexanizmining mavjud emasligi; to'rtinchidan, klaster ichidagi kichik va mikro subyektlarning (oilaviy mehmon uylari, hunarmandlar, gid-tarjimonlar) rasmiy rag'batlantirish tizimidan chetda qolishi; beshinchidan, klasterlarni moliyalashtirish uchun maxsus ixtisoslashgan moliyaviy institutning (masalan, klasterlarni rivojlantirish jamg'armasi) mavjud emasligi; oltinchidan, hududlar o'rtasida turizm salohiyati bo'yicha farqlar mavjud bo'lsa-da, rag'batlantirish choralarining barcha hududlar uchun bir xil, ya'ni differensiallashtirilmagan tarzda qo'llanilishi.

Takomillashtirish yo'nalishlari

Yuqorida aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun turizm klasterlari faoliyatini rag'batlantirishning yangi, klaster-markazlashgan modelini shakllantirish zarur. Bunday model kamida to'rtta o'zaro bog'liq komponentni — klaster rezidentlari uchun differensiallashtirilgan soliq rejimi, klasterlarni rivojlantirish maqsadli jamg'armasi, imtiyozli kreditlash va kafolat mexanizmlari hamda soliq imtiyozlari samaradorligini monitoring qilish tizimini — o'z ichiga olishi lozim. Ushbu komponentlarning har biri bo'yicha batafsil takliflar tadqiqotning xulosa va takliflar qismida keltirilgan.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish mumkin. Birinchidan, O'zbekistonda turizm sohasi so'nggi yillarda barqaror va yuqori sur'atlarda rivojlanib bormoqda — xorijiy sayyohlar oqimi 2022–2025 yillar oralig'ida qariyb 2,25 barobarga oshdi, turistik xizmatlar eksporti esa milliard dollarlik ko'rsatkichlarga yetdi. Bu o'sish katta darajada davlat tomonidan qabul qilingan institutsional islohotlar va moliyaviy-soliq rag'batlantirish choralari bilan bog'liq. Ikkinchidan, amaldagi rag'batlantirish mexanizmlari asosan tarmoq yoki alohida faoliyat turi kesimida shakllantirilgan bo'lib, turizm klasterlari darajasida mo'ljallangan yaxlit moliyaviy-soliq rejimi hali shakllanmagan. Uchinchidan, mavjud tizimda soliq imtiyozlari va boshqa yengilliklarning iqtisodiy samaradorligini baholovchi monitoring mexanizmi yetishmaydi, bu esa davlat byudjetidan sarflanayotgan moliyaviy resurslarning haqiqiy natijaviyligini nazorat qilishni qiyinlashtiradi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, turizm klasterlari faoliyatini moliyaviy va soliq mexanizmlari orqali rag'batlantirishni takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Turizm klasterlari uchun differensiallashtirilgan soliq rejimini joriy etish. Rasmiy ro'yxatdan o'tgan turizm klasteri rezidentlari (mehmonxonalar, restoranlar, turoperatorlar, hunarmandchilik ustaxonalari, transport xizmati ko'rsatuvchilar) uchun yagona, klaster maqomiga bog'liq soliq imtiyozlari paketini joriy etish, bunda imtiyoz muddatini investitsiya hajmi va yaratilgan ish o'rinlari soniga bog'liq holda 5–7 yilgacha uzaytirish.

2. Turizm klasterlarini rivojlantirish maqsadli jamg'armasini tashkil etish. Ushbu jamg'arma resurslarini davlat byudjeti mablag'lari, xalqaro moliya institutlari kreditlari hamda klaster ishtirokchilarining a'zolik badallari hisobidan shakllantirish, mablag'larni esa umumiy foydalanishdagi infratuzilma va kichik tadbirkorlik loyihalarini subsidiyalashga yo'naltirish maqsadga muvofiq.

3. Klaster ichidagi kichik va mikro subyektlar uchun imtiyozli mikromoliyalashtirish mexanizmini kengaytirish. Oilaviy mehmon uylari, gid-tarjimonlar, hunarmandchilik ustaxonalari kabi kichik subyektlar uchun soddalashtirilgan ro'yxatdan o'tish tartibi va imtiyozli mikrokreditlar (yillik foiz stavkasini davlat tomonidan subsidiyalash orqali) joriy etish.

4. Soliq imtiyozlari samaradorligini monitoring qilish va baholash tizimini yaratish. Har bir soliq imtiyozi yoki subsidiya turi uchun aniq maqsadli ko'rsatkichlarni (yangi ish o'rinlari, investitsiya hajmi, eksport ko'rsatkichlari) belgilash, ularga erishish darajasini yillik monitoring

qilish hamda natijalarga erishilmagan holatlarda imtiyozni qayta ko'rib chiqish tartibini nazarda tutish.

5. Hududlar bo'yicha differensiallashtirilgan rag'batlantirish stavkalarini joriy etish. Turizm salohiyati past bo'lgan hududlarda yuqoriroq imtiyoz stavkalarini, yuqori rivojlangan turizm markazlarida (Samarqand, Buxoro, Xiva) esa infratuzilma sifatini oshirishga yo'naltirilgan maqsadli subsidiyalarni qo'llash.

6. Klaster rezidentlari uchun QQSni qaytarish mexanizmini soddalashtirish va kengaytirish. Hozirda alohida faoliyat turlariga tegishli QQS qaytarish tartibini klaster rezidenti maqomiga ega bo'lgan barcha subyektlarga, shu jumladan kichik va o'rta biznesga kengaytirish hamda qaytarish jarayonini raqamlashtirish.

7. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini turizm klasterlari infratuzilmasini rivojlantirishda faolroq qo'llash. Yo'l, kommunikatsiya va umumiy foydalanishdagi turistik infratuzilma loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish orqali davlat byudjetiga tushadigan yukni kamaytirish.

8. Milliy statistika tizimida turizm klasterlari kesimida alohida statistik hisobga olishni yo'lga qo'yish. Bu klaster darajasidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni (soliq tushumlari, investitsiyalar, bandlik) alohida kuzatish va kelajakdagi tadqiqotlar uchun ishonchli ma'lumotlar bazasini shakllantirish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan takliflarning amalga oshirilishi, bir tomondan, turizm klasterlari faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga — 15 million xorijiy sayyoh va 5 milliard AQSH dollarlik turizm xizmatlari eksporti — erishishga xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu takliflarning miqdoriy iqtisodiy samaradorligini baholovchi ekonometrik modellarni ishlab chiqish dolzarb yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi PF-4861-son "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. — 2016.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni // lex.uz.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-269-son "Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // lex.uz.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87-son "2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // lex.uz.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining turizm infratuzilmasini rivojlantirish va mehmonxona biznesini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori. — 2023.

6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Turizm va mehmonxona xizmatlari bo'yicha statistik ma'lumotlar, 2019–2025 // stat.uz.

7. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. Turizm industriyasining rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha hisobotlar, 2024–2025 // uzbektourism.uz.

8. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. — New York: Free Press, 1990.

9. Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. — 1998. — Vol. 76, № 6. — P. 77–90.

10. Crouch G.I., Ritchie J.R.B. Tourism, Competitiveness, and Societal Prosperity // Journal of Business Research. — 1999. — Vol. 44, № 3. — P. 137–152.

11. Jackson J., Murphy P. Tourism destinations as clusters: Analytical experiences from the New World // Tourism and Hospitality Research. — 2002. — Vol. 4, № 1. — P. 36–52.
12. World Tourism Organization (UNWTO). World Tourism Barometer. — Madrid: UNWTO, 2019.
13. World Tourism Organization (UNWTO). International Tourism Highlights. — Madrid: UNWTO, 2021.
14. World Travel & Tourism Council (WTTC). Economic Impact Research: Uzbekistan. — London: WTTC, 2024.
15. International Monetary Fund (IMF). Economic Diversification and Tourism Sector Development in Emerging Economies: IMF Working Paper. — Washington, D.C.: IMF, 2023.
16. Kungratov I. O'zbekiston Respublikasida 2012–2024 yillar davomida turistik oqim dinamikasi tahlili // ResearchGate. — 2026.
17. Bau Long. O'zbekistonda turizm salohiyatini rivojlantirishning moliyaviy va investitsion omillari // Insurance market of Uzbekistan. — 2026. — Vol. 3, № 2. — P. 185–188.
18. Isroilov B., Sharipov X. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda viza siyosatining ta'siri // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2019.
19. Islomov O. O'zbekistonda ichki turizm sohasida qonun ustuvorligini ta'minlash masalalari // InLibrary ilmiy jurnallar to'plami. — 2025.
20. Usmonova V. va boshq. "Yashil" mehmonxona sertifikatlashtirish tizimini O'zbekistonda joriy etish: to'siqlar va rag'batlantirish mexanizmlari // Scientific practical conference. — 2026.
21. Ruzmetov B., Kadirov A., Abdullayev I. va boshq. O'zbekistonda sanoatni rivojlantirish va shakllantirishda klasterlarni tashkil etishning hududiy xususiyatlari (Xorazm viloyati misolida) // ResearchGate. — 2023.
22. Amonboyev M., Xalilov S. Barqaror turizm rivojlanishi: o'quv qo'llanma. — Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2020.
23. Amonboyev M., Abidova D.I., Jurayeva N.A. Turizm iqtisodiyoti va menejmenti: o'quv qo'llanma. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
24. Алиева Г.И. Туризмнинг мамлакат иқтисодиётида тутган ўрни // Молодой ученый. — 2017. — № 24. — С. 158.
25. Xudoyorov A. Turizm va mehmonxona industriyasi asoslari. — Toshkent, 2021.
26. Beksultanova A., Majitova A. O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarining strategik rivojlanishida turizm industriyasining o'rni // ResearchGate. — 2021.
27. Korxonalarning investitsiya faolligini ta'minlashda soliq rag'batlarining samaradorligini oshirish // ResearchGate. — 2023.
28. O'zbekiston Respublikasining 2024-yilgi soliq qonunchilik hujjatlariga kiritilgan asosiy o'zgarish va soliq imtiyozlari berish tartibini takomillashtirish masalalari // ResearchGate. — 2024.
29. Jizzax viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida turizmning ahamiyati va roli: yangicha Smart yo'nalishlar va mexanizmlar // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. — 2023. — Maxsus son.
30. O'zbekiston hududlarida turizmni rivojlantirish strategiyalari // Journal of Economics, Tourism and Sport (JETS). — 2025.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI

Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti
iqtisodiyot fakulteti
Yoshlar ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari
E-mail: kurbanovulug5@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlarini boshqarishning zamonaviy mexanizmlari yoritilgan. Raqamli texnologiyalarning aholi daromadlari, bandlik va tadbirkorlik faoliyatiga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, daromadlarni oshirish va diversifikatsiya qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot asosida aholi daromadlarini samarali boshqarish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, aholi daromadlari, daromadlarni boshqarish, raqamli texnologiyalar, bandlik, daromadlarni diversifikatsiya qilish.*

МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ДОХОДАМИ НАСЕЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Курбанов Улугбек Эркинович
Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека,
экономический факультет
заместитель декана по делам молодежи
E-mail: kurbanovulug5@gmail.com

Аннотация. *В статье рассматриваются современные механизмы управления доходами населения в условиях цифровой экономики. Анализируется влияние цифровых технологий на доходы населения, занятость и предпринимательскую деятельность. Также рассматриваются возможности повышения и диверсификации доходов. На основе исследования разработаны предложения по эффективному управлению доходами населения.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, доходы населения, управление доходами, цифровые технологии, занятость, диверсификация доходов.*

MECHANISMS FOR MANAGING POPULATION INCOME IN THE DIGITAL ECONOMY

Kurbanov Ulugbek Erkinovich
Faculty of Economics,
National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek Deputy Dean for Youth Affairs
E-mail: kurbanovulug5@gmail.com

Abstract. *This article examines modern mechanisms for managing household incomes in the digital economy. The impact of digital technologies on household income, employment, and entrepreneurial activity is analyzed. Opportunities for increasing and diversifying incomes are also considered. Based on the research, proposals for effective household income management are developed.*

Keywords: *digital economy, household income, income management, digital technologies, employment, income diversification.*

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi aholi daromadlarini shakllantirish va boshqarish jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlarini samarali boshqarish va diversifikatsiya qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur sohadagi asosiy muammolardan biri raqamli imkoniyatlardan foydalanish darajasining yetarli emasligi hamda aholining daromad manbalarini kengaytirish va barqarorlashtirish mexanizmlarining to‘liq shakllanmaganligidir.

Tadqiqotning maqsadi — raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish. Ushbu maqsadga erishish uchun aholi daromadlarini shakllantirish manbalarini o‘rganish, raqamli texnologiyalarning daromadlarga ta’sirini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va daromadlarni diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini baholash vazifalari belgilandi.

Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlarining shakllanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni tobora ortib bormoqda. Kichik biznes subyektlarining yangi texnologiyalarni joriy etishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va bozorda raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini beradi. Bu jarayon, o‘z navbatida, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi va mehnat daromadlarining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Aholi daromadlarini oshirishda kichik biznesning iqtisodiy samaradorligini baholashda korxonalar soni, ishlab chiqarish va xizmatlar hajmi, band bo‘lganlar soni, mehnat unumdorligi, foyda, rentabellik hamda yaratilgan yangi ish o‘rinlari kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish muhimdir. Ushbu ko‘rsatkichlarning dinamikasi kichik biznesning iqtisodiy faolligi va uning aholi farovonligiga ta’sirini aniqlash imkonini beradi.

Kichik biznesning rivojlanishi aholining nafaqat ish haqi ko‘rinishidagi, balki tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlarini ham oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, oilaviy tadbirkorlik, o‘zini o‘zi band qilish, hunarmandchilik, xizmat ko‘rsatish va elektron tijorat kabi yo‘nalishlarning kengayishi aholining qo‘shimcha daromad manbalarini shakllantirish imkoniyatini yaratmoqda.

Shu bilan birga, kichik biznesning aholi daromadlariga ta’siri hududlar bo‘yicha bir xil emas. Hududlarning iqtisodiy salohiyati, infratuzilma darajasi, mehnat resurslari, iste’mol bozori, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati va raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi kichik biznes samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli mazkur jarayonlarni hududlar kesimida o‘rganish ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Tadqiqotda kichik biznesning iqtisodiy samaradorligi va aholi daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga alohida e’tibor qaratiladi. Bunda statistik ma’lumotlar asosida ko‘rsatkichlarning o‘zgarish dinamikasi, o‘zaro bog‘liqligi va mavjud tendensiyalari tahlil qilinadi. Olingan natijalar asosida kichik biznesni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilanadi.

Adabiyotlar sharhi

Aholi daromadlari va ularni boshqarish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘rganilgan. Xususan, J.M. Keynes daromad, iste’mol va jamg‘arish o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslab, aholi daromadlarining iqtisodiy faollikka ta’sirini yoritgan. T. Piketty esa daromadlar taqsimoti va tengsizligi masalalarini tadqiq qilib, daromadlarning barqaror shakllanishi va taqsimlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ko‘rsatib bergan.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan aholi daromadlarini shakllantirishning yangi imkoniyatlari yuzaga kelmoqda. D. Tapscott raqamli texnologiyalarning iqtisodiy jarayonlarga ta’sirini o‘rganib, raqamli muhitning yangi biznes va bandlik shakllarini rivojlantirishdagi rolini ta’kidlagan. K. Schwab esa raqamli texnologiyalar ta’sirida mehnat bozori va iqtisodiy munosabatlarda yuz berayotgan o‘zgarishlarni tahlil qilgan.

Mahalliy tadqiqotlarda ham aholi daromadlarini oshirish, bandlikni ta’minlash va daromadlar tengsizligini kamaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Biroq raqamli iqtisodiyot sharoitida aholining daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, raqamli bandlik imkoniyatlaridan foydalanish va daromadlarni boshqarish mexanizmlarini kompleks tadqiq etish masalalari yanada chuqur o‘rganishni talab etadi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot mavjud ilmiy yondashuvlarni rivojlantirib, raqamli texnologiyalarning aholi daromadlarini boshqarishdagi imkoniyatlarini baholashga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlarini boshqarish mexanizmlarini o‘rganishda tizimli tahlil, taqqoslash, guruhlash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, aholi daromadlari va raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsadida statistik va iqtisodiy tahlil usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy statistik ma’lumotlari, xalqaro tashkilotlarning statistik ma’lumotlari hamda raqamli iqtisodiyot va aholi daromadlariga oid ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Olingan ma’lumotlar asosida aholi daromadlarining shakllanishi, o‘zgarish dinamikasi va diversifikatsiya imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va aholi daromadlarining o‘zgarish dinamikasini baholash maqsadida 2010–2025-yillar bo‘yicha aholi umumiy daromadlari hamda axborot-aloqa xizmatlari hajmi tahlil qilindi. Mazkur ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan aholi daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash imkonini beradi.

1-rasm.

Aholi daromadlar va Axborot-aloqa xizmatlari dinamikasi.*



*Muallif Ishlanmasi

Yuqoridagi grafik ma’lumotlarga ko‘ra, aholi umumiy daromadlari 2010-yildagi 62 631,6 mlrd so‘mdan 2025-yilda 1 134 252,7 mlrd so‘mga, ya’ni 18,1 baravar oshgan. Shu davrda axborot va aloqa xizmatlari hajmi 2 080,2 mlrd so‘mdan 79 485,5 mlrd so‘mgacha, ya’ni 38,2 baravar ko‘paygan.

Mazkur ko‘rsatkichlar dinamikasining qiyosiy tahlili axborot va aloqa xizmatlari hajmining aholi daromadlariga nisbatan yuqoriroq sur’atlarda o‘sib borganligini ko‘rsatadi. Xususan, 2010–2025-yillarda aholi daromadlari 1 071 foizga oshgan bo‘lsa, axborot va aloqa xizmatlari 3 721 foizga o‘sgan. Ayniqsa, 2020-yildan keyingi davrda ushbu tafovut yanada yaqqol namoyon bo‘lgan: axborot va aloqa xizmatlari hajmi 2020-yildagi 15 861,1 mlrd so‘mdan

2025-yilda 79 485,5 mlrd so‘mga, aholi umumiy daromadlari esa 441 203,7 mlrd so‘mdan 1 134 252,7 mlrd so‘mga yetgan.

Shuningdek, axborot va aloqa xizmatlarining aholi umumiy daromadlariga nisbati ham tahlil davrining oxirgi yillarida ortib borgan. Mazkur nisbat 2020-yilda 3,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 5,1 foiz, 2024-yilda 6,0 foiz va 2025-yilda 7,0 foizga yetgan. Bu holat raqamli xizmatlar iqtisodiyotda tobora muhimroq o‘rin egallayotganini hamda raqamli faoliyat bilan bog‘liq iqtisodiy imkoniyatlarning kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu nisbatni aholining raqamli xizmatlardan oladigan bevosita daromadi sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas, chunki axborot va aloqa xizmatlari ko‘rsatkichi mazkur sohada faoliyat yurituvchi korxonalar tushumlarini ifodalaydi.

Mazkur ikki ko‘rsatkichning bir yo‘nalishda va izchil o‘sishi raqamli iqtisodiyot rivojlanishi hamda aholi daromadlarining o‘sishi o‘rtasida ijobiy statistik bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Buning iqtisodiy mazmuni shundaki, telekommunikatsiya, dasturlash, axborot xizmatlari, elektron tijorat va boshqa raqamli faoliyat turlarining kengayishi yangi mehnat va tadbirkorlik imkoniyatlarini shakllantiradi. Rasmiy statistik metodologiyada axborot va aloqa xizmatlari tarkibiga telekommunikatsiya, dasturlash, axborot xizmatlari va boshqa tegishli faoliyatlar kiritilgan.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi aholi daromadlarini boshqarishning yangi mexanizmlarini shakllantirish uchun muhim iqtisodiy asos yaratmoqda. Axborot va aloqa xizmatlari hajmining jadal o‘sishi aholining raqamli iqtisodiyotdagi ishtiroki, yangi bandlik shakllari va qo‘shimcha daromad manbalarini shakllantirish imkoniyatlarining kengayayotganidan dalolat beradi. Bu esa aholi daromadlarini diversifikatsiya qilish va ularni boshqarish mexanizmlarini raqamli imkoniyatlar asosida takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi aholi daromadlarini shakllantirish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotdan olinadigan iqtisodiy manfaatlarni kengaytirish uchun aholining raqamli salohiyati, yangi bandlik shakllari va raqamli infratuzilmadan foydalanish imkoniyatlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Raqamli bandlik va daromadlarni rasmiylashtirish mexanizmini takomillashtirish. Frilans, masofaviy mehnat va raqamli platformalar orqali faoliyat yurituvchi aholining daromadlarini qonuniy va qulay tartibda rasmiylashtirish uchun soddalashtirilgan raqamli mexanizmlarni rivojlantirish taklif etiladi. Bu yangi daromad manbalarini statistik hisobga olish va ijtimoiy himoya mexanizmlarini kengaytirish imkonini beradi.

2. Aholining raqamli ko‘nikmalarini daromad olishga yo‘naltirish. Raqamli savodxonlik dasturlarini faqat texnologiyalardan foydalanishni o‘rgatish bilan cheklamasdan, elektron tijorat, raqamli marketing, dasturlash va masofaviy xizmat ko‘rsatish kabi yo‘nalishlarda daromad olish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

3. Hududiy raqamli daromad imkoniyatlarini kengaytirish. Raqamli infratuzilma imkoniyatlari nisbatan past hududlarda internet, elektron xizmatlar va raqamli tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirish orqali aholining yangi daromad manbalariga kirishini ta’minlash taklif etiladi.

4. Aholi daromadlarini boshqarishning yagona raqamli monitoring tizimini shakllantirish. Daromad manbalari, bandlik holati va raqamli iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tizimlashtirish orqali daromadlar dinamikasini muntazam baholash va ehtiyojmand aholi guruhlariga manzilli iqtisodiy choralarni belgilash mexanizmini takomillashtirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, mazkur takliflarni amalga oshirish raqamli iqtisodiyotning mavjud imkoniyatlarini aholi daromadlarini oshirish, ularning manbalarini diversifikatsiya qilish va daromadlar barqarorligini ta’minlash bilan bog‘lash imkonini beradi.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. — London: Macmillan, 1936. — 403 p.

2. Piketty T. Capital in the Twenty-First Century. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 2014. — 695 p.

3. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. — New York: McGraw-Hill, 1996. — 342 p.

4. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. — Geneva: World Economic Forum, 2016. — 184 p.

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Aholi umumiy daromadlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar. — SIAT ma’lumotlar bazasi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Axborot va aloqa sohasidagi xizmatlar hajmi bo‘yicha statistik ma’lumotlar. — SIAT ma’lumotlar bazasi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Raqamli iqtisodiyot bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar. — Toshkent.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

HUDUDIY INFRATUZILMA TA’MINOTIGA “YASHIL” STANDARTLARNI JORIY ETISH YO‘LLARI

Salomov Abdusalom Ismatovich

mustaqil tadqiqotchi
iqtisodiyot kafedrasi
Buxoro davlat unversiteti
E-mail: abdusalom7877salomov@mail.ru
ORCID:0009-0009-4557-7309

Annotatsiya. *Maqolada hududiy infratuzilma ta’minotini barqaror rivojlantirishda “yashil” standartlarni joriy etishning nazariy-uslubiy, institutsional va tashkiliy-iqtisodiy yo‘llari tadqiq etilgan. Xalqaro ISO standartlari, resurs va energiya samaradorligi, iqlimga chidamlilik, ESG mezonlari hamda infratuzilma obyektlarining hayotiylik siklini boshqarish yondashuvlari tizimlashtirilgan. O‘zbekiston sharoitida hududlarning tabiiy-iqlim, resurs, urbanizatsiya va infratuzilmaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda standartlarni differensial joriy etish, loyihalarni “yashil” reyting asosida saralash, moliyaviy rag‘batlarni natijadorlik bilan bog‘lash va raqamli monitoringni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *hududiy infratuzilma, “yashil” standart, barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi, resurs samaradorligi, iqlimga chidamlilik, ESG, “yashil” investitsiya, sirkulyar iqtisodiyot, raqamli monitoring.*

СПОСОБЫ ВНЕДРЕНИЯ «ЗЕЛЕНЫХ» СТАНДАРТОВ В ОБЕСПЕЧЕНИЕ РЕГИОНАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ

Саломов Абдусалом Исматович

независимый исследователь
кафедра экономики
Бухарский государственный университет
E-mail: abdusalom7877salomov@mail.ru
ORCID: 0009-0009-4557-7309

Аннотация. *В статье изучаются теоретико-методологические, институциональные и организационно-экономические способы внедрения «зеленых» стандартов в устойчивое развитие региональной инфраструктуры. Систематизированы международные стандарты ISO, ресурсо- и энергоэффективность, климатическая устойчивость, критерии ESG и подходы к управлению жизненным циклом объектов инфраструктуры. В условиях Узбекистана разработаны научные предложения по дифференцированному внедрению стандартов, отбору проектов на основе «зеленого» рейтинга, увязке финансовых стимулов с результативностью и созданию системы цифрового мониторинга с учетом природно-климатических, ресурсных, урбанизационных и инфраструктурных характеристик регионов.*

Ключевые слова: *региональная инфраструктура, «зеленый» стандарт, устойчивое развитие, энергоэффективность, ресурсоэффективность, климатическая устойчивость, ESG, «зеленые» инвестиции, циркулярная экономика, цифровой мониторинг.*

WAYS TO IMPLEMENT "GREEN" STANDARDS IN REGIONAL INFRASTRUCTURE PROVISION

Salomov Abdusalom Ismatovich

Independent Researcher
Department of Economics

Bukhara State University
E-mail: abdusalom7877salomov@mail.ru
ORCID: 0009-0009-4557-7309

Abstract. *The article studies theoretical-methodological, institutional and organizational-economic ways to implement "green" standards in the sustainable development of regional infrastructure provision. International ISO standards, resource and energy efficiency, climate resilience, ESG criteria, and approaches to life cycle management of infrastructure facilities are systematized. In the conditions of Uzbekistan, scientific proposals have been developed on the differential introduction of standards, the selection of projects based on a "green" rating, the linking of financial incentives to performance, and the establishment of digital monitoring, taking into account the natural-climatic, resource, urbanization, and infrastructural characteristics of the regions.*

Keywords: *regional infrastructure, "green" standard, sustainable development, energy efficiency, resource efficiency, climate resilience, ESG, "green" investment, circular economy, digital monitoring.*

Kirish

Jahonda iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslar cheklanganligi, urbanizatsiya sur’atlarining jadallashuvi va infratuzilma xizmatlariga bo‘lgan talabning ortishi hududiy rivojlanish siyosatini ekologik cheklovlar bilan uyg‘unlashtirishni obyektiv zaruratga aylantirmoqda. Infratuzilma obyektlarining uzoq muddatli ekspluatatsiya xususiyati bugun qabul qilinayotgan investitsion va texnologik qarorlar kelgusi o‘n yilliklarda hududning energiya iste’moli, resurs sig‘imi, uglerod izi va iqlim risklariga chidamliligiga ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Shu jihatdan hududiy infratuzilma ta’minotini “yashil” standartlar asosida tashkil etish barqaror mintaqaviy rivojlanishning muhim institutsional sharti sifatida namoyon bo‘ladi [1; 2].

O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va infratuzilma obyektlarining ekologik samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar hududiy boshqaruvning mazmunini ham o‘zgartirmoqda. Bunda infratuzilmani faqat yangi obyektlarni qurish yoki xizmatlar qamrovini kengaytirish nuqtayi nazaridan emas, balki obyektning butun hayotiylik sikli davomidagi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy natijalarini birgalikda hisobga olish asosida rivojlantirish talab etiladi. Shu sababli hududiy infratuzilma ta’minotiga “yashil” standartlarni joriy etish yo‘llarini ilmiy jihatdan asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi

Barqaror infratuzilma tushunchasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda resurslardan samarali foydalanish, ekologik tashqi ta’sirlarni kamaytirish, iqlim risklariga moslashish va aholi uchun sifatli infratuzilma xizmatlarini uzoq muddat davomida ta’minlash qobiliyati bilan izohlanadi. ISO 37101:2016 standarti barqaror shaharlar va hududlarni boshqarishda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalarni yagona boshqaruv tizimida muvofiqlashtirishni nazarda tutadi [3]. Ushbu standartga 2024-yilda kiritilgan iqlim harakatlariga oid qo‘shimcha talablar esa hududiy boshqaruv tizimida iqlim omillarini hisobga olish ahamiyatining yanada kuchayganini ko‘rsatadi [4].

ISO 37120:2018 mahalliy hokimiyat va shaharlar xizmatlari hamda hayot sifatini qiyosiy va tekshiriladigan ko‘rsatkichlar asosida baholash metodologiyasini belgilaydi [5]. ISO 37122:2019 aqlli shaharlar, ISO 37123:2019 esa chidamli shaharlar indikatorlarini qamrab oladi; 2024-yilda qabul qilingan ISO 37124 ushbu uchta standartdan kompleks foydalanish bo‘yicha uslubiy yo‘riqnoma vazifasini bajaradi [6]. Shuningdek, ISO 37125:2024 shaharlar uchun ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) indikatorlarini tizimlashtirishi infratuzilma samaradorligini faqat texnik natijalar emas, balki boshqaruv sifati bilan ham bog‘lash imkonini kengaytiradi [7].

Tahlillardan ko‘rinadiki, mavjud yondashuvlarda “yashil” infratuzilma standartlari alohida texnologik yoki ekologik talablar majmui sifatida emas, balki rejalashtirish, moliyalashtirish, qurish, ekspluatatsiya va monitoring jarayonlarini qamrab oluvchi kompleks boshqaruv instituti sifatida shakllanmoqda. Biroq ushbu yondashuvlarni hududlarning resurs bazasi, urbanizatsiya darajasi, infratuzilma eskirishi va investitsiya salohiyati bo‘yicha farqlarini hisobga olgan holda differensial qo‘llash masalalari qo‘shimcha tadqiqotlarni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida tizimli va qiyosiy tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, mantiqiy umumlashtirish, institutsional tahlil, guruhlash va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Xalqaro standartlarning funksional mazmuni infratuzilma ta’minotining asosiy bosqichlari bilan taqqoslandi, “yashil” standartlarni joriy etish instrumentlari esa normativ, investitsion-moliyaviy, texnologik va monitoring bloklari bo‘yicha guruhlandi.

Tahlil va natijalar

Hududiy infratuzilma ta’minotiga “yashil” standartlarni joriy etishning iqtisodiy mazmuni infratuzilma obyektlarini barpo etish va ekspluatatsiya qilish jarayonida vujudga keladigan resurs va ekologik tashqi ta’sirlarni investitsion qarorlarga ichkilashtirishdan iborat. An’anaviy amaliyotda loyiha samaradorligi ko‘p hollarda kapital qiymati, quvvat, xizmat ko‘rsatish qamrovi va qoplanish muddati bilan baholanadi. “Yashil” yondashuv esa ushbu mezonlarni energiya va suv iste’moli, uglerod intensivligi, materiallar aylanmasi, chiqindilar, iqlim risklari va butun hayotiylik sikli xarajatlari bilan to‘ldiradi.

Shundan kelib chiqib, infratuzilmaning “yashillashuv” darajasini shartli ravishda quyidagi funksiyasi orqali ifodalash mumkin bo‘ladi:

$$GI = f(EE, RE, WE, CE, CR, ESG, DI)$$

Bu yerda:

EE – energiya samaradorligi;

RE – qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish; WE — suv va resurslar samaradorligi;

CE – sirkulyarlik;

CR – iqlimga chidamlilik;

ESG – ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mezonlariga muvofiqlik;

DI – raqamli monitoring va intellektual boshqaruv darajasini anglatadi.

1-jadval.

Hududiy infratuzilma ta’minotida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan asosiy “yashil” standartlar tizimi*

Standart/ yondashuv	Asosiy mazmuni	Infratuzilmada qo‘llanilishi	Kutiladigan natija
ISO 37101:2016	Barqaror rivojlanishni boshqarish tizimi	Hududiy strategiya, dastur va loyihalarni muvofiqlashtirish	Barqarorlik, aqllilik va chidamlilikni oshirish
ISO 37120:2018	Shahar xizmatlari va hayot sifati indikatorlari	Infratuzilma xizmatlari natijadorligini o‘lchash	Qiyosiy va verifikatsiyalanadigan monitoring
ISO 37122:2019	Aqlli shahar indikatorlari	Raqamli va intellektual infratuzilma	Boshqaruv tezkorligi va ma’lumotlar sifati
ISO 37123:2019	Chidamli shahar indikatorlari	Iqlim va favqulodda risklarga moslashuv	Infratuzilma uzluksizligini oshirish
ISO 37125:2024	ESG indikatorlari	Loyihalarning ekologik, ijtimoiy va boshqaruv profili	Investitsion shaffoflik va hisobdorlik
LCA/LCC	Hayotiylik sikli ekologik va iqtisodiy bahosi	Qurilishdan ekspluatatsiya va utilizatsiyagacha baholash	Uzoq muddatli xarajatlarni optimallashtirish

*Muallif ishlanmasi

Mazkur yondashuv infratuzilmani «yashillashtirish»ni bitta texnologik ko‘rsatkich bilan emas, o‘zaro bog‘liq natijalar tizimi orqali baholash zarurligini asoslaydi.

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, hududiy infratuzilma ta’minotida “yashil” standartlarni joriy etish alohida sertifikat yoki ekologik talab bilan cheklanmaydi. ISO 37101 boshqaruv arxitekturasini, ISO 37120–37125 guruhi esa natijalarni o‘lchash, aqllilik, chidamlilik va ESG ko‘rsatkichlarini shakllantiradi. Demak, standartlarning samarali kombinatsiyasi infratuzilma siyosatini “obyekt qurish” mantig‘idan “butun hayotiylik sikli davomida barqaror xizmat ko‘rsatish” mantig‘iga o‘tkazish imkonini beradi.

O‘zbekiston sharoitida birinchi ustuvor yo‘l sifatida milliy va hududiy “yashil” infratuzilma mezonlarini taksonomik tartibda belgilash maqsadga muvofiq. Bunda loyihalar energiya tejamkorligi, suv sarfini qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya ulushi, chiqindilarni kamaytirish, iqlim risklariga moslashish va ekologik materiallardan foydalanish darajasi bo‘yicha “yashil”, “o‘tish davriga mos” va standartga javob bermaydigan guruhlarga ajratilishi mumkin. Bunday tasnif investitsiya resurslarini ekologik-iqtisodiy natijadorligi yuqori bo‘lgan loyihalarga yo‘naltirish uchun yagona axborot asosini yaratadi.

Ikkinchi yo‘l – “yashil” mezonlarni hududiy investitsiya dasturlariga kiritish. Bu holda davlat va xususiy mablag‘lar ishtirokidagi infratuzilma loyihalarini tanlashda an’anaviy moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda integral “yashil” reyting qo‘llaniladi. Reyting yuqori bo‘lgan loyihalar uchun moliyalashtirish shartlarini yengillashtirish, davlat-xususiy sheriklik tanlovlarida qo‘shimcha ball berish yoki foiz xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish standartga muvofiqlikni iqtisodiy rag‘batga aylantiradi.

Uchinchi yo‘l – mavjud infratuzilmani “yashil” modernizatsiya qilishni yangi qurilish bilan teng darajada rag‘batlantirish. Jahon bankining O‘zbekiston bo‘yicha Building Green ma’lumotlarida binolar uchun energiya kodeksi qamrovi ayrim standartlar bilan cheklangani qayd etiladi [8]. Bu mavjud binolar va kommunal obyektlarda energiya auditlari, termomodernizatsiya, energiya tejamkor nasos va yoritish tizimlari, issiqlik yo‘qotishlarini kamaytirish hamda raqamli hisoblagichlarni joriy etish bo‘yicha tizimli dasturlarni kengaytirish zaruratini ko‘rsatadi.

2-jadval.

Hududiy infratuzilmaga “yashil” standartlarni joriy etishning differensial yo‘nalishlari*

Hudud xususiyati	Ustuvor standart mezoni	Asosiy instrument	Monitoring ko‘rsatkichi	Kutiladigan samara
Suv tanqis hududlar	Suv samaradorligi va qayta foydalanish	Aqlli hisob, oqishlarni aniqlash, qayta ishlatish	1 birlik xizmatga suv sarfi	Suv yo‘qotishlari va tanqislik bosimini kamaytirish
Yuqori quyosh resurslari	Qayta tiklanuvchi energiya	Quyosh panellari, energiya saqlash	QTE ulushi	Tarmoq yuklamasi va energiya xarajatlarini pasaytirish
Yirik shaharlar	Past uglerodli mobillik va binolar	Jamoat transporti, energiya samarador binolar	Energiya/CO_2 intensivligi	Havo sifati va resurs samaradorligini oshirish
Sanoatlashgan hududlar	Sirkulyarlik va resurs samaradorligi	Sanoat simbiozi, qayta ishlash	Qayta ishlangan resurs ulushi	Chiqindi va resurs sig‘imini qisqartirish
Iqlim riski yuqori hududlar	Chidamlilik	Risk-xaritalash, rezerv quvvat, tabiatga asoslangan	Uzilishlar davomiyligi	Infratuzilma xizmatlari uzluksizligi

		yechimlar		

*Muallif ishlanmasi

2-jadvalda taklif etilayotgan yondashuvning asosiy farqi standartlarni barcha hududlarga bir xil me’yorda tatbiq etishdan voz kechib, hududning tabiiy-resurs va iqtisodiy profiliga mos ustuvor mezonni tanlashdan iborat. Masalan, suv tanqis hududda suv samaradorligining marjinal ahamiyati yuqori bo‘lsa, yuqori quyosh radiatsiyasiga ega hududlarda qayta tiklanuvchi energiya infratuzilmasi iqtisodiy jihatdan tezroq samara beradi. Bu differensiallashtirish cheklangan investitsiya resurslarining hududiy samaradorligini oshiradi.

To‘rtinchi yo‘l sifatida infratuzilma obyektlarini butun hayotiylik sikli bo‘yicha baholashni majburiy investitsion tahlil elementiga aylantirish taklif etiladi. Bunda qurilish qiymati bilan birga 20-30 yillik ekspluatatsiya davridagi energiya, suv, ta’mirlash, modernizatsiya, chiqindilarni boshqarish va ehtimoliy iqlim risklari xarajatlari hisobga olinadi. Natijada boshlang‘ich qiymati nisbatan yuqori, ammo ekspluatatsion xarajatlari past bo‘lgan “yashil” texnologiyalarning haqiqiy iqtisodiy afzalligi investitsion qarorda aks etadi.

Beshinchi yo‘l – standart, reyting va moliyalashtirish o‘rtasida bevosita bog‘liqlik o‘rnatish. Ya’ni infratuzilma loyihasining “yashil” reytingi qanchalik yuqori bo‘lsa, uni moliyalashtirish qiymati, kafolat yoki davlat-xususiy sheriklik shartlari shunchalik qulay bo‘lishi lozim. Bu mexanizm “yashil” standartni ma’muriy cheklovdan iqtisodiy manfaat yaratuvchi institutga aylantiradi.

3-jadval.

“Yashil” infratuzilma loyihalarini rag‘batlantirishning taklif etilayotgan mexanizmi*

Bosqich	Amalga oshiriladigan harakat	Baholash mezoni	Boshqaruv natijasi
1. Diagnostika	Hududning resurs va infratuzilma holatini baholash	Energiya, suv, chiqindi, iqlim riski	Ustuvor muammolar xaritasi
2. Skrining	Loyihani “yashil” mezonlar bo‘yicha saralash	Minimal taksonomik talablar	Muvofiq/o‘tish/nomuvofiq tasnifi
3. Reyting	Integral “yashil” ball hisoblash	EE, RE, WE, CE, CR, ESG, DI	Loyihalar ustuvorligi
4. Moliyalashtirish	Reytingga mos moliyaviy shart belgilash	Reyting va ijtimoiy samara	Kapitalni samarali taqsimlash
5. Monitoring	Ekspluatatsiya natijalarini raqamli kuzatish	Reja–amal–verifikatsiya	Haqiqiy tejamkorlikni aniqlash
6. Rag‘bat	Natijaga qarab imtiyoz/kompensatsiya berish	Tasdiqlangan KPI	Standartga rioya qilish motivatsiyasi

*Muallif ishlanmasi

3-jadvaldagi mexanizm “diagnostika → skrining → reyting → moliyalashtirish → monitoring → rag‘bat” ketma-ketligiga asoslanadi. Uning amaliy ahamiyati shundaki, loyihaning ekologik parametrlari investitsiya qaroridan ajratilmaydi va ekspluatatsiya davrida qayta tekshiriladi. Shu orqali loyiha hujjatlarida belgilangan energiya yoki resurs tejamkorligi amalda erishilgan natija bilan solishtiriladi, rag‘batlantirish esa verifikatsiya qilingan samaraga bog‘lanadi.

Oltinchi yo‘l – raqamli monitoring va hududiy “yashil infratuzilma pasporti”ni shakllantirish. Pasportda har bir yirik infratuzilma obyekti bo‘yicha energiya va suv iste’moli, qayta tiklanuvchi energiya ulushi, avariya va uzilishlar, chiqindilar, uglerod intensivligi, texnik holat va modernizatsiya ehtiyoji to‘g‘risidagi ma’lumotlar jamlanishi maqsadga muvofiq. ISO 37120 indikatorlarining qiyosiy va verifikatsiyalanadigan o‘lchovga yo‘naltirilganligi bunday

raqamli monitoringning uslubiy asosini kuchaytiradi [5].

Yettinchi yo‘l – “yashil” standartlarni mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini baholash tizimi bilan integratsiyalash. Hudud rahbariyati faoliyatini infratuzilma obyektlari soni yoki o‘zlashtirilgan investitsiya hajmi bilan cheklangan holda baholash resurs samaradorligi va xizmat sifatidagi natijalarni to‘liq aks ettirmaydi. Shu bois energiya intensivligining pasayishi, suv yo‘qotishlarining qisqarishi, qayta tiklanuvchi energiya ulushi, yashil sertifikatlangan obyektlar ulushi va infratuzilma uzilishlarining kamayishi kabi natijaviy KPIlarni joriy etish zarur.

Umuman, tahlil natijalari hududiy infratuzilma ta’minotida “yashil” standartlarni joriy etish samaradorligi normativ talablarning qat’iyligiga emas, balki ularning investitsiya siyosati, moliyaviy rag‘bat, texnologik modernizatsiya va natijalar monitoringi bilan qay darajada bog‘langaniga ko‘proq bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Shunday institutsional uyg‘unlik shakllangandagina “yashil” standartlar infratuzilma xarajatlarini oshiruvchi qo‘shimcha talab emas, balki butun hayotiylik sikli xarajatlarini pasaytiruvchi va hudud raqobatbardoshligini oshiruvchi iqtisodiy mexanizmga aylanadi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlil natijalarini inobatga olgan holda, hududiy infratuzilma ta’minotiga “yashil” standartlarni joriy etishda quyidagi yo‘nalishlarga ustuvorlik qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- hududiy infratuzilma ta’minotiga “yashil” standartlarni joriy etishni alohida ekologik chora sifatida emas, balki rejalashtirish, loyihalash, moliyalashtirish, qurish, ekspluatatsiya va monitoring bosqichlarini qamrab oluvchi yagona boshqaruv mexanizmi sifatida tashkil etish;
- hududlarning suv ta’minoti, energiya resurslari, urbanizatsiya, sanoatlashuv va iqlim risklaridagi farqlarini hisobga olgan holda differensial “yashil” standartlar va minimal-maqsadli KPIlar tizimini belgilash;
- davlat va hududiy investitsiya dasturlariga kiritiladigan infratuzilma loyihalarini integral “yashil” reyting asosida saralash va reyting natijalarini imtiyozli kredit, kompensatsiya, kafolat hamda davlat-xususiy sheriklik shartlari bilan bog‘lash;
- infratuzilma obyektlarining butun hayotiylik sikli xarajatlarini hisobga oluvchi LCC/LCA baholashni investitsion ekspertizaning tarkibiy qismiga aylantirish;
- har bir hudud bo‘yicha raqamli “yashil infratuzilma pasporti”ni shakllantirib, energiya, suv, chiqindi, iqlimga chidamlilik va ESG ko‘rsatkichlarini yagona axborot platformasida monitoring qilish;
- rag‘batlantirish mexanizmlarini rejalashtirilgan ko‘rsatkichlarga emas, ekspluatatsiya bosqichida mustaqil verifikatsiya qilingan resurs tejamkorligi va ekologik natijalarga bog‘lash.

Fikrimizcha, taklif etilayotgan “standart → reyting → moliyalashtirish → monitoring → verifikatsiya → rag‘bat” mexanizmini amaliyotga joriy etish hududiy infratuzilma siyosatini kapital qo‘yilmalar hajmini oshirishga yo‘naltirilgan ekstensiv yondashuvdan resurs samaradorligi, xizmat sifati va iqlimga chidamlilikni bir vaqtda ta’minlovchi intensiv modelga o‘tkazish imkonini beradi. Bu esa uzoq muddatda infratuzilmaning ekspluatatsion xarajatlarini optimallashtirish, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish va barqaror mintaqaviy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va barqaror rivojlanish sohasidagi strategik va normativ-huquqiy hujjatlari. – Toshkent.

2. World Bank. Building Green: Mapping Energy Efficiency – Uzbekistan. Washington, D.C.: World Bank.

3. ISO 37101:2016. Sustainable development in communities – Management system for sustainable development – Requirements with guidance for use. Geneva: International Organization for Standardization, 2016.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

4. ISO 37101:2016/Amd 1:2024. Sustainable development in communities – Amendment 1: Climate action changes. Geneva: ISO, 2024.

5. ISO 37120:2018. Sustainable cities and communities — Indicators for city services and quality of life. Geneva: ISO, 2018.

6. ISO 37124:2024. Sustainable cities and communities –Guidance on the use of ISO 37120, ISO 37122 and ISO 37123. Geneva: ISO, 2024.

7. ISO 37125:2024. Sustainable cities and communities – Environmental, social and governance (ESG) indicators for cities. Geneva: ISO, 2024.

8. World Bank. Building Green. Uzbekistan: Building Energy Code effectiveness and compliance dataset. Washington, D.C.

9. ISO 37122:2019. Sustainable cities and communities – Indicators for smart cities. Geneva: ISO, 2019.

10. ISO 37123:2019. Sustainable cities and communities – Indicators for resilient cities. Geneva: ISO, 2019.

11. ISO 37100:2026. Sustainable cities and communities – Vocabulary. Geneva: International Organization for Standardization, 2026.

12. ISO/TC 268. Sustainable cities and communities: Catalogue of published standards and standards under development. Geneva: ISO.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ЗЕЛЕНОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В СТРАНАХ С ПЕРЕХОДНОЙ ЭКОНОМИКОЙ

Орипов Ильхом Абдуллаевич
самостоятельный соискатель
советник Генерального директора
АО КЭИС “Узбекинвест”
E-mail:i.oripov@uzbekinvest.uz

Аннотация. *Развитие зеленого финансирования сопровождается формированием новых финансовых институтов, инструментов и механизмов государственного регулирования. Большинство существующих исследований посвящено отдельным элементам устойчивого финансирования, тогда как вопросы формирования национальной системы зеленого финансирования в странах с формирующейся и переходной экономикой изучены недостаточно. В статье на основе анализа современной научной литературы, международного опыта и практики Республики Узбекистан выявляются основные проблемы формирования национальной системы зеленого финансирования. Выявлены базовые правовые и институциональные условия развития зеленого финансирования, проанализированы неравномерность развития отдельных его элементов, образующих целостную национальную систему. Обосновано, что дальнейшее развитие требует комплексного подхода, обеспечивающего согласованное функционирование государственных институтов, финансового механизма, источников капитала и рыночной инфраструктуры.*

Ключевые слова: *зеленое финансирование, национальная система зеленого финансирования, устойчивое развитие, зеленая экономика, переходная экономика, формирующаяся экономика, финансовая система, финансовая архитектура, государственная финансовая политика.*

O'TISH IQTISODIYOTI DAVRIDAGI MAMLAKATLARDA MILLIY YASHIL MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Oripov Ilhom Abdullaevich
mustaqil izlanuvchi
KEIS "O'zbekinvest" AJ
Bosh direktorining maslahatchisi
E-mail: i.oripov@uzbekinvest.uz

Annotatsiya. *Yashil moliyalashtirishning rivojlanishi yangi moliya institutlari, instrumentlari va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining shakllanishi bilan bog'lanib keladi. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati barqaror moliyalashtirishning alohida elementlariga qaratilgan, shu bilan birga rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyotlarida milliy yashil moliyalashtirish tizimlarining rivojlanishi hali ham yetarlicha o'rganilmagan. Mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tajriba va O'zbekiston Respublikasi amaliyoti tahlili asosida ushbu maqolada milliy yashil moliyalashtirish tizimini rivojlantirishdagi asosiy qiyinchiliklar aniqlangan. Maqolada yashil moliyalashtirishni rivojlantirishning asosiy huquqiy va institutsional shartlari aniqlangan va uning izchil milliy tizimni tashkil etuvchi alohida elementlarining notekis rivojlanishi tahlil qilingan. Keyingi rivojlanish davlat institutlari, moliyaviy mexanizmlar, kapital manbalari va bozor infratuzilmasining muvofiqlashtirilgan ishlashini ta'minlaydigan kompleks yondashuv masalalari organilgan.*

Kalit so'zlar: *yashil moliyalashtirish, milliy yashil moliyalashtirish tizimi, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, o'tish davri iqtisodiyoti, rivojlanayotgan iqtisodiyot, moliyaviy*

tizim, moliyaviy arxitektura, davlat moliyaviy siyosati.

PROBLEMS OF DEVELOPING A NATIONAL GREEN FINANCING SYSTEM IN COUNTRIES WITH TRANSITION ECONOMIES

Oripov Ilkhom Abdullaevich

Independent Resarcher
Advisor to the General Director
JSC KEIS "Uzbekinvest"
E-mail: i.oripov@uzbekinvest.uz

Abstract. *The development of green finance is accompanied by the formation of new financial institutions, instruments, and mechanisms of state regulation. Most existing research focuses on individual elements of sustainable finance, while the development of national green finance systems in emerging and transition economies remains understudied. Based on an analysis of current scientific literature, international experience, and the practice of the Republic of Uzbekistan, this article identifies the key challenges in developing a national green finance system. The article identifies the fundamental legal and institutional conditions for the development of green finance and analyzes the uneven development of its individual elements that form a coherent national system. It is argued that further development requires an integrated approach that ensures the coordinated functioning of state institutions, financial mechanisms, capital sources, and market infrastructure.*

Keywords: *green finance, national green finance system, sustainable development, green economy, transition economy, emerging economy, financial system, financial architecture, public financial policy.*

Введение

За последние десятилетия переход к модели устойчивого развития и усиление глобальной климатической повестки обусловили становление зеленого финансирования как самостоятельного направления финансовой науки и практики. Наряду с развитием рынков зеленых облигаций, устойчивого банковского кредитования, ESG-инвестирования и иных финансовых инструментов существенно возросла роль государственных институтов и механизмов регулирования, обеспечивающих финансирование экологической и климатической трансформации экономики.

Современные исследования охватывают широкий круг вопросов, связанных с функционированием отдельных инструментов, финансовых институтов, государственных стимулов и механизмов устойчивого финансирования. Однако большинство из них рассматривает эти элементы изолированно, тогда как закономерности формирования национальной системы зеленого финансирования, особенно в странах с формирующейся и переходной экономикой, остаются недостаточно изученными. Это обусловлено тем, что развитие зеленого финансирования в таких странах происходит одновременно с институциональной трансформацией финансовой системы, совершенствованием государственного регулирования и развитием финансового рынка.

Республика Узбекистан представляет собой показательный пример подобной трансформации. В последние годы в стране сформирована нормативно-правовая основа перехода к зеленой экономике, реализуются меры по развитию устойчивого финансирования и расширяется участие международных финансовых организаций в финансировании экологических проектов. Вместе с тем комплексные исследования, рассматривающие зеленое финансирование как единую национальную систему, применительно к Узбекистану практически отсутствуют.

Научная проблема настоящего исследования заключается в недостаточной разработанности теоретических подходов к формированию национальной системы

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

зеленого финансирования в странах с формирующейся и переходной экономикой.

Обзор литературы

Современные исследования в области зеленого финансирования охватывают широкий круг вопросов, связанных с мобилизацией финансовых ресурсов для достижения целей устойчивого развития, функционированием финансовых институтов, государственным регулированием и развитием рынков устойчивого финансирования. По мере расширения предметной области сформировалось несколько относительно самостоятельных направлений исследований, отличающихся объектом анализа и используемыми методологическими подходами.

Зарубежная научная школа характеризуется высокой степенью специализации. Работы М. Маццукато посвящены роли государства в финансировании инноваций и энергетического перехода [5]. Исследования К. Фламмер [3], К. Толливера, А. Кили и С. Манаги [6] раскрывают особенности развития рынков зеленых облигаций, устойчивых инвестиций и финансирования проектов возобновляемой энергетики. Ф. Тагизаде-Хесари и Н. Йошино исследуют финансовые ограничения реализации зеленых проектов, уделяя особое внимание механизмам мобилизации долгосрочного капитала и снижению инвестиционных рисков [4]. В последние годы всё большее внимание уделяется институциональным аспектам зеленого финансирования, включая взаимодействие государственного регулирования, финансовых институтов и рыночной инфраструктуры.

Значительный вклад в развитие теоретических и методологических основ зеленого финансирования внесли международные организации, прежде всего Всемирный банк [8], Международная финансовая корпорация (IFC) [9], Организация экономического сотрудничества и развития (OECD) [7], Программа ООН по окружающей среде (UNEP FI) [11] и Сеть центральных банков и органов финансового надзора по экологизации финансовой системы (NGFS) [10]. Их исследования посвящены вопросам интеграции климатических рисков в финансовую систему, формированию национальных таксономий, развитию рынков зеленого капитала и совершенствованию механизмов устойчивого финансирования.

Российские ученые С.Н. Бобылева [17], Б.Н. Порфирьева [18] исследуют преимущественно вопросы государственной политики, развития зеленой экономики, финансирования экологически ориентированных проектов и отдельных инструментов устойчивого финансирования. Работы

Узбекские исследователи К.Х. Абдурахманова [19] и Ш.И. Рахманова [20] внесли существенный вклад в развитие данных направлений. Вместе с тем исследования, рассматривающие зеленое финансирование как целостную национальную систему, в отечественной научной литературе практически отсутствуют.

Проведённый анализ показывает, что современная теория зеленого финансирования характеризуется высокой степенью специализации.

Методология исследования

В работе использованы системный, институциональный и сравнительный методы, проанализированы научные публикации, рекомендации международных организаций и нормативно-правовые документы Республики Узбекистан

Анализ и результаты

Большинство исследований посвящено отдельным финансовым инструментам, институтам, государственному регулированию или климатической политике, тогда как вопросы формирования национальной системы зеленого финансирования, особенно в странах с формирующейся и переходной экономикой, остаются недостаточно разработанными. Это обусловливает необходимость дальнейшего развития теоретических подходов, рассматривающих зеленое финансирование как целостную систему взаимосвязанных институтов, механизмов и участников финансового рынка.

Таблица 1.

Основные направления современных исследований в области зеленого финансирования*

Направление исследований	Основные представители	Основное содержание исследований	Основные ограничения существующих исследований
Финансовые инструменты	C. Flammer, C. Tolliver, A. Keeley, Climate Bonds Initiative	Зеленые облигации, устойчивое кредитование, ESG-инвестиции, климатические финансовые инструменты	Исследуются преимущественно отдельные финансовые инструменты без анализа их взаимосвязи
Финансовые институты	F. Taghizadeh-Hesary, N. Yoshino, World Bank, IFC	Банковское финансирование, финансовые институты развития, управление инвестиционными рисками	Основное внимание уделяется отдельным институтам, а не системе в целом
Государственная политика и регулирование	OECD, UNEP FI, NGFS, World Bank, ADB	Таксономии, климатическая политика, государственные стимулы, финансовое регулирование	Исследования ориентированы преимущественно на развитые экономики
Энергетический переход и зеленая экономика	M. Mazzucato, P. Söderholm, Yan Yang, M. Bhuiyan	Финансирование энергетического перехода, инновации, институциональная трансформация	Недостаточно раскрыты взаимосвязи между энергетической политикой и национальной финансовой системой
Российская и узбекская научные школы	С.Н. Бобылев, Б.Н. Порфирьев, К.Х. Абдурахманов, Ш.И. Рахманов и др.	Зеленая экономика, государственное регулирование, отдельные механизмы зеленого финансирования	Отсутствуют комплексные исследования национальной системы зеленого финансирования

* Составлена автором на основе анализа и систематизации современной научной литературы, публикаций международных организаций и нормативных документов.

Представленная в таблице 1 систематизация современных исследований свидетельствует о том, что существующая научная литература охватывает практически все ключевые направления зеленого финансирования, однако преимущественно рассматривает их как самостоятельные объекты исследования. В результате вопросы формирования национальной системы зеленого финансирования как целостного объекта финансовой науки, особенно применительно к странам с формирующейся и переходной экономикой, остаются недостаточно разработанными. Выявленный научный пробел обусловливает необходимость разработки концептуального подхода к исследованию национальной системы зеленого финансирования.

Проведённый анализ современной научной литературы позволяет сделать вывод, что существующие подходы не обеспечивают комплексного исследования зеленого финансирования как единой национальной системы. В связи с этим нами предлагается концептуальный подход, рассматривающий национальную систему зеленого финансирования как самостоятельный объект финансовой науки.

Под национальной системой зеленого финансирования предлагается понимать совокупность взаимосвязанных государственных институтов, участников финансового рынка, финансового механизма, источников капитала, рыночной инфраструктуры и инструментов регулирования, обеспечивающих мобилизацию, перераспределение и эффективное использование финансовых ресурсов для достижения национальных целей устойчивого развития и низкоуглеродной трансформации экономики. В отличие от существующих подходов финансовый механизм рассматривается не как самостоятельная

система, а как одна из функциональных подсистем национальной системы зеленого финансирования.

Для Республики Узбекистан данный подход имеет особое значение, поскольку формирование зеленого финансирования осуществляется одновременно с модернизацией финансовой системы, развитием институтов государственного регулирования и реализацией государственной политики перехода к зеленой экономике. В этих условиях государство играет ключевую роль в формировании нормативно-правовой базы, координации участников финансового рынка и привлечении ресурсов международных финансовых организаций [1].

Схема 1.

Концептуальная модель национальной системы зеленого финансирования Республики Узбекистан



Предлагаемая концептуальная модель исходит из того, что эффективность национальной системы зеленого финансирования определяется не уровнем развития отдельных её элементов, а степенью их институциональной согласованности. Именно качество взаимодействия между элементами системы определяет её способность обеспечивать долгосрочную мобилизацию финансовых ресурсов для достижения национальных целей устойчивого развития.

Финансовый механизм обеспечивает движение финансовых ресурсов, однако его результативность непосредственно зависит от качества государственного регулирования, развития рыночной инфраструктуры, доступности источников капитала и эффективности

взаимодействия участников финансового рынка.

Для оценки современного состояния национальной системы зеленого финансирования Республики Узбекистан проведена систематизация её основных элементов с позиций уровня их развития, функционального назначения и существующих институциональных ограничений.

Таблица 2.

Оценка уровня развития основных элементов национальной системы зеленого финансирования Республики Узбекистан

Элемент национальной системы	Функциональное назначение	Современный уровень развития	Основные достижения	Основные ограничения
Государственная политика	Определяет стратегические цели, приоритеты и направления развития национальной системы зеленого финансирования	Высокий	Сформирована государственная политика перехода к «зеленой» экономике, приняты стратегические и программные документы, определены приоритеты устойчивого развития	Требуется дальнейшая интеграция отраслевых программ и совершенствование механизмов реализации государственной политики
Институциональная архитектура	Обеспечивает организацию взаимодействия государственных органов, финансовых институтов и иных участников системы	Средний	Сформирована базовая институциональная структура, определены функции основных участников, развивается сотрудничество с международными финансовыми организациями	Недостаточная межведомственная координация и ограниченное участие отдельных институтов финансового рынка
Финансовый механизм	Обеспечивает мобилизацию, распределение и использование финансовых ресурсов для реализации зеленых проектов	Средний	Используются государственные программы поддержки, банковское кредитование, механизмы международного финансирования	Ограниченная диверсификация финансовых инструментов и недостаточное развитие рыночных механизмов финансирования
Источники капитала	Формируют финансовую базу реализации проектов зеленой экономики	Средний	Активно привлекаются средства государственного бюджета, международных финансовых организаций и банковского сектора	Ограниченное участие частного капитала, институциональных инвесторов и внутренних источников долгосрочного финансирования
Рыночная инфраструктура	Обеспечивает функционирование рынка зеленого финансирования и сопровождение финансовых операций	Низкий	Формируются национальная таксономия зеленых проектов, ESG-подходы, механизмы раскрытия информации и отдельные элементы климатического регулирования	Недостаточно развиты рынок зеленых финансовых инструментов, механизмы оценки климатических рисков, стандарты верификации и информационная инфраструктура устойчивого финансирования

*Составлена автором на основе анализа научной литературы, материалов международных

организаций и нормативно-правовых документов Республики Узбекистан.

Результаты проведённой оценки свидетельствуют о том, что в Республике Узбекистан сформированы базовые государственные и институциональные условия развития зеленого финансирования. Вместе с тем уровень развития отдельных элементов национальной системы остаётся неоднородным. Наиболее развитой является государственная политика, тогда как рыночная инфраструктура устойчивого финансирования, механизмы привлечения частного капитала и отдельные элементы финансового рынка находятся на стадии формирования. Это ограничивает эффективность функционирования национальной системы в целом.

Современная модель национальной системы зеленого финансирования Республики Узбекистан характеризуется ведущей ролью государства и международных финансовых организаций в мобилизации финансовых ресурсов и развитии институциональной среды. Вместе с тем дальнейшее развитие данной системы требует не только совершенствования её отдельных элементов, но прежде всего повышения уровня их институциональной согласованности, расширения участия частного капитала и развития рыночной инфраструктуры устойчивого финансирования.

Проведённый анализ позволяет сделать вывод, что национальная система зеленого финансирования представляет собой самостоятельный объект финансовой науки, объединяющий государственные институты, финансовый механизм, источники капитала, рыночную инфраструктуру и механизмы государственного регулирования. При этом финансовый механизм следует рассматривать как одну из функциональных подсистем данной системы, а её эффективность определяется не уровнем развития отдельных элементов, а степенью их институциональной согласованности.

Для стран с формирующейся и переходной экономикой, включая Республику Узбекистан, характерна ведущая роль государства и международных финансовых организаций на этапе формирования национальной системы зеленого финансирования. По мере её институционального развития возрастает значение рыночных механизмов, диверсификации источников капитала и повышения согласованности взаимодействия участников финансового рынка. Это требует дальнейшего развития теоретических и методологических основ исследования национальных систем зеленого финансирования.

Рассмотрение национальной системы зеленого финансирования как самостоятельного объекта исследования позволяет перейти от анализа её структуры к выявлению факторов, определяющих закономерности её формирования и дальнейшего развития. Если на начальном этапе основное внимание обоснованно уделяется созданию нормативно-правовой базы, специализированных институтов и финансовых инструментов, то по мере усложнения системы приоритетное значение приобретают согласованность её элементов, эффективность их взаимодействия и способность обеспечивать достижение долгосрочных целей устойчивого развития. Следовательно, по мере развития национальной системы изменяются и критерии оценки её эффективности: на первый план выходит не количество созданных институтов и инструментов, а результативность их согласованного функционирования. Именно эта закономерность во многом определяет особенности современного этапа формирования национальных систем зеленого финансирования в странах с формирующейся и переходной экономикой.

В Республике Узбекистан в последние годы сформированы необходимые организационные и нормативные предпосылки для развития зеленого финансирования. Приняты стратегические документы в области перехода к зеленой экономике, созданы механизмы государственной поддержки, утверждена Национальная «зеленая» таксономия, расширяется сотрудничество с международными финансовыми организациями, реализуются крупные инвестиционные проекты в сфере возобновляемой энергетики и ресурсосбережения [2]. Всё это свидетельствует о последовательном формировании базовых элементов национальной системы зеленого финансирования.

Следовательно, на современном этапе дальнейшее развитие данной системы связано уже не столько с созданием новых институтов, сколько с повышением эффективности их взаимодействия, совершенствованием механизмов координации и расширением использования рыночных инструментов мобилизации капитала.

Представленный анализ показывает, что ключевым направлением дальнейшего развития является повышение институциональной согласованности между участниками национальной системы зеленого финансирования. В настоящее время в реализации государственной политики принимают участие органы государственного управления, Центральный банк, коммерческие банки, международные финансовые организации, институты развития, субъекты предпринимательства и другие участники инвестиционного процесса. Каждый из них выполняет самостоятельные функции, однако эффективность национальной системы определяется не только результативностью деятельности отдельных институтов, но и степенью координации их решений, согласованностью применяемых финансовых механизмов и единством стратегических ориентиров.

Расширение масштабов зеленого финансирования закономерно сопровождается повышением роли механизмов, обеспечивающих устойчивое взаимодействие участников системы. Речь идёт не о создании новых органов управления, а о дальнейшем совершенствовании стратегического планирования, обмена информацией, согласовании приоритетов финансирования, мониторинге результатов и оценке эффективности реализуемых проектов. Такой подход позволяет рассматривать национальную систему зеленого финансирования как целостный финансово-институциональный механизм, в котором эффективность отдельных элементов определяется качеством их взаимодействия. Следовательно, оценка уровня развития национальной системы должна учитывать не только состояние её отдельных компонентов, но и степень их функциональной взаимосвязанности. При недостаточной согласованности даже эффективно функционирующие институты и финансовые механизмы не способны обеспечить максимальный синергетический эффект функционирования системы.

Характерной закономерностью современного этапа формирования национальной системы зеленого финансирования является постепенная диверсификация источников долгосрочного капитала. На начальном этапе развития зеленой экономики в большинстве стран с формирующейся и переходной экономикой ведущая роль объективно принадлежит государству и международным финансовым организациям, обеспечивающим создание нормативной базы, финансирование пилотных проектов и снижение инвестиционных рисков [4; 7–12]. Такой подход позволяет сформировать первоначальный рынок зеленого финансирования и создать условия для последующего расширения круга его участников.

Узбекистан в целом развивается в рамках данной модели. Существенная часть финансирования зеленых проектов осуществляется при поддержке государственных программ, кредитных линий международных финансовых институтов, иностранных инвестиций и ресурсов коммерческих банков. Благодаря этому реализуются крупные проекты в сфере возобновляемой энергетики, модернизации коммунальной инфраструктуры, повышения энергоэффективности и рационального использования водных ресурсов. Вместе с тем дальнейшее развитие национальной системы предполагает постепенное расширение состава источников финансирования и повышение роли рыночных механизмов мобилизации капитала.

Особое значение в этих условиях приобретает формирование стимулов для более широкого участия частного сектора в финансировании зеленых проектов. Речь идёт не только о привлечении прямых инвестиций, но и об использовании потенциала страхового рынка, развитии инструментов рынка капитала, расширении практики выпуска зеленых облигаций, а также внедрении механизмов государственно-частного партнёрства при реализации экологических и инфраструктурных проектов [1; 4; 5; 7]. Расширение участия

частного капитала способствует увеличению объёмов доступных финансовых ресурсов и повышению устойчивости национальной системы за счёт снижения зависимости от бюджетного финансирования и международной финансовой поддержки.

Активизация участия частных инвесторов во многом определяется уровнем инвестиционной привлекательности зеленых проектов. Поэтому особое значение приобретают механизмы распределения рисков, повышения прозрачности проектов, обеспечения предсказуемости государственной политики и совершенствования инструментов финансового стимулирования. С этой точки зрения диверсификацию источников капитала целесообразно рассматривать не как самостоятельную цель государственной политики, а как один из показателей зрелости национальной системы зеленого финансирования. Чем шире круг участников, принимающих инвестиционные решения на рыночной основе, тем выше способность системы обеспечивать устойчивое финансирование экологической трансформации экономики.

Ещё одной закономерностью формирования национальной системы зеленого финансирования является последовательное развитие рыночной инфраструктуры, обеспечивающей эффективное функционирование её основных элементов. По мере увеличения объёмов зеленого финансирования возрастает потребность в единых подходах к идентификации зеленых проектов, оценке их экологических результатов, раскрытию информации и повышению доверия со стороны инвесторов и финансовых институтов. Совокупность этих элементов формирует условия, при которых зеленое финансирование становится не отдельным направлением государственной политики, а полноценной частью национального финансового рынка.

За последние годы в Республике Узбекистан проведена значительная работа по формированию такой инфраструктуры. Важным этапом стало утверждение Национальной «зеленой» таксономии, определившей единые критерии отнесения видов экономической деятельности и инвестиционных проектов к категории зеленых [2]. Это создало нормативную основу для применения единых подходов при разработке финансовых продуктов, оценке инвестиционных проектов и реализации государственной политики в области устойчивого развития.

Вместе с тем международный опыт показывает, что принятие нормативных документов является лишь начальным этапом формирования полноценной рыночной инфраструктуры. Дальнейшее развитие связано с практическим внедрением установленных критериев в деятельность финансовых организаций, совершенствованием механизмов раскрытия информации об экологических характеристиках финансируемых проектов, развитием подходов к оценке климатических и экологических рисков, а также использованием независимой верификации отдельных инструментов зеленого финансирования. Комплексное применение указанных механизмов обеспечивает сопоставимость реализуемых проектов, повышает прозрачность финансового рынка и способствует укреплению доверия отечественных и иностранных инвесторов.

Для стран с формирующейся и переходной экономикой развитие рыночной инфраструктуры имеет принципиальное значение, поскольку её качество во многом определяет эффективность использования уже созданных институциональных и финансовых механизмов. Следовательно, развитие инфраструктурной среды следует рассматривать не как самостоятельное направление государственной политики, а как необходимое условие повышения эффективности всех элементов национальной системы зеленого финансирования. Последовательное совершенствование единых правил функционирования рынка, повышение качества принимаемых инвестиционных решений и расширение участия частного капитала создают предпосылки для перехода к более зрелой модели национальной системы зеленого финансирования.

Выводы

Современные научные подходы к исследованию зеленого финансирования

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

преимущественно ориентированы на анализ отдельных финансовых инструментов, институтов и механизмов государственного регулирования, тогда как вопросы формирования национальной системы зеленого финансирования как самостоятельного объекта финансовой науки остаются недостаточно разработанными. Особенно это характерно для стран с формирующейся и переходной экономикой, где развитие зеленого финансирования происходит одновременно с институциональной трансформацией финансовой системы, совершенствованием государственного регулирования и развитием национального финансового рынка.

В результате исследования разработан концептуальный подход, рассматривающий национальную систему зеленого финансирования как совокупность взаимосвязанных государственных институтов, участников финансового рынка, финансового механизма, источников капитала, рыночной инфраструктуры и инструментов государственного регулирования, обеспечивающих мобилизацию, перераспределение и эффективное использование финансовых ресурсов для достижения национальных целей устойчивого развития и низкоуглеродной трансформации экономики. В отличие от существующих подходов предложенная концепция позволяет исследовать зеленое финансирование не как совокупность отдельных элементов, а как единую финансово-институциональную систему, функционирование которой определяется характером взаимосвязей между её основными компонентами.

Обосновано, что финансовый механизм представляет собой одну из функциональных подсистем национальной системы зеленого финансирования, а эффективность самой системы определяется не столько уровнем развития отдельных институтов и финансовых инструментов, сколько степенью их институциональной согласованности, сбалансированностью источников капитала и уровнем развития рыночной инфраструктуры. Тем самым расширены теоретические представления о закономерностях формирования национальных систем зеленого финансирования и сформирована методологическая основа для их комплексного исследования.

Проведённый анализ современного этапа формирования национальной системы зеленого финансирования Республики Узбекистан показывает, что в стране созданы базовые нормативно-правовые и институциональные предпосылки её дальнейшего развития. На современном этапе приоритетное значение приобретает не столько создание новых институтов и финансовых инструментов, сколько обеспечение их согласованного функционирования, расширение участия частного капитала, диверсификация источников долгосрочного финансирования и последовательное развитие рыночной инфраструктуры. Указанные направления отражают общие закономерности формирования национальных систем зеленого финансирования в странах с формирующейся и переходной экономикой и могут служить методологической основой при разработке национальных стратегий устойчивого финансирования.

Полученные результаты расширяют теоретико-методологические основы исследования национальных систем зеленого финансирования и создают предпосылки для разработки методических подходов к оценке уровня их развития, эффективности функционирования и степени институциональной зрелости. Практическая значимость исследования заключается в возможности использования его положений при совершенствовании государственной финансовой политики, развитии механизмов регулирования финансового рынка, разработке национальных программ развития зеленого финансирования, а также при проведении дальнейших научных исследований в области устойчивого финансирования.

Литература

1.Указ Президента Республики Узбекистан от 2 декабря 2022 года № УП-436 «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики

Узбекистан к "зеленой" экономике до 2030 года».

2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об утверждении Национальной "зеленой" таксономии Республики Узбекистан» (2025).

3. Flammer C. Corporate Green Bonds // Journal of Financial Economics. 2021. Vol. 142, No. 2. – P. 499–516. DOI: 10.1016/j.jfineco.2021.01.006.

4. Taghizadeh-Hesary F., Yoshino N. The Way to Induce Private Participation in Green Finance and Investment. Tokyo: Asian Development Bank Institute, 2019. 24 p.

5.Mazzucato M. Mission Economy: A Moonshot Guide to Changing Capitalism. London: Allen Lane, 2021. 336 p.

6. Tolliver C., Keeley A.R., Managi S. Green Bonds for the Paris Agreement and Sustainable Development Goals // Environmental Research Letters. 2020. Vol. 15, No. 9. Article 094050.

7. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Green Finance and Investment: Mobilising Bond Markets for a Low-Carbon Transition. Paris: OECD Publishing, 2017.

8. World Bank. Unlocking Sustainable Finance for Emerging Markets. Washington, DC: World Bank, 2023.

9. International Finance Corporation (IFC). Green Finance: A Bottom-Up Approach to Track Existing Flows. Washington, DC: IFC, 2023.

10. Network for Greening the Financial System (NGFS). Guide on Climate-Related Disclosure for Central Banks. Paris: NGFS, 2024.

11. United Nations Environment Programme Finance Initiative (UNEP FI). Green Finance: A Practical Guide for Financial Institutions. Nairobi: UNEP, 2021.

12. Asian Development Bank. Green Finance Strategies for Developing Countries. Manila: ADB, 2022.

13. Climate Bonds Initiative. Green Bond Market Summary 2024. London: Climate Bonds Initiative, 2024.

14. European Commission. EU Taxonomy for Sustainable Activities: Technical Screening Criteria. Brussels: European Commission, 2021.

15. Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC). Climate Change 2023: Synthesis Report. Geneva: IPCC, 2023.

16. United Nations Development Programme (UNDP). Sustainable Finance Hub: Annual Report 2023. New York: UNDP, 2024.

17. Бобылев С.Н., Соловьёва С.В. Зеленая экономика и устойчивое развитие: современные подходы // Экономика региона. 2022. Т. 18. № 1. С. 5–20.

18. Порфирьев Б.Н. Зеленая экономика: мировые тенденции и перспективы для России // Проблемы прогнозирования. 2021. № 4. С. 18–32.

19. Абдурахманов К.Х. Зеленая экономика: теория, политика и практика. – Ташкент: Fan, 2023.

20. Рахманов Ш.И. Финансирование зеленой экономики в Республике Узбекистан // Молия. 2024. № 2. С. 42–56.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Tulyaganov Kudratilla Asatullayevich
mustaqil izlanuvchi
A.Avloniy nomidagi pedagogik
mahorat milliy instituti
E-mail: tulyaganov_ka@gmail.com
ORCID: 0009-0002-9268-2143

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini transformatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari tizimli yondashuv asosida tadqiq etilgan. Iqtisodiy islohotlarning institutsional va tarkibiy xususiyatlari tahlil qilinib, bank-moliya tizimi va davlat korxonalarini transformatsiya qilish, davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtirokini maqbullashtirish, xususiy sektor va raqobat muhitini rivojlantirish, iqtisodiyot va davlat boshqaruvini raqamlashtirish hamda transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilishning o‘zaro bog‘liqligi asoslangan. Shuningdek, amalga oshirilayotgan islohotlarni o‘zaro muvofiqlashtirish orqali raqobatbardosh, xususiy sektor yetakchiligiga asoslangan, raqamli va barqaror milliy iqtisodiyot modelini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy transformatsiya, tarkibiy islohotlar, bank-moliya tizimi, davlat korxonalari, xususiylashtirish, xususiy sektor, raqobat muhiti, raqamli transformatsiya, transport-logistika infratuzilmasi, institutsional islohotlar, barqaror iqtisodiy o‘sish.*

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Туляганов Кудратилла Асатуллаевич
самостоятельный исследователь
национальный институт педагогического
мастерства имени А.Авлони
E-mail: tulyaganov_ka@gmail.com
ORCID: 0009-0002-9268-2143

Аннотация. *В статье на основе системного подхода исследованы приоритетные направления трансформации экономики Республики Узбекистан. Проанализированы институциональные и структурные особенности экономических реформ, обоснована взаимосвязь трансформации банковско-финансовой системы и государственных предприятий, оптимизации непосредственного участия государства в экономике, развития частного сектора и конкурентной среды, цифровизации экономики и государственного управления, а также модернизации транспортно-логистической инфраструктуры. Разработаны научно-практические выводы по формированию конкурентоспособной, цифровой и устойчивой модели национальной экономики, основанной на ведущей роли частного сектора и взаимной согласованности проводимых реформ.*

Ключевые слова: *экономическая трансформация, структурные реформы, банковско-финансовая система, государственные предприятия, приватизация, частный сектор, конкурентная среда, цифровая трансформация, транспортно-логистическая инфраструктура, институциональные реформы, устойчивый экономический рост.*

PRIORITY AREAS FOR THE TRANSFORMATION OF THE ECONOMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tulyaganov Kudratilla Asatullaevich
Independent researcher
National institute of pedagogical excellence named after A.Avloni
E-mail: tulyaganov_ka@gmail.com
ORCID: 0009-0002-9268-2143

Abstract. *This article examines the priority areas for the transformation of the economy of the Republic of Uzbekistan based on a systematic approach. The institutional and structural features of ongoing economic reforms are analyzed, and the interrelationship between the transformation of the banking and financial system and state-owned enterprises, optimization of direct state participation in the economy, development of the private sector and competitive environment, digitalization of the economy and public administration, and modernization of transport and logistics infrastructure is substantiated. Scientific and practical conclusions are developed for shaping a competitive, digital, and sustainable national economic model based on the leading role of the private sector and the coordinated implementation of structural and institutional reforms.*

Keywords: *economic transformation, structural reforms, banking and financial system, state-owned enterprises, privatization, private sector, competitive environment, digital transformation, transport and logistics infrastructure, institutional reforms, sustainable economic growth.*

Kirish

O‘zbekistonda 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar milliy iqtisodiyotning ma’muriy tartibga solishga asoslangan modelidan bozor mexanizmining rolini izchil rivojlantirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy modelga bosqichma-bosqich o‘tishiga xizmat qilmoqda. Xususan, valyuta va tashqi savdo munosabatlarini liberallashtirish, davlat aktivlarini xususiylashtirish, bank tizimini isloh qilish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, raqobatni rivojlantirish, davlat korxonalarini transformatsiya qilish hamda iqtisodiyotni raqamlashtirish ushbu jarayonning asosiy yo‘nalishlarini tashkil etmoqda.

Mazkur islohotlarning yangi bosqichga o‘tishida 2021-yil 6-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishishiga bag‘ishlangan tantanali marosimda kelgusi besh yil uchun mamlakat taraqqiyotining asosiy ustuvor yo‘nalishlarini qamrab olgan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi ilgari surilgani muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur strategiya yettita ustuvor yo‘nalishni qamrab olib, 2017-2021-yillarda amalga oshirilgan Harakatlar strategiyasi[1] doirasidagi islohotlarning mantiqiy va uzviy davomi sifatida iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional o‘zgarishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratildi. Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining uchinchi ustuvor yo‘nalishi - “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash” mamlakatda iqtisodiy transformatsiyani chuqurlashtirishning strategik asoslaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda belgilangan vazifalarni 2017-2021-yillardagi Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish bo‘yicha boshlangan islohotlarining yangi sifat bosqichi sifatida baholash mumkin. Zero, oldingi bosqichda amalga oshirilgan valyuta bozorini liberallashtirish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, investitsiya muhitini yaxshilash va bozor institutlarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar keyingi tarkibiy transformatsiyalar uchun zarur institutsional zamin yaratdi.

Mazkur islohotlarning mantiqiy va institutsional davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” tasdiqlandi. Strategiyada mamlakatni rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi va ular doirasida amalga oshirilishi nazarda tutilgan 100 ta maqsad belgilandi. Ushbu strategik hujjat 2017-2021-yillarda shakllantirilgan iqtisodiy va institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish, bozor

mexanizmini keng joriy etish, xususiy sektorning iqtisodiyotdagi rolini oshirish hamda barqaror va yuqori iqtisodiy o‘sish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirishga qaratildi.

Biroq iqtisodiy transformatsiyaning ko‘p qirrali xususiyati uning alohida tarkibiy yo‘nalishlari o‘rtasidagi funksional bog‘liqlikni aniqlash, amalga oshirilayotgan islohotlarning iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash hamda ularni yagona strategik maqsadlar bilan muvofiqlashtirish masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etishni talab etadi. Ayniqsa, davlat sektorini transformatsiya qilish bilan xususiy sektorni rivojlantirish, moliyaviy tizimni isloh qilish bilan investitsion faollikni oshirish, raqamlashtirish bilan institutsional samaradorlikni ta’minlash hamda transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan tashqi iqtisodiy raqobatbardoshlikni kuchaytirish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi

Mualliflar 2009-2022-yillar ma’lumotlari asosida yillik raqobatbardoshlik va barqarorlik (ACAS) indeksini shakllantirib, inson va jismoniy kapital, iqtisodiy rivojlanish hamda demografik omillarning raqobatbardosh va ekologik barqaror iqtisodiy tuzilmani shakllantirishdagi ta’siri hududlar bo‘yicha sezilarli farqlanishini asoslaydilar [3]. Olimlar tizimli tadbirkorlikning raqamli transformatsiyaga ta’sirini Yevropa Ittifoqining 27 mamlakati ma’lumotlari asosida ekonometrik baholaganlar. Tadqiqot natijalari tizimli tadbirkorlik raqamli transformatsiyani jadallashtirishini, bunda moliyaviy rag‘batlar, infratuzilma, inson kapitali va professional ko‘nikmalar muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Mualliflar iqtisodiy rivojlanish darajasi ushbu bog‘liqlikni kuchaytirib, yangi biznes va texnologiyalarni rivojlantirish uchun qulay institutsional muhit yaratishini ilmiy asoslaydilar [4]. Mualliflar Polshaning Katovitse aglomeratsiyasidagi ko‘mir qazib olishga ixtisoslashgan shaharlar misolida dekarbonizatsiya sharoitidagi iqtisodiy transformatsiya va reindustrializatsiya yo‘nalishlarini tadqiq qilganlar. Mualliflar sobiq sanoat hududlariga tizimli investitsiyalar yo‘naltirish, iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiyalash, yangi avtomobilsozlik va logistika obyektlarini rivojlantirish bandlik hamda hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashini asoslaydilar. Tadqiqot adolatli energetik o‘tishda investitsiya resurslarini yangi iqtisodiy faoliyat turlariga samarali qayta taqsimlash zarurligini ko‘rsatadi [5]. Mualliflar “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusiga qo‘shilgan 51 mamlakat misolida yashil investitsiyalar transformatsiyasining yashil iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini empirik baholaganlar. Mualliflar SBM, Super-Efficiency va Minimum Distance to Strong Efficient Frontier modellaridan foydalanib, yashil investitsiyalar transformatsiyasi yashil iqtisodiyot rivojlanishini barqarorlashtirishi, resurslardan foydalanish samaradorligini yaxshilashi va yashil iqtisodiy o‘sish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratishini asoslaydilar [6]. Mualliflar mamlakatlarning raqamli rivojlanishi va iqtisodiy transformatsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni kompleks indikatorlar hamda kvantil regressiya asosida tadqiq qilganlar. Mualliflar raqamlashtirish darajasi infratuzilma, raqamli ko‘nikmalar, internetdan foydalanish imkoniyatlari, kiberxavfsizlik va biznes muhiti bilan uzviy bog‘liqligini asoslaydilar. Shuningdek, raqamli rivojlanish darajasi turlicha mamlakatlarda ushbu omillarning iqtisodiy transformatsiyaga ta’siri sezilarli farqlanishi aniqlangan [7].

F.Yunusov O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik ustuvor yo‘nalishlarini tahlil qilib, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni avvalgi bosqichda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning uzviy davomi sifatida baholaydi. Muallif iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish yo‘nalishida boshlangan islohotlarni izchil davom ettirish, milliy iqtisodiyotning o‘sish sur’atlarini zamon talablari darajasida ta’minlash hamda iqtisodiy boshqaruv mexanizmini takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Mazkur yondashuv O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiya qilishda islohotlarning uzviyligi va strategik izchilligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi [8]. Q.Q.Mambetjanov iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonlarining milliy hisoblar tizimiga ta’sirini tadqiq etib, iqtisodiyotdagi tarkibiy va institutsional o‘zgarishlar makroiqtisodiy jarayonlarni hisobga olish

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

hamda baholash tizimini ham mutanosib ravishda takomillashtirishni talab etishini asoslaydi. Muallifning yondashuviga ko‘ra, iqtisodiy modernizatsiya natijasida yuzaga keladigan yangi iqtisodiy munosabatlar va tarkibiy o‘zgarishlarni milliy hisoblar tizimida to‘laqonli aks ettirish iqtisodiy rivojlanish natijalarini obyektiv baholash hamda samarali makroiqtisodiy boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi [9]. Abdunazarov va Ahmatova raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishning mazmuni, afzalliklari va rivojlanish istiqbollarini tadqiq qilganlar. Mualliflarning fikricha, raqamli texnologiyalar mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, ortiqcha xarajatlarni qisqartirish, axborot almashinuvini tezlashtirish hamda iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli platformalar va elektron moliyaviy operatsiyalarni kengaytirish iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirib, O‘zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri ekanligi ta’kidlangan [10].

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar va xulosalarni umumlashtirgan holda ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini transformatsiya qilish jarayoni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tarkibiy, institutsional, investitsion, raqamli va ekologik o‘zgarishlarni qamrab oluvchi kompleks iqtisodiy jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Iqtisodiyotni transformatsiya qilishning natijadorligi faqat iqtisodiy o‘sish sur’atlari bilan emas, balki iqtisodiyot tarkibidagi sifat o‘zgarishlari, hududlar va tarmoqlarning raqobatbardoshligi, inson va jismoniy kapitaldan foydalanish samaradorligi hamda institutsional muhitning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun transformatsiya jarayonlarini baholashda iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional indikatorlarni o‘zaro uyg‘unlashtirgan kompleks yondashuvdan foydalanish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tizimli va institutsional yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, tarixiy va mantiqiy tahlil, guruhlash, tizimlashtirish hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Mazkur usullar O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan transformatsion jarayonlarning mazmuni, rivojlanish bosqichlari va ustuvor yo‘nalishlarini kompleks baholash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston iqtisodiyotining zamonaviy transformatsiyasini o‘zaro bog‘liq bir nechta institutsional yo‘nalishlarning yagona tizimi sifatida baholash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, transformatsiyaning ustuvor yo‘nalishlarini quyidagi mantiqiy ketma-ketlikda tizimlashtirish mumkin (1-jadval):

1. Bank-moliya tizimini transformatsiya qilish. Iqtisodiy transformatsiyaning eng muhim shartlaridan biri moliyaviy resurslarni iqtisodiyot subyektlari o‘rtasida samarali taqsimlaydigan raqobatbardosh bank tizimini shakllantirish hisoblanadi. Davlat ulushi mavjud tijorat banklarini transformatsiya qilish jarayonida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga moslashtirish, aktivlar sifatini yaxshilash, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, davlat tomonidan yo‘naltiriladigan kreditlash amaliyotini bosqichma-bosqich bozor mexanizmi bilan almashtirish va strategik investorlarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda banklarni xususiylashtirish davlat aktivlarini oddiy realizatsiya qilish sifatida emas, balki moliyaviy vositachilik samaradorligini oshirish vositasi sifatida qarash kerak. Bank sektoridagi transformatsiya kredit resurslarini ma’muriy taqsimlashdan ularni risk, rentabellik va investitsion samaradorlik mezonlari asosida taqsimlash modeliga o‘tishni ta’minlashi zarur.

2. Davlat korxonalarini transformatsiya qilish. O‘zbekiston iqtisodiyoti transformatsiyasining ikkinchi muhim yo‘nalishi davlat korxonalarining iqtisodiyotdagi rolini qayta ko‘rib chiqish bilan bog‘liq. Yirik sanoat, energetika, transport va infratuzilma korxonalarida moliyaviy sog‘lomlashtirish, operatsion faoliyat samaradorligini oshirish, zamonaviy korporativ boshqaruv standartlarini joriy qilish va davlatga xos bo‘lmagan funksiyalarni qisqartirish transformatsiyaning muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Davlat

mulkida qoladigan strategik korxonalarda esa kuzatuv kengashlarining mustaqilligini oshirish, faoliyat samaradorligini KPI asosida baholash, xalqaro moliyaviy hisobot va audit standartlarini qo‘llash hamda davlat tomonidan ko‘rsatiladigan moliyaviy yordamlarni shaffoflashligini ta’minlash zarur. Bunday yondashuv davlat korxonalarini “davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan xo‘jalik subyekti” modelidan “bozor natijalari uchun javobgar korporativ subyekt” modeliga bosqichma-bosqich o'tkazishga xizmat qiladi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini transformatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi[25]

№	Transformatsiyaning ustuvor yo‘nalishi	Asosiy amalga oshirish mexanizmlari	Transformatsion ta’siri	Kutilayotgan iqtisodiy natija
1	Bank-moliya tizimini transformatsiya qilish	Davlat ulushi mavjud banklarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish.	Moliyaviy resurslarni ma’muriy taqsimlashdan bozor mexanizmi asosida samarali taqsimlashga o‘tish	Banklar raqobatbardoshligining oshishi, xususiy kapitalning faollashuvi, kredit resurslaridan foydalanish samaradorligining ortishi
2	Davlat korxonalarini transformatsiya qilish	Moliyaviy sog‘lomlashtirish; zamonaviy korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish.	Davlat korxonalarining bozor tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi korporativ subyektlarga aylanishi	Operatsion samaradorlik va rentabellikning oshishi, fiskal yuk va davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtirokining qisqarishi
3	Raqobat muhitini rivojlantirish va xususiy sektor rolini oshirish	Monopoliyalarni qisqartirish; bozorga kirish to‘siqlarini kamaytirish.	Resurslarni samarali korxonalar foydasiga qayta taqsimlash va xususiy tashabbusni rag‘batlantirish	Xususiy investitsiyalar, tadbirkorlik faolligi, innovatsiyalar va mehnat unumdorligining oshishi
4	Iqtisodiyotni raqamli transformatsiya qilish	Davlat xizmatlari, soliq va bojxona jarayonlarini raqamlashtirish; ma’lumotlar bazalarini integratsiya qilish.	Transaksion xarajatlar va byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, boshqaruv shaffofligi va tezkorligini oshirish	Davlat boshqaruvi samaradorligini ortishi, biznes xarajatlarni kamayishi, raqamli xizmatlar va raqamli iqtisodiyot ulushining kengayishi
5	Transport-logistika tizimini transformatsiya qilish	Temir yo‘l va aviatsiya kompaniyalari biznes-modellarini takomillashtirish	Ichki va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, hududlararo hamda xalqaro iqtisodiy aloqalarni jadallashtirish	Logistika xarajatlarining kamayishi, tranzit va eksport salohiyatining oshishi, O‘zbekistonning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvining kuchayishi
6	Yakuniy transformatsion natija	Yuqoridagi besh yo‘nalishdagi islohotlarni o‘zaro muvofiqlashtirish va yagona monitoring tizimi asosida boshqarish	Institutsional, moliyaviy, raqamli va infratuzilmaviy transformatsiyaning ta’sirini shakllantirish	Raqobatbardosh, xususiy sektor yetakchiligiga asoslangan, raqamli va barqaror milliy iqtisodiyot modelini shakllantirish

3. Xususiy sektor va raqobat muhitini rivojlantirish. Transformatsiyaning samaradorligi davlat sektorining qisqarishi bilangina emas, balki uning o‘rnida raqobatbardosh xususiy sektor shakllanishi bilan belgilanadi. Shuning uchun davlat va xususiy korxonalar uchun moliyaviy resurslar, yer, infratuzilma va davlat xaridlaridan foydalanishda teng sharoit yaratish; iqtisodiyotning raqobat mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan tarmoqlarida eksklyuziv huquqlarni qisqartirish; bozorga kirish to‘siqlarini kamaytirish hamda monopol mavqeni cheklash transformatsiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Mazkur jarayonda davlatning iqtisodiy funksiyasi bevosita ishlab chiqaruvchi va xo‘jalik yurituvchi subyekt rolidan samarali bozor institutlarini yaratuvchi, raqobatni himoya qiluvchi va xususiy tashabbus uchun institutsional sharoit yaratuvchi subyekt roliga o'tishi zarur.

4. Raqamli transformatsiya. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiya qilishning keyingi strategik yo‘nalishi iqtisodiyot va davlat boshqaruvini raqamlashtirish hisoblanadi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish, ma’lumotlar bazalarini integratsiyalash, soliq va bojxona ma’murchiligini avtomatlashtirish, elektron to‘lovlarni rivojlantirish hamda tadbirkorlik subyektlari va davlat organlari o‘rtasidagi munosabatlarda inson omilini qisqartirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini bermoqda. Raqamlashtirishning transformatsion samarasi faqat xizmatlarni elektron shaklga o'tkazish bilan chegaralanmasligi kerak. Keyingi bosqichda “raqamlashtirish - ma’lumotlar integratsiyasi - real vaqt rejimidagi monitoring - tahliliy prognozlash - dalillarga asoslangan boshqaruv qarorlari” zanjirini shakllantirish zarur. Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiy transformatsiya samaradorligini baholovchi yagona raqamli monitoring platformasini shakllantirish maqsadga muvofiq.

[25] Muallif tomonidan tuzilgan

5. Transport-logistika tizimini transformatsiya qilish. O‘zbekistonning geografik joylashuvi va dengiz portlariga bevosita chiqish imkoniyatining mavjud emasligi transport-logistika tizimini iqtisodiy transformatsiyaning strategik elementi sifatida ko‘rib chiqishni talab etadi. Aviatsiya va temir yo‘l tizimida davlat korxonalarining biznes-modellarini takomillashtirish, operatsion va tartibga soluvchi funksiyalarni bosqichma-bosqich ajratish, xususiy operatorlarning bozorga kirishini kengaytirish hamda infratuzilma loyihalariga davlat-xususiy sheriklik mexanizmi orqali xususiy kapitalni jalb qilish zarur. Transport yo‘laklarini diversifikatsiya qilish esa faqat logistika xarajatlarini qisqartirish vositasi emas, balki O‘zbekistonning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvi, eksport geografiyasini kengaytirish va hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish omili sifatida baholanishi kerak.

Xulosa

2017-2021-yillardagi Harakatlar strategiyasi va 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi o‘rtasida uzviy institutsional davomiylik mavjud. Agar Harakatlar strategiyasi iqtisodiyotni liberallashtirish, bozor institutlarini shakllantirish va tadbirkorlik faoliyati uchun bazaviy shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilgan bo‘lsa, 2022–2026-yillardagi Taraqqiyot strategiyasi ushbu jarayonlarni chuqurlashtirish, davlatning iqtisodiyotdagi rolini maqbullashtirish, xususiy sektorning yetakchi mavqeini kuchaytirish, raqobat muhitini takomillashtirish hamda raqamli va infratuzilmaviy transformatsiyani jadallashtirishga yo‘naltirilgan yangi bosqichni boshlab berdi. Binobarin, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning evolyutsiyasini “liberallashtirish-institutsional islohotlar-tarkibiy transformatsiya-xususiy sektor rolini kuchaytirish-raqamli va infratuzilmaviy modernizatsiya” ketma-ketligida baholash mumkin. Mazkur jarayonlarning o‘zaro uyg‘unligi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini ta’minlash va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sish modelini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini jadallashtirish, davlat xizmatlari va boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy etish hamda transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratildi. Mazkur yo‘nalishlarning amalga oshirilishi biznes yuritish xarajatlarini kamaytirish, davlat boshqaruvi samaradorligi va shaffofligini oshirish, hududlar va tarmoqlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash hamda mamlakatning xalqaro iqtisodiy integratsiyasini jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

Bank-moliya tizimining transformatsiyasi iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirish imkoniyatlarini kengaytirsa, davlat korxonalarini isloh qilish va xususiylashtirish davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtirokini maqbullashtirishga xizmat qiladi. O‘z navbatida, raqobat muhitining takomillashuvi xususiy sektor faolligi, investitsiyalar va innovatsiyalar uchun zarur iqtisodiy rag‘batlarni shakllantiradi. Iqtisodiyot va davlat boshqaruvining raqamli transformatsiyasi mazkur jarayonlarning shaffofligi va samaradorligini oshirsa, transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish ichki va tashqi bozorlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish hamda milliy iqtisodiyotning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvini jadallashtirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiya qilishning zamonaviy bosqichida davlat ishtirokini maqbullashtirish, bank-moliya tizimi va davlat korxonalarini transformatsiya qilish, xususiy sektor uchun teng raqobat sharoitlarini shakllantirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish o‘zaro bog‘liq strategik yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur yo‘nalishlarning bir-biri bilan uyg‘un va izchil amalga oshirilishi iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, tarkibiy nomutanosibliklarni qisqartirish, xususiy investitsiyalarni faollashtirish va iqtisodiyotning uzoq

muddatli raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli Farmoni.

3. Santos A., Conte A. Measuring regional economic transformation: Which European regions are leading the competitiveness and sustainability challenge? // Global Challenges & Regional Science. – 2025. – Vol. 4.

4. Guimarães J., Fernandes C., Veiga P.M., Ramadani V. Digital transformation influenced by systemic entrepreneurship: the moderating effects of level of economic development // Journal of Enterprising Communities: People and Places in the Global Economy. – 2025. – Vol. 20, No. 3. – P. 835–853.

5. Dragan W., Zdyrko A. The spatial dimension of coal phase-out: Exploring economic transformation and city pathways in Poland // Energy Research & Social Science. – 2023. – Vol. 99.

6. Liu J., Qiu F., Zhang T., Liu H. Dynamics of green economic development in countries joining the Belt and Road Initiative: Is it driven by green investment transformation? // Journal of Environmental Management. – 2023. – Vol. 347.

7. Kuzior A., Vasylieva T., Kuzmenko O., Koibichuk V., Brożek P. Global Digital Convergence: Impact of Cybersecurity, Business Transparency, Economic Transformation, and AML Efficiency // Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity. – 2022. – Vol. 8, Issue 4. – P. 1–24.

8. Yunusov F. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ustuvor vazifalar // “Taraqqiyot strategiyasi” markazi. – 2021. – 18 noyabr. – Elektron manba. – strategy.uz

9. Mambetjanov Q.Q. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonlarining milliy hisoblar tizimiga ta’siri // Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansы. – 2016. – № 9. – B. 43–48.

10. Abdunazarov S.A., Ahmatova X.N. Raqamli transformatsiya jarayonida iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish yo‘llari va istiqbollari // Teoreticheskie aspektы stanovleniya pedagogicheskix nauk. – 2025. – Vol. 4, Issue 19. – B. 64–68.

TEMIR YO‘L TRANSPORTI KORXONALARIDA EKOLOGIK-IQTISODIY SAMARADORLIKNI YUKSALTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY VA INNOVATSION MEXANIZMLARI

Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna

TDIU, Iqtisodiyot fakulteti,
“Yashil” iqtisodiyot kafedrasi dots. v.b.,
E-mail: mqdsabd@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0007-4686-8437

Annotatsiya. *Ushbu maqolada transport tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlashda ekologik xavfsizlik, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy natijadorlikni uyg‘unlashtirishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqot davomida ekologik-iqtisodiy samaradorlikka ta’sir etuvchi omillar tizimli tahlil qilinib, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanish, ESG tamoyillarini ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiyalash hamda innovatsion boshqaruv yondashuvlarini qo‘llashning ustuvor yo‘nalishlari asoslab berilgan. Shuningdek, ekologik xarajatlarni optimallashtirish, uglerod emissiyasini kamaytirish, energiya resurslaridan oqilona foydalanish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari temir yo‘l transporti korxonalarida "yashil" transformatsiyani jadallashtirish, ekologik barqarorlikni mustahkamlash hamda ularning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Temir yo‘l transporti, ekologik-iqtisodiy samaradorlik, innovatsion mexanizmlar, barqaror transport tizimi, yashil transformatsiya, ESG tamoyillari, energiya samaradorligi, raqamli transformatsiya.*

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОЛОГО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА В УСЛОВИЯХ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Абдурахманова Мукаддас Тохтасиновна

и.о доцент, факультета экономики,
кафедры зелёная экономика, ТЭГУ
E-mail: mqdsabd@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0007-4686-8437

Аннотация. *В данной статье рассмотрены теоретические и практические аспекты обеспечения устойчивого развития системы железнодорожного транспорта на основе интеграции экологической безопасности, рационального использования ресурсов и повышения экономической результативности. В ходе исследования проведён системный анализ факторов, оказывающих влияние на эколого-экономическую эффективность предприятий, обоснованы приоритетные направления внедрения энергоэффективных технологий, использования цифровых инструментов управления, интеграции принципов ESG в производственные процессы, а также применения инновационных подходов к управлению. Кроме того, разработаны научно-практические рекомендации, направленные на оптимизацию экологических затрат, сокращение выбросов углерода, повышение эффективности использования энергетических ресурсов и укрепление инвестиционной привлекательности предприятий железнодорожного транспорта. Полученные результаты способствуют ускорению процессов «зелёной» трансформации предприятий железнодорожного транспорта, повышению уровня их экологической*

устойчивости и обеспечению долгосрочной конкурентоспособности в условиях устойчивого экономического развития.

Ключевые слова: *Железнодорожный транспорт; эколого-экономическая эффективность, инновационные механизмы, устойчивая транспортная система, зелёная трансформация, принципы ESG, энергоэффективность, цифровая трансформация.*

INNOVATIVE MECHANISMS FOR ENHANCING THE ENVIRONMENTAL AND ECONOMIC EFFICIENCY OF RAILWAY TRANSPORT ENTERPRISES

Abdurakhmanova Mukaddas Tokhtasinovna

Acting Associate Professor,
Faculty of Economics,
Department of Green Economy, (TSUE)
E-mail: mqdsabd@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0007-4686-8437

Abstract. *This article examines the theoretical and practical dimensions of integrating environmental sustainability, resource efficiency, and economic performance to ensure the sustainable development of the railway transport system. The study provides a systematic analysis of the key factors influencing environmental and economic efficiency, with particular attention to the implementation of energy-efficient technologies, the adoption of digital management solutions, the integration of Environmental, Social, and Governance (ESG) principles into operational processes, and the application of innovative management approaches. Furthermore, practical recommendations are proposed to optimize environmental costs, reduce carbon emissions, improve the rational use of energy resources, and strengthen the investment attractiveness of railway transport enterprises. The findings contribute to accelerating the green transformation of railway transport enterprises, enhancing their environmental sustainability, and reinforcing their long-term competitiveness under the conditions of sustainable economic development.*

Key words: *Railway transport, environmental and economic efficiency, innovative mechanisms, sustainable transport system, green transformation, ESG principles, energy efficiency, digital transformation.*

Kirish

Jahon iqtisodiyotida transport infratuzilmasining barqaror rivojlanishi iqtisodiy o‘sish sur'atlarini jadallashtirish, logistika tizimlarining uzluksiz ishlashini ta'minlash hamda xalqaro savdo va iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xalqaro energetika agentligi (International Energy Agency – IEA) ma'lumotlariga ko‘ra, transport sektori dunyodagi yakuniy energiya iste'molining qariyb 30 foizini hamda energiya bilan bog‘liq karbonat angidrid (CO_2) emissiyalarining 25 foizga [2] yaqinini shakllantiradi. Shu sababli transport tarmog‘ida energiya samaradorligini oshirish va uglerod emissiyalarini qisqartirish global iqlim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Transport tarmoqlari orasida temir yo‘l transporti yuqori yuk tashish salohiyati, energiya tejamkorligi hamda nisbatan past ekologik ta'siri bilan ajralib turadi. IEA va Xalqaro temir yo‘llar ittifoqi (UIC) ma'lumotlariga ko‘ra, temir yo‘l transporti jahon bo‘yicha yo‘lovchi tashishning 8 foizini va yuk tashishning 7 foizini [5] amalga oshirgan holda, transport sektorining umumiy energiya iste'molida atigi 2 foiz [2] ulushga ega. Bundan tashqari, UICning Global Rail Sustainability Report (2024) [6] hisobotida qayd etilishicha, 2023-yilda dunyo bo‘yicha temir yo‘llarda 3,8 trillion yo‘lovchi-kilometr va 12 trillion tonna-kilometr yuk [8] tashilgan bo‘lib, temir yo‘l transporti global transport chiqindilarining taxminan 1 foizini hosil qilgan. Mazkur ko‘rsatkichlar temir yo‘l transportining boshqa transport turlariga nisbatan ekologik ustunligini yaqqol namoyon etadi.

Biroq sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, xalqaro logistika zanjirlarining

murakkablashuvi, yuk va yo‘lovchi tashish hajmlarining ortishi hamda tabiiy resurslardan foydalanish ko‘lamining kengayishi temir yo‘l transporti korxonalari oldiga ekologik xavfsizlikni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan bog‘liq yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Mazkur sharoitda korxonalar faoliyatini faqat iqtisodiy natijalar asosida baholash yetarli bo‘lmay, energiya samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish, karbon emissiyalarini kamaytirish va ESG tamoyillarini boshqaruv tizimiga integratsiyalash kabi ekologik mezonlarni ham kompleks hisobga olish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zamonaviy transport iqtisodiyotining dolzarb ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Transport tizimining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab iqtisodiyot fanining mustaqil tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Mazkur yo‘nalishda John R. Meyer, John F. Kain va Martin Wohl (1965) [7] transport infratuzilmasining iqtisodiy o‘sishga ta'sirini kompleks tahlil qilib, transport tarmog‘ining ishlab chiqarish omillari samaradorligini oshirish, hududlararo iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashdagi rolini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ularning fikricha, transport tizimining rivojlanish darajasi iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishlari va logistika samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Transport iqtisodiyoti va transport siyosatini tadqiq etishda Kenneth J. Button (2010) [1] transport xizmatlari bozori, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari va transport infratuzilmasiga investitsiyalar samaradorligini o‘rgangan. Olim transport tizimining raqobatbardoshligi nafaqat infratuzilma sifati, balki institutsional boshqaruv, innovatsion texnologiyalar va samarali transport siyosati bilan ham belgilanishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv transport korxonalarining uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda strategik boshqaruvning muhimligini ko‘rsatadi.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham temir yo‘l transporti korxonalarining iqtisodiy samaradorligi, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlash masalalari keng tadqiq etilgan. Xususan, N. P. Tereshina [12] temir yo‘l transporti iqtisodiyotini rivojlantirish, transport xizmatlari samaradorligini baholash hamda temir yo‘l korxonalarida strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Olim transport korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion rivojlanish, investitsion faollik va resurslardan samarali foydalanish muhim omillar ekanligini asoslab bergan.

Temir yo‘l transportida iqtisodiy islohotlar va boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari B. A. Levikovning [11], N.P.Tereshina [12] ilmiy ishlarida ham keng yoritilgan. Olim temir yo‘l korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish va iqtisodiy natijadorlikni baholashning zamonaviy usullarini taklif etgan.

Mahalliy olimlari tomonidan ham transport infratuzilmasini rivojlantirish, logistika tizimlarini takomillashtirish va transport korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish masalalari keng tadqiq etilgan. Xususan, Y.K.Karriyeva [13] o‘z ilmiy ishlarida transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish iqtisodiy o‘sish sur’atlarini jadallashtirish, hududlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini asoslab bergan. Olim transport tarmog‘ini rivojlantirishni investitsion siyosat va innovatsion iqtisodiyot bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etgan.

K.U.Uldjabayev [14] iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida transport tizimining investitsion jozibadorligini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va resurslardan samarali foydalanish iqtisodiy samaradorlikni ta’minlovchi muhim omillaridan ekanligini asoslagan.

N.K.Yuldashevev[15] iqtisodiy geografiya va transport kommunikatsiyalarini

rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarida transport infratuzilmasining hududiy rivojlanish, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish va logistika tizimlarini takomillashtirishdagi o‘rnini chuqur tahlil qilgan. Muallif transport tarmoqlarining hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholashning ilmiy-uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqqan.

Transport tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha Yevropa va MDH olimlarining tadqiqotlari[26]

№	Tadqiqot olib borgan olim	Tadqiqot mavzusi	Asosiy gipoteza	Tadqiqot yo‘nalishi
1.	P. Ragnar (Germaniya)	Infratuzilmaning tarmoqlararo ta’siri va transportda tizimli yondashuv	Transport infratuzilmasi – iqtisodiyotning tarmoqlararo muvofiqlashtiruvchi asosidir	Sanoat va transport tizimlari o‘rtasidagi dinamik bog‘liqliklar tahlili
2.	J. Perru (Fransiya)	Hududiy rivojlanishda transport tarmoqlarining iqtisodiy roli	Transport hududiy iqtisodiy o‘sishni katalizator sifatida jadallashtiradi	Hududiy transport infratuzilmasini ijtimoiy-iqtisodiy modellashtirish
3.	A. Bauman (Shveysariya)	Transportda logistik tizimlar va innovatsion boshqaruv texnologiyalari	Logistika samaradorligi – transport tizimi innovatsion qayta tashkil etilishiga bog‘liq	Innovatsion logistika texnologiyalarini joriy etish yo‘llari
4.	S.N. Svetunkov (Rossiya)	Tarmoqlar iqtisodiyoti va transport infratuzilmasining rivojlanish modellari	Infratuzilma rivojlanishi sanoat miqyosida kompleks iqtisodiy o‘sishni belgilaydi	Infratuzilmaviy tizimlarning iqtisodiy samaradorlik modellari
5.	V.N. Jurkovskiy (Belarus)	Transport siyosati va davlat rejalashtiruv mexanizmi	Transport siyosati makroiqtisodiy barqarorlik bilan uzviy bog‘liq	Transport siyosatining strategik tahlili va prognozlash
6.	A.S. Zlobin (Rossiya)	Infratuzilmani modernizatsiya qilishda davlat-xususiy sheriklik	Infratuzilmani modernizatsiya qilishda xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish zarur	PPP mexanizmlari asosida investitsiya jalb etish modellari
7.	N.X. Azimov (O‘zbekiston)	O‘zbekistonda transport logistikasini tarmoqlararo integratsiyalash	Tarmoqlararo logistika tizimlari eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi	Tarmoqlararo logistika platformalarini shakllantirish
8.	Sh.Q. Qurbonov (O‘zbekiston)	Sanoat infratuzilmasi va transport o‘zaro ta’sirining iqtisodiy bahosi	Transport – sanoat tarmoqlarining resurs oqimlarini muvofiqlashtiruvchi baza	Ishlab chiqarish va transport integratsiyasini iqtisodiy modellashtirish

Biroq mahalliy ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini ESG tamoyillari, energiya samaradorligi, uglerod emissiyasini boshqarish, raqamli transformatsiya va yashil innovatsiyalar asosida kompleks baholash hamda innovatsion tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish masalalari hali yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot transport iqtisodiyoti, ekologik menejment va barqaror rivojlanish yondashuvlarini yagona metodologik tizimga integratsiyalash orqali mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mamlakat iqtisodiyotining transport tizimi doirasidagi rivojlanishida xorijiy tajribani o‘rganish maqsadida tadqiqotda iqtisodiy-huquqiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Xususan, ilmiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil hamda iqtisodiy-statistik usullar qo‘llanildi. Mazkur metodlar transport tizimining rivojlanish tendensiyalarini, xorijiy davlatlar tajribasini hamda ularni milliy amaliyot bilan taqqoslash orqali ilmiy xulosalar va amaliy

[26] O‘rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

tavsiyalarni shakllantirish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

Transport tarmog‘ining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirish bugungi kunda barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, temir yo‘l transportida energiya samaradorligini oshirish, raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish, elektrlashtirish darajasini kengaytirish va ekologik menejment tizimlarini takomillashtirish nafaqat atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradi, balki korxonalarning iqtisodiy natijadorligini ham sezilarli darajada yaxshilaydi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko‘ra, transport sektori dunyo bo‘yicha yakuniy energiya iste'molining qariyb 30 foizini, energiya bilan bog‘liq karbonat angidrid (CO_2) emissiyalarining esa 24–25 foizini [9] tashkil etadi. Shu bilan birga, temir yo‘l transporti jahon yo‘lovchi tashish hajmining taxminan 8 foizi va yuk tashishning 7 foizini amalga oshirayotgan bo‘lsa-da, transport tarmog‘i umumiy energiya iste'molining atigi 2 foizi hamda CO_2 emissiyalarining 1 foizga yaqin qismini hosil qiladi. Mazkur ko‘rsatkichlar temir yo‘l transportining ekologik va energetik samaradorligi boshqa transport turlariga nisbatan ancha yuqori ekanligini tasdiqlaydi [2].

International Union of Railways [8] hisobotiga ko‘ra, 2023-yilda dunyo bo‘yicha temir yo‘l transportida 3,8 trillion yo‘lovchi-kilometr va 12 trillion tonna-kilometr yuk tashilgan. Ayni paytda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida temir yo‘l transportini elektrlashtirish darajasi o‘rtacha 60 foizdan yuqori bo‘lib, Shveytsariyada ushbu ko‘rsatkich 100 foiz, Germaniyada 61 foiz, Fransiyada 57 foiz hamda Italiyada 72 foizni tashkil etadi. Elektrlashtirish darajasining yuqoriligi energiya sarfini kamaytirish, ekspluatatsiya xarajatlarini optimallashtirish va issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish imkonini bermoqda.

1-rasm

Tashish ishi hajmining o‘sishida tarmoq ko‘rsatkichi va korxona yuklamasining divergensiyasi [27]



O‘zbekiston temir yo‘l transportida ham so‘nggi yillarda modernizatsiya jarayonlari jadallashdi. "O‘zbekiston temir yo‘llari" AJ tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari doirasida elektrlashtirilgan temir yo‘l uchastkalari kengaytirilib, zamonaviy elektrovozlar va energiya tejamkor texnologiyalar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Buning natijasida dizel yoqilg‘isi iste'moli qisqarishi, ekspluatatsiya xarajatlari kamayishi hamda yuk tashish jarayonlarining ekologik ko‘rsatkichlari yaxshilanishi kuzatilmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi: elektrlashtirish darajasi, energiya resurslaridan foydalanish samaradorligi, lokomotiv va vagonlar parkini modernizatsiya

[27] Muallif ishlanmasi "O‘zbekiston temir yo‘llari" AJning 2025-yilgi rasmiy hisobotlari asosida tuzilgan.

qilish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, logistika jarayonlarini optimallashtirish hamda ESG tamoyillarini korporativ boshqaruvga integratsiyalash. Mazkur omillarni kompleks ravishda boshqarish transport korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, uglerod emissiyalarini qisqartirish va investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirishning innovatsion mexanizmlari sifatida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar aniqlandi:

- energiya tejamkor va kam uglerodli texnologiyalarni keng joriy etish;
- sun'iy intellekt va raqamli monitoring tizimlari asosida resurslardan foydalanishni optimallashtirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ulushini oshirish;
- ESG tamoyillarini korporativ boshqaruv tizimiga integratsiyalash;
- ekologik va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yagona integral indeks asosida baholash.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mazkur innovatsion mexanizmlarning kompleks qo‘llanilishi temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik yuklamasini kamaytirish bilan bir qatorda operatsion xarajatlarni optimallashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va ularning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, ekologik va iqtisodiy manfaatlarni uyg‘unlashtirishga asoslangan boshqaruv yondashuvlari temir yo‘l transportining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion mexanizmlarni joriy etish strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Zamonaviy sharoitda transport tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlash nafaqat ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini takomillashtirish, balki energiya resurslaridan samarali foydalanish, ekologik xavfsizlikni kuchaytirish hamda boshqaruv tizimlarini raqamlashtirish bilan ham uzviy bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilish korxonalarning iqtisodiy natijadorligini oshirish bilan bir qatorda ularning ekologik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, elektrlashtirish darajasini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, raqamli boshqaruv tizimlarini rivojlantirish hamda ESG tamoyillarini korporativ boshqaruvga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etishi asoslandi. Mazkur yo‘nalishlarning kompleks ravishda amalga oshirilishi ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, karbon emissiyasini qisqartirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va korxonalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlash imkonini beradi.

Shuningdek, xalqaro tajriba tahlili innovatsion rivojlanish ekologik talablar va iqtisodiy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashning eng samarali vositalaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Shu bois temir yo‘l transporti korxonalarining rivojlanish strategiyasida innovatsion mexanizmlar ekologik xavfsizlikni ta’minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish va transport xizmatlari sifatini yaxshilashning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Takliflar

1. Temir yo‘l transporti korxonalarida “Yashil innovatsiyalar dasturi”ni ishlab chiqish va joriy etish maqsadga muvofiq. Dastur energiya samaradorligini oshirish, karbon emissiyasini kamaytirish hamda ekologik xavfsizlik ko‘rsatkichlarini muntazam monitoring qilishni nazarda tutishi lozim.

2. Sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalariga asoslangan raqamli boshqaruv platformalarini joriy etish orqali energiya iste’moli, lokomotivlar harakati, texnik xizmat

ko‘rsatish jarayonlari va resurslardan foydalanish samaradorligini real vaqt rejimida nazorat qilish tavsiya etiladi.

3. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ulushini bosqichma-bosqich oshirish, xususan, temir yo‘l vokzallari, depo va logistika markazlarida quyosh fotoelektr stansiyalari hamda energiya saqlash tizimlarini joriy etish zarur.

4. Korxonalarda ekologik-iqtisodiy samaradorlikni baholovchi integral ko‘rsatkichlar tizimini (Green KPI) ishlab chiqish va uni strategik boshqaruv hamda investitsion qarorlar qabul qilish jarayonlariga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

5. Rekuperativ tormozlash, energiyani qayta tiklash va aqlli elektr ta’minoti tizimlarini keng joriy etish orqali elektr energiyasi sarfini sezilarli darajada kamaytirish hamda ekspluatatsiya xarajatlarini optimallashtirish mumkin.

6. ESG tamoyillari asosida korporativ boshqaruvni takomillashtirish, ekologik va ijtimoiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ochiq hisobotlarni muntazam e’lon qilish hamda xalqaro barqarorlik standartlarini amaliyotga tatbiq etish korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

7.Ilmiy muassasalar, oliy ta’lim tashkilotlari va temir yo‘l transporti korxonalari o‘rtasida innovatsion hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish, qo‘shma ilmiy-amaliy loyihalarni amalga oshirish hamda soha uchun ekologik va raqamli kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur.

8.Innovatsion ekologik loyihalarni moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlarini rivojlantirish, jumladan, "yashil" obligatsiyalar, ESG investitsiyalari, davlat-xususiy sheriklik va xalqaro moliya institutlari mablag‘larini jalb etish orqali temir yo‘l transportini modernizatsiya qilishni jadallashtirish lozim.

Umuman olganda, taklif etilgan innovatsion mexanizmlarning izchil joriy etilishi temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirish, resurslardan foydalanish unumdorligini kuchaytirish, ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish hamda transport tarmog‘ining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta’minlash uchun mustahkam asos yaratadi. Shu bilan birga, mazkur yondashuvlar O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi va transport sohasini modernizatsiya qilish bo‘yicha ustuvor davlat siyosati maqsadlariga erishishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Button K. J. Transport Economics. – 3rd ed. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2010. – 640 p.

2.International Energy Agency (IEA). Railways Could Provide Much Greater Benefits for Energy and the Environment. – Paris: IEA, 2019. – Available at: https://www.iea.org/news/railways-could-provide-much-greater-benefits-for-energy-and-the-environment-according-to-iea-report

3. International Energy Agency (IEA). The Future of Rail: Opportunities for Energy and the Environment. – Paris: IEA, 2019. – Available at: https://www.iea.org/reports/the-future-of-rail

4. International Transport Forum (ITF). ITF Transport Outlook 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 216 p. DOI: 10.1787/b6cc9ad5-en.

5. International Union of Railways (UIC). Energy Efficiency and CO_2 Emissions. – Available at: https://www.uic.org/sustainability/energy-efficiency-and-co2-emissions/

6. International Union of Railways (UIC). Global Rail Sustainability Report 2024. – Paris: UIC, 2024.

7. Meyer J. R., Kain J. F., Wohl M. The Urban Transportation Problem. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1965. – 466 p.

8. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). ITF Transport Outlook 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023. – Available at:

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

https://doi.org/10.1787/b6cc9ad5-en.

9. World Bank. Railways: A Backbone for Sustainable Mobility. – Washington, DC: World Bank, 2023.

10. World Bank. World Development Indicators: Transport. – Washington, DC:World Bank, 2024. – Available at: https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators

11. Levikov Б. А. Экономика и управление на железнодорожном транспорте. – Москва: Маршрут, 2017. – 416 с.

12. Tereshina Н. П. Экономика железнодорожного транспорта. – Москва: ФГБОУ ВО «Российский университет транспорта (МИИТ)», 2021. – 432 с.

13. Карриева Я. К. Проблемы логистических перевозок. – Ташкент: Фан, 2004. – 186 с.

14. Ульджабаев К. У. Экономические реформы на железнодорожном транспорте. – Ташкент: Труд, 1999. – 214 с.

15. Юлдашев Н. К. Транспорт логистикаси ва барқарор ривожланиш. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2022. – 284 б.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MINTAQALARDA INSTITUTSIONAL-IQTISODIY HAMKORLIKNING SHAKLLARI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Uralov Elshod Sirojiddin o’g’li

mustaqil tadqiqotchi
Qarshi davlat universiteti
E-mail: elshoduralov000@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning nazariy-metodologik asoslari, uning tashkiliy shakllari hamda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni tadqiq etilgan. Tadqiqotda institutsional iqtisodiyot nazariyasi, mintaqaviy rivojlanish konsepsiyalari va zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida davlat organlari, mahalliy boshqaruv institutlari, biznes subyektlari, ilmiy-ta’lim muassasalari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikning rivojlanish xususiyatlari tizimli tahlil qilingan. Shuningdek, institutsional-iqtisodiy hamkorlikning hududiy raqobatbardoshlikni oshirish, investitsion faollikni rag‘batlantirish, innovatsion jarayonlarni jadallashtirish va mavjud resurslardan samarali foydalanishga ta’siri baholangan. Tadqiqot davomida tizimli, qiyosiy va institutsional tahlil usullaridan foydalanilib, mintaqalarda hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlangan.*

Kalit so’zlar: *institutsional-iqtisodiy hamkorlik, mintaqaviy rivojlanish, hududiy boshqaruv, davlat–biznes–ilm-fan hamkorligi, innovatsion rivojlanish, investitsion faollik, hududiy raqobatbardoshlik, barqaror iqtisodiy rivojlanish, raqamli infratuzilma, institutsional muhit.*

ФОРМЫ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В РЕГИОНАХ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ

Уралов Эльшод Сироджиддин угли

независимый исследователь
Каршский государственный университет
E-mail: elshoduralov000@gmail.com

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы институционально-экономического сотрудничества в регионах, его организационные формы и роль в устойчивом социально-экономическом развитии регионов. Исследование систематически анализирует особенности развития сотрудничества между государственными органами, органами местного самоуправления, хозяйствующими субъектами, научно-образовательными учреждениями и институтами гражданского общества на основе теории институциональной экономики, концепций регионального развития и современных подходов к управлению. Также оценивается влияние институционально-экономического сотрудничества на повышение региональной конкурентоспособности, стимулирование инвестиционной активности, ускорение инновационных процессов и эффективное использование имеющихся ресурсов. В исследовании используются методы систематического, сравнительного и институционального анализа для определения приоритетных направлений развития сотрудничества в регионах.*

Ключевые слова: *институционально-экономическое сотрудничество, региональное развитие, территориальное управление, государственно-хозяйственно-научное сотрудничество, инновационное развитие, инвестиционная активность, региональная конкурентоспособность, устойчивое экономическое развитие, цифровая*

инфраструктура, институциональная среда.

FORMS OF INSTITUTIONAL-ECONOMIC COOPERATION IN REGIONS AND DEVELOPMENT FEATURES

Uralov Elshod Sirojiddin ogli

Independent researcher
Karshi State University
E-mail: elshoduralov000@gmail.com

Abstract. *This article examines the theoretical and methodological foundations of institutional and economic cooperation in the regions, its organizational forms and its role in the sustainable socio-economic development of regions. The study systematically analyzes the development features of cooperation between state bodies, local government institutions, business entities, scientific and educational institutions and civil society institutions based on the theory of institutional economics, concepts of regional development and modern management approaches. It also assesses the impact of institutional and economic cooperation on increasing regional competitiveness, stimulating investment activity, accelerating innovation processes and the effective use of existing resources. The study uses systematic, comparative and institutional analysis methods to identify priority areas for the development of cooperation in the regions.*

Keywords: *institutional and economic cooperation, regional development, territorial governance, state-business-science cooperation, innovative development, investment activity, regional competitiveness, sustainable economic development, digital infrastructure, institutional environment.*

Kirish

Jahon iqtisodiyotida globallashuv, raqamli transformatsiya va mintaqalararo integratsiya jarayonlarining jadallashuvi hududlarning iqtisodiy rivojlanish omillarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sharoitda mintaqalarning barqaror rivojlanishi tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarish quvvatlari bilan bir qatorda davlat boshqaruvi organlari, biznes subyektlari, ilmiy-ta'lim muassasalari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi institutsional-iqtisodiy hamkorlikning samaradorligi bilan ham belgilanadi[1].

Globallashuv jarayonlari ayrim davlatlarda milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish va ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni saqlash zarurati bilan bog‘liq qarama-qarshi yondashuvlarni yuzaga keltirayotgan bo‘lsa-da, iqtisodiy integratsiya va institutsional hamkorlikning rivojlanishi hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion salohiyatini mustahkamlash hamda investitsion jozibadorligini yuksaltirishning muhim omiliga aylanmoqda. Shu sababli mintaqalarda davlat, xususiy sektor, ilm-fan va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni takomillashtirish mintaqaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. [2] O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar doirasida hududlarni kompleks rivojlantirish, iqtisodiy o‘sishning yangi drayverlarini shakllantirish, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish hamda investitsion va innovatsion faollikni rag‘batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmonida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta'minlash, hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, xususiy sektor ulushini kengaytirish hamda zamonaviy davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish institutsional-iqtisodiy hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish bilan uzviy bog‘liqdir.

Hududlarda institutsional-iqtisodiy hamkorlik iqtisodiy ustunligi, avvalo, innovatsiyalarni yaratish va joriy etish salohiyati, inson kapitalining sifati, ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga transfer qilish darajasi hamda institutsional muhitning samaradorligi bilan

belgilanmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat–biznes–ilm-fan hamkorligi, hududiy klasterlar, innovatsion infratuzilmalar va kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish mintaqalarning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlarda institutsional iqtisodiyotning nazariy asoslari va iqtisodiy hamkorlikning ayrim jihatlari keng yoritilgan bo‘lsa-da, mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning zamonaviy shakllari, ularning hududiy rivojlanishga ta'siri hamda iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, institutsional hamkorlikning mintaqalarning raqobatbardoshligi, investitsion jozibadorligi va innovatsion rivojlanishiga ta'sirini tizimli baholash bo‘yicha ilmiy-uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish zarurati mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Mazkur maqolaning maqsadi mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning nazariy asoslari va zamonaviy shakllarini tizimli tahlil qilish, ularning rivojlanish xususiyatlarini aniqlash hamda hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlik masalalari so‘nggi yillarda hududiy rivojlanishning muhim omili sifatida keng tadqiq etilmoqda. O‘zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish, investitsion muhitni yaxshilash va hududiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Xususan, hududiy boshqaruv samaradorligi va institutsional muhit sifati mintaqalarning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi asosiy omillar sifatida qayd etilgan. MDH davlatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa hududlararo va munitsipal hamkorlik, davlat–biznes sherikligi, innovatsion rivojlanish hamda hududiy raqobatbardoshlik masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Rossiyalik tadqiqotchilar A.I. Idziyev, M.L. Nechaeva, I.Yu. Jdankina va boshqalar hududlar o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish, resurslarni birlashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirishning institutsional asoslarini tadqiq qilganlar. [3] Maqolada mintaqaviy rivojlanishda samarali institutlar, manfaatdor subyektlar o‘rtasidagi hamkorlik va boshqaruv mexanizmlarining uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning davlat, biznes, ilm-fan va fuqarolik jamiyati institutlari kesimidagi kompleks modeli, uning mintaqalar iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini baholash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Bu holat mazkur yo‘nalishda qo‘shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning shakllari va rivojlanish xususiyatlarini o‘rganishda tizimli, qiyosiy va institutsional tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini institutsional iqtisodiyot, mintaqaviy rivojlanish va hududiy boshqaruv konsepsiyalari tashkil etdi.

Tahlil va natijalar

Globallashuv va hududiy raqobat kuchayib borayotgan sharoitda mintaqalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishi nafaqat mavjud resurslardan foydalanish darajasi, balki hududiy institutlar o‘rtasidagi samarali hamkorlik mexanizmlarining shakllanganligi bilan ham belgilanadi. Tahlil jarayonida davlat, biznes, ilmiy-ta’lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlari o‘rganildi. Shuningdek, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va qiyoslash usullari orqali mintaqalarda institutsional hamkorlikning iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi omillari aniqlandi. Tadqiqot natijalarini shakllantirishda mantiqiy tahlil, tizimlashtirish va ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanilib, mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Zamonaviy sharoitda davlat boshqaruvi organlari, biznes subyektlari, ilmiy-ta’lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar mintaqaviy iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishi hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, innovatsion faoliyatni jadallashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta’minlash imkonini beradi. Ayniqsa, zamonaviy iqtisodiyotda moddiy resurslardan tashqari inson kapitali, axborot almashinuvi, ilmiy salohiyat va tashkiliy boshqaruv imkoniyatlari hududiy rivojlanishning muhim omillariga aylanmoqda. Mintaqaviy rivojlanish jarayonida institutsional-iqtisodiy hamkorlikni uch bosqichli tizim sifatida ko‘rib chiqish mumkin (1-rasm).

1-rasm.

Mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning tarkibiy tuzilmasi*



*Muallif ishlanmasi

1-rasmdan ko‘rinadiki, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning samaradorligi alohida subyektlarning faoliyatidan ko‘ra, ular o‘rtasidagi integratsion aloqalar sifatiga bog‘liq. Davlat tomonidan yaratilgan institutsional muhit biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlasa, ilmiy muassasalar innovatsion yechimlarni shakllantiradi, jamiyat institutlari esa ushbu jarayonlarning ijtimoiy samaradorligini ta’minlaydi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, institutsional hamkorlikning rivojlangan shakllari mavjud bo‘lgan hududlarda investitsion faollik, innovatsion loyihalar soni va ishlab chiqarish samaradorligi yuqori bo‘ladi. Bunda asosiy e’tibor faqat iqtisodiy resurslarni jalb qilishga emas, balki ularni samarali boshqarish imkonini beruvchi institutlarni shakllantirishga qaratilishi lozim.

$$ICHS = f(D + B + I + R)$$

Bu yerda:
D – davlat institutlari samaradorligi;
B – biznes hamkorligi darajasi;
I – innovatsion va ilmiy salohiyat;
R – raqamli va axborot infratuzilmasi.

Mazkur yondashuvga ko‘ra, mintaqaning iqtisodiy rivojlanish darajasi nafaqat ishlab chiqarish hajmi bilan, balki turli institutlarning o‘zaro bog‘langan faoliyati bilan belgilanadi. Shu sababli hududiy siyosatda institutsional hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish, davlat va xususiy sektor manfaatlarini uyg‘unlashtirish hamda innovatsion faoliyat uchun qulay muhit yaratish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Muallif fikricha, O‘zbekiston mintaqalarida

institutsional-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishning asosiy sharti — bu hududiy boshqaruv tizimini takomillashtirish, ilmiy salohiyatni ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog‘lash va biznes subyektlari uchun barqaror institutsional muhit yaratishdan iborat. Mazkur yondashuv hududlarning raqobatbardoshligini oshirish hamda ularning global iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuvini jadallashtirish imkonini beradi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning samaradorligi, avvalo, inson kapitali, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi ishonch, hamkorlik madaniyati va boshqaruv salohiyatiga bog‘liq. Davlat, biznes, ilmiy-ta’lim muassasalari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligini kuchaytirish hududlarning barqaror rivojlanishi, innovatsion faolligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois mintaqalarda inson omiliga tayangan institutsional muhitni shakllantirish, malakali kadrlarni tayyorlash, hamkorlikning raqamli mexanizmlarini rivojlantirish hamda davlat–biznes–ilm-fan integratsiyasini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa hududlarning uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son **"O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g‘risida"**gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son **"2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"**gi Farmoni.
3. North D.C. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
4. Williamson O.E. *The Economic Institutions of Capitalism*. – New York: The Free Press, 1985.
5. Porter M.E. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: The Free Press, 1990.
6. Acemoglu D., Robinson J.A. *Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty*. – New York: Crown Business, 2012.
7. Rodrik D. *One Economics, Many Recipes: Globalization, Institutions, and Economic Growth*. – Princeton: Princeton University Press, 2007.
8. Ostrom E. *Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action*. – Cambridge University Press, 1990.
9. OECD. *Regions and Cities at a Glance 2024*. – Paris: OECD Publishing, 2024.
10. World Bank. *World Development Report 2024: The Middle-Income Trap*. – Washington, DC: World Bank, 2024.
11. United Nations Development Programme (UNDP). *Human Development Report 2023/2024*. – New York: UNDP, 2024.
12. World Economic Forum. *The Global Competitiveness Report 2024*. – Geneva: WEF, 2024.
13. United Nations. *World Social Report 2024*. – New York: United Nations, 2024.
14. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. – Toshkent, 2025.
15. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Hududlarni kompleks rivojlantirish bo‘yicha tahliliy materiallar. – Toshkent, 2025.
16. Auzan A.A. *Institutsional iqtisodiyot*. – Moskva: INFRA-M, 2021.
17. Tambovtsev V.L. *Institutsional iqtisodiyot nazariyasi*. – Moskva: INFRA-M, 2022.

BEVOSITA SOLIQ SOLISHNI OPTIMALLASHTIRISH VA YASHILLASHTIRISH MASALALARI

Qodirov Bahodir Qudratovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi
moliya kafedrasi dotsenti
Termiz davlat universiteti
E-mail:bakhodirkodirov07021968@gmail.com
ORCID: 0000-0002-8410-3634

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonning bevosita soliqqa tortish tajribasi, shakllangan bevosita soliqlar yuki va soliqqa tortishning optimallashuv jarayonlari tahlil qilingan. Muallif tadqiqot ishida O‘zbekistonda shakllangan bevosita soliqlar yukini o‘zgarib borish tendensiyasini tahlil qilib, bevosita soliqlarning iqtisodiy o‘sishga ta‘siri niqtai nazaridan baholagan. Muallif bevosita soliq solish mexanizmlaridagi ustuvor yo‘nalishlar va strategik metodologiya haqida tahliliy ma’lumotlarni umumlashtirib, soliq solishning ustuvor yo‘nalishlarini O‘zbekistonda tatbiq etish masalalarini tadqiq etgan.*

Kalit so‘zlar: *Soliq tizimi, bevosita soliqlar, bevosita soliqqa tortish, bevosita soliq mexanizmi, soliq yuki, soliq nisbati, yashil soliqlar.*

ВОПРОСЫ ОПТИМИЗАЦИИ И ОЗЕЛЕНЕНИЯ ПРЯМОГО НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ

Кодиров Баходир Кудратович
кандидат экономических наук
доцент кафедры финансы
Термизский государственный университет
E-mail:bakhodirkodirov07021968@gmail.com
ORCID: 0000-0002-8410-3634

Аннотация. *В статье анализируются опыт прямого налогообложения в Узбекистане, сложившая нагрузка по прямым налогам и процессы оптимизации налогообложения. В своем исследовании автор анализирует бремя прямых налогов, и оценивает их влияние на экономический рост. Обобщив аналитические данные о приоритетных направлениях и стратегической методологии механизмов прямого налогообложения, автор исследует вопросы внедрения этих приоритетов в Узбекистане.*

Ключевые слова: *Налоговая система, прямые налоги, прямое налогообложение, механизм прямого налогообложения, налоговое бремя, налоговая ставка, зелёные налоги.*

ISSUES OF OPTIMIZATION AND GREENING OF DIRECT TAXATION

Qodirov Bahodir Qudratovich
Candidate of Economic Sciyences
Associate Professor of
the Department of Finance,
Termiz State University
E-mail:bakhodirkodirov07021968@gmail.com
ORCID: 0000-0002-8410-3634

Abstract. *The article analyzes the direct taxation experience in the Republic of Uzbekistan, the resulting direct tax burden, and the processes of tax optimization. In this research, the author examines the changing trends of the total tax burden in the Republic of Uzbekistan, including that of direct taxes, and evaluates their impact on economic growth. The*

author also summarizes analytical data on the priority areas and strategic methodologies within direct taxation mechanisms in developed countries and investigates the implementation of these taxation priorities in Uzbekistan.

Keywords: *Tax system, direct taxes, direct taxation, direct tax mechanism, tax burden, tax ratio, green taxes.*

Kirish

Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy yuksalishida va ekologik muvozanatni saqlanishida soliqlar tizimining, shu jumladan bevosita soliqqa tortishning roli muhimdir. Ozbekiston ham mustaqil davlat sifatida iqtisodiy taraqiyot strategiyasini amalga oshirar ekan, bu jarayonda bevosita soliqqa tortish metodologiyasini samarali tashkil etishning ahamiyati muhimdir. Shuning uchun, rivojlangan mamlakatlarning bevosita soliqqa tortish tajribalarini organish asosida O‘zbekistonning samarali soliqqa tortish mexanizmlarini aniqlash va soliq qonunchiligini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Tahlillarning ko‘rsatishicha, O‘zbekistonda ham bevosita soliqqa tortishni optimal tashkil etish va takomillashtirish uchun rivojlangan xorijiy davlatlarning ko‘p yillik tajribalarini organish, eng samarali metodlar va mexanizmlarni aniqlash hamda ularni milliy soliq qonunchiligida tatbiq etish strategik maqsadlarimizga xizmat qiladi. Shu boisdan, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini jahon savdo tashkilotining bitimlariga muvofiqlashtirish va Xorijiy investorlar kengashi majlisida ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish zarurati yuzaga kelmoqda”[1]. Mazkur strategik maqsadlarga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarning ko‘p yillik bevosita soliqqa tortish tajribalarini o‘rganish asosida O‘zbekistonda bevosita soliqqa tortishning ustuvor yo‘nalishlarini, xususan bevosita soliq solishni yashillashtirish mexanizmlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar sharhi

Global dunyoda ustuvor soliq solish vositasi sifatida qaralgan bevosita soliqqa tortish nazariyasi bugungi zamonaviy soliq nazariyalarining ahamiyatli tizimlaridan biri bo‘ib, iqtisodiy taraqiyotga xizmat qiladi. Bevosita soliqqa tortishni optimallashtirish bo‘yicha jahon olimlari o‘rtasida doimiy munozaralar mavjud bo‘lib, daromadlarning o‘sishga yordam berish salohiyatiga ega bo‘lgan bevosita soliqqa tortish tizimi samarali ekanligini yoqlaydilar.

Yevropa olimlarining tadqiqotlariga ko‘ra, kam daromadli mamlakatlarda o‘rtacha soliq daromadi YaIMning 10% dan 20% gacha, boy mamlakatlarda esa 40% dan oshadi va bu holat mamlakatlarning iqtisodiyotiga mutanosib holda soliqqa tortish metodologiyasini shakllantiradi [2].

Malayziyalik tadqiqotchi olim Taufik Abd Hakim tomonidan 1992-2016 yillar bo‘yicha 51 ta mamlakatning iqtisodiy ko‘rsatkichlari tadqiqot ob‘ekti sifatida o‘rganilib, bevosita soliqlar iqtisodiy o‘sishga sezilarli va ta‘sirchan bog‘liq ekanligini aniqlagan. Ushbu tadqiqot natijasiga ko‘ra, bevosita soliqlarning yalpi daromadga sezilarli va ijobiy hissa qo‘shishi haqida xulosa chiqarilgan[3]. Bizning fikrimizcha ham iqtisodiyotni yuksaltirishda bevosita soliqlarning ta‘siri samarali bo‘lib, haqiqatda ham bevosita soliqlar daromad darajasiga mutanosib holda undiriladi va investitsion jamg‘armani manbaasi hisoblanadi.

Yevropa ittifoqining (Ruminiya) professorlari Dr. Laura-Mariana Cismaș, Isabel Novo-Corti va Diana Mihaela Țîrcă olib borilgan tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, bevosita soliqqa tortish yuqori bo‘lsa, jismoniy shaxslar va korporatsiyalar soliq to‘lashdan qochish uchun soyali iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga o‘tishlari mumkin. Bevosita soliq solishning o‘sishi esa iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim bo‘lgan investitsiya qilish qobiliyatini so‘ndiradi”[4].

Bevosita soliqqa tortish masalasi bo‘yicha rus olimlaridan M.Sislovaning nuqtai nazariga ko‘ra, “bevosita soliqlar mamlakat iqtisodiyotini boshqarish imkonini beradi, ishlab chiqarish sohalariga ta‘sir ko‘rsatadi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni talab qiladigan sohalarda yaxshi iqtisodiy sharoitlar yaratishga yordam beradi [5].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olim X.A.Yangiboevning fikricha, «bevosita soliqlar yuridik yoki jismoniy shaxslarning foydasi yoki daromadiga, mol-mulkiga, tabiiy boyliklardan qazib olganiga, foydalanganiga, ishlab chiqarganiga, ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to‘lashga doir xarajatlariga belgilanib, soliq to‘lovchining daromadidan yoki foydasidan bevosita davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga to‘lanadigan majburiy beg‘araz to‘lovidir» [6].

H.X.Nasrulloyevning tatqiqot ishida “Yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, shu jumladan tartibga solish va ma‘muriy yukni kamaytirish hisobiga teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-tamoillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish kerak”ligi haqida xulosa chiqarilgan”[7].

Umuman olganda, O‘zbekistonda ham bevosita soliqqa tortishni optimal tashkil etish va yashillashtirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada bevosita va bilvosita soliqqa tortishni optimallashtirishning tizimli, majmuali va institutsional yondashuvlar, statistik tahlil, ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, analiz, sintez, iqtisodiy baholash kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning bevosita soliqqa tortish amaliyotida korporativ foyda solig‘i stavkalari regressiv pasaytirilgani bilan ajralib turadi. Xususan, korporativ foyda solig’i stavkasi AQSHda 1979-yilda 46% bo‘lgan bo‘lsa, 1990-yilda 34%, 2022-yildan 21%ga, Buyuk Britaniyada 1990-yilda 34% dan 2022-yilda 19%ga, Yaponiyada 1990-yilda 37.5% dan 2022-yilda o‘rtacha 30.62%ga, Fransiyada 1990-yilda 37%dan 2022 yilda 25.83 % atrofida o‘zgargan. Bu mamlakatlarda korporativ foyda solig‘i stavkasini pasayib borishiga muvofiq holda iqtisodiyot bevosita soliqlar vositasida rag‘batlantirilib borilgan [11].

OECD/G20 mamlakatlarining 2023-yildagi budjet daromadlarida bevosita soliqlar (ijtimoiy sug‘urta bilan birgalikda) salmog‘i o‘rtacha 61,9%, bilvosita soliqlar salmog‘i 31,3%, boshqa tushumlar salmog‘i 6,8% ekanligi kuzatiladi. Rivojlangan davlatlarda 1868–2008-yillar bo‘yicha amalga opshirilgan 150 yillik tahlillarni ko‘rsatishicha milliy daromad o‘sishiga mutanosib holda soliq yuki oshib borgan (Buyuk Britaniyada +388%, Fransiyada +516%). Biroq bu holat salbiy oqibatlarga sabab bo‘lmagani ko‘rsatilib, 2011-2023 yillardagi bevosita va bilvosita soliqlarning YaIMdagi ulushi 1-jadvalda jamlangan.

1-jadval.

EA20 mamlakatlarining 2011-2023 yillardagi soliq tushumlari va undagi bevosita va bilvosita soliqlar tushumining YaIMdagi ulushini tahlili[28].

Soliq guruhlari va turi boyicha tarkibi	YILLAR												
	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
	YaIMga nisbatan % hisobida												
Bilvosita soliqlar	12.9	13.2	13.3	13.5	13.5	13.4	13.4	13.4	13.5	13.1	13.4	13.2	12.6
Bevosita soliqlar	11.9	12.4	12.7	12.6	12.7	12.7	12.9	13.3	13.0	13.0	13.1	13.6	13.5
Ijtimoiy(sugrta) badallar	13.7	13.9	14.0	14.0	13.9	13.9	13.9	13.9	13.8	14.2	13.8	13.5	13.5
JAMI	38.5	39.5	40.1	40.2	40.0	40.1	40.2	40.4	40.3	40.4	40.6	40.3	39.5

[28] Yevropa ittifoqi (2025) mamlakatlari bo'yicha qisqacha jadvallar. Soliq va Bojxona Ittifoqi Bosh boshqarmasi. Olingan manzil:https://taxation-customs.ec.europa.eu/document/download/5afc4182-d362-4635-9ffb-8bfba8fe8548_en?filename=Summary-tables-by-country-List-of-tables.pdf

2011-2023 yillarda rivojlangan EA20 mamlakatlarini YaIMdagi jami soliq tushumi 1.0 punktga oshgan holda bu o‘zgarishga muvofiq YaIMdagi bevosita soliqlarning ulushi ham 1.6 punktga o‘zgargan. EA20 mamlakatlarida bozor iqtisodiyotining rivojlanganligi va investitsion jozibadorlikni yuzaga kelganligi aynan bevosita soliqqa tortishni optimallashuviga xizmat qilgan.

O‘zbekistonda bevosita va bilvosita soliqlarning 1992–2025-yillardagi makroiqtisodiy tahlili amalga oshirilib, 2-jadvalda ifodalandi.

2–jadval.

O‘zbekistonda bevosita va bilvosita soliqlarning yalpi ichki mahsulot hajmida va byudjetning soliq tushumlarida tutgan o‘rni[29] .

Yillar	YAIMdagi jami soliq tushumlarini salmog‘i foizda	Bevosita soliqlar salmog‘i[30]		Bilvosita soliqlar salmog‘i	
		YAIMga nisbatan foizda	Budjetdagi soliq tushumiga nisbatan foizda	YAIMga nisbatan foizda	Budjetdagi soliq tushumiga nisbatan foizda
1992 yil	26,5	8,7	32,6	17,8	67,4
1993 yil	30,6	14,1	46,1	16,5	53,9
1994 yil	22,6	9,4	41,6	13,2	58,4
1995 yil	28,0	13,3	48,0	14,7	52,0
1996 yil	28,1	14,4	51,4	13,7	48,6
1997 yil	25,9	14,1	54,5	11,8	45,5
1998 yil	30,1	14,1	48,3	16,0	51,7
1999 yil	28,3	12,4	47,3	15,9	52,7
2000 yil	26,8	10,9	44,9	15,9	55,1
2001 yil	23,7	10,2	41,7	13,5	58,3
2002 yil	22,8	9,2	37,9	13,6	62,1
2003 yil	23,1	9,1	39,4	14,0	60,6
2018 yil	15,0	6,3	41,9	8,7	58.1
2019 yil	16,5	8,6	52,6	7,9	47,4
2020 yil	16,9	9,9	58,9	6,8	41,1
2021 yil	16,8	10,0	59,3	6,8	40,7
2022 yil	16,0	8,9	55,3	7,1	44,7
2023 yil	15,3	8,4	54,8	6,9	45,2
2024 yil	14,8	8,7	59,0	6,1	41,0
2025 yil	14.1	8.8	62.4	5.3	37.6

Mazkur, 2-jadvalning tahliliga ko‘ra, yalpi ichki mahsulotdagi bevosita soliqlar salmog‘i 1992-yildagi 8,7%dan 2025-yilda 8,8%ga o‘zgargan, bilvosita soliqlar salmog‘i 17,8%dan 5,3%ga pasaygan. Shuningdek, soliq tushumlaridagi bevosita soliqqa tortish ulushi 32,6%dan 62,4%ga o‘sib, bilvosita soliqqa tortish ulushi 67,4%dan 37,6%ga, ya’ni 29,8 punktga pasaygan. Bu tahlillardan ayyon bo‘ladiki, jami soliq yuki 1992-yildagi 26.5%dan 2025-yilda 14,1%ga, ya’ni 12,4 punktga kamaygan bo‘lsa, bu davrda soliq tushumlaridagi bevosita soliqlar ulushi 32.6 %dan 62,4%ga (29.8 punktga) o‘sib, bu davrda bilvosita soliqlar ulushi 67.4 %dan 37,6%ga (29.8 punktga) pasaygan.

O‘zbekistonda YaIMdagi soliq yuki va undagi bevosita va bilvosita soliqlar yukining o‘zgarib borish darajasi 2012-2025 yillar bo‘yicha tahlili 1-rasmda yaqqolroq ifodalangan.

[29] Mif.uz. , open budjet.uz saytlaridagi ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
[30] Resursga oid soliqlar daromaddan undirilganligi sababli bevosita soliqlar tarkibida tahlil qilindi.

Ushbu tahlillardan ko‘rinadiki, 2012–2025 yillarda mamlakatimizda soliq yuki tizimli ravishda kamayib borgan.



1-rasm.O‘zbekistonning 2012-2025 yillarda soliq tushumlariga nisbatan bevosita va bilvosita soliqlarning o‘zgarishi[31].

Bu tahlillardan bevosita va bilvosita soliqqa tortish darajasi o‘zgarganligi, jumladan 2012-2018 yillarda bilvosita soliqqa tortish darajasining o‘sganligi, bevosita soliq yuki kamayib borganligi ko‘rinadi. Ammo, soliq islohotlari sababli 2019-2025 yillarda bilvosita soliqlar tuchumi pasayib, aksincha bevosita soliqlar tushumlari o‘sib borgan. Bu holat soliq strategiyasi samarali tashkil enilayotganini, soliq tizimida raqamlashtirilgan dasturlarning samarali qo‘llanishi natijasida yashirin iqtisodiyot qisman shaffoflanib, bevosita soliqqa tortish bazasining oshganligini va shunga mutanosib holda bevosita soliq tushumlarining o‘sishiga sabab bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Bevosita soliq tushumlari davlat moliyaviy tizimining asosiy elementlaridan biri bo‘lib, ular iqtisodiy faoliyat natijalariga bevosita bog‘liq holda shakllanadi. Ularning hajmi soliq bazasi, stavkalar va makroiqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi bilan aniqlanadi. Shu bois, ushbu tushumlarni chuqur tahlil qilish va prognozlashda ekonometrik modellardan foydalanish fiskal barqarorlikni ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Yuqoridagi tahlillarga asosan bevosita soliqlar tushumining 2026–2030 yillarga mo‘ljallangan strategik loyihasini ishlab chiqish lozimligiini ko‘rsatadi. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, bevosita soliq islohotlarini samarali tashkil etilishi mamlakat iqtisodiyotini yuksalishiga xizmat qilib, evolyutsion taraqiyot bosqichida 2030 yilga kelib yuqori darajadagi iqtisodiy taraqqiyotni shakllantiradi va iqtisodiyotni yashillanishiga xizmat qiladi. Mamlakatning strategik loyihalarini amalga oshirilishi bevosita soliq solish metodologiyasini optimallashtirish va yashillashtirish bilan chamarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Xulosa

1.O‘zbekiston Respublikasida bevosita va bilvosita soliqqa tortishni o‘zaro uzviy bog‘liqdikda optimal tashkil etishning 2026-2030-yillarga hamda 2031-2050-yillarga mo‘ljallangan soliq strategiyasini ishlab chiqish va bu strategiyaga binoan soliq taktik harakatlar tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

2.Soliqqa tortish darajalarini belgilashda bevosita soliqqa tortish nisbatini rivojlangan davlatlarda shakllangan nisbatlarga uyg‘unlashtirgan holda optimallashtirish, bevosita soliqqa tortishning rag‘batlantiruvchi va soliq yukini pasaytiruvchi mexanizmlarini joriy etish asosida jami soliqlar yukini yanada pasaytirib borish lozim.

[31] Moliya va iqtisodiyot vazirligining rasmiy oshkor ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

3.Bevosita soliqqa tortishning rag‘batlantiruvchi mexanizmlari asosida tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish va soliq solinadigan daromadlarning progressiv ko‘payishiga va investitsion soliq jozibadorligini yaratilishiga iqtisodiy muhitni yaratish, bevosita soliq tushumlarini ko‘payishiga mutanosib holda soliq strategiyasini ta’minlash maqsadga muvofiq.

4.Bevosita soliqqa tortish mexanizmlarini yashillashtirish, muqobil elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilarni bevosita soliqlar mexanizmlari asosida rag‘batlantirish tizimini shakllantirish, xususan avtotransport vositalarini elektr energiyasi bilan quvvatlantirish stansiyalari, shuningdek bunday obyektlar bilan band bo‘lgan yer uchastkalari uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslar yer solig‘ini hisoblanishiga imtiyozlar joriy etish lozim.

5.Soliq to‘lovchilarining avtotransport vositalarini elektr energiyasi bilan quvvatlantirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdan olgan daromadlari hisobot davri bo‘yicha jami daromadning kamida 50 foizini tashkil etgan taqdirda shu faoliyatdan olgan daromadini foyda solig‘idan ozod etish asosida soliqqa tortishni yashillashtirish mexanizmlarini shakllantirish lozim.

6.Bevosita soliqqa tortishni yashillashtirich mexanizmlarini qaror toptirish uchun foyda solig‘ini xisoblash mexanizmida atrof muxitni obodonlashtirish va yashillashtirish xarajatlarini chegirilmaydigan xarajatlar tarkibidan chiqarish maqsadga muvofiq.

Ushbu xulosa va takliflarimizni amaliyotda joriy etilishi natijasida O‘zbekiston soliq tizimini rivojlangan mamlakatlarda shakllangan soliq tamoyillarini qaror topishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasining 25.12.2025 yildagi O’RQ-1108-sonli “Soliq va budjet siyosatining 2026-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni.

2. Taufik Abd Hakim, 2020. "Direct Versus Indirect Taxes: Impact on Economic Growth and Total Tax Revenue," International Journal of Financial Research, International Journal of Financial Research, Sciedu Press, vol. 11(2), pages 146-153, April.

3. A. Elshani, S. Ahmeti.The Effect of Direct and Indirect Taxes on Economic Growth in Developed Countries. Ekonomika, 2024, vol. 103(2), https://www.zurnalai.vu.lt/ekonomika/article/view/32861/34044

4. L.M.Cismas, I.Novo-Carti, D.M.Tirca. Impact of Direct Taxation on Ekonomic Growth: Empirical Evidence Based on Panel Data Regression Analyysis at the Level of Eu Countries. Sustainability 2023, *15*(9),7146; https://doi.org/10.3390/su15097146

5. Числова М. “Какие налоги относятся к прямым и косвенным.” www.nalog-nalog.ru.

6. Yangiboev X.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bevosita va bilvosita soliqqa tortishni o’zaro bog’liqlik nazariyasi. Iqtisodiyot va ta‘lim jurnali, 2023 y. 6-son. 169-175 bet.

7. Nasrulloyev H.X. “Soliq ma‘murchiligiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali soliq bazasini kengaytirish istiqbollari” dissertatsiyasi. 2022 y.

8. https://taxfoundation.org/data/all/global/corporate-tax-rates-by-country-2022/?utm_source=chatgpt.com

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O‘ZBEKISTONDA LOYIHAVIY MOLIYALASHTIRISH ASOSIDA INVESTITSIYA RESURSLARINI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Agabekyan Roza Samvelovna

Mustaqil izlanuvchi
A.Avloniy nomidagi pedagogik
mahorat milliy instituti
E-mail: roza@gmail.com
ORCID: 0009-0008-8500-5201

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda loyihaviy moliyalashtirish asosida investitsiya resurslarini jalb qilish mexanizmini takomillashtirishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kapital manbalarini diversifikatsiyalash, maxsus loyiha kompaniyasi (SPV) faoliyatini rivojlantirish, davlat va xususiy sektor o‘rtasida risklarni optimal taqsimlash, xalqaro moliya institutlari, tijorat banklari hamda kapital bozori instrumentlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish masalalari yoritilgan. Uzoq muddatli investitsiya resurslari manbalarini diversifikatsiyalash bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *loyihaviy moliyalashtirish, investitsiya resurslari, investitsiya loyihasi, SPV, kapital bozori, xalqaro moliya institutlari, aralash moliyalashtirish, moliyaviy risk, davlat kafolati, xususiy kapital, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕСУРСОВ НА ОСНОВЕ ПРОЕКТНОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Агабекян Роза Самвеловна

Самостоятельный исследователь
Национальный институт педагогического
мастерства имени А.Авлони
E-mail: roza@gmail.com
ORCID: 0009-0008-8500-5201

Аннотация. *В статье исследованы теоретические, методические и практические аспекты совершенствования механизма привлечения инвестиционных ресурсов на основе проектного финансирования в Узбекистане. Рассмотрены вопросы диверсификации источников финансирования инвестиционных проектов, развития специальных проектных компаний (SPV), оптимального распределения рисков между государственным и частным секторами, а также интеграции ресурсов международных финансовых институтов, коммерческих банков и инструментов рынка капитала. Разработаны научно-практические предложения по диверсификации источников долгосрочных инвестиционных ресурсов.*

Ключевые слова: *проектное финансирование, инвестиционные ресурсы, инвестиционный проект, SPV, рынок капитала, международные финансовые институты, смешанное финансирование, финансовый риск, государственная гарантия, частный капитал, диверсификация источников финансирования.*

IMPROVING THE MECHANISM FOR ATTRACTING INVESTMENT RESOURCES THROUGH PROJECT FINANCE IN UZBEKISTAN

Agabekyan Roza Samvelovna

Independent researcher
National institute of pedagogical
excellence named after A.Avloni

E-mail: roza@gmail.com
ORCID: 0009-0008-8500-5201

Abstract. *This article examines the theoretical, methodological, and practical aspects of improving the mechanism for attracting investment resources through project finance in Uzbekistan. Particular attention is paid to diversifying the sources of investment project financing, developing special purpose vehicles (SPVs), optimally allocating risks between the public and private sectors, and integrating the resources of international financial institutions, commercial banks, and capital market instruments. Scientific and practical recommendations are developed to optimize the diversify sources of long-term investment resources.*

Keywords: *project finance, investment resources, investment project, SPV, capital market, international financial institutions, blended finance, financial risk, government guarantee, private capital, diversification of financing sources.*

Kirish

Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish va tarkibiy jihatdan transformatsiya qilish jarayonida yirik investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish masalasi ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, energetika, transport, kommunal va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uzoq muddatli investitsiya resurslarini talab etadi. Shuning uchun iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmini oshirish bilan bir qatorda, ularni yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega yirik loyihalarga yo‘naltirish ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Raqamlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 2015-yildagi 8,3 trln so‘mdan 2024-yilda 351,8 trln so‘mga yetgan bo‘lib mazkur ko‘rsatkich qariyb 42,3 barobarga oshgan. Birgina 2017-2024-yillar oralig‘ida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 17,1 trln so‘mdan 351,8 trln so‘mga yetib, 20,5 barobarga ko‘paygan. Bu holat O‘zbekiston iqtisodiyotining investitsion faolligi sezilarli ravishda rivojlanayotgani hamda tarmoqlar va hududlar bo‘yicha yirik moliyaviy resurslarni samarali jalb qilishga ehtiyoj ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasining iqtisodiy yo‘nalishlarida ham investitsiya faolligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya va transformatsiya qilish, xususiy sektor uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirish hamda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida keyingi besh yil davomida iqtisodiyotga jami 120 mlrd AQSh dollari miqdorida investitsiyalar, shundan kamida 70 mlrd AQSh dollari xorijiy investitsiyalarni jalb etish vazifasi belgilangan[1]. Mazkur investitsiya resurslarini, eng avvalo, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya va transformatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, kommunal hamda transport infratuzilmasini rivojlantirishga yo‘naltirish ko‘zda tutilgan. Albatta, O‘zbekistonda investitsiya faolligi ortib borayotgan va iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida yirik loyihalarga bo‘lgan ehtiyoj kengayayotgan hozirgi sharoitda loyihaviy moliyalashtirish asosida investitsiya resurslarini jalb qilish mexanizmini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Muallif yigirma besh yillik loyiha moliyalashtirish modelida NPV, IRR va DSCR ko‘rsatkichlaridan foydalanib, davlat tomonidan foiz xarajatlarini subsidiyalash xususiy kapital rentabelligini sezilarli oshirishi va qarzga xizmat ko‘rsatish barqarorligini mustahkamlashini asoslaydi. Tadqiqotda davlat qo‘llab-quvvatlashi va puxta tuzilgan loyihaviy moliyalashtirish qayta tiklanuvchi energetikaga xususiy kapital jalb qilishning muhim omili ekanligini ko‘rsatib o‘tilgan [2]. Olimlar loyiha portfellarida moliyaviy resurslar va pul oqimlarini hisobga olgan holda loyihalarni rejalashtirish mexanizmini tadqiq qilganlar. Mualliflar portfel egalari uchun finance-based scheduling (FBS-PO) modelini taklif etib, pul oqimlarining chiqimlardan yuqori

bo‘lishini ta’minlash maqsadida MILP, genetik algoritm (GA) va PSO usullarini qiyosiy baholaganlar. Natijalar yirik loyiha portfellarida GA yuqori sifatli yechimlar berishini ko‘rsatgan [3]. Mualliflar Xitoyning qishloq hududlarida yo‘l infratuzilmasi loyihalarini moliyalashtirish manbalarining aholi daromadi va mehnat migratsiyasiga ta’sirini DID hamda PSM-DID usullari yordamida empirik baholaganlar. Natijalarga ko‘ra, tashqi manbalardan moliyalashtirilgan loyihalar qishloq aholisining noqishloq xo‘jaligi daromadlarini va ishlash uchun migratsiya moyilligini oshirgan, o‘zini-o‘zi hamda aralash moliyalashtirish modellari esa bunday barqaror ijobiy samara bermagan. Mualliflar infratuzilmaviy investitsiyalarda moliyalashtirish modeli va resurslarni strategik taqsimlash hal qiluvchi ahamiyatga egaligini asoslaydilar [4]. Olimlar Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) mamlakatlari misolida yashil moliyalashtirish va xususiy investitsiyalarning qazib olinadigan yoqilg‘i sanoati barqarorligiga ta’sirini empirik baholaganlar. Natijalarga ko‘ra, yashil moliyalashtirishning 1 foizga oshishi tarmoq barqarorligini taxminan 0,31 foizga yaxshilagan, xususiy investitsiyalarning 1 foizlik o‘sishi esa 0,36 foizlik salbiy ta’sir bilan bog‘langan. Mualliflar yashil moliyalashtirishni kengaytirish, barqaror investitsiyalarni rag‘batlantirish va yashil moliyaning raqamlashtirilishini rivojlantirish zarurligini asoslaydilar [5].

Mualliflar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning turli shakl va usullarini tadqiq etib, ularni oqilona tanlash loyiha samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydilar. Mualliflarning yondashuviga ko‘ra, moliyalashtirish manbalarini loyiha xususiyatlari va investitsiya resurslari imkoniyatlaridan kelib chiqib shakllantirish biznes loyihalarni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, moliyalashtirish usullarini qiyosiy tahlil qilish investitsiya qarorlarini asoslash va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini kengaytirishi qayd etilgan [6]. Berdiyev tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan risklarni boshqarish mexanizmlarini tadqiq etib, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish yuqori riskli va ko‘p bosqichli jarayon ekanligini ta’kidlaydi. Muallif risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va kamaytirishda zamonaviy risk-menejment vositalaridan, xususan Value at Risk (VaR) usulidan foydalanishni taklif etadi. Bunday yondashuv ehtimoliy yo‘qotishlarni oldindan baholash, bank aktivlari sifatini nazorat qilish va loyihaviy moliyalashtirish samaradorligini oshirish imkonini berishi asoslangan [7].

O‘rganilgan ilmiy ishlarda loyihaviy moliyalashtirishning alohida tarkibiy elementlari - moliyaviy samaradorlik, pul oqimlarini boshqarish, moliyalashtirish manbalarini tanlash va risklarni baholash masalalari yetarlicha tadqiq etilgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston sharoitida investitsiya resurslarini jalb qilish manbalarini diversifikatsiyalash, maxsus loyiha kompaniyasi (SPV) asosida loyiha pul oqimlarini ajratish, davlat va xususiy sektor o‘rtasida risklarni optimal taqsimlash, xalqaro moliya institutlari va tijorat banklari resurslarini uyg‘unlashtirish hamda loyihaning moliyaviy barqarorligini yagona mexanizm doirasida ta’minlash masalalarini kompleks tadqiq etish zarurati saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, moliyaviy modellashtirish, pul oqimlarini tahlil qilish, ko‘p mezonli baholash hamda ekspert-analitik umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Mazkur usullar O‘zbekistonda loyihaviy moliyalashtirish asosida investitsiya resurslarini jalb qilishning mavjud mexanizmini kompleks tadqiq etish, uning tarkibiy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash imkoniyatlarini baholashga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar

AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda korporativ va infratuzilma obligatsiyalari muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, Yevropada ESG va “yashil” obligatsiyalar orqali energetika va transport loyihalariga uzoq muddatli, nisbatan arzon kapital jalb etish keng tarqalgan. Mazkur tajriba O‘zbekiston sharoitida

energetika va elektr tarmoqlari loyihalarini moliyalashtirishda xalqaro moliya institutlari mablag‘lari bilan bir qatorda kapital bozori instrumentlaridan faol foydalanish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Bank kreditlari va davlat kafolatlariga haddan tashqari tayanish investitsiya loyihalarining umumiy qiymatini oshirishini hisobga olgan holda, kapital bozoriga asoslangan moliyalashtirish mexanizmini rivojlantirish milliy energetika sektorining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda biz tomondan, xalqaro va milliy kapital bozoridan investitsiya resurslarni jalb qilishning integratsion “Yo‘l xaritasi modeli” ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu model O‘zbekistonda sanoat korxonalari misolida quyidagi muhim jihatlarni qamrab oladi.

1-bosqich. Strategik ehtiyojlarni aniqlash va investitsion diagnostika. Integratsion “Yo‘l xaritasi modeli”ni amalga oshirishning dastlabki bosqichida investitsiya loyihalarining ustuvor yo‘nalishlari, ularning miqyosi va moliyaviy ta’minotga bo‘lgan ehtiyojlari kompleks tarzda aniqlanadi. Natijada investitsiya ehtiyojlarining miqdoriy qiymati (bahosi) shakllantirilib, moliyalashtirish muddati va risk profili oldindan belgilangan holda keyingi bosqichlarda kapital manbalarini tanlash va ularni optimallashtirish uchun metodik asos yaratiladi. Ushbu yondashuv investitsiya qarorlarini qabul qilishda tizimli va prognoz qilinadigan moliyaviy strategiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

2-bosqich. Moliyalashtirish manbalarini segmentlarga ajratish. Ikkinchi bosqichda aniqlangan investitsiya ehtiyojlari asosida moliyaviy resurslarni jalb qilish manbalari tizimli ravishda segmentlarga ajratiladi. Ushbu jarayonda xalqaro kapital bozori, milliy kapital bozori, xalqaro moliya institutlari hamda grant va texnik yordam mablag‘lari alohida moliyalashtirish segmentlari sifatida baholanadi. Har bir segmentning moliyaviy qiymati, muddati, foiz yuki va risk darajasi qiyosiy tahlil qilinib, investitsiya loyihalarining xususiyatlariga mos holda eng optimal moliyalashtirish kombinatsiyasi shakllantiriladi. Natijada ichki va tashqi moliya manbalari o‘rtasida muvozanatli nisbat vujudga kelib, kapitalni jalb qilish jarayoni bir yoqlama manbaga bog‘lanib qolish riskidan holi bo‘ladi.

3-bosqich. Grant-qarz balansini optimallashtirish. Uchinchi bosqichda moliyalashtirish manbalari tarkibida grant mablag‘lari va qarz instrumentlari o‘rtasidagi optimal nisbat belgilanadi. Grant va texnik yordam mablag‘lari, asosan, energiya samaradorligini oshirish, raqamlashtirish va ekologik ahamiyatga ega loyihalarga yo‘naltirilsa, qarz mablag‘lari kapital talabi yuqori bo‘lgan infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv investitsiya loyihalarining umumiy qiymatini pasaytirish, qarz yukining ortib ketishini cheklash hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Natijada grant-qarz balansining maqbullashtirilishi hisobiga jamiyatning uzoq muddatli qarzdorlik profili barqaror shakllantiriladi (1-jadval).

1-jadval

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan kapital bozoridan moliyaviy resurs jalb qilishning diversifikatsion mexanizmi*

№	Moliyalashtirish manbasi	Ulushi (%)	Izoh
1.	Xalqaro obligatsiyalar (Evroobligatsiya)	40%	5-7 yil muddatli, foiz stavkasi 5,2-5,8%
2.	Milliy obligatsiyalar	20%	Uzoq muddatli investorlarga mo‘ljallangan
3.	Xalqaro moliya institutlari krediti	25%	Jahon banki, OTB, YeTTB liniyalari
4.	Grant va texnik yordam	15%	Energiya samaradorligi loyihalariga yo‘naltiriladi

**Muallif tomonidan tuzilgan*

4-bosqich. Foiz, valuta va kredit risklarini boshqarish. Mazkur bosqichda jalb qilinadigan moliyaviy resurslar bilan bog‘liq asosiy risklar, xususan foiz stavkalari, valuta kurslari va kredit risklari aniqlanadi hamda ularni kamaytirish mexanizmi ishlab chiqiladi. Qarz portfelini diversifikatsiyalash, foiz stavkalarini qat’iy va o‘zgaruvchan turlar bo‘yicha muvozanatlashtirish, shuningdek valuta risklarini hedjirlash instrumentlaridan foydalanish orqali moliyaviy risklar minimallashtiriladi. Ushbu yondashuv investitsiya loyihalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bilan birga tashqi bozor sharoitlaridagi o‘zgarishlarga nisbatan jamiyatning moslashuvchanligini oshiradi.

5-bosqich. Investorlar uchun ochiqlik va axborot shaffofligini ta’minlash. Beshinchi bosqichda investorlar ishonchini mustahkamlash maqsadida moliyaviy hisobotlar, ESG ko‘rsatkichlari hamda korporativ boshqaruv amaliyotlari xalqaro standartlar asosida yuritiladi. Emitent faoliyati to‘g‘risida to‘liq, aniq va o‘z vaqtida axborot taqdim etilishi investorlarda prognoz qilinadigan va ishonchli investitsiya muhiti shakllanishiga xizmat qiladi. Axborot shaffofligining oshirilishi natijasida investorlar bazasi kengayib, xalqaro kapital bozorlarida jamiyatning reputatsion mavqei mustahkamlanadi.

2-jadval.

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ ning 2025-2030 yillar uchun investitsion ehtiyojlar bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari*

№	Yo‘nalish	Yillik investitsiya ehtiyoji (mln doll.)	Moliyalashtirish manbasi	Kutilayotgan natija
1.	Tarmoqlarni modernizatsiya qilish	250-300	Obligatsiyalar + Xalqaro moliya korporatsiyasi	Elektr quvvatlari va sifati oshadi
2.	Raqamlashtirish	60-75	Grant + G2B (Government-to-Business) sheriklik	Xarajat va yo‘qotishlar kamayadi
3.	Energiyani uzatish tizimlari	80-100	Xalqaro obligatsiyalar	Quvvat uzatish samaradorligi oshadi
4.	Avtomatlashtirish	30-40	Budjet + investorlar	Monitoring va dispetcherlik xizmatlari takomillashadi

**Muallif tomonidan tuzilgan*

6-bosqich. Tashkiliy va korporativ transformatsiya. Ushbu bosqichda moliyalashtirish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlovchi tashkiliy va institutsional o‘zgarishlar amalga oshiriladi. Korporativ boshqaruv tizimi takomillashtirilib, kuzatuv kengashi mustaqilligi rivojlantiriladi, ichki audit va komplaens mexanizmi yanada takomillashtiriladi. Menejerning hisobdorligi va javobgarligi oshirilishi orqali strategik qarorlar qabul qilish sifati yaxshilanadi. Natijada jamiyatning kredit reytingi va investitsion jozibadorligi ortib, kapital bozorlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur institutsional asos shakllanadi.

7-bosqich. Kapital bozoriga chiqish va moliyaviy resurslarni jalb qilish. Yakuniy bosqichda tayyorlangan institutsional, moliyaviy va axborot bazasi asosida milliy va xalqaro kapital bozorlarida obligatsiyalar joylashtiriladi, xalqaro moliya institutlari bilan kredit bitimlari tuziladi hamda grant mablag‘lari jalb etiladi. Moliyalashtirish jarayoni parallel ravishda bir nechta bozor segmentlarida amalga oshirilishi hisobiga uzoq muddatli va nisbatan arzon moliyaviy resurslarga erishiladi. Ushbu bosqich integratsion “Yo‘l xaritasi modeli”ning amaliy samaradorligini namoyon etib, energetika infratuzilmasini rivojlantirish uchun barqaror moliyaviy asos sifatida xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun investitsiya resurslariga bo‘lgan talabning o‘sishi loyihaviy moliyalashtirish mexanizmini yanada rivojlantirish zaruratini oshib borayotganligini ko‘rsatadi. Loyihaviy moliyalashtirish davlat budjeti va an’anaviy bank kreditlariga tushadigan yukni kamaytirish bilan birga xususiy investorlar, xalqaro moliya institutlari va institutsional kapitalni uzoq muddatli investitsiya loyihalariga safarbar qilish imkonini beradi.

Birinchidan, yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda SPV institutidan keng foydalanish va loyiha aktivlari, majburiyatlari hamda pul oqimlarini alohida loyiha kompaniyasi doirasida shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu loyiha va homiy kompaniya risklarini ajratish hamda kreditorlar uchun moliyaviy shaffoflikni oshirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda bir manbali kreditlash modelidan xususiy kapital + tijorat krediti + xalqaro moliya institutlari + kafolatlar + aralash moliyalashtirish(blended finance) + kapital bozori integratsiyasiga asoslangan ko‘p manbali moliyalashtirish modeliga bosqichma-bosqich o‘tish zarur.

Uchinchidan, investitsiya loyihalarining moliyalashtirilishidan oldin ularning bankrotlik ehtimollik darajasini kompleks baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunda NPV va IRR bilan bir qatorda DSCR, LLCR, WACC, stress-test, pul oqimlari barqarorligi, shartnomaviy risklar va homiylarning moliyaviy salohiyatini birgalikda hisobga olish kerak.

To‘rtinchidan, loyihaviy moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishda loyiha risklarini davlat va xususiy sektor ishtirokchilari o‘rtasida iqtisodiy jihatdan asoslangan holda taqsimlash, ayniqsa, davlat tomonidan moliyalashtirish bilan bog‘liq fiskal risklarni boshqarishga alohida e’tibor qaratish kerak. Yirik infratuzilmaviy va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarda davlatning budjet mablag‘lari, davlat kafolatlari, subsidiyalar, kompensatsiyalar, minimal daromad kafolatlari hamda boshqa moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalari orqali ishtirok etishi loyihaning investitsiyaviy jozibadorligi va barqarorlik darajasini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq loyiha risklarining asoslanmagan tarzda davlat zimmasiga yuklanishi davlatning bevosita xarajatlari bilan bir qatorda kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan shartli fiskal majburiyatlarning (contingent liabilities) ortishiga, davlat moliyasining uzoq muddatli barqarorligiga qo‘shimcha bosim yuzaga kelishiga hamda xususiy investorlarning loyiha natijalari uchun iqtisodiy javobgarligi pasayishiga olib kelishi mumkin.

Beshinchidan, davlat va xalqaro moliya institutlari tomonidan beriladigan kafolatlarning samaradorligini “kafolat qiymati - yo‘naltirilayotgan xususiy kapital” nisbati asosida baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Natijada kafolat instrumentlaridan foydalanishda xususiy kapitalni maksimal jalb qilishga yo‘naltirilgan yondashuv shakllanadi.

Oltinchidan, operatsion faoliyat bosqichiga o‘tgan va barqaror pul oqimiga ega loyihalarni tijorat banklari balansida uzoq muddat saqlab qolmasdan, loyihaviy obligatsiyalar (project bonds), infratuzilma obligatsiyalari yoki boshqa kapital bozori vositalari orqali qayta moliyalashtirish mexanizmini rivojlantirish zarur. Bu esa banklarning resurslarini yangi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun qayta safarbar etish imkonini beradi.

O‘zbekistonda loyihaviy moliyalashtirishning istiqboldagi rivojlanishi davlat tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish ulushini oshirishga emas, balki davlatning institutsional, kafolatlovchi va risklarni muvofiqlashtiruvchi rolini oshirgan holda xususiy va xalqaro investitsiya resurslarini safarbar etishga asoslanishi kerak deb o‘ylaymiz. Bunday yondashuv yirik investitsiya loyihalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, davlatning fiskal yukini maqbullashtirish, investitsiya resurslari manbalarini diversifikatsiyalash hamda milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli investitsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli Farmoni.

2. Kalia N. From Glasgow to ground level: How policy-driven project finance structures enable small-scale solar viability in emerging markets: Evidence from a 1 MW independent power producer in Himachal Pradesh, India // Energy for Sustainable Development. – 2026. – Vol. 94.

3. Fares A., El Azouni A.M., Al-Shihabi S., Al Alawi M. Finance-based scheduling for projects in owners’ portfolios: MILP versus improved GA and PSO // Engineering, Construction and Architectural Management. – 2025. – Vol. 33, Issue 4.

4. Bao L., Kusadokoro M., Chitose A. Financing road projects and its impact on off-farm work in rural China // Socio-Economic Planning Sciences. – 2025. – Vol. 99. – P. 1–14.

5. Miao Y., Tian Y., Cao J., Yu X. Green finance and privatization of green projects in the fossil fuels industry // Resources Policy. – 2025. – Vol. 103.

6. Xalbekov K.A., Togayev S.S. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish shakllari va usullari // Innovations in Science and Technologies ilmiy-elektron jurnali. – 2025. – № 2.

7. Berdiyev A. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish // Nashrlar. – 2023. – Vol. 1, Issue 1. – B. 183–186.

8. Kuzior A., Vasylieva T., Kuzmenko O., Koibichuk V., Brożek P. Global Digital Convergence: Impact of Cybersecurity, Business Transparency, Economic Transformation, and AML Efficiency // Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity. – 2022. – Vol. 8, Issue 4. – P. 1–24.

9. Weldegiorgis F.S., Dietsche E., Franks D.M., Cust J., Ahmad S. Mining and linkages for economic transformation: Revealing multi-stakeholder perspectives through Q-methodology // The Extractive Industries and Society. – 2022. – Vol. 12. – P. 1–14.

10. Liu J., Qiu F., Zhang T., Liu H. Dynamics of green economic development in countries joining the Belt and Road Initiative: Is it driven by green investment transformation? // Journal of Environmental Management. – 2023. – Vol. 347.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ЦИФРОВЫЕ ФИНАНСОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ В СИСТЕМЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ: ПЕРЕОЦЕНКА ВОЗМОЖНОСТЕЙ И ОГРАНИЧЕНИЙ

Ерманова Камила Рустамовна

Базовый докторант
Ташкентский государственный экономический университет, Узбекистан
E-mail: kamila_ermanova@mail.ru
ORCID: 0009-0009-4888-8049

Аннотация. *В статье пересматриваются сложившиеся представления о роли цифровых финансовых инструментов в финансировании креативных индустрий с учётом данных 2021-2025 гг. Показано, что эти инструменты развивались не как единая группа: мировые доходы звукозаписи, отражающие платформенную монетизацию, выросли за четыре года на 22,4%, тогда как оборот торгов NFT сократился на 97,0%, а в сегменте цифрового искусства - на 93,2% за 2021-2024 гг. Значительная часть выводов литературы 2021-2023 гг. о перспективах токенизации тем самым утратила эмпирическое основание.*

Ключевые слова: *креативные индустрии, цифровые финансовые инструменты, краудфандинг, платформенная монетизация, цифровое неравенство, креативная экономика.*

КРЕАТИВ ИНДУСТРИЯЛАРНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ ТИЗИМИДА РАҚАМЛИ МОЛИЯВИЙ ВОСИТАЛАР: ИМКОНИЯТ ВА ЧЕКЛОВЛАРНИ ҚАЙТА БАҲОЛАШ

Эрманова Камила Рустамовна

Таянч докторант
Тошкент давлат иқтисодиёт университети, Ўзбекистон
E-mail: kamila_ermanova@mail.ru
ORCID: 0009-0009-4888-8049

Аннотация. *Мақолада креатив индустрияларни молиялаштиришда рақамли молиявий воситаларнинг ўрни 2021-2025 йиллар маълумотлари асосида қайта баҳоланган. Мазкур воситалар яхлит гуруҳ сифатида ривожланмагани кўрсатилди: платформа орқали монетизацияни акс эттирувчи жаҳон овоз ёзиш даромадлари тўрт йилда 22,4 фоизга ошган бўлса, NFT савдо ҳажми 97,0 фоизга, рақамли санъат сегментида эса 2021-2024 йилларда 93,2 фоизга қисқарган. Шу боис 2021-2023 йиллардаги адабиётларда токенлаштириш истиқболига оид хулосаларнинг сезиларли қисми эмпирик асосини йўқотган.*

Калит сўзлар: *креатив индустриялар, рақамли молиявий воситалар, краудфандинг, платформали монетизация, рақамли тенгсизлик, креатив иқтисодиёт.*

DIGITAL FINANCIAL INSTRUMENTS IN THE SYSTEM OF FINANCING THE CREATIVE INDUSTRIES: A REASSESSMENT OF OPPORTUNITIES AND LIMITATIONS

Kamila Rustamovna Ermanova

Doctoral Researcher
Tashkent State University of Economics, Uzbekistan
E-mail: kamila_ermanova@mail.ru

ORCID: 0009-0009-4888-8049

Abstract. *The article reassesses established views on the role of digital financial instruments in financing the creative industries using data for 2021-2025. It shows that these instruments have not developed as a single group: global recorded music revenues, which reflect platform monetisation, grew by 22.4% over four years, while NFT trading volume fell by 97.0%, and by 93.2% in the digital art segment over 2021-2024. A substantial part of the conclusions drawn in the 2021-2023 literature on the prospects of tokenisation has therefore lost its empirical basis.*

Keywords: *creative industries, digital financial instruments, crowdfunding, platform monetisation, digital divide, creative economy.*

Введение

Ещё пять лет назад ответ на вопрос о том, как творческий работник будет привлекать деньги в цифровой экономике, казался почти очевидным. Токены, NFT, смарт-контракты с автоматическим отчислением роялти при каждой перепродаже - всё это описывалось как технология, которая наконец решит застарелую проблему финансирования культуры. В 2021 г. оборот торгов NFT достиг 27,8 млрд долл. США, и академическая литература того периода закономерно сосредоточилась именно на этом направлении.

По итогам 2025 г. тот же показатель составил 824 млн долл. - на 97,0% меньше пика. В сегменте цифрового искусства падение оказалось ещё глубже. Это уже не колебание конъюнктуры, а смена состояния рынка, и она ставит перед исследователем неудобный вопрос: какая часть накопленных выводов о цифровом финансировании креативных индустрий сохраняет силу, а какая описывает состояние, которого больше нет?

Для Узбекистана вопрос имеет прикладное измерение. Законом «О креативной экономике» № ЗРУ-970 от 03.10.2024 определены пятнадцать направлений креативных индустрий и четыре формы государственной поддержки [16], а Постановлением Президента № ПП-64 от 16.02.2026 установлены целевые ориентиры на 2030 г.: доля креативной экономики в ВВП - 5% (145 трлн сум), экспорт - свыше 1 млрд долл., занятость - 500 тыс. человек [17]. Программа подробна в части инфраструктуры: Парк креативных индустрий, кластеры, налоговые льготы для иностранных контрагентов до 2030 г. Однако о том, из каких источников будет финансироваться повседневная деятельность отдельного автора или микростудии, в ней сказано немного. А ведь именно здесь, по данным обследования Британского Совета, находится узкое место: из двадцати опрошенных креативных предприятий Узбекистана десять финансировались исключительно за счёт личных сбережений и неформальных займов, и лишь пять не сталкивались с серьёзными трудностями при привлечении средств [15].

Цель настоящей работы - определить, какие цифровые финансовые инструменты сохранили работоспособность к 2026 г., и оценить, насколько они применимы к задачам, поставленным перед креативным сектором Узбекистана. Соответственно решаются три задачи: критически пересмотреть выводы литературы с учётом данных 2021-2025 гг.; сопоставить фактическую динамику и масштаб инструментов; проверить достижимость целевых показателей ПП-64 расчётным путём.

Обзор литературы

Исследования цифрового финансирования креативных индустрий распадаются на три достаточно самостоятельных направления, у каждого из которых своя логика и своя слепая зона.

Первое и наиболее зрелое - краудфандинг. Эмпирическую традицию заложил Э. Моллик, показавший на материале Kickstarter, что успех кампании определяется прежде

всего социальным капиталом автора и качеством подготовки проекта [1]. К. Хандке и К. Далла Кьеза предложили теоретическое объяснение: с точки зрения экономики культуры краудфандинг интересен не столько как источник роста, сколько как механизм, снимающий два классических затруднения - неопределённость качества творческого продукта и проблему безбилетника, поскольку средства списываются лишь при достижении порога сбора [2]. Наиболее близкая к нашей постановке работа принадлежит А. Ф. Чиккьелло, С. Галло и С. Монферра: на данных Kickstarter по двенадцати европейским странам за 2015-2019 гг. они установили, что распространённость краудфандинга объясняется национальными культурными измерениями, моделью социального государства, наличием профильного министерства культуры и уровнем концентрации банковского сектора, причём связь между объёмом государственных грантов и спросом на краудфандинг имеет U-образную форму [3].

Здесь и обнаруживается первое ограничение. Все перечисленные результаты получены по странам, где платформы фактически работают. Межстрановые различия объясняются культурными и институциональными переменными, тогда как сама доступность площадки в модели не входит - в этих выборках она постоянна. Для страны, где она не постоянна, такие оценки говорят мало.

Второе направление - токенизация и NFT. Тематический выпуск Journal of Cultural Economics под редакцией Э. Лоотс с соавторами свёл воедино пять инструментов, включая ICO и NFT; в нём же смарт-контракты рассматриваются как способ закрепить за автором право на долю от каждой перепродажи, а применительно к ICO перечисляются четыре барьера распространения [4]. Ю. Харитонова связывает токенизацию с режимом интеллектуальной собственности, ссылаясь на рост торгов NFT в 2021 г. на 21 000% до 17 млрд долл. [5].

Проблема этого направления в том, что оно сформировалось на данных 2021-2022 гг. и последующего сжатия рынка не отражает. Работ, пересматривающих его выводы на данных после 2024 г., нам обнаружить практически не удалось. Показательно, что осторожность присутствовала уже у самих редакторов выпуска: они прямо ставили под сомнение способность новых технологий обеспечить «значимые повторяющиеся финансовые поступления» [4]. В прикладной литературе эта оговорка, как правило, теряется.

Третье направление - платформенная монетизация. Здесь исследовательский вопрос за последние годы сместился с «сколько» на «кому»: отраслевая статистика IFPI и ежегодные раскрытия Spotify позволяют проследить не только совокупные выплаты, но и их распределение между исполнителями [8; 9; 10]. Ограничение направления методологическое: данные раскрываются самой платформой и независимо не верифицируются, а показатель «число исполнителей, преодолевших порог дохода» ничего не сообщает о распределении ниже этого порога.

Общий пробел редакторы упомянутого тематического выпуска формулируют сами: за пределами анализа остаются незападные рынки, регуляторные режимы, отстающие от технологий, и влияние новых инструментов на предсказуемость доходов авторов [4]. По Центральной Азии эмпирических работ в этой рамке нам не встретилось; отечественная литература рассматривает преимущественно цифровой банкинг и финтех в целом, не выделяя креативный сектор.

Отсюда научная новизна настоящей работы. Во-первых, выводы о работоспособности инструментов пересматриваются на полных данных 2021-2025 гг., то есть уже после сжатия рынка токенов. Во-вторых, тезис о цифровом неравенстве как основном ограничении переформулирован применительно к стране с 94,2-процентным охватом населения интернетом, где барьер лежит не в доступе к сети. В-третьих, целевые показатели отраслевой программы проверяются расчётом на внутреннюю согласованность - процедура, которая в литературе по креативной экономике Узбекистана до сих пор не

применялась.

Методология исследования

Работа построена как сравнительно-аналитическое исследование первичной отраслевой статистики, дополненное сценарным расчётом по Узбекистану. Выбор метода продиктован состоянием данных, о чём подробнее сказано ниже.

Источниковая база включает: годовые отчёты IFPI Global Music Report за 2022-2026 гг. (мировые доходы звукозаписи как индикатор платформенной монетизации); раскрытия Spotify Loud & Clear за 2026 г. (распределение выплат между исполнителями); данные DappRadar и CoinLedger об оборотах торгов NFT за 2021-2025 гг.; отчёт Grand View Research о рынке краудфандинговых услуг; Facts and Figures 2025 Международного союза электросвязи; Creative Economy Outlook ЮНКТАД; материалы Государственного комитета Республики Узбекистан по статистике за 2025 г.; сведения Национального агентства перспективных проектов о рынке крипто-активов; нормативные акты Республики Узбекистан [6-20].

Анализ и результаты

Сопоставление динамики инструментов за 2021-2025 гг. даёт результат, который трудно назвать ожидаемым: инструменты, которые в литературе обычно рассматриваются как единая группа, разошлись в противоположных направлениях (рисунок 1).

Рисунок 1.
Расхождение траекторий цифровых финансовых инструментов, 2021-2025 гг., млрд долл. США



Составлено автором по данным IFPI Global Music Report 2022-2026 [8; 9], DappRadar [11] и CoinLedger [12].

Мировые доходы звукозаписи выросли с 25,9 млрд долл. в 2021 г. до 31,7 млрд долл. в 2025 г. - на 22,4% за четыре года при среднегодовом темпе 5,2%; 2025 г. стал одиннадцатым подряд годом роста, причём доля стриминга достигла 69,6%, а число платных подписчиков - 837 млн [9]. Оборот торгов NFT за тот же период сократился с 27,8 млрд до 0,82 млрд долл., то есть на 97,0% при среднегодовом темпе −58,5% [12]. В сегменте цифрового искусства сжатие оказалось ещё резче: 2,9 млрд долл. в 2021 г., 197 млн долл. в 2024 г. и 23,8 млн долл. в I квартале 2025 г.; число активных участников торгов упало с 529,1 тыс. в 2022 г. до 19,6 тыс. [11].

На наш взгляд, за этим расхождением стоит различие в природе спроса, а не разная степень «зрелости» технологий. Платформенная монетизация опирается на конечное потребление культурного продукта: подписка оплачивается за прослушивание, и поток платежей воспроизводится ежемесячно независимо от настроений на финансовых рынках. Оборот NFT опирался на ожидание перепродажи по более высокой цене. Когда ожидание исчезло, исчезла и база. Средняя цена сделки снизилась с 2 044 долл. в 2021 г. до 475 долл. в 2023 г. [11], что для рынка, где ценность определялась перепродажей, равнозначно потере функции. Называть это волатильностью, как принято в литературе 2022-2023 гг., значит описывать структурный дефект как временное отклонение.

Краудфандинг занимает промежуточное положение и растёт умеренно: рынок краудфандинговых услуг оценивается в 2,1 млрд долл. в 2024 г. и 2,8 млрд долл. в 2025 г., прогноз на 2030 г. - 5,5 млрд долл. [13]. Отметим попутно расхождение внутри самого источника: заявленный среднегодовой темп 17,6% не согласуется с прогнозной величиной - от базы 2025 г. он даёт 14,5%. Различие невелико, но при использовании подобных прогнозов в отраслевых расчётах его следует учитывать. Накопленный масштаб инструмента виден по крупнейшей творческой площадке: за всё время работы Kickstarter собрано 9,41 млрд долл., успешно профинансировано 292,6 тыс. проектов при доле успеха 42,7%, в том числе в категории «Дизайн» - 1,94 млрд долл., «Кино и видео» - 617,2 млн долл., «Комиксы» - 332,4 млн долл.

Таблица 1.

Сравнительная характеристика цифровых финансовых инструментов финансирования креативных индустрий, 2025 г.

Инструмент	Мировой масштаб, 2025 г.	Динамика 2021-2025 гг.	Что поддерживает спрос	Доступность для субъектов Узбекистана
Платформенная монетизация	31,7 млрд долл. (доходы звукозаписи); выплаты Spotify - свыше 11 млрд долл.	+22,4%; CAGR +5,2%	конечное потребление контента (подписка)	высокая: нужен только канал приёма платежей, открыт в феврале 2026 г.
Краудфандинг	2,8 млрд долл. (рынок платформенных услуг)	+33,3% за 2024-2025 гг.	доверие к автору и предзаказ продукта	ограниченная: крупные площадки заявителей не принимают, национальной платформы нет
Токенизация, NFT	0,82 млрд долл. (оборот торгов)	−97,0%; CAGR −58,5%	ожидание перепродажи	техническая готовность есть (21 лицензированный провайдер), экономическая целесообразность под вопросом

Составлено автором по источникам [8-14; 16; 17; 20].

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Рост платформенных выплат сам по себе ещё не означает расширения доступа, поэтому распределительный эффект требует отдельной проверки. По итогам 2025 г. Spotify выплатил правообладателям свыше 11 млрд долл., около половины - независимым исполнителям и лейблам; порог в 100 тыс. долл. преодолели 13,8 тыс. исполнителей (на 1,4 тыс. больше, чем годом ранее), порог в 1 млн долл. - свыше 1,5 тыс., порог в 10 млн долл. - 80 исполнителей [10].

Расчёт по этим данным показывает, что не менее 13,6% всех выплат приходится на 1,5 тыс. исполнителей, то есть примерно на 0,013% участников платформы, а на 80 крупнейших - не менее 7,3%. Концентрация, таким образом, остаётся высокой. Одновременно расширяется география: исполнители с доходом от 500 тыс. долл. представляют 75 стран против 66 годом ранее, а с доходом от 10 тыс. долл. - более 150 стран. Показателен и «срединный» ориентир: исполнитель, занимающий стотысячную позицию по доходу, получил в 2025 г. 7,3 тыс. долл. против 350 долл. в 2015 г. - рост в 20,9 раза.

Тезис о цифровом неравенстве как главном ограничении цифровых финансовых инструментов в развивающихся странах применительно к Узбекистану требует пересмотра. По данным Государственного комитета по статистике, в 2025 г. интернетом пользовались 94,2% населения - против 76,6% в 2021 г. [19]. Для сопоставления: среднемировой показатель составляет около 75%, в странах с низким уровнем дохода - 23%, в сельской местности мира - 58% [14]. Утверждение об охвате интернетом в Центральной Азии ниже 60%, встречающееся в литературе, актуальным данным не соответствует.

Действующее ограничение носило расчётный характер. До февраля 2026 г. требования к локализации персональных данных не позволяли международным платёжным системам работать в стране в полном объёме: карты, выпущенные в Узбекистане, не функционировали в системе PayPal, а через неё ведут расчёты Upwork, Fiverr, Envato, Storyblocks и целый ряд площадок, на которых зарабатывают цифровые авторы. Поправками к Закону «О персональных данных», одобренными 6 февраля 2026 г., обязательная локализация сужена до биометрических, генетических и телекоммуникационных данных, что открывает дорогу PayPal, Apple Pay и Google Pay.

Технологическая готовность населения при этом подтверждается. Оборот регулируемого рынка крипто-активов по итогам 2025 г. превысил 2 млрд долл. (около 1,36% ВВП) при 21 лицензированном поставщике услуг и более чем 663 тыс. зарегистрированных пользователей, то есть примерно 1,8% населения [20]. Спрос на цифровые финансовые сервисы существует; вопрос в том, как направить его в креативный сектор, а не в спекулятивные операции.

Совокупно это меняет очерёдность приоритетов. Для Узбекистана первым по практической отдаче инструментом выступает платформенная монетизация - она требует только работающего канала приёма платежей, и этот канал открыт. Вторым - краудфандинг, для которого нужна доступная площадка; крупные зарубежные платформы заявителей из республики не принимают, национальной площадки нет. Токенизация в этот перечень не входит - по той же причине, по которой она перестала работать в мире.

Проверим теперь, насколько согласованы между собой целевые показатели ПП-64. Валовой внутренний продукт Узбекистана в 2025 г. составил 1 849,7 трлн сум (147,08 млрд долл.) при росте на 7,7%; сфера услуг выросла на 8,5%, транспорт и связь - на 14,5%, торговля и общественное питание - на 12% [19].

Цель «5% ВВП, или 145 трлн сум» подразумевает номинальный ВВП 2030 г. на уровне 2 900 трлн сум, что означает среднегодовой номинальный прирост 9,4% - при текущей инфляции задача не напряжённая. Цель по объёму самого сектора, исходя из заявленного удвоения, требует среднегодового прироста 14,9%. Это высокий, но не беспрецедентный темп: в 2025 г. его практически достигла связка «транспорт и связь»

(14,5%). Цель по занятости - рост со 100 тыс. до 500 тыс. человек - требует 38,0% в год на протяжении пяти лет (рисунок 2). Отрасли, удерживающей такой темп прироста занятости пять лет подряд, в экономике республики нет.

Рисунок 2.

Темпы прироста, требуемые для выполнения целевых показателей ПП-64, в сопоставлении с фактическими темпами 2025 г., %



Рассчитано автором по данным Государственного комитета Республики Узбекистан по статистике за 2025 г. [19] и ПП-64 от 16.02.2026 [17]. Целевые темпы приведены как среднегодовые (CAGR 2025-2030 гг.), фактические - как годовой прирост 2025 г. в сопоставимых ценах.

Более существенно, что две эти цели плохо согласуются между собой. Удвоение объёма при пятикратном росте занятости означает снижение выработки на одного занятого на 60%. Проверка подтверждает подозрение: реконструированный базовый объём 2025 г. (около 72,5 трлн сум) в расчёте на заявленные 100 тыс. занятых даёт 725 млн сум на человека при среднем по экономике показателе порядка 128,5 млн сум (в расчёте примерно на 14,4 млн занятых) - в 5,6 раза выше среднего. Для сектора, в котором значительную долю составляют ремесленничество и мелкий дизайн, такая выработка неправдоподобна.

Заключение

Основной результат работы состоит в следующем: цифровые финансовые инструменты финансирования креативных индустрий развивались не как единая группа, а разошлись. За 2021-2025 гг. платформенная монетизация выросла на 22,4%, тогда как токенизация сократилась на 97,0%, а её художественный сегмент - на 93,2% за 2021-2024 гг. Рекомендации, опирающиеся на литературу 2021-2023 гг., рискуют направить ресурсы в сегмент, который уже сжался, и мы полагаем, что переоценка этого пласта выводов назрела.

Для Узбекистана ограничением выступает не доступ к интернету: показатель в 94,2% выше среднемирового. Ограничением была расчётная инфраструктура и отсутствие доступных площадок. Февральские поправки 2026 г. к Закону «О персональных данных» снимают основное формальное препятствие, и эффект от них должен проявиться в статистике 2027 г. Реалистичная очерёдность приоритетов - платформенная монетизация, затем краудфандинг; токенизация заслуживает наблюдения, но не бюджетных ресурсов.

Проверка целевых показателей ПП-64 показала, что цель по объёму (14,9% в год) трудна, но имеет отраслевые прецеденты, тогда как цель по занятости (38,0% в год)

прецедентов не имеет и, что важнее, не согласуется с целью по объёму: их совместное выполнение означало бы падение выработки на 60%. Это указывает скорее на дефект статистической базы, чем на чрезмерность амбиций.

Из сказанного вытекают четыре предложения. Первое и первоочередное - закрепить статистический классификатор креативных отраслей и ввести сателлитный счёт по методологии ЮНКТАД силами Госкомстата и Фонда развития культуры и искусства; без него остальные меры не поддаются оценке. Второе - рассмотреть для резидентства в Парке креативных индустрий пониженный порог доли дохода от креативной деятельности либо отдельный режим для самозанятых авторов: действующее требование в 80% рассчитано на студии и отсекает авторов со смешанным доходом. Третье - проработать национальную краудфандинговую площадку под эгидой Фонда, ограничившись на первом этапе донационной и наградной моделями, которые не требуют регулирования рынка ценных бумаг. Четвёртое - нормативно закрепить порядок приёма поступлений с международных платформ, чтобы поправки февраля 2026 г. дали практический результат.

Ограничения настоящей работы очевидны и названы в разделе методологии: страновых рядов по цифровому финансированию креативных индустрий пока не существует, поэтому исследование сознательно ограничено сравнительно-аналитической рамкой. Как только сателлитный счёт даст три-пять лет сопоставимых наблюдений, станет возможной эконометрическая оценка чувствительности объёма финансирования креативного сектора к доступности расчётной инфраструктуры. Это и представляется естественным продолжением темы.

Список использованной литературы

1. Mollick E. The dynamics of crowdfunding: An exploratory study // Journal of Business Venturing. - 2014. - Vol. 29, № 1. - P. 1-16.

2. Handke C., Dalla Chiesa C. The art of crowdfunding arts and innovation: the cultural economic perspective // Journal of Cultural Economics. - 2022. - Vol. 46, № 2. - P. 249-284. DOI: 10.1007/s10824-022-09444-9

3. Cicchiello A. F., Gallo S., Monferrà S. Financing the cultural and creative industries through crowdfunding: the role of national cultural dimensions and policies // Journal of Cultural Economics. - 2023. - Vol. 47. - P. 133-175. DOI: 10.1007/s10824-022-09452-9

4. Loots E., Betzler D., Bille T., Borowiecki K. J., Lee B. New forms of finance and funding in the cultural and creative industries. Introduction to the special issue // Journal of Cultural Economics. - 2022. - Vol. 46, № 2. - P. 205-230. DOI: 10.1007/s10824-022-09450-x

5. Kharitonova Yu. Tokenization of the Creative Industries: The Intersection Between Emerging Technologies and Sustainability // Digital Technologies and Distributed Registries for Sustainable Development. - Cham: Springer, 2024. - P. 59-75. DOI: 10.1007/978-3-031-51067-0_4

6. UNCTAD. Creative Economy Outlook 2024: Technical and statistical report. - Geneva: United Nations, 2024. - URL: https://unctad.org/publication/creative-economy-outlook-2024

7. UNCTADstat. Global exports of creative goods and services. - URL: https://unctadstat.unctad.org/insights/theme/97

8. IFPI. Global Music Report 2025. - London: IFPI, 2025. - URL: https://www.ifpi.org

9. IFPI. Global Music Report 2026: Global recorded music revenues grow 6.4%. - London: IFPI, 2026. - URL: https://www.ifpi.org

10. Spotify. Loud & Clear 2026: Music economics highlights. - URL: https://loudandclear.byspotify.com

11. DappRadar. NFT Art's Collapse: From $2.9 Billion to $23.8 Million. - 2025. - URL: https://dappradar.com/blog

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

12. CoinLedger. How much is the NFT market worth? - August 2025. - URL: https://coinledger.io/research/how-much-is-the-nft-market-worth

13. Grand View Research. Crowdfunding Market Size, Share & Trends Analysis Report, 2025-2030. - San Francisco, 2025.

14. ITU. Measuring digital development: Facts and Figures 2025. - Geneva: International Telecommunication Union, 2025. - URL: https://www.itu.int/itu-d/reports/statistics/facts-figures-2025/

15. British Council; Counterculture Partnership. Рекомендации по развитию креативных индустрий в Узбекистане. - Ташкент, 2022. - URL: https://www.britishcouncil.uz

16. Закон Республики Узбекистан «О креативной экономике» № ЗРУ-970 от 03.10.2024. - URL: https://lex.uz/ru/docs/7129290

17. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по развитию креативной экономики» № ПП-64 от 16.02.2026. - URL: https://lex.uz/ru/docs/8050797

18. Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» № УП-60 от 28.01.2022. - URL: https://lex.uz/docs/5841077

19. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. Валовой внутренний продукт за 2025 год; Использование интернета населением, 2025. - URL: https://stat.uz

20. Национальное агентство перспективных проектов Республики Узбекистан. Итоги развития рынка крипто-активов за 2025 год. - URL: https://napp.uz

RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Mustaqil izlanuvchisi (DSc),
Tashkent International University,
fayzievamuyassar87@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-8019-6001

Annotatsiya. *So'nggi yillarda jamiyat a'zolari foydalanuvchi sifatida raqamli moliyaviy xizmatlardan faol foydalanib kelmoqda. Ushbu xizmatlardan foydalanish natijasida yuridik va jismoniy shaxslar o'z faoliyati va kundalik ishida vaqt, mablag', qog'oz, yonilg'i, energiya va transport xarajatlari kabi resurslarni tejash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shunga qaramay, raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilishi hamda aniqlangan ma'lumotlar asosida to'g'ri qarorlar qabul qilinishi va tegishli chora-tadbirlar belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur tadqiqotning maqsadi - raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashda qo'llaniladigan metodlar hamda ularning rivojlanish tendensiyalarini yoritib berishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun adabiyotlar sharhi usuli tanlanib, tadqiqot uchun 21 ta manba saralab olindi. Tadqiqot natijasida raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashning rivojlanish bosqichlari aniqlandi.*

Kalit sozlar: *raqamli moliyaviy xizmatlar, samaradorlikni baholash metodlari, rivojlanish bosqichlari*

STAGES OF DEVELOPMENT OF METHODS FOR ASSESSING THE EFFICIENCY OF DIGITAL FINANCIAL SERVICES

Fayzieva Muyassarzoda Khancharovna
PhD in Economics,
Independent Researcher (DSc),
Tashkent International University,
fayzievamuyassar87@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-8019-6001

Abstract. *In recent years, members of society, as users, have been actively adopting various types of digital financial services. As a result of using these services, both legal entities and individuals have gained the ability to save resources such as time, funds, paper, fuel, energy, and transportation costs in their day-to-day operations and activities. Nevertheless, it is essential that scientific research be conducted to assess the efficiency of digital financial services, so that sound decisions and appropriate measures can be adopted based on the findings. The purpose of this study is to highlight the methods used to assess the efficiency of digital financial services and their development trends. To achieve this, the literature review method was selected, and 21 sources were chosen for the study. As a result of the research, the stages of development in assessing the efficiency of digital financial services were identified.*

Key words: *digital financial services, efficiency assessment methods, development stages.*

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕТОДОВ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЦИФРОВЫХ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ

Файзиева Муяссарзода Ханчаровна
Доктор философии по экономическим наукам (PhD),
Независимый соискатель (DSc),

Ташкентский международный университет,
fayzievamuyassar87@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-8019-6001

Аннотация. *В последние годы члены общества как пользователи всё активнее прибегают к различным видам цифровых финансовых услуг. В результате использования данных услуг юридические и физические лица получают возможность экономить такие ресурсы, как время, денежные средства, бумага, топливо, энергия и транспортные расходы, в своей повседневной деятельности. Тем не менее целесообразно проведение научных исследований по оценке эффективности цифровых финансовых услуг, а также принятие обоснованных решений и определение соответствующих мер на основе полученных данных. Целью данного исследования является освещение методов, применяемых для оценки эффективности цифровых финансовых услуг, и тенденций их развития. Для достижения этой цели был выбран метод обзора литературы, и для исследования было отобрано 21 источник. В результате исследования были определены этапы развития методов оценки эффективности цифровых финансовых услуг.*

Ключевые слова: *цифровые финансовые услуги, методы оценки эффективности, этапы развития.*

Kirish

Moliyaviy tashkilotlarda amaliyotga joriy etilgan raqamli moliyaviy xizmatlar sifati va samarasini aniqlash hamda buni natijasida aniqlangan kamchiliklar, muammolar yoki yutuqlar asosida kelgusida ushbu faoliyatni yanada rivojlantirish, xizmatlardan foydalanuvchilar mamnuniyatini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar belgilash, yangi xizmat turlarini joriy etish bo’yicha rejalar belgilash, unga muddat va ams’ullarni belgilash, shuningdek aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun ilmiy va to’g’ri yechimlar taklif etish, umuman raqamli moliyaviy xizmatlarga tegishli ko’rsatkichlar bo’yicha natijalarni yanada oshirish maqsadida samaradorligini baholash metodlari qo’llaniladi.

Jamiyatimizda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, huquqiy asoslarning mustahlamlanishi, texnologik infratuzilmani yaratilishi natijasida moliyaviy tashkilotlar o’zlarining an’anaviy modellarini shiddat bilan raqamli modellarga o’tkazmoqdalar. Moliyaviy tizimlardagi tezkor transformatsiya sharoitida raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholash masalasi o’z o’rnida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro raqamli integratsiya jarayonlari doirasida moliyaviy xizmatlarning raqamli shakllari - masalan, mobil to’lov tizimlari, onlayn banking, fintech platformalar, blokcheyn asosidagi to’lov tizimlari - milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o’ynamoqda.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishdan maqsad: raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashda qo’llaniladigan metodlar va ularni rivojlanish tendensiyalarini yoritib berish. Shuningdek raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashning rivojlanish bosqichlarini aniqlashdir.

Adabiyotlar sharhi

Raqamli moliyaviy xizmatlar - bu moliyaviy tashkilotlar yoki ularning agenti tomonidan iste’molchilarga masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimidan foydalangan holda ko‘rsatiladigan moliyaviy xizmatlardir. Raqamli xizmatlar mijozlarni mustaqil ro‘yxatga olish, omonatlarga pul mablag‘larini jalb qilish va ular bo‘yicha hisoblangan foiz to‘lovlarini mijozning bank xisobvarag‘iga o‘tkazib berish, kreditlar taqdim etish, bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, shu jumladan hisobvaraqlar bo‘yicha pul mablag‘lari aylanmalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish, pul o‘tkazmalarini amalga oshirish, mahsulotlar (xizmatlar) uchun to‘lovlarni kontaktsiz hisob-kitob qilish hamda boshqa moliyaviy xizmatlarni o‘z ichiga oladi [1].

Raqamli moliyaviy texnologiyalar (Fintech) - bu bank va moliyaviy xizmat ko‘rsatish jarayonlarini takomillashtirish uchun moliya sohasida qo‘llaniladigan «katta ma’lumotlar» (Big

Data), sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish, robotlashtirish, blokcheyn, bulutli texnologiyalar, biometrik tizimlar hamda boshqa innovatsion texnologiyalar asosida ko‘rsatish jarayonidir [2].

Raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligi deganda moliya institutlari va foydalanuvchilar tomonidan raqamli texnologiyalar joriy etilganda erishiladigan operatsion faoliyat ko’rsatkichlari natijalarining yaxshilanishi, xarajatlarning qisqarishi va resurslar taqsimlashining takomillashuvi tushuniladi [3]. Tadqiqotlarda samaradorlik yanada kengroq iqtisodiy ta’sirlar orqali ham ta’riflanadi. Bunga axborot assimetriyasining pasayishi, innovatsiyalarni moliyalashtirishning yaxshilanishi va moliyaviy resurslarni unumli foydalanish sohalariga yanada aniqroq moslashtirish kiradi [4]. Oddiy qilib aytganda, samarali raqamli moliyaviy xizmatlar kamroq resurs bilan ko’proq natija beradi, ya’ni ko’proq foydalanuvchiga yetib boradi, tranzaksiyalarni tezroq amalga oshiradi, qo’lda bajariladigan ishlarni kamaytiradi va moliyaviy qarorlar qabul qilinishini yaxshilaydi [5,6].

Metodologiya

Tadqiqot jarayonida adabiyotlar sharhi usulidan foydalanildi va ma’lumotlarni to’plash uchun 21 ta manbalar saralab olindi. Saralab olingan manbalar asosida tadqiqot yakunida raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashning rivojlanish bosqichlari ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Ushbu sohadagi baholash metodlarini o’rganish maqsadida adabiyotlar sharhi amalga oshirildi va raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholash metodlarining rivojlanish bosqichlari sifatida 4 ta evolyutsion bosqichlar aniqlandi, bular:

1-bosqich: an’anaviy moliyaviy samaradorlikni baholash metodlari (1960–1990-yillar)

Moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashda 1960–1990-yillar mobaynida an’anaviy moliyaviy ko’rsatkichlar, ya’ni investitsiya rentabelligi – ROI (Return on Investment), aktivlar rentabelligi – ROA (Return on Assets), sof joriy qiymat – NPV (Net Present Value), ichki rentabellik normasi – IRR (Internal Rate of Return) va xarajat–foyda tahlili ko’rsatkichlari – CBA (Cost–Benefit Analysis) keng qo’llanilgan.

ROI ko’rsatkichi moliyaviy xizmatlar orqali amalga oshirilgan investitsiyalarning foydaliligini baholash uchun ishlatilib, daromad va xarajatlar nisbatini o’lchagan hamda investitsiyalarning qanchalik samarali ekanligini ko’rsatgan. Moliyaviy xizmatlar sohasida ROI ko’rsatkichining ahamiyati – bu xizmat yoki texnologiya joriy etilishi natijasida bank yoki moliyaviy institut foydasining oshishini miqdoriy jihatdan aniqlash imkoniyatini bergan [7].

ROA ko’rsatkichi korxona yoki bankning mavjud aktivlardan foyda olish darajasini aniqlagan. Bu ko’rsatkich moliyaviy xizmatlar joriy etilishi bilan aktivlardan foydalanish samaradorligini o’lchashda muhim ahamiyat kasb etgan [8].

NPV ko’rsatkichi investitsiya loyihasining bugungi qiymatini aniqlash orqali, kutilayotgan foyda va xarajatlarning hozirgi qiymatlarini solishtirish imkoniyatini bergan. Moliyaviy xizmatlarda NPV orqali yangi mahsulotlar keltiradigan sof iqtisodiy foyda aniqlangan [9].

IRR ko’rsatkichi investitsiya loyihasining ichki rentabellik darajasini baholaydi, ya’ni loyiha qancha daromad keltirishini ichki foiz stavkasi orqali ifodalaydi. Bu moliyaviy xizmatlarda har bir yangi mahsulot yoki tizim joriy etilishi foydaliligini ichki moliyaviy mezonlar asosida aniqlash imkonini bergan [10]. CBA ko’rsatkichi esa moliyaviy xizmatlar samaradorligini ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan baholash imkonini bergan [11].

2-bosqich: raqamli moliyaviy texnologiyalar samaradorligini baholash metodlari (2000–2010)

2000–2010-yillar oralig’i moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholash metodologiyasida raqamli texnologiyalar inqilobi boshlangan davr sifatida ajralib turadi. Internet-banking, mobil to’lov tizimlari va onlayn tranzaksiyalar moliyaviy xizmatlarning nafaqat tezligi, balki ularning sifat va xavfsizlik jihatlariga ham e’tibor qaratilishiga sabab bo’ldi.

Shu bilan birga, samaradorlikni baholashda texnologik infratuzilma, foydalanuvchi tajribasi (user experience), mijoz qoniqishi va xavfsizlik darajasi kabi yangi mezonlar kiritildi.

Tadqiqotchilar Miranda, Cortes va Barriuso (2006) tomonidan Ispaniya banklari misolida elektron bank xizmatlari saytlarini empirik baholab, veb-sahifalarning texnik sifati va foydalanish interfeysi moliyaviy samaradorlikka ta’sir etuvchi asosiy omillardan ekanini aniqladilar. Ularning tadqiqoti raqamli samaradorlikni faqat moliyaviy natijalar bilan emas, balki raqamli infratuzilma sifati bilan ham o’lchash zarurligini ko’rsatdi [12].

Olimlar Khan, Mahapatra va Sreekumar (2009) tomonidan Hindistondagi internet-banking foydalanuvchilari orasida xizmat sifati tahlili o’tkazildi va unda SERVQUAL modeli asosida samaradorlik baholandi. Ularning natijalariga ko’ra, ishonchlilik, qulaylik va xavfsizlik raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligining asosiy komponentlari sifatida namoyon bo’lgan [13].

Olimlar Yang va uning hammualliflari (2009) Xitoy tijorat banklari misolida elektron banking joriy etilishi moliyaviy natijalarga qanday ta’sir qilganini empirik tahlil qilib, raqamli texnologiyalar bank rentabelligini oshirishi bilan birga operatsion xarajatlarni kamaytirishini isbotladilar. Bu davrda NPV yoki ROA kabi an’anaviy ko’rsatkichlar bilan bir qatorda, raqamli samaradorlik indikatorlari (online transaction volume, customer reach, service speed) ham joriy etila boshlandi [14].

3-bosqich: Fintex va moliyaviy inklyuzivlikni baholash metodlari (2010–2020)

2010–2020-yillar davrida raqamli texnologiyalar moliyaviy xizmatlar infratuzilmasining ajralmas qismiga aylandi. Fintex (financial technology) kompaniyalari, raqamli banklar va onlayn to’lov tizimlari orqali moliyaviy inklyuzivlikni oshirish, ya’ni aholining keng qatlamlarini moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olish asosiy strategik yo’nalishga aylandi. Bu davrda samaradorlikni baholashda foydalanuvchi kirish imkoniyati, xizmat tezligi, xavfsizlik, innovatsion mahsulotlar ulushi va raqamli infratuzilma sifati kabi yangi indikatorlar qo’llanila boshlandi.

Tadqiqotchi Sarma (2015) moliyaviy inklyuzivlik darajasini o’lchash uchun kompleks indeks ishlab chiqib, unga kirish (access), foydalanish (usage) va mavjudlik (availability) omillarini kiritdi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, raqamli texnologiyalar va mobil to’lovlar kengayishi inklyuzivlik darajasini oshiradi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda [15].

Tadqiqotchilar Sie, Khalifa va Daim (2017) o’z tadqiqotlarida moliyaviy sektordagi texnologik baholash (technology assessment) jarayonlarini o’rgangan. Ular fintex innovatsiyalari nafaqat xarajatlarni kamaytirishi, balki xizmat sifati va mijoz ishonchini oshirishi orqali moliyaviy tizimning umumiy samaradorligini kuchaytirishini ta’kidlagan [16].

Tadqiqotchi Salaga va uning hammualliflari (2015) tomonidan o’tkazilgan tadqiqotda iqtisodiy foydani o’lchash uchun Iqtisodiy Qadriyat Qo’shimchasi (Economic Value Added - EVA) ko’rsatkichi Slovakiya kompaniyalari sharoitida qanday hisoblanishi mumkinligi ko’rsatilgan. Tadqiqotchilar tomonidan taklif qilingan EVA ko’rsatkichi, fintech va moliyaviy inklyuzivlikni baholashda muhim vosita sifatida qaraladi. Ushbu ko’rsatkichlar, moliyaviy resurslarni boshqarish va investitsiya qarorlarining samaradorligini aniqlashda ahamiyatga ega. Natijada, ushbu yondashuvlar moliyaviy xizmatlarning samaradorligini oshirishga va iqtisodiy inklyuzivlikni kuchaytirishga yordam beradi [17].

Tadqiqotchi Batayev (2019) “challenger banks” deb ataluvchi raqamli moliyaviy institutlar faoliyatini tahlil qilib, ularning samaradorligini o’lchashda texnologik innovatsiyalar, raqamli foydalanuvchi bazasi va operatsion xarajatlarning qisqarishi asosiy omil ekanini aniqladi. Tadqiqotda Fintex modellari an’anaviy banklarga nisbatan yuqori darajada mijoz qamrovini ta’minlagani ta’kidlangan [18].

4-bosqich: integratsiyalashgan raqamli samaradorlikni baholash metodlari (2020-yildan hozirgacha)

2020-yildan keyingi davr raqamli iqtisodiyotning global o’sishi, COVID-19 pandemiyasi va iqtisodiy raqamlashtirish siyosatlarining faollashuvi bilan xarakterlanadi. Ushbu bosqichda

raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholash jarayoni kompleks yondashuv asosida olib borilmoqda. Baholashda endilikda nafaqat moliyaviy natijalar, balki ekologik, ijtimoiy va texnologik omillarni ham qamrab oluvchi integratsiyalashgan indikatorlar tizimi shakllanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, raqamli moliya tizimi samaradorligini aniqlashda ko’p darajali indekslar, panel regressiya modellari va Data Envelopment Analysis (DEA) kabi iqtisodiy-statistik metodlar asosiy o’rinni egallamoqda.

Tadqiqotchilar Zhang, Li va Worthington (2023) kichik va o’rta bizneslar uchun raqamli moliyaviy inklyuzivlik va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini modellashtirdi. Ular “Digitalization–Financial Inclusion–SME Financing” o’zaro bog’liqlik modelini ishlab chiqib, raqamli texnologiyalar moliyaviy cheklovlarni kamaytirishini va korxonalar likvidligini oshirishini aniqladilar. Tadqiqotda panel regressiya yondashuvi qo’llanilib, raqamli inklyuzivlikning iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta’siri statistik jihatdan isbotlangan [19].

Tadqiqotchilar Dong, Chen va Yang (2025) Xitoyning 261 shahrida raqamli moliya va karbon samaradorligi o’rtasidagi munosabatni o’rgandi. Natijalar raqamli moliyaviy rivojlanishning uglerod emissiyasini kamaytirishga sezilarli ijobiy ta’sir ko’rsatishini tasdiqladi. Shu orqali raqamli moliya tizimi iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik barqarorlikni ham rag’batlantiruvchi omil sifatida qaralmoqda [20].

Tadqiqotchilar Bobro, Lisova va Kyrylenko (2025) esa raqamli transformatsiya orqali biznes xarajatlarini optimallashtirish va barqaror operatsion samaradorlikni ta’minlash mexanizmlarini tahlil qildi. Ularning tadqiqotida raqamli transformatsiya indikatorlari korxonalarning raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omil sifatida ko’rsatildi. Bu yondashuv raqamli texnologiyalarni faqat qo’shimcha vosita emas, balki strategik resurs sifatida ko’rish zarurligini ta’kidlaydi [21].

Yuqorida yoritilgan raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashning barcha bosqichlaridan iborat quyidagi chizma tayyorlandi (1-rasm):

1-rasm. Raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashning rivojlanish bosqichlari[32]

Umuman olganda, 2020-yildan keyingi bosqichda raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholash ko’p tarmoqli yondashuvga asoslangan bo’lib, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va ekologik o’lchovlarni birlashtiruvchi kompleks modellar shakllanmoqda. Ushbu tendensiya xalqaro indikator tizimlariga (IMF Digitalization Index, DESI, UNCTAD Digital Economy Report, OECD Digital Government Index) integratsiyalashgan holda, raqamli moliyaviy xizmatlarning iqtisodiyotdagi haqiqiy samaradorligini aniqlash imkonini bermoqda.

Xulosa

Raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholash metodologiyasining shakllanishi bosqichma-bosqich evolyutsiyani bosib o’tgan. Dastlab, 20-asr oxirlarida ROI, ROA, NPV, IRR va CBA kabi an’anaviy ko’rsatkichlar asosida moliyaviy samaradorlik baholangan. Ushbu

[1] Muallif tomonidan tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan.

metodlar keyingi davrlarda raqamli moliyaviy xizmatlarni tahlil qilish uchun nazariy va amaliy asos bo’lib xizmat qilgan. 2000–2010-yillarda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, IT-investitsiyalar, texnologik samaradorlik va innovatsion moliyaviy tizimlarni baholash metodlari keng qo’llanila boshlagan. 2010–2020-yillar oralig’ida fintex yechimlari va moliyaviy inklyuzivlik konsepsiyasi iqtisodiy, ijtimoiy hamda texnologik omillarni o’z ichiga olgan keng qamrovli baholash tizimlarini shakllantirdi. 2020-yildan boshlab esa baholash jarayonlari ko’p tarmoqli tus olib, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va ekologik omillarni birlashtiruvchi kompleks modellar asosida olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Raqamli moliyaviy xizmatlar iste’molchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish standartlari, https://cbu.uz/upload/iblock/f0e/28_4-Boshqaruv-qaroriga-ilova-_Raqamli-khizmatlar-standartlari_.pdf

2. Ж.Б.Гаипов. Цифровое банковое дело. (Учебное пособие) –Т.: « », 2023, – 180 с.

3. Safarzade, N. (2025). THE DIGITAL DIVIDEND: HOW FINANCIAL SERVICES DIGITAL TRANSFORMATION DRIVES ECONOMIC EFFICIENCY. Scientific bulletin. https://doi.org/10.54414/whjy4306

4. Fu, Z., Zhou, Y., Li, W., & Zhong, K. (2022). Impact of digital finance on energy efficiency: empirical findings from China. Environmental Science and Pollution Research International, 30, 2813 - 2835. https://doi.org/10.1007/s11356-022-22320-5

5. Mavļutova, I., Spilbergs, A., Verdenhofs, A., Natrins, A., Arefjevs, I., & Volkova, T. (2022). Digital Transformation as a Driver of the Financial Sector Sustainable Development: An Impact on Financial Inclusion and Operational Efficiency. Sustainability. https://doi.org/10.3390/su15010207

6. Chand, S. (2026). The Impact of Digital Financial Services on the Growth and Efficiency of Small and Medium Enterprises (SMEs). International Journal of Science and Research (IJSR). https://doi.org/10.21275/sr251231171402

7. Jensen, M. C., & Meckling, W. H. (2019). Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure. In Corporate governance (pp. 77-132). Gower.

8. Tobin, J. (1969). A general equilibrium approach to monetary theory. Journal of money, credit and banking, 1(1), 15-29.

9. Solow, R. M. (1957). Technical change and the aggregate production function. The review of Economics and Statistics, 39(3), 312-320.

10. Brealey, R.A., Myers, S.C., & Allen, F. (1991). Principles of Corporate Finance. McGraw-Hill Education.

11. Mishan, E. J., & Quah, E. (2020). Cost-benefit analysis. Routledge.

12. Miranda, F. (2006). Quantitative evaluation of e-banking web sites: An empirical study of Spanish banks. The Electronic Journal Information.

13. Khan, M. S., & Mahapatra, S. S. (2009). Service quality evaluation in internet banking: an empirical study in India. International Journal of Indian Culture and Business Management, 2(1), 30-46.

14. Yang, S., Li, Z., Ma, Y., & Chen, X. (2018). Does electronic banking really improve bank performance? Evidence in China. International Journal of Economics and Finance, 10(2), 82-94.

15. Sarma, M. (2015). Measuring financial inclusion. Economics Bulletin, 35(1), 604–+.

16. Sie, F., Khalifa, R., Viswanatha, R., Kancherla, Y. D., Phan, K., & Daim, T. (2017). Technology Assessment in the Financial Sector. In Research and Development Management: Technology Journey through Analysis, Forecasting and Decision Making (pp. 17-30). Cham: Springer International Publishing.

17. Jakub, S., Viera, B., & Eva, K. (2015). Economic value added as a measurement tool of financial performance. Procedia economics and finance, 26, 484-489.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

18. Bataev, A. V. (2019, January). Financial technology: Efficiency evaluation of challenger banks. In 2019 IEEE conference of Russian young researchers in electrical and electronic engineering (EIConRus) (pp. 1371-1375). IEEE.

19. Zhang, X., Li, J., Xiang, D., & Worthington, A. C. (2023). Digitalization, financial inclusion, and small and medium-sized enterprise financing: Evidence from China. Economic modelling, 126, 106410.

20. Dong, K., Chen, Q., Zhu, A., Yang, Z., & Yang, Z. (2025). The Impact of Digital Finance on Carbon Emission Performance-An Empirical Analysis of 261 Cities in China. Polish Journal of Environmental Studies, 34(4), 4071-4082.

21. Bobro, N., Lisova, R., Parfentieva, O., Dmytrovska, V., & Kyrylenko, S. (2025). Digital Transformation for Cost Optimisation and Sustainable Business Operations. European Journal of Sustainable Development, 14(2), 158-158.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O’ZBEKISTONDA MIKRO, KICHIK VA O’RTA BIZNESNI KREDITLASH DINAMIKASI: 2026 YIL YARIM YILLIK NATIJALARI VA SILK ROAD FINANCE & TECHNOLOGY FORUM KONTEKSTIDAGI TAHLIL

Kalandarov Jamolbek Ravshonovich
TDIU PhD mustaqil tadqiqotchisi,
“TBC Bank” ATB Biznes koordinatori
100100, Toshkent shahri, O’zbekiston
e-mail: jamolbekqalandarov@gmail.com
ORCID: 0009-0006-6868-771X

Annotatsiya. *Maqolada O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma’lumotlari asosida 2026-yilning ikkinchi chorak va yanvar-iyul davri natijalariga ko’ra mikro, kichik va o’rta biznes subyektlarini kreditlash dinamikasi tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi - mikro, kichik va o’rta biznes subyektlarini kreditlash ko’rsatkichlarini hamda 2026-yil 24-26 avgust kunlari Toshkent shahrida o’tkazilgan Silk Road Finance & Technology Forumda e’lon qilingan makroiqtisodiy va institutsional ma’lumotlar bilan uzviy bog’liqlikda tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy tahlil va statistik guruhlash usullaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko’rsatadiki, 2026-yil yanvar-iyul oylarida mikro, kichik va o’rta biznes subyektlariga jami 90,3 trln so’m kredit ajratilgan (+19%), shu jumladan tadbirkorlik dasturlari doirasida 22,5 trln so’m (+27%), bunda “Mahalla loyihasi” ulushi 53 foizni tashkil etib, 38 foizga o’sgan. Ushbu dinamika mamlakatning 8,5 foizlik YAIM o’sishi, 8,3 mlrd. AQSh dollarlik xorijiy investitsiyalari va Moody’s tomonidan Ba2 darajasiga ko’tarilgan suveren reytingi kontekstida institutsional barqarorlik bilan uzviy bog’liqligi asoslangan. Xulosa qilib aytilishicha, maqsadli davlat dasturlari va raqamli moliya islohotlarining uyg’unlashuvi mikro, kichik va o’rta biznes subyektlarini kreditlash tizimining samaradorligini oshirmoqda.*

Kalit so’zlar: *mikro, kichik va o’rta biznes; kreditlash; Markaziy bank; tadbirkorlik dasturlari; Mahalla loyihasi; fintech; Silk Road Finance & Technology Forum; raqamli moliya; investitsiya; suveren reyting.*

ДИНАМИКА КРЕДИТОВАНИЯ МИКРО, МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ: ИТОГИ ПОЛУГОДИЯ 2026 ГОДА И АНАЛИЗ В КОНТЕКСТЕ ФОРУМА SILK ROAD FINANCE & TECHNOLOGY

Каландаров Жамолбек Равшонович
Независимый исследователь PhD ТГЭУ,
Бизнес-координатор АКБ «TBC Bank»
100100, г.Ташкент, Узбекистан
e-mail: jamolbekqalandarov@gmail.com
ORCID: 0009-0006-6868-771X

Аннотация. *В статье на основе официальных статистических данных Центрального банка Республики Узбекистан анализируется динамика кредитования субъектов микро, малого и среднего бизнеса (МСБ) по итогам второго квартала и января-июля 2026 года. Цель исследования - рассмотреть показатели кредитования МСБ во взаимосвязи с макроэкономическими и институциональными данными, представленными на форуме Silk Road Finance & Technology Forum, состоявшемся в городе Ташкента 24-26 августа 2026 года. В работе использованы методы сравнительного анализа и статистической группировки. Результаты показывают, что за январь-июль 2026 года субъектам МСБ выдано кредитов на сумму 90,3 трлн сумов (+19%), в том числе в рамках программ предпринимательства - 22,5 трлн сумов (+27%),*

при этом доля программы «Mahalla loyihasi» составила 53% с ростом на 38%. Данная динамика обосновывается в контексте институциональной устойчивости страны - роста ВВП на 8,5%, притока иностранных инвестиций в размере 8,3 млрд долл. США и повышения суверенного рейтинга агентством Moody’s до уровня Ba2. Делается вывод о том, что сочетание целевых государственных программ и реформ цифровых финансов повышает эффективность системы кредитования МСБ.

Ключевые слова: *микро-, малый и средний бизнес; кредитование; Центральный банк; программы предпринимательства; проект “Махалля”; финтех; Silk Road Finance & Technology Forum; цифровые финансы; инвестиции; суверенный рейтинг.*

DYNAMICS OF MICRO, SMALL AND MEDIUM ENTERPRISE LENDING IN UZBEKISTAN: RESULTS FOR THE FIRST HALF OF 2026 ANALYSIS IN THE CONTEXT OF THE SILK ROAD FINANCE & TECHNOLOGY FORUM

Kalandarov Jamolbek Ravshonovich
Independent PhD researcher at TSUE,
Business Coordinator at JSCB “TBC Bank”
e-mail: jamolbekqalandarov@gmail.com
100100, Tashkent city, Uzbekistan
ORCID: 0009-0006-6868-771X

Annotation. *This article analyses the dynamics of lending to micro, small and medium enterprises (MSMEs) in Uzbekistan based on official statistical data of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan for the second quarter and January-July period of 2026. The purpose of the study is to examine MSME lending indicators in connection with the macroeconomic and institutional data presented at the Silk Road Finance & Technology Forum, held in Tashkent on 24-26 August 2026. The study employs comparative analysis and statistical grouping methods. The results show that in January-July 2026, MSMEs received loans totaling 90.3 trillion UZS (+19%), including 22.5 trillion UZS (+27%) under entrepreneurship support programs, of which the “Mahalla loyihasi” program accounted for 53%, growing by 38%. This dynamic is substantiated within the context of the country’s institutional stability - 8.5% GDP growth, USD 8.3 billion in foreign investment, and a sovereign credit-rating upgrade to Ba2 by Moody’s. It is concluded that the combination of targeted state programs and digital-finance reforms is increasing the efficiency of the MSME lending system.*

Keywords: *micro, small and medium enterprises; lending; Central Bank; entrepreneurship support programs; “Makhalla” program; fintech; Silk Road Finance & Technology Forum; digital finance; investment; sovereign rating.*

Kirish

Mikro, kichik va o’rta biznes subyektlari O’zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy jihatdan muhim qismini tashkil etib, ish o’rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega. So’nggi yillarda amalga oshirilgan bank-moliya tizimi islohotlari, xususan, tijorat banklarining kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish, davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash dasturlarining kengaytirilishi va raqamli moliya infratuzilmasining rivojlantirilishi MChBni kreditlash hajmining barqaror o’sishiga zamin yaratdi [1; 2].

Ayni paytda, O’zbekiston Markaziy banki tomonidan e’lon qilingan 2026-yil ikkinchi chorak va yanvar-iyul oylari statistik ma’lumotlari mamlakatda tadbirkorlikni kreditlash sohasidagi ijobiy tendentsiyalarni yaqqol namoyon etadi [1; 2]. Ushbu ko’rsatkichlarni tahlil qilish, ularni 2026-yil avgust oyida Toshkentda o’tkazilgan xalqaro miqyosdagi Silk Road Finance & Technology Forum doirasida taqdim etilgan makroiqtisodiy va institutsional ma’lumotlar bilan uyg’unlikda ko’rib chiqish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi [3; 6].

Zero, kreditlash dinamikasi alohida ko’rsatkich sifatida emas, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy islohotlar traektoriyasi, suveren kredit reytingining oshishi va raqamli moliya sohasidagi strategik maqsadlar kontekstida chuqurroq tushunilishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi - 2026-yil mikro, kichik va o’rta biznes subyektlarini kreditlash statistikasini forum materiallari asosidagi makroiqtisodiy kontekst bilan bog’lab tahlil qilish va ular o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari: 1) mikro, kichik va o’rta biznes subyektlarini kreditlash hajmi va o’sish sur’atlarini tahlil qilish; 2) tadbirkorlik dasturlari kesimidagi dinamikani baholash; 3) Silk Road Finance & Technology Forumda e’lon qilingan makroiqtisodiy ko’rsatkichlarni tizimlashtirish; 4) ikki ma’lumot to’plami o’rtasidagi institutsional bog’liqlikni asoslash.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi

Mikro, kichik va o’rta biznes subyektlarini kreditlashning iqtisodiy o’sishga ta’siri mavzusi xalqaro va milliy adabiyotlarda keng yoritilgan bo’lib, tadqiqotchilar tomonidan kichik biznesni moliyalashtirish imkoniyatlarining kengayishi ish o’rinlari yaratish, YAIM o’sishi va hududiy tengsizlikni kamaytirish bilan bog’liqligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan bozorlarda kreditlash dinamikasini faqat bank statistikasi asosida emas, balki institutsional muhit - suveren reyting, xorijiy investitsiyalar oqimi va raqamli moliya infratuzilmasi - kontekstida tahlil qilish tendentsiyasi kuchaymoqda. Mazkur tadqiqot ushbu yondashuvni O’zbekiston misolida amalga oshirishga qaratilgan.

Tadqiqotda ikkilamchi ma’lumotlarni tahlil qilish usulidan foydalanilgan. Asosiy ma’lumotlar manbai sifatida O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy infografik hisobotlari (#MarkaziyBankRaqamlarda rukni doirasida e’lon qilingan, 2026-yil ikkinchi chorak dastlabki ma’lumotlari hamda yanvar-iyul oylari yakuniy natijalari) [1; 2] hamda Silk Road Finance & Technology Forum 2026 tashkilotchilari - O’zbekiston Markaziy banki va Global Finance & Technology Network (GFTN) - tomonidan e’lon qilingan rasmiy matbuot materiallari [3; 6] qo’llanilgan. Qiyosiy tahlil, foiz o’sish sur’atlarini hisoblash va tematik guruhlash usullari asosida Mikro, kichik va o’rta biznes subyektlarini kreditlash tendentsiyalari umumiqtisodiy kontekstga bog’lab tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar

1. O’zbekistonda Mikro, kichik va o’rta biznes subyektlarini kreditlash dinamikasi: 2026-yil natijalari

O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma’lumotlariga ko’ra, 2026-yil yanvar-iyul oylarida mikro, kichik va o’rta biznes subyektlariga jami 90,3 trln so’m miqdorida kredit mablag’lari yo’naltirilgan. Bu ko’rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 19 foizga oshgan bo’lib, tijorat banklari tomonidan kichik biznesni moliyalashtirish salohiyatining izchil kengayib borayotganini tasdiqlaydi [1].

Davlat tomonidan qo’llab-quvvatlanadigan maqsadli tadbirkorlik dasturlari doirasida 2026-yil yanvar-iyul oylarida 22,5 trln so’m miqdorida kredit mablag’lari ajratilgan, bu esa 2025-yilning mos davriga nisbatan 27 foizga ko’p ko’rsatkichni tashkil etadi. Ushbu dinamika umumiy Mikro, kichik va o’rta biznes subyektlarini kreditlash o’sish sur’atidan (19%) yuqori bo’lib, davlat dasturlarining kreditlash tizimidagi ulushi va samaradorligi ortib borayotganidan dalolat beradi [2].

Tadbirkorlik dasturlari tarkibida eng katta ulush “Mahalla loyihasi” dasturiga to’g’ri kelmoqda - 12,0 trln so’m miqdorida kredit ajratilgan bo’lib, bu dasturlar doirasidagi jami kreditlarning 53 foizdan ortig’ini tashkil etadi. Ushbu yo’nalishda kreditlash hajmi bir yilda 38 foizga oshgan, bu esa mahalla darajasidagi tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash siyosatining eng samarali vosita sifatida shakllanayotganini ko’rsatadi [2].

Boshqa yo’nalishlar bo’yicha ham ijobiy o’sish kuzatilgan: “Biznesga birinchi qadam” dasturi 22 foizga, “Oilaviy tadbirkorlik” dasturi 11 foizga, “Kichik biznesni uzluksiz qo’llab-

quvvatlash” dasturi esa 18 foizga o’sgan [2]. Quyidagi 1-jadvalda MChBni kreditlash bo’yicha asosiy ko’rsatkichlar jamlangan.

1-jadval

O’zbekistonda MChBni kreditlash asosiy ko’rsatkichlari (2026-yil yanvar-iyul)

Ko’rsatkich	Hajmi	O’sish (2025 yilning mos davriga nisbatan)
Jami mikro, kichik va o’rta biznes subyektlariga ajratilgan kredit	90,3 trln so’m	+19%
Tadbirkorlik dasturlari doirasidagi kredit	22,5 trln so’m	+27%
- shu jumladan “Mahalla loyihasi”	12,0 trln so’m (53,24%)	+38%
“Biznesga birinchi qadam”	3,48 trln so’m (15,44%)	+22%
“Oilaviy tadbirkorlik”	3,53 trln so’m (15,66%)	+11%
“Kichik biznesni uzluksiz qo’llab-quvvatlash”	3,53 trln so’m (15,66%)	+18%

Manba: O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma’lumotlari [1;2] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2. Silk Road Finance & Technology Forum 2026: institutsional kontekst

2026-yil 24-26 avgust kunlari Toshkent shahrida O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Singapur Pul-kredit boshqarmasi (Monetary Authority of Singapore) tomonidan 2024-yilda tashkil etilgan notijorat tashkilot - Global Finance & Technology Network (GFTN) hamkorligida, shuningdek, Ant International hammezbonligida birinchi Silk Road Finance & Technology Forum tashkil etildi. Forum Central Asian Expo Uzbekistan (CAEx) va Islom Sivilizatsiyasi Markazi maydonlarida bo’lib o’tdi [3; 5].

Mazkur forumda 74 ta mamlakatdan 6 000 dan ortiq ishtirokchi, deyarli 200 nafar spiker hamda umumiy aktivlari 4 milliard AQSh dollaridan ortiq bo’lgan 25 dan ortiq investor qatnashdi. Tadbirning dastlabki ikki kuni (24-25 avgust kunlari) CAExda o’tkazilgan bo’lsa, uchinchi kuni ya’ni 26 avgust sanasida “The Azimuth” dasturi doirasida Islom Sivilizatsiyasi Markazida islom moliyasi va tadbirkorlikka bag’ishlangan alohida sessiyalar tashkil etildi [4].

Forumning kontseptual asosi “al-jabr” tushunchasiga - qismlarning yaxlit birlikka birlashishi g’oyasiga (bu atama “algebra” so’zining kelib chiqishiga asos bo’lgan) - tayanadi. Uch kunlik dastur besh strategik yo’nalish bo’yicha tashkil etildi: raqamli to’lovlar va infratuzilma; islom moliyasi va yangi yo’nalishlar; sun’iy intellekt va yangi texnologiyalar; tokenizatsiya va raqamli aktivlar; transchegaraviy moliya va tartibga solish [6].

Forum ochilishida O’zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o’rinbosari - Iqtisodiyot va moliya vaziri Jamshid Qo’chqorov mamlakatning iqtisodiy islohotlar bosqichini xalqaro sarmoyadorlar oldida taqdim etdi. Rasmiy ma’lumotlarga ko’ra, 2026-yilning birinchi yarmida O’zbekiston YAIMi 8,5 foizga o’sgan, birinchi chorakda esa mamlakatga 8,3 milliard AQSh dollari miqdoridagi xorijiy investitsiya jalb qilingan. 2026-yilning iyun oyida Moody’s reyting agentligi O’zbekistonning suveren kredit reytingini Ba2 darajasiga ko’tardi [4].

Bundan tashqari, forum davomida O’zbekiston Respublikasi Prezidentning PQ-359-sonli qarori va Milliy fintech strategiyasi asosida ochiq bankchilik, raqamli to’lovlar va moliyaviy innovatsiyalarni rivojlantirish yo’nalishlari e’lon qilindi. Unga ko’ra mamlakatga 2030-yilgacha fintech sohasiga 1 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb qilish maqsad qilingan.

Shuningdek, raqamli to’lovlardan foydalanish darajasi 2021-yildagi 39 foizdan 2025-yilga kelib 71 foizgacha o’sgani qayd etildi [4].

3. Kreditlash dinamikasi va forum ma’lumotlarining o’zaro bog’liqligi

Markaziy bankning mikro, kichik va o’rta biznes subyektlarini kreditlash bo’yicha statistik ko’rsatkichlari (90,3 trln so’m yoki 19% o’sishi) hamda forum doirasida e’lon qilingan makroiqtisodiy ma’lumotlar (YAIM 8,5% o’sishi, xorijiy investitsiyalar miqdori 8,3 mlrd. AQSH dollarga ko’payishi, suveren reyting Ba2 darajasiga ko’tarilishi) bir-birini to’ldiruvchi ikki tomonlama jarayonni aks ettiradi [1; 2; 4]. Bir tomondan, real sektordagi kreditlash hajmining o’sishi iqtisodiy faollikning yuqori sur’atlarda saqlanib qolishiga hissa qo’shsa, ikkinchi tomondan, mamlakatning institutsional barqarorligi va xalqaro reyting ko’rsatkichlarining yaxshilanishi bank tizimining resurs bazasini kengaytirish va kreditlash shartlarini yumshatish uchun qulay makroiqtisodiy muhit yaratadi. Milliy fintech strategiyasi doirasidagi ochiq bankchilik va raqamli to’lov infratuzilmasini rivojlantirish tashabbuslari, o’z navbatida, “Mahalla loyihasi” kabi maqsadli dasturlarning kreditlash jarayonlarini raqamlashtirish va ularning qamrovini kengaytirish uchun texnologik zamin yaratadi [2; 4].

O’tkazilgan tahlil shuni ko’rsatadiki, O’zbekistonda mikro, kichik va o’rta biznes subyektlarini kreditlash sohasidagi o’sish tasodifiy emas, balki bir necha omillarning uyg’unlashuvi natijasida yuzaga kelmoqda. Birinchidan, maqsadli davlat dasturlari (xususan, “Mahalla loyihasi”) umumiy kreditlash o’sish sur’atidan ancha yuqori dinamikaga ega bo’lib, bu davlatning tadbirkorlikni hududiy darajada qo’llab-quvvatlash siyosatining samaradorligini ko’rsatadi. Ikkinchidan, mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi (YAIM o’sishi, suveren reytingning oshishi) xalqaro va mahalliy moliya institutlarining kreditlash salohiyatini oshirishga ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda. Uchinchidan, Silk Road Finance & Technology Forum kabi xalqaro platformalar orqali e’lon qilingan raqamli moliya va fintech sohasidagi strategik maqsadlar kreditlash jarayonlarini texnologik jihatdan takomillashtirish, shu jumladan kredit berish muddatlarini qisqartirish va qamrovni kengaytirish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Shu bilan birga, kreditlash hajmining o’sishi bilan bir qatorda, kredit sifatini nazorat qilish, muddati o’tgan qarzlar darajasini kuzatish va bank tizimining barqarorligini ta’minlash masalalari alohida e’tiborni talab qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda mikro, kichik va o’rta biznes subyektlarini kreditlash sifatining tarmoq va hudud kesimidagi tahlili, shuningdek raqamli kreditlash platformalarining kredit qamrovini kengaytirishdagi roli chuqurroq o’rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

2026-yil yanvar-iyul oylari yakunlariga ko’ra, O’zbekistonda mikro, kichik va o’rta biznes subyektlarini kreditlash hajmi 90,3 trln so’mga yetib, o’tgan yilning mos davriga nisbatan 19 foizga oshdi. Tadbirkorlik dasturlari doirasidagi kreditlash 27 foizga, jumladan “Mahalla loyihasi” bo’yicha 38 foizga o’sgani davlat qo’llab-quvvatlovi mexanizmlarining samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu ijobiy dinamika 2026-yil avgust oyida Toshkentda o’tkazilgan Silk Road Finance & Technology Forumda taqdim etilgan makroiqtisodiy ko’rsatkichlar - YAIM o’sishi (8,5%), xorijiy investitsiyalar (8,3 mlrd. dollar) va suveren reyting yaxshilanishi (Ba2) - bilan uzviy bog’liq holda kechmoqda. Milliy fintech strategiyasi va PQ-359-sonli qaror asosida amalga oshirilayotgan raqamli moliya islohotlari kelgusida MChBni kreditlash tizimining yanada samarali va qamrovli bo’lishiga xizmat qiladi, bu esa O’zbekistonni Markaziy Osiyoda moliya-texnologiya sohasining mintaqaviy markaziga aylantirish strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar / Список литературы / References

1. O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Mikro, kichik va o’rta biznesni kreditlash qanday o’smoqda? 2026-yil II chorak dastlabki ma’lumotlari. Rasmiy infografika. Toshkent, 2026.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

2. O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tadbirkorlik dasturlari: kreditlash hajmi va o’sish dinamikasi. 2026-yil yanvar-iyul oylari natijalari. #MarkaziyBankRaqamlarda. Toshkent, 2026.

3. The Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Uzbekistan Launches the Silk Road Finance & Technology Forum to Anchor Central Asia’s FinTech Future: Press release, 11 June 2026. URL: https://cbu.uz/en/press_center/releases/3975955/ (murojaat sanasi: 01.09.2026).

4. Global Finance & Technology Network (GFTN). Uzbekistan Pushes for a More Connected and Competitive Central Asia: Press release, 24 August 2026. URL: https://gftn.co/press/uzbekistan-pushes-for-a-more-connected-and-competitive-central-asia (murojaat sanasi: 01.09.2026).

5. Silk Road Finance & Technology Forum. Official website: About, Programme. 2026. URL: https://www.silkroadfinancetechnologyforum.com (murojaat sanasi: 01.09.2026).

6. Arabian Reseller. Uzbekistan Unveils Next Phase of Financial Transformation at Tashkent Forum, 24 August 2026. URL: https://arabianreseller.com/2026/08/24/uzbekistan-unveils-next-phase-of-financial-transformation-at-tashkent-forum/ (murojaat sanasi: 01.09.2026).

7. Caspian Post. Tashkent to Host Silk Road Finance & Technology Forum, 13 June 2026. URL: https://caspianpost.com/uzbekistan/tashkent-to-host-silk-road-finance-technology-forum (murojaat sanasi: 01.09.2026).

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ILMIY ISHLANMALARNI TIJORATLASHTIRISHNING HUQUQIY BOSHQARUV ARXITEKTURASINI TAKOMILLASHTIRISH

Ergashev Rustam Rajabovich
Innovatsion rivojlanish agentligi
Tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i
E-mail: darkman_07@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni huquqiy boshqarishning yaxlit arxitekturasini shakllantirish masalalari tadqiq etilgan. Amaldagi intellektual mulk, shartnoma, moliyalashtirish va innovatsion faoliyat normalarining alohida qo‘llanishi ilmiy natijaning yaratilishidan bozor muomalasiga kirishigacha bo‘lgan jarayonda huquq, vakolat va javobgarlik uzluksizligini har doim ham ta’minlamasligi asoslangan. Tadqiqot natijasida besh pog‘onali huquqiy boshqaruv modeli taklif etilgan: maxsus qonun; qaror muddatlari va namunaviy hujjatlarni belgilovchi qonunosti tartiblar; oliy ta’lim va ilmiy tashkilotlarning ichki tijoratlashtirish siyosati; litsenziya, ulush va investitsiya munosabatlarini individuallashtiruvchi shartnomaviy mexanizmlar; raqamli reyestr va monitoring qoidalari. Maxsus tartibda ishlanmani oshkor qilish, huquq egaligini aniqlash, tijorat salohiyati bo‘yicha qaror, manfaatlar to‘qnashuvi, daromad taqsimoti, davlat mablag‘i hisobdorligi, litsenziyalash, spin-off, reyestr va nizolarni hal qilish masalalarini o‘zaro bog‘lash taklif qilingan. Arxitektura uzluksizlik, vakolat va javobgarlikning mosligi hamda huquqiy qarorlarning tekshiriluvchanligi tamoyillariga asoslangan. Qaror muddatini huquqiy tartibning texnik detali emas, balki tijoratlashtirish tezligiga bevosita ta’sir qiluvchi boshqaruv omili sifatida belgilash taklif etiladi. Model huquqiy aniqlikni oshirish, qaror vaqtini qisqartirish va tijoratlashtirish subyektlari javobgarligini aniq belgilashga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *ilmiy ishlanma, tijoratlashtirish, huquqiy arxitektura, intellektual mulk, litsenziyalash, manfaatlar to‘qnashuvi, daromad taqsimoti, innovatsion faoliyat.*

УЛУЧШЕНИЕ АРХИТЕКТУРЫ ПРАВОВОГО УПРАВЛЕНИЯ КОММЕРЦИАЛИЗАЦИЕЙ НАУЧНЫХ РАЗРАБОТОК

Эргашев Рустам Раджабович
начальник отдела развития коммерциализации и трансфера технологий Агентства инновационного развития
E-mail: darkman_07@mail.ru

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы формирования целостной архитектуры правового управления коммерциализацией научных разработок. Она основана на том факте, что раздельное применение действующих норм интеллектуальной собственности, договорного права, финансирования и инновационной деятельности не всегда обеспечивает непрерывность прав, полномочий и обязанностей в процессе от создания научного результата до его выхода на рынок. В результате исследования предложена пятиэтапная модель правового управления: специальный закон; подзаконные акты, устанавливающие сроки принятия решений, и типовые документы; внутренняя политика коммерциализации высших учебных и научных организаций; договорные механизмы, индивидуализирующие лицензионные, долевые и инвестиционные отношения; правила цифрового реестра и мониторинга. Предлагается в специальном порядке связать вопросы раскрытия информации о разработке, определения права собственности, принятия решения о коммерческом потенциале, конфликта интересов, распределения доходов, подотчетности государственных средств, лицензирования,*

выделения дочерних компаний, регистрации и разрешения споров. Архитектура основана на принципах преемственности, соответствия полномочий и ответственности, а также проверяемости правовых решений. Предлагается определять период принятия решения не как техническую деталь юридической процедуры, а как управленческий фактор, непосредственно влияющий на скорость коммерциализации. Модель направлена на повышение правовой определенности, сокращение времени принятия решения и четкое определение ответственности субъектов коммерциализации.

Ключевые слова: *научная разработка, коммерциализация, правовая архитектура, интеллектуальная собственность, лицензирование, конфликт интересов, распределение доходов, инновационная деятельность.*

IMPROVING THE LEGAL GOVERNANCE ARCHITECTURE FOR THE COMMERCIALIZATION OF RESEARCH DEVELOPMENTS

Rustam Rajabovich Ergashev

Head of the Department for Commercialization and Technology Transfer Development, Agency for Innovative Development,
E-mail: darkman_07@mail.ru

Abstract*. The article examines the development of an integrated legal governance architecture for research commercialization. It argues that fragmented rules on intellectual property, financing, contracts and innovation activities may not ensure continuity of rights, authority and accountability from the creation of a research result to a market transaction. A five-layer governance architecture is proposed: a dedicated legislative framework; subordinate procedures defining decision deadlines and standard documents; internal commercialization policies of universities and research institutions; contractual mechanisms governing licensing, equity and investment relations; and digital registry and monitoring rules. The proposed framework links research disclosure, determination of ownership, decisions on commercial potential, conflict-of-interest management, revenue distribution, accountability for public funding, licensing, spin-off arrangements, registry requirements and dispute resolution. The architecture is based on continuity, alignment of authority with responsibility, and the verifiability of legal decisions. Decision time is treated not merely as a procedural detail but as a management factor that can directly affect the speed of commercialization and private-sector participation. The model is designed to increase legal certainty, reduce decision delays and clarify accountability among actors involved in research commercialization while leaving transaction-specific economic terms to contractual arrangements.*

Keywords: *research development, commercialization, legal architecture, intellectual property, licensing, conflict of interest, revenue distribution, innovation policy.*

Kirish

Ilmiy ishlanmani bozor mahsuloti, xizmat yoki texnologiyaga aylantirishning deyarli har bir bosqichida huquqiy qaror mavjud: ilmiy natija kimga tegishli, uni qachon oshkor qilish mumkin, qaysi himoya rejimi tanlanadi, tashqi hamkor bilan qanday bitim tuziladi va daromad kimlar o‘rtasida qanday taqsimlanadi. Davlat mablag‘i ishlatilgan hollarda bu savollarga yaratilgan iqtisodiy qiymat ustidan hisobdorlik masalasi ham qo‘shiladi. Demak, huquqiy boshqaruv faqat yakuniy shartnoma tuzish bosqichi emas, balki ilmiy natijaning yaratilishidan tijorat natijasigacha davom etuvchi jarayondir.

O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunida tijoratlashtirish yangi ishlanmalarni foyda olish maqsadida fuqarolik muomalasiga kiritish jarayoni sifatida belgilangan [1]. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish

strategiyasi g‘oyadan yakuniy iste’molchigacha bo‘lgan kompleks tizimni shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [2]. 2026-yildagi huquqiy hujjatlar esa yangi ishlanmalar asosida ishlab chiqarish, spin-offlar va olim–tadbirkor hamkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shimcha institutsional asoslarni shakllantirdi [3], [4].

Biroq alohida huquqiy institutlarning mavjudligi ularning yagona tijoratlashtirish sikli sifatida ishlashini avtomatik ta’minlamaydi. Huquq egaligi, tijorat salohiyati, litsenziyalash, daromad taqsimoti va monitoring bir-biridan uzilgan holda tartibga solinsa, qarorlar kechikadi, xususiy sherikning tavakkali ortadi va manfaatlar to‘qnashuvi kuchayadi. Maqolaning maqsadi mazkur munosabatlarni yaxlit huquqiy boshqaruv arxitekturasi sifatida tizimlashtirish va uning asosiy qatlamlarini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Innovatsiyalar iqtisodiyotida huquqiy rejimning ahamiyati texnologiyadan qiymat olish imkoniyati bilan bog‘lanadi. Teece texnologik ustunlikning o‘zi yetarli emasligini, qiymatni o‘zlashtirish huquqiy rejim va to‘ldiruvchi aktivlarga ham bog‘liqligini ko‘rsatgan [5]. Jensen va Thursby universitet ishlanmalari ko‘pincha litsenziyalash vaqtida qo‘shimcha rivojlantirishni talab qilishini aniqlagan [6]; Thursby va Kemp esa universitetlar o‘rtasida litsenziyalash samaradorligi sezilarli farqlanishini ko‘rsatgan [7]. Bu natijalar litsenziya shartnomasi va institutsional tartiblarning texnologiyaning keyingi rivojiga bevosita ta’sirini ko‘rsatadi.

Siegel, Waldman va Link tashkiliy amaliyotlarning texnologiyalar transferi samaradorligiga ta’sirini empirik asoslagan [8]. Lach va Schankerman daromad taqsimoti bilan olimlarning rag‘batlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatgan [9]. Perkmann va hammualliflar universitet–sanoat munosabatlari litsenziyalashdan tashqari shartnomaviy tadqiqot, konsalting va qo‘shma loyihalarni ham qamrab olishini ta’kidlaydi [10], Baglieri, Baldi va Tucci esa TTO biznes-modellarining institutsional sharoitga qarab farqlanishini ko‘rsatgan [11].

Triple Helix va Open Innovation yondashuvlari universitet, biznes va davlat o‘rtasidagi bilim oqimlari kengaygani sari huquq, javobgarlik va maxfiylikni aniq belgilash zarurati kuchayishini ko‘rsatadi [12], [13]. WIPO texnologiyalar transferida intellektual mulk strategiyasi, litsenziyalash va muzokarani markaziy elementlar sifatida ko‘radi [14]. OECD, Oslo Manual, UNCTAD va Jahon banki materiallari ham davlat tadqiqotlarini iqtisodiyot bilan bog‘lashda institutsional aniqlik va natijalarni izchil kuzatish zarurligini ta’kidlaydi [15]–[18]. Shundan kelib chiqib, tijoratlashtirish huquqini patent huquqi bilan cheklamasdan, oshkor qilish, mulkiy huquqlar, maxfiylik, vakolat, davlat mablag‘i, litsenziyalash, investitsiya, daromad taqsimoti, monitoring va nizolarni yagona tizimda ko‘rish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda institutsional, tizimli, huquqiy-funksional va qiyosiy tahlil hamda kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlil obyekti ilmiy ishlanmaning yaratilishidan tijorat natijasi qayd etilguniga qadar yuzaga keladigan huquqiy boshqaruv munosabatlaridir. Model uch tamoyilga qurildi: uzluksizlik — bir bosqichdagi huquqiy qaror keyingi bosqich bilan bog‘lanadi; vakolat va javobgarlikning mosligi — qaror subyekti, muddati va mas’uliyati birgalikda belgilanadi; tekshiriluvchanlik — qarorlar keyinchalik tekshirish mumkin bo‘lgan hujjat va qaydda aks etadi.

Huquqiy tartibga solish besh qatlamga ajratildi: maxsus qonun, qonunosti protseduralari, tashkilotning ichki siyosati, shartnomaviy tartibga solish hamda raqamli reyestr va monitoring. Ko‘rsatkich va monitoring mantig‘ini shakllantirishda bilim transferi metrikalarini uyg‘unlashtirish bo‘yicha yondashuvlar [19] hamda innovatsion faoliyatni o‘lchash bo‘yicha ISO 56008:2024 tavsiyalari [20] metodologik tayanch sifatida qo‘llanildi. Maqola alohida xorijiy qonunchilik tizimlarini empirik qiyoslashni maqsad qilmaydi.

Tahlil va natijalar

Huquqiy fragmentatsiya muammosi

Tijoratlashtirishda zarur normalarning mavjudligi bilan ularning yagona jarayon sifatida ishlashi bir xil holat emas. Intellektual mulk huquqi mavjud bo‘lsa-da, ishlanmani kimga va qancha muddatda oshkor qilish tartibi belgilanmasa, huquqiy boshqaruv kechikadi. Daromad taqsimoti umumiy tartibda nazarda tutilgan bo‘lsa-da, muallif, ilmiy jamoa va tashkilot ulushi oldindan aniq bo‘lmasa, bitim bosqichida ichki nizo yuzaga keladi. Shu sababli vazifa yangi normalar sonini ko‘paytirish emas, zarur normalarni birinchi huquqiy qarordan yakuniy iqtisodiy voqeagacha yagona ketma-ketlikka ulashdir.

Besh pog‘onali huquqiy boshqaruv arxitekturasi

1-jadval.

Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishning besh pog‘onali huquqiy arxitekturasi*

Daraja	Tartibga solish predmeti	Asosiy vazifa
I. Maxsus qonun	Umumiy prinsiplar, subyektlar, huquq va javobgarlik	Yagona huquqiy asos
II. Qonunosti tartiblar	Muddatlar, protseduralar, namunaviy hujjatlar	Qonunni amaliy jarayonga aylantirish
III. Ichki siyosat	Vakolatlar, ichki qarorlar, mualliflar bilan munosabat	Institutsional aniqlik
IV. Shartnomaviy qatlam	Litsenziya, ulush, investitsiya va boshqa bitimlar	Munosabatlarni individuallashtirish
V. Reyestr va monitoring	Qaror, hujjat, bitim va natijalarni kuzatish	Hisobdorlik va tekshiriluvchanlik

*Muallif ishlanmasi

Modelda har bir daraja boshqa qatlamni almashtirmaydi: qonun majburiy prinsip va javobgarlikni, qonunosti hujjati bajarish protsedurasini, ichki siyosat tashkilotdagi vakolatni, shartnoma aniq tomonlar munosabatini, reyestr esa qaror va natija tarixini belgilaydi.

Maxsus huquqiy tartibning asosiy bloklari

2-jadval.

Maxsus huquqiy tartibda nazarda tutilishi lozim bo‘lgan munosabatlar*

Blok	Asosiy huquqiy savol
Ishlanmani oshkor qilish	Yangi natija haqida kim, kimga va qanday tartibda xabar beradi?
Huquq egaligi	Mulkiy huquq kimga tegishli va u qanday tasdiqlanadi?
Tijorat salohiyati	Qarorni kim va qancha muddatda qabul qiladi?
Manfaatlar to‘qnashuvi	Manfaatlar qanday oshkor qilinadi va boshqariladi?
Daromad taqsimoti	Tijorat daromadi ishtirokchilar o‘rtasida qanday taqsimlanadi?
Davlat mablag‘i	Davlat resursi hisobidan yaratilgan qiymat bo‘yicha qanday hisobdorlik bo‘ladi?
Litsenziyalash	Huquqdan foydalanish shartlari qanday belgilanadi?
Spin-off	Intellektual mulk va ulush munosabatlari qanday tartibga solinadi?
Reyestr	Qaysi qaror va iqtisodiy voqealar qayd etiladi?
Nizolar	Kelishmovchiliklar qaysi mexanizm orqali hal etiladi?

*Muallif ishlanmasi

Mazkur bloklar o‘zaro bog‘liq: daromad taqsimoti huquq egaligiga, litsenziyalash mulkiy huquqning aniqligiga, spin-offga ulush kiritish aktivning huquqiy maqomiga, davlat hisobdorligi esa tekshiriladigan natija qaydiga tayanadi.

Oshkor qilish, huquq egaligi va qaror muddati

Disclosure tijoratlashtirish huquqiy tizimining boshlang‘ich protsedurasi bo‘lishi kerak. Unda ilmiy natija mazmuni, mualliflar, yaratilish va moliyalashtirish manbasi, mavjud shartnomaviy majburiyatlar, avvalgi ochiq e’lonlar va intellektual mulk hujjatlari qayd etiladi. Bu hujjat keyinchalik mualliflik, huquq rejimi va uchinchi tomon majburiyatlarini tekshirish uchun boshlang‘ich dalil bo‘lib xizmat qiladi.

Potensial hamkor uchun asosiy savollardan biri texnologiyani berishga kim vakolatli ekanidir. Shu sababli huquq egaligini aniqlash faqat yuridik xulosa emas, tijoratlashtirish tezligiga ta’sir qiluvchi boshqaruv omilidir. Vakolatli subyekt, talab etiladigan hujjatlar, tekshirish mezoni, qaror muddati va rasmiylashtirish shakli oldindan belgilanishi lozim. Huquq mavjud bo‘lsa-yu, qaror bir necha oy cho‘zilsa, bu xususiy sektor uchun amaliy to‘siqqa aylanadi.

Manfaatlar to‘qnashuvi, daromad va davlat hisobdorligi

Tijoratlashtirishda olim bir vaqtning o‘zida ilmiy tashkilot xodimi va ishlanma asosidagi korxona ta’sischisi bo‘lishi mumkin. Bunday holatning o‘zi huquqbuzarlik emas; xavf manfaat oshkor qilinmaganda va qaror jarayoni boshqarilmaganda yuzaga keladi. Shu sababli manfaatni oshkor qilish, manfaatdor shaxsni tegishli qarordan cheklash, mustaqil baholash va zarur hollarda kollegial ko‘rib chiqish mexanizmlari oldindan belgilanadi.

Daromad taqsimoti ham motivatsion-huquqiy vositadir. Olimning rag‘bati, ilmiy jamoa manfaatlari va tashkilotning laboratoriya, patentlash, yuridik hamda tijoratlashtirish xarajatlarini qayta moliyalashtirish ehtiyoji muvozanatlashtirilishi kerak. Eng muhim shart — taqsimot qoidasi bitimdan keyin emas, oldindan ma’lum bo‘lishi. Davlat mablag‘i hisobidan yaratilgan ishlanmalarda esa hisobdorlik har bir operatsiyaga ma’muriy aralashuv orqali emas, berilgan huquq, kontragent, iqtisodiy majburiyat, to‘lov va keyingi xususiy mablag‘ kabi tekshiriladigan ma’lumotlar orqali ta’minlanishi maqsadga muvofiq.

Qonunosti tartiblar, ichki siyosat va shartnomaviy qatlam

Maxsus qonun barcha tijorat bitimlarining iqtisodiy shartlarini belgilamasligi kerak. Uning vazifasi kritik noaniqliklarga umumiy va majburiy javob berishdir. Qonunosti tartiblar esa disclosure shakli, huquq egaligini aniqlash, tijorat salohiyatini ko‘rib chiqish, manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish, qaror muddatlari, minimal shartnomaviy talablar va reyestrga ma’lumot kiritish kabi protseduralarni standartlashtiradi. Namunaviy hujjatlar minimal standart bo‘lib, turli texnologiyalarni bir xil iqtisodiy shartlarga majburlamasligi lozim.

Tashkilotning ichki tijoratlashtirish siyosati milliy huquq bilan kundalik boshqaruv o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldiradi: kim ishlanmani qabul qiladi, dastlabki tekshiruvni bajaradi, qaysi qarorni kim qabul qiladi, muallif bilan munosabat va maxfiylik qanday yuritiladi. Shartnomaviy qatlam esa litsenziya, investitsiya yoki ulush bitimlarida hudud, muddat, eksklyuzivlik, to‘lov, rivojlantirish majburiyati, maxfiylik va javobgarlikni aniq holatga moslashtiradi. Demak, qonun shartnomani almashtirmaydi, balki uni tuzish uchun huquqiy aniqlik yaratadi.

Reyestr, monitoring va nizolar

Raqamli reyestr statistik ombor bilangina cheklanmasdan, huquqiy qarorlar izini saqlaydigan infratuzilma bo‘lishi kerak. Unda ishlanmaning oshkor qilinishi, huquq egaligi, tijorat qarori, bitim, qo‘llab-quvvatlash chorasi va iqtisodiy natijaning sanasi hamda dalili qayd etiladi. Bunday tarix audit yoki nizoda daliliy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga “tijoratlashtirildi” kabi status qaysi hujjat yoki iqtisodiy voqea asosida qo‘yilishi oldindan aniq bo‘lishi zarur; aks holda raqamlashtirish eski noaniqlikni elektron shaklga ko‘chiradi.

Ko‘p subyektli tijoratlashtirishda nizolarni butunlay yo‘q qilish mumkin emas. Mualliflik, mulkiy huquq, litsenziya, daromad, maxfiylik va korporativ manfaatlar bo‘yicha nizolar uchun

ichki ko‘rib chiqish, muzokara va qonunchilikda nazarda tutilgan himoya vositalari izchil bog‘lanishi lozim. Muhim prinsip — tomonlar nizo yuzaga kelgandan keyin emas, bitim tuzilayotganda uni hal qilish mexanizmini bilishi.

Taklif etilgan arxitektura “ko‘proq qonun — ko‘proq tijoratlashtirish” degan oddiy bog‘liqlikka asoslanmaydi. Ortiqcha normalar, komissiyalar va kelishuv bosqichlari tranzaksiya xarajatini oshirishi mumkin. Shu sababli har bir yangi talab “u bitimdagi qaysi aniq riskni kamaytiradi?” mezoni bilan baholanishi kerak. Qonun umumiy prinsip va minimal majburiy qoidalarni belgilaydi, farmatsevtik ishlanma, dasturiy mahsulot yoki muhandislik texnologiyasining konkret iqtisodiy shartlari esa shartnoma darajasida qoladi.

Ikkinchi muhim masala — davlat, ilmiy tashkilot va tadqiqotchi manfaatlari muvozanati. Huquqiy model olim rag‘batini saqlashi, shu bilan birga tashkilot va davlat yaratgan infratuzilma manfaatini ham himoya qilishi kerak. Qaror muddati ham texnik detal emas: investor huquqiy qarorni uzoq kutsa, bozor imkoniyati yo‘qolishi mumkin. Maxsus qonun mavjud huquq institutlarini almashtirmasdan, ularning tijoratlashtirish siklidagi qo‘llanish nuqtalarini bog‘lashi lozim.

Xulosa

Tadqiqot ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni faqat intellektual mulk yoki yakuniy shartnoma orqali tartibga solish yetarli emasligini ko‘rsatdi. Huquqiy qarorlar ishlanmani oshkor qilishdan tijorat natijasini qayd etishgacha yagona jarayonda bog‘lanishi kerak. Shu maqsadda maxsus qonun, qonunosti protseduralari, tashkilot ichki siyosati, shartnomaviy mexanizmlar hamda raqamli reyestr va monitoringdan iborat besh pog‘onali arxitektura taklif etildi.

Maxsus tartibning vazifasi huquq egaligi, qaror vakolati va muddati, manfaatlar to‘qnashuvi, daromad taqsimoti, davlat hisobdorligi, litsenziyalash, spin-off, reyestr va nizolar bo‘yicha kritik noaniqliklarni kamaytirishdir. Daromad va manfaatlar to‘qnashuvi qoidalari oldindan belgilanib, iqtisodiy shartlar shartnomada individuallashtirilishi lozim. Reyestr qaror va iqtisodiy voqealarning tekshiriladigan tarixini saqlashi kerak. Huquqiy boshqaruvning asosiy mezoni hujjatlar soni emas, huquq, vakolat, muddat va javobgarlik uzluksizligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi, “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida,” O‘RQ-630-son Qonun, 2020-yil 24-iyul.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida,” PF-165-son Farmon, 2022-yil 6-iyul.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, “Mamlakatda yangi ishlanmalar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish tizimini joriy qilish hamda ilm-fanni qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida,” PF-54-son Farmon, 2026-yil 4-aprel.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, “Tadbirkorlik subyektlari hamda ilmiy hamjamiyat o‘rtasida o‘zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida,” 75-son qaror, 2026-yil 23-fevral.

5. D. J. Teece, “Profiting from technological innovation: Implications for integration, collaboration, licensing and public policy,” Research Policy, vol. 15, no. 6, pp. 285–305, 1986, doi: 10.1016/0048-7333(86)90027-2.

6. R. Jensen and M. Thursby, “Proofs and prototypes for sale: The licensing of university inventions,” American Economic Review, vol. 91, no. 1, pp. 240–259, 2001.

7. J. G. Thursby and S. Kemp, “Growth and productive efficiency of university intellectual property licensing,” Research Policy, vol. 31, no. 1, pp. 109–124, 2002.

8. D. S. Siegel, D. A. Waldman, and A. N. Link, “Assessing the impact of organizational practices on the relative productivity of university technology transfer offices,” Research Policy, vol. 32, no. 1, pp. 27–48, 2003.

9. S. Lach and M. Schankerman, “Incentives and invention in universities,” RAND

Journal of Economics, vol. 39, no. 2, pp. 403–433, 2008.

10. M. Perkmann, V. Tartari, M. McKelvey et al., “Academic engagement and commercialisation: A review of the literature on university–industry relations,” Research Policy, vol. 42, no. 2, pp. 423–442, 2013.

11. D. Baglieri, F. Baldi, and C. L. Tucci, “University technology transfer office business models: One size does not fit all,” Technovation, vols. 76–77, pp. 51–63, 2018, doi: 10.1016/j.technovation.2018.05.003.

12. H. Etzkowitz and L. Leydesdorff, “The dynamics of innovation: From National Systems and ‘Mode 2’ to a Triple Helix of university–industry–government relations,” Research Policy, vol. 29, no. 2, pp. 109–123, 2000.

13. H. W. Chesbrough, Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology. Boston, MA, USA: Harvard Business School Press, 2003.

14. World Intellectual Property Organization, Knowledge and Technology Transfer: From Lab to Market. Geneva, Switzerland: WIPO.

15. OECD, Commercialising Public Research: New Trends and Strategies. Paris, France: OECD Publishing, 2013.

16. OECD/Eurostat, Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation, 4th ed. Paris, France: OECD Publishing, 2018, doi: 10.1787/9789264304604-en.

17. UNCTAD, Science, Technology and Innovation Parks in Uzbekistan: Assessment and Policy Issues. Geneva, Switzerland: United Nations Conference on Trade and Development, 2024.

18. World Bank, Uzbekistan: Modernizing Uzbekistan National Innovation System Project (P170206), Restructuring Paper. Washington, DC, USA: World Bank, Mar. 30, 2026.

19. A. Campbell, C. Cavalade, C. Haunold, P. Karanikic, and A. Piccaluga, Knowledge Transfer Metrics: Towards a European-wide Set of Harmonised Indicators. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2020, doi: 10.2760/907762.

20. International Organization for Standardization, ISO 56008:2024 Innovation Management — Tools and Methods for Innovation Operation Measurements — Guidance. Geneva, Switzerland: ISO, 2024.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

VENCHUR KAPITAL JALB ETISH SAMARADORLIGI INDEKSI (VKJSI): DAVLAT VA XUSUSIY KAPITAL MULTIPLIKATIV SAMARADORLIGINI BAHOLASH MODELI

Sulaymonov Iskandar Boxodir o‘g‘li

TDIU “Kapital bozori va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasi assistenti
Email: i.sulaymonov@tsue.uz
ORCID: 0009-0006-3033-7351

Annotatsiya. *Ushbu maqolada davlat va xususiy venchur kapitali o‘rtasidagi multiplikativ samaradorlikni o‘lchaydigan kompozit indeks – Venchur Kapital Jalb etish Samaradorligi Indeksi (VKJSI) – taqdim etiladi. Model kompozit indikator qurish metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, uch komponent – kapital multiplikatori, portfel qiymati ko‘paytiruvchisi va miqyos koeffitsienti – orqali venchur fondlarining ekotizimga ta‘sirini ko‘p qirrali baholash imkonini beradi. Model O‘zbekistondagi korporativ venchur fondi portfelining moliyaviy samaradorligini baholashda amaliy sinovdan o‘tkazilgan.*

Kalit so‘zlar: *VKJSI, kompozit indeks, venchur kapital, multiplikativ samaradorlik, davlat-xususiy sheriklik, portfel bahosi, katalitik kapital.*

ИНДЕКС ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ВЕНЧУРНОГО КАПИТАЛА (ИЭПВК): МОДЕЛЬ ОЦЕНКИ МУЛЬТИПЛИКАТИВНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННОГО И ЧАСТНОГО КАПИТАЛА

Сулаймонов Искандар Боходир угли

ассистент кафедры «Рынок капитала и финансовые технологии» ТГЭУ
Email: i.sulaymonov@tsue.uz
ORCID: 0009-0006-3033-7351

Аннотация. *В данной статье представлен композитный индекс – Индекс эффективности привлечения венчурного капитала (ИЭПВК), – измеряющий мультипликативную эффективность взаимодействия государственного и частного венчурного капитала. Модель разработана на основе методологии построения композитных индикаторов и включает три компонента: мультипликатор капитала, коэффициент прироста стоимости портфеля и коэффициент масштаба, что позволяет всесторонне оценить влияние венчурных фондов на экосистему. Модель прошла практическую апробацию при оценке финансовой эффективности портфеля корпоративного венчурного фонда в Узбекистане.*

Ключевые слова: *ИЭПВК, композитный индекс, венчурный капитал, мультипликативная эффективность, государственно-частное партнёрство, оценка портфеля, катализирующий капитал.*

VENTURE CAPITAL ATTRACTION EFFICIENCY INDEX (VCAEI): A MODEL FOR ASSESSING THE MULTIPLICATIVE EFFICIENCY OF PUBLIC AND PRIVATE CAPITAL

Sulaymonov Iskandar Bokhodir ugli

Assistant, Department of Capital Markets and Financial Technologies, TSUE

Email: i.sulaymonov@tsue.uz
ORCID: 0009-0006-3033-7351

Abstract. *This article introduces a composite index – the Venture Capital Attraction Efficiency Index (VCAEI) – that measures the multiplicative efficiency between public and private venture capital. Built on composite-indicator construction methodology, the model comprises three components – a capital multiplier, a portfolio value multiplier, and a scale coefficient – enabling a multidimensional assessment of a venture fund's ecosystem impact. The model was empirically tested by evaluating the financial performance of a corporate venture capital fund's portfolio in Uzbekistan.*

Key words: *VCAEI, composite index, venture capital, multiplicative efficiency, public-private partnership, portfolio valuation, catalytic capital.*

Kirish

Venchur ekotizimlarining muvaffaqiyati alohida ko‘rsatkichlar emas, balki kapital, iste‘dod, bozor va siyosatning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasi ekanligi ilmiy adabiyotda keng tan olingan [1]. Biroq amaliyotda davlat va xususiy kapitalning venchur ekotizimidagi birgalikdagi samaradorligini o‘lchaydigan yagona, standartlashtirilgan ko‘rsatkich mavjud emas – fondlar odatda faqat moliyaviy daromadlilik ko‘rsatkichlari (IRR, TVPI) orqali baholanadi, bu esa ularning ekotizimga bergan kengroq institutsional hissasini aks ettirmaydi.

Rivojlanayotgan bozorlarda ushbu bo‘shliq yanada sezilarli, chunki davlat ishtirokidagi venchur institutlari (fondlar fondi, davlat venchur dasturlari) xususiy kapitalni jalb qilish uchun katalitik mexanizm sifatida ishlatiladi, biroq bu katalitik ta‘sirning miqdoriy o‘lchovi kamdan-kam ishlab chiqiladi [2]. O‘zbekistonda venchur ekotizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib, davlat ishtirokidagi institutlarning roli tobora ortib bormoqda [3], bu esa ularning samaradorligini o‘lchash zaruriyatini yanada dolzarblashtiradi.

Tadqiqotning maqsadi – davlat va xususiy kapital ishtirokidagi venchur fondlarining multiplikativ samaradorligini o‘lchaydigan kompozit indeks (VKJSI) ishlab chiqish va uni O‘zbekistondagi korporativ venchur fondi portfelining moliyaviy samaradorligini baholashda amaliy sinovdan o‘tkazishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Venchur kapital jozibadorligini baholash uchun kompozit indeks qurish tajribasi xalqaro amaliyotda allaqachon mavjud – Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari uchun ishlab chiqilgan venchur va xususiy kapital jozibadorligi indeksi besh xil agregatsiya usuli orqali hisoblab chiqilib, natijalar barqaror mamlakat reytinglarini bergan [4]. Venchur kapitalning innovatsiyaga ta‘sirini o‘lchashda bosh komponentlar tahlili (PCA) metodologiyasidan foydalanilgan tadqiqotlar ham venchur indeksi qurishning muqobil yondashuvlarini namoyish etadi [5]. Kompozit indikator qurishning umumiy metodologik asoslari OECD/JRC qo‘lanmasida batafsil bayon etilgan bo‘lib, unda normalizatsiya, vaznlash va agregatsiya bosqichlari standartlashtirilgan [6].

Katalitik kapital nazariyasi davlat yoki konsessional kapitalning xususiy investitsiyalarni “jalb qilish” (crowding-in) mexanizmini o‘rganadi – bunday kapital an‘anaviy tijorat kapitaliga nisbatan ko‘proq sabr-toqatli va xavfga chidamli bo‘lib, uning maqsadi qo‘shimcha xususiy investitsiyalarni safarbar qilishdir [7]. Katalitik kapitalning muvaffaqiyati ko‘pincha uning multiplikativ ta‘siri – har bir davlat dollariga jalb etilgan xususiy dollarlar nisbati – orqali baholanadi [8], biroq bu yondashuv rivojlanayotgan bozor venchur fondlariga alohida moslashtirilgan holda kamdan-kam qo‘llanilgan.

Mavjud adabiyotdagi bo‘shliq shundan iboratki, kompozit indeks qurish metodologiyasi va katalitik kapital nazariyasi alohida-alohida rivojlangan bo‘lib, ularni birlashtiruvchi, davlat-xususiy sheriklikka asoslangan aynan venchur fondlari darajasida qo‘llaniladigan amaliy indeks ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqot ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

VKJSI kompozit indikator qurish metodologiyasiga muvofiq uch komponentdan tashkil topadi [6]: (1) kapital multiplikatori – jalb qilingan xususiy va institutsional kapitalning davlat/asos soluvchi kapitalga nisbati; (2) portfel qiymati ko‘paytiruvchisi – portfelning joriy iqtisodiy bahosining sarmoyalangan kapitalga nisbati; (3) miqyos koeffitsienti – moliyalashtirilgan startaplar sonining sarmoyalangan kapital hajmiga nisbati.

Har bir komponent min-max normalizatsiya usuli orqali 0–1 oralig‘iga keltirildi va geometrik agregatsiya usuli orqali birlashtirildi – bu usul to‘liq kompensatsiyalanishni cheklab, VKJSI‘ning barcha uch o‘lchov bo‘yicha muvozanatli samaradorlikni talab qilishini ta‘minlaydi. Model amaliyotga tatbiq etilishi uchun O‘zbekistondagi “Aloqabank” AT tarkibidagi “AloqaVentures” korporativ venchur fondining to‘liq portfel ma‘lumotlari tahlil qilindi.’ Ushbu uchta komponent maxsus tanlangan, chunki ular venchur fondining ekotizimga ta’sirini uch xil darajada – institutsional hamkorlik (kapital multiplikatori), moliyaviy natijadorlik (portfel qiymati ko‘paytiruvchisi) va startap ekotizimini kengaytirish (miqyos koeffitsienti) – birgalikda aks ettiradi, bu esa faqat bitta o‘lchov (masalan, IRR yoki TVPI) asosida baholashga xos bo‘lgan bir tomonlama xulosalarning oldini oladi. Tahlil uchun 2021–2026-yillarni qamrab olgan fondning barcha tarixiy bitim ma’lumotlari yig‘ma (agregat) shaklda ishlatildi, negaki fondning nisbatan qisqa faoliyat davri yillik kesimda statistik jihatdan ishonchli tendensiyani aniqlash uchun yetarli emas.

Tahlil natijalari

Model "AloqaVentures" korporativ venchur fondining to‘liq portfel ma’lumotlari asosida sinovdan o‘tkazildi. Quyida keltirilgan ko‘rsatkichlar VKJSI’ning uchta komponentini hisoblash uchun xom (raw) ma’lumot bazasini tashkil etadi – ular avvalo tavsifiy tarzda taqdim etiladi, so‘ngra 2-bo‘limda tavsiflangan normalizatsiya va agregatsiya jarayoni orqali yakuniy kompozit indeksga aylantiriladi.

1-jadval

VKJSI komponentlari uchun asos bo‘lgan “AloqaVentures” portfel ko‘rsatkichlari[9]

Ko‘rsatkich	Qiymat	Izoh
Sarmoyalangan kapital	6,3 mln. AQSh $	Fond platformasi
Portfel iqtisodiy bahosi	314,8 mln. AQSh $	Joriy baho
Moliyalashtirilgan startaplar	53 ta	Portfel hajmi
Portfel qiymati ko‘paytiruvchisi	≈50x	314,8 / 6,3
Maqsadli TVPI (1-fond)	3–5x	Rejalashtirilgan

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, portfel qiymati ko‘paytiruvchisining hisoblangan qiymati (≈50x) fondning maqsadli TVPI ko‘rsatkichidan (3–5x) sezilarli darajada yuqori bo‘lib chiqdi. Bu tafovutni to‘g‘ri talqin qilish muhim: 50x ko‘rsatkich portfelning joriy, realizatsiya qilinmagan (paper) bahosini aks ettiradi, TVPI esa odatda amalga oshirilgan yoki qisman realizatsiya qilingan qiymatlarga asoslanadi. Shuningdek, jadvalda keltirilgan 53 ta moliyalashtirilgan startap ko‘rsatkichi fondning portfel diversifikatsiyasi darajasini aks ettiradi – bu son keyingi bo‘limda miqyos koeffitsientini hisoblash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Sarmoyalangan kapital (6,3 mln. AQSh dollari) va portfel bahosi (314,8 mln. AQSh dollari) o‘rtasidagi nisbat esa VKJSI’ning portfel qiymati ko‘paytiruvchisi komponentini shakllantiruvchi asosiy xom ma’lumot bo‘lib xizmat qiladi.



1-rasm. “AloqaVentures” portfelida sarmoyalangan kapital va portfel iqtisodiy bahosi nisbati[9]

Rasmda aks ettirilgan logarifmik miqyosdagi taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, 6,3 mln. AQSh dollarlik dastlabki sarmoya 314,8 mln. AQSh dollarlik portfel bahosini shakllantirgan – bu venchur moliyalashtirishning kichik dastlabki kapital orqali ancha yirik iqtisodiy qiymat yaratish salohiyatini yaqqol namoyish etadi. Miqyos koeffitsienti bo‘yicha, 6,3 mln. AQSh dollari sarmoya 53 startapga taqsimlangani – o‘rtacha bitim hajmi taxminan 119 ming AQSh dollarini tashkil etib, bu ko‘rsatkich fondning erta bosqich loyihalariga ustuvorlik berish strategiyasini tasdiqlaydi.

Bu topilma katalitik kapital nazariyasi bilan mos keladi – davlat yoki asos soluvchi kapitalning muvaffaqiyati faqat o‘z moliyaviy daromadliligi bilan emas, balki qo‘shimcha xususiy kapitalni safarbar qilish va startap ekotizimining kengligini ta‘minlash qobiliyati bilan ham belgilanadi [7]. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan bozorlarda venchur investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga ta‘siri kechiktirilgan xususiyatga ega ekanligini hisobga olganda muhim ahamiyat kasb etadi [11] – VKJSI kabi indekslar siyosatchilarga qisqa muddatli moliyaviy ko‘rsatkichlardan tashqari, uzoq muddatli ekotizim ta‘sirini ham kuzatish imkonini beradi.

Normalizatsiya formulasi va yakuniy indeks hisob-kitobi

Har bir xom ko‘rsatkich x uchun normallashtirilgan qiymat quyidagi min-max formula orqali hisoblanadi: x’ = (x − x_min) / (x_max − x_min), bunda x_min va x_max mos komponent uchun belgilangan bazaviy (benchmark) chegaralarni bildiradi. Yakuniy VKJSI qiymati esa uchta normallashtirilgan komponentning geometrik o‘rtachasi sifatida hisoblanadi: VKJSI = (CM’ × PVM’ × SC’)^(1/3), bunda CM’, PVM’ va SC’ – mos ravishda kapital multiplikatori, portfel qiymati ko‘paytiruvchisi va miqyos koeffitsientining normallashtirilgan qiymatlari.

Yagona fond ma‘lumotlari asosida min-max normalizatsiya o‘tkazish metodologik jihatdan muhim cheklovni keltirib chiqaradi: x_min va x_max qiymatlarini aniqlash uchun odatda bir nechta fondning qiyosiy ma‘lumotlari talab qilinadi. O‘zbekiston venchur bozorida bunday qiyosiy ma‘lumotlar bazasi hali shakllanmagani sababli, ushbu tadqiqotda xalqaro amaliyotda qabul qilingan andoza (benchmark) qiymatlar vaqtinchalik chegara sifatida qo‘lanildi: kapital multiplikatori uchun 0 (qo‘shma investitsiya yo‘q) dan 1 (barcha bitimlar qo‘shma investitsiya asosida) gacha; portfel qiymati ko‘paytiruvchisi uchun 1x (breakeven) dan 10x (yetakchi kvartil fond natijasi) gacha; miqyos koeffitsienti uchun 1 dan 10 startapgacha (har 1 mln. AQSh dollar sarmoyaga).

Kapital multiplikatori komponenti uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy ko‘rsatkich mavjud emasligi sababli, qo‘shma investitsiya ishtirokining bitimlar soniga nisbati proksi ko‘rsatkich sifatida qo‘llanildi: fondning 42 bitimidan 20 tasi (“IT Park Ventures”, “UzVC”, “DOMiNO Ventures” va “Sturgeon Capital” bilan) institutsional hamkorlar ishtirokida amalga oshirilgan, bu CM’ = 20/42 = 0,476 qiymatini beradi. Portfel qiymati ko‘paytiruvchisi – 314,8/6,3 ≈ 50x –

yuqorida belgilangan 1–10x oralig‘idan sezilarli darajada oshib ketgani sababli, PVM’ qiymati normalizatsiya shkalasi bo‘yicha yuqori chegarada (1,000) kesib qo‘yildi – bu amaliyot kompozit indikatorlar metodologiyasida ekstremal qiymatlarning yakuniy indeksni nomutanosib darajada egib yubormasligini ta‘minlash uchun standart yondashuv hisoblanadi. Miqyos koeffitsienti – 53 startap / 6,3 mln. AQSh dollari ≈ 8,41 startap/mln. – belgilangan chegarada SC’ = 0,820 qiymatini beradi.



2-rasm. VKJSI komponentlarining normallashtirilgan qiymatlari (muallif hisob-kitoblari)

Uchta normallashtirilgan komponentni geometrik o‘rtacha formulasiga qo‘yish natijasida VKJSI = (0,476 × 1,000 × 0,820)^(1/3) = (0,390)^(1/3) ≈ 0,730 qiymati olindi. 0 dan 1 gacha bo‘lgan shkalada 0,730 ko‘rsatkichi fondning venchur kapital jalb etish samaradorligi yuqori, biroq maksimal darajaga yetmagan holatda ekanligini ko‘rsatadi – bu, birinchi navbatda, kapital multiplikatori komponentining nisbatan past qiymati (0,476) bilan bog‘liq, ya‘ni fond bitimlarining yarmidan sal ko‘prog‘i hali institutsional hamkorlarsiz, mustaqil ravishda amalga oshirilmoqda.

Sezuvchanlik tahlili

Kompozit indikatorlarning ishonchliligi ko‘p jihatdan tanlangan normalizatsiya chegaralari va agregatsiya usuliga bog‘liq bo‘lib, bu omillarning yakuniy indeksga ta‘sirini tekshirish kompozit indeks qurish metodologiyasining ajralmas qismi hisoblanadi [12]. VKJSI uchun ikkita asosiy sezuvchanlik stsenariysi ko‘rib chiqildi. Birinchidan, portfel qiymati ko‘paytiruvchisi uchun yuqori chegara 5x yoki 10x sifatida belgilanishidan qat‘iy nazar, fondning haqiqiy ko‘rsatkichi (≈50x) ikkala holatda ham shkaladan tashqariga chiqib, PVM’ = 1,000 qiymatida qoladi – bu komponent bo‘yicha natija chegara tanloviga nisbatan barqaror ekanligini bildiradi.

Ikkinchidan, kapital multiplikatori proksi ko‘rsatkichi (qo‘shma bitimlar ulushi) o‘rniga gipotetik ravishda kapital hajmiga asoslangan nisbat qo‘llanilganda natija farq qilishi mumkin, chunki qo‘shma bitimlar odatda kattaroq kapital talab qiladigan keyingi bosqich loyihalarga to‘g‘ri kelishi ehtimoli yuqori. Shu sababli hozirgi CM’ = 0,476 qiymati quyi baho (conservative estimate) sifatida talqin qilinishi tavsiya etiladi – kapital hajmiga asoslangan alternativ hisob-kitob amalga oshirilganda bu ko‘rsatkich yuqoriroq bo‘lishi mumkin.

Xalqaro qiyosiy kontekst

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari uchun ishlab chiqilgan venchur va xususiy kapital jozibadorligi indeksi mamlakatlarni oltita jozibadorlik darajasi (tier) guruhiga ajratadi [4]. Garchi VKJSI mamlakat emas, balki fond darajasida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, xuddi shunday tiering mantig‘ini fondlar darajasida qo‘lash mumkin: 0,730 ko‘rsatkichi 0–1 shkalasining

yuqori-o‘rta qismida joylashib, “AloqaVentures”ni institutsional yetuklik nuqtai nazaridan o‘rtachadan yuqori, biroq yetakchi xalqaro fondlar darajasidan past guruhga joylashtiradi.

Bunday xulosa, albatta, ehtiyotkorlik bilan talqin qilinishi kerak, chunki hozircha qiyoslash uchun boshqa O‘zbekiston yoki mintaqa venchur fondlarining VKJSI ko‘rsatkichlari mavjud emas. Shunga qaramay, yakka fond darajasidagi ushbu birinchi amaliy hisob-kitob kelgusida ko‘p fondli qiyosiy tahlil uchun boshlang‘ich nuqta va uslubiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotning cheklovlari

Tadqiqot bir qator metodologik cheklovlarga ega. Birinchidan, VKJSI yagona fond ma‘lumotlari asosida hisoblab chiqilgani sababli, normalizatsiya chegaralari xalqaro andozalarga tayanadi, mahalliy qiyosiy ma‘lumotlar bazasiga emas – milliy venchur fondlari statistikasi jamlanganidan so‘ng ushbu chegaralar qayta ko‘lchov qilinishi lozim. Ikkinchidan, kapital multiplikatori komponenti uchun aniq moliyaviy ma‘lumot o‘rniga bitimlar soniga asoslangan proksi ko‘rsatkich qo‘llanildi, bu esa aniqlikni bir muncha cheklaydi. Uchinchidan, portfel qiymati (314,8 mln. AQSh dollari) realizatsiya qilinmagan baho bo‘lib, bozor sharoitlari o‘zgarishi bilan sezilarli darajada tebranishi mumkin – shu sababli VKJSI natijalarini vaqti-vaqti bilan yangilab borish zarur.

Xulosa

Tadqiqot natijasida davlat va xususiy kapital o‘rtasidagi multiplikativ samaradorlikni o‘lchaydigan kompozit indeks (VKJSI) ishlab chiqildi va u O‘zbekistondagi korporativ venchur fondi portfelida muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazildi, natijada VKJSI ≈ 0,730 qiymati hisoblab chiqildi. Ushbu natija fondning venchur kapital jalb etish samaradorligi yuqori darajada ekanligini, biroq institutsional hamkorlik chuqurligini (kapital multiplikatori komponenti) yanada kengaytirish salohiyati mavjudligini ko‘rsatadi.

2-jadval

Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar

№	Tavsiya	Mas‘ul tomon
1	Davlat ishtirokidagi venchur dasturlari samaradorligini baholashda VKJSI kabi ko‘p komponentli indekslarni joriy etish	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank
2	Portfel bahosi va realizatsiya qilingan qiymat o‘rtasidagi farqni alohida hisobotlash orqali shaffoflikni oshirish	Venchur fondlari, auditorlik tashkilotlari
3	Milliy venchur fondlari statistikasini jamlovchi yagona ma‘lumotlar bazasini yaratish, VKJSI normalizatsiya chegaralarini mahalliy andozalarga moslashtirish	IT Park, UzVC, tarmoq assotsiatsiyalari
4	VKJSI modelini bir nechta fond ma‘lumotlari asosida sinovdan o‘tkazish orqali umumlashtirilishini kuchaytirish	Ilmiy-tadqiqot muassasalari

Umuman olganda, VKJSI rivojlanayotgan bozor venchur fondlari uchun nafaqat moliyaviy daromadlilikni, balki ularning institutsional hamkorlik va ekotizimga ta‘sir ko‘rsatish samaradorligini ham baholovchi amaliy vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Modelning kelgusi rivojlanishi ko‘p fondli va ko‘p yillik ma‘lumotlar bazasi shakllanishiga bevosita bog‘liq bo‘lib, bu milliy venchur ekotizimining institutsional yetuklashuvi bilan parallel ravishda rivojlanishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Isenberg D. How to start an entrepreneurial revolution // Harvard Business Review. – 2010. – Vol. 88(6). – P. 40–50.

2. Jahon banki. Developing Venture Capital Markets in Emerging Economies. – Vashington, 2022.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-357-son “Startaplar ekotizimi va venchur moliyalashtirishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

qarori.

4. Groh A.P., Liechtenstein H., Lieser K. The Attractiveness of Central Eastern European Countries for Venture Capital and Private Equity Investors // IESE Business School Working Paper. – 2010.

5. Khan N., Qu H., Qu J., Wei C., Wang S. Does Venture Capital Investment Spur Innovation? A Cross-Countries Analysis // SAGE Open. – 2021. – Vol. 11(1).

6. OECD/JRC. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. – Paris: OECD Publishing, 2008. – https://doi.org/10.1787/9789264043466-en

7. Wharton Social Impact Initiative. Catalytic capital in impact investing: forms, features, and functions. – University of Pennsylvania, 2023.

8. New Venture Fund. Frequently asked questions about catalytic capital. – 2022. – https://newventurefund.org

9. “Aloqabank” AT. “AloqaVentures” korporativ venchur fondi portfel boshqaruvi ma‘lumotnomasi. – 2026-yil.

10. KPMG O‘zbekiston. Venture Capital Market. – Toshkent, 2025.

11. Kolmakov V.V., Polyakova A.G., Shalaev V.S. An analysis of the impact of venture capital investment on economic growth and innovation: Evidence from the USA and Russia // Ekonomski Anali. – 2015.

12. Saisana M., Saltelli A., Tarantola S. Uncertainty and sensitivity analysis techniques as tools for the quality assessment of composite indicators // Journal of the Royal Statistical Society: Series A. – 2005. – Vol. 168(2). – P. 307–323.

MILLIY IQTISODIYOTDA IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Toshpo‘latov Shohruh Sobirjon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi
Email: shohruh.toshpulatov@tsue.uz
ORCID: 0009-0002-2153-0003

Annotatsiya. *Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishning institutsional asoslari va moliyaviy mexanizmlari, ularning shakllanish tamoyillari, moliyaviy resurslar manbalari hamda samarali boshqarish imkoniyatlari tizimli yondashuv asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotda ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda davlat byudjeti, ijtimoiy sug‘urta badallari, byudjetdan tashqari jamg‘armalar, ish beruvchilar va fuqarolar mablag‘lari hamda xalqaro moliyaviy resurslarning o‘rni tahlil qilinib, institutsional subyektlar o‘rtasidagi muvofiqlik va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi asosiy mezonlar sifatida baholangan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy himoya, moliyalashtirish, moliyaviy mexanizm, institutsional asoslar, davlat byudjeti, ijtimoiy sug‘urta, pensiya ta’minoti, ijtimoiy nafaqa, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy resurslar, manzilli moliyalashtirish, raqamli boshqaruv.*

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСОВЫХ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ

Тошпулатов Шохрух Собиржон угли
Независимый исследователь Банковско-финансовой академии Республики Узбекистан
Email: shohruh.toshpulatov@tsue.uz
ORCID: 0009-0002-2153-0003

Аннотация. *В данной статье на основе системного подхода исследуются институциональные основы и финансовые механизмы финансирования системы социальной защиты в национальной экономике, принципы их формирования, источники финансовых ресурсов и возможности их эффективного управления. В исследовании проанализирована роль государственного бюджета, взносов на социальное страхование, внебюджетных фондов, средств работодателей и граждан, а также международных финансовых ресурсов в обеспечении финансовой устойчивости системы социальной защиты. В качестве основных критериев оценки рассмотрены согласованность деятельности институциональных субъектов и эффективность использования финансовых ресурсов.*

Ключевые слова: *социальная защита, финансирование, финансовый механизм, институциональные основы, государственный бюджет, социальное страхование, пенсионное обеспечение, социальные пособия, финансовая устойчивость, финансовые ресурсы, адресное финансирование, цифровое управление.*

INSTITUTIONAL FOUNDATIONS AND IMPROVEMENT OF FINANCIAL MECHANISMS FOR FINANCING THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM IN THE NATIONAL ECONOMY

Toshpulatov Shohruh Sobirjon ugli
Independent Researcher at the Banking and

Finance Academy of the Republic of Uzbekistan
Email: shohruh.toshpulatov@tsue.uz
ORCID: 0009-0002-2153-0003

Abstract. *This article examines, through a systematic approach, the institutional foundations and financial mechanisms for financing the social protection system in the national economy, including the principles of their formation, sources of financial resources, and opportunities for their effective management. The study analyzes the role of the state budget, social insurance contributions, extra-budgetary funds, resources of employers and citizens, and international financial resources in ensuring the financial sustainability of the social protection system. Coordination among institutional actors and the efficiency of financial resource utilization are assessed as the key evaluation criteria.*

Key words: *social protection, financing, financial mechanism, institutional foundations, state budget, social insurance, pension provision, social benefits, financial sustainability, financial resources, targeted financing, digital management.*

Kirish

Milliy iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasi, demografik jarayonlarning jadallashuvi, mehnat bozoridagi institutsional o‘zgarishlar hamda aholi ijtimoiy ehtiyojlarining differensiallashuvi sharoitida ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash davlat iqtisodiy siyosatining strategik vazifalaridan biriga aylanmoqda. Mazkur tizimning samaradorligi faqatgina ijtimoiy transfertlar hajmi yoki davlat tomonidan ajratilayotgan budjet mablag‘larining miqdori bilan emas, balki moliyaviy resurslarni shakllantirish, konsolidatsiya qilish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlarining institutsional jihatdan qay darajada muvofiqlashtirilganligi bilan ham belgilanadi. Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) World Social Protection Report 2024–26 hisobotiga ko‘ra, 2023-yilda dunyo aholisining 52,4 foizi kamida bitta ijtimoiy himoya nafaqasi bilan samarali qamrab olingan bo‘lib, mazkur ko‘rsatkich 2015-yildagi 42,8 foizga nisbatan 9,6 foiz bandga oshganiga qaramay, jahon aholisining 47,6 foizi yoki 3,8 mlrd nafarga yaqin kishi hali ham hech qanday ijtimoiy himoya kafolatiga ega emas. Daromad guruhlari kesimida mazkur tafovut yanada yaqqol namoyon bo‘lib, yuqori daromadli mamlakatlarda ijtimoiy himoya bilan qamrov 85,9 foiz, yuqori o‘rta daromadli mamlakatlarda 71,2 foiz, quyi o‘rta daromadli mamlakatlarda 32,4 foiz, past daromadli mamlakatlarda esa atigi 9,7 foizni tashkil etgan[1]. Ijtimoiy himoya xarajatlarining o‘sib borishi bir tomondan aholining ijtimoiy farovonligini qo‘llab-quvvatlash zaruratini ifodalasa, ikkinchi tomondan davlat moliyasining uzoq muddatli barqarorligi va fiskal imkoniyatlari bilan ushbu xarajatlar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash masalasini kun tartibiga olib chiqadi. Ayniqsa, iqtisodiy sikllarning beqarorligi, inflyatsion bosim, bandlik tarkibidagi o‘zgarishlar va aholining turli ijtimoiy guruhlari o‘rtasidagi daromadlar tafovutining saqlanib qolishi ijtimoiy himoya moliyaviy mexanizmlarining moslashuvchanligi va antitsiklik xususiyatlarini kuchaytirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy himoyani moliyalashtirishni davlat budjetining alohida xarajat yo‘nalishi sifatida emas, balki davlat moliyasi, ijtimoiy sug‘urta, mehnat bozori va ijtimoiy xizmatlar tizimini o‘zaro bog‘lovchi kompleks institutsional mexanizm sifatida tadqiq etish ilmiy jihatdan muhimdir. Moliyaviy resurslarning yetarliligi bilan bir qatorda ularning manzilliligi, qayta taqsimlash samaradorligi, fiskal barqarorligi va ijtimoiy natijadorligi zamonaviy ijtimoiy himoya modelining sifat ko‘rsatkichlarini belgilovchi asosiy mezonlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Binobarin, milliy iqtisodiyotda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishning institutsional asoslari va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish masalasi iqtisodiy o‘sishning inklyuzivligini ta’minlash hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan dolzarb ilmiy muammolardan biridir.

Jahon bankining State of Social Protection Report 2025 ma’lumotlari ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy parametrlarini boshqa metodologik yondashuv asosida baholab, mamlakatlarda ijtimoiy himoya dasturlariga o‘rtacha YAIMning 5,3 foizi sarflanishini

ko‘rsatadi, shu bilan birga yuqori daromadli mamlakatlarda mazkur xarajatlarning YAIMga nisbati past daromadli mamlakatlarga qaraganda 5,3 baravar yuqori ekanligi aniqlangan. Bundan tashqari, aholi jon boshiga hisoblangan ijtimoiy himoya xarajatlari bo‘yicha yuqori daromadli mamlakatlar va past daromadli mamlakatlar o‘rtasidagi tafovut 85,8 baravarni tashkil etishi moliyaviy resurslarning nafaqat miqdori, balki ularning aholi ehtiyojlariga nisbatan real xarid qobiliyati ham ijtimoiy himoya natijadorligini belgilashini anglatadi[2].

Ijtimoiy himoya tizimining institutsional tabiatini anglashda, avvalo, mazkur sohada moliyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi institutlar tarkibi, ularning vakolatlari va o‘zaro funksional aloqalarini aniqlash alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Davlat budjeti, maqsadli jamg‘armalar, ijtimoiy sug‘urta institutlari, mahalliy moliya organlari, ish beruvchilar, tijorat va nodavlat tashkilotlari hamda fuqarolarning moliyaviy ishtiroki ijtimoiy himoya tizimining resurs bazasini shakllantiruvchi institutsional subyektlar sifatida qaralishi mumkin. Ushbu subyektlar o‘rtasidagi vakolatlarning aniq taqsimlanishi, moliyaviy majburiyatlarning belgilanishi va javobgarlik mexanizmlarining shakllantirilishi ijtimoiy himoya xarajatlarining takroriy moliyalashtirilishi yoki resurslarning samarasiz yo‘naltirilishi kabi institutsional nomuvofiqliklarning oldini olish imkonini beradi. Bunda institutsional muvofiqlik tushunchasi nafaqat tashkilotlarning o‘zaro hamkorligini, balki moliyaviy oqimlarning yagona strategik maqsadlar asosida boshqarilishi, axborot almashinuvi va nazorat mexanizmlarining uyg‘unligini ham qamrab oladi. Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimida qaror qabul qilish vakolatlarining markaziy va hududiy boshqaruv darajalari o‘rtasida oqilona taqsimlanishi moliyaviy resurslarni hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga mos ravishda yo‘naltirish imkoniyatini kengaytiradi. Raqamli texnologiyalarning ijtimoiy boshqaruv tizimiga integratsiyalashuvi esa benefitsiarlarni aniqlash, ijtimoiy risklarni baholash, transfertlarni manzilli yo‘naltirish va moliyaviy oqimlarni monitoring qilishning institutsional imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Natijada ijtimoiy himoya tizimining institutsional arxitekturasi moliyaviy resurslarning hajmidan mustaqil holda mavjud bo‘ladigan tashkiliy hodisa emas, balki resurslarning samarali shakllanishi va taqsimlanishini belgilovchi fundamental omil sifatida qaralishi lozim.

Moliyaviy mexanizmning mazmuni ijtimoiy himoya tizimida resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanishning iqtisodiy tamoyillari, usullari, instrumentlari hamda moliyaviy munosabatlar majmuasi orqali namoyon bo‘ladi. Uning tarkibida davlat budjeti transfertlari, ijtimoiy sug‘urta badallari, maqsadli jamg‘armalar mablag‘lari, mahalliy budjetlar resurslari, ish beruvchilar ishtiroki va boshqa qonuniy moliyalashtirish manbalarining o‘zaro nisbatlari muhim o‘rin egallaydi. Mazkur manbalarning haddan tashqari bir tomonlama shakllanishi ijtimoiy himoya tizimining fiskal barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi sababli moliyaviy resurslar bazasini diversifikatsiya qilish masalasi alohida ilmiy ahamiyatga ega. Xususan, ijtimoiy sug‘urta tamoyillarining rivojlantirilishi ijtimoiy risklarni moliyaviy jihatdan taqsimlash, sug‘urta badallari va ijtimoiy to‘lovlar o‘rtasidagi ekvivalentlikni mustahkamlash hamda uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarni qoplash imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Shu bilan birga, davlat tomonidan kafolatlanadigan ijtimoiy transfertlar va sug‘urta mexanizmlariga asoslangan to‘lovlarning o‘zaro nisbatini optimallashtirish ijtimoiy adolat va moliyaviy barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi davlat moliyasiga tushadigan bosimni kamaytirish bilan bir qatorda, ijtimoiy risklarning turli institutsional subyektlar o‘rtasida taqsimlanishini ta’minlab, tizimning tashqi iqtisodiy va fiskal shoklarga chidamliligini oshiradi. Shu jihatdan, ijtimoiy himoyaning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish faqat qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish masalasi bilan chegaralanmasdan, mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy oqimlarning shaffofligini ta’minlash va institutsional javobgarlikni kuchaytirishni ham nazarda tutadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar sharoitida ijtimoiy himoya tizimining boshqaruv va moliyalashtirish mexanizmlarini modernizatsiya qilish

jarayoni davlatning ijtimoiy majburiyatlarini aniq belgilash, moliyaviy resurslarni manzilli yo‘naltirish va ijtimoiy xizmatlarning natijadorligini oshirish masalalari bilan chambarchas bog‘lanmoqda. Ijtimoiy himoya sohasida yagona axborot makonini shakllantirish, aholining ehtiyojmandlik darajasini baholash va turli ijtimoiy xizmatlarni muvofiqlashtirish imkoniyatlarining kengayishi moliyaviy resurslarni taqsimlashda axborot asimmetriyasini qisqartirish uchun muhim shart-sharoit yaratmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimining qamrovi so‘nggi yillarda izchil kengayib bormoqda. Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslar soni 2020-yildagi 4 029,4 ming kishidan 2025-yilda 5 236,7 ming kishiga yetgan bo‘lib, besh yil davomida mazkur kontingent qariyb 30 foizga kengaygan[3]. Mazkur dinamika ijtimoiy himoya tizimining aholini qamrab olish ko‘lami ortayotganini hamda davlatning ijtimoiy majburiyatlari hajmi bosqichma-bosqich kengayayotganini ko‘rsatadi. Biroq moliyaviy manbalar o‘rtasidagi optimal nisbatni shakllantirish, budjet va budjetdan tashqari resurslarning o‘zaro integratsiyasini kuchaytirish, hududiy darajadagi moliyaviy vakolatlarni aniqlashtirish hamda ijtimoiy dasturlar natijadorligini baholash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy masalalar sifatida saqlanib qolmoqda. Mazkur muammolarning mavjudligi ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy ta’minotini faqat xarajatlar hajmini oshirish orqali emas, balki institutsional samaradorlik, resurslardan foydalanish unumdorligi va boshqaruv sifatini yaxshilash asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, markaziy va mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasida moliyaviy vakolatlar va javobgarliklarning muvozanatli taqsimlanishi hududiy ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish hamda moliyaviy resurslarning hududiy ehtiyojlarga mosligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy boshqaruvida raqamlashtirish, natijadorlikka asoslangan budjetlashtirish, risklarni baholash va moliyaviy monitoring instrumentlaridan foydalanish esa resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning institutsional asoslarini kuchaytirishi mumkin. Demak, O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy himoyani moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish davlat moliyasi imkoniyatlari, demografik tendensiyalar, mehnat bozori dinamikasi va ijtimoiy ehtiyojlarning o‘zgarishini yagona tizimli yondashuv asosida hisobga olishni talab etadi. Shu jihatdan, ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishning institutsional asoslari va moliyaviy mexanizmlarini tadqiq etish mazkur tizimning alohida elementlarini tavsiflash bilan cheklanib qolmasdan, ular o‘rtasidagi sababiy va funksional bog‘liqliklarni aniqlashni nazarda tutadi.

Adabiyotlar sharhi.

Ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishning institutsional asoslari va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda davlat moliyasi, ijtimoiy sug‘urta, kambag‘allikni qisqartirish, inson kapitalini rivojlantirish hamda fiskal barqarorlik konsepsiyalari kesishmasida tadqiq etilmoqda. Xususan, xalqaro tadqiqotlarda ijtimoiy himoyani moliyalashtirishning barqarorligi, moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish, ijtimoiy transfertlarning manzilliligi va davlat hamda nodavlat institutlari o‘rtasidagi funksional vakolatlarni optimallashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur ilmiy izlanishlarda ijtimoiy himoya xarajatlarining hajmi bilan bir qatorda, ularning aholining real ijtimoiy ehtiyojlariga muvofiqligi, iqtisodiy sikllarga moslashuvchanligi va kambag‘allikni kamaytirishdagi natijadorligi asosiy baholash mezonlari sifatida qaralmoqda. Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirishda raqamlashtirish, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv, manzilli transfertlar va natijadorlikka yo‘naltirilgan budjetlashtirish mexanizmlarining institutsional imkoniyatlari keng o‘rganilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda esa moliyaviy resurslarning cheklanganligi, norasmiy bandlikning yuqori ulushi va fiskal salohiyatning yetarli darajada shakllanmaganligi ijtimoiy himoyaning universal qamrovini ta’minlashga to‘sqinlik qiluvchi muhim omillar sifatida izohlanadi. O‘zbekiston sharoitidagi ilmiy tadqiqotlarda ham ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va moliyalashtirish, pensiya ta’minoti, kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy xizmatlarni

raqamlashtirish hamda aholining zaif qatlamlarini manzilli qo‘llab-quvvatlash masalalari tobora kengroq tadqiq etilmoqda. Shu bilan birga, mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy mexanizmlarini alohida instrumentlar kesimida emas, balki moliyalashtirish manbalari, institutsional subyektlar, boshqaruv mexanizmlari va ijtimoiy natijadorlikni yagona tizim doirasida bog‘lovchi kompleks model sifatida tadqiq etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Cichon va hammualliflarning *Financing Social Protection* asarida ijtimoiy himoyani moliyalashtirishning iqtisodiy, fiskal, moliyaviy bozor va moliyaviy boshqaruv jihatlari kompleks tarzda tadqiq etilib, muqobil moliyalashtirish siyosatlarini tanlashda davlatning fiskal imkoniyatlari bilan ijtimoiy majburiyatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratiladi[4].

Bierbaum va Schmitt tadqiqotida universal ijtimoiy himoyani moliyalashtirishdagi mavjud tafovutlarni qisqartirish uchun ichki moliyaviy resurslarni safarbar etish, xalqaro qo‘llab-quvvatlash va moliyalashtirish mexanizmlarini diversifikatsiya qilish zarurligi asoslanib, ijtimoiy himoya tizimidagi institutsional fragmentatsiya uning moliyaviy samaradorligiga ta’sir qiluvchi muhim omil sifatida baholanadi[5].

Mustafa, Nishat va Abro tomonidan amalga oshirilgan empirik tadqiqotda ijtimoiy himoya xarajatlari mamlakatlarning tarkibiy va institutsional xususiyatlari bilan bog‘liqlikda tahlil qilinib, ijtimoiy himoya tizimining inqirozlarni boshqarish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun institutsional poydevor yaratishdagi roli asoslab berilgan[6].

Barrientosning tadqiqotlarida kambag‘al va eng kambag‘al aholi qatlamlarini himoya qilishda ijtimoiy transfertlar bilan bir qatorda jamg‘arish, mikro-moliya va boshqa moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilib, ijtimoiy himoyani moliyalashtirish masalasiga nafaqat davlat xarajatlari, balki moliyaviy institutlar va bozor mexanizmlarining ishtiroki nuqtayi nazaridan yondashish taklif etiladi[7].

S. Isaqovaning 2023-yilda amalga oshirgan ilmiy tadqiqotida pensiya ta’minoti aholining turli ijtimoiy qatlamlari manfaatlarini ta’minlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy himoya tizimining muhim institutsional elementi sifatida tadqiq etilib, uning tashkiliy-iqtisodiy asoslari, moliyaviy ta’minoti va davlat tomonidan boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan[8]. Tadqiqotda pensiya tizimining barqaror faoliyat yuritishi moliyaviy resurslarning yetarliligi, pensiya majburiyatlarini bajarishning institutsional mexanizmlari hamda davlat moliyasi va ijtimoiy siyosat o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlik bilan chambarchas bog‘liqligi asoslangan bo‘lsa, mazkur yondashuv ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishni faqat pensiya to‘lovlari doirasida emas, balki kengroq moliyaviy-institutsional tizim sifatida baholash imkonini beradi. D.Yax’yayevaning ilmiy tadqiqotida esa aholining moliyaviy bilim va ko‘nikmalari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning samaradorligiga ta’sir etuvchi omil sifatida ko‘rib chiqilib, fuqarolarning moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyati, o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish imkoniyatlari hamda moliyaviy institutlardan foydalanish darajasi ijtimoiy himoya mexanizmlarining amaliy samaradorligi bilan bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi[9].

Mazkur ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy barqarorligi moliyalashtirish manbalarining yetarliligi bilan bir qatorda, ularning institutsional jihatdan muvofiqlashtirilishi, resurslarni safarbar etish samaradorligi va moliyaviy boshqaruv sifatiga ham bevosita bog‘liq bo‘lib, bu holat milliy iqtisodiyot sharoitida davlat budjeti, ijtimoiy sug‘urta, maqsadli jamg‘armalar va boshqa moliyaviy manbalar o‘rtasidagi funksional aloqalarni tadqiq etishni talab qiladi. Shu bilan birga, ko‘rib chiqilgan tadqiqotlarda universal ijtimoiy himoyani moliyalashtirish, institutsional fragmentatsiyani kamaytirish va muqobil moliyaviy manbalarni shakllantirish masalalari keng yoritilgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy himoyaning institutsional arxitekturasi, moliyalashtirish manbalari va boshqaruv mexanizmlarini yagona tizim sifatida baholash hamda ularning o‘zaro

muvofiqligini ta’minlashga qaratilgan kompleks yondashuvni ishlab chiqish mazkur tadqiqotning alohida ilmiy yo‘nalishini shakllantiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda milliy iqtisodiyotda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishning institutsional asoslari va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini kompleks o‘rganish maqsadida tizimli yondashuv, institutsional tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil va ilmiy abstraksiya usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini ijtimoiy himoya, ijtimoiy sug‘urta, davlat moliyasi, pensiya ta’minoti va moliyaviy mexanizmlar bo‘yicha shakllangan ilmiy qarashlar hamda xalqaro tashkilotlar va milliy statistik institutlarning rasmiy ma’lumotlari tashkil etdi. O‘zbekistonda ijtimoiy himoyani moliyalashtirish jarayonining dinamikasini aniqlashda statistik ma’lumotlarni guruhlash, dinamik qatorlarni tahlil qilish, o‘sish sur’atlarini hisoblash va nisbiy ko‘rsatkichlarni taqqoslash usullaridan foydalanilib, bunda pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining yillar kesimidagi o‘zgarishi hamda ijtimoiy himoya xarajatlarining iqtisodiy salmog‘i asosiy empirik ko‘rsatkichlar sifatida qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida institutsional va moliyaviy mexanizmlarning o‘zaro bog‘liqligi aniqlanib, moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi, mablag‘larning manzilliligi, institutsional subyektlar o‘rtasidagi muvofiqlik, raqamli axborot tizimlaridan foydalanish va uzoq muddatli fiskal barqarorlik mezonlari asosida mavjud tizimning samaradorligi baholandi hamda aniqlangan muammolar asosida ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar.

Ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishning institutsional asoslari va moliyaviy mexanizmlarini tahlil qilish, avvalo, ushbu tizimda shakllanadigan moliyaviy resurslarning manbalari, ularni taqsimlash tamoyillari va yakuniy ijtimoiy natijalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashni talab etadi. Mazkur jarayonda davlat byudjeti, byudjetdan tashqari jamg‘armalar, sug‘urta badallari, ish beruvchilar va fuqarolarning moliyaviy ishtiroki hamda xalqaro moliyaviy resurslar o‘zaro uyg‘unlashgan holda ijtimoiy himoya xarajatlarining barqaror moliyaviy bazasini shakllantirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini faqat ajratilgan mablag‘lar hajmi bilan baholash yetarli bo‘lmay, moliyaviy resurslarning maqsadli yo‘naltirilishi, ehtiyojmand aholini aniqlash mexanizmlarining aniqligi, institutsional subyektlar o‘rtasidagi vakolatlar taqsimoti va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning ijtimoiy natijadorligini kompleks baholash zarur. O‘zbekiston amaliyotida pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining so‘nggi yillarda izchil ortib borayotgani hamda ijtimoiy himoya xarajatlarining iqtisodiyotdagi salmog‘i sezilarli darajada shakllangani mazkur tizimning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, resurslarni samarali taqsimlash va institutsional muvofiqlikni kuchaytirish masalalarini yanada dolzarb etmoqda.

Ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish tushunchasi aholini ijtimoiy xavflardan himoya qilishga qaratilgan pensiya, nafaqa, ijtimoiy yordam va xizmatlarni moliyaviy resurslar bilan ta’minlash jarayonini ifodalab, bunda mablag‘larni shakllantirish, safarbar etish, taqsimlash va ulardan foydalanishning institutsional jihatlari o‘zaro bir butun mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Institutsional asoslar esa ijtimoiy himoya sohasida davlat organlari, byudjetdan tashqari jamg‘armalar, mahalliy hokimiyat organlari, ish beruvchilar, fuqarolar va boshqa subyektlarning vakolatlari, javobgarligi hamda ular o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy va tashkiliy mexanizmlar majmuini anglatadi. Moliyaviy mexanizm tushunchasi doirasida mablag‘larni shakllantirish manbalari bilan bir qatorda ularni taqsimlash, qayta taqsimlash, ijtimoiy dasturlarga yo‘naltirish va xarajatlar ustidan nazoratni amalga oshirish vositalari ham mujassamlashib, uning samaradorligi moliyaviy resurslarning yetarliligi va ulardan foydalanish natijadorligi orqali namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy himoyani moliyalashtirishning barqarorligi esa aholining mavjud va istiqboldagi ijtimoiy ehtiyojlarini qoplash imkonini

beruvchi moliyaviy manbalarning uzluksizligi, davlatning fiskal salohiyati, sug‘urta mexanizmlarining rivojlanganligi hamda iqtisodiy o‘sish bilan ijtimoiy xarajatlar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash darajasini ifodalaydi. Institutsional muvofiqlik tushunchasi turli davlat va nodavlat subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy dasturlar, moliyalashtirish kanallari va xizmat ko‘rsatish jarayonlarining yagona maqsad hamda axborot almashinuvi asosida o‘zaro uyg‘unlashishini nazarda tutib, takroriy xarajatlar va boshqaruvdagi uzilishlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Moliyaviy mexanizmlarning yakuniy samaradorligi esa faqat ijtimoiy himoyaga yo‘naltirilgan mablag‘lar hajmi bilan emas, balki ushbu mablag‘larning qamrov darajasini kengaytirishi, aholining real ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishi, kambag‘allik va ijtimoiy zaiflikni kamaytirishi hamda uzoq muddatli fiskal barqarorlikka salbiy bosimni cheklashi bilan belgilanadi.

1-jadval

Ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari[10][33]

Institutsional element	Moliyaviy manba	Moliyaviy mexanizm	Asosiy funksiyasi	Kutiladigan natija
Davlat byudjeti	Soliqlar va boshqa byudjet daromadlari	Byudjet transfertlari, nafaqalar va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish	Ijtimoiy yordamning kafolatlangan qismini ta’minlash	Aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash
Byudjetdan tashqari jamg‘armalar	Majburiy sug‘urta badallari, ajratmalar	Pensiya va sug‘urta to‘lovlarini moliyalashtirish	Uzoq muddatli ijtimoiy majburiyatlarni moliyalashtirish	Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligi
Ish beruvchilar	Ish haqi fondidan ajratmalar	Ijtimoiy sug‘urta va bandlik dasturlariga badallar	Mehnat qiluvchi aholining ijtimoiy xavflarini qoplash	Ijtimoiy sug‘urta qamrovining kengayishi
Fuqarolar	Sug‘urta badallari va shaxsiy jamg‘armalar	Majburiy va ixtiyoriy sug‘urta, jamg‘arish mexanizmlari	Shaxsiy ijtimoiy moliyaviy himoyani kuchaytirish	Davlat moliyasiga tushadigan yukning diversifikatsiyasi
Mahalliy boshqaruv organlari	Mahalliy byudjetlar	Manzilli yordam va hududiy dasturlar	Hududiy ijtimoiy ehtiyojlarni moliyalashtirish	Hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy tafovutlarni qisqartirish
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish institutlari	Davlat va mahalliy mablag‘lar	Ijtimoiy xizmatlar, subsidiyalar va yo‘naltirilgan yordam	Ijtimoiy xizmatlarni manzilli yetkazish	Xizmatlarning manzilliligi va samaradorligini oshirish
Xalqaro moliya institutlari	Kreditlar, grantlar va texnik ko‘mak	Loyihaviy moliyalashtirish va institutsional rivojlantirish	Tizimning infratuzilmasi va boshqaruvini modernizatsiya qilish	Ijtimoiy himoya tizimining institutsional salohiyatini oshirish
Raqamli axborot tizimlari	Davlat va institutsional resurslar	Yagona ma’lumotlar bazasi, elektron reyestr va avtomatlashtirilgan baholash	Naf oluvchilarni aniqlash va monitoring qilish	Mablag‘larning manzilli va shaffof taqsimlanishi

Jadvaldan ko‘rinadiki, ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy mexanizmi alohida

[33] Muallif tomonidan ijtimoiy himoyani moliyalashtirishning nazariy yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan

moliyalashtirish manbalarining yig‘indisi emas, balki davlat byudjeti, sug‘urta badallari, ish beruvchilar mablag‘lari, shaxsiy jamg‘armalar va xalqaro resurslarni yagona institutsional tizimga birlashtiruvchi ko‘p kanalli moliyaviy arxitektura sifatida shakllanadi.

2-jadval

O‘zbekistonda pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining dinamikasi[11][34]

Yil	Pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar, ming kishi	Yillik o‘sish, %	2020-yilga nisbatan o‘zgarish, %	10 000 aholiga, kishi*
2020	4 029,3	—	0,0	1 166,0
2021	4 253,1	5,55	5,55	1 205,8
2022	4 578,1	7,64	13,62	1 270,8
2023	4 827,3	5,44	19,80	1 311,8
2024	4 945,3	2,44	22,73	1 317,2
2025	5 236,7	5,89	29,97	—

*Izoh: * 10 000 aholiga hisoblangan ko‘rsatkich bo‘yicha Milliy statistika qo‘mitasining 2024-yilgacha bo‘lgan ma’lumotlari keltirilgan.*

Mazkur statistik qator O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy yuklamasi va institutsional ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi, chunki 2020–2025-yillarda pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni qariyb 30 foizga ko‘paygan bo‘lib, bu holat moliyalashtirish manbalarining barqarorligi va xarajatlarni uzoq muddatli rejalashtirish mexanizmlariga bo‘lgan talabni kuchaytiradi. Shu bilan birga, 10 000 aholiga to‘g‘ri keladigan pensiya va nafaqa oluvchilar sonining 2020-yildagi 1 166,0 nafardan 2024-yilda 1 317,2 nafargacha ko‘tarilishi aholining ijtimoiy himoya tizimiga bog‘liq qismining nisbiy salmog‘i oshganini ko‘rsatib, moliyaviy resurslarni faqat miqdoriy kengaytirish emas, balki ularni manzilli va natijador taqsimlash zarurligini ham anglatadi.

Jahon Banki hisob-kitoblariga ko‘ra, O‘zbekistonda ijtimoiy himoyaga jami xarajatlar 2016-yildagi YAIMning 6,79 foizidan 2021-yilda 6,50 foizigacha o‘zgargan bo‘lib, ushbu tarkibda pensiya xarajatlari 2021-yilda 5,0 foiz, ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlari 1,4 foiz, ijtimoiy parvarish xizmatlari 0,05 foiz va mehnat bozori dasturlari 0,06 foizni tashkil etgan[12]. Bu tarkibiy nisbatlar O‘zbekistonda ijtimoiy himoyani moliyalashtirishda pensiya majburiyatlari asosiy moliyaviy yukni shakllantirayotganini, shu bilan birga ijtimoiy yordam, parvarish va mehnat bozori dasturlarini moliyalashtirish ulushlarini kengaytirish orqali tizimning diversifikatsiyalangan va profilaktik modelini rivojlantirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, milliy iqtisodiyotda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish samaradorligi moliyaviy resurslarning hajmigina emas, balki ularni shakllantirish, taqsimlash va nazorat qilishning institutsional mexanizmlari qay darajada uyg‘un tashkil etilganiga ham bevosita bog‘liqdir. O‘zbekistonda pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining 2020–2025-yillarda 4 029,3 ming kishidan 5 236,7 ming kishigacha, ya’ni qariyb 30 foizga oshgani ijtimoiy majburiyatlarning kengayib borayotganini ko‘rsatib, ushbu tendensiya ijtimoiy himoya xarajatlarini uzoq muddatli prognozlash va barqaror moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zaruratini kuchaytiradi. Ijtimoiy himoya xarajatlari tarkibida pensiya to‘lovlarining yuqori ulushni egallashi tizimning moliyaviy barqarorligi ko‘p jihatdan pensiya majburiyatlarini moliyalashtirish imkoniyatlariga bog‘lanib qolayotganini ko‘rsatganligi sababli, ijtimoiy yordam, ijtimoiy xizmatlar, bandlik va profilaktik dasturlarni moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish muhim strategik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Nazariy tahlil natijalari esa davlat byudjeti, ijtimoiy sug‘urta badallari, ish beruvchilar va fuqarolar mablag‘lari, mahalliy byudjetlar hamda xalqaro moliyaviy resurslarni yagona institutsional tizim doirasida muvofiqlashtirish moliyaviy yuklamani diversifikatsiya qilish va ijtimoiy himoya xizmatlarining manzilliligini oshirish imkonini berishini ko‘rsatadi. Shu sababli, milliy iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishi moliyaviy resurslarni

[34] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi SIAT ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi

ko‘paytirish bilan bir qatorda raqamli ma’lumotlar bazasiga asoslangan manzilli moliyalashtirish, institutsional subyektlar o‘rtasidagi vakolatlarni aniq chegaralash, xarajatlarning natijadorligini baholash va uzoq muddatli fiskal barqarorlikni ta’minlovchi integratsiyalashgan moliyaviy mexanizmni shakllantirishdan iborat bo‘lishi lozim.

Xulosa

Tadqiqot natijalari milliy iqtisodiyotda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish samaradorligi, avvalo, moliyaviy resurslarning yetarliligi bilan bir qatorda ularni shakllantirish, taqsimlash va nazorat qilishning institutsional mexanizmlari o‘rtasidagi uyg‘unlik darajasiga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ijtimoiy himoya xarajatlarining tarkibida pensiya va nafaqa to‘lovlarining salmoqli o‘rin egallashi aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishda mazkur yo‘nalishning ustuvorligini belgilasa-da, uzoq muddatli istiqbolda moliyaviy yuklamaning ortib borishi tizimning barqarorligini ta’minlash uchun qo‘shimcha moliyalashtirish manbalarini izlashni taqozo etadi. Shu sababli, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishda faqat xarajatlar hajmini oshirishga emas, balki ajratilayotgan mablag‘larning manzilliligi, natijadorligi va ijtimoiy-iqtisodiy samarasi o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotda aniqlangan asosiy muammolardan biri ijtimoiy himoya tizimida turli moliyaviy va institutsional subyektlarning faoliyati o‘rtasidagi muvofiqlikni yanada kuchaytirish zarurati bilan bog‘liqdir. Davlat byudjeti, byudjetdan tashqari jamg‘armalar, ijtimoiy sug‘urta mexanizmlari, mahalliy byudjetlar, ish beruvchilar va fuqarolar mablag‘larini yagona moliyaviy arxitektura doirasida muvofiqlashtirish orqali ijtimoiy himoyani moliyalashtirishning ko‘p manbali modelini shakllantirish mumkin. Bunday yondashuv bir tomondan davlat byudjetiga tushadigan bosimni nisbatan kamaytirsa, ikkinchi tomondan ijtimoiy xavflarni moliyalashtirish mas’uliyatini iqtisodiy subyektlar o‘rtasida oqilona taqsimlash imkonini beradi. Shu jihatdan, ijtimoiy sug‘urta va jamg‘arib boriladigan mexanizmlarni bosqichma-bosqich takomillashtirish ijtimoiy himoya tizimining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini mustahkamlovchi muhim omil sifatida qaralishi lozim.

Ijtimoiy himoya mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalar va yagona axborot infratuzilmasidan foydalanish ko‘lamini kengaytirish ham muhim yo‘nalish hisoblanadi. Ijtimoiy yordam oluvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni integratsiyalashgan axborot bazalarida shakllantirish, aholining daromadlari va ijtimoiy holatini muntazam monitoring qilish hamda ehtiyojmandlik darajasini avtomatlashtirilgan mezonlar asosida baholash moliyaviy resurslarning haqiqiy ehtiyojmand qatlamlarga yo‘naltirilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli monitoring mexanizmlarini budjet mablag‘larining harakatini kuzatish, ijtimoiy dasturlar natijadorligini baholash va takroriy yoki samarasiz xarajatlarni aniqlash tizimlari bilan integratsiyalash maqsadga muvofiq. Natijada ijtimoiy himoya tizimida shaffoflik, hisobdorlik va manzillilik tamoyillarining amaliy samaradorligini oshirish uchun institutsional sharoit yaratiladi.

Umuman olganda, milliy iqtisodiyotda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishi moliyaviy resurslarni oddiy ko‘paytirishdan ko‘ra, mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va institutsional subyektlar faoliyatini yagona tizim asosida muvofiqlashtirishga qaratilishi lozim. Shu maqsadda davlat byudjeti va ijtimoiy sug‘urta mablag‘lari bilan bir qatorda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, ixtiyoriy sug‘urta va uzoq muddatli jamg‘arish instrumentlarini rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlarning resurslaridan institutsional modernizatsiya loyihalarida samarali foydalanish taklif etiladi. Taklif etilayotgan yondashuv ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bilan birga, aholining ijtimoiy xizmatlar va moliyaviy himoya vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, davlat ijtimoiy siyosatining manzilliligi va natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada ijtimoiy himoyani moliyalashtirishning institutsional asoslari va

moliyaviy mexanizmlarini o‘zaro integratsiyalashgan holda takomillashtirish milliy iqtisodiyotning ijtimoiy barqarorligi, inson kapitalini rivojlantirish va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. International Labour Organization (ILO). World Social Protection Report 2024–26: Universal Social Protection for Climate Action and a Just Transition // International Labour Office. – Geneva: ILO, 2024. – p. 1–500.
2. Jahon Banki. State of Social Protection Report 2025: The 2 Billion-Person Challenge // World Bank. – Washington, DC: World Bank, 2025. – p. 1–180.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslar soni // Statistika agentligi ma’lumotlar bazasi (SIAT). – Toshkent, 2026.
4. Cichon M. Financing social protection. – International Labour Organization, 2004. – T. 5.
5. Bierbaum M., Schmitt V. Investing more in universal social protection: Filling the financing gap through domestic resource mobilization and international support and coordination. – ILO Working Paper, 2022. – №. 44.
6. Mustafa A. R., Nishat M., Abro A. A. Social protection spending in context of structural and institutional performance: a global empirical analysis //Social Indicators Research. – 2022. – T. 163. – №. 2. – C. 875-899.
7. Barrientos A. Financing social protection //Social protection for the poor and poorest: Concepts, policies and politics. – London : Palgrave Macmillan UK, 2008. – C. 300-312.
8. Isaqova S. O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirish //Journal of Fundamental Studies. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 60-66.
9. Yax'yaeva D. Aholining moliyaviy savodxonligining ahamiyati va asosiy jihatlari //Nashrlar. – C. 293-295.
10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi SIAT ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi
11. https://documents1.worldbank.org/curated/en/099143503032342898/pdf/P1731400b7033d022087b409217648dc35e.pdf

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

BANKLARNING TRANSFORMATSION JARAYONLARINI EKONOMETRIK TAHLILI

Salamov Islom Tashkazakovich
i.f.n., dotsent
bank ishi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail:isalamov125@gmail.com
ORCID:0009-0009-8740-2347

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat tijorat banklari faoliyatini transformatsiya qilishning ekonometrik tahlili asoslarini transformatsion jarayonlarga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni transformatsiyaning samaradorligi va uning o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlarning yaxlit taxlil qilish masalalari yoritishga asosiy e`tibor qaratilgan. O‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlarni taxlili asosida keyingi davr rivojlanish prognozlarini yaratish imkoniyatini beradi. Ushbu maqolada makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning ichki omillarga ta’sirini va yalpi ichki mahsulotning o‘sishi, inflatsiya darajasi, markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning tijorat banklarini transformatsion ko‘rsatkichlari bilan bog‘liqligi hamda banklarni kapital yetarligi, kredit portfeli sifati, kredit risklariga ta’sirini tahlili yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *transformatsion jarayonlar, institutsional islohotlar, raqamli iqtisodiyot, kapital yetarligi, chiziqli regressiya modeli.*

ECONOMETRIC ANALYSIS OF BANK TRANSFORMATION PROCESSES

Salamov Islam Tashkazakovich
PhD in Economics, Associate Professor
Independent researcher of
the Department of “Banking”,
Tashkent State University of Economics
E-mail: isalamov125@gmail.com
ORCID:0009-0009-8740-2347

Abstract. *This article focuses on the econometric analysis of the transformation of state commercial banks' activities in the context of the digital economy, highlighting the internal and external factors influencing transformation processes, as well as a comprehensive analysis of transformation efficiency and its interrelated indicators. The analysis of these interrelated indicators provides an opportunity to generate development forecasts for future periods. Furthermore, the article examines the impact of macroeconomic indicators on internal factors, the relationship between macroeconomic indicators—such as gross domestic product (GDP) growth, inflation rate, and the central bank's refinancing rate—and commercial banks' transformation metrics, as well as their effect on bank capital adequacy, loan portfolio quality, and credit risks.*

Keywords: *transformation processes, institutional reforms, digital economy, capital adequacy, linear regression model.*

ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОЦЕССОВ ТРАНСФОРМАЦИИ БАНКОВ

Саламов Ислом Ташказакович
независимый исследователь
кафедры банковское дело,
кандидат экономических наук, доцент

Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: isalamov125@gmail.com
ORCID:0009-0009-8740-2347

Аннотация. *В данной статье основное внимание уделено основам эконометрического анализа трансформации деятельности государственных коммерческих банков в условиях цифровой экономики, освещению вопросов комплексного анализа влияния внутренних и внешних факторов на трансформационные процессы, эффективности трансформации и связанных с ней показателей. Анализ взаимосвязанных показателей дает возможность формировать прогнозы дальнейшего развития на будущие периоды. В статье также рассмотрено влияние макроэкономических показателей на внутренние факторы, связь таких макроэкономических показателей, как рост валового внутреннего продукта (ВВП), уровень инфляции и ставка рефинансирования центрального банка, с трансформационными показателями коммерческих банков, а также их влияние на достаточность банковского капитала, качество кредитного портфеля и кредитные риски.*

Ключевые слова: *трансформационные процессы, институциональные реформы, цифровая экономика, достаточность капитала, линейная регрессионная модель.*

Kirish

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot va bank sektorida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish tijorat banklarini transformatsiya qilish va uning istiqbolda rivojlanish prognozlarini ishlab chiqishnim zarurat qilib qo‘yadi. Banklarni raqamli texnologiyalar asosida yangicha ishlashga o‘tkazish va uning barcha faoliyat jarayonlarini transformatsiya qilish hamda transformatsion ko‘rsatkichlarni makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga mos, unga bog‘liq holda o‘zgarishni talab etadi. Shuning uchun ham davlat tijorat banklarini transformatsiya qilish va ularni salohiyatli chet el investorlariga sotishga tayyorlashda ekonometrik tahlil va prognozlashni o‘rni katta. Ekonometrik modellash usullari makroiqtisodiy omillarning bank tizimining asosiy transformatsion ko‘rsatkichlarining ta’sir yo‘nalishi va darajasini miqdoriy baxolash imkonini beradi.

Adabiyotlar sharhi

Maqolani yozishda xorijiy adabiyotlardan, ilmiy-nazariy tahlillar hamda mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining fikrlari umumlashtirilib mavjud statistik ma’lumotlar tahlili asosida prognoz ko‘rsatkichlarni ishlab chiqishda asos qilib olindi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Bank faoliyati transformatsiyasi murakkab ko‘p omilli jarayon sifatida ko‘rib chiqilib, transformatsion jarayon ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilinib, yakuniy prognozlar amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar

Davlat tijorat banklarining transformatsion jarayonlariga ichki va tashqi omillar kompleks ravishda ta’sir ko‘rsatadi. Ichki omillar qatoriga kapitalning yetarliligi, aktivlar sifati, kredit portfeli hajmi, likvidlik darajasi, rentabellik ko‘rsatkichlari, operatsion samaradorlik va raqamli transformatsiya darajasi kiradi. Tashqi omillar esa makroiqtisodiy muhit, inflyatsiya, milliy valyuta kursi, Markaziy bankning asosiy stavkasi, YAIM ning o‘sish sur’atlari, investitsion faollik hamda davlat tomonidan olib borilayotgan bank islohotlari bilan tavsiflanadi.

Ekonometrik modellashtirishning asosiy maqsadi transformatsiya natijalariga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash, ularning statistik ahamiyatini baholash hamda kelajakdagi rivojlanish ssenariylarini shakllantirishdan iborat. Model natijalari davlat tijorat banklari faoliyatiini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Ekonometrik tahlilni amalga oshirish uchun o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi ikkita ma’lumotlar ko‘lami shakllantirildi. Birinchi ko‘lam yuqori chastotali, ya’ni oylik kuzatuvlarga asoslangan vaqt qatori bo‘lib, 2020-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvargacha bo‘lgan davrni qamrab oladi (n=73). Mazkur qatorda bank tizimining jami aktivlari, davlat ulushidagi banklarning aktivlardagi salmog‘i, kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti (CAR), aktivlar samaradorligi (ROA), kapital samaradorligi (ROE) hamda muammoli kreditlar ulushi (NPL) kabi asosiy moliyaviy barqarorlik va transformatsiya ko‘rsatkichlaridan foydalanildi.

Ikkinchi ma’lumotlar ko‘lami yillik chastotadagi makroiqtisodiy va bank ko‘rsatkichlaridan tashkil topgan bo‘lib, 2018-2025-yillar davrini qamrab oladi (n=7-8). Ushbu ko‘lamda mamlakat YAIM, inflyatsiya darajasi, Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi, AQSH dollarining milliy valyuta so‘mga ayirboshlash kursi hamda tegishli yillarning yakuniy bank ko‘rsatkichlari jamlangan (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasining 2018-2025-yillardagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari[35]

Ko‘rsatkich	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
USD/UZS kursi, so’m	8336,25	9507,56	10476,92	10837,66	11225,46	12338,77	12920,40	12025,33
Inflyatsiya, %	14,3	15,2	11,1	9,98	12,3	8,77	9,80	7,30
YaIM, trln. so'm	407,5	554,29	580,2	734,6	888,34	1204,49	1454,57	1849,7
Qayta moliyalashtirish stavkasi, %	16,0	16,0	14,0	14,0	15,0	14,0	14,0	14,0

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2018-2025-yillar davomida YaIM 407,5 trln so‘mdan 1849,7 trln so‘mgacha, ya’ni 4,5 barobarga oshgan, bunda nominal o‘sish nafaqat real iqtisodiy o‘sish, balki inflyatsiya va milliy valyuta devalvatsiyasi ta’sirini ham o‘z ichiga oladi.

Inflyatsiya darajasi 2018-yildagi 14,3 foizdan 2025-yilga kelib 7,3 foizgacha izchil pasayish tendentsiyasini namoyon qildi, qayta moliyalashtirish stavkasi esa 16 foizdan 14 foizgacha pasaytirilib, so‘nggi to‘rt yilda barqaror saqlanib turibdi (1-rasmga qarang). Milliy valyuta kursi 2018-2024-yillarda izchil devalvatsiya tendentsiyasini ko‘rsatgan bo‘lsa (yillik 3,4-14,1 foiz), 2025-yilda birinchi marta revalvatsiya (6,9 foizga mustahkamlanish) kuzatildi.

1-rasm.

2018-2025-yillarda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi[36]



[35] Rasmiy statistik ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi
[36] Rasmiy statistik ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Bank tizimi va «Turonbank» ATBning asosiy transformatsion ko‘rsatkichlari (aktivlar o‘sish sur’ati, davlat banklari ulushi, CAR, ROA, ROE, NPL) bilan makroiqtisodiy omillar (YAIM o‘sish sur’ati, inflyatsiya, stavka, kurs o‘zgarishi) o‘rtasida Pirson korrelyatsiya koeffitsiyentlari hisoblandi (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bank transformatsiyasi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi statistik ahamiyatli korrelyatsiyalar (p<0,05) [37]

Bog‘liq ko‘rsatkich	Omil	r	p	n
Aktivlar o‘sish sur’ati (bank tizimi)	YAIM o‘sish sur’ati	-0,890	0,018	6
Davlat banklarining ulushi	Inflyatsiya	+0,760	0,047	7
CAR (bank tizimi)	Inflyatsiya	+0,761	0,047	7
CAR (bank tizimi)	Qayta moliyalashtirish stavkasi	+0,865	0,012	7
Aktivlar o‘sish sur’ati («Turonbank» ATB)	Qayta moliyalashtirish stavkasi	+0,747	0,054	7
NPL ulushi («Turonbank» ATB)	Inflyatsiya	-0,816	0,013	8
NPL ulushi («Turonbank» ATB)	Kurs o‘zgarishi	-0,831	0,020	7
NPL ulushi («Turonbank» ATB)	Qayta moliyalashtirish stavkasi	-0,727	0,041	8
CAR («Turonbank» ATB)	Inflyatsiya	+0,791	0,019	8
CAR («Turonbank» ATB)	Qayta moliyalashtirish stavkasi	+0,841	0,009	8

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, qayta moliyalashtirish stavkasi va inflyatsiya darajasi bank tizimi kapital yetarliligi (CAR) bilan kuchli musbat bog‘liqlikka ega (mos ravishda r=0,865 va r=0,761), bu – yuqori foiz stavkalari sharoitida banklarning foizli daromadlari ortishi va natijada ichki kapital shakllanishining kuchayishi bilan izohlanishi mumkin. Shuningdek, davlat banklarining tizimdagi ulushi inflyatsiya bilan musbat bog‘liq (r=0,760) – bu bog‘liqlik, ehtimol, yuqori inflyatsiya davrlarida davlat banklarining to‘g‘ridan to‘g‘ri maqsadli kreditlash dasturlari orqali faolroq ishtirok etishi bilan izohlanadi. «Turonbank» ATB misolida esa NPL ulushi inflyatsiya, stavka va kurs o‘zgarishi bilan manfiy bog‘liqlik ko‘rsatdi.

Aniqlangan statistik ahamiyatli bog‘liqliklar asosida kichik hajmdagi namunaga mos sodda (bivariat) chiziqli regressiya modellari qurildi (eng kichik kvadratlar usuli, OLS). Har bir model uchun koeffitsiyentlar, standart xatolar, ahamiyatlilik darajasi (p-qiymat) va determinatsiya koeffitsiyenti (R^2) hisoblandi. Mazkur modellar makroiqtisodiy omillarning bank tizimining asosiy transformatsion ko‘rsatkichlariga ta’sir yo‘nalishi va darajasini miqdoriy baholash imkonini beradi. 1-modelda bank tizimning kapital yetarliligi va qayta moliyalashtirish stavkasi o‘rtasidagi bog‘liqlik baholandi.

$$CAR_t = -16,14 + 2,41 \cdot Stavka_t \quad (R^2 = 0,748; n = 7; p = 0,012)$$

Bu yerda,

CAR_t – bank tizimining kapital yetarliligi koeffitsiyenti,

$Stavka_t$ – Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi,

R^2 – determinatsiya koeffitsiyenti,

n – kuzatuvlar soni,

p – modelning statistik ahamiyatlilik darajasi.

[37] Muallif hisob-kitoblari

2-rasm.

Bank tizimi kapital yetarliligi va qayta moliyalashtirish stavkasi o‘rtasidagi bog‘liqlik (2019-2025-yy.) [38]



Model shuni ko‘rsatadiki, qayta moliyalashtirsh stavkasi bilan bank tizimining CAR o‘rtasida ijobiy chiziqli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Regressiya chizig‘ining ijobiy qiyaligi ushbu bog‘liqlik yo‘nalishini tasdiqlaydi. Ya’ni qayta moliyalashtirish stavkasining 1 foizli bandga oshishi o‘rtacha hisobda tizim CAR ko‘rsatkichining 2,41 foizli bandga oshishi bilan bog‘liq. Modelning $R^2 = 0{,}748$ qiymati CARdagi o‘zgarishlarning 74,8 foizi qayta moliyalashtirish stavkasidagi o‘zgarishlar bilan izohlanishini ko‘rsatadi (2-rasmga qarang).

Bank tizimi darajasida aniqlangan CAR va qayta moliyalashtirish stavkasi o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlik alohida tijorat banki, xususan, «Turonbank» ATB misolida ham tekshirildi.

$$CAR\ Turon_t = -32{,}70 + 3{,}38 \cdot Stavka_t \quad (R^2 = 0{,}707; n = 8; p = 0{,}009)$$

Model natijalari «Turonbank» ATB ning CAR bilan qayta moliyalashtirish stavkasi o‘rtasida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Determinatsiya koeffitsiyentining $R^2 = 0{,}707$ tengligi CAR ko‘rsatkichidagi o‘zgarishlarning 70,7 foizi qayta moliyalashtirish stavkasidagi o‘zgarishlar bilan izohlanishini anglatadi. Regressiya koeffitsiyenti 3,38 bo‘lib, stavkaning 1 foizli bandga oshishi «Turonbank» ATB CAR ko‘rsatkichining o‘rtacha 3,38 foizli bandga oshishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi (3-rasmga qarang).

3-rasm.

«Turonbank» ATB kapital yetarliligi va qayta moliyalashtirish stavkasi o‘rtasidagi bog‘liqlik (2018-2025-yy.) [39]



[38] Muallif hisob-kitoblari
[39] Muallif hisob-kitoblari

Modelning empirik mosligini baholash maqsadida 2025-yil ma’lumotlari asosida ichki verifikatsiya (in-sample validation) amalga oshirildi. Qayta moliyalashtirish stavkasining 14 foizlik qiymatida model tomonidan hisoblangan «Turonbank» ATB CAR ko‘rsatkichi 14,62 foizni tashkil etgan bo‘lib, uning amaldagi qiymati 14,03 foizga teng. Prognoz va haqiqiy qiymat o‘rtasidagi tafovut 0,59 foizli bandni tashkil etdi. Mazkur natija modelning kuzatilgan ma’lumotlarga nisbatan qoniqarli empirik mosligini ko‘rsatadi.

Biroq davlat tijorat banklarida transformatsion jarayonlarni ekonometrik baholashda kapital yetarliligi bilan bir qatorda kredit portfeli sifati ham muhim natijaviy ko‘rsatkich hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, keyingi bosqichda «Turonbank» ATBda transformatsion jarayonlarning kredit risklari va aktivlar sifatiga ta’sirini baholash maqsadida muammoli kreditlar ulushi hamda inflyatsiya darajasi o‘rtasidagi statistik bog‘liqlik ekonometrik model asosidan tadqiq etildi.

4-rasm.

«Turonbank» ATB NPL ulushi va inflyatsiya darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik (2018-2025 yy.)[40]

$$NPL\ Turon_t = 6,36 - 0,396 \cdot Inflatsiya_t \quad (R^2 = 0,666; n = 8; p = 0,013)$$



Modelning determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,666$ bo‘lib, inflyatsiya o‘zgarishi NPL ulushidagi variatsiyaning taxminan 66,6 foizini izohlaydi. Regressiya koeffitsiyentining (p=0,013) darajasida statistik ahamiyatli ekani aniqlandi. Manfiy koeffitsiyent inflyatsiya va NPL o‘rtasida teskari statistik bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi (4-rasmga qarang).

Modelning empirik mosligini baholash maqsadida 2025-yil ma’lumotlari asosida ichki verifikatsiya amalga oshirildi. Inflyatsiyaning 7,3 foizlik darajasi asosida hisoblangan NPL prognozi 3,47 foizni, amaldagi ko‘rsatkich esa 3,41 foizni tashkil etdi. Prognoz va haqiqiy qiymat o‘rtasidagi farq 0,06 foizli bandni tashkil etib, modelning mazkur kuzatuv bo‘yicha yuqori darajadagi empirik mosligini ko‘rsatdi. Bunda aniqlangan manfiy koeffitsiyent inflyatsiyaning NPL darajasini bevosita kamaytirishini isbotlamaydi, balki faqat kuzatilgan davr uchun statistik korrelyatsion bog‘liqlikni qayd etadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari davlat tijorat banklaridagi transformatsion jarayonlar bankning ichki moliyaviy ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda makroiqtisodiy muhit ta’sirida ham shakllanishini

[40] Muallif hisob-kitoblari

ko‘rsatdi. 2018–2025-yillar ma’lumotlari asosida amalga oshirilgan korrelyatsion-regression tahlil inflyatsiya darajasi, qayta moliyalashtirish stavkasi va valyuta kursidagi o‘zgarishlar banklarning kapital yetarliligi, aktivlari o‘sishi hamda muammoli kreditlar ulushi bilan statistik jihatdan sezilarli bog‘liqlikka ega ekanini aniqlash imkonini berdi.

Ekonometrik baholash natijalariga ko‘ra, qayta moliyalashtirish stavkasi bank tizimining kapital yetarliligi koeffitsiyenti bilan kuchli musbat bog‘liqlikka ega bo‘lib, stavkaning 1 foizli bandga oshishi CAR ko‘rsatkichining o‘rtacha 2,41 foizli bandga oshishi bilan bog‘liq. Mazkur model kapital yetarliligidagi o‘zgarishlarning 74,8 foizini izohladi. «Turonbank» ATB misolida ham ushbu bog‘liqlik tasdiqlanib, qayta moliyalashtirish stavkasining 1 foizli bandga oshishi bank CAR ko‘rsatkichining o‘rtacha 3,38 foizli bandga ko‘tarilishi bilan bog‘liqligi aniqlandi. Modelning determinatsiya koeffitsiyenti 70,7 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, “Turonbank” ATBda inflyatsiya darajasi bilan muammoli kreditlar ulushi o‘rtasida statistik ahamiyatli manfiy bog‘liqlik aniqlandi. Model inflyatsiyadagi o‘zgarishlar NPL ulushidagi variatsiyaning 66,6 foizini izohlashini ko‘rsatdi. Biroq ushbu natija inflyatsiyaning oshishi muammoli kreditlarni bevosita kamaytiradi, degan sababiy xulosani anglatmaydi. Mazkur bog‘liqlik kredit portfelining nominal o‘sishi, qarzdorlar daromadlarining inflyatsion o‘zgarishi, kreditlarni restrukturizatsiya qilish amaliyoti va muammoli kreditlarni tan olish siyosati kabi boshqa omillar ta’sirida shakllangan bo‘lishi mumkin.

2025-yil ma’lumotlari asosida o‘tkazilgan ichki verifikatsiyada CAR bo‘yicha prognoz va amaldagi qiymat o‘rtasidagi tafovut 0,59 foizli bandni, NPL bo‘yicha esa 0,06 foizli bandni tashkil etdi. Bu tuzilgan modellarning kuzatilgan ma’lumotlarga nisbatan qoniqarli empirik mosligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, baholash davrining qisqaligi va yillik kuzatuvlar sonining 7–8 tani tashkil etishi natijalarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilishni talab qiladi.

Umuman olganda, davlat tijorat banklarini transformatsiya qilishda kapital yetarliligi va kredit portfeli sifatini makroiqtisodiy sharoitlardan ajratilgan holda baholash maqsadga muvofiq emas. Banklarda makroiqtisodiy stress-testlarni muntazam o‘tkazish, kapital va kredit risklarini erta ogohlantirish indikatorlarini joriy etish, raqamli transformatsiya natijalarini ROA, ROE, NPL, CAR, operatsion xarajatlar va xizmatlar sifati ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq holda monitoring qilish zarur.

Kelgusidagi tadqiqotlarda kuzatuvlar sonini ko‘paytirish, bir nechta davlat va xususiy banklar kesimida panel ma’lumotlar bazasini shakllantirish, raqamlashtirish darajasini ifodalovchi mustaqil ko‘rsatkichlarni modelga kiritish tavsiya etiladi. Shuningdek, vaqt qatorlarining statsionarligi, avtokorrelyatsiya, geteroskedastiklik va tarkibiy uzilishlarni tekshirish hamda ARDL, VAR/VECM yoki panel regressiya modellaridan foydalanish natijalarning ishonchliligi va amaliy ahamiyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Basel Committee on Banking Supervision. (n.d.). Basel framework. Bank for International Settlements. Retrieved September 2, 2026, from https://www.bis.org/basel_framework/

2. Brooks, C. (2019). Introductory econometrics for finance (4th ed.). Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/9781108524872

3. Gujarati, D. N., & Porter, D. C. (2009). Basic econometrics (5th ed.). McGraw-Hill/Irwin.

4. International Monetary Fund. (2019). Financial soundness indicators compilation guide. https://doi.org/10.5089/9781484386156.069

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Bank tizimi ko‘rsatkichlari.https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/
Markaziy bank ushbu bo‘limda aktivlar, kapital yetarliligi, rentabellik va muammoli kreditlar bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlarni e’lon qiladi.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Markaziy bankning 2025-yil uchun hisoboti. https://cbu.uz/uz/publications/annual-report/

7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Valyutalar kurslari arxivi. Retrieved September 2, 2026, from https://cbu.uz/uz/arkhiv-kursov-valyut/

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020, May 12). 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida (PF–5992-son Farmon). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/4811025

9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026, January 21). O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati raqamlarda. https://stat.uz/uz/

10. «Turonbank» aksiyadorlik tijorat banki. (2026). 2025-yil yakuni bo‘yicha moliyaviy hisobot. https://turonbank.uz/uz/shareholders/disclosures/reports/4188/

11. «Turonbank» aksiyadorlik tijorat banki. (2026b). 2025-yil uchun moliyaviy hisobot.https://turonbank.uz/en/shareholders/disclosures/financial-indicators/4259/178641/

12. Wooldridge, J. M. (2020). Introductory econometrics: A modern approach (7th ed.). Cengage Learning.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O‘ZBEKISTON FOND BOZORIDA "XALQ IPO"SI MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA INSTITUTSIONAL INVESTORLAR ISHTIROKINI KENGAYTIRISH YO‘LLARI

Babaxanova Nozima Saidakbarovna
mustaqil tadqiqotchisi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
E-mail:nozimaboboxonova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston fond bozorining hozirgi holati, davlat ulushiga ega yirik korxonalarni transformatsiya qilishda “Xalq IPO”si mexanizmlarini qo‘llash amaliyoti va yuzaga kelayotgan tizimli to‘siqlar tahlil qilingan. Aholining keng qatlamlarini investitsiya jarayonlariga jalb qilish, raqamli brokerlik infratuzilmasini rivojlantirish hamda pensiya jamg‘armalari, sug‘urta tashkilotlari va investitsiya fondlari kabi institutsional investorlar ishtirokini rag‘batlantirish yo‘llari ilmiy asoslangan. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ilg‘or tajribasini qiyosiy tahlil qilish asosida respublika qimmatli qog‘ozlar bozorida likvidlilikni oshirish, minoritar aksiyadorlar huquqiy himoyasini kuchaytirish hamda ikkilamchi savdolarni faollashtirish bo‘yicha amaliy taklif va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *fond bozori, Xalq IPOsi, institutsional investorlar, qimmatli qog‘ozlar, aksiyadorlik jamiyatlari, likvidlilik, xususiylashtirish, investitsiya fondlari, moliyaviy savodxonlik, infratuzilma.*

СПОСОБЫ УЛУЧШЕНИЯ МЕХАНИЗМОВ «НАРОДНОГО IPO» И РАСШИРЕНИЯ УЧАСТИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ИНВЕСТОРОВ НА УЗБЕКИСТАНСКОМ ФОНДОВОМ РЫНКЕ

Бабаханова Нозима Сайдакбаровна
независимый исследователь
Ташкентского международного
химического университета
E-mail: nozimaboboxonova@gmail.com

Аннотация. *В данной статье исследуется современное состояние фондового рынка Узбекистана, а также анализируется практика реализации механизма «Народного IPO» при приватизации и трансформации крупных предприятий с государственным участием. Научно обоснованы ключевые направления вовлечения широких слоев населения в инвестиционные процессы, модернизации цифровой брокерской инфраструктуры и активизации институциональных инвесторов (пенсионных фондов, страховых организаций и инвестиционных фондов). На основе сравнительного анализа передового международного опыта разработаны научно-практические рекомендации по повышению ликвидности ценных бумаг, укреплению правовой защиты миноритарных акционеров и стимулированию вторичного биржевого обращения.*

Ключевые слова: *фондовый рынок, Народное IPO, институциональные инвесторы, ценные бумаги, акционерные общества, ликвидность, приватизация, инвестиционные фонды, финансовая грамотность, биржевая инфраструктура.*

WAYS TO IMPROVE "PEOPLE'S IPO" MECHANISMS AND EXPAND INSTITUTIONAL INVESTOR PARTICIPATION IN THE UZBEKISTAN STOCK MARKET

Babaxanova Nozima Saidakbarovna
Independent Researcher

Tashkent International University of Chemistry
E-mail: nozimaboboxonova@gmail.com

Abstract. *This article examines the current state of the stock market in Uzbekistan, analyzing the application of the "People's IPO" mechanism in the transformation and privatization of large state-owned enterprises, along with the prevailing systemic bottlenecks. It scientifically substantiates viable pathways for mobilizing retail investors, enhancing digital brokerage infrastructure, and stimulating the active participation of domestic institutional investors such as pension funds, insurance companies, and collective investment schemes. Based on a comparative evaluation of leading international practices, the study outlines strategic recommendations and actionable proposals to elevate market liquidity, strengthen minority shareholder protection, and invigorate secondary equity trading.*

Keywords: *stock market, People's IPO, institutional investors, securities, joint-stock companies, liquidity, privatization, investment funds, financial literacy, market infrastructure.*

Kirish

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotlarning barqaror va sifatli o‘sishini ta’minlash, avvalo, investitsiya resurslarini samarali safarbar etish hamda ularni yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarga optimal taqsimlash mexanizmlari bilan bevosita bog‘liqdir. So‘nggi yillarda respublikamizda amalga oshirilayotgan tizimli iqtisodiy islohotlar moliyaviy vositachilikning an’anaviy bankka yo‘naltirilgan (bank-centric) modelidan kapital bozoriga asoslangan (market-based) muvozanatli modeliga bosqichma-bosqich o‘tishni taqozo etmoqda. Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish, ularning operatsion samaradorligini oshirish va investitsiya jozibadorligini kuchaytirish jarayonida qimmatli qog‘ozlar bozori nafaqat moliyaviy resurslarni jalb etishning muqobil manbai, balki xususiy mulkchilik institutini mustahkamlash hamda iqtisodiyotda korporativ boshqaruvning ilg‘or standartlarini joriy etishning strategik drayveri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, qimmatli qog‘ozlar bozorining yalpi ichki mahsulotga nisbatini mutanosib oshirish va uning institutsional poydevorini mustahkamlash makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat aktivlarini xususiylashtirish va kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan strategik maqsadlar doirasida "Xalq IPO"si tashabbusining ilgari surilishi mamlakatda xalqchil aksiyadorlik madaniyatini shakllantirish sari tashlangan muhim amaliy qadam bo‘ldi. Aholining keng qatlamlarini yirik, daromadli strategik korxonalarning teng huquqli mulkdorlariga aylantirish orqali ularning jamg‘armalarini milliy iqtisodiyotga faol investitsiyalarga aylantirish, jamiyatda moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish va ijtimoiy daromadlar tengsizligini yumshatish ushbu mexanizmning asosiy iqtisodiy vazifalaridir. Biroq, dastlabki amaliy tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, keng ommaga aksiyalarni birlamchi joylashtirish jarayonlari raqamli infratuzilmaning qulayligi, anderrayting xizmatlarining yetukligi, minoritar investorlarning huquqiy kafolatlari hamda aholining moliyaviy savodxonlik darajasi bilan chambarchas bog‘liq murakkab tizimni tashkil etadi. Mazkur omillarning yetarli darajada uyg‘unlashmaganligi birlamchi taklifdan keyingi ikkilamchi savdolarning sustlashishiga va bozor likvidliligining pasayishiga olib keluvchi jiddiy xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda.

Ushbu muammoning eng dolzarb va fundamental jihati shundaki, barqaror va chuqur likvidli fond bozorini faqatgina individual (chakana) investorlar hisobiga shakllantirib bo‘lmaydi. Xalqaro amaliyot va nazariy qarashlar isbotlaganidek, bozorning tebranishlariga bardosh bera oladigan, qimmatli qog‘ozlarni uzoq muddat ushlab turuvchi va fundamental tahlilga tayanuvchi asosiy bozor kuchi — bu institutsional investorlardir. Bugungi kunda O‘zbekiston fond bozorida pensiya jamg‘armalari, sug‘urta kompaniyalari, investitsiya va pay fondlarining ulushi nihoyatda past darajada qolmoqda. Qonunchilikdagi qat’iy me’yoriy cheklovlar, portfel investitsiyalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarining cheklanganligi, trast

boshqaruvi institutining sust rivojlanganligi hamda institutsional ishtirokchilar uchun jozibador fiskal rag‘batlarning yetishmasligi ularning "Xalq IPO"si jarayonlarida va keyingi ikkilamchi aylanmada ankor (langar) investor sifatida ishtirok etishini to‘smoqda. Chakana investorlarning yuqori hissiy ta’sirchanligi institutsional ishtirokchilarning uzoq muddatli likvidlik ko‘magi bilan muvozanatlashtirilmas ekan, kapital bozorining chuqurligi va barqarorligiga erishish mushkul vazifa bo‘lib qolaveradi.

Mazkur tizimli ziddiyatlar va institutsional bo‘shliqlar fond bozorida xalqchil joylashtirish amaliyotini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishni hamda institutsional kapitalni ushbu jarayonlarga integratsiya qilishning mukammal konsepsiyasini ishlab chiqishni dolzarb ilmiy-amaliy vazifa qilib qo‘ymoqda. Ushbu tadqiqotning bosh maqsadi — O‘zbekiston sharoitida "Xalq IPO"si mexanizmlarini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan takomillashtirish, birlamchi va ikkilamchi bozor infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda mahalliy institutsional investorlarning investitsion faolligini rag‘batlantirish orqali milliy fond bozorining kapitallashuvi va likvidliligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar majmuini ishlab chiqishdan iboratdir. Mazkur tadqiqot natijalari mamlakatda olib borilayotgan xususiylashtirish siyosatini samarali amalga oshirish, ichki investitsiya muhitini yaxshilash va milliy moliya bozorining tizimli barqarorligini ta’minlashda ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

O‘zbekiston fond bozorining rivojlanishi va aholi mablag‘larini investitsiya jarayonlariga jalb etish kapital bozorini chuqurlashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Qimmatli qog‘ozlar bozorining huquqiy asoslari aksiyalarni chiqarish, joylashtirish, muomalaga kiritish hamda investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini belgilaydi [1]. Kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatining yangi bosqichida esa fond bozori infratuzilmasini takomillashtirish, investorlar bazasini kengaytirish va zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanishni oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilanmoqda [2].

Davlat ishtirokini qisqartirish siyosati aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini ommaviy taklif qilish imkoniyatlarini kengaytirib, “Xalq IPO” mexanizmining iqtisodiy ahamiyatini oshirmoqda [3]. Davlat aktivlarini xususiylashtirish bo‘yicha amaliy ma’lumotlar ham “Xalq IPO” orqali aholining aksiyador sifatida ishtirokini kengaytirish bilan birga, davlat korxonalarini bozor tamoyillari asosida rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi [4].

“Toshkent” Respublika fond birjasi statistik ma’lumotlarida fond bozorining savdo hajmi, bitimlar soni va aksiyalar bilan operatsiyalar dinamikasi aks ettirilgan bo‘lib, mazkur ko‘rsatkichlar bozor faolligini baholash uchun muhim axborot bazasini shakllantiradi [5]. Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tadqiqotlarida esa kapital bozorini tartibga solish, institutsional investorlar faoliyatini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish fond bozorining raqobatbardoshligini oshiruvchi omillar sifatida qaraladi [6].

O‘zbekiston fond bozorining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini tadqiq etgan Butikov qimmatli qog‘ozlar bozorining institutsional asoslari, uning rivojlanish tendensiyalari va mavjud muammolarini tahlil qilgan. Muallifning yondashuvlari milliy fond bozorida investorlar faolligini oshirish va bozor mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini asoslash imkonini beradi [7].

Xamidulin aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish orqali ularning investitsion faolligini oshirish masalalarini tadqiq etgan. Korporativ boshqaruv sifati, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish va axborot shaffofligi investorlarning kompaniyaga bo‘lgan ishonchini shakllantiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi [8]. Bu jihatlar “Xalq IPO” jarayonida, ayniqsa, minoritar investorlar uchun muhim ahamiyatga ega.

IPO mexanizmlarini takomillashtirish masalasini o‘rgangan Shomirov aksiyalarni ommaviy joylashtirish orqali korporativ moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish masalasiga e’tibor qaratgan. Uning tadqiqotida IPOning samaradorligi aksiyalarni joylashtirish hajmi bilan

bir qatorda investorlar ishonchi, korporativ shaffoflik va bozor infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bog‘liqligi ko‘rsatiladi [9].

Suyunov institutsional investorlar faoliyatini tartibga solishning zamonaviy tamoyillarini tadqiq etib, professional investorlarning kapital bozoridagi rolini kuchaytirish zarurligini asoslaydi. Institutsional investorlarning faol ishtiroki bozor likvidligini oshirish, investitsiya resurslarini uzoq muddatga yo‘naltirish va narx shakllanishining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi [10].

Xo‘jamurodov va Karimov “Xalq IPO” amaliyotini kengaytirish hamda minoritar investorlar huquqlarini himoya qilish masalalarini o‘rganib, aholining fond bozoridagi ishtirokini oshirishda investorlar uchun qulay shart-sharoit yaratish zarurligini ta’kidlaydilar [11]. Mazkur yondashuv “Xalq IPO”ning ijtimoiy yo‘nalishi bilan bir qatorda, uning institutsional samaradorligini oshirish uchun ham muhimdir.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda moliya tizimining bankka asoslangan va fond bozoriga asoslangan modellari o‘rtasidagi farqlar keng tadqiq etilgan. Allen va Gale moliyaviy tizimning iqtisodiy o‘sish va kapitalni samarali taqsimlashdagi rolini tahlil qilib, moliyaviy bozorlarning rivojlanganligi investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligiga ta’sir qilishini ko‘rsatgan [12].

Amihud fond bozoridagi likvidlik va aksiyalar rentabelligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, likvidlikning pasayishi investorlar uchun qo‘shimcha risk va yuqori talab qilinadigan daromadlilikni yuzaga keltirishini asoslagan [13]. Ushbu xulosa O‘zbekiston fond bozorida “Xalq IPO”dan keyingi ikkilamchi savdolarni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Boutchkova va Megginson xususiylashtirish jarayonlari hamda global kapital bozorlarining rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq etgan. Ularning tadqiqotlari davlat korxonalarini xususiylashtirishda ommaviy aksiyadorlik mexanizmlaridan foydalanish kapital bozorining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatadi [14].

Demirguc-Kunt va Levine fond bozori, korporativ moliyalashtirish va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilib, rivojlangan fond bozori korxonalar uchun qo‘shimcha moliyalashtirish manbalarini shakllantirishini ta’kidlaydi [15]. Bu “Xalq IPO”ni davlat mulkini sotish vositasi emas, balki korxonalarni kapital bozori orqali moliyalashtirish mexanizmi sifatida rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Djankov va Murrell o‘tish iqtisodiyotlarida korxonalarni restrukturizatsiya qilish jarayonlarini o‘rganib, mulkchilik shaklining o‘zgarishi va korporativ boshqaruvning takomillashuvi korxonalar faoliyati samaradorligiga ta’sir etishini ko‘rsatgan [16]. Shu nuqtayi nazardan, “Xalq IPO” davlat korxonalarini xususiylashtirish bilan birga, ularning boshqaruv tizimini bozor talablariga moslashtirish vositasi bo‘lishi mumkin.

La Porta va hammualliflar investorlarni huquqiy himoya qilish darajasi kapital bozorining rivojlanishi va korporativ mulkchilik tuzilmasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini asoslagan [17]. Mazkur ilmiy xulosa O‘zbekistonda “Xalq IPO”ni kengaytirishda minoritar aksiyadorlarning huquqlarini kafolatlash va korporativ axborotning ochiqligini oshirish muhimligini ko‘rsatadi.

Megginson va Netter xususiylashtirishning iqtisodiy samaradorligini o‘rganib, davlat mulkining xususiy sektorga o‘tkazilishi korxonalar faoliyati va kapital bozorlarining rivojlanishiga ta’sir qiluvchi muhim omil ekanligini qayd etgan [18]. Ushbu yondashuv O‘zbekistonda xususiylashtirish va “Xalq IPO” jarayonlarini o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

Pagano va Röell kompaniyalarning mulkchilik tuzilmasini tanlash, agentlik xarajatlari va ommaviy bozorga chiqish qarorlarini tadqiq qilgan. Ularning natijalari aksiyalarni keng investorlar doirasiga taklif qilish kompaniyalar uchun kapital jalb qilish bilan birga, mulkdorlik va nazorat tizimining o‘zgarishiga ham olib kelishini ko‘rsatadi [19].

Ritter IPOdan keyingi uzoq muddatli aksiyalar samaradorligini tahlil qilib, ommaviy joylashtirish jarayonida aksiyalar qiymatini to‘g‘ri baholash va investorlarning xatti-harakatlarini hisobga olish muhimligini ko‘rsatgan [20]. Ushbu yondashuv “Xalq IPO” doirasida aksiyalarni

adolatli baholash, joylashtirish narxini belgilash va investorlar manfaatlarini muvozanatlashtirish masalalarining dolzarbligini oshiradi.

Umuman olganda, o‘rganilgan ilmiy manbalar “Xalq IPO” mexanizmining samaradorligi uchta asosiy omil — **bozor infratuzilmasi va likvidlik, investorlar huquqlarini himoya qilish hamda institutsional investorlarning faol ishtiroki** — bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi [1–20]. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda O‘zbekiston sharoitida “Xalq IPO” va institutsional investorlar ishtirokining o‘zaro bog‘liqligi, xususan, pensiya, sug‘urta va investitsiya fondlarining IPO jarayonidagi rolini kompleks baholash masalasi yetarlicha chuqur yoritilmagan. Mazkur holat tadqiqotning ilmiy yo‘nalishini belgilab, O‘zbekiston fond bozorida “Xalq IPO” mexanizmlarini institutsional investorlar ishtirokini kengaytirish asosida takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi [21].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli tahlil, institutsional iqtisodiyot nazariyasi, moliyaviy bozorlar arxitekturasi hamda zamonaviy ekonometrik modellashtirish usullarining integratsiyalashgan majmuasidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida "Xalq IPO"si mexanizmlarining samaradorligini baholash va institutsional investorlar ishtirokini kengaytirish omillarini aniqlashda miqdoriy va sifat tahlil usullari o‘zaro uyg‘unlashtirildi. Dastlabki bosqichda davlat mulkini aksiyadorlashtirish va ommaviy joylashtirish jarayonlarining tashkiliy-iqtisodiy determinatlari qiyosiy hamda retrospektiv tahlil usullari orqali o‘rganilib, Buyuk Britaniya, Polsha, Janubiy Koreya va Qozog‘iston kabi mamlakatlarning ommaviy xususiylashtirish modellari bilan O‘zbekiston amaliyoti o‘rtasidagi tizimli o‘xshashliklar hamda institutsional tafovutlar induktiv va deduktiv mantiqiy xulosalar asosida umumlashtirildi.

Tadqiqotning empirik bazasini shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, "Toshkent" respublika fond birjasi, Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi, Markaziy bank hamda Statistika agentligining 2018–2025 yillardagi rasmiy statistik ma’lumotlari, shuningdek, respublikada o‘tkazilgan dastlabki "Xalq IPO"si va SPO bitimlari ("Kvars" aksiyadorlik jamiyati, "Qo‘qon mexanika zavodi" aksiyadorlik jamiyati, "O‘zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati, "O‘zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi) bo‘yicha birlamchi va ikkilamchi savdo ko‘rsatkichlari tanlab olindi. Qimmatli qog‘ozlar bozorida joylashtirilgan aksiyalarning likvidlilik darajasini va ikkilamchi bozordagi savdo faolligini baholash maqsadida moliya iqtisodiyotida keng qo‘llaniladigan Amihud no-likvidlik ko‘rsatkichi hamda aksiyalarning aylanma koeffitsiyenti tahlil qilindi. Ushbu ko‘rsatkichlar narxning savdo hajmiga nisbatan sezgirligini ifodalab, bozor chuqurligi va institutsional talabning mavjudligini bevosita aniqlash imkonini berdi.

Fond bozorining kapitallashuvi va likvidliligiga institutsional investorlar hamda birlamchi ommaviy joylashtirishlarning ta’sirini empirik jihatdan baholash uchun ko‘p omilli regressiya tahlili hamda avtoregressiv taqsimlangan laglar (ARDL) modelidan foydalanildi. Model doirasida fond bozorining kapitallashuv darajasi va likvidlilik indeksi bog‘liq o‘zgaruvchilar sifatida olindi. Ularga ta’sir etuvchi omillar sifatida esa institutsional investorlarning (pensiya, sug‘urta va investitsiya fondlari) jami aktivlari hajmi, "Xalq IPO"si doirasida jalb qilingan mablag‘lar miqdori, chakana investorlarning depozitariy hisobvaraqlari soni orqali ifodalangan moliyaviy inklyuzivlik ko‘rsatkichi hamda nazorat omillari sifatida inflyatsiya darajasi va yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’atlari kiritildi. Olingan vaqtli qatorlar ma’lumotlarining statsionarligi kengaytirilgan Diki-Fuller testi yordamida tekshirilib, o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi uzoq va qisqa muddatli muvozanatli bog‘liqliklar baholandi.

Sifat tahlili doirasida respublikadagi amaldagi me’yoriy-huquqiy baza, xususan, pensiya jamg‘armalari va sug‘urta tashkilotlarining zaxiralarini qimmatli qog‘ozlar bozoriga yo‘naltirish bo‘yicha o‘rnatilgan prudensial talablar, anderrayting institutining huquqiy maqomi hamda minoritar aksiyadorlarning korporativ qarorlar qabul qilishdagi huquqlarining kafolatlanganlik

darajasi me’yoriy-qiyosiy jihatdan o‘rganildi. Mazkur metodologik yondashuv "Xalq IPO"si jarayonlaridagi tizimli to‘siqlarni aniqlash, birlamchi taklif narxini shakllantirishdagi nomutanosibliklarni kamaytirish hamda institutsional kapitalni fond bozoriga faol jalb qilishning ustuvor yo‘nalishlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston moliya bozorining zamonaviy arxitekturasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda erishilgan makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sish sur’atlariga qaramasdan, milliy moliya tizimi chuqur bankka yo‘naltirilganlik (bank-centric) xususiyatini saqlab qolmoqda. Qimmatli qog‘ozlar bozorining yalpi ichki mahsulotga (YAIM) nisbati 2018–2025 yillar oralig‘ida o‘rtacha 1,5–2,0 foiz atrofida tebranib, rivojlanayotgan davlatlar ko‘rsatkichlaridan (o‘rtacha 25–40 foiz) ancha orqada qolmoqda. Davlat aktivlarini transformatsiya qilish va xususiy kapitalni jalb etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida fond bozori orqali moliyalashtirish mexanizmlarining yetarlicha ishga solinmaganligi korxonalarning qarz yuklamasini oshirishga va muqobil uzoq muddatli investitsiya manbalarining cheklanishiga sabab bo‘lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, fond bozorining kapitallashuvini oshirish va uning iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik rolini tubdan kuchaytirish uchun ommaviy joylashtirish mexanizmlaridan samarali foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatda xalqchil aksiyadorlik madaniyatini shakllantirish va davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni xususiylashtirish jarayonida "Xalq IPO"si tashabbusi amaliyotga tatbiq etila boshlandi. Dastlabki yillarda amalga oshirilgan "Kvars" aksiyadorlik jamiyati, "Qo‘qon mexanika zavodi" aksiyadorlik jamiyati, shuningdek, keyingi bosqichlardagi "O‘zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati hamda "O‘zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi kabi strategik subyektlarning birlamchi va ikkilamchi joylashtirishlari (IPO/SPO) aholining qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim tajriba maktabi vazifasini o‘tadi. Biroq, amalga oshirilgan bitimlarning miqdoriy va sifat tahlili shuni ko‘rsatadiki, kutilgan keng qamrovli ommaviylikka to‘liq erishilmadi: ko‘pchilik bitimlarda investorlarning asosiy qismini kichik hajmdagi spekulyativ talabga ega jismoniy shaxslar tashkil etib, taklif etilgan aksiyalar paketining to‘liq sotilishi yoki uzoq muddatli barqaror talab bilan ta’minlanishi murakkab kechdi.

Ushbu holatni tizimli baholash maqsadida O‘zbekiston fond bozorida o‘tkazilgan asosiy IPO va SPO bitimlarining asosiy parametrlarini umumlashtirish maqsadga muvofiqdir. Joylashtirish natijalari shuni tasdiqlaydiki, birlamchi bosqichdagi talab darajasi va undan keyingi ikkilamchi savdo ko‘rsatkichlari o‘rtasida jiddiy uzilish mavjud bo‘lib, bu holat qimmatli qog‘ozlar bozorida barqaror likvidlilikni ta’minlash mexanizmlarining zaifligini ko‘rsatadi.

1-jadval.

O‘zbekiston fond bozorida o‘tkazilgan asosiy IPO/SPO bitimlarining qiyosiy ko‘rsatkichlari*

Tahliliy ko‘rsatkichlar	"Kvars" AJ	"Qo‘qon mexanika zavodi" AJ	"O‘zmet-kombinat" AJ	"O‘zbek-telekom" AK
Bitim turi va amalga oshirilgan yili	IPO (2018 y.)	SPO (2019 y.)	SPO (2022 y.)	IPO (2023 y.)
Joylashtirilgan aksiyalar ulushi (%)	4,57	2,24	3,10	2,00
Jalb qilingan mablag‘ hajmi (mlrd so‘m)	15,04	2,89	92,10	33,25
Ishtirok etgan jismoniy shaxslar soni (nafar)	3 305	2 860	4 480	10 985
Talabning taklifga nisbati (qoplash darajasi)	1,02	0,87	1,15	1,28
Joylashtirishdan keyingi 1 yillik aylanma koeffitsiyenti (%)	4,12	3,45	6,80	7,15

*Muallif ishlanmasi

1-jadval ma’lumotlarining chuqurlashtirilgan tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksiyalarni birlamchi joylashtirish jarayonida muayyan darajadagi ortiqcha talab kuzatilgan bo‘lsa-da, qimmatli qog‘ozlar ikkilamchi muomalaga kiritilgach, ularning savdo faolligi keskin pasayib ketgan. Aksiyalarning bir yillik aylanma koeffitsiyenti aksariyat hollarda 5–8 foizdan oshmagan, Amihud no-likvidlik indeksi esa yuqori darajada saqlanib qolgan. Bu esa chakana investorlarning birlamchi bozorda aksiyalarni sotib olib, dastlabki haftalardayoq spekulyativ qayta sotishga moyilligi yuqori ekanligini, biroq bozorga tushgan ushbu qog‘ozlarni sotib oluvchi va narx barqarorligini ta’minlovchi tizimli ikkilamchi talab mavjud emasligini anglatadi. Natijada aksiyalar narxining tushib ketishi yoki savdoning deyarli to‘xtab qolishi aholi orasida fond bozoriga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytiruvchi omilga aylanmoqda.

Birlamchi ommaviy takliflarning kutilganidek yuqori samaradorlik bermasligining muhim tashkiliy-texnologik omillaridan biri — raqamli brokerlik infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi va transaksion xarajatlarning yuqoriligidir. So‘nggi davrda "E-auksion" platformasi va qator tijorat banklarining mobil ilovalari orqali aksiyalarni masofadan xarid qilish imkoniyatlari yaratilgan bo‘lsa-da, hisobvaraqlarni ochish, shaxsni masofaviy biometrik identifikatsiyalash, mablag‘larni kiritish va yechib olish jarayonlarida turli vositachilik haqlari hamda operatsion qiyinchiliklar saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari, hisob-kitoblarning T+2 tizimiga to‘liq o‘tishidagi texnologik uzilishlar va birja aylanmasida market-meykerlik institutining to‘liq quvvat bilan ishlamasligi chakana investorlarning o‘z aktivlarini tezkor naqdlashtirish imkoniyatlarini cheklab, ularni uzoq muddatli investitsiyalardan tiyilishga majbur qilmoqda.

Xalqaro amaliyot va empirik tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, likvidli va chuqur kapital bozorini faqatgina chakana investorlar hisobiga barpo etishning imkoni yo‘q; uning asosiy tayanchi va likvidlilik generatori institutsional investorlar hisoblanadi. O‘zbekiston fond bozorida esa institutsional ishtirokchilarning, xususan, nobank moliya institutlarining faolligi nihoyatda past darajada qolmoqda. Hozirgi kunda respublikada faoliyat yuritayotgan sug‘urta kompaniyalari, investitsiya fondlari va Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining jami aktivlarida aksiyalar ulushi 1-2 foizdan oshmaydi. Vaholanki, rivojlangan bozorlarda ushbu ko‘rsatkich 30–50 foizni, bozor iqtisodiyoti o‘tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda esa 15–25 foizni tashkil etadi.

Institutsional investorlarning investitsion portfelida kapital bozori vositalarining yetishmasligi ularning zaxiralarini joylashtirish bo‘yicha o‘rnatilgan me’yoriy-huquqiy cheklovlar hamda xatarlarni boshqarish amaliyoti bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu holatni tizimli tahlil qilish uchun O‘zbekiston nobank moliya institutlarining aktivlari tarkibi va ularning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi ishtirok darajasini xorijiy davlatlar bilan qiyoslash zarur.

2-jadval.

O‘zbekiston va ayrim xorijiy mamlakatlarda institutsional investorlar aktivlarining tarkibiy taqsimoti (2024 y. holatiga, foizda)*

Davlatlar	Bank depozitlari ulushi (%)	Davlat qimmatli qog‘ozlari ulushi (%)	Korporativ aksiyalar ulushi (%)	Korporativ obligatsiyalar ulushi (%)	Boshqa aktivlar ulushi (%)
O‘zbekiston	68,4	24,1	1,8	2,2	3,5
Qozog‘iston	18,2	48,5	16,4	12,1	4,8
Polsha	8,5	38,2	34,6	14,2	4,5
Janubiy Koreya	5,1	32,4	38,2	19,8	4,5

*Muallif ishlanmasi

2-jadval tahlili O‘zbekistondagi institutsional investorlarning mablag‘lari deyarli to‘liq bank depozitlariga va davlat qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlariga yo‘naltirilganligini yaqqol

ko‘rsatmoqda. Buning bosh omili shundaki, amaldagi prudensial me’yorlar va risklarni boshqarish talablari sug‘urta tashkilotlari hamda pensiya jamg‘armalariga korporativ qimmatli qog‘ozlarga investitsiya kiritish bo‘yicha qat’iy limitlar o‘rnatgan. Shuningdek, mahalliy fond bozorida yuqori investitsion reytingga ega korporativ emitentlarning kamligi, korporativ obligatsiyalar bozorining sustligi va trast boshqaruvi mexanizmlarining zaifligi institutsional ishtirokchilarni likvidli, biroq iqtisodiy o‘sish drayveri bo‘lmagan passiv depozit vositalarida qolishga undamoqda. Natijada fond bozori ulkan hajmdagi ichki uzoq muddatli kapitaldan uzilib qolmoqda.

"Xalq IPO"si jarayonlarining muvaffaqiyati va institutsional kapitalning bozorga kirib kelishi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning samarali integratsiyalashuvi ko‘p bo‘g‘inli tizimli infratuzilmani talab etadi. Quyidagi sxematik model O‘zbekiston fond bozorida individual investorlarning keng qatlamini jalb qilish bilan bir vaqtda institutsional investorlarni langar ishtirokchi sifatida biriktirishning tashkiliy-funksional aloqadorligini ifodalaydi.

1-rasm.

O‘zbekiston fond bozorida "Xalq IPO"si mexanizmlari va institutsional investorlar o‘rtasidagi ko‘p bosqichli ekotizim hamda likvidlilik zanjiri modeli*



*Muallif ishlanmasi

Yuqoridagi konseptual modelda ko‘rsatilganidek, institutsional investorlar ommaviy joylashtirish jarayonida langar investor vazifasini bajarishi lozim. Hozirgi kunda respublikada "Xalq IPO"si aksiyalari uchun qat’iy belgilangan yagona narx usulidan foydalanilmoqda, bu esa bozor talab va taklifini to‘liq aks ettirmaydi hamda aksiyalarning keyinchalik qadrsizlanish xavfini oshiradi. Ilg‘or xalqaro tajribada esa aksiyalar narxini buyurtmalar kitobi (book-building) usulida shakllantirish orqali institutsional ishtirokchilar tomonidan professional baholangan narx diapazoni aniqlanadi va chakana investorlarga ushbu adolatli narxdan chegirma bilan sotib olish imkoniyati beriladi. Institutsional xaridorlar o‘zlariga ajratilgan aksiyalar paketini kamida bir yildan uch yilgacha sotmaslik majburiyatini (lock-up davri) olishi orqali ikkilamchi bozorda narxning keskin tushib ketishining oldini oladi.

O‘tkazilgan ekonometrik modellashtirish va avtoregressiv taqsimlangan laglar tahlili natijalari shuni tasdiqlaydiki, fond bozori kapitallashuvi va ikkilamchi savdo likvidliligiga institutsional investorlar aktivlari hajmi hamda chakana hisobvaraqlar soni uzoq muddatli istiqbolda statistik jihatdan yuqori ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Baholashlarga ko‘ra, institutsional investorlarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi ulushining har bir foiz bandga ortishi birja savdo aylanmasi likvidliligining o‘rtacha 0,42 foiz bandga o‘sishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, faqatgina chakana investorlar sonining ortishi institutsional qo‘llab-quvvatlashsiz qisqa muddatli tebranishlarni kuchaytirib, Amihud no-likvidlik ko‘rsatkichining yomonlashishiga olib kelishi

aniqlandi, bu esa ikki segment o‘rtasidagi mutanosiblikning naqadar zarurligini empirik jihatdan dalillaydi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda "Xalq IPO"si dasturining to‘laqonli samaradorligiga erishish uchun individual va institutsional investitsiyalarni sun’iy ravishda ajratish amaliyotidan voz kechish kerak. Minoritar aksiyadorlarning korporativ boshqaruvdagi huquqlarini kafolatlash, dividend siyosatining shaffofligini ta’minlash, erkin muomaladagi aksiyalar ulushini (free-float) kamida 15–20 foizgacha oshirish hamda nobank moliya institutlarining investitsiya cheklovlarini bosqichma-bosqich liberallashtirish zarur. Faqatgina xalqchil ommaviylik bilan professional institutsional kapital sinergiyasi ta’minlangan taqdirdagina fond bozori real iqtisodiyotni investitsiyalar bilan ta’minlovchi mustahkam moliyaviy tizimga aylanadi.

Xulosa

O‘zbekiston fond bozorida "Xalq IPO"si mexanizmlarini qo‘llash va unga institutsional investorlarni jalb etish masalalari bo‘yicha olib borilgan ilmiy-empirik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakat moliya tizimi hamon bankka yo‘naltirilganlik xususiyatini kuchli saqlab qolmoqda va fond bozori kapitallashuvi YAIMga nisbatan past darajada qolmoqda. Dastlabki yillarda o‘tkazilgan ommaviy joylashtirishlar ("Kvars", "Qo‘qon mexanika zavodi", "O‘zmetkombinat", "O‘zbektelekom") aholida qimmatli qog‘ozlar madaniyatini uyg‘otishda muayyan ijobiy rol o‘ynagan bo‘lsa-da, birlamchi bosqichdagi qiziqish ikkilamchi bozorda barqaror savdo faolligiga aylanmadi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, faqatgina chakana investorlarga tayanilgan joylashtirish modeli bozor chuqurligini ta’minlay olmaydi; jismoniy shaxslarning qisqa muddatli spekulyativ xatti-harakatlari, aksiyalarni dastlabki foyda bilan tezkor sotib chiqib ketish tendensiyasi hamda aksiyalarga doimiy talab hosil qiluvchi professional ishtirokchilarning yo‘qligi ikkilamchi likvidlilikning pasayishiga va aksiyalar narxining turg‘unlashuviga olib kelmoqda.

Mazkur nomutanosibliklarning tub ildizi O‘zbekiston fond bozorida institutsional investorlar — pensiya jamg‘armalari, sug‘urta kompaniyalari va investitsiya fondlarining ulushi nihoyatda past ekanligi bilan izohlanadi. Amaldagi qat’iy prudensial me’yorlar va cheklovlar tufayli mahalliy nobank moliya institutlari o‘z aktivlarining qariyb 70 foizini past rentabelli bank depozitlarida saqlashga majbur bo‘lmoqda. Oqibatda qimmatli qog‘ozlar bozori uzoq muddatli, barqaror va fundamental tahlilga asoslangan "sabrli kapital"dan uzilib qolgan. Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan tahlillar institutsional investorlar ishtirokisiz "Xalq IPO"si dasturlari to‘liq muvaffaqiyatga erisha olmasligini, bozor likvidliligi va kapitallashuv o‘sishi aynan institutsional kapitalning bozorga kirib kelish ko‘lami bilan bevosita korrelyatsiyaga ega ekanligini ilmiy jihatdan isbotladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, O‘zbekiston fond bozorida "Xalq IPO"si mexanizmlarini takomillashtirish va institutsional investorlar ishtirokini kengaytirish bo‘yicha quyidagi ustuvor amaliy taklif va ilmiy tavsiyalar ilgari suriladi:

Birinchidan, birlamchi ommaviy joylashtirishlarda narx belgilashning sun’iy va qat’iy fiksirlangan usulidan voz kechib, ilg‘or xalqaro tajribada qo‘llaniladigan buyurtmalar kitobi (book-building) mexanizmini to‘laqonli joriy etish lozim. Ushbu jarayonda professional institutsional investorlar langar (anchor) ishtirokchi sifatida jalb etilib, ular orqali aksiyalarning adolatli bozor narxlari diapazoni shakllantirilishi, individual investorlarga esa mazkur narxga nisbatan kafolatlangan imtiyozli chegirmalar (5–10 foiz) taqdim etilishi zarur. Shu bilan birga, aksiyalarning erkin muomaladagi ulushini (free-float) sun’iy cheklamay, kamida 15–20 foiz darajasida belgilash hamda yirik xaridorlar uchun bir yildan kam bo‘lmagan sotmaslik majburiyatini (lock-up davri) kiritish ikkilamchi savdolarda narx keskin tushib ketishining oldini oladi.

Ikkinchidan, sug‘urta tashkilotlari va nobank moliya institutlarining investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi prudensial me’yorlarni bosqichma-bosqich liberallashtirish talab

etiladi. Xususan, sug‘urta zaxiralarining kamida 10–15 foizini yuqori korporativ boshqaruv standartlariga ega, davlat ishtirokidagi transformatsiya qilinayotgan ochiq aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalariga joylashtirishga ruxsat berish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining bo‘sh turgan mablag‘larini qat’iy belgilangan risk-menejment doirasida, professional trast boshqaruvchilari orqali dividend daromadliligi barqaror bo‘lgan milliy "moviy chip"lar (blue-chips) aksiyalariga yo‘naltirish mexanizmini bosqichma-bosqich tajriba tariqasida yo‘lga qo‘yish zarur.

Uchinchidan, kollektiv investitsiya institutlari — investitsiya va pay fondlari faoliyatini jonlantirish uchun ularni tashkil etish va litsenziyalash talablarini soddalashtirish, xususiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi qonunchiligini qabul qilish hamda ushbu tuzilmalar uchun uzoq muddatli soliq imtiyozlarini (dividendlar va kapital o‘sishidan olinadigan daromad solig‘idan ozod etish) kafolatlash lozim. Bu aholining bevosita aksiyalar bozoriga kirmasdan, professional boshqaruvchilar orqali o‘z jamg‘armalarini fond bozorida xavfsiz diversifikatsiya qilishiga va xalqchil investitsiyalarning yangi oqimini yuzaga keltirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, savdo va hisob-kitob infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida barcha tijorat banklarining mobil ilovalarini Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi va birja tizimi bilan ochiq API protokollari orqali integratsiyalash lozim. Chakana investorlar uchun masofaviy biometrik hisob ochish, mablag‘ kiritish va yechib olishdagi bank-brokerlik komissiyalarini optimallashtirish, T+2 hisob-kitob mexanizmini to‘liq barqarorlashtirish hamda birjada market-meykerlik institutini soliq va tarif preferensiyalari bilan rag‘batlantirish orqali savdolarning uzluksiz likvidligi ta’minlanishi kerak.

Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi respublikada davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlarining shaffofligini oshiradi, aholi jamg‘armalarini nofaol depozitlardan real iqtisodiyotga faol investitsiyalar sifatida yo‘naltiradi hamda individual va institutsional investorlar muvozanatiga asoslangan, likvid va barqaror milliy kapital bozorini shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida"gi Qonuni, 2015-yil 3-iyundagi O‘RQ-387-son (qayta tahriri).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi "Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-291-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-102-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (2024). Davlat aktivlarini xususiylashtirish va "Xalq IPO"si dasturlari ijrosi bo‘yicha yillik hisoboti. Toshkent: DABA axborotnomasi.
5. "Toshkent" Respublika fond birjasi (2024). O‘zbekiston fond bozori faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari: yillik statistik to‘plam. Toshkent: "Toshkent" RFB.
6. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (2024). Kapital bozorini tartibga solish, institutsional investorlarni rivojlantirish va fintex yechimlarini integratsiyalash tahlili. Toshkent: ILMA.
7. Butikov, I. (2020). Rinok sennix bumag Uzbekistana: formirovaniye, tendensii i perspektivi. Toshkent: Fan va texnologiya, 248 b.
8. Xamidulin, M. B. (2018). Rivojlangan korporativ boshqaruv mexanizmlari orqali aksiyadorlik jamiyatlari investitsion faolligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent: BMA.
9. Mustafaqulov, Sh. I. (2017). Investitsion jozibadorlik: nazariya, metodologiya va amaliyot. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 312 b.
10. Shomirov, A. A. (2021). Aksiyalarni ommaviy joylashtirish (IPO) mexanizmlarini

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

takomillashtirish orqali korporativ moliyalashtirish hajmini oshirish. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 5(3), 112–120.

11. Suyunov, B. E. (2022). O‘zbekistonda institutsional investorlar faoliyatini tartibga solishning zamonaviy tamoyillari. Moliya va bank ishi, 4(2), 34–41.

12. Xo‘jamurodov, A. T., & Karimov, N. G. (2023). Qimmatli qog‘ozlar bozorida "Xalq IPO"si amaliyotini kengaytirish va minoritar investorlar himoyasi. Xalqaro moliya va hisob, 6(1), 45–53.

13. Allen, F., & Gale, D. (2000). Comparing Financial Systems. Cambridge: MIT Press, 507 p.

14. Amihud, Y. (2002). Illiquidity and stock returns: Cross-section and time-series effects. Journal of Financial Markets, 5(1), 31–56.

15. Boutchkova, M. K., & Megginson, W. L. (2000). Privatization and the rise of global capital markets. Financial Management, 29(4), 31–76.

16. Demirguc-Kunt, A., & Levine, R. (1996). Stock markets, corporate finance, and economic growth: An overview. The World Bank Economic Review, 10(2), 223–239.

17. Djankov, S., & Murrell, P. (2002). Enterprise restructuring in transition: A quantitative survey. Journal of Economic Literature, 40(3), 739–792.

18. La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., Shleifer, A., & Vishny, R. (2000). Investor protection and corporate governance. Journal of Financial Economics, 58(1–2), 3–27.

19. Megginson, W. L., & Netter, J. M. (2001). From state to market: A survey of empirical studies on privatization. Journal of Economic Literature, 39(2), 321–389.

20. Pagano, M., & Röell, A. (1998). The choice of stock ownership structure: Agency costs, monitoring, and the decision to go public. The Quarterly Journal of Economics, 113(1), 187–225.

21. Ritter, J. R. (1991). The long-run performance of initial public offerings. The Journal of Finance, 46(1), 3–27.

ELEKTRON TIJORAT FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI

Radjabova Malikaxon

1-bosqich PhD tayanch doktorant,
Toshkent xalqaro universiteti
ORCID: 0009-0007-8377-6101
E-mail: malika060497@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotning maqsadi elektron tijorat faoliyati kontseptual mohiyatini yoritish, uning rivojlanishidagi global va milliy tendensiyalarni aniqlash hamda O’zbekiston Respublikasining ushbu sohadagi holatini mintaqaviy davlatlar (Qozog’iston, Qirg’iziston) bilan solishtirma tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, statistik-iqtisodiy va normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotda 2016–2024-yillarda elektron tijorat savdo hajmining o’sish dinamikasi va uning mintaqaviy raqobatchilardan orqada qolish sabablari aniqlangan. Natijalarga ko’ra, mahalliy elektron tijorat bozori yuqori o’sish sur’atiga ega bo’lsa-da, uning yalpi ichki mahsuloti va chakana savdodagi ulushi Qozog’iston Respublikasidan (benchmarking) sezilarli darajada orqada qolmoqda. Maqola yakunida raqamli infratuzilma, to’lov tizimlari va huquqiy baza sohalariga doir ustuvor yo’nalishlar bo’yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so’zlar: *elektron tijorat, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy samaradorlik, raqamli iqtisodiyot, elektron savdo hajmi.*

НЕОБХОДИМОСТЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ

Раджабова Маликанхон

Докторант PhD 1-го курса,
Ташкентский международный университет
ORCID: 0009-0007-8377-6101
E-mail: malika060497@gmail.com

Аннотация. *Целью данного исследования является раскрытие концептуальной сущности электронной торговли, выявление глобальных и национальных тенденций её развития, а также проведение сравнительного анализа состояния данной сферы в Республике Узбекистан с региональными государствами (Казахстан, Кыргызстан). В исследовании использованы методы сравнительно-аналитического, статистико-экономического анализа и анализа нормативно-правовых документов. В работе определена динамика роста объёма электронной торговли за 2016–2024 годы и причины отставания от региональных конкурентов. Согласно результатам, несмотря на высокие темпы роста местного рынка электронной торговли, его доля в валовом внутреннем продукте и розничной торговле значительно отстаёт от аналогичных показателей Республики Казахстан (бенчмаркинг). В заключение статьи даны рекомендации по приоритетным направлениям развития цифровой инфраструктуры, платёжных систем и правовой базы.*

Ключевые слова: *электронная торговля, цифровые технологии, экономическая эффективность, цифровая экономика, объём электронной торговли.*

THE NECESSITY AND IMPORTANCE OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN E-COMMERCE ACTIVITIES

Radjabova Malikaxon

First-year PhD student,
Tashkent International University
ORCID: 0009-0007-8377-6101
E-mail: malika060497@gmail.com

Abstract. *The purpose of this study is to reveal the conceptual essence of e-commerce activity, identify global and national trends in its development, and conduct a comparative analysis of the state of this sector in the Republic of Uzbekistan against regional countries (Kazakhstan, Kyrgyzstan). The study employs comparative-analytical, statistical-economic, and normative-legal document analysis methods. The research identifies the growth dynamics of e-commerce trade volume during 2016–2024 and the reasons behind its lag relative to regional competitors. The results show that although the domestic e-commerce market demonstrates a high growth rate, its share in GDP and retail trade significantly lags behind that of the Republic of Kazakhstan (benchmarking). The article concludes with recommendations on priority directions in the fields of digital infrastructure, payment systems, and the legal framework.*

Keywords: *e-commerce, digital technologies, economic efficiency, digital economy, e-commerce trade volume*

Kirish

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar jahon iqtisodiyoti va jamiyat hayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, insonlarning kundalik faoliyati, tadbirkorlik jarayonlari hamda iqtisodiy munosabatlarni tashkil etish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, internet tarmog‘i, bulutli texnologiyalar, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), mobil ilovalar, raqamli to‘lov tizimlari va boshqa zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida iqtisodiyotning an’anaviy faoliyat yuritish mexanizmlari bosqichma-bosqich raqamli formatga o‘tmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, savdo va moliyaviy munosabatlarda yangi biznes modellarining shakllanishiga zamin yaratib, to‘rtinchi sanoat inqilobiga o‘tish jarayonini yanada jadallashtirmoqda. Mazkur jarayonda raqamlashtirish nafaqat mavjud iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish vositasi, balki yangi qiymat yaratish, mehnat unumdorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni takomillashtirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

To‘rtinchi sanoat inqilobi sharoitida iqtisodiyotni raqamlashtirish, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining bozor imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Elektron tijoratning rivojlanishi tadbirkorlarga geografik jihatdan cheklangan an’anaviy bozorlar doirasidan chiqib, kengroq iste’molchilar segmentiga xizmat ko‘rsatish, mahsulot va xizmatlarni onlayn shaklda taklif etish hamda savdo jarayonlarini qisqa vaqt ichida amalga oshirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, elektron tijorat platformalaridan foydalanish tadbirkorlik subyektlari uchun marketing xarajatlarini kamaytirish, mijozlar ehtiyojini tezkor aniqlash, individual takliflarni shakllantirish, to‘lov va yetkazib berish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda biznes faoliyatining shaffofligini oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Natijada raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion biznes modellarini joriy etish va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish faoliyatini rivojlantirishning muhim shartlaridan biriga aylanmoqda.

Ta’kidlash joizki, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatish bilan bir qatorda, iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning sifat jihatdan yangi mexanizmlarini shakllantirish uchun ham keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, raqamli platformalar va axborot tizimlari orqali katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor ravishda to‘plash, qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirish imkoniyati iqtisodiy subyektlarning qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtirmoqda. Ushbu imkoniyatlar asosida bozor talabini prognozlash, iste’molchilar xatti-harakatlarini o‘rganish,

ishlab chiqarish va savdo jarayonlarini optimallashtirish hamda strategik darajadagi “aqlli boshqaruv” tizimlarini tashkil etish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, elektron tijoratni raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish zamonaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash, tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish, innovatsion ishlab chiqarishlarni kengaytirish va mamlakatning raqamli iqtisodiyot sharoitidagi xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlashning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadbirkorlarning o’z biznes faoliyatida raqamli texnologiyalardan keng foydalanishayotgani natijasida soha bosqichma-bosqich elektron ko’rinishga o’tib bormoqda. Bunda ayniqsa mijozlar uchun ijtimoiy qulayliklar yaratilmoqda, xususan, foydalanuvchilar vaqt va mablag’larini tejamoqda. Tadbirkorlik faoliyati va foydalanuvchilar xaridlarining onlayn amalga oshirilishi amaliyoti kengayib bormoqda. Natijada zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida yangi turdagi elektron tijorat sohasi shakllanmoqda.

Mavjud xalqaro adabiyotlarda elektron tijoratning rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’siri yetarlicha o’rganilgan bo’lsa-da, rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan O’zbekiston misolida ushbu ta’sirni kompleks tarzda, ko’p omilli yondashuv asosida (raqamli infratuzilma, moliyalashtirish, huquqiy baza, inson kapitali, to’lov tizimlari, bozor kontsentratsiyasi va iste’molchi ishonchi omillarini birgalikda hisobga olgan holda) baholovchi tadqiqotlar amalda deyarli mavjud emas. Ayni shu holat, ya’ni rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O’zbekiston bo’yicha elektron tijoratning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini o’rganuvchi empirik va metodologik jihatdan asoslangan tadqiqotlarning yetishmasligi mazkur tadqiqotning ilmiy bo’shlig’ini tashkil etadi va uning dolzarbligini belgilaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu maqolaning maqsadi elektron tijorat faoliyati rivojlanishida global tendensiyalarni aniqlash va O’zbekiston Respublikasining ushbu sohadagi holatini mintaqaviy davlatlar bilan solishtirma tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Elektron tijorat tushunchasi qator xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan bevosita internet tarmog’i bilan bog’liq holda ta’riflangan va tushuntirilgan.

G’arb iqtisodchilaridan D.Eymor (2001) o’z tadqiqotlarida elektron tijorat deganda internet savdo tushunilishini ta’kidlagan [1]. Amerikalik iqtisodchi P.Gerpining (2011) fikriga ko’ra internet texnologiyalaridan foydalanilgan iqtisodiy faoliyatning barcha turlari elektron tijorat hisoblanadi [2]. Rossiyalik iqtisodchi I.Goldovskiy (2001) tomonidan esa tovarlarga buyurtmalarni internet orqali amalga oshirilgan savdoning barcha shakllari elektron tijoratga kirishi qayd etilgan [3]. Boshqa rossiyalik iqtisodchi I.Uspenskiy (2001) tomonidan berilgan ta’rif kengroq bo’lib, unda elektron tijorat deganda elektron usullar bilan amalga oshiriladigan, nomoddiy ayirboshlash va jismoniy muloqotsiz amaliyot natijasida mulkka bo’lgan egalik huquqining bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o’tishida yuzaga keladigan tijorat kelishuvlarining barcha shakllari tushunilishi keltirilgan [4].

O’zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrda qabul qilingan «Elektron tijorat to’g’risida»gi O’RQ-792-sonli Qonunida elektron tijorat tushunchasi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tadbirkorlik faoliyati doirasida axborot tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan oldi-sotdisi deb ta’riflangan [5].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot uch bosqichli metodologik yondashuv asosida olib borildi. Birinchi bosqichda elektron tijorat tushunchasiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tizimli adabiyotlar sharhi usulida o’rganildi hamda tushunchaning kontseptual mazmuni tizimlashtirildi. Ikkinchi bosqichda tegishli statistic ko’rsatkichlar asosida tavsifiy tahlil usuli qo’llanildi. Bunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo’yicha organining B2C E-tijorat indeksi (UNCTAD B2C E-commerce Index), Jahon banki Global Findex, Iqtisodiy hamkorlik va

taraqqiyot tashkiloti (OECD) hisobotlari hamda O’zbekiston Respublikasi milliy statistika qo’mitasining rasmiy ma’lumotlari asosida elektron tijoratning global va milliy dinamikasi, shuningdek O’zbekiston, Qozog’iston va Qirg’iziston bo’yicha qiyosiy tahlillar o’rganildi. Uchinchi bosqichda normativ-huquqiy tahlil usuli yordamida O’zbekiston Respublikasining «Elektron tijorat to’g’risida»gi O’RQ-792-sonli Qonuni va «Raqamli O’zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlovchi PF-6079-sonli Farmoni tahlil qilinib, sohani tartibga soluvchi institutsional asosalar aniqlandi.

Tahlil va natijalar

O’rganilgan adabiyotlarga ko’ra elektron tijoratni an’anaviy tijorat bilan solishtirilganda bir qancha afzalliklari mavjud. Ushbu afzalliklardan manfaat oluvchilar to’rt yo’nalishga bo’linadi: iste’molchilar, tadbirkorlik subyektlari, jamiyat va iqtisodiyot (1-rasm).

1-rasm. Elektron tijoratni an’anaviy tijorat shakllaridan afzalliklariga ko’ra yo’nalishlari[41]

Elektron tijoratdan foydalanish jamiyatning umumiy rivojlanishida quyidagi ijobiy tomonlari bilan muhim o’rin kasb etadi:

-elektron tijoratda savdoni tashkil etish korxonalar raqobatini kuchaytiradi, monopoliyadan chiqaradi va mahsulotlar sifatini oshiradi;

-ta’lim, sog’liqni saqlash, kommunal xo’jaligi kabi sohalarda keng ko’lamdagi qo’shimcha xizmatlar yaratiladi;

-aholi yashash darajasi oshadi;

-tadbirkorlikda shaffoflik ta’minlanishi natijasida korrupsion holatlarning oldi olinadi; milliy xavfsizlik oshadi;

-iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni tezlashadi;

-shaharda avtomobil qatnovi tirbandligi kamayadi va atrof-muhit ifloslanishining oldi olinadi.

Bundan tashqari, elektron tijorat mehnat bozorining kengayishi va malakali ishchi kuchidan foydalanish, eksport salohiyatining o’sishi, faoliyat turlarining kengayishi hamda davlat budjetining soliqli va soliqsiz daromadlarining ko’payishiga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development), AQSh, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi tomonidan kelishilgan holda elektron tijorat faoliyatini tashkil etishning to’rtta asosiy tamoyili ishlab chiqilgan, ular:

[41] Tadqiqot jarayonida muallif tomondan ilmiy adabiyotlarni o‘rganish natijasida shakllantirildi.

-bozor munosabatlaridagi raqobat qoidalariga ko’ra elektron tijorat rivojlanishida xususiy tarmoqning yetakchiligi;

-davlat aralashuvining minimal darajada bo’lishi va xalqaro huquqni muvofiqlashtirishning barqaror tizimi shakllanishiga ko’maklashish;

-sohaning global xususiyatiga ko’ra davlat siyosatining xalqaro darajada o’zaro kelishilgan bo’lishi;

-elektron tijoratni soliqqa tortish jarayonining an’anaviy shaklga nisbatan betaraf, xalqaro me’yorlarga mos va kam xarajatli bo’lishi [6].

Dunyo bo’ylab internetning keng tarqalishi biznes va savdo amaliyotlarini tez va tubdan o’zgartirdi. 1991-yilda dunyo bo’yicha internet foydalanuvchilari soni 3 milliondan kam bo’lgan va elektron tijorat mavjud emas edi. 1999-yilga kelib, taxminan 250 million kishi internetdan foydalangan, ularning qariyb chorak qismi esa elektron tijorat saytlarida umumiy qiymati taxminan 110 milliard dollar bo’lgan onlayn xaridlarni amalga oshirgan [7]. Oradan yigirma yildan ko’proq vaqt o’tib, onlayn xarid qiluvchilar soni keskin ko’paydi: Jahon banki Global Findex ma’lumotlar bazasiga ko’ra, 2021-yilda taxminan 2,3 milliard kishi onlayn xarid qilgan [8]. 2010-yildan buyon ko’plab mamlakatlarda elektron tijorat sezilarli darajada o’sdi va COVID-19 pandemiyasi bu jarayonni yanada tezlashtirdi (2-rasm).



2-rasm. Tanlangan iqtisodiyotlar va yillarda onlayn xarid qilgan internet foydalanuvchilari ulushi[42]

[42] UNCTAD (2024). B2C E-commerce Index. UN Trade and Development. https://unctad.org/topic/ecommerce-and-digital-economy/measuring-ecommerce-digital-economy

Shu bilan birga, aholining elektron tijoratdagi ishtiroki mamlakatlar kesimida hanuz keskin farq qiladi. Eng yuqori ko’rsatkich qayd etilgan mamlakatlarda aholining 80 % dan ortig’i onlayn xarid qiladi, aksariyat eng kam rivojlangan mamlakatlarda esa bu ulush 10 % dan pastligicha qolmoqda [9]. 2024-yil sentyabr oyida qabul qilingan Kelajak uchun Pakt tarkibidagi Global Raqamli Kelishuv ham xuddi shu yo’nalishda bo’lib, raqamli tafovutlarni bartaraf etish, inklyuziv va barqaror raqamli iqtisodiyotlarga erishish hamda ma’lumotlarni yaxshiroq boshqarishning muhimligini ta’kidlaydi [10]. Global elektron tijorat bozori 2016–2022-yillarda 60 % ga o’sib, 27 trln. dollarga yetgan, bu esa YaIM o’sishidan tezroq kengaymoqda va mamlakatlar uchun ulushni qo’lga kiritish yoki yo’qotish xavfini oshiradi [11].

UNCTAD tomonidan mamlakatlarning elektron tijoratga tayyorligini baholovchi rasmiy indeks “UNCTAD B2C E-commerce Index” ishlab chiqiladi. Ushbu indeks har yili chop etilib, dunyo mamlakatlarini (so’nggi nashrlarda 130 dan ortiq mamlakat) to’rtta asosiy ko’rsatkich asosida reytingga joylashtiradi. 1-jadvalda UNCTAD B2C indeksining O’zbekiston, Qozog’iston va Qirg’iziston bo’yicha solishtirma ma’lumotlari keltirilgan. Qozog’iston Respublikasining ko’rsatkichlari sezilarli darajada yuqori bo’lganligi sababli u O’zbekiston uchun benchmarking (etalon sifatida solishtirish) maqsadida tanlab olingan.

1-jadval

UNCTAD B2C indeksida O’zbekiston, Qozog’iston va Qirg’iziston solishtirmasi*

Ko’rsatkich	O’zbekiston	Qozog’iston	Qirg’iziston
E-commerce bozor hajmi, 2024	~1,2 mlrd. AQSH dollari (chakana savdoning 3,8%)	~7,3 mlrd. AQSH dollari (chakana savdoning 15,3%)	~360 mln. AQSH dollari
2023–2024 o’sish sur’ati	~30–47 %	~42 %	Barqaror (past sur’atli)
Internetdan foydalanish darajasi	~77–87 %	~92,9 %	Past (rivojlanmoqda)
UNCTAD B2C indeksidagi tendensiya	O’sish jarayonida; ko’rsatkichlari Qozog’istondan past	Mintaqada yetakchi, indeksda tez sur’atlarda yaxshilanmoqda	Benchmarking tadqiqotlarida referens sifatida qo’llanilmoqda

**Manba: UNCTAD B2C E-commerce Index (turli yillar nashrlari); AQSh Savdo Departamentining O’zbekiston va Qozog’iston bo’yicha Country Commercial Guides — eCommerce (2024–2025) hisobotlari asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan [11].*

1-jadval natijalariga ko’ra, O’zbekistonning elektron tijorat bozori nisbiy hajm jihatidan Qozog’istondan sezilarli darajada orqada qolmoqda, biroq o’sish sur’ati (30–47 %) mintaqada eng yuqorilaridan biri hisoblanadi. Bu esa infratuzilma va raqamli to’lov tizimlariga qilinayotgan investitsiyalar samara bera boshlaganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, internetdan foydalanish darajasi (77–87 %) Qozog’istonnikidan (92,9 %) pastroq bo’lib, bu UNCTAD indeksidagi asosiy tarkibiy qismlardan birida O’zbekiston uchun o’sish salohiyati mavjudligini ko’rsatadi [12].

O’zbekiston Respublikasida elektron tijorat faoliyati 2022-yil 29-sentabrda qabul qilingan «Elektron tijorat to’g’risida»gi O’RQ-792-sonli Qonuni asosida tartibga solinadi [13]. Ushbu normativ-huquqiy hujjat elektron tijorat sub’yektlari o’rtasidagi munosabatlarni kompleks tarzda tartibga solib, sotuvchi, xaridor va axborot vositachilarining huquqiy holatini, ularning davlat ro’yxatidan o’tkazilishi tartibini, shuningdek elektron savdo maydonchalari orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarning huquqiy asoslarini belgilaydi. Qonunda mustahkamlangan tadbirkorlik erkinligi, shartnoma tuzishning ixtiyoriyligi, ishtirokchilar o’rtasidagi tenglik, jarayonlarning ochiqligi va axborot xavfsizligini ta’minlash kabi tamoyillar elektron tijoratning institutsional asosini tashkil etadi. Bunda Raqamli texnologiyalar vazirligi soha bo’yicha

vakolatli davlat organi sifatida belgilangan.

Mazkur qonun elektron hujjat aylanishini an’anaviy qog’oz shaklidagi hujjat aylanishi bilan huquqiy jihatdan tenglashtirish orqali raqamli iqtisodiyot subyektlari o’rtasidagi bitimlarning yuridik kuchga ega bo’lishini ta’minlaydi: SMS, Face-ID kabi identifikatsiya usullari orqali tasdiqlangan aksept qog’ozdagi qo’lda imzolangan hujjat bilan bir xil huquqiy maqomga ega deb tan olinadi. Shu bilan birga, qonun iste’molchilarning tovar (ish, xizmat) to’g’risida to’liq va ishonchli axborot olish huquqini, elektron tijorat sub’yektlari o’rtasidagi teng sharoitlarni hamda to’langan mablag’larni qaytarish tartibini belgilash orqali xaridorlarning huquqlarini himoya qilish mexanizmini shakllantiradi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan «Raqamli O’zbekiston – 2030» strategiyasi mamlakatda raqamli iqtisodiyotni, jumladan elektron tijorat sohasini, kompleks rivojlantirish uchun institutsional asos bo’ldi [14]. Strategiyaning tegishli bandida quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan: masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish; elektron tijoratning huquqiy asoslari va standartlarini xalqaro talablarga muvofiq takomillashtirish; raqamli infratuzilmani rivojlantirish orqali elektron tijorat platformalariga ulanish imkoniyatlarini kengaytirish; pochta va logistika infratuzilmasini modernizatsiyalash, jumladan fulfilment markazlarini yaratish; to’lov agregatorlarini rivojlantirish; transchegaraviy elektron tijoratni rivojlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini eksport qilishni ta’minlash; QR-to’lov va NFC texnologiyalarini joriy etish; sohada malakali kadrlar tayyorlash.

Yuqorida ta’kidlangan ijobiy tomonlar bilan bir qatorda, o’tkazilgan tahlil elektron tijorat sohasida iste’molchilar va bozor uchun quyidagi xavf hamda noqulayliklarni ham aniqladi:

-onlayn sotilayotgan tovarlarga iste’molchining ishonchsizligi;

-xarid qilingan tovarni darhol emas, bir muddat kutib olish zarurati;

-tovar qaytariladigan taqdirda to’langan mablag’ni qaytarib olishdagi murakkabliklar;

-yetkazib berish uchun qo’shimcha haq to’lanishi natijasida tovar narxining oshishi; raqamli tayyorgarlik va infratuzilma tengsizligi;

-raqamli tijorat korxonalarini moliyalashtirishdagi tanqislik;

-huquqiy-tartibga solish bazasidagi bo’shliqlar; raqamli ko’nikmalar va inson kapitali darajasining pastligi;

-to’lov tizimlari samaradorligining pastligi; bozor kontsentratsiyasi va raqobat muammosi;

-iste’molchi ishonchi va ma’lumot shaffofligi muammosi;

-sohaga oid metodologik va empirik tadqiqotlarning yetishmasligi.

Muhokama

O’tkazilgan tahlil natijalari uch asosiy xulosani shakllantirish imkonini beradi. Birinchidan, raqamli texnologiyalar xalqaro elektron tijoratda endi tanlov emas, balki raqobatbardoshlikning zaruriy sharti hisoblanadi. Bu xulosa Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida qabul qilingan Global Raqamli Kelishuv kabi siyosiy hujjatlar bilan ham tasdiqlanadi. Ular raqamli hamkorlik, sun’iy intellekt boshqaruvi, raqamli tenglik va internet infratuzilmasiga oid global tamoyillarni belgilaydi [15]. Ikkinchidan, global elektron tijorat bozori (2016–2022-yillarda 60 % o’sib, 27 trln. dollarga yetgan) YaIM o’sishidan tezroq kengaymoqda, bu esa sekin moslashuvchi mamlakatlar uchun bozor ulushini yo’qotish xavfini kuchaytiradi. Uchinchidan, UNCTAD B2C E-commerce Index kabi xalqaro indekslar O’zbekistonga o’z pozitsiyasini mintaqaviy raqobatchilar bilan solishtirish va aniq yo’nalishlarda internet qamrovi, raqamli to’lov infratuzilmasi, pochta yetkazib berish sifati ustuvor investitsiyalarini belgilash imkonini beradi.

O’zbekistonda kuzatilayotgan yuqori o’sish sur’ati (2023–2024-yillarda 14–47 %) bilan bozorning nisbatan kichik hajmi (chakana savdoning atigi 3,8 %) o’rtasidagi tafovut mavjud. Unda mamlakat elektron tijorat rivojlanishining dastlabki, jadal ekstensiv bosqichida bo’lib,

qo’shni Qozog’iston esa allaqachon barqaror kengayish bosqichiga o’tgan. Internetdan foydalanish darajasidagi farq (77–87 % va 92,9 %) shuni ko’rsatadiki, raqamli infratuzilma qamrovi hali ham asosiy cheklovchi omillardan biri bo’lib qolmoqda. Shu bilan birga, «Elektron tijorat to’g’risida»gi Qonun va «Raqamli O’zbekiston - 2030» strategiyasining qabul qilinishi institutsional asoslarning shakllanganligini ko’rsatadi. Biroq amaliyotda to’lov tizimlari samaradorligi, logistika infratuzilmasi va iste’molchilar ishonchi kabi omillar bo’yicha hali ham sezilarli bo’shliqlar mavjud.

Xulosa va tavsiyalar

O’tkazilgan tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- elektron tijorat tushunchasi nazariy jihatdan internet texnologiyalari orqali amalga oshiriladigan barcha iqtisodiy-tijorat munosabatlarini qamrab oladi va u iste’molchilar, tadbirkorlik subyektlari, jamiyat hamda iqtisodiyot uchun tizimli afzalliklarga ega;

- global miqyosda elektron tijorat bozori an’anaviy iqtisodiyot o’sishidan tezroq sur’atlarda kengaymoqda, biroq mamlakatlar o’rtasida raqamli infratuzilma va foydalanish darajasi bo’yicha keskin tengsizlik saqlanib qolmoqda;

- O’zbekiston elektron tijorat savdo hajmi bo’yicha 2016–2024-yillarda yuqori o’sish sur’atlariga (jami taxminan 2200 barobar) erishgan bo’lsa-da, bozorning YaIM va chakana savdodagi ulushi mintaqaviy yetakchi Qozog’istondan sezilarli darajada past bo’lib qolmoqda;

- «Elektron tijorat to’g’risida»gi O’RQ-792-sonli Qonun va «Raqamli O’zbekiston – 2030» strategiya sohani institutsional jihatdan tartibga solish uchun zarur huquqiy asosni yaratgan bo’lsada, biroq uni amalga oshirishda internet qamrovi, to’lov tizimlari va logistika infratuzilmasi bo’yicha bo’shliqlar mavjudligicha qolmoqda.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchidan, mamlakat hududlari, xususan qishloq joylarida internetdan foydalanish darajasini oshirish bo’yicha maqsadli dasturlarni kuchaytirish, chunki bu ko’rsatkich UNCTAD indeksidagi asosiy tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi; ikkinchidan, raqamli to’lov infratuzilmasi va to’lov agregatorlari tizimini yanada rivojlantirish orqali onlayn to’lovlarning qulayligi va xavfsizligini oshirish; uchinchidan, pochta va fulfilment (logistika) markazlari tarmog’ini kengaytirish orqali yetkazib berish xarajatlarini va muddatlarini qisqartirish; to’rtinchidan, iste’molchilarning onlayn savdoga ishonchini oshirish maqsadida tovar sifati va qaytarish tartib-taomillari bo’yicha shaffoflikni ta’minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish; beshinchidan, elektron tijoratning iqtisodiy samaradorligini miqdoriy baholovchi milliy metodologiya va statistik hisobot tizimini ishlab chiqish, bu esa kelgusida sohani empirik tadqiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to’g’risida”gi Qonuni, 29.09.2022-yildagi O’RQ-792-son. // https://lex.uz/docs/-6213382

2. Эймор Д. Электронный бизнес. Эволюция и/или революция. – М.: Вильямс, 2001. – 320 с.

3. Gary P. Electronic Commerce, Ninth Edition. – Schneider, Phd, CPA. Printed in the United States of America, 2011. – P. 4.

4. Голдовский И. Безопасность платежей в Интернете. – СПб.: Питер, 2001. – 240 с.

5. Успенский И. Энциклопедия Интернет-бизнеса. – СПб.: Питер, 2001. – С. 61.

6. Электронная торговля в России: перспективы развития и роста: доклад Американской Торговой Палаты в России при участии Торгово-Промышленной Палаты Российской Федерации, 2001. – С. 8–9.

7. OECD (2000). E-Commerce: Impacts and Policy Challenges. OECD Economics Department Working Papers, No. 252. – Paris: OECD Publishing.

8. World Bank (2021). The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. – Washington, DC: World Bank.

9. UNCTAD (2024). B2C E-commerce Index. UN Trade and Development. //

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

https://unctad.org/topic/ecommerce-and-digital-economy/measuring-ecommerce-digital-economy

10. UNCTAD B2C E-commerce Index (turli yillar nashrlari); U.S. Department of Commerce, Uzbekistan va Kazakhstan Country Commercial Guides — eCommerce (2024–2025); News Central Asia, “Report: State of E-Commerce in Central Asia” (2025).

11. United Nations (2024). Global Digital Compact. Annex to the Pact for the Future, adopted at the Summit of the Future, 22 September 2024, New York.

12. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. “Elektron tijorat savdo hajmi (yillik)” indikatori (kod: 1.07.02.0019). // https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_2833.pdf

13. O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi. Elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo’shilgan qiymat hajmi (yillik). Raqamli iqtisodiyot bo’limi. Ma’lumotlar to’plami kodi: 1.01.05.0007. // https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot

14. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son bilan tasdiqlangan “Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risidagi Farmoni. // https://lex.uz/docs/5030957

SUV TAQCHILLIGI SHAROITIDA SHOLICHILIK TARMOG‘INING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY YO‘NALISHLARI (QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)

Sultanova Gulshira Alimbetovna
Berdaq nomidagi
Qoraqalpoq davlat universiteti tadqiqatchisi
e-mail: sultanovagulshira83@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada suv taqchilligi sharoitida Qoraqalpog‘iston Respublikasida sholichilik tarmog‘ini rivojlantirishning innovatsion va tashkiliy-iqtisodiy yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Hududda suv resurslarining cheklanganligi sholichilikda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, suvdan oqilona foydalanish va zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Tadqiqotda suvni tejovchi sug‘orish texnologiyalari, raqamli monitoring, innovatsion agrotexnik usullar, yuqori hosildor navlardan foydalanish hamda xo‘jaliklararo kooperatsiyani rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, sholichilikda resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *suv taqchilligi, sholichilik, innovatsion texnologiyalar, suvni tejash, agrotexnologiyalar, raqamli monitoring, resurs samaradorligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm.*

ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РИСОВОДСТВЕ В УСЛОВИЯХ ДЕФИЦИТА ВОДНЫХ РЕСУРСОВ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН)

Султанова Гульшира Алимбетовна
исследователь Каракалпакского государственного университета имени Бердаха
e-mail: sultanovagulshira83@gmail.com

Аннотация. *В статье исследованы инновационные и организационно-экономические направления развития рисоводства в условиях дефицита водных ресурсов на примере Республики Каракалпакстан. Ограниченность водных ресурсов региона обусловливает необходимость повышения эффективности производства риса, рационального использования воды и внедрения современных агротехнологий. Рассмотрены вопросы применения водосберегающих технологий орошения, цифрового мониторинга, инновационных агротехнических методов, высокоурожайных сортов, а также развития межхозяйственной кооперации. Разработаны предложения по совершенствованию организационно-экономических механизмов, направленных на эффективное использование ресурсов и снижение производственных затрат в рисоводстве.*

Ключевые слова: *дефицит воды, рисоводство, инновационные технологии, водосбережение, агротехнологии, цифровой мониторинг, эффективность ресурсов, Республика Каракалпакстан, организационно-экономический механизм.*

ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN RICE PRODUCTION UNDER WATER SCARCITY (A CASE STUDY OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN)

Sultanova Gulshira Alimbetovna
Researcher at
Berdakh Karakalpak State University
e-mail: sultanovagulshira83@gmail.com

Abstract. *This article examines the innovative and organizational-economic directions for developing the rice-growing sector under water scarcity, using the Republic of Karakalpakstan as an example. Limited water resources in the region necessitate improving rice production efficiency, rational water use, and the introduction of modern agricultural technologies. The study focuses on water-saving irrigation technologies, digital monitoring, innovative agronomic methods, high-yield rice varieties, and the development of inter-farm cooperation. Proposals are developed to improve organizational and economic mechanisms aimed at efficient resource utilization and reducing production costs in rice cultivation.*

Keywords: *water scarcity, rice cultivation, innovative technologies, water conservation, agrotechnologies, digital monitoring, resource efficiency, Republic of Karakalpakstan, organizational-economic mechanism.*

Kirish

Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining cheklanishi va qishloq xo‘jaligida suvga bo‘lgan talabning ortib borishi sholichilik tarmog‘ini rivojlantirishda samarali va resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, suv tanqisligi yuqori bo‘lgan hududlarda sholi yetishtirish jarayonlarini an’anaviy usullardan innovatsion texnologiyalarga bosqichma-bosqich o‘tkazish nafaqat suv resurslaridan oqilona foydalanish, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi tabiiy-iqlim sharoitining o‘ziga xosligi, suv resurslarining cheklanganligi hamda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida sug‘orishga yuqori darajada bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Mazkur hududda sholichilikni barqaror rivojlantirish uchun suv sarfini kamaytirish, hosildorlikni oshirish, mehnat va moddiy resurslardan samarali foydalanish hamda zamonaviy agrotexnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, suvni tejovchi sug‘orish texnologiyalari, raqamli monitoring tizimlari, zamonaviy agrotexnik usullar, yuqori hosildor va suv tanqisligiga chidamli navlardan foydalanish sholichilikning iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishlari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunday texnologiyalarni hududning tabiiy-iqlim va ishlab chiqarish sharoitlariga moslashtirish esa ularni amaliyotga samarali joriy etishning asosiy shartlaridan biridir.

Shundan kelib chiqib, Qoraqalpog‘iston Respublikasida suv taqchilligi sharoitida sholichilik tarmog‘ida innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tarmoqning barqarorligini ta’minlash masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Suv resurslarining cheklanishi sholichilikni rivojlantirishda innovatsion va resurs-tejamkor texnologiyalarni qo‘llash masalasini ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishiga aylantirmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda, ayniqsa, sug‘orish suvini tejash, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va hosildorlikni saqlab qolishga imkon beruvchi texnologiyalarga katta e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, suvdan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarda **almashlab namlash va quritish (AWD)** texnologiyasi sholichilik uchun istiqbolli usullardan biri sifatida baholangan. Ushbu texnologiya an’anaviy doimiy suv bostirib sug‘orishga nisbatan suv sarfini kamaytirish va suv unumdorligini oshirish imkonini beradi [1]. Biroq AWD texnologiyasining samaradorligi tuproq xususiyatlari, iqlim sharoiti, sug‘orish chegaralari va

sholi navlariga bog‘liqligi qayd etilgan.

Bo va boshqalar tomonidan olib borilgan global tadqiqotda 1 187 ta dala kuzatuvi asosida AWD texnologiyasining samaradorligi baholangan. Mualliflar tuproqdagi namlik potensialini hisobga olgan holda tashkil etilgan sug‘orish tizimi global sug‘oriladigan sholi maydonlarining katta qismida suv unumdorligini oshirish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatgan [2]. Bu natija innovatsion texnologiyalarni hududning tabiiy-iqlim sharoitlariga moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Bwire va hammualliflar suv boshqaruvining iqlimga moslashuvchan texnologiyalarini o‘rganib, sholichilikda an’anaviy doimiy suv bostirish usulining yuqori suv talabini ta’kidlagan. Ularning fikricha, AWD texnologiyasini dala sharoitidagi suv rejimi va tuproq gidrologik xususiyatlarini hisobga olgan holda qo‘llash suv resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi [3]. Mazkur yondashuv suv tanqisligi yuqori bo‘lgan hududlar, jumladan, Qoraqalpog‘iston sharoiti uchun ham ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Zamonaviy adabiyotlarda sholichilikda innovatsion texnologiyalar faqat AWD bilan cheklanmasligi qayd etiladi. Tadqiqotchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekish, aerobil sholichilik, tomchilatib sug‘orish, suv bilan to‘yingan tuproq sharoitida yetishtirish, guruchni intensivlashtirish tizimi hamda sensor va IoT asosidagi aqlli sug‘orish texnologiyalarini suv samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishlari sifatida ko‘rsatmoqda [4]. Bunda texnologiyani tanlashda hududning iqlimi, tuproq tarkibi, mehnat resurslari va texnik imkoniyatlari hisobga olinishi lozim.

Shuningdek, global meta-tahlillar AWD texnologiyasining suv tejash bilan bir qatorda ekologik samaradorligini ham ko‘rsatmoqda. 2024-yilda amalga oshirilgan keng qamrovli tadqiqotda AWD sug‘orish usuli sug‘orish suviga bo‘lgan ehtiyojni sezilarli darajada kamaytirishi va suvdan foydalanish samaradorligini oshirishi aniqlangan [5]. Biroq ayrim sharoitlarda hosildorlikning pasayishi ehtimoli mavjudligi sababli texnologiyani hududiy sharoitlarga moslashtirish muhimligi ta’kidlangan.

Boshqa bir global meta-tahlilda AWD texnologiyasining sholi hosildorligi va issiqxona gazlari emissiyasiga ta’siri o‘rganilib, texnologiyaning ekologik samarasi tuproq, iqlim va agrotexnik sharoitlarga bog‘liqligi aniqlangan [6]. Ushbu xulosalar suv tanqisligi sharoitida sholichilikni rivojlantirishda ekologik va iqtisodiy manfaatlarni birgalikda hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Johnson va hammualliflar tomonidan Burkina-Faso sharoitida olib borilgan dala tadqiqotlari ham suv tanqisligi mavjud hududlarda AWD texnologiyasining amaliy samaradorligini ko‘rsatgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu texnologiya sug‘orish suviga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirish bilan birga sholi hosildorligi, suv unumdorligi va fermerlarning foydasini oshirish imkonini bergan [7]. Bu tajriba suv resurslari cheklangan hududlarda texnologik innovatsiyalarning iqtisodiy ahamiyatini asoslaydi.

Sholichilikda suvni tejash texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligi masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotlarda AWDni boshqa agrotexnik tadbirlar, jumladan, o‘g‘itlash, organik moddalardan foydalanish va tuproq unumdorligini boshqarish bilan integratsiyalash suv sarfini kamaytirish bilan birga hosildorlikni barqarorlashtirishi mumkinligi aniqlangan [8]. Demak, innovatsion texnologiyalarni alohida emas, balki yagona tashkiliy-iqtisodiy tizim sifatida joriy etish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar sholichilikda innovatsion suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llashning yuqori salohiyatini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, tadqiqotlarning aksariyati alohida texnologiyaning agrotexnik yoki ekologik samaradorligiga qaratilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasining suv tanqisligi, tuproq-iqlim sharoiti, ishlab chiqarish infratuzilmasi va fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy imkoniyatlarini birgalikda hisobga olgan holda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini kompleks tadqiq etish masalasi yetarlicha ochib berilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy yo‘nalishini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda Qoraqalpog‘iston Respublikasida suv taqchilligi sharoitida sholichilik tarmog‘ini innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari tizimli yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini **tizimli, qiyosiy va iqtisodiy tahlil, statistik umumlashtirish hamda ekspert baholash** usullari tashkil etdi. Sholichilikda suv resurslaridan foydalanish samaradorligi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari, ishlab chiqarish xarajatlari va hosildorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida an’anaviy sug‘orish usullari bilan suv tejovchi texnologiyalar, jumladan, **almashlab namlash va quritish (AWD), raqamli monitoring, zamonaviy agrotexnik usullar hamda suv sarfini nazorat qilish texnologiyalari** qiyosiy baholandi. Innovatsion texnologiyalarning samaradorligi suv sarfini qisqartirish, hosildorlikni oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va ishlab chiqaruvchilar daromadini ko‘paytirish mezonlari asosida baholandi.

Shuningdek, hududning tabiiy-iqlim sharoiti, suv ta’minoti, ishlab chiqarish infratuzilmasi va xo‘jaliklarning texnologik imkoniyatlari hisobga olinib, innovatsiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi shakllantirildi. Olingan natijalar asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasida suv resurslaridan oqilona foydalanish va sholichilikning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Qoraqalpog‘iston Respublikasida suv taqchilligi sharoitida sholichilikni rivojlantirishning asosiy muammolaridan biri suv resurslaridan foydalanish samaradorligining yetarli darajada yuqori emasligidir. Sholi suvga talabchan ekin hisoblanganligi sababli sug‘orish texnologiyasini takomillashtirish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va hosildorlikni barqarorlashtirishning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli tadqiqotda an’anaviy sug‘orish usuli bilan suv tejovchi innovatsion texnologiyalarning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari qiyosiy baholandi.

1-jadval

Sholichilikda sug‘orish texnologiyalarining asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari[43]

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy sug‘orish	AWD texnologiyasi	Innovatsion texnologiyalarning ustunligi
Suv sarfi, ming m³/ga	18,0	13,5	25,0% tejash
Hosildorlik, t/ga	4,8	5,1	6,3% o‘sish
Mahsulot tannarxi, mln so‘m/ga	16,2	14,5	10,5% kamayish
Yalpi daromad, mln so‘m/ga	28,8	30,6	6,3% o‘sish
Sof daromad, mln so‘m/ga	12,6	16,1	27,8% o‘sish
Suv unumdorligi, kg/m³	0,27	0,38	40,7% o‘sish

Jadval ma’lumotlari innovatsion sug‘orish texnologiyalaridan foydalanish sholichilikning iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi. Xususan, AWD texnologiyasi qo‘llanilganda bir gektar maydonga sarflanadigan suv miqdori 18,0 ming m³ dan 13,5 ming m³ gacha kamayib, suv sarfi 25 foizga qisqarmoqda. Shu bilan birga, hosildorlik 4,8 t/ga dan 5,1 t/ga gacha oshmoqda.

Innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy samarasi, avvalo, suv va ishlab chiqarish xarajatlarining qisqarishi hisobiga shakllanadi. An’anaviy usulda bir gektardan olinadigan sof daromad 12,6 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, AWD texnologiyasida ushbu ko‘rsatkich 16,1 mln so‘mgacha yetadi. Natijada sof daromadning o‘sishi 27,8 foizni tashkil etadi.

[43] Muallif ishlanmasi

2-jadval

Innovatsion texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy samarasi[44]

Yo‘nalish	An’anaviy holat	Innovatsion yondashuv	Kutilayotgan natija
Sug‘orish	Doimiy suv bostirish	AWD va nazoratli sug‘orish	Suv sarfi kamayadi
Suv monitoringi	Qo‘lda nazorat	Sensor va raqamli monitoring	Suv yo‘qotishlari kamayadi
Agrotexnika	An’anaviy usullar	Resurs-tejamkor agrotexnologiyalar	Hosildorlik oshadi
Urug‘chilik	Oddiy navlardan foydalanish	Hosildor va moslashuvchan navlar	Hosil barqarorlashadi
Xarajatlar	Yuqori	Mexanizatsiya va raqamlashtirish	Tannarx pasayadi
Boshqaruv	Tarqoq	Integratsiyalashgan boshqaruv	Qaror qabul qilish tezlashadi

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Qoraqalpog‘iston sharoitida innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish faqat suv tejash bilan cheklanmasligi kerak. Texnologik yangilanish sug‘orish, agrotexnika, urug‘chilik, raqamli monitoring va ishlab chiqarishni boshqarish jarayonlarini yagona tizimga birlashtirishi lozim.

Shu asosda tadqiqotda sholichilik uchun **“suvni tejash – raqamli nazorat – resurs samaradorligi – iqtisodiy natija”** tamoyiliga asoslangan tashkiliy-iqtisodiy model taklif etiladi. Mazkur modelda suv sarfini real vaqt rejimida monitoring qilish, sug‘orish muddatlarini optimallashtirish, fermer xo‘jaliklarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash va innovatsion texnologiyalarni joriy etishni iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini birlashtirish nazarda tutiladi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish natijasida asosiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi, %[45]

Suv sarfi	-25,0%
Mahsulot tannarxi	-10,5%
Hosildorlik	+6,3%
Yalpi daromad	+6,3%
Sof daromad	+27,8%
Suv unumdorligi	+40,7%

Natijalar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, suv taqchilligi sharoitida sholichilikni rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishi mavjud suv resurslarini kengaytirish emas, balki mavjud resursdan olinadigan iqtisodiy natijani oshirishdir. Buning uchun suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini raqamli monitoring, zamonaviy agrotexnika va iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida mazkur yondashuvning bosqichma-bosqich joriy etilishi suv sarfini kamaytirish, hosildorlikni barqarorlashtirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va sholichilik bilan shug‘ullanuvchi xo‘jaliklarning daromadliligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni hududlarning suv ta’minoti va tuproq-iqlim xususiyatlaridan kelib chiqib differensial joriy etish maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, suv taqchilligi sharoitida Qoraqalpog‘iston Respublikasida sholichilik tarmog‘ini rivojlantirishning asosiy sharti mavjud suv resurslaridan samarali va tejamkor foydalanish bilan bir qatorda, ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni tizimli ravishda joriy etishdan iborat. Hududning tabiiy-iqlim sharoiti, suv resurslarining cheklanganligi, sug‘orish infratuzilmasining ayrim qismlarida yo‘qotishlarning mavjudligi hamda ishlab chiqarish xarajatlarining ortib borishi sholichilikda an’anaviy

[44] Muallif ishlanmasi
[45] Muallif ishlanmasi

yondashuvlardan bosqichma-bosqich voz kechishni talab etmoqda.

Sholichilikda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish faqat sug‘orish hajmini kamaytirish bilan emas, balki suvning ekinning rivojlanish bosqichlariga mos ravishda taqsimlanishi, sug‘orish muddatlarining optimallashtirilishi va suv sarfining raqamli monitoringi bilan ta’minlanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, suvni tejovchi sug‘orish texnologiyalaridan foydalanish, kanallar va ichki sug‘orish tarmoqlaridagi yo‘qotishlarni kamaytirish, tuproq namligini nazorat qilish hamda zamonaviy agrotexnik usullarni qo‘llash sholichilikning resurs samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot shuni ham ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy samarasi ularni alohida texnologik vosita sifatida emas, balki yagona **tashkiliy-iqtisodiy mexanizm** doirasida joriy etish orqali yuqori natija beradi. Bunda fermer xo‘jaliklarining moliyaviy imkoniyatlari, suv ta’minoti, texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasi, innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalari, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan iqtisodiy rag‘batlantirish choralarining o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpog‘iston sharoitida sholichilikning barqarorligini ta’minlash uchun suv tanqisligiga moslashgan navlardan foydalanish, agrotexnik tadbirlarni optimallashtirish va raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, suv sarfi, tuproq namligi, ekin holati va hosildorlik ko‘rsatkichlarini muntazam kuzatib borish asosida qaror qabul qilish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, sholichilikda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishning muhim yo‘nalishlaridan biri fermer xo‘jaliklari, suv xo‘jaligi tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hisoblanadi. Bunday hamkorlik innovatsion ishlanmalarni amaliyotga tezroq tatbiq etish, fermerlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish hamda suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha yagona yondashuvni shakllantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, suv taqchilligi sharoitida Qoraqalpog‘iston Respublikasida sholichilikni rivojlantirishning istiqbolli modeli **“suvni tejash – innovatsiyani joriy etish – raqamli monitoring – ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish – hosildorlik va rentabellikni oshirish”** tamoyillari asosida shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv nafaqat mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish, balki sholichilikning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlash imkonini beradi.

Takliflar

Birinchidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasining suv ta’minoti darajasi turlicha bo‘lgan hududlari bo‘yicha sholichilikning differensial rivojlantirish modelini ishlab chiqish lozim. Bunda suv bilan yaxshi ta’minlangan hududlar, suv taqchilligi yuqori bo‘lgan hududlar va suv ta’minoti xavfi mavjud hududlar uchun alohida agrotexnik va iqtisodiy mexanizmlarni qo‘llash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, sholi yetishtirishda suv sarfini aniq hisobga olish va nazorat qilish uchun raqamli hisoblagichlar, masofaviy monitoring va avtomatlashtirilgan nazorat vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish zarur. Bu suvdan foydalanish samaradorligini baholash bilan birga, ortiqcha suv sarfi va yo‘qotishlarini aniqlash imkonini beradi.

Uchinchidan, suv taqchilligi sharoitiga mos, qisqa vegetatsiya davriga ega va yuqori hosildor sholi navlarini hududlashtirish hamda ularni ishlab chiqarishga keng joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy ishlarni kuchaytirish kerak. Nav tanlashda faqat hosildorlik emas, balki suvga bo‘lgan talab, sho‘rlanishga chidamlilik va mahsulot sifati kabi ko‘rsatkichlar ham hisobga olinishi lozim.

To‘rtinchidan, innovatsion texnologiyalarni joriy qilayotgan xo‘jaliklarni iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish taklif etiladi. Xususan, suvni tejovchi texnologiyalarni xarid qilish va o‘rnatish xarajatlarining bir qismini subsidiyalash, imtiyozli kreditlar ajratish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish zarur.

Beshinchidan, sholichilik xo‘jaliklarida suv sarfi va ishlab chiqarish xarajatlarini

birgalikda tahlil qiluvchi **“1 tonna sholi uchun suv sarfi”** ko‘rsatkichini amaliy monitoring tizimiga kiritish maqsadga muvofiq. Ushbu ko‘rsatkich xo‘jaliklar kesimida resurslardan foydalanish samaradorligini taqqoslash va eng samarali texnologiyalarni aniqlash imkonini beradi.

Oltinchidan, sholichilikda raqamli agrotexnologiyalarni rivojlantirish maqsadida tuproq namligi, suv sathi, havo harorati va ekinlarning rivojlanish holatini kuzatuvchi monitoring tizimlarini qo‘llash lozim. Olingan ma’lumotlardan foydalanib, sug‘orish muddatlari va hajmlarini optimallashtirish suv sarfini kamaytirish bilan birga hosildorlikni barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Yettinchidan, fermer xo‘jaliklari o‘rtasida kooperatsiya mexanizmlarini rivojlantirish orqali zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari, suvni tejovchi uskunalar va raqamli monitoring vositalaridan birgalikda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu kichik xo‘jaliklarning innovatsion texnologiyalarga kirish imkoniyatini oshiradi va texnologik xarajatlarni kamaytiradi.

Sakkizinchidan, sholichilik sohasida ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga tezkor joriy etish uchun tajriba xo‘jaliklari va innovatsion poligonlarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Mazkur maydonlarda suvni tejovchi texnologiyalar, yangi navlar va zamonaviy agrotexnik usullarni mahalliy sharoitda sinovdan o‘tkazish mumkin.

To‘qqizinchidan, sholichilik bilan shug‘ullanuvchi fermerlar uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish, suvni boshqarish va raqamli monitoring bo‘yicha amaliy o‘quv dasturlarini tashkil etish lozim. Chunki texnologiyaning mavjudligi bilan bir qatorda undan to‘g‘ri va samarali foydalanish bo‘yicha inson kapitalining yetarli darajada shakllanganligi ham muhim omil hisoblanadi.

O‘ninchidan, sholichilikni rivojlantirishda faqat ishlab chiqarish hajmini oshirishga emas, balki **suv birligiga to‘g‘ri keladigan hosildorlik, mahsulot tannarxi, rentabellik va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga** ustuvor ahamiyat berish lozim. Bunday yondashuv suv resurslari cheklangan sharoitda tarmoqning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Integrated management approaches enabling sustainable rice production under alternate wetting and drying irrigation. *Agricultural Water Management*, 2023, Vol. 281, 108265.

2. Bo Y., Wang X., van Groenigen K.J. et al. Improved alternate wetting and drying irrigation increases global water productivity. *Nature Food*, 2024, Vol. 5, pp. 1005–1013.

3. Bwire D., Saito H., Sidle R.C., Nishiwaki J. Water Management and Hydrological Characteristics of Paddy-Rice Fields under Alternate Wetting and Drying Irrigation Practice as Climate Smart Practice: A Review. *Agronomy*, 2024, Vol. 14(7), 1421.

4. Maximizing Water Use Efficiency in Rice Farming: A Comprehensive Review of Innovative Irrigation Management Technologies. *Water*, 2023, Vol. 15(10), 1802.

5. Effects of alternate wetting and drying irrigation on yield, water-saving, and emission reduction in rice fields: A global meta-analysis. *Agricultural and Forest Meteorology*, 2024, Vol. 353, 110075.

6. Alternate wetting and drying maintains rice yield and reduces global warming potential: A global meta-analysis. *Field Crops Research*, 2024, Vol. 318, 109603.

7. Johnson J.-M., Becker M., Kaboré J.E.P., Dossou-Yovo E.R. et al. Alternate wetting and drying: a water-saving technology for sustainable rice production in Burkina Faso? *Nutrient Cycling in Agroecosystems*, 2024, Vol. 129, pp. 93–111.

8. Huang Y. Innovations in Water Management for Rice Cultivation: Benefits of Alternating Wetting and Drying. *Field Crop*, 2024, Vol. 7, No. 4.

9. Enhancing rice yields, water productivity, and profitability through alternate wetting and drying technology in farmers’ fields in the dry climatic zones of West Africa. *Agricultural Water Management*, 2024, Vol. 304, 109096.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

SUVEREN FONDLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING TRUMAN-BAGNALL METODOLOGIYASI

Jumaniyazov Inojon Turayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Moliya” kafedrasi dotsenti, PhD
e-mail: jumaniyazov_inomjon@tsue.uz

Annotatsiya. *Mazkur maqolada suveren fondlar faoliyati samaradorligini xalqaro miqyosda baholashning tan olingan vositalaridan biri – Edwin Truman (2007-2008) tomonidan ishlab chiqilgan va Bagnall hamda Truman (2013) tomonidan takomillashtirilgan "SWF Scoreboard" metodologiyasining mazmuni, baholash mezonlari va O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi (TTJ) misolida qo‘llanilishi tadqiq etiladi. Tadqiqot maqsadi – 33 elementli, to‘rt yo‘nalishli baholash tizimini milliy sharoitga moslashtirib, TTJ faoliyatining xalqaro andozalarga muvofiqlik darajasini miqdoriy va sifat jihatdan aniqlashdan iborat. Tadqiqot uchun birlamchi huquqiy hujjatlar, TTJ va Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy ma’lumotlari, Butunjahon banki loyiha hujjatlari hamda Global SWF instituti tomonidan e’lon qilingan mustaqil reyting ma’lumotlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, TTJ tuzilmaviy jihatdan aniq huquqiy asosga ega bo‘lsa-da, boshqaruv mustaqilligi, moliyaviy shaffoflik va investitsiya siyosatini oshkor qilish bo‘yicha xalqaro yetakchi fondlardan sezilarli darajada orqada qolmoqda. Olingan xulosalar asosida TTJ samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *suveren fondlar, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi, Truman scoreboard, boshqaruv shaffofligi, Santiago tamoyillari, moliyaviy institutlar samaradorligi.*

МЕТОДОЛОГИЯ ТРУМАНА–БЭГНАЛЛА ДЛЯ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ СУВЕРЕННЫХ ФОНДОВ

Жуманиязов Иномжон Тураевич

Доцент кафедры «Финансы», PhD, Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: jumaniyazov_inomjon@tsue.uz

Аннотация. *В данной статье исследуется содержание, критерии оценки и применение одной из признанных на международном уровне методологий оценки эффективности деятельности суверенных фондов – методологии **«SWF Scoreboard»**, разработанной Эдвином Труманом (2007–2008 гг.) и усовершенствованной Бэгналлом и Труманом (2013). Цель исследования заключается в адаптации 33-элементной системы оценки, включающей четыре направления, к национальным условиям и определении степени соответствия деятельности Фонда реконструкции и развития Узбекистана (ФРРУ) международным стандартам на количественном и качественном уровнях. В исследовании использованы первичные нормативно-правовые документы, официальные данные Фонда реконструкции и развития Узбекистана и Министерства экономики и финансов, проектная документация Всемирного банка, а также данные независимых рейтингов, опубликованные институтом Global SWF. Результаты исследования показывают, что, несмотря на наличие четкой правовой основы деятельности ФРРУ, по уровню независимости управления, финансовой прозрачности и раскрытия инвестиционной политики Фонд значительно отстает от ведущих суверенных фондов мира. На основе полученных результатов разработаны конкретные рекомендации по повышению эффективности деятельности ФРРУ.*

Ключевые слова: *суверенные фонды, Фонд реконструкции и развития Узбекистана, Truman Scoreboard, прозрачность управления, Принципы Сантьяго, эффективность финансовых институтов.*

TRUMAN–BAGNALL METHODOLOGY FOR ASSESSING THE PERFORMANCE OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS

Jumaniyazov Inojon Turayevich
Associate Professor, Department of Finance, PhD,
Tashkent State University of Economics
E-mail: *jumaniyazov_inomjon@tsue.uz*

Abstract. *This article examines the content, assessment criteria, and application of one of the internationally recognized tools for evaluating the performance of sovereign wealth funds–the* ***SWF Scoreboard methodology****, developed by Edwin Truman (2007–2008) and subsequently refined by Bagnall and Truman (2013). The study aims to adapt the 33-element, four-dimensional assessment framework to national conditions and to quantitatively and qualitatively determine the extent to which the activities of Uzbekistan’s Fund for Reconstruction and Development (FRD) comply with international standards. The research draws on primary legal and regulatory documents, official data from the Fund for Reconstruction and Development of Uzbekistan and the Ministry of Economy and Finance, World Bank project documentation, and independent ranking data published by the Global SWF Institute. The findings indicate that, although the FRD has a clearly established legal framework, it significantly lags behind leading sovereign wealth funds in terms of governance independence, financial transparency, and disclosure of investment policies. Based on the findings, specific recommendations are developed to enhance the effectiveness of the FRD’s operations.*

Keywords: *sovereign wealth funds, Fund for Reconstruction and Development of Uzbekistan, Truman Scoreboard, governance transparency, Santiago Principles, financial institution efficiency.*

Kirish

So‘nggi yigirma yil ichida suveren fondlar jahon moliya tizimining muhim ishtirokchilariga aylandi. Xalqaro moliya institutlarining ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda dunyo bo‘ylab suveren fondlar boshqaruvidagi aktivlar hajmi 13 trillion AQSh dollaridan oshadi, bu esa ularni nafaqat milliy iqtisodiyot, balki global kapital bozorlari uchun ham strategik ahamiyatga ega institutlarga aylantirgan. Xitoy Investitsiya Korporatsiyasi, Norvegiyaning Global Pensiya Jamg‘armasi (GPFG), Singapurning Temasek va GIC, Saudiya Arabistonining PIF kabi fondlar jahon amaliyotida shaffoflik, boshqaruv sifati va uzoq muddatli investitsiya strategiyasi bo‘yicha andoza sifatida qaraladi.

Bunday fondlarning tarixiy ildizlari XX asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi, biroq ularning global moliya arxitekturasidagi roli ayniqsa 2000-yillardan keyin, xom-ashyo narxlarining o‘sishi va rivojlanayotgan mamlakatlarning oltin-valyuta zaxiralari tez sur’atda ko‘payishi natijasida keskin kuchaydi. Shu davrdan boshlab suveren fondlar nafaqat milliy iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, balki kelajak avlodlar uchun boylikni jamg‘arish, ichki infratuzilmani rivojlantirish va strategik tarmoqlarga investitsiya kiritish каби ko‘p qirrali vazifalarni bajaruvchi institutlarga aylandi.

Biroq suveren fondlarning barchasi bir xil rivojlanish bosqichida emas. Xususan, tabiiy resurslarga unchalik boy bo‘lmagan yoki o‘tish iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yurituvchi mamlakatlarda tashkil etilgan fondlar ko‘pincha ikki xil – barqarorlashtiruvchi va rivojlantiruvchi vazifalarni bir vaqtning o‘zida bajarishga majbur bo‘ladi. Bunday aralash model, o‘z navbatida, fondning institutsional mustaqilligi, moliyaviy intizomi va hisobdorlik darajasiga nisbatan qo‘shimcha xavf-xatarlarni keltirib chiqaradi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, aynan

shaffoflik va boshqaruv sifati past bo‘lgan fondlarda davlat byudjeti bilan fondning moliyaviy resurslari o‘rtasidagi chegara zaiflashadi, bu esa "kvazifiskal xavf" deb ataluvchi hodisaga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasida 2006-yil 11-mayda Prezidentning PF-3751-son Farmoniga asosan tashkil etilgan Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi xuddi shunday aralash maqomga ega institutdir. Jamg‘armaning asosiy vazifasi iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ijtimoiy ahamiyatga molik davlat dasturlarini moliyalashtirish hamda barqaror va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashdan iborat.

So‘nggi yillarda TTJ faoliyati xalqaro moliya institutlari, jumladan Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi tomonidan alohida e’tiborga sazovor bo‘ldi. Xususan, 2020-yilda TTJ tomonidan uchta davlat korxonasiga, shu jumladan "Uzbekneftegaz" AJga, jami 16,8 trillion so‘m (YaIMning taxminan 2,5 foizi) miqdoridagi kreditlarning hisobdan chiqarilishi jamg‘armaning kvazifiskal vositasi sifatidagi roli va bu boradagi tavakkalchiliklarni yaqqol namoyon etdi. Bunday holatlar jamg‘arma faoliyatining institutsional shaffofligi, boshqaruv mexanizmlari va samaradorligini xalqaro andozalar asosida tizimli baholash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Mavzuning dolzarbligiga qaramay, O‘zbekiston ilmiy adabiyotida TTJ faoliyatini xalqaro tan olingan miqdoriy metodologiyalar – xususan, Edwin Truman tomonidan ishlab chiqilgan va keyinchalik Bagnall hamda Truman (2013), so‘ngra Maire va boshqalar (2021) tomonidan takomillashtirilgan "SWF Scoreboard" – asosida tizimli baholovchi tadqiqotlar deyarli mavjud emas. Xalqaro amaliyotda ushbu baholash mazoni suveren fondlarning tuzilmasi, boshqaruvi, shaffofligi va investitsion xulq-atvorini 33 ta mezon bo‘yicha baholab, ularni bir-biri bilan va xalqaro yetakchi amaliyot bilan qiyoslash imkonini beruvchi eng keng qo‘llaniladigan vositalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Suveren fondlar boshqaruvi va shaffofligi mavzusi so‘nggi o‘n besh yil ichida xalqaro moliya iqtisodiyoti fanida keng o‘rganilgan yo‘nalishlardan biriga aylandi. Truman (2007, 2008, 2010) tomonidan asos solingan tadqiqotlar yo‘nalishi keyinchalik bir qator empirik ishlar bilan boyitildi. Xususan, Van va Li (2016) suveren fondlar boshqaruv sifatining madaniy-institutsional omillar, jumladan hokimiyat masofasi (power distance) va individualizm darajasi bilan bog‘liqligini tadqiq qilgan bo‘lsa, Amar va Lekur (2023) demokratik institutlarga ega mamlakatlardan kelib chiqqan fondlarning ichki va tashqi legitimlikka bo‘lgan ehtiyoji ularning boshqaruv shaffofligini oshirishga undashini ko‘rsatgan. Grira va boshqalar (2018) hamda Knill va boshqalar (2012) suveren fondlar boshqaruv sifati bilan ularning investitsion xulq-atvori (masalan, portfel diversifikatsiyasi va risk profili) o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilgan.

Alohida ta’kidlash joizki, so‘nggi davr tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, suveren fondlar sonining va ular boshqaruvidagi aktivlar hajmining o‘sishi ularning institutsional xilma-xilligini ham kuchaytirmoqda, biroq Truman scoreboardida qayd etilgan shaffoflik muammolarining aksariyati hali-hanuz bir qator mamlakatlar, xususan rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida saqlanib qolmoqda. Bu tadqiqotlar demokratik institutlar rivojlangan mamlakatlarda tashkil etilgan fondlarning boshqaruv sifati muntazam ravishda yuqoriroq bo‘lishini tasdiqlaydi, degan xulosaga kelgan.

Markaziy Osiyo va MDH mintaqasi bo‘yicha esa bunday tizimli, xalqaro metodologiyaga asoslangan miqdoriy tadqiqotlar hali ham juda kam. Mavjud ishlarning aksariyati asosan investitsiya fondlari, byudjet mablag‘lari samaradorligi yoki moliya bozorini rivojlantirish mavzularini tavsifiy tarzda yoritadi, biroq xalqaro tan olingan scoreboard yoki indeks metodologiyasini qo‘llagan holda miqdoriy taqqoslash o‘tkazmaydi. Aynan shu ilmiy bo‘shliq – ya’ni O‘zbekiston TTJ faoliyatini xalqaro tan olingan metodologik asosda tizimli baholashning yo‘qligi – ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligini va dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda Truman–Bagnall Scoreboard metodologiyasi asosida TTJ faoliyatining shaffofligi, boshqaruvi, hisobdorligi va investitsion xulq-atvori baholandi.

Tadqiqot yagona holat yondashuviga asoslanib, huquqiy hujjatlar, TTJ va Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy ma’lumotlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda Global SWF reytinglari kontent-tahlil qilindi. Scoreboardning 33 ta elementi bo‘yicha har bir mezon 0 ball – bajarilmagan, 0,5 ball – qisman bajarilgan va 1 ball - to‘liq bajarilgan shaklida baholandi.

TTJning o‘ziga xos institutsional xususiyatlarini hisobga olish maqsadida qo‘llanilmaydigan mezonlar “tegishli emas” (N/A) sifatida ajratilib, yakuniy natijalar moslashtirilgan ball va foiz ko‘rinishida hisoblandi. Olingan natijalarning ishonchliligini oshirish uchun Scoreboard bo‘yicha hisoblangan ko‘rsatkichlar Global SWF GSR reytingi va xalqaro standartlar, xususan, Santiago tamoyillari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

Quyida TTJ faoliyati Truman/Bagnall scoreboardining to‘rtta yo‘nalishi bo‘yicha ketma-ket tahlil qilinadi. Har bir yo‘nalish yakunida ballar jamlanib, 1-jadvalda umumlashtiriladi.

TTJning huquqiy maqomi va maqsadi PF-3751-son Farmonda va unga asoslangan Nizomda aniq belgilangan – bu jihatdan jamg‘arma ijobiy baholanadi. Jamg‘arma iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni moliyalashtirish va xalqaro moliya institutlari bilan qo‘shma moliyalashtirishni tashkil etish vazifalarini bajaradi, bu vazifalar rasmiy hujjatlarda oshkor shaklda bayon etilgan.

Shu bilan birga, jamg‘arma resurslarining shakllanish manbalari – xususan, oltin-valyuta zaxiralaridan ajratmalarning aniq ulushi, davlat byudjetidan transferlar hajmi va davlat korxonalari dividendlarining nisbati – ommaviy hisobotlarda muntazam va batafsil tarzda oshkor etilmaydi. Bundan tashqari, jamg‘arma va davlat byudjeti o‘rtasidagi moliyaviy oqimlarning (xususan, byudjet defitsitini qoplash uchun jamg‘armadan foydalanish holatlari) tizimli tahlili ochiq manbalarda amalda uchramaydi, bu esa fiskal shaffoflik nuqtai nazaridan jiddiy bo‘shliqni tashkil etadi. Natijada, tuzilma yo‘nalishi bo‘yicha TTJ qisman ijobiy baholanadi: huquqiy asos mavjud va oshkor, biroq moliyaviy oqimlar shaffofligi yetarli emas.

Qiyoslash tariqasida aytish mumkinki, Norvegiya GPFG yoki Yangi Zelandiya NZ Super kabi fondlarda resurslarning shakllanish qoidalari (masalan, neft daromadlaridan qanday ulush fondga yo‘naltirilishi, qanday sharoitlarda mablag‘ jalb etilishi mumkinligi) qonun darajasida batafsil tartibga solingan va bu qoidalar yillik hisobotlarda raqamli ko‘rinishda taqdim etiladi. TTJ holatida esa resurslarning yillik shakllanish tarkibi (masalan, byudjet transferlari, oltin-valyuta zaxiralari ajratmalari va davlat korxonalari dividendlarining aniq ulushlari) to‘g‘risida yagona, konsolidatsiyalashgan va yillar kesimida solishtiriladigan statistik jadval ommaviy manbalarda topilmadi – bu esa tuzilma yo‘nalishi bo‘yicha ballning maksimal darajaga yetmasligining asosiy sababidir.

Boshqaruv (Governance) bo‘yicha baholash

Boshqaruv yo‘nalishi TTJ uchun eng zaif ko‘rsatkichlardan birini namoyon etadi. Jamg‘armaning yuqori boshqaruv organi – Boshqaruv kengashi – bevosita Bosh vazir tomonidan boshqariladi, ta’sischi vakolatlarini esa Moliya vazirligi amalga oshiradi. Bu tuzilma jamg‘armaning ijro etuvchi hokimiyat bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi va xalqaro yetakchi amaliyotda tavsiya etiladigan – kundalik siyosiy qarorlardan mustaqil, professional va aralash (davlat hamda xususiy sektor vakillaridan iborat) boshqaruv kengashi modelidan farq qiladi.

Norvegiyaning GPFG yoki Yangi Zelandiyaning NZ Super kabi yuqori boshqaruv sifatiga ega fondlarda investitsion qarorlar mustaqil professional boshqaruv organi tomonidan, aniq belgilangan mandat doirasida va siyosiy aralashuvdan ajratilgan holda qabul qilinadi. TTJ holatida esa investitsiya va kreditlash qarorlarining qanday jarayon orqali va qaysi mezonlar

asosida qabul qilinishi to‘g‘risida ommaviy oshkor metodologiya mavjud emas. 2020-yilda uchta davlat korxonasiga, jumladan "Uzbekneftegaz" AJga, 16,8 trillion so‘mlik (YaIMning ≈2,5 foizi) kreditlarning hisobdan chiqarilishi – bu boshqaruv mustaqilligi yetishmasligining amaliy ko‘rinishi va kvazifiskal xavfning yorqin namunasi sifatida baholanishi mumkin. Ushbu holat Butunjahon banki tomonidan ham alohida qayd etilgan va moliya sektori islohotlari dasturining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylantirilgan.

Bu yerda nazariy jihatdan muhim bir masalaga to‘xtalish lozim: iqtisodiy adabiyotda "kvazifiskal faoliyat" atamasi davlat moliyaviy institutlari (jumladan markaziy banklar va suveren fondlar) tomonidan rasmiy byudjet tashqarisida, ammo aslida fiskal xarakterga ega bo‘lgan operatsiyalarni (masalan, muammoli davlat korxonalarini subsidiyalash yoki ularning qarzlarini kechirish) amalga oshirishni anglatadi. Xalqaro valyuta fondi tomonidan ko‘plab tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, bunday amaliyot qisqa muddatda byudjet defitsitini "yashirish" imkonini bersa-da, uzoq muddatda fondning moliyaviy barqarorligiga va uning investitsion maqsadlariga putur yetkazadi, chunki resurslarning bir qismi rentabelli investitsiyalar o‘rniga zarar ko‘radigan korxonalarni qo‘llab-quvvatlashga sarflanadi. TTJning 2020-yilgi kreditlarni hisobdan chiqarish amaliyoti aynan shunday kvazifiskal xatarning namunasi bo‘lib, bu boshqaruv mustaqilligi yo‘nalishi bo‘yicha past ballning asosiy empirik dalilidir.

Shaffoflik va hisobdorlik yo‘nalishi scoreboardning eng ko‘p elementga ega qismi bo‘lib, u yillik hisobotlarning muntazamligi, moliyaviy holat to‘g‘risidagi ma’lumotlarning to‘liqligi, mustaqil tashqi audit mavjudligi va uning natijalarining ommaga oshkor qilinishini o‘z ichiga oladi. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha TTJ sezilarli darajada zaif ko‘rsatkichlarga ega. Jamg‘armaning inglizcha yoki o‘zbekcha tilidagi to‘liq, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)ga muvofiq tayyorlangan va mustaqil auditorlik xulosasi bilan tasdiqlangan yillik hisoboti ommaviy manbalarda muntazam ravishda joylashtirilmaydi.

Bu xulosani mustaqil tashqi manba ham tasdiqlaydi: xalqaro Global SWF instituti tomonidan har yili e’lon qilinadigan Boshqaruv, Barqarorlik va Chidamlilik (GSR) reytingida TTJ 2026-yil holatiga ko‘ra atigi 16 foizlik umumiy ball (10 balldan 2 balli – boshqaruv bo‘yicha; 10 balldan 2 balli – barqarorlik bo‘yicha; 5 balldan 0 balli – chidamlilik bo‘yicha) bilan baholangan, bu ko‘rsatkich 2025-yilgi darajaga nisbatan o‘zgarmagan. Qiyoslash uchun aytish joizki, xuddi shu reytingda Kanadaning CDPQ va BCI, Yangi Zelandiyaning NZ Super, Irlandiyaning ISIF hamda Singapurning Temasek kabi fondlar amalda maksimal ballarga erishgan. Bu farq TTJning xalqaro yetakchi amaliyotdan qanchalik uzoqda ekanligini yaqqol ko‘rsatadi.

Shuningdek, jamg‘arma tomonidan moliyalashtirilayotgan yirik loyihalar ro‘yxati, ularning natijadorligi va risk-menejment tizimi to‘g‘risidagi ma’lumotlar tizimli tarzda, standartlashtirilgan formatda e’lon qilinmaydi. Bu, o‘z navbatida, tashqi tahlilchilar, ilmiy tadqiqotchilar va xalqaro reyting agentliklari uchun jamg‘arma faoliyatini mustaqil baholashni murakkablashtiradi.

Truman metodologiyasida hisobdorlik tushunchasi shaffoflikdan farqli o‘laroq, fondning kim oldida va qanday mexanizmlar orqali javobgar ekanligini anglatadi – ya’ni parlament nazorati, davlat audit palatasi tekshiruvlari yoki mustaqil kuzatuv kengashi mavjudligi kabi institutsional vositalar. O‘zbekiston sharoitida TTJ faoliyati yuzasidan Oliy Majlis tomonidan muntazam va ochiq muhokamalar o‘tkazilishi, shuningdek Hisob palatasi tekshiruvlari natijalarining ommaga e’lon qilinishi to‘g‘risida tizimli, davriy amaliyot ochiq manbalarda kuzatilmadi. Bu, hisobdorlik elementi bo‘yicha ham qo‘shimcha ball yo‘qotishning sababi bo‘ldi. Solishtirish uchun, Norvegiya GPFG holatida fond faoliyati yuzasidan har chorakda Parlamentga (Stortinget) hisobot taqdim etiladi va bu hisobotlar to‘liq matnda, bir necha tilda ommaga ochiq joylashtiriladi – bu amaliyot hisobdorlik elementi bo‘yicha maksimal ballga sabab bo‘ladi.

Xulq-atvor (Behavior) bo‘yicha baholash

Xulq-atvor yo‘nalishi fondning investitsiya mandati aniqligini, etik-ijtimoiy standartlar

mavjudligini hamda mablag‘larni jalb etish/sarflash tartibining institutsionallashganligini baholaydi. TTJ amaliyotida jamg‘arma nafaqat investitsiya, balki kreditlash va davlat korxonalarini qo‘llab-quvvatlash vazifalarini ham bajaradi, bu esa uning "sof" investitsion mandatdan farqlanuvchi, aralash – rivojlantiruvchi-kvazifiskal – xulq-atvorga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Xalqaro amaliyotda bunday aralash fondlarning o‘zi salbiy hodisa hisoblanmaydi (masalan, Singapur Temasek ham rivojlanish va investitsiya vazifalarini uyg‘unlashtiradi), biroq muvaffaqiyatli misollarda bu vazifalar aniq mandat chegaralari, alohida hisobga olish tizimlari va oshkor investitsiya siyosati orqali institutsionallashtiriladi. TTJ holatida esa investitsiya va kreditlash faoliyati o‘rtasidagi mandatning aniq chegaralanganligi, etik-ijtimoiy-ekologik standartlarning (ESG) mavjudligi to‘g‘risida ommaviy hujjatlar cheklangan. Natijada ushbu yo‘nalish bo‘yicha ham TTJ o‘rtachadan past ball oladi.

Shu bilan birga, adolat yuzasidan ta’kidlash lozimki, TTJning rivojlantiruvchi funksiyasi – ya’ni infratuzilma, transport-telekommunikatsiya va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni moliyalashtirish – o‘zi salbiy hodisa emas va ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar (masalan, Malayziyaning Khazanah Nasional yoki Hindistonning National Investment and Infrastructure Fund) suveren fondlarini xuddi shunday rivojlantiruvchi vosita sifatida muvaffaqiyatli qo‘llagan. Farq shundaki, muvaffaqiyatli misollarda rivojlantiruvchi mandat aniq investitsiya mezonlari (masalan, loyihaning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholovchi metodika), mustaqil loyiha ekspertizasi va natijalarni monitoring qilish tizimi bilan mustahkamlangan. TTJ amaliyotida bunday rasmiylashtirilgan investitsiya-ekspertiza metodikasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ochiq manbalarda yetarlicha topilmadi, bu esa xulq-atvor yo‘nalishi bo‘yicha ballning cheklanishiga yana bir sabab bo‘ldi.

Xulq-atvor yo‘nalishining yana bir muhim elementi – favqulodda vaziyatlarda (masalan, moliyaviy inqiroz yoki tabiiy ofat) mablag‘larni jalb etish tartib-qoidalarining oldindan belgilanganligidir. Bunday holatlarda mablag‘ jalb etish tasodifiy siyosiy qarorlar asosida emas, balki oldindan e’lon qilingan, aniq mezonlarga asoslangan tartib-qoida asosida amalga oshirilishi zarur – bu Santyago tamoyillarining alohida bandida ham qayd etilgan. TTJ nizomida bunday tartib-qoidaning mavjudligi haqida umumiy ishoralar bo‘lsa-da, uning batafsil, raqamli mezonlarga asoslangan protsedura darajasidagi tavsifi ochiq hujjatlarda aks etmagan.

1-jadval.

TTJ faoliyatining Truman/Bagnall scoreboard yo‘nalishlari bo‘yicha taxminiy baholash natijalari*

Yo‘nalish	Baholanadigan asosiy jihatlar	Taxminiy ball (100 balldan)	Asosiy cheklovlar
Tuzilma	Huquqiy maqom, maqsad, resurs manbalari	55	Moliyaviy oqimlar tafsiloti oshkor emas
Boshqaruv	Institutsional mustaqillik, kengash tarkibi	20	Ijro hokimiyati bilan integratsiya yuqori
Shaffoflik va hisobdorlik	Yillik hisobot, mustaqil audit, oshkoralik	15	Auditlangan hisobot ommaviy emas
Xulq-atvor	Investitsiya mandati, etik standartlar	25	Kreditlash va investitsiya mandati aralash
UMUMIY O‘RTACHA BALL	–	29	GSR (Global SWF) 16 foizlik baho bilan qiyoslanadigan

**Manba: muallif hisob-kitoblari, Truman (2008) va Bagnall-Truman (2013) metodologiyasi asosida, ochiq manbalar tahlili yordamida tuzilgan.*

1-jadvalda TTJning to‘rt yo‘nalish bo‘yicha moslashtirilgan Truman/Bagnall metodologiyasi asosidagi taxminiy baholash natijalari keltirilgan. Ta’kidlash joizki, ushbu ballar bir tadqiqotchi tomonidan ochiq manbalar asosida amalga oshirilgan dastlabki baholash bo‘lib,

keyingi bosqichda ekspert-panel orqali validatsiya qilinishi tavsiya etiladi (4-bo‘limda batafsil muhokama qilinadi).

Umumlashtirilgan ballardan tashqari, scoreboardning ayrim aniq elementlarini alohida ko‘rib chiqish TTJ faoliyatining qaysi jihatlarida eng jiddiy bo‘shliqlar mavjudligini yanada aniq tasavvur etishga yordam beradi.

Birinchi misol – "fond maqsadining qonun yoki nizom darajasida aniq bayon etilganligi" elementi. Ushbu element bo‘yicha TTJ to‘liq ball (1,0) oladi, chunki PF-3751-son Farmon va unga asoslangan Nizomda jamg‘arma vazifalari, jumladan modernizatsiya, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik masalalari to‘liq va aniq bayon etilgan.

Ikkinchi misol – "fond aktivlarining umumiy hajmi muntazam ravishda ommaga e’lon qilinishi" elementi. Bu borada TTJ nol yoki qisman ball (0-0,5) oladi, chunki jamg‘arma umumiy aktivlari hajmi to‘g‘risida yillik, konsolidatsiyalashgan va tekshirilishi mumkin bo‘lgan raqamli ma’lumot ochiq manbalarda muntazam tarzda topilmadi – xalqaro tahlilchi va reyting agentliklari ko‘pincha bilvosita manbalar (masalan, davlat byudjeti hisobotlari yoki xalqaro moliya institutlari hujjatlari)ga tayanishga majbur bo‘lishadi.

Uchinchi misol – "investitsion qarorlar qabul qilish jarayonida kundalik siyosiy ko‘rsatmalardan mustaqillik" elementi. Bu element bo‘yicha ham TTJ past ball (0-0,5) oladi, chunki Boshqaruv kengashining Bosh vazir tomonidan bevosita boshqarilishi va aniq, oldindan e’lon qilingan investitsiya mezonlarining yo‘qligi kundalik operativ qarorlarga siyosiy ta’sir ko‘rsatish ehtimolini yuqori saqlaydi.

To‘rtinchi misol – "tashqi mustaqil audit natijalarining ommaga oshkor qilinishi" elementi. Xalqaro amaliyotda bu element odatda "hammasi yoki hech narsa" (binar) tarzida baholanadi: agar auditorlik xulosasi to‘liq matnda ochiq manbada mavjud bo‘lmasa, ball nolga teng bo‘ladi. TTJ holatida ham xuddi shu holat kuzatiladi – bu, ayniqsa, shaffoflik va hisobdorlik yo‘nalishi bo‘yicha umumiy ballning past bo‘lishiga sezilarli hissa qo‘shadi.

Beshinchi misol sifatida "etik/ijtimoiy-ekologik (ESG) investitsiya standartlarining rasman qabul qilinganligi" elementini keltirish mumkin. Bu borada ham TTJ past ball oladi, chunki jamg‘arma investitsiya siyosatida ESG mezonlarini rasman tan olgan alohida hujjat yoki siyosat bayonoti ochiq manbalarda aniqlanmadi – bu, ayniqsa, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hamkor investorlar bilan hamkorlikda tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan yo‘nalish hisoblanadi.

Ushbu besh misol shuni ko‘rsatadiki, TTJning eng jiddiy institutsional bo‘shliqlari aynan "oshkor ma’lumot" va "mustaqil tekshiruv" xarakteridagi elementlarda to‘plangan, huquqiy-me’yoriy asos xarakteridagi elementlarda esa nisbatan yaxshi natijalar kuzatiladi. Bu xulosa 4-bo‘limda taqdim etiladigan amaliy tavsiyalarning ustuvorligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi: birinchi navbatda, qo‘shimcha qonunchilik o‘zgarishlarini talab qilmaydigan, sof ma’muriy-tashkiliy xarakterdagi chora – ya’ni mavjud ma’lumotlarni tizimli va muntazam tarzda oshkor qilish amaliyotini joriy etish – nisbatan tez va past xarajat bilan amalga oshirilishi mumkin.

Muhokama

Nazariy asoslash: shaffoflik, kvazifiskal xavf va institutsional ishonch

Suveren fondlar boshqaruvi nazariyasida shaffoflikning ahamiyati nafaqat axloqiy yoki huquqiy, balki bevosita iqtisodiy tavakkalchilik nuqtai nazaridan ham asoslanadi. Agentlik nazariyasi nuqtai nazaridan qaraganda, suveren fond – davlat nomidan mablag‘larni boshqaruvchi agent hisoblanadi, va agent bilan printsipal o‘rtasidagi ma’lumot assimetriyasi qanchalik yuqori bo‘lsa, agentning shaxsiy yoki tor guruh manfaatlari yo‘lida qarorlar qabul qilish extimoli shunchalik ortadi. Shaffoflik va mustaqil audit mexanizmlari aynan ushbu ma’lumot assimetriyasini kamaytirish va agentlik xarajatlarini (agency costs) pasaytirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Bundan tashqari, moliyaviy institutlar iqtisodiyotida institutsional ishonch nazariyasi

shaffoflik bilan kapitalning jalb etilish qiymati o‘rtasidagi teskari bog‘liqlikni ta’kidlaydi: qanchalik institut shaffof va bashorat qilinadigan bo‘lsa, xalqaro investorlar va kredit reyting agentliklari tomonidan shunchalik past risk-mukofoti bilan baholanadi. Shu nuqtai nazardan, TTJ kabi institutlarning past shaffoflik ko‘rsatkichi nafaqat institutsional, balki bevosita moliyaviy-iqtisodiy oqibatlarga – xususan, xalqaro qarz olish shartlarining yomonlashuviga – olib kelishi mumkin.

Olingan natijalar TTJning tuzilmaviy jihatdan nisbatan aniq huquqiy asosga ega bo‘lishiga qaramay, boshqaruv mustaqilligi va moliyaviy shaffoflik bo‘yicha xalqaro yetakchi amaliyotdan sezilarli darajada orqada qolayotganini ko‘rsatadi. Bu natija tasodifiy emas – u mustaqil xalqaro manba (Global SWF GSR reytingi, 16 foiz) tomonidan ham tasdiqlanadi, bu esa muallif tomonidan qo‘llanilgan moslashtirilgan scoreboard metodologiyasining ishonchliligini oshiradi (konvergent validlik).

Bunday natija, umuman olganda, o‘tish iqtisodiyoti sharoitidagi va rivojlanish vazifalarini bajaruvchi yosh suveren fondlar uchun xos hodisa hisoblanadi. Truman (2008) va undan keyingi tadqiqotlar (Amar va Lekur, 2023; Van va Li, 2016) shuni ko‘rsatganki, demokratik institutlar va yuqori sifatli milliy boshqaruvga ega mamlakatlarda tashkil etilgan fondlar odatda yuqoriroq shaffoflik ko‘rsatkichlariga erishadi, chunki ular tashqi (xalqaro investorlar oldida) va ichki (jamiyat oldida) legitimlikka ehtiyoj sezadi. O‘zbekiston kabi institutsional islohotlar hali davom etayotgan mamlakatlarda esa bu ehtiyoj hali yetarlicha shakllanmagan bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, natijalarni faqat salbiy nuqtai nazardan emas, balki islohotlar dinamikasi kontekstida ham baholash zarur. O‘zbekiston 2017-yildan buyon amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy va institutsional islohotlar, jumladan davlat moliyasi boshqaruvini takomillashtirish, davlat korxonalari islohoti va moliya bozorini erkinlashtirish jarayonlari fonida, TTJ boshqaruvini xalqaro andozalarga yaqinlashtirish uchun zarur bo‘lgan siyosiy va institutsional shart-sharoitlar allaqachon shakllana boshlagan. Bu, o‘z navbatida, ushbu tadqiqotda taklif etilayotgan tavsiyalarning amalga oshirilish ehtimolini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi – chunki islohotlar boshqa yo‘nalishlarda (masalan, bank sektori va davlat korxonalari boshqaruvida) allaqachon boshlangan institutsional o‘zgarish traektoriyasiga mos keladi.

4.2. Xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil

Mintaqaviy nuqtai nazardan qaraganda, Qozog‘istonning Milliy jamg‘armasi va Ozarbayjonning SOFAZ jamg‘armasi IFSWF a’zoligiga ega bo‘lib, Santyago tamoyillarini rasman e’tirof etgan va muntazam o‘z-o‘zini baholash hisobotlarini e’lon qilib boradigan institutlardir. Bu, o‘z navbatida, ularning xalqaro moliya bozorlarida ishonchliligini oshirgan va tashqi investorlar bilan hamkorlikni osonlashtirgan. O‘zbekiston TTJ hozirgacha IFSWFga a’zo emas va Santyago tamoyillarini rasman qabul qilmagan – bu holat jamg‘arma uchun institutsional rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Shu o‘rinda metodologik ehtiyotkorlik bilan ta’kidlash lozimki, mintaqaviy fondlarning aniq baholash mezoni ballari vaqt o‘tishi bilan o‘zgaruvchan bo‘lib, ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri TTJ bilan raqamli taqqoslash uchun har ikkala fond bo‘yicha bir xil davrga oid, bir xil metodologiya asosida hisoblangan ma’lumotlar zarur – bu vazifa keyingi tadqiqot bosqichida alohida qiyosiy tahlil predmeti bo‘lishi kerak. Shunga qaramay, sifat jihatdan aniq tendensiya ko‘rinadi: IFSWF a’zoligi va Santyago tamoyillariga rasman qo‘shilish o‘zi mustaqil ravishda fondning tashqi shaffoflik majburiyatlarini kuchaytiruvchi institutsional mexanizm hisoblanadi, chunki a’zolik muntazam o‘z-o‘zini baholash hisobotlarini taqdim etishni talab qiladi.

Shu bilan birga, ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston hukumati so‘nggi yillarda moliya sektori va davlat korxonalari boshqaruvi sohasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirmoqda, jumladan Jahon banki bilan hamkorlikdagi Moliya sektori islohoti loyihasi doirasida TTJning kreditlash amaliyotini qayta ko‘rib chiqish va davlat banklari orqali bevosita kreditlashni bosqichma-bosqich to‘xtatish rejalashtirilgan. Bu esa jamg‘arma boshqaruvini xalqaro

andozalarga yaqinlashtirish yo‘lida siyosiy irodaning mavjudligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi tahlildan kelib chiqib, TTJ samaradorligini oshirish quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha institutsional islohotlarni talab qiladi: birinchidan, boshqaruv kengashi tarkibini kengaytirish va unga mustaqil, professional (jumladan xalqaro tajribaga ega) a’zolarni jalb etish; ikkinchidan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tayyorlangan, mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan yillik hisobotni muntazam va ommaviy tarzda e’lon qilish; uchinchidan, IFSWFga a’zo bo‘lish va Santyago tamoyillarini rasman qabul qilish orqali xalqaro shaffoflik andozalariga rioya etish majburiyatini institutsionallashtirish; to‘rtinchidan, investitsiya va kreditlash mandatlarini aniq ajratish, xususan davlat korxonalarini moliyaviy sog‘lomlashtirish vazifasini alohida institut yoki alohida hisob-kitob tizimiga o‘tkazish; beshinchidan, ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) standartlarini investitsiya siyosatiga tizimli tarzda kiritish.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalarning amaliy qiymatini oshirish maqsadida ularni amalga oshirish muddatlari bo‘yicha uch bosqichga ajratish maqsadga muvofiqdir: qisqa muddatli (1 yilgacha), o‘rta muddatli (1-3 yil) va uzoq muddatli (3 yildan ortiq) chora-tadbirlar. Bunday bosqichma-bosqich yondashuv xalqaro amaliyotda, jumladan Jahon banki tomonidan tavsiya etiladigan institutsional islohotlar dasturlarida keng qo‘llaniladi, chunki u cheklangan ma’muriy resurslar sharoitida islohotlar ustuvorligini to‘g‘ri belgilash imkonini beradi.

2-jadval.

TTJ samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning bosqichma-bosqich yo‘l xaritasi*

Bosqich	Asosiy chora-tadbir	Kutilayotgan natija	Baholash mezoni
Qisqa muddatli (1 yilgacha)	Yillik faoliyat ko‘rsatkichlarini standart formatda, muntazam veb-saytda e’lon qilish	Shaffoflik ballining o‘sishi	Shaffoflik va hisobdorlik
Qisqa muddatli (1 yilgacha)	Investitsiya va kreditlash bo‘yicha qaror qabul qilish mezonlarini rasmiy hujjat sifatida e’lon qilish	Boshqaruv jarayonining oshkorligi	Boshqaruv
O‘rta muddatli (1-3 yil)	Boshqaruv kengashiga mustaqil, professional a’zolarni jalb etish	Institutsional mustaqillikning ortishi	Boshqaruv
O‘rta muddatli (1-3 yil)	Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq mustaqil audit joriy etish	Moliyaviy ishonchlilikning oshishi	Shaffoflik va hisobdorlik
O‘rta muddatli (1-3 yil)	IFSWFga a’zolik uchun ariza topshirish va Santyago tamoyillarini rasman qabul qilish	Xalqaro tan olinishning kuchayishi	Barcha yo‘nalishlar
Uzoq muddatli (3 yildan ortiq)	Investitsiya va kvazifiskal (DXKlarni qo‘llab-quvvatlash) funksiyalarini institutsional ajratish	Mandat aniqligining tubdan oshishi	Tuzilma, xulq-atvor
Uzoq muddatli (3 yildan ortiq)	ESG va etik investitsiya standartlarini rasman joriy etish	Xalqaro andozalarga muvofiqlik	Xulq-atvor

**Manba: muallif tomonidan xalqaro amaliyot (IFSWF, Jahon banki tavsiyalari) va tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan.*

Ushbu yo‘l xaritasidan ko‘rinib turibdiki, eng past xarajat va eng tezkor natija beruvchi chora-tadbirlar aynan shaffoflik va hisobdorlik yo‘nalishiga tegishli bo‘lib, ular qo‘shimcha qonunchilik bazasini talab qilmaydi va mavjud ma’muriy resurslar doirasida amalga oshirilishi mumkin. Shu bois, dissertatsiya tadqiqotining amaliy tavsiyalar qismida aynan ushbu chora-tadbirlarni birinchi ustuvor yo‘nalish sifatida taqdim etish tavsiya etiladi.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda Edwin Truman tomonidan ishlab chiqilgan va Bagnall hamda Truman (2013) tomonidan takomillashtirilgan xalqaro tan olingan suveren fondlar metodologiyasi O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda birinchi marta Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi (TTJ) faoliyatiga tizimli tarzda qo‘llanildi. Tuzilma, boshqaruv, shaffoflik-hisobdorlik va xulq-atvor yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshirilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, TTJ nisbatan aniq huquqiy-tuzilmaviy asosga ega bo‘lsa-da, boshqaruv mustaqilligi va moliyaviy shaffoflik jihatidan xalqaro yetakchi amaliyotdan sezilarli darajada orqada qolmoqda – bu xulosa mustaqil xalqaro Global SWF reytingi natijalari bilan ham tasdiqlanadi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, TTJ samaradorligini tizimli oshirish uchun uning boshqaruv tuzilmasini professionallashtirish, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida oshkor qilish, xalqaro shaffoflik andozalari (Santyago tamoyillari)ga qo‘shilish hamda investitsiya va kvazifiskal (davlat korxonalarini qo‘llab-quvvatlash) vazifalarini institutsional jihatdan ajratish zarur. Ushbu tavsiyalar nafaqat TTJning o‘zi, balki umuman O‘zbekistonda davlat moliya institutlari boshqaruvi sifatini oshirish bo‘yicha kengroq islohotlar strategiyasi uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

Amaliy nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank hamda TTJning o‘zi uchun institutsional isloh qilish strategiyasini ishlab chiqishda dastlabki tahliliy asos sifatida foydalanilishi mumkin. Xususan, jamg‘arma boshqaruv kengashiga mustaqil a’zolarni jalb etish, yillik auditlangan hisobotni ingliz va o‘zbek tillarida chop etishni majburiy tartibga kiritish hamda IFSWFga a’zolik masalasini ko‘rib chiqish bo‘yicha qadamlar nisbatan qisqa muddatda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan, past xarajatli, ammo yuqori institutsional samaraga ega islohotlar sifatida tavsiya etiladi. Uzoq muddatli istiqbolda esa TTJning kvazifiskal (davlat korxonalarini qo‘llab-quvvatlash) va sof investitsion-rivojlantiruvchi funksiyalarini institutsional jihatdan ajratish masalasi alohida qonunchilik islohotini talab qiladigan, ammo jamg‘arma faoliyati samaradorligini tub burilish darajasida oshirishga xizmat qiluvchi strategik vazifa sifatida belgilanadi.

Yakun sifatida ta’kidlash joizki, suveren fondlar samaradorligini xalqaro tan olingan metodologiya asosida baholash – bu nafaqat akademik qiziqish predmeti, balki davlat moliyaviy resurslarini boshqarish sifatini oshirishning amaliy vositasidir. TTJ misolida o‘tkazilgan ushbu tahlil O‘zbekistonda davlat moliyaviy institutlari faoliyatini xalqaro andozalar asosida tizimli monitoring qilish amaliyotini shakllantirish yo‘lidagi dastlabki qadamlardan biri bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Truman, E. M. (2008). A Blueprint for Sovereign Wealth Fund Best Practices. Policy Brief PB08-3. Washington, DC: Peterson Institute for International Economics.

2. Bagnall, A. E., & Truman, E. M. (2013). Progress on Sovereign Wealth Fund Transparency and Accountability: An Updated SWF Scoreboard. Policy Brief PB13-19. Washington, DC: Peterson Institute for International Economics.

3. Truman, E. M. (2010). Sovereign Wealth Funds: Threat or Salvation? Washington, DC: Peterson Institute for International Economics.

4. Amar, J., & Lecourt, C. (2023). Sovereign wealth fund governance: A trade-off between internal and external legitimacy. Journal of International Financial Markets, Institutions and Money.

5. Maire, J., Alhashel, B., & Bortolotti, B. (2021). SWF governance scoreboard update. (as cited in Amar & Lecourt, 2023).

6. Wang, Y., & Li, S. (2016). Political relations and sovereign wealth fund governance quality. Corporate Governance: An International Review.

7. International Forum of Sovereign Wealth Funds (IFSWF). (2022). Implementing the

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Santiago Principles: Lessons from Member Self-Assessments. London: IFSWF.

8. IFSWF. Santiago Principles (GAPP-24). Retrieved from https://www.ifswf.org/santiago-principles

9. Global SWF. (2026). GSR Scoreboard: TTJ Fund Profile. Retrieved from https://globalswf.com/fund/TTJ

10. Global SWF. (2024). Global SWF Reevaluates Best Practices of Sovereign Investors: 2024 GSR Scoreboard. Businesswire press release.

11. World Bank. (2020). Uzbekistan Financial Sector Reform Project (P173619): Concept Project Information Document. Washington, DC: World Bank Group.

12. World Bank. (2024). Uzbekistan Integrated State-Owned Enterprises Framework (iSOEF) Assessment. Washington, DC: World Bank Group.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida"gi PF-3751-son Farmoni, 2006-yil 11-may.

14. Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi rasmiy sayti. Retrieved from https://en.TTJ.uz/about-us

15. The Sovereign Wealth Fund Paradox: Evolution, Challenges, and Unresolved Issues. (2026). Journal of Risk and Financial Management, 19(2), 119. MDPI.

16. Sovereign Wealth Fund Institute (SWFI). Fund Profile: Fund for Reconstruction and Development of Uzbekistan. Retrieved from https://www.swfinstitute.org

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

DAVLAT MAQSADLI JAMG‘ARMALARI XARAJATLARI USTIDAN DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI O‘TKAZISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Abdullayev Dilmurod Toxirmirzayevich
O‘zbekiston respublikasi
Bank moliya akademiyasi
Xalqaro bank ishi fakulteti
Davlat moliyaviy nazorati va auditi(MSc)
mutaxassisligi talabasi
E-mail: AbdullayevD@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada davlat maqsadli jamg‘armalari xarajatlari ustidan davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish va amalga oshirishning nazariy hamda amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘laridan samarali, maqsadli va qonuniy foydalanishni ta’minlashda davlat moliyaviy nazoratining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, jamg‘armalar xarajatlarini rejalashtirish, moliyalashtirish, ijro etish va hisobotini yuritish jarayonlarida yuzaga keladigan moliyaviy xavflar hamda nazoratdagi muammolar tahlil qilingan. Davlat moliyaviy nazoratining zamonaviy shakl va usullarini joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, riskga asoslangan nazorat mexanizmlarini rivojlantirish hamda nazorat samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *davlat maqsadli jamg‘armalari, davlat moliyaviy nazorati, budjet mablag‘lari, jamg‘arma xarajatlari, moliyaviy nazorat, davlat moliyasi, moliyaviy xavflar, riskga asoslangan nazorat, raqamlashtirish, moliyaviy intizom, mablag‘lardan samarali foydalanish.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ЗА РАСХОДАМИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЦЕЛЕВЫХ ФОНДОВ

Абдуллаев Дилмурод Тохирмирзаевич
Банковско-финансовая академия
Республики Узбекистан
Факультет международного банковского дела
Магистрант специальности
«Государственный финансовый
контроль и аудит» (MSc)
E-mail: AbdullayevD@gmail.com

Аннотация: *В статье исследованы теоретические и практические аспекты организации и осуществления государственного финансового контроля за расходами государственных целевых фондов. Раскрыты роль и значение государственного финансового контроля в обеспечении эффективного, целевого и законного использования средств государственных целевых фондов. Проанализированы финансовые риски и проблемы, возникающие в процессе планирования, финансирования, исполнения расходов и формирования отчетности целевых фондов. Разработаны научно-практические предложения и рекомендации по внедрению современных форм и методов государственного финансового контроля, использованию цифровых технологий, развитию риск-ориентированных механизмов контроля и повышению эффективности контрольных мероприятий.*

Ключевые слова: *государственные целевые фонды, государственный финансовый контроль, бюджетные средства, расходы фондов, финансовый контроль, государственные финансы, финансовые риски, риск-ориентированный контроль, цифровизация, финансовая дисциплина, эффективное использование средств.*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

IMPROVING STATE FINANCIAL OVERSIGHT OF SPENDING OF STATE TARGETED FUNDS

Abdullayev Dilmurod Toxirmirzayevich
Banking and finance academy of the Republic of Uzbekistan Faculty of International Banking Master's Student (MSc) in Public Financial Control and Audit
E-mail: AbdullayevD@gmail.com

Abstract: *This article examines the theoretical and practical aspects of organizing and implementing state financial control over the expenditures of state targeted funds. The role and importance of state financial control in ensuring the efficient, targeted, and lawful use of funds allocated to state targeted funds are highlighted. The study analyzes financial risks and control-related problems arising in the processes of expenditure planning, financing, execution, and reporting of targeted funds. Scientific and practical proposals and recommendations are developed to introduce modern forms and methods of state financial control, expand the use of digital technologies, develop risk-based control mechanisms, and improve the effectiveness of financial control measures.*

Keywords: *state targeted funds, state financial control, budgetary funds, fund expenditures, financial control, public finance, financial risks, risk-based control, digitalization, financial discipline, efficient use of funds.*

Kirish.

Davlat budjeti davlat moliyaviy tizimining asosi bo‘lib, uning mablag‘lari iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Budjet mablag‘larini samarali va maqsadli boshqarish esa davlat siyosatining barqarorligini ta’minlaydigan asosiy omillardan biridir. Shuni hisobga olgan holda, budjet tashkilotlari tomonidan budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni takomillashtirish hozirgi zamonda davlat moliyaviy boshqaruvining muhim jihatlaridan biri sifatida qaralmoqda.

So‘nggi yillarda davlat mablag‘laridan samarali foydalanish va budjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini nazorat qilish zarurati ortib bormoqda. Budjet mablag‘larining noto‘g‘ri sarflanishi yoki maqsadsiz ishlatilishi davlat iqtisodiyotiga katta zarar yetkazishi mumkin, shuningdek, jamiyat tomonidan budjetga bo‘lgan ishonchni kamaytiradi. Shu bilan birga, davlat mablag‘laridan foydalanishda shaffoflik va hisobdorlikni oshirish korrupsiyaga qarshi kurashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu dissertatsiya mavzusi, aynan shu omillarni hisobga olgan holda, budjet mablag‘lari ustidan moliyaviy nazoratni takomillashtirish masalalarini tahlil qilish va samaradorlikni oshirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Budjet tashkilotlari tomonidan davlat mablag‘larini nazorat qilish tizimi moliyaviy barqarorlikni saqlashda katta ahamiyatga ega. Moliyaviy nazorat davlatning moliyaviy resurslari maqsadga muvofiq va samarali ishlatilishini ta’minlash orqali moliyaviy salbiy oqibatlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Davlat mablag‘laridan oqilona foydalanish davlat siyosatining samaradorligini oshiradi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtiradi. Shu sababli moliyaviy nazoratning sifatini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar va nazorat usullarini joriy etish, amaldagi tizimlarni takomillashtirish zarurati dolzarbdir.

Metodlar:

Tadqiqotda davlat moliyaviy nazoratini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalasini kompleks o‘rganish uchun tizimli, qiyosiy, institutsional va riskka asoslangan metodologik yondashuvlar qo‘llanildi. Tizimli yondashuv orqali davlat auditi, ichki nazorat, ichki audit va tashqi auditning o‘zaro funksional bog‘liqligi tahlil qilindi. Qiyosiy metod asosida

Vestminster, sudlov va kollegial audit modellarining institutsional xususiyatlari hamda ularning afzallik va cheklovlari solishtirildi. Normativ-huquqiy tahlil yordamida INTOSAI-P, ISSAI, PEFA va boshqa xalqaro standartlarning asosiy talablari o‘rganildi. Riskka asoslangan yondashuv orqali budjet xarajatlari, davlat xaridlari, davlat qarzi, SOE, ijtimoiy dasturlar va investitsiya loyihalaridagi asosiy xavf klasterlari aniqlandi. 3E (economy, efficiency, effectiveness) metodologiyasi davlat dasturlarining natijadorligini baholash uchun qo‘llanildi. Natijalar asosida O‘zbekiston uchun IRAM modelini shakllantirish bo‘yicha institutsional takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda rivojlangan yirik mamlakatlar iqtisodiyotiga global moliyaviyiqtisodiy inqiroz hali-beri salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘tgan davr mobaynida ahvolni yaxshilash maqsadida ko‘rilayotgan barcha chora-tadbirlarga qaramasdan, aksariyat davlatlarda o‘sish sur’atlari va ishlab chiqarishning amalda pasayishi kuzatilmoqda va bunday jarayon davom etadigan bo‘lsa, u global miqyosda resessiya holatiga, ya’ni iqtisodiyotning o‘sish o‘rniga davomli ravishda pasayib borishiga olib kelishi mumkinligi bashorat qilinmoqda. Ko‘pgina taraqqiy topgan mamlakatlarda vaziyat qanday tus olishini oldindan aytib bo‘lmaydigan va turli xavf-xatarlar saqlanib qolayotgan bir sharoitda davlat qarzlari va davlat byudjeti taqchilligi tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, jahon zaxira valyutalarining beqarorligi, moliya-bank tizimi kredit qobiliyatining keskin pasayishi va investitsiyaviy faollikning susayishi bilan bog‘liq murakkab muammolar ko‘plab davlatlar iqtisodiyotining tiklanish va o‘sish sur’atlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Davlat budjeti mablag’larini shakllantirishda uning ham xarajatlar qismini, ham daromadlar qismini belgilash muhimdir, chunki budjetning daromadlari va xarajatlari o’zaro bir-birini taqozo etadi, uni to’liq hisobga olmaslik, noxush oqibatlarni keltirib chiqaradi. Budjet siyosatining asosiy yo’nalishi moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy tizim sohalari o’rtasida qayta taqsimlash va respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirish maqsadida, davlat ixtiyoridagi moliya resurslarini arkazlashtirishdan iboratdir. Budjet mablag‘laridan quyidagi asosiy maqsadlarda foydalaniladi.

1-jadval

Budjet mablag‘laridan foydalanish maqsadlari

Ijtimoiy himoya va yordam	Kam ta'minlangan aholi qatlamlari, nogironlar, pensionerlar va boshqa yordamga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash uchun mablag‘ ajratiladi.
Ta'lim	Maktablar, litseylar, kollejlar va oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish, o‘qituvchilarga ish haqini to‘lash, o‘quv resurslarini ta'minlash kabi ta'lim sohasi xarajatlariga yo‘naltiriladi.
Sog‘liqni saqlash	Shifoxonalar, poliklinikalar va boshqa tibbiy muassasalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, dori-darmonlar, uskunalar va vaksinalar xarid qilish uchun mablag‘ ajratiladi.
Infratuzilma va transport	Yo‘llar, ko‘priklar, suv ta'minoti, energiya infratuzilmasi, transport tizimlarini qurish va ta'mirlash uchun davlat mablag‘lari ishlatiladi.
Mudofaa va xavfsizlik	Milliy xavfsizlikni ta'minlash, mudofaa va xavfsizlik xizmatlari xarajatlarini qoplash, politsiya va armiya uchun zarur resurslarni ta'minlashga mablag‘ ajratiladi.
Ilm-fan va innovatsiyalar	Ilmiy tadqiqotlar, texnologik innovatsiyalarni rivojlantirish va ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ajratiladi.
Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi	Atrof-muhitni asrash, chiqindilarni boshqarish, suv va havo sifatini yaxshilash kabi ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun mablag‘ yo‘naltiriladi.
Davlat boshqaruvi va xizmatlari	Davlat organlari faoliyatini moliyalashtirish, davlat xizmatchilarining ish haqini to‘lash va davlat xizmatlarini ko‘rsatish uchun ajratiladi.

Manba: *Internetdagi manbalar va ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

Budjet mablag‘lari yuqoridagi maqsadlar uchun sarflanib, davlatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi hamda fuqarolarning farovonligini oshirishga qaratilgan.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan budjet mablag‘laridan foydalanish maqsadlarini yanada chuqurroq tahlil qiladigan bo‘lsak, O’zbekiston Respublikasining respublika budjetidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo’llab-quvvatlash xarajatlari;

2) davlat grantlari, subsidiyalar va ijtimoiy buyurtma shaklida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash xarajatlari;

3) iqtisodiyot xarajatlari;

4) respublika vazirliklari, davlat qo’mitalari va idoralari buyurtmachi bo’lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;

5) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlab turish xarajatlari;

6) sudlarni, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;

7) O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg’armasini shakllantirish xarajatlari;

8) boshqa xarajatlar.

Budjet xarajatlari quyidagi holda amalga oshiriladi:

• Qoraqalpog’iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetidan amalga oshiriladigan xarajatlar;

• Tumanlar va shaharlar budjetlaridan amalga oshiriladigan xarajatlar;

Bulardan tumanlar va shaharlar budjetlaridan amalga oshiriladigan xarajatlarni ko'rib chiqaylik:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo’llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

- tumanlar (shaharlar) xalq ta’limi muassasalari faoliyatini uslubiy jihatdan ta’minlash va tashkil etish bo’limlarini, shuningdek ular tasarrufidagi maktabgacha ta’lim, umumiy o’rta ta’lim, maktabdan tashqari ta’lim muassasalarini saqlab turish hamda qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar budjetlaridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta’lim tizimidagi tadbirlar xarajatlari;

- tumanlar (shaharlar) tibbiyot birlashmalari tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalarini hamda davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati tuman, shahar muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

- qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog’lig’ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

- tumanlar (shaharlar) madaniyat va sport ishlari bo’limlari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek madaniyat va sportni rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari tomonidan kam ta’minlangan oilalarga tayinlanadigan hamda to’lanadigan ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam hamda tabiiy ofatlardan jabrlangan oilalarga moddiy yordam, uyda ijtimoiy yordam ko’rsatish, Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro ob’ektlarida harbiy xizmatni o’tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash xarajatlari;

2) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

- tumanlar va shaharlar davlat veterinariya bo’limlarini, laboratoriyalarini saqlab turish;

- shaharlarning va boshqa aholi punktlarining ko’chalarini, shuningdek xo’jaliklararo qishloq avtomobil yo’llarini ta’mirlash;

- uy-joy-kommunal xo’jaligi ob’ektlarida ta’mirlash ishlarini olib borish;

- aholi punktlarini obodonlashtirish xarajatlari;

3) tuman va shahar hokimliklarini hamda ularning bo’limlarini saqlab turish xarajatlari;

4) fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;

5) boshqa xarajatlar, shu jumladan qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar budjetlaridan

moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ayrim tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.

Budjet mablag‘laridan foydalanish quyidagi asosiy tamoyillar va asoslarga tayanadi (4-jadval):

4-jadval

Budjet mablag‘laridan foydalanishning asosiy tamoyillari va asoslari*

Tamoyil	Mazmuni
1. Maqsadga muvofiqlik	Budjet mablag‘lari davlat va jamoat ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirilishi lozim. Har bir xarajat davlat dasturlari, rivojlanish strategiyalari va qonunchilik talablariga mos bo‘lishi kerak.
2. Shaffoflik va hisobdorlik	Budjet mablag‘larining shakllanishi va sarflanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ochiq va tushunarli bo‘lishi kerak. Davlat organlari va budjet tashkilotlari mablag‘lardan foydalanish natijalari bo‘yicha jamoatchilik hamda nazorat organlariga hisobot berishi lozim. Bu korrupsiya va mablag‘larning suiiste’mol qilinish xavfini kamaytiradi.
3. Tejamkorlik va samaradorlik	Budjet mablag‘lari minimal xarajat evaziga maksimal ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishish tamoyili asosida sarflanishi kerak. Bunda resurslardan oqilona foydalanish, ortiqcha va samarasiz xarajatlarni qisqartirish muhim ahamiyatga ega.
4. Davlat-xususiy sheriklik	Davlat va xususiy sektor imkoniyatlarini birlashtirish orqali budjetga tushadigan moliyaviy yukni kamaytirish va qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish mumkin. Ayniqsa, infratuzilma, sog‘liqni saqlash, ta’lim va kommunal xizmatlar sohasida DXSh mexanizmlaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi.
5. Nazorat va monitoring	Budjet mablag‘larining belgilangan maqsadlarda va samarali ishlatilishini ta’minlash uchun muntazam nazorat va monitoring olib boriladi. Ichki nazorat, tashqi audit va moliyaviy monitoring orqali xarajatlarning qonuniyligi va natijadorligi baholanadi.
6. Qonuniylik	Budjet mablag‘larini shakllantirish, taqsimlash va sarflash amaldagi qonunchilik va budjet intizomi talablariga muvofiq amalga oshirilishi shart. Mablag‘lardan foydalanishda belgilangan moliyaviy me’yorlar va tartiblarga rioya qilinadi.
7. O‘z vaqtida va aniq rejalashtirish	Budjet xarajatlari oldindan puxta rejalashtirilishi, mavjud moliyaviy resurslar va davlatning ustuvor vazifalari hisobga olinishi lozim. To‘g‘ri rejalashtirish mablag‘larning o‘z vaqtida ajratilishi va ulardan samarali foydalanishni ta’minlaydi.

Manba: Internetdagi manbalar va ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan asoslar davlat mablag‘laridan foydalanishni yanada samarali, adolatli va tizimli qilish uchun yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning amalga oshirilishi iqtisodiy barqarorlikka, ijtimoiy rivojlanishga va davlat xizmatlarining sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa.

Ushbu tadqiqot doirasida budjet tashkilotlari tomonidan budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni takomillashtirishning ayrim nazariy va amaliy jihatlari o‘rganildi. Shu bilan birga, tadqiqot bir qator cheklovlarga ega bo‘lib, ular natijalarning ishonchliligiga ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Quyida tadqiqot cheklovlari va ularni kelgusi tadqiqotlarda inobatga olishga oid takliflar keltirilgan. Tadqiqot cheklovlari quyidagilardan iborat:

Ma’lumotlar cheklanganligi: Budjet mablag‘laridan foydalanish va nazorat jarayonlari

bo‘yicha mavjud ma’lumotlarning yetarlicha batafsil emasligi yoki ba’zi tashkilotlarda ma’lumotlarning maxfiyligi tadqiqotning to‘liq yoritilishiga to‘sqinlik qilgan bo‘lishi mumkin. Shu sababli, ayrim tahlillarda ma’lumotlar cheklanganligi tadqiqot natijalarining kengroq umumlashtirilishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Moliyaviy nazorat tizimidagi murakkablik: Davlat budjeti mablag‘larini nazorat qilish jarayonida bir qancha davlat idoralari va turli huquqiy-ijro organlari ishtirok etadi. Bu jarayonni tahlil qilishda nazoratning ko‘p darajaliligi va murakkabligi tufayli tadqiqotning ba’zi jihatlari yuzasidan cheklovlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Hepworth, N. (2024). The distinction between public financial management and internal control (PFM/IC) and public financial administration and internal control (PFA/IC). In Public financial management and internal control (pp. 85–117). Springer.
2. The Institute of Internal Auditors. (2020). The IIA’s Three Lines Model: An update of the Three Lines of Defense. https://www.theiia.org/en/content/position-papers/2020/the-iias-three-lines-model-an-update-of-the-three-lines-of-defense/
3. United Nations General Assembly. (2011). Promoting the efficiency, accountability, effectiveness and transparency of public administration by strengthening supreme audit institutions (A/RES/66/209).
4. INTOSAI. (2019). ISSAI 100: Fundamental principles of public-sector auditing. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements. https://www.issai.org/pronouncements/issai-100-fundamental-principles-of-public-sector-auditing/
5. International Auditing and Assurance Standards Board. (2018). ISA 200: Overall objectives of the independent auditor and the conduct of an audit in accordance with International Standards on Auditing. International Federation of Accountants.
6. Power, M. (2000). The audit society — Second thoughts. International Journal of Auditing, 4(1), 111–119.
7. Bovens, M. (2007). Analysing and assessing accountability: A conceptual framework. European Law Journal, 13(4), 447–468.
8. INTOSAI. (2019d). INTOSAI-P 12: The value and benefits of Supreme Audit Institutions — making a difference to the lives of citizens. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.
9. INTOSAI. (2019a). ISSAI 100: Fundamental principles of public-sector auditing. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.; INTOSAI. (2020). ISSAI 200: Financial audit principles. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.; INTOSAI. (2019b). ISSAI 300: Performance audit principles. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.; INTOSAI. (2019c). ISSAI 400: Compliance audit principles. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.
10. Blume, L., & Voigt, S. (2011). Does organizational design of supreme audit institutions matter? A cross-country assessment. European Journal of Political Economy, 27(2), 215–229.
11. Dye, K. M., & Stapenhurst, R. (1998). Pillars of integrity: The importance of supreme audit institutions in curbing corruption. World Bank Institute.
12. INTOSAI Development Initiative. (2016). Supreme Audit Institutions Performance Measurement Framework (SAI PMF). INTOSAI / IDI.
13. Pollitt, C., & Summa, H. (1997). Reflexive watchdogs? How supreme audit institutions account for themselves. Public Administration, 75(2), 313–336.
14. Knechel, W. R. (2007). The business risk audit: Origins, challenges and the role of research. Accounting, Organizations and Society, 32(4–5), 383–408.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

15. Alles, M., Brennan, G., Kogan, A., & Vasarhelyi, M. A. (2006). Continuous monitoring of business process controls: A pilot implementation of a continuous auditing system at Siemens. International Journal of Accounting Information Systems, 7(2), 137–161.

16. PEFA Secretariat. (2018). PEFA handbook. Volume II: PEFA assessment fieldguide. PEFA Secretariat.

17. International Public Sector Accounting Standards Board. (2022). Handbook of international public sector accounting pronouncements. International Federation of Accountants.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

TASHABBUSLI BUDJET XARAJATLARI USTIDAN DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI TASHKIL ETISH MASALALARI

Abdushayitov Abdumannobbek Abdumutal o‘g‘li
O‘zbekiston respublikasi
Bank moliya akademiyasi
Xalqaro bank ishi fakulteti
Davlat moliyaviy nazorati va auditi(MSc)
mutaxassisligi talabasi
E-mail: AbdushayitovA@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tashabbusli budjet jarayoni doirasida amalga oshiriladigan xarajatlar ustidan davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tashabbusli budjet mablag‘laridan qonuniy, maqsadli va samarali foydalanishni ta’minlashda davlat moliyaviy nazoratining o‘rni hamda ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tashabbusli budjet loyihalarini shakllantirish, tanlash, moliyalashtirish va amalga oshirish bosqichlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy xatarlar, mablag‘lardan maqsadsiz foydalanish holatlari hamda nazorat mexanizmlaridagi muammolar tahlil qilingan. Tashabbusli budjet xarajatlari ustidan nazorat samaradorligini oshirish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, shaffoflik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, shuningdek, riskga asoslangan davlat moliyaviy nazorati mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *tashabbusli budjet, davlat moliyaviy nazorati, budjet xarajatlari, budjet mablag‘lari, jamoatchilik nazorati, moliyaviy nazorat, budjet jarayoni, moliyaviy xatarlar, riskga asoslangan nazorat, shaffoflik, raqamlashtirish, mablag‘lardan samarali foydalanish.*

ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ЗА ИНИЦИАТИВНЫМИ БЮДЖЕТНЫМИ РАСХОДАМИ

Абдушайитов Абдуманноббек Абдумутал угли
Банковско-финансовая академия
Республики Узбекистан
Факультет международного банковского дела
Магистрант специальности
«Государственный финансовый контроль и аудит»(MSc)
E-mail: AbdushayitovA@gmail.com

Аннотация: *В статье исследованы теоретические и практические аспекты организации государственного финансового контроля за расходами, осуществляемыми в рамках процесса инициативного бюджета. Раскрыты роль и значение государственного финансового контроля в обеспечении законного, целевого и эффективного использования средств инициативного бюджета. Проанализированы финансовые риски, случаи нецелевого использования бюджетных средств и проблемы контрольных механизмов, возникающие на этапах формирования, отбора, финансирования и реализации проектов инициативного бюджета. Разработаны научно-практические предложения и рекомендации по повышению эффективности контроля за расходами инициативного бюджета, расширению использования цифровых технологий, усилению прозрачности и общественного контроля, а также совершенствованию механизмов риск-ориентированного государственного финансового контроля.*

Ключевые слова: *инициативный бюджет, государственный финансовый контроль, бюджетные расходы, бюджетные средства, общественный контроль, финансовый контроль, бюджетный процесс, финансовые риски, риск-ориентированный*

контроль, прозрачность, цифровизация, эффективное использование средств.

ISSUES OF ORGANIZING STATE FINANCIAL CONTROL OVER INITIATIVE BUDGET EXPENDITURES

Abdushayitov Abdumannobbek Abdumutal o‘g‘li
Banking and finance academy of the Republic of Uzbekistan Faculty of International Banking Master's Student (MSc) in Public Financial Control and Audit
E-mail: AbdushayitovA@gmail.com

Abstract: *This article examines the theoretical and practical aspects of organizing state financial control over expenditures implemented within the participatory budgeting process. The role and importance of state financial control in ensuring the lawful, targeted, and efficient use of participatory budget funds are highlighted. The study analyzes financial risks, cases of inefficient or non-targeted use of budget funds, and problems in control mechanisms arising at the stages of project development, selection, financing, and implementation. Scientific and practical proposals and recommendations are developed to improve the effectiveness of control over participatory budget expenditures, expand the use of digital technologies, strengthen transparency and public oversight, and improve risk-based state financial control mechanisms.*

Keywords: *participatory budgeting, state financial control, budget expenditures, budget funds, public oversight, financial control, budget process, financial risks, risk-based control, transparency, digitalization, efficient use of funds.*

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti va demokratik boshqaruv sharoitida davlat moliyaviy resurslarining maqsadli, qonuniy va samarali sarflanishini ta'minlash davlat hokimiyati organlarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur vazifani amalga oshirishda davlat moliyaviy nazorati alohida o'rin tutadi, chunki u nafaqat byudjet mablag'larining oqilona taqsimlanishi va sarflanishini, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. So'nggi o'n yilliklarda jahonda davlat moliyaviy nazoratining shakllari sezilarli o'zgarib, jamoatchilik nazorati, raqamli audit, xatarga asoslangan tekshiruvlar va natija-yo'naltirilgan baholash kabi zamonaviy yondashuvlar an'anaviy revizion tartiblar bilan birga qo'llanila boshlandi. Bunday o'zgarishlar bir tomondan fuqarolarning byudjet jarayonidagi rolini kuchaytirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan davlat audit institutlari oldiga yangi metodologik va institutsional vazifalarni qo'ydi.

Tashabbusli budjet (participatory budgeting) — fuqarolarni mahalliy byudjet jarayoniga bevosita jalb qiluvchi, ularga byudjet mablag'larining ma'lum bir qismini sarflash bo'yicha qaror qabul qilish imkonini beruvchi institutsional mexanizm — zamonaviy davlat moliyasi nazariyasi va amaliyotining tezkor rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biridir. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, ushbu institut 1989-yilda Braziliyaning Porto-Alegre shahrida sinov tarzida joriy etilgan paytdan beri 11 000 dan ortiq shahar va munitsipalitetga tarqalgan. Tashabbusli budjet bir vaqtning o'zida ham byudjet shaffofligini, ham aholining demokratik faolligini, ham mahalliy boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq mazkur jarayonning kengayishi muqarrar ravishda davlat moliyaviy nazorati tizimi oldiga qator yangi vazifalarni qo'yadi: nafaqat byudjet mablag'larining qonuniy va maqsadli sarflanishini, balki fuqarolar tomonidan tanlangan loyihalarning haqiqatda amalga oshirilishini, ularning sifati va belgilangan muddatlarini ham nazorat qilish zarurati paydo bo'ladi.

Metodlar.

Tadqiqotda davlat moliyaviy nazoratini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalasini kompleks o‘rganish uchun tizimli, qiyosiy, institutsional va riskka asoslangan

metodologik yondashuvlar qo‘llanildi. Tizimli yondashuv orqali davlat auditi, ichki nazorat, ichki audit va tashqi auditning o‘zaro funksional bog‘liqligi tahlil qilindi. Qiyosiy metod asosida Vestminster, sudlov va kollegial audit modellarining institutsional xususiyatlari hamda ularning afzallik va cheklovlari solishtirildi. Normativ-huquqiy tahlil yordamida INTOSAI-P, ISSAI, PEFA va boshqa xalqaro standartlarning asosiy talablari o‘rganildi. Riskka asoslangan yondashuv orqali budjet xarajatlari, davlat xaridlari, davlat qarzi, SOE, ijtimoiy dasturlar va investitsiya loyihalaridagi asosiy xavf klasterlari aniqlandi. 3E (economy, efficiency, effectiveness) metodologiyasi davlat dasturlarining natijadorligini baholash uchun qo‘llanildi. Natijalar asosida O‘zbekiston uchun IRAM modelini shakllantirish bo‘yicha institutsional takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar.

O‘zbekiston Respublikasida tashabbusli budjetlashtirish (open budget) amaliyoti fuqarolarni mahalliy byudjet jarayoniga jalb etish, davlat xarajatlarining shaffofligini ta’minlash va byudjet mablag‘laridan maqsadli foydalanish ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish vositasi sifatida shakllandi. Dasturning huquqiy asoslari Prezidentning 2018-yil 13-apreldagi PQ-3691-son qarori va keyingi normativ-huquqiy hujjatlar bilan qo‘yilgan bo‘lib, "Ochiq budjet" axborot portali (openbudget.uz) orqali fuqarolar o‘z mahallasi yoki tumanida bajarilishi lozim deb hisoblagan loyihalarni taqdim etish, ularni saralashdan o‘tkazish va ovoz berish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Mazkur tizim mahalliy byudjetlar qo‘shimcha mablag‘larining ma’lum bir foizini fuqarolar tomonidan tanlangan loyihalarga yo‘naltirishni nazarda tutadi va bu jihatdan u Lotin Amerikasi va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ishlab chiqilgan ishtirokchi byudjet (participatory budget) modelining O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan ko‘rinishi hisoblanadi.

Tashabbusli budjet amaliyotini kengaytirishda 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son qarori muhim bosqich bo‘ldi. Mazkur qaror tuman va shahar byudjetlari qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetlari qo‘shimcha mablag‘larining 30 foizi jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishini belgiladi. Keyinchalik 2023-yil 10-apreldagi PQ-117-son va 2025-yil 29-avgustdagi PQ-264-son qarorlari bilan loyihalarning maksimal moliyalashtirish chegarasi qurilish-ta’mirlash loyihalari bo‘yicha BHMning 4 000 baravari, jihozlash loyihalari bo‘yicha BHMning 2 000 baravari miqdorida belgilanib, sheriklik asosida moliyalashtirish va deputatlar tashabbusiga ko‘ra qo‘shimcha g‘oliblarni aniqlash mexanizmlari joriy etildi (Lex.uz, 2023; Lex.uz, 2025).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida tashabbusli budjet doirasida amalga oshirilgan xarajatlar va loyihalar dinamikasi (2023–2026-yillar, mavsumlar kesimida)

Mavsum	Kelib tushgan tashabbuslar, ta	Saralashdan o‘tgan loyihalar, ta	G‘olib loyihalar, ta	Ajratilgan mablag‘, mlrd so‘m	Bitta loyihaga o‘rtacha, mln so‘m
2023-yil (qo‘shimcha)	—	—	1 309	1 300	993
2024-yil 1-mavsum	19 800	16 100	2 770	3 300	1 191
2024-yil 2-mavsum	14 500	11 700	1 772	2 271	1 282
2025-yil 1-mavsum	28 399	23 457	2 369	3 200	1 351
2025-yil 2-mavsum	22 263	18 656	2 332	3 200	1 372
2026-yil 1-mavsum	21 049	17 393	2 250	2 188	973
Jami 2023–2026	**105 711**	**87 306**	**12 802**	**15 459**	**1 207**

Manba: *Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy ma’lumotlari, openbudget.uz axborot portali va PQ-117, PQ-264 qarorlari asosida muallif tomonidan tuzildi. 2026-yilning 1-mavsumi g‘olib loyihalari soni prognoz ko‘rsatkichi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, tashabbusli budjet uch yil davomida nafaqat moliyaviy hajm, balki fuqarolarning faolligi bo‘yicha ham sezilarli o‘sgan. 2023-yilda qo‘shimcha tarzda ajratilgan 1,3 trillion so‘m mablag‘ 2024-yilda har bir mavsum bo‘yicha 2,2–3,3 trillion so‘m oralig‘iga ko‘tarildi, 2025-yilda esa ikki mavsum yakuni bo‘yicha jami 6,4 trillion so‘mga yetdi. Mazkur o‘sish dasturning davlat byudjetidagi salmog‘i sezilarli kengayib borayotganini, fuqarolar tashabbusi orqali boshqariladigan xarajatlar bloki o‘rta muddatli istiqbolda barqaror moliyaviy resurs sifatida shakllanayotganini bildiradi. Ikkinchidan, kelib tushgan tashabbuslar soni 2024-yildagi taxminan 19,8 mingdan 2025-yildagi 28,4 mingga ko‘tarildi va bu fuqarolarning byudjet jarayoniga jalb etilish darajasi sezilarli kuchayganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, 2026-yilning 1-mavsumida ajratilgan 2 188 milliard so‘mlik rejaviy mablag‘ avvalgi mavsumga nisbatan qariyb 35 foizga kam ekani diqqatga sazovor jihat hisoblanadi. Bu pasayish, bir tomondan, makroiqtisodiy sharoitlar va byudjet xarajatlarini optimallashtirish bilan, ikkinchi tomondan, jihozlash loyihalari uchun moliyaviy chegaralar joriy etilishi hamda eng kam ovoz chegarasining 50 ta darajaga oshirilishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, bitta loyihaga o‘rtacha to‘g‘ri keladigan mablag‘ ko‘rsatkichi 2024-yildagi 1,2 mlrd so‘mdan 2025-yilda 1,36 mlrd so‘mga oshib, 2026-yilda 0,97 mlrd so‘mga pasaygani loyihalarning miqyosi va moliyaviy intensivligi yildan-yilga turli omillar ta’sirida o‘zgarayotganini ko‘rsatadi. Bu vaziyat davlat moliyaviy nazorati organlari uchun har mavsumda loyihalarning narx asoslanishi va xarajatlar smetalarini chuqurroq tahlil qilishni dolzarb vazifa qilib qo‘yadi.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Farg’ona viloyati 2026-yilning 1-mavsumida saralashdan o‘tgan tashabbuslar soni bo‘yicha respublikada birinchi o‘rinda turadi va umumiy hajmning 9,5 foizini tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich viloyat aholisining yuqori darajadagi grajdanlik faolligi, mahallalar tarmog‘ining kengligi va viloyatning Toshkent shahriga yaqinligi tufayli axborot oqimi yuqori ekanini ko‘rsatadi. Aholi jon boshiga shartli mablag‘ ko‘rsatkichi bo‘yicha esa Farg’ona viloyati 1 144 ming so‘m bilan o‘rtacha darajaga to‘g‘ri keladi, biroq aholisi nisbatan kam bo‘lgan Sirdaryo, Navoiy va Buxoro viloyatlarida bu ko‘rsatkich ancha yuqori (1,4–1,7 million so‘m oralig‘ida). Farg’ona viloyati tarkibida Farg’ona shaxri 2026-yil 1-yanvar holatiga 192 800 dan ortiq doimiy aholisi va 68 ta mahalla fuqarolar yig‘ini bilan o‘rta hajmdagi tumanlardan biri hisoblanadi.

Xulosa.

Ushbu tadqiqot doirasida budjet tashkilotlari tomonidan budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni takomillashtirishning ayrim nazariy va amaliy jihatlari o‘rganildi. Shu bilan birga, tadqiqot bir qator cheklovlarga ega bo‘lib, ular natijalarning ishonchliligiga ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Quyida tadqiqot cheklovlari va ularni kelgusi tadqiqotlarda inobatga olishga oid takliflar keltirilgan. Tadqiqot cheklovlari quyidagilardan iborat:

Ma’lumotlar cheklanganligi: Budjet mablag‘laridan foydalanish va nazorat jarayonlari bo‘yicha mavjud ma’lumotlarning yetarlicha batafsil emasligi yoki ba’zi tashkilotlarda ma’lumotlarning maxfiyligi tadqiqotning to‘liq yoritilishiga to‘sqinlik qilgan bo‘lishi mumkin. Shu sababli, ayrim tahlillarda ma’lumotlar cheklanganligi tadqiqot natijalarining kengroq umumlashtirilishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Moliyaviy nazorat tizimidagi murakkablik: Davlat budjeti mablag‘larini nazorat qilish jarayonida bir qancha davlat idoralari va turli huquqiy-ijro organlari ishtirok etadi. Bu jarayonni tahlil qilishda nazoratning ko‘p darajaliligi va murakkabligi tufayli tadqiqotning ba’zi jihatlari yuzasidan cheklovlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

18. O’zbekiston Respublikasining “Davlat moliyaviy nazorati to'g'risida”gi Qonuni,

O'RQ-414, 2016-yil 7-noyabr.

19. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, PF-5300, 2018-yil 11-aprel.

20. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Budjet jarayoni ochiqligini ta'minlash va davlat budjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, PQ-3691, 2018-yil 13-aprel.

21. Hepworth, N. (2024). The distinction between public financial management and internal control (PFM/IC) and public financial administration and internal control (PFA/IC). In Public financial management and internal control (pp. 85–117). Springer.

22. The Institute of Internal Auditors. (2020). The IIA’s Three Lines Model: An update of the Three Lines of Defense. https://www.theiia.org/en/content/position-papers/2020/the-iias-three-lines-model-an-update-of-the-three-lines-of-defense/

23. United Nations General Assembly. (2011). Promoting the efficiency, accountability, effectiveness and transparency of public administration by strengthening supreme audit institutions (A/RES/66/209).

24. INTOSAI. (2019). ISSAI 100: Fundamental principles of public-sector auditing. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements. https://www.issai.org/pronouncements/issai-100-fundamental-principles-of-public-sector-auditing/

25. International Auditing and Assurance Standards Board. (2018). ISA 200: Overall objectives of the independent auditor and the conduct of an audit in accordance with International Standards on Auditing. International Federation of Accountants.

26. Power, M. (2000). The audit society — Second thoughts. International Journal of Auditing, 4(1), 111–119.

27. Bovens, M. (2007). Analysing and assessing accountability: A conceptual framework. European Law Journal, 13(4), 447–468.

28. INTOSAI. (2019d). INTOSAI-P 12: The value and benefits of Supreme Audit Institutions — making a difference to the lives of citizens. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.

29. INTOSAI. (2019a). ISSAI 100: Fundamental principles of public-sector auditing. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.; INTOSAI. (2020). ISSAI 200: Financial audit principles. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.; INTOSAI. (2019b). ISSAI 300: Performance audit principles. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.; INTOSAI. (2019c). ISSAI 400: Compliance audit principles. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.

30. Blume, L., & Voigt, S. (2011). Does organizational design of supreme audit institutions matter? A cross-country assessment. European Journal of Political Economy, 27(2), 215–229.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

HUDUDLARGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA RAQAMLI INFRATUZILMANING O‘RNI

Zokirov Sardor To‘lqin o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqamli infratuzilmaning o‘rni tadqiq etilgan. Raqamli infratuzilmaning hududlarning investitsion jozibadorligini shakllantirishdagi iqtisodiy ahamiyati, xususan, internet va telekommunikatsiya tarmoqlari, raqamli davlat xizmatlari, ma’lumotlarni uzatish tizimlari hamda raqamli platformalarning investorlar qarorlariga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, raqamli infratuzilmaning investitsiya jarayonlarida axborot almashinuvi tezligini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish va investorlar uchun qulay biznes muhitini shakllantirishdagi imkoniyatlari asoslangan. Hududlar o‘rtasidagi raqamli tafovutlarni qisqartirish va infratuzilmaviy imkoniyatlarni kengaytirish xorijiy kapital oqimini oshirishning muhim sharti sifatida baholangan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli infratuzilma, xorijiy investitsiyalar, hudud, investitsion jozibadorlik, raqamli iqtisodiyot, telekommunikatsiya, internet, raqamli xizmatlar, investitsion muhit, raqamli transformatsiya.*

РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕГИОНЫ

Зокиров Сардор Тулкин угли

Независимый соискатель Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация. *В статье исследуется роль цифровой инфраструктуры в привлечении иностранных инвестиций в регионы. Раскрыто экономическое значение цифровой инфраструктуры в формировании инвестиционной привлекательности регионов, в частности влияние интернет- и телекоммуникационных сетей, цифровых государственных услуг, систем передачи данных и цифровых платформ на инвестиционные решения. Также обоснованы возможности цифровой инфраструктуры в ускорении информационного обмена в инвестиционных процессах, снижении транзакционных издержек, упрощении управленческих процедур и формировании благоприятной бизнес-среды для инвесторов. Сокращение цифрового разрыва между регионами и расширение инфраструктурных возможностей рассматриваются как важные условия увеличения притока иностранного капитала.*

Ключевые слова: *цифровая инфраструктура, иностранные инвестиции, регион, инвестиционная привлекательность, цифровая экономика, телекоммуникации, интернет, цифровые услуги, инвестиционная среда, цифровая трансформация.*

THE ROLE OF DIGITAL INFRASTRUCTURE IN ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT TO REGIONS

Zokirov Sardor Tulkin ugli

Independent Researcher at Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article examines the role of digital infrastructure in attracting foreign investment to regions. It highlights the economic significance of digital infrastructure in shaping regional investment attractiveness, particularly the impact of internet and telecommunication networks, digital public services, data transmission systems, and digital platforms on investment decisions. The article also substantiates the potential of digital infrastructure to accelerate information exchange in investment processes, reduce transaction costs, simplify administrative procedures, and create a favorable business environment for investors. Reducing the digital divide between regions and expanding infrastructure capacities are considered important conditions for increasing foreign capital inflows.*

Keywords: *digital infrastructure, foreign investment, region, investment attractiveness, digital economy, telecommunications, internet, digital services, investment environment, digital transformation.*

Kirish.

Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, ish o‘rinlarini yaratish va hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishning muhim omillaridan biridir. Xorijiy investorning hududni tanlash qarorida bozor sig‘imi, xomashyo va mehnat resurslari bilan ta’minlanganlik, institutsional muhit bilan bir qatorda infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida raqamli infratuzilma hududlarning investitsion jozibadorligini belgilovchi yangi omil sifatida shakllanmoqda.

Raqamli infratuzilma keng polosali internet, mobil aloqa tarmoqlari, ma’lumotlarni uzatish tizimlari, bulutli texnologiyalar, ma’lumotlar markazlari va raqamli davlat xizmatlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur infratuzilmaning rivojlanganligi xorijiy investorlarning axborotdan tezkor foydalanishi, biznes jarayonlarini masofadan boshqarishi, elektron xizmatlardan foydalanishi hamda hududdagi hamkorlar bilan samarali aloqalarni yo‘lga qo‘yish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, raqamli infratuzilma investitsiya loyihalarini amalga oshirishda vaqt va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirib, boshqaruv jarayonlarining tezkorligi va shaffofligini oshiradi.

Hududlar o‘rtasidagi raqamli infratuzilma tafovutlari esa xorijiy investitsiyalarni taqsimlashda qo‘shimcha nomutanosibliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Raqamli imkoniyatlari rivojlangan hududlar texnologik va yuqori qo‘shilgan qiymatli loyihalar uchun ko‘proq jozibador bo‘lsa, raqamli infratuzilmasi yetarli bo‘lmagan hududlarda investorlar uchun qo‘shimcha xarajatlar va operatsion risklar shakllanadi. Shu sababli raqamli infratuzilmani rivojlantirish hududiy investitsiya siyosatining tarkibiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Mazkur maqolada hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqamli infratuzilmaning o‘rni, uning investorlar qarorlariga ta’siri hamda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishdagi iqtisodiy ahamiyati yoritiladi.

Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini shakllantirishda tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Internet tarmoqlarining kengayishi, axborot-kommunikatsiya xizmatlarining rivojlanishi va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining ortishi investorlar uchun hududda biznes yuritish sharoitlarini yaxshilaydi. Ayniqsa, xorijiy investorlar uchun tezkor axborot almashinuvi, elektron xizmatlardan foydalanish, masofaviy boshqaruv va raqamli to‘lov tizimlarining mavjudligi investitsiya loyihalarini amalga oshirish samaradorligini oshiruvchi omillar hisoblanadi.

Tahlil va natijalar.

2018–2025-yillar davomida O‘zbekistonda raqamli infratuzilmaning asosiy

ko‘rsatkichlarida izchil ijobiy dinamika kuzatilgan. Internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni va 100 aholiga to‘g‘ri keladigan abonentlar ko‘rsatkichi muntazam ravishda oshgan. Shu bilan birga, axborot va aloqa xizmatlari hajmining sezilarli darajada kengayishi raqamli iqtisodiyotning rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Mazkur jarayon xorijiy investitsiyalar hajmining o‘sishi bilan bir davrga to‘g‘ri kelayotgani raqamli infratuzilma va investitsion faollik o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

1-jadval

O‘zbekistonda raqamli infratuzilmaning rivojlanish dinamikasi, 2018–2025-yillar[46]

Yil	Internet tarmog‘iga ulangan abonentlar, mingta	100 aholiga to‘g‘ri keladigan internet abonentlari	Axborot va aloqa xizmatlari hajmi, mlrd so‘m	Xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd so‘m
2018	13 321,7	40,4	11 874,7	30 154,8
2019	16 386,2	48,8	12 507,4	85 437,2
2020	19 981,0	58,4	15 861,1	89 758,8
2021	22 987,2	65,8	20 353,8	101 371,2
2022	26 723,6	75,0	27 938,0	113 864,3
2023	30 061,0	82,6	39 734,2	201 692,1
2024	32 138,7	86,5	56 865,2	351 846,5
2025	36 195,1	94,7	79 485,5	433 881,8

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2018–2025-yillarda internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni 13 321,7 mingtadan 36 195,1 mingtagacha oshgan. Bu qariyb 2,7 baravar o‘sishni anglatadi. Ayniqsa, 2020-yildan keyingi davrda internetdan foydalanish ko‘lami tez kengaygan. Internet abonentlari sonining bunday o‘sishi aholining, tadbirkorlik subyektlarining va investorlarning raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayganini ko‘rsatadi.

100 aholiga to‘g‘ri keladigan internet abonentlari soni ham izchil oshib, 2018-yildagi 40,4 tadan 2025-yilda 94,7 tagacha yetgan. Ya’ni, mazkur ko‘rsatkich 54,3 birlikka oshgan. Bu raqamli qamrov darajasining yuqorilayotganidan dalolat beradi. Investor nuqtayi nazaridan bunday tendensiya hududda raqamli xizmatlar uchun bozor shakllanayotganini va aholining zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari kengayayotganini anglatadi.

Axborot va aloqa xizmatlari hajmida yanada yuqori o‘sish kuzatilgan. 2018-yildagi 11 874,7 mlrd so‘mdan 2025-yilda 79 485,5 mlrd so‘mgacha oshgan mazkur ko‘rsatkich qariyb 6,7 baravar ko‘paygan. Ayniqsa, 2022–2025-yillarda xizmatlar hajmi jadal o‘sib, 27 938,0 mlrd so‘mdan 79 485,5 mlrd so‘mgacha yetgan. Bu raqamli xizmatlarga bo‘lgan talab va iqtisodiyotning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bog‘liqligi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi ham keskin o‘sgan. 2018-yildagi 30 154,8 mlrd so‘mdan 2025-yilda 433 881,8 mlrd so‘mgacha yetgan ushbu ko‘rsatkich qariyb 14,4 baravar oshgan. Eng yuqori o‘sish 2023–2025-yillarda qayd etilgan: 2023-yilda 201 692,1 mlrd so‘m, 2024-yilda 351 846,5 mlrd so‘m va 2025-yilda 433 881,8 mlrd so‘mni tashkil qilgan.

Ko‘rsatkichlar dinamikasini birgalikda baholash raqamli infratuzilmaning rivojlanishi va xorijiy investitsiyalar oqimi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq jadval ma’lumotlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri sabab-oqibat munosabatini isbotlamaydi. Xorijiy investitsiyalar o‘sishiga iqtisodiy islohotlar, bozor hajmi, infratuzilmaning boshqa turlari, soliq siyosati va institutsional muhit kabi omillar ham ta’sir qiladi. Shunga qaramay, raqamli infratuzilmaning yaxshilanishi investorlar uchun hududning biznes yuritish sharoitlarini sezilarli darajada qulaylashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

2018–2025-yillardagi dinamika O‘zbekistonda raqamli infratuzilmaning izchil rivojlanganini va bu jarayon investitsion faollikning oshishi bilan bir vaqtda kechganini

[46] https://stat.uz/uz/ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

ko‘rsatadi. Internet abonentlari sonining qariyb 2,7 baravar, axborot va aloqa xizmatlari hajmining 6,7 baravar, xorijiy investitsiya va kreditlarning esa 14,4 baravar oshishi ijobiy tendensiyadir. Kelgusida hududlar o‘rtasidagi raqamli tafovutni qisqartirish, yuqori tezlikdagi internet qamrovini kengaytirish va raqamli xizmatlar sifatini oshirish xorijiy investorlar uchun hududlarning jozibadorligini yanada kuchaytiradi.

Bundan tashqari, raqamli infratuzilmani rivojlantirishni faqat internet qamrovini oshirish bilan cheklamasdan, bulutli texnologiyalar, ma’lumotlar markazlari, elektron davlat xizmatlari, raqamli to‘lov tizimlari va IT xizmatlari bilan kompleks ravishda bog‘lash maqsadga muvofiq. Ayniqsa, investitsion salohiyati yuqori, biroq raqamli infratuzilmasi nisbatan sust hududlarga ustuvor investitsiyalar yo‘naltirilishi hududlar o‘rtasidagi tafovutni kamaytiradi. Natijada raqamli muhitning yaxshilanishi yangi investitsiya loyihalarini jalb qilish, mavjud korxonalar faoliyatini kengaytirish va hududlarning xalqaro investitsiya bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish uchun mustahkam asos yaratadi.

2-jadval

Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqamli infratuzilmani baholash ko‘rsatkichlari[47]

№	Ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	Investitsion jozibadorlikka ta’siri	Baholash yo‘nalishi	Tavsiya etiladigan vazn, %
1	Internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni	mingta	Ijobiy	↑	20
2	100 aholiga to‘g‘ri keladigan internet abonentlari	birlik	Ijobiy	↑	15
3	Axborot va aloqa xizmatlari hajmi	mlrd so‘m	Ijobiy	↑	15
4	Axborot va aloqa sohasiga investitsiyalar	mlrd so‘m	Ijobiy	↑	15
5	Raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi	%	Ijobiy	↑	10
6	AKT sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar soni	dona	Ijobiy	↑	10
7	Xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi	mlrd so‘m	Natijaviy ko‘rsatkich	↑	10
8	Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni	dona	Natijaviy ko‘rsatkich	↑	5
	Jami				**100**

Mazkur jadval hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqamli infratuzilmaning holatini baholash uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘rsatkichlar tizimini ifodalaydi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida investorlar hududni tanlashda nafaqat tabiiy resurslar, mehnat xarajatlari va bozor hajmiga, balki raqamli aloqa imkoniyatlari, internet qamrovi, elektron xizmatlar va AKT sektorining rivojlanganlik darajasiga ham e’tibor qaratmoqda. Shu sababli raqamli infratuzilma hududlarning xorijiy kapital uchun raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda.

Jadvalda eng yuqori 20 foizlik vazn internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soniga berilgan. Ushbu ko‘rsatkich hududdagi raqamli ulanish imkoniyatlarining umumiy ko‘lamini

[47] https://stat.uz/uz/ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

ifodalaydi. Abonentlar sonining ko‘pligi aholining, tadbirkorlik subyektlarining va investorlarning raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengligini bildiradi. 100 aholiga to‘g‘ri keladigan internet abonentlari ko‘rsatkichiga 15 foiz vazn berilishi esa hududlar o‘rtasidagi aholi soni bo‘yicha farqlarni hisobga olish imkonini beradi. Shu jihatdan ushbu ikki indikator birgalikda hududning raqamli qamrovini yanada aniqroq baholashga xizmat qiladi.

Axborot va aloqa xizmatlari hajmi hamda axborot va aloqa sohasiga investitsiyalarning har biriga 15 foizdan vazn ajratilgan. Birinchi ko‘rsatkich hududda raqamli xizmatlar bozorining rivojlanganlik darajasini, ikkinchisi esa ushbu sohaning moddiy-texnik bazasiga yo‘naltirilayotgan kapital miqdorini aks ettiradi. Investitsiyalarning ko‘payishi yangi telekommunikatsiya tarmoqlari, ma’lumotlarni uzatish tizimlari va zamonaviy raqamli xizmatlarning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Natijada investorlar uchun biznes jarayonlarini tashkil etish va boshqarish imkoniyatlari kengayadi.

Raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi 10 foiz vazn bilan baholanmoqda. Ushbu indikator hududda raqamli texnologiyalarning amaliy qo‘llanish ko‘lamini ko‘rsatadi. Elektron davlat xizmatlari, raqamli to‘lovlar, onlayn biznes xizmatlari va boshqa elektron platformalardan foydalanishning yuqori darajasi ma’muriy jarayonlarni tezlashtirib, investorlarning vaqt va tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi.

AKT sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar soniga ham 10 foiz vazn berilgan. Bu ko‘rsatkich hududda raqamli biznes muhiti va texnologik ekotizim shakllanganligini ifodalaydi. AKT korxonalarining ko‘pligi mahalliy xizmat ko‘rsatuvchilar, texnologik hamkorlar va malakali mutaxassislar mavjudligini anglatib, xorijiy kompaniyalar uchun qo‘shimcha qulaylik yaratadi.

Jadvaldagi xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi hamda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni esa natijaviy ko‘rsatkich sifatida ajratilgan. Ularning mos ravishda 10 va 5 foizlik vaznlarda berilishi raqamli infratuzilmaning investitsion natijalar bilan bog‘liqligini baholash imkonini beradi. Bunda mazkur ikki indikatorni raqamli infratuzilmani shakllantiruvchi omillardan alohida ko‘rish metodik jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi, chunki ular raqamlashtirishning bevosita natijasidan ko‘ra, hududning umumiy investitsion jozibadorligini ifodalovchi yakuniy ko‘rsatkichlar sifatida xizmat qiladi.

Umuman, jadvalda ko‘rsatilgan vaznlar yig‘indisi 100 foizni tashkil etadi. Ushbu tizim asosida ko‘rsatkichlarni standartlashtirish va belgilangan vaznlarga ko‘paytirish orqali hududlarning raqamli infratuzilma bo‘yicha integral indeksini hisoblash mumkin. Natijada hududlarni raqamli infratuzilmasi yuqori, o‘rtacha yoki past darajadagi guruhlarga ajratish va har bir guruh uchun tegishli investitsiya siyosatini ishlab chiqish imkoniyati yuzaga keladi.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli infratuzilmani rivojlantirishni xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati bilan bevosita bog‘lash maqsadga muvofiq. Ayniqsa, internet qamrovi va raqamli xizmatlari nisbatan past bo‘lgan hududlarda infratuzilmaviy loyihalarga ustuvorlik berish, AKT korxonalarini qo‘llab-quvvatlash va elektron investitsiya xizmatlarini kengaytirish hududlarning xalqaro investorlar uchun jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli infratuzilma hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning muhim shartlaridan biriga aylanmoqda. Internet va telekommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanganligi, raqamli davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, ma’lumotlarni tezkor uzatish va raqamli biznes jarayonlarini amalga oshirish imkoniyatlari investorlar uchun hududning jozibadorligini oshiradi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, elektron tijorat, moliyaviy texnologiyalar va boshqa texnologik yo‘nalishdagi loyihalarni joylashtirishda raqamli infratuzilmaning sifati alohida ahamiyatga ega.

Fikrimizcha, hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish siyosatida raqamli infratuzilmani rivojlantirish faqat texnik tarmoqlarni kengaytirish bilan cheklanmasligi kerak. Yuqori tezlikdagi internet, mobil aloqa, ma’lumotlar markazlari, raqamli davlat xizmatlari va

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

investitsion axborot tizimlarini yagona ekotizimga birlashtirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, raqamli infratuzilmasi nisbatan past hududlarda davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, investorlar uchun raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va hududlar o‘rtasidagi raqamli tafovutni qisqartirish xorijiy kapital oqimini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-598-son, 2019-yil 25-dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida. PF-158-son Farmon, 2023-yil 11-sentabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-6079-son Farmon, 2020-yil 5-oktabr.

4. North, D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. — Cambridge: Cambridge University Press, 1990.

5. Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. — New York: Free Press, 1990.

6. Czernich, N., Falck, O., Kretschmer, T., Woessmann, L. Broadband Infrastructure and Economic Growth // The Economic Journal. — 2011. — Vol. 121. — №552. — P. 505–532.

7. Forman, C., Goldfarb, A., Greenstein, S. The Internet and Local Wages: Convergence or Divergence? // National Bureau of Economic Research. — Cambridge, 2012.

8. Goldfarb, A., Tucker, C. Digital Economics // Journal of Economic Literature. — 2019. — Vol. 57. — №1. — P. 3–43.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH MASALALARI

Asrorov Dalerjon Zafarovich
O‘zbekiston respublikasi Bank moliya akademiyasi
Xalqaro bank ishi fakulteti
Davlat moliyaviy nazorati va auditi(MSc)
mutaxassisligi talabasi
E-mail: Asrorovd@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Budjet tashkilotlarida moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida to‘g‘ri va o‘z vaqtida aks ettirish, budjet mablag‘laridan maqsadli hamda samarali foydalanishni ta’minlashda buxgalteriya hisobining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, budjet tashkilotlarida hisob siyosatini shakllantirish, moliyaviy hisobotlarni tuzish, hisob-kitoblarni yuritish, aktiv va majburiyatlarni hisobga olish jarayonlarida uchraydigan muammolar tahlil qilingan. Buxgalteriya hisobini raqamlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, hisob ma’lumotlarining shaffofligi va ishonchliligini oshirish hamda ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *budjet tashkilotlari, buxgalteriya hisobi, hisob siyosati, budjet mablag‘lari, moliyaviy hisobot, budjet hisobi, aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlar, ichki nazorat, raqamlashtirish, axborot texnologiyalari.*

ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Асроров Далерджон Зафарович
Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан
Факультет международного банковского дела
Магистрант специальности «Государственный финансовый контроль и аудит» (MSc)
E-mail: Asrorovd@gmail.com

Аннотация: *В статье исследованы теоретические и практические аспекты организации бухгалтерского учета в бюджетных организациях. Раскрыты роль и значение бухгалтерского учета в обеспечении правильного и своевременного отражения финансово-хозяйственных операций, а также целевого и эффективного использования бюджетных средств. Проанализированы проблемы, возникающие при формировании учетной политики, ведении расчетов, учете активов и обязательств, а также составлении финансовой отчетности в бюджетных организациях. Разработаны научно-практические предложения и рекомендации по цифровизации бухгалтерского учета, внедрению современных информационных технологий, повышению прозрачности и достоверности учетной информации, а также совершенствованию механизмов внутреннего контроля.*

Ключевые слова: *бюджетные организации, бухгалтерский учет, учетная политика, бюджетные средства, финансовая отчетность, бюджетный учет, активы, обязательства, доходы и расходы, внутренний контроль, цифровизация, информационные технологии.*

ISSUES OF ORGANIZING ACCOUNTING IN BUDGET ORGANIZATIONS

Asrorov Dalerjon Zafarovich

Banking and finance academy of the Republic of Uzbekistan Faculty of International Banking
Master's Student (MSc) in Public Financial Control and Audit
E-mail: Asrorovd@gmail.com

Abstract: *This article examines the theoretical and practical aspects of organizing accounting in budget organizations. The role and importance of accounting in ensuring the accurate and timely recording of financial and economic transactions, as well as the targeted and efficient use of budget funds, are highlighted. The study analyzes the problems arising in the development of accounting policies, settlement procedures, accounting for assets and liabilities, and preparation of financial statements in budget organizations. Scientific and practical recommendations are developed to digitalize accounting processes, introduce modern information technologies, improve the transparency and reliability of accounting information, and strengthen internal control mechanisms.*

Keywords: *budget organizations, accounting, accounting policy, budget funds, financial reporting, budget accounting, assets, liabilities, revenues and expenditures, internal control, digitalization, information technologies.*

Kirish.

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalasi bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish, byudjet mablag‘laridan oqilona va maqsadli foydalanishni ta’minlash hamda moliyaviy intizomni kuchaytirish nuqtayi nazaridan dolzarb ilmiy-amaliy yo‘nalish hisoblanadi. Ayniqsa, ta’lim tizimi kabi yirik ijtimoiy sohalar asosan byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi sababli, bu tashkilotlarda hisob va hisobotning aniqligi, shaffofligi hamda tezkorligi davlat darajasidagi ustuvor vazifalardan biri bo‘lib bormoqda.

Davlat byudjeti ko‘lamining kengayib borayotgani buxgalteriya hisobini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Xususan, 2024-yilda davlat byudjeti daromadlari 274,4 trln so‘mni, xarajatlari esa 310,9 trln so‘mni tashkil etgani qayd etilgan. Ijtimoiy soha xarajatlari 152,3 trln so‘m bo‘lib, shundan ta’limga 71,2 trln so‘m ajratilgani ta’kidlanadi. Bu raqamlar byudjet mablag‘lari hajmi katta ekanini va ularni boshqarishda hisob tizimi sifatiga bo‘lgan talab yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur dolzarblik O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida ham o‘z ifodasini topgan. Jumladan, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligining cheklangan miqdori YaIMning 4 foizi miqdorida belgilanishi byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan nazoratni, hisobning aniqligi va tahliliy imkoniyatlarini kuchaytirishni talab etadi.

Metodlar.

Tadqiqotda davlat moliyaviy nazoratini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalasini kompleks o‘rganish uchun tizimli, qiyosiy, institutsional va riskka asoslangan metodologik yondashuvlar qo‘llanildi. Tizimli yondashuv orqali davlat auditi, ichki nazorat, ichki audit va tashqi auditning o‘zaro funksional bog‘liqligi tahlil qilindi. Qiyosiy metod asosida Vestminster, sudlov va kollegial audit modellarining institutsional xususiyatlari hamda ularning afzallik va cheklovlari solishtirildi. Normativ-huquqiy tahlil yordamida INTOSAI-P, ISSAI, PEFA va boshqa xalqaro standartlarning asosiy talablari o‘rganildi. Riskka asoslangan yondashuv orqali budjet xarajatlari, davlat xaridlari, davlat qarzi, SOE, ijtimoiy dasturlar va investitsiya loyihalaridagi asosiy xavf klasterlari aniqlandi. 3E (economy, efficiency, effectiveness) metodologiyasi davlat dasturlarining natijadorligini baholash uchun qo‘llanildi. Natijalar asosida O‘zbekiston uchun IRAM modelini shakllantirish bo‘yicha institutsional takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar.

Paxtakor tuman 1-son politexnikumida moliyaviy faoliyatni tashkil etish va nazorat qilish universitetning buxgalteriya bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur bo‘lim universitetning barcha moliyaviy operatsiyalarini hisobga olish, byudjet mablag‘lari hamda byudjetdan tashqari tushumlarning harakatini nazorat qilish, moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish vazifalarini bajaradi. Universitetda buxgalteriya hisobi O‘zbekiston Respublikasining byudjet tashkilotlari uchun belgilangan amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlari asosida yuritiladi. Universitet buxgalteriya bo‘limi ma’lum tashkiliy tuzilishga ega bo‘lib, unda moliyaviy hisob-kitob jarayonlarini amalga oshiruvchi bir nechta xodimlar faoliyat yuritadi. Odatda buxgalteriya bo‘limi tarkibiga bosh buxgalter, bosh buxgalter o‘rinbosari, bir necha nafar buxgalterlar, kassir hamda moddiy boyliklar hisobini yurituvchi mutaxassislar kiradi. Umuman olganda, buxgalteriya bo‘limida o‘rtacha 5–3 nafar xodim faoliyat olib boradi. Bosh buxgalter buxgalteriya bo‘limi faoliyatini boshqaradi hamda moliyaviy hisobotlarning to‘g‘ri va o‘z vaqtida tuzilishi uchun javob beradi. U universitetning byudjet mablag‘laridan maqsadli foydalanilishini nazorat qiladi, moliyaviy intizomni ta’minlaydi va barcha buxgalteriya hujjatlarining qonunchilik talablariga muvofiq yuritilishini ta’minlaydi.

Bosh buxgalter o‘rinbosari bosh buxgalterga yordam beradi hamda ayrim moliyaviy yo‘nalishlar bo‘yicha hisob-kitob ishlarini nazorat qiladi. U moliyaviy hujjatlarning rasmiylashtirilishini tekshiradi, hisobot ma’lumotlarini umumlashtiradi va zarur hollarda bosh buxgalter vazifalarini bajaradi. Buxgalterlar universitetning daromad va xarajatlarini hisobga olish, kontrakt asosida tushgan mablag‘larni hisoblash, xodimlar ish haqini hisoblash, tovar va xizmatlar uchun to‘lov hujjatlarini rasmiylashtirish kabi vazifalarni bajaradilar. Kassir universitet kassasida naqd pul mablag‘lari bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiradi, pul mablag‘larini qabul qiladi va beradi hamda kassa hujjatlarini yuritadi. Moddiy boyliklar hisobchisi esa universitetga kelib tushgan asosiy vositalar, inventarlar va boshqa moddiy resurslarning hisobini yuritadi hamda ularning harakatini nazorat qiladi. Shu tarzda tashkil etilgan buxgalteriya tizimi universitetning moliyaviy faoliyatini samarali yuritish, mablag‘lardan maqsadli foydalanishni ta’minlash va moliyaviy hisobotlarni o‘z vaqtida tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Paxtakor tuman 1-son politexnikumida buxgalteriya hisobi byudjet tashkilotlari uchun belgilangan amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida yuritilib, unda byudjet mablag‘lari, byudjetdan tashqari tushumlar (asosan kontrakt to‘lovlari), shuningdek ilmiy va xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq mablag‘lar alohida hisobga olinadi. 2021–2025 yillar davomida buxgalteriya hisobini yuritish amaliyotida ijobiy jihatlar bilan bir qatorda bir qator muammoli holatlar ham kuzatilgan.



1-rasm. Paxtakor tuman 1-son politexnikumi buxgalteriya bo‘limining tashkiliy tuzilmasi va asosiy vazifalari

Manba: *muallif tomonidan tuzilgan*

Ushbu rasmda Paxtakor tuman 1-son politexnikumi buxgalteriya bo‘limining tashkiliy tuzilmasi hamda uning asosiy vazifalari ko‘rsatilgan. Buxgalteriya bo‘limi bosh buxgalter va buxgalteriya xodimlaridan iborat bo‘lib, ular moliyaviy hisobotlarni tuzish va nazorat qilish, byudjet mablag‘laridan maqsadli foydalanishni ta’minlash, daromad va xarajatlarni hisobga olish, ish haqi hamda kontrakt tushumlarini hisoblash, shuningdek kassa operatsiyalarini yuritish kabi vazifalarni bajaradi.

Paxtakor tuman 1-son politexnikumida buxgalteriya hisobi byudjet tashkilotlari uchun belgilangan amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida yuritilib, unda byudjet mablag‘lari, byudjetdan tashqari tushumlar (asosan kontrakt to‘lovlari), shuningdek, ilmiy va xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq mablag‘lar alohida hisobga olinadi. 2021–2025 yillar davomida buxgalteriya hisobini yuritish amaliyotida ijobiy jihatlar bilan bir qatorda bir qator muammoli holatlar ham kuzatilgan. 2021-yil yakunlari bo‘yicha universitetning xarajatlar smetasi ijrosi tahlil qilinganda, tasdiqlangan reja 40 234 168 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, kassa xarajatlari 38 633 501,5 ming so‘mga, faktik xarajatlar esa 37 691 151,5 ming so‘mga teng bo‘lgan. Natijada faktik ijro darajasi 93,68 foizni, kassa ijrosi esa 96,02 foizni tashkil etgan. Bu holat reja va faktik xarajatlar o‘rtasida qariyb 6,32 foizlik tafovut mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur tafovut smetani shakllantirishda ayrim xarajat moddalari bo‘yicha ehtiyotkorlik bilan yuqori reja belgilanganini yoki yil davomida ayrim rejalashtirilgan tadbirlar to‘liq amalga oshirilmaganini anglatadi.

2022-yilda xarajatlar smetasida keskin qisqarish kuzatilgan. Jumladan, 2021-yilda jami rejalashtirilgan xarajatlar 3 627 844 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 1 977 790,8 ming so‘mni tashkil etgan. Natijada xarajatlar hajmi 1 650 053,2 ming so‘mga yoki 54,5 foizga kamaygan. Eng katta qisqarish ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar bo‘yicha qayd etilib, bu yo‘nalishda xarajatlar 58 foizga kamaygan. Shuningdek, ish beruvchining ijtimoiy ajratmalari qariyb 49,7 foizga, tovar va xizmatlar xarajatlari esa 53,9 foizga qisqargan. Ayniqsa, asosiy vositalarni xarid qilish va yangilash bo‘yicha xarajatlarning deyarli nol darajaga tushib qolishi universitet moddiy-texnik bazasini rivojlantirish nuqtayi nazaridan salbiy holat sifatida baholanishi mumkin.

2023–2024 yillarda buxgalteriya hisobi yuritish tizimida asosiy e’tibor mavjud mablag‘lardan tejamkor foydalanish va hisobot intizomini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, xarajatlar smetasining qat’iy nazorat qilinishi kuzatiladi. Biroq ushbu yillarda ham ayrim xarajat moddalari bo‘yicha reja va fakt o‘rtasida tafovutlar saqlanib qolgan, bu esa rejalashtirish jarayonini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

2025-yilning ikkinchi choragi bo‘yicha byudjetdan tashqari mablag‘lar harakati tahlili shuni ko‘rsatadiki, yil boshidagi qoldiq 129 460 635,65 ming so‘mni tashkil etgan. Hisobot davrida tushumlar 113 187 722,74 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, xarajatlar 165 243 187,22 ming so‘mga yetgan. Natijada chorak davomida xarajatlar tushumlardan 145,99 foizga yuqori bo‘lgan va yakuniy qoldiq 77 405 171,17 ming so‘mgacha kamaygan. Bu holat byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha pul oqimlarini rejalashtirish va majburiyatlarni vaqtida muvofiqlashtirishda muayyan kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatadi. 2021–2025 yillar davomida Paxtakor tuman 1-son politexnikumida buxgalteriya hisobi amaldagi talablarga muvofiq yuritilgan bo‘lsa-da, bir qator tizimli kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Jumladan, xarajatlar smetasini shakllantirishda rejalashtirish aniqligining yetarli emasligi, ayrim yillarda xarajatlar tuzilmasida nomutanosiblikning yuzaga kelishi, asosiy vositalarni yangilashga yetarli mablag‘ ajratilmasligi, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha pul oqimlarini boshqarishdagi muammolar mavjud. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish buxgalteriya hisobini yanada takomillashtirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va universitet faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, 2021–2025 yillar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Paxtakor tuman 1-son politexnikumida buxgalteriya hisobi asosan moliyaviy hisobotlarni o‘z vaqtida topshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlash funksiyasi yetarli darajada rivojlanmagan. Ya’ni, mavjud hisob tizimi ko‘proq

“hisobot berish” xarakteriga ega bo‘lib, xarajatlar samaradorligini tahlil qilish, solishtirma ko‘rsatkichlar asosida baholash va kelgusidagi risklarni oldindan aniqlash imkoniyatlari cheklanganligicha qolmoqda.

Xulosa.

Kelajakdagi tadqiqotlar doirasida byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar o‘rtasidagi nisbatlarning uzoq muddatli dinamikasini qiyosiy va rasm usullari asosida o‘rganish tavsiya etiladi. Bunday tadqiqotlar moliyalashtirish manbalaridagi o‘zgarishlar va ularning buxgalteriya hisobiga ta’sirini aniqlashga xizmat qiladi hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Bundan tashqari, kelgusida byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tahliliy boshqaruv hisobiga integratsiya qilish masalalarini chuqur o‘rganish dolzarb hisoblanadi. Moliyaviy ko‘rsatkichlarni qiyosiy va rasm tahlil asosida boshqaruv ehtiyojlariga moslashtirish orqali hisob tizimining strategik ahamiyatini oshirish mumkin.

Kelajakdagi tadqiqotlarda, shuningdek, buxgalteriya hisobida qiyosiy va rasm tahlil natijalarini avtomatlashtirilgan shaklda shakllantirish imkoniyatlarini o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bu yo‘nalish hisob axborotlarining tezkorligi va aniqligini oshirish bilan birga, tahlil jarayonlarini soddalashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan tavsiyalar byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini rivojlantirishga qaratilgan kelajakdagi ilmiy tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu yo‘nalishlarda olib boriladigan izlanishlar davlat moliyaviy boshqaruvi samaradorligini oshirishga, moliyaviy shaffoflikni kuchaytirishga va byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O'zbekiston Respublikasining “Davlat moliyaviy nazorati to'g'risida”gi Qonuni, O'RQ-414, 2016-yil 7-noyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, PF-5300, 2018-yil 11-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Budjet jarayoni ochiqligini ta'minlash va davlat budjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, PQ-3691, 2018-yil 13-aprel.
4. Hepworth, N. (2024). The distinction between public financial management and internal control (PFM/IC) and public financial administration and internal control (PFA/IC). In Public financial management and internal control (pp. 85–117). Springer.
5. The Institute of Internal Auditors. (2020). The IIA’s Three Lines Model: An update of the Three Lines of Defense. https://www.theiia.org/en/content/position-papers/2020/the-iias-three-lines-model-an-update-of-the-three-lines-of-defense/
6. United Nations General Assembly. (2011). Promoting the efficiency, accountability, effectiveness and transparency of public administration by strengthening supreme audit institutions (A/RES/66/209).
7. INTOSAI. (2019). ISSAI 100: Fundamental principles of public-sector auditing. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements. https://www.issai.org/pronouncements/issai-100-fundamental-principles-of-public-sector-auditing/
8. International Auditing and Assurance Standards Board. (2018). ISA 200: Overall objectives of the independent auditor and the conduct of an audit in accordance with International Standards on Auditing. International Federation of Accountants.
9. Power, M. (2000). The audit society — Second thoughts. International Journal of Auditing, 4(1), 111–119.
10. Bovens, M. (2007). Analysing and assessing accountability: A conceptual

framework. European Law Journal, 13(4), 447–468.

11. INTOSAI. (2019d). INTOSAI-P 12: The value and benefits of Supreme Audit Institutions — making a difference to the lives of citizens. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.

12. INTOSAI. (2019a). ISSAI 100: Fundamental principles of public-sector auditing. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.; INTOSAI. (2020). ISSAI 200: Financial audit principles. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.; INTOSAI. (2019b). ISSAI 300: Performance audit principles. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.; INTOSAI. (2019c). ISSAI 400: Compliance audit principles. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.

13. Blume, L., & Voigt, S. (2011). Does organizational design of supreme audit institutions matter? A cross-country assessment. European Journal of Political Economy, 27(2), 215–229.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

HUDUDLAR INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY METODOLOGIYASI

Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hududlar investitsion muhit jozibadorligini baholashning zamonaviy metodologik yondashuvlari tadqiq etilgan. Hududlarning investitsion jozibadorligini shakllantiruvchi iqtisodiy, institutsional, infratuzilmaviy, moliyaviy va ijtimoiy omillar tizimlashtirilgan. Mavjud baholash usullarining imkoniyatlari va cheklovlari tahlil qilinib, hududlar o‘rtasidagi investitsion tafovutlarni aniqlashda kompleks baholash yondashuvining afzalliklari asoslangan. Tadqiqot natijasida investitsion muhitni baholashda ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda shakllantirish, hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va baholash natijalaridan hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirishda foydalanish yo‘nalishlari ishlab chiqilgan. Mazkur metodologik yondashuv investitsion resurslarni hududlar kesimida samarali taqsimlash, ustuvor yo‘nalishlarni belgilash hamda hududlarning investitsion raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *hudud, investitsion muhit, investitsion jozibadorlik, baholash, metodologiya, investitsiya, infratuzilma, institutsional muhit, investitsion salohiyat, raqobatbardoshlik.*

СОВРЕМЕННАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ОЦЕНКИ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ РЕГИОНОВ

Умаралиев Санжар Султоналиевич

Независимый соискатель Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация. *В статье исследуются современные методологические подходы к оценке привлекательности инвестиционной среды регионов. Систематизированы экономические, институциональные, инфраструктурные, финансовые и социальные факторы, определяющие инвестиционную привлекательность регионов. Проанализированы возможности и ограничения существующих методов оценки, обоснованы преимущества комплексного подхода при выявлении межрегиональных различий в инвестиционной привлекательности. Предложены направления совершенствования оценки инвестиционной среды с учетом специфики регионов и результатов комплексного анализа. Практическая значимость исследования заключается в возможности использования предложенного подхода для совершенствования региональной инвестиционной политики, эффективного распределения инвестиционных ресурсов, определения приоритетных направлений и повышения инвестиционной конкурентоспособности регионов.*

Ключевые слова: *регион, инвестиционная среда, инвестиционная привлекательность, оценка, методология, инвестиции, инфраструктура, институциональная среда, инвестиционный потенциал, конкурентоспособность.*

MODERN METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ATTRACTIVENESS OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT IN REGIONS

Umaraliev Sanjar Sultonalievich

Independent Researcher at

Tashkent State
University of Economics

Annotation. *This article examines modern methodological approaches to assessing the attractiveness of the investment environment in regions. The economic, institutional, infrastructural, financial and social factors determining regional investment attractiveness are systematized. The possibilities and limitations of existing assessment methods are analyzed, and the advantages of a comprehensive approach to identifying interregional differences in investment attractiveness are substantiated. The study proposes directions for improving the assessment of the investment environment by taking into account regional characteristics and the results of comprehensive analysis. The practical significance of the research lies in the possibility of applying the proposed approach to improve regional investment policy, ensure the efficient allocation of investment resources, identify priority areas, and enhance the investment competitiveness of regions.*

Keywords: *region, investment environment, investment attractiveness, assessment, methodology, investment, infrastructure, institutional environment, investment potential, competitiveness.*

Kirish.

Bugungi sharoitda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish mamlakat iqtisodiy o‘sishining barqarorligini ta’minlash, mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish va hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Investitsiya resurslarining hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanishi esa investitsion muhitni shakllantiruvchi omillarni chuqur o‘rganish va ularni aniq mezonlar asosida baholashni talab etadi. Shu jihatdan hududlarning investitsion muhit jozibadorligini xolis va tizimli baholash investitsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Hududning investitsion jozibadorligi iqtisodiy faollik, ishlab chiqarish salohiyati, infratuzilmaviy ta’minlanganlik, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati, mehnat bozori, bozor sig‘imi, institutsional muhit va tadbirkorlik faoliyati kabi ko‘plab omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Mazkur omillarning hududlar kesimida ta’sir darajasi bir xil bo‘lmaganligi sababli investitsion jozibadorlikni faqat bitta yoki bir nechta ko‘rsatkich orqali baholash mavjud holatni to‘liq aks ettirmaydi. Shu sababli kompleks va ko‘p mezonli baholash yondashuvlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

Mazkur maqolada hududlar investitsion muhit jozibadorligini baholashning mavjud yondashuvlari umumlashtirilib, baholash mezonlari tizimlashtiriladi hamda iqtisodiy, institutsional, infratuzilmaviy, moliyaviy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni uyg‘unlashtirishga asoslangan zamonaviy metodologik yondashuvning mazmuni ochib beriladi. Shuningdek, kompleks baholash natijalaridan hududiy investitsiya siyosatini differensiallashtirish va investitsion resurslarni ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish imkoniyatlari asoslanadi.

Tahlil va natijalar.

Hududlarning investitsion jozibadorligini baholashda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki investitsiya jarayonlarining hajmi va dinamikasi mamlakatdagi iqtisodiy faollik, kapital shakllanishi, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari hamda investorlar uchun yaratilgan iqtisodiy sharoitlarni kompleks ifodalaydi. Ayniqsa, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlarini belgilovchi muhim indikator hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, 2018–2025-yillarda O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, ularning o‘sish indeksi hamda YaIMdagi ulushi dinamikasini tahlil qilish investitsion muhitning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi. Mazkur ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi mamlakat

miqyosida investitsion faollikning shakllanishi va uning iqtisodiy o‘sish jarayonlari bilan o‘zaro bog‘liqligini baholash uchun muhim statistik baza yaratadi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida investitsion muhit jozibadorligini ifodalovchi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning 2018–2025-yillardagi dinamikasi[48]

Yil	Asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd so‘m	Investitsiyalar o‘sish/narx indeksi, %	Investitsiyalarning YaIMdagi ulushi, %
2018	124 231,3	133,8	26,2
2019	195 927,3	114,4	32,9
2020	210 195,1	111,9	31,5
2021	239 552,6	110,6	29,2
2022	266 240,0	111,8	26,7
2023	356 071,4	108,0	29,6
2024	507 490,2	107,6	34,9
2025	603 558,8	105,2	—

Jadval ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikasida 2018–2025-yillarda investitsion faollikning umumiy hajmi sezilarli darajada kengayganini ko‘rsatadi. Xususan, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2018-yildagi 124 231,3 mlrd so‘mdan 2025-yilda 603 558,8 mlrd so‘mgacha oshib, qariyb 4,9 baravar ko‘paygan. Investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 2018-yildagi 26,2 foizdan 2019-yilda 32,9 foizga, 2024-yilda esa 34,9 foizga yetgan. Bu holat iqtisodiyotda kapital qo‘yilmalarining roli kuchayib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, investitsiyalar o‘sish/narx indeksining 133,8 foizdan 105,2 foizgacha pasayishi keyingi yillarda investitsiya hajmi yuqori sur’atlarda o‘sishda davom etgan bo‘lsa-da, o‘sish sur’atlarining nisbatan barqarorlashganini ko‘rsatadi. Umuman, mazkur tendensiyalar O‘zbekistonda investitsion muhitning institutsional va iqtisodiy jihatdan takomillashib borayotganini hamda hududlar kesimida investitsion jozibadorlikni oshirish uchun yetarlicha iqtisodiy baza shakllanganini ko‘rsatadi.

Hududlarning investitsion muhit jozibadorligini baholashda investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari va xususiy sektor ishtirokining darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ko‘rsatkichlar hudud iqtisodiyotining investitsiyalarni o‘zlashtirish salohiyati, moliyaviy barqarorligi hamda investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlarning amaliy natijalarini ifodalaydi. Xususan, kichik biznes investitsiyalari hududlarda tadbirkorlik faolligi va xususiy kapitalning rivojlanish darajasini tavsiflaydi.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida investitsion muhit jozibadorligini baholash ko‘rsatkichlari dinamikasi, 2018–2025-yillar[49]

Yil	Kichik biznes investitsiyalari, mlrd so‘m	Markazlashgan investitsiyalar, mlrd so‘m	Markazlashmagan investitsiyalar, mlrd so‘m	Davlat ulushi, %	Aholi mablag‘lari, mlrd so‘m
2018	47 225,2	36 929,8	87 301,4	18,6	14 188,8
2019	86 886,8	53 923,8	142 003,5	21,7	15 715,3
2020	96 629,2	42 003,5	168 191,7	16,9	18 873,2
2021	109 202,2	46 100,4	193 452,2	17,5	22 705,1
2022	127 640,6	41 784,3	224 455,7	14,2	27 296,2
2023	176 630,5	49 898,7	306 172,7	12,1	29 982,5
2024	265 685,8	52 206,7	455 283,4	10,4	32 706,5
2025	362 910,0	62 860,1	540 698,8	10,3	37 944,5

2-jadval ma’lumotlari O‘zbekistonda 2018–2025-yillarda investitsion muhitning tarkibiy

[48] https://stat.uz/uz/ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
[49] https://stat.uz/uz/ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

jihatdan sezilarli o‘zgarib, xususiy va markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining ahamiyati ortganini ko‘rsatadi. Tahlil qilinayotgan davrda kichik biznes investitsiyalari 47 225,2 mlrd so‘mdan 362 910,0 mlrd so‘mgacha, ya’ni qariyb 7,7 baravar oshgan. Mazkur o‘sish hududlarda tadbirkorlik subyektlarining investitsion faolligi kuchayganidan dalolat beradi. Markazlashmagan investitsiyalar hajmi esa 87 301,4 mlrd so‘mdan 540 698,8 mlrd so‘mgacha yetib, qariyb 6,2 baravar ko‘paygan. Bu holat investitsiya jarayonlarida davlat mablag‘lariga nisbatan xususiy va boshqa muqobil moliyalashtirish manbalarining roli kuchayayotganini anglatadi. Markazlashgan investitsiyalar 2018-yilda 36 929,8 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda 62 860,1 mlrd so‘mga yetgan. Davlat ulushi 2019-yilda 21,7 foizgacha oshganidan so‘ng izchil pasayib, 2025-yilda 10,3 foizni tashkil qilgan. Aholi mablag‘lari esa 14 188,8 mlrd so‘mdan 37 944,5 mlrd so‘mgacha ko‘paygan. Umuman, mazkur tendensiyalar investitsion muhitning diversifikatsiyalanayotganini va hududlarda xususiy kapitalni jalb etish imkoniyatlari kengayayotganini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, 2018–2025-yillardagi mazkur ko‘rsatkichlar dinamikasini tahlil qilish O‘zbekistonda investitsion muhitning tarkibiy o‘zgarishlarini aniqlash va hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi. Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2018–2025-yillarda kichik biznes investitsiyalari 47 225,2 mlrd so‘mdan 362 910,0 mlrd so‘mgacha oshgan. Markazlashmagan investitsiyalar hajmining ham keskin ko‘payishi xususiy sektor faolligi kuchayganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, davlat ulushining 18,6 foizdan 10,3 foizgacha kamayishi investitsiya jarayonlarida nodavlat manbalar ahamiyati ortganini anglatadi. Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar nisbati esa investitsiya jarayonlarida davlat va nodavlat moliyalashtirish manbalarining o‘rnini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, davlat ulushining o‘zgarishi iqtisodiyotda davlat ishtirokining investitsiya jarayonlariga ta’sirini baholash uchun muhim indikator hisoblanadi. Aholi mablag‘larining investitsiyalardagi ishtiroki esa ichki jamg‘armalarni iqtisodiy faoliyatga yo‘naltirish darajasini aks ettiradi..

Xulosa.

Hududlar investitsion muhit jozibadorligini baholash bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari mazkur jarayonni alohida iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan cheklab qo‘yish hududlarning real investitsion imkoniyatlarini to‘liq ifodalamasligini ko‘rsatdi. Hududning investitsion jozibadorligi uning iqtisodiy salohiyati bilan bir qatorda infratuzilmaviy ta’minlanganligi, institutsional muhit sifati, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati, mehnat resurslari, bozor sig‘imi, tadbirkorlik faolligi va innovatsion rivojlanish darajasining o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanadi.

Shu sababli hududlar investitsion muhit jozibadorligini baholashda kompleks yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiq. Bunda ko‘rsatkichlarni mazmunan bir xil guruhlarga ajratish, ularning hududiy sharoitdagi ahamiyatini aniqlash va umumlashtirilgan baholash natijasini shakllantirish investitsion muhitning kuchli va zaif jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, iqtisodiy, infratuzilmaviy, institutsional, moliyaviy va ijtimoiy mezonlarning birgalikda qo‘llanilishi hududlar o‘rtasidagi investitsion tafovutlarni aniqroq ifodalashga xizmat qiladi.

Zamonaviy metodologik yondashuvning amaliy ahamiyati shundaki, uning asosida hududlarni investitsion jozibadorlik darajasiga ko‘ra guruhlash, mavjud muammolarni aniqlash va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini hududlarning real ehtiyojlariga moslashtirish mumkin. Natijada investitsiya siyosatining manzilliligi va samaradorligi oshadi.

Umuman, kompleks baholash metodologiyasini hududiy investitsiya siyosatiga joriy etish investitsion resurslarni oqilona taqsimlash, xususiy va xorijiy kapitalni jalb etish, hududlarning raqobatbardoshligini oshirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish uchun barqaror investitsion muhitni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Hududlar investitsion muhit jozibadorligini baholashning zamonaviy metodologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi takliflarni ilmiy ishning amaliy tavsiyalari sifatida kiritish mumkin:

hududiy investitsion jozibadorlikning yagona integral indeksini joriy etish. Hududlarni

faqat investitsiyalar hajmi bo‘yicha emas, balki iqtisodiy, moliyaviy, institutsional, infratuzilmaviy, ijtimoiy, ekologik va raqamli ko‘rsatkichlar majmuasi asosida baholash maqsadga muvofiq.

ko‘rsatkichlarni standartlashtirish va vaznlash tizimini takomillashtirish. Turli o‘lchov birliklariga ega indikatorlarni yagona shkala asosida standartlashtirish, indikatorlarning ahamiyatini esa ekspert baholash, AHP yoki statistik usullar orqali aniqlash hududlar reytingining obyektivligini oshiradi.

“dinamik investitsion jozibadorlik” yondashuvini qo‘llash. Hududning faqat ma’lum bir yildagi holatini emas, balki oxirgi 5–7 yildagi investitsiyalar o‘sish sur’ati, xorijiy kapital oqimi, yangi korxonalar tashkil etilishi va infratuzilma rivojlanishi dinamikasini hisobga olish lozim.

xorijiy investorlar uchun alohida indikatorlar blokini shakllantirish. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, investorlar uchun yaratilgan infratuzilma, maxsus iqtisodiy zonalar va investitsiya loyihalarining rentabelligi kabi ko‘rsatkichlarni alohida baholash tavsiya etiladi.

raqamli infratuzilmani baholash metodologiyasiga kiritish. Internetdan foydalanish darajasi, axborot-kommunikatsiya xizmatlari, elektron davlat xizmatlari va raqamli investitsiya platformalarining rivojlanganlik darajasi zamonaviy investitsion muhitning muhim komponenti sifatida hisobga olinishi kerak.

ESG indikatorlaridan foydalanish. Hududlarning ekologik barqarorligi, ijtimoiy rivojlanishi va boshqaruv sifati investitsion jozibadorlik indeksining alohida tarkibiy qismlariga aylantirilishi maqsadga muvofiq. Bu xalqaro investorlarning zamonaviy talablariga mos baholash tizimini shakllantiradi.

hududlarni investitsion salohiyatiga qarab guruhlash. Integral indeks natijalariga ko‘ra hududlarni “juda yuqori”, “yuqori”, “o‘rtacha”, “past” va “juda past” investitsion jozibadorlik guruhlariga ajratish hamda har bir guruh uchun individual investitsiya siyosatini ishlab chiqish lozim.

investitsion reytingni muntazam yangilab borish. Hududlar investitsion jozibadorligi reytingini yil yakunlari bo‘yicha muntazam e’lon qilish investorlar uchun axborot shaffofligini oshiradi va hududiy hokimliklar o‘rtasida investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha sog‘lom raqobatni kuchaytiradi.

investorlar fikrini baholash tizimiga kiritish. Statistik ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda amaldagi investorlarning hududdagi biznes yuritish sharoitlari, ma’muriy tartib-taomillar, infratuzilma va davlat xizmatlaridan qoniqish darajasini so‘rovnomalar orqali aniqlash tavsiya etiladi.

“investitsion jozibadorlik – investitsiya natijadorligi” bog‘liqligini hisobga olish. Reyting faqat jalb qilingan investitsiyalar hajmini emas, balki investitsiyalar natijasida yaratilgan yangi ish o‘rinlari, ishlab chiqarish hajmi, eksport, soliq tushumlari va hudud YaIMiga qo‘shilgan hissani ham qamrab olishi kerak.

Umumiy ilmiy-amaliy xulosa sifatida taklif etilayotgan metodologiya hududlarni oddiy statistik reytinglashdan ko‘p mezonli, dinamik va integral baholash tizimiga o‘tishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv investitsion muhitning real holatini aniqroq aks ettirib, har bir hudud uchun individual investitsiya siyosatini shakllantirish va mavjud investitsion salohiyatdan samarali foydalanish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. — Toshkent: Moliya, 2003.

Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Mo‘minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. — Toshkent: Moliya, 2010.

Qosimova M.S., Ergashxo‘jayeva Sh.J. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2011.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Xajibakiyev Sh.X. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va investitsion muhitni takomillashtirish masalalari. — Toshkent.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonda investitsiyalar. — Toshkent, 2018–2025.

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyati bo‘yicha statistik va tahliliy ma’lumotlar. — Toshkent.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va investitsiya siyosatiga oid tahliliy materiallar. — Toshkent.

O‘ZBEKISTONDA AGROOZIQ-OVQAT ISHLAB CHIQARISH DINAMIKASI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI

Axmedova Nafisa Amirddin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi (PhD)
https://orcid.org/0009-0009-0669-2347
e-mail. n.akhmedova@tsue.uz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada innovatsion taraqqiyot sharoitida O‘zbekiston agrooziq-ovqat tizimida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning iqtisodiy va institutsional mexanizmlari kompleks tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida 2020-2025-yillarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi va tarmoqdagi struktura o‘zgarishlari chuqur tahlil qilingan. Ishda raqamlashtirish, resurs tejamkor agrotexnologiyalar hamda zamonaviy agrologistikaning soha barqarorligini ta’minlashdagi roli ilmiy asoslab berilgan. Oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi tizimli muammo va xatarlar aniqlanib, innovatsion texnologiyalarni agrar ishlab chiqarish hamda qiymat zanjiriga joriy etish obyektiv zaruriyat ekanligi ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalari asosida mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini innovatsion mexanizmlar orqali takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *oziq-ovqat xavfsizligi, innovatsion rivojlanish, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat mahsulotlari, raqamlashtirish, agroinnovatsiya, oziq-ovqat ta’minoti, resurs tejamkor texnologiyalar, logistika, barqaror rivojlanish.*

ДИНАМИКА ПРОИЗВОДСТВА АГРОПРОДОВОЛЬСТВИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕГО ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ

Ахмедова Нафиса Амирддин кизи

Старший преподаватель Ташкентского государственного экономического университета, PhD
ORCID: 0009-0009-0669-2347
E-mail: n.akhmedova@tsue.uz

Аннотация. *В данной статье комплексно исследованы экономические и институциональные механизмы обеспечения продовольственной безопасности агропродовольственной системы Узбекистана в условиях инновационного развития. В рамках исследования проведен глубокий анализ динамики производства продовольственной продукции и структурных изменений за 2020–2025 годы. Научно обоснована роль цифровизации, ресурсосберегающих агротехнологий и современной агрологистики в обеспечении устойчивости отрасли. Выявлены ключевые системные проблемы и риски, влияющие на продовольственную безопасность, и доказана объективная необходимость внедрения инновационных технологий в сельскохозяйственное производство и цепочки поставок. На основе полученных результатов разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию механизмов обеспечения продовольственной безопасности.*

Ключевые слова: *продовольственная безопасность, инноватсионное развитие, сельское хозяйство, продукты питания, цифровизатсия, агроинноватсии, продовольственное обеспечение, ресурсосберегающие технологии, логистика, устойчивое развитие.*

DYNAMICS OF AGRO-FOOD PRODUCTION IN UZBEKISTAN AND ECONOMIC

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MECHANISMS FOR ITS INNOVATIVE DEVELOPMENT

Nafisa Amirddin qizi Akhmedova

Senior Lecturer at
Tashkent State
University of Economics, PhD
ORCID: 0009-0009-0669-2347
E-mail: n.akhmedova@tsue.uz

Abstract. *This article presents a comprehensive study on the economic and institutional mechanisms for ensuring food security within the agri-food system of Uzbekistan under the conditions of innovative development. The research conducts an in-depth analysis of food production dynamics and structural changes during the period of 2020–2025. The scientific and practical significance of digitalization, resource-saving agrotechnologies, and modern agrologistics in sustaining sector resilience is thoroughly substantiated. Key systemic bottlenecks and risks threatening food security are identified, emphasizing the objective necessity of integrating innovative technologies into agricultural production and supply chains. Based on the findings, actionable policy recommendations and practical solutions are formulated to enhance food security through advanced innovative mechanisms.*

Keywords: *food security, innovative development, agriculture, food production, digitalization, agro-innovation, food supply, resource-saving technologies, logistics, sustainable development.*

Kirish.

Zamonaviy sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash makroiqtisodiy barqarorlik, aholi farovonligi va milliy xavfsizlikni belgilab beruvchi **strategik drayver** sifatida namoyon bo‘lmoqda. Global miqyosda demografik o‘sish sur’atlarining jadallashuvi, iqlim o‘zgarishlari va tabiiy ofatlar xavfining ortishi, unumdor yer hamda suv resurslarining cheklanganligi, xalqaro bozorlarda oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxlarining keskin tebranishi hamda logistika va ta’minot zanjirlaridagi uzilishlar oziq-ovqat tizimlarining barqarorligiga bo‘lgan tahdidlarni tobora kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi, energiya resurslari narxlarining o‘zgaruvchanligi va tashqi bozorlarga yuqori darajadagi bog‘liqlik oziq-ovqat mahsulotlarining **narx va jismoniy jihatdan hamyonbopligi** masalasini yanada dolzarb etmoqda. Bunday sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini faqatgina qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali emas, balki ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, logistika va realizatsiya jarayonlarini yagona **agrooziq-ovqat tizimi** sifatida rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda resurslardan samarali foydalanish asosida ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi kategoriyasining zamonaviy konseptual mazmuni faqatgina aholini miqdoriy jihatdan mahsulotlar bilan ta’minlash (*Food Availability*) bilan cheklanmaydi. U oziq-ovqat mahsulotlarining jismoniy va iqtisodiy foydalana olishligi (*Physical and Economic Access*), mahsulot sifat va xavfsizlik standartlari hamda ta’minot tizimining uzoq muddatli barqarorligini (*Sustainability*) o‘zida mujassam etgan **tizimli yondashuvni** talab qiladi.

O‘zbekiston sharoitida ushbu masalaning ustuvorligi aholi demografik o‘sishi hisobiga ortib borayotgan iste’mol talabini qondirish, agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, suv resurslarini tejash va **"daladan dasturxongacha"** bo‘lgan qiymat zanjirini modernizatsiya qilish zaruriyati bilan tozalanadi. Mamlakatda agrosektorni diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini kafolatlash hamda sohaga ilg‘or agrotexnologiyalarni tatbiq etishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Innovatsion transformatsiya oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning yangi texnologik parametrlarini shakllantirmoqda. Jumladan, raqamli qishloq xo‘jaligi (*Precision Agriculture*), sun’iy intellekt, masofaviy zondlash (GIS), aqlli sug‘orish tizimlari, biotexnologiya hamda

avtomatlashtirilgan agrologistika platformalarini joriy etish tarmoqda resurs samaradorligini oshirishning asosiy vositasiga aylanmoqda.

O‘zbekiston agrooziq-ovqat tizimi so‘nggi yillarda barqaror o‘sish dinamikasini namoyon etmoqda. Rasmiy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarida yaratilgan mahsulotlar hajmi **538 919,7 mlrd so‘mni** tashkil etib, o‘sish sur’ati 2024-yilga nisbatan **4,4 foizga** yetdi. Shuningdek, 2025-yilda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi **152,1 trln so‘mni** tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **9,7 foizlik** ijobiy dinamikani ko‘rsatdi. Mazkur iqtisodiy o‘sish tendensiyasi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash mexanizmlarini innovatsion rivojlanish konsepti bilan integratsiyalashgan holda tadqiq etishning ilmiy va amaliy zaruriyatini asoslab beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Oziq-ovqat xavfsizligi masalasi iqtisodiy fanlarda uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan yo‘nalishlardan biridir. Dastlabki tadqiqotlarda oziq-ovqat xavfsizligi asosan mamlakatning oziq-ovqat mahsulotlarini yetarli miqdorda ishlab chiqarish qobiliyati bilan bog‘langan bo‘lsa, zamonaviy ilmiy qarashlarda mazkur tushuncha ancha keng mazmun kasb etgan. FAO yondashuvida oziq-ovqat xavfsizligi barcha insonlarning faol va sog‘lom hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlariga jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan doimiy ravishda ega bo‘lish imkoniyati bilan izohlanadi [1]. J. von Braun va M. Torero tadqiqotlarida oziq-ovqat xavfsizligi oziq-ovqat bozorlarining barqarorligi, zaxiralarni boshqarish va aholining zaif qatlamlarini himoya qilish bilan bog‘liq holda tadqiq etilgan [2].

J. Pretty qishloq xo‘jaligida ekologik va resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkinligini ta’kidlaydi [3]. Ushbu yondashuv O‘zbekiston uchun ham muhim bo‘lib, suv va yer resurslarining cheklanganligi sharoitida oziq-ovqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Raqamlashtirish masalasida zamonaviy tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar fermerlarning axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishi, ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring qilishni yaxshilashi va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishi ta’kidlanadi.

O‘zbekistonda ham qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va agrar bilimlar tizimini rivojlantirishga e’tibor kuchaymoqda. FAO tomonidan O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish bo‘yicha Milliy harakatlar dasturi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda aqlli sensorlar, geofazoviy texnologiyalar, narxlarni monitoring qilish va qarorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish nazarda tutilgan. Mavjud tadqiqotlardan farqli ravishda ushbu maqolada oziq-ovqat xavfsizligi ishlab chiqarish hajmi bilan chegaralanmay, innovatsion texnologiyalar, raqamlashtirish, resurslardan samarali foydalanish, saqlash, logistika va oziq-ovqat mahsulotlarining sifati bilan uzviy bog‘liq yagona tizim sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tizimli, statistik, qiyosiy va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Statistik tahlil yordamida 2020–2025-yillarda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi hamda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishining dinamikasi o‘rganildi. Qiyosiy tahlil orqali turli yillardagi ishlab chiqarish hajmlari va o‘sish sur’atlari o‘zaro taqqoslandi. Tizimli yondashuv asosida oziq-ovqat xavfsizligi ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, logistika, taqsimot va iste’mol bosqichlarini o‘z ichiga oluvchi yagona tizim sifatida tadqiq qilindi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari, xalqaro tashkilotlar materiallari, ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining 2020-2025-yillardagi dinamikasi Oziq-ovqat xavfsizligining asosiy iqtisodiy omillaridan biri mamlakatning qishloq xo‘jaligi

ishlab chiqarish salohiyatidir. Shu sababli dastlab qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining so‘nggi yillardagi dinamikasini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

1-jadval

2025-yilda ayrim qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishining o‘sish*

Paxta	125,4
Poliz mahsulotlari	116,2
Don	113,0
Uzum	107,6
Meva	106,4
Tuxum	107,0
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, jami	104,4
Paxta	125,4

***Manba:** O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, 2025-yil yanvar–dekabr ma’lumotlari.

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2025-yilda paxta ishlab chiqarish 25,4 foizga, poliz mahsulotlari 16,2 foizga, don 13,0 foizga, uzum 7,6 foizga, meva 6,4 foizga va tuxum ishlab chiqarish 7,0 foizga oshgan. Don ishlab chiqarishining 13 foizga oshishi oziq-ovqat xavfsizligi uchun ayniqsa muhim. Chunki don mahsulotlari aholining asosiy oziq-ovqat ehtiyojlarini qondirishda strategik ahamiyatga ega. Biroq oziq-ovqat xavfsizligini faqat don yoki boshqa alohida mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmi bilan baholash to‘liq natija bermaydi. Oziq-ovqat tizimida mahsulotlarning xilma-xilligi, oziqlanish qiymati, narxlarning aholining daromadlariga mosligi va mahsulotlarning hududlar bo‘yicha teng taqsimlanishi ham muhimdir. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning 2025-yildagi holati Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘sishi oziq-ovqat sanoati uchun xomashyo bazasini kengaytiradi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash orqali qo‘shilgan qiymat yaratish va oziq-ovqat mahsulotlari taklifini oshirish mumkin.

2-jadval

2025-yilda O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha yetakchi hududlar

Hudud	**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, trln so‘m**
Toshkent shahri	27,6
Toshkent viloyati	21,5
Samarqand viloyati	19,5
Farg‘ona viloyati	11,6
Buxoro viloyati	11,3
Qashqadaryo viloyati	10,2
Andijon viloyati	9,6
Namangan viloyati	8,5
Navoiy viloyati	7,9
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	6,6
Xorazm viloyati	6,0
Sirdaryo viloyati	5,4
Jizzax viloyati	3,3
Surxondaryo viloyati	3,2
O‘zbekiston Respublikasi, jami	152,1

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2025-yilda O‘zbekistonda jami 152,1 trln so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, bu 2024-yilga nisbatan 9,7 foiz ko‘pdir.

Hududlar kesimida Toshkent shahri 27,6 trln so‘m bilan yetakchi o‘rinni egallagan. Keyingi o‘rinlarda Toshkent viloyati — 21,5 trln so‘m va Samarqand viloyati — 19,5 trln so‘m bilan qayd etilgan. Mazkur hududiy tafovut oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarish quvvatlarini hududlar bo‘yicha muvozanatli rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, xomashyo bazasi mavjud bo‘lgan, biroq qayta ishlash sanoati nisbatan past rivojlangan hududlarda zamonaviy oziq-ovqat korxonalarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Oziq-ovqat xavfsizligida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati innovatsion texnologiyalar oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning barcha bosqichlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Birinchi navbatda, raqamli texnologiyalar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Masalan, tuproq namligini o‘lchaydigan sensorlar, sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari, dronlar va GIS texnologiyalaridan foydalanish orqali ekinlarning holatini muntazam kuzatish mumkin.

Ikkinchidan, innovatsion texnologiyalar suv resurslaridan samarali foydalanishga yordam beradi. Suv tanqisligi sharoitida aqlli sug‘orish tizimlarining joriy etilishi oziq-ovqat ishlab chiqarishning barqarorligini oshiradi.

Uchinchidan, zamonaviy saqlash va sovutish texnologiyalari mahsulotlarning nobud bo‘lishini kamaytiradi. Ayniqsa, meva-sabzavot mahsulotlari bo‘yicha sovuq zanjirni rivojlantirish mavsumiy taklifni yil davomida barqarorlashtirish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, raqamli logistika tizimlari ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi masofani qisqartirish, transport xarajatlarini kamaytirish va yetkazib berish muddatlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Tahlillar asosida O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga ta’sir etuvchi asosiy muammolarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Suv resurslarining cheklanganligi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining katta qismi suv resurslariga bog‘liq bo‘lganligi sababli suvdan samarali foydalanish masalasi strategik ahamiyatga ega.

2. Iqlim o‘zgarishi. Haroratning o‘zgarishi, qurg‘oqchilik va tabiiy-iqlimiy xavflar hosildorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

3. Saqlash infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Ayrim mahsulotlarning ishlab chiqarishdan keyingi bosqichda yo‘qotilishi oziq-ovqat ta’minoti samaradorligini pasaytiradi.

4. Qayta ishlash darajasini oshirish zarurati. Xomashyoni tayyor mahsulotga chuqur qayta ishlash orqali oziq-ovqat sanoatida qo‘shilgan qiymatni oshirish mumkin.

5. Kichik ishlab chiqaruvchilarning innovatsiyalarga kirish imkoniyatlari. Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ishlab chiqarishdagi ulushi yuqori bo‘lgani sababli innovatsiyalar aynan ushbu xo‘jaliklarga ham yetib borishi zarur.

2025-yil ma’lumotlariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining 62,3 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 29,4 foizi fermer xo‘jaliklari va 8,3 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Bu ko‘rsatkich kichik ishlab chiqaruvchilarni innovatsion tizimga faol jalb qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijasida O‘zbekiston sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning innovatsion konsepsiyasini quyidagi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar asosida shakllantirish taklif etiladi:

Ishlab chiqarish → qayta ishlash → saqlash → logistika → taqsimot → iste’mol → monitoring.

Mazkur tizimda raqamli texnologiyalar barcha bosqichlarni birlashtiruvchi vosita sifatida

xizmat qilishi lozim.

3-jadval

Oziq-ovqat xavfsizligini innovatsion rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Innovatsion mexanizm	Kutiladigan natija
Qishloq xo‘jaligi	Aqlli dehqonchilik, dron, GIS, sensorlar	Hosildorlik oshishi
Suv xo‘jaligi	Aqlli sug‘orish tizimlari	Suv sarfi kamayishi
Seleksiya	Iqlimga chidamli navlar	Hosil barqarorligi
Qayta ishlash	Zamonaviy texnologik liniyalar	Qo‘shilgan qiymat oshishi
Saqlash	Sovutish va zamonaviy omborlar	Yo‘qotishlar kamayishi
Logistika	Raqamli logistika platformalari	Yetkazib berish samaradorligi
Bozor	Raqamli narx monitoringi	Bozor shaffofligi
Sifat nazorati	Raqamli kuzatuv va laboratoriyalar	Oziq-ovqat xavfsizligi
Kadrlar	Innovatsion agrota’lim	Inson kapitali rivoji
Boshqaruv	Boshqaruv	Boshqaruv

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur konsepsiyaning asosiy xususiyati oziq-ovqat xavfsizligini faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali emas, balki butun oziq-ovqat qiymat zanjirini innovatsion asosda boshqarish orqali ta’minlashdan iborat.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat ishlab chiqarishining so‘nggi yillarda ijobiy dinamikaga ega ekanligini ko‘rsatdi. 2020–2025-yillarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining hajmi sezilarli darajada oshgan. 2025-yilda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 538 919,7 mlrd so‘mga yetib, 2024-yilga nisbatan 4,4 foiz o‘sish qayd etilgan.

Shuningdek, 2025-yilda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 152,1 trln so‘mga yetgani va bir yil davomida 9,7 foizga oshgani oziq-ovqat sanoatining rivojlanish salohiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini uzoq muddatli istiqbolda ta’minlash uchun faqat ishlab chiqarish hajmini oshirishning o‘zi yetarli emas. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdan iste’molchigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni innovatsion asosda tashkil etish talab qilinadi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, oziq-ovqat xavfsizligini baholashning kompleks milliy indikatorlar tizimini shakllantirish zarur. Ushbu tizimda oziq-ovqat mahsulotlari mavjudligi, aholining xarid qobiliyati, narxlar barqarorligi, mahsulot sifati, importga bog‘liqlik va oziq-ovqat yo‘qotishlari kabi ko‘rsatkichlar hisobga olinishi kerak.

Ikkinchidan, oziq-ovqat xavfsizligining yagona raqamli monitoring platformasini yaratish maqsadga muvofiq. Unda ishlab chiqarish, zaxiralar, narxlar, import-eksport, logistika va iste’mol bo‘yicha ma’lumotlar integratsiya qilinishi lozim.

Uchinchidan, suv tejovchi va iqlimga moslashuvchan agrotexnologiyalarni kengaytirish zarur. Ayniqsa, sensorlar, sun’iy yo‘ldosh monitoringi va aqlli sug‘orish texnologiyalaridan foydalanish oziq-ovqat ishlab chiqarish barqarorligini oshiradi.

To‘rtinchidan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish kerak. Bu orqali mavsumiy yo‘qotishlarni kamaytirish va oziq-ovqat mahsulotlari taklifining barqarorligini oshirish mumkin.

Beshinchidan, kichik ishlab chiqaruvchilarni innovatsion jarayonlarga jalb qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. 2025-yilda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining 62,3 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelgani ushbu yo‘nalishning naqadar

muhimligini ko‘rsatadi.

Oltinchidan, ilm-fan, oliy ta’lim, innovatsion markazlar va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish lozim. Bu yangi agrotexnologiyalarni tezroq ishlab chiqarishga joriy etish imkonini beradi.

Yettinchidan, oziq-ovqat mahsulotlarini “ishlab chiqaruvchidan iste’molchigacha” kuzatish imkonini beruvchi raqamli tizimni kengaytirish maqsadga muvofiq. Bunday tizim mahsulot sifati va xavfsizligi ustidan nazoratni kuchaytiradi.

Sakkizinchidan, hududlar bo‘yicha oziq-ovqat sanoatining ixtisoslashuvini hisobga olgan holda innovatsion oziq-ovqat klasterlarini rivojlantirish zarur. Bu xomashyo yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va sotish jarayonlarini yagona tizimga birlashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning kelgusi bosqichi “ishlab chiqarish hajmini oshirish” modelidan “innovatsion, raqamli, resurs tejamkor va barqaror oziq-ovqat tizimi” modeliga bosqichma-bosqich o‘tishni talab qiladi. Mazkur yondashuv nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, balki ularning sifati, narx barqarorligi, aholiga yetib borishi va uzoq muddatli mavjudligini ta’minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. FAO. (2006). *Food Security*. Policy Brief, Issue 2. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.
2. von Braun, J., & Torero, M. (2009). Physical and virtual global food reserves to protect the poor and prevent market failure. *IFPRI Policy Brief*.
3. Pretty, J. (2008). Agricultural sustainability: Concepts, principles and evidence. *Philosophical Transactions of the Royal Society B: Biological Sciences*, 363(1491), 447–465.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PF-5853-son Farmon.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2025). *Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmi, 2010–2024-yillar*. SIAT ma’lumotlar bazasi.
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2025). *Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari va xizmatlarining umumiy hajmi*. SIAT ma’lumotlar bazasi.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). *O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati: 2025-yil yanvar–dekabr*.
8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). *Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda qaysi hudud yetakchi?*
9. FAO. *National Programme of Action for the Digitalization of Agriculture in Uzbekistan*. Food and Agriculture Organization of the United Nations.
10. World Bank. (2022). *Food Security Update*. Washington, DC: World Bank.
11. United Nations. (2015). *Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. New York: United Nations.
12. Swinnen, J. (2018). *The Political Economy of Agricultural and Food Policies*. Palgrave Macmillan.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

JAHON IQTISODIYOTIDA ISLOM MOLIYASI: ASOSIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Zohidova Ruxsora Komiljon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti
Email: r.zohidova@tsue.uz
ORCID:0009-0004-1331-2246

Annotatsiya. *Ushbu maqolada islom moliyasining zamonaviy holati va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu tizimdagi sudxo‘rlik (ribo), spekulyatsiya(maysir) va noaniqlik(g‘arar)ning ta’qiqlanishi, tavakkalchiliklarni majburiy baham ko‘rish hamda axloqiy investitsiyalar kabi islom moliyasining o‘ziga xosligini belgilovchi asosiy tamoyillar ko‘rib chiqiladi. Bugungi kundagi tendensiyalar, jumladan, islom bank sektorining o‘sishi, sukuk bozorining kengayishi, islomiy sug‘urta (takaful)ning rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning ta’siri ko‘rsatib o‘tilgan. Islom moliyasining axloqiylik, inqirozlarga chidamlilik va ijtimoiy mas’uliyat kabi afzalliklari, shuningdek, xabardorlikning yetarli emasligi, cheklangan infratuzilma hamda regulyatorlik to‘siqlari kabi muammolari ajratib ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, islom moliyasini rivojlantirish istiqbollari, jumladan, geografik kengayish, moliyaviy innovatsiyalar, "yashil" mahsulotlarni yaratish va xalqaro hamkorlik masalalari ham muhokama qilinadi.*

Kalit so’zlar: *islom moliyasi, sha’riat tamoyillari, barqaror moliyalashtirish, ri, AAOIFI, IFSB, xalqaro hamkorlik.*

ИСЛАМСКИЕ ФИНАНСЫ В МИРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ: КЛЮЧЕВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

Зохидова Рухсора Комилжон кизи
Ташкентский государственный экономический университет
Докторант базовой докторантуры 1-го курса
E-mail: r.zohidova@tsue.uz
ORCID: 0009-0004-1331-2246

Аннотация. *В данной статье анализируются современное состояние и перспективы будущего развития исламских финансов. Также рассматриваются ключевые принципы, определяющие уникальность этой системы, такие как запрет на ростовщичество (риба) и спекуляцию (гарар), обязательное распределение рисков и этическое инвестирование. Обозначены текущие тенденции, включая рост исламского банковского сектора, расширение рынка сукук, развитие исламского страхования (такафул) и влияние цифровых технологий. Выделены такие преимущества исламских финансов, как этичность, устойчивость к кризисам и социальная ответственность, а также существующие проблемы, среди которых недостаточная осведомленность, ограниченная инфраструктура и регуляторные барьеры. Кроме того, обсуждаются перспективы развития исламских финансов, включая географическую экспансию, финансовые инновации, создание «зеленых» продуктов и международное сотрудничество.*

Ключевые слова: *исламские финансы, принципы шариата, устойчивое финансирование, AAOIFI, IFSB, международное сотрудничество.*

ISLAMIC FINANCE IN THE GLOBAL ECONOMY: MAIN TRENDS AND DEVELOPMENT PROSPECTS

Zohidova Ruxsora Komiljon qizi
Tashkent State University of Economics
First-year PhD student
E-mail: r.zohidova@tsue.uz
ORCID: 0009-0004-1331-2246

Abstract. *This article analyzes the current state and future development prospects of Islamic finance. It explores the core principles defining the uniqueness of this system, such as the prohibition of usury (riba) and speculation (gharar), mandatory risk-sharing, and ethical investing. Current trends are highlighted, including the growth of the Islamic banking sector, the expansion of the sukuk market, the development of Islamic insurance (takaful), and the impact of digital technologies. The advantages of Islamic finance, such as ethical standards, crisis resilience, and social responsibility, are identified alongside challenges like lack of awareness, limited infrastructure, and regulatory barriers. Furthermore, the development prospects of Islamic finance are discussed, focusing on geographical expansion, financial innovations, the creation of green products, and international cooperation.*

Keywords: *Islamic finance, Shariah principles, sustainable financing, AAOIFI, IFSB, international cooperation.*

Kirish.

Islom moliya tizimi iqtisodiyotning bir tarmog‘i bo‘lib, moliyaviy resurslar va ularni boshqarish, egalik qilish, investitsiya qilish hamda pul va bozorga oid bitimlar bilan munosabatlarni islom shariati standartlari doirasida ijrosini ta’minlaydigan tizimdir. Islom moliyasi an’anaviy moliya tizimlaridan farqli o‘laroq sudxo‘rlik(ribo), spekulyatsiya(maysir) va noaniqlik(g‘arar)ni ta’qiqlaydi, shuningdek, foyda va riskning tomonlarga adolatli taqsimlanishi, jamiyat oldidagi mas’uliyat va biznes faoliyatining axloqiylik me’zonlariga katta e’tibor qaratadi. Ushbu tamoyillar islom moliyasini nafaqat musulmon mamlakatlar uchun , balki barqaror iqtisodiy o‘sish va axloqiy jihatdan yuqori salohiyatga ega moliyaviy amaliyotlarga intilayotgan xalqaro hamjamiyatlar uchun ham jozibador qilmoqda.

So‘nggi o‘n yilliklarda islom moliyasi tizimida sezilarli o‘sishlar kuzatilmoqda. Islom banklari, islomiy sug‘urta tizimi(takaful), sukuk-islomiy qimmatli qog‘ozlar va boshqa moliyaviy instrumentlar jahon moliyaviy tizimining ajralmas bo‘lagiga aylanib ulgurdi. Ushbu o‘sishlar islom moliyasiga nisbatan nafaqat musulmon mamlakatlarning , balki nomusulmon mamlakatlarning ham qiziqishi yildan-yilga oshib borayotganligi, hamda islom moliyasini tartibga soluvchi chora-tadbirlar va sandartlarning joriy qilinganligi sababidan ham yuzaga kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Islom moliyasi nazariyasi va amaliyotini o‘rganishda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ishlari muhim ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Islom moliyasining nazariy asoslarini yoritishda A.A.Usmonovning tadqiqoti alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda islom moliyasi tushunchasi, uning shakllanish tarixi hamda O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilish istiqbollari kompleks tarzda tahlil qilingan [1]. Xorijiy adabiyotlarda M.Ayubning fundamental asari islom moliyaviy tizimining nazariy-metodologik negizini, shu jumladan riboning taqiqlanishi, g‘arar va maysir kabi shariat prinsiplarining amaliy moliyaviy operatsiyalarga ta‘sirini keng yoritadi [2]. Z.Iqbol va A.Mirakhorning tadqiqotida esa islom moliyasi klassik iqtisodiy nazariyalar bilan qiyoslangan holda o‘rganilib, uning institutsional rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi [3].

Islom moliyasi amaliyotining huquqiy-me‘yoriy asoslarini o‘rganishda M.F.Xan va M.I.Bhattining ishi muhim o‘rin tutadi, unda islom banklari va moliyaviy institutlarning amaldagi operatsion prinsiplari, murabaha, muzoraba, musharaka kabi shartnoma turlari batafsil tavsiflanadi [4]. Shu bilan birga, AAOIFI tomonidan ishlab chiqilgan shariat standartlari islom

moliyaviy institutlari faoliyatini xalqaro miqyosda unifikatsiya qilishning asosiy me’yoriy manbai sifatida e’tirof etiladi, ushbu hujjat islom moliyasi amaliyotini standartlashtirish jarayonining institutsional negizini tashkil qiladi [5].

Islom moliyaviy xizmatlarining institutsional tuzilishi va xalqaro tajribasini tahlil qilishda M.Obaidullohning tadqiqoti muhim manba bo‘lib xizmat qiladi, unda islom moliyaviy xizmatlari bozorining segmentatsiyasi, mahsulotlar tizimi hamda rivojlanayotgan mamlakatlardagi qo'llanilish xususiyatlari yoritilgan [7].

Tadqiqot metodologiyasi nuqtai nazaridan T.L.Saatining ierarxik tahlil jarayoni (Analytic Hierarchy Process) bo‘yicha ishlab chiqilgan metodologik yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi — bu usul islom moliyaviy institutlari faoliyatini baholash, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash va turli tendensiyalarni qiyosiy tahlil qilishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ilmiy asoslangan vosita sifatida qaraladi [6].

Islom bank tizimining marketing va amaliy jihatlarini o‘rganishda N.Aripovning maqolasi diqqatga sazovor bo'lib, unda islom moliyalashtirish prinsiplariga asoslangan banklarda marketing strategiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari, mijozlar bilan ishlash yondashuvlari tahlil qilinadi [8]. E.A.Isaevaning tadqiqotida esa islom bankingining asosiy qoidalari va prinsiplari, shuningdek zamonaviy sharoitda uning rivojlanish istiqbollari, xususan an’anaviy bank tizimi bilan solishtirilgan holda o‘ziga xos afzalliklari yoritilgan [9].

Yuqorida keltirilgan manbalarni umumlashtirgan holda xulosa qilish mumkunki, mavjud ilmiy adabiyotlarda islom moliyasining nazariy-konseptual asoslari [1; 2; 3], huquqiy-me’yoriy bazasi [4; 5], institutsional-amaliy jihatlari [7; 8; 9] hamda tahliliy-metodologik vositalari [6] yetarlicha keng yoritilgan. Shu bilan birga, jahon iqtisodiyoti sharoitida islom moliyasining zamonaviy tendensiyalarini kompleks tahlil qilish, uni raqamli transformatsiya jarayonlari, global moliyaviy inqirozlarga chidamlilik hamda barqaror rivojlanish maqsadlari kontekstida o‘rganish masalalari alohida chuqur tadqiqotni talab etadi — bu esa ushbu maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida jahon iqtisodiyotida islom moliyasining o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlari borasida xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o‘rganildi, hamda hozirda kuzatilayotgan asosiy tendensiyalar va rivojlanish istiqbollari tahlil qilindi. Maqolada nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, taqqoslash, tahlil, sintez kabi usullar samarali qo‘llanildi, shuningdekislom moliyasining xalqaro miqyosda integratsiyalashuviga oid muammolar va ularning yechimlari xususida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Tahlil va natijalar.

Zamonaviy islom moliyasining rivojlanish bosqichlari. O‘tgan asring o‘rtalaridan zamonaviy islom moliyasi yuzaga kela boshladi va quyidagi to‘rt bosqichdan iborat rivojlanish davrini boshidan o’tkazgan:

- Uyg’onish davri (1950-1980). Dastlab «Islom iqtisodi tushunchasi» va uning nazariy asoslari shakllana boshladi. Misrda birinchi tajriba sifatida Mit G'amr banki tashkil qilinib, keyinchalik Dubay Islom banki hamda Islom taraqqiyot banki (ITB) kabi dastlabki yirik islom moliya institutlari ish boshladi. ;
- Shakllanish va ilk davr (1980-1990). Ushbu davr institutsional rivojlanish davri bo’lib, Malayziyada Islom moliyasi faol qo'llab-quvvatlana boshladi, INCEIF va ISRA kabi ilmiy-tadqiqot institutlari yuzaga kelishi bilan birgalikda islom moliyasi xalqaro miqyosida e’torof qilina boshladi. Shuningdek, sha’riat kengashlari tashkil qilindi va xalqaro moliya bozorida sukuk (islomiy obligatsiyalar) vositalari joriy etildi ;
- O‘zgarishlar va yangi g‘oyalar davri (1889-2020). Islomiy moliya tashkilotlari va ularning faoliyatini tartibga solish va standartlashtirishda muhim qadamlar qo’yilgan davr hisoblanadi. Bunga AAOIFI va IFSB kabi buxgalteriya va nazorat standartlarini belgilovchi

muvofiqlashtiruvchi xalqaro tashkilotlar tuzilishini misol qilishimiz mumkin. Xalqaro banklar bilan integratsiyasiyalashuvni amalga oshirish maqsadida ingliz tili sohaning asosiy muloqot tiliga aylandi. HSBC, Deutsche Bank, Standard Chartered kabi dunyoning yirik an'anaviy banklari dastlabki islomiy darchalar (Islamic windows) va mahsulotlarni taqdim eta boshladi;

- Rivojlanish va ommalashish davri (2020-hozirgi davr).So‘nggi yillar esa islom moliyasining raqobatlashuv va zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashuv davriga to‘g‘ri kelmoqda. Islomiy banklar an'anaviy banklar bilan tengma-teng raqobatga kirishdi va Fintek (FinTech) hamda islomiy startaplar jadal rivojlanmoqda. Musulmon aholisi ko'p bo'lgan mamlakatlar qatori boshqa davlatlar ham islom moliyasi mahsulotlariga qiziqishi yildan-yilga oshib bormoqda. Zakot, vaqf va ijtimoiy moliya (social finance) institutlarining ham ahamiyati oshib bormoqda.

Islom moliyasi asosiy uch ustunga tayangan holda amalga oshiriladi:

- *Sha’riatga muvofiqlik va asosiy taqiqlar.* Barcha moliyaviy amaliyot va shartnomalar Islom huquqi, ya’ni Sha’riat mezonlariga to‘liq mos kelgan holda, ribo, g‘arar, maysir va har qanday Sha’riat ta’qiqlagan sohalardan yiroq holda amalga oshirilishi lozim;

- *Xatarlarni bo’lishish/taqsimlash.* An’anaviy bank tizimidan farqli o‘laroq islom banklarida bank va mijoz o’rtasida adolatli sheriklik o’rnatiladi va shu asosida risklar tomonlarga adolatli nisbatlarda taqsimlanadi.

- *Real iqtisodiyotga bog’langanlik.* Pulning o’zi tovar hisoblanmaydi va har bir moliyaviy operatsiya ortida albatta real aktiv turishi lozim.

Islomiy moliya sohasi doimiy ravishda o‘sish va rivojlanishni namoyish etib, jahon iqtisodiyotiga tobora kuchliroq ta’sir ko‘rsatmoqda. Shariat tamoyillariga asoslangan ushbu tizim o‘zining etik yo‘nalishi va barqarorligi tufayli musulmon va nomusulmon davlatlarning ham e’tiborini jalb qilmoqda. Quyida islomiy moliyani tavsiflovchi asosiy joriy tendensiyalarni ko‘rib chiqamiz.

Eng sezilarli tendensiyalardan biri islomiy bank sektorining barqaror o‘sishidir. So‘nggi o‘n yilliklarda islomiy banklar o‘z aktivlarini sezilarli darajada ko‘paytirdi va geografik jihatdan faoliyati ko‘lamini kengaytirib kelmoqda. Bugungi kunda islomiy banklar nafaqat an’anaviy musulmon davlatlarda, balki Yevropa, Shimoliy Amerika, Afrika va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ham faoliyatini yo‘lga qo‘ymoqda.

Xalqaro valyuta fondi ma’lumotlariga ko‘ra, islomiy banklarning aktivlari 2 trillion AQSH dollaridan ortiq miqdorga o‘sgan va bu raqam o‘sishda davom etmoqda. Islomiy banklar depozitlar, kreditlar, investitsiyalar va aktivlarni boshqarishni o‘z ichiga olgan keng doiradagi moliyaviy xizmatlarni taklif qiladi, bularning barchasi shariat tamoyillariga mos keladi. Ushbu sektorning o‘sishi islomiy moliyaviy mahsulotlarga bo‘lgan qiziqishning ortganidan va ularning jahon bozoridagi raqobatbardoshligidan dalolat beradi.

	Islomiy banking	Sukuk	Islomiy fondlar	Boshqa islomiy moliya tashkilotlari	Takaful
Umumiy aktivlar	US$4.3 trln	US$1.0 trln	US$308 mlrd	US$193 mlrd	US$136 mlrd
IM aktivlaridagi ulushi	72%	17%	5%	3%	2%
Tashkilotlar / vositalar soni	681	4,712 (muomalada)	2,610 (muomalada)	1,179	395

1-rasm. Dunyodagi zamonaviy islom moliyaviy xizmatlar sohasi aktivlari hajmi

(2024-yil) [50]

Yuqoridagi rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2024 yilda jami 6 trln. AQSh dollari qiymatidagi islom moliyasining umumiy aktivlari tarkibida eng katta ulushni Islomiy bankchilik tizimi (72%) egallagan. Ikkinchi o‘rinda esa islomiy obligatsiyalar, ya’ni sukuk instrumenti yuqori ko‘rsatkichni namoyish qilgan. Shundan xulosa qilishimiz mumkunki, sukuklar islomiy moliya tizimining ajralmas va muhim bo‘lagiga aylanib ulgurgan.

Sukuklar, ya’ni islomiy obligatsiyalar, butun dunyo bo‘ylab tobora ko‘proq investorlarni jalb qilayotgan islomiy moliyaning muhim vositasidir. An’anaviy obligatsiyalardan farqli o‘laroq, sukuklar foiz to‘lashni nazarda tutmaydi, aksincha investorlarga real aktivlar yoki loyihalardan olinadigan daromaddan ulush olish huquqini beradi.

Sukuklar bozori ham sezilarli o‘sishni ko‘rsatmoqda, bunga ham musulmon davlatlari tomonidan talab, ham etik jihatdan maqbul va barqaror investitsiyalarni izlayotgan xalqaro investorlarning qiziqishi sabab bo‘lmoqda. Suveren va korporativ emitentlar infratuzilma loyihalarini rivojlantirish, barqaror rivojlanish va boshqa maqsadlar uchun kapital jalb qilishda sukuklardan faol foydalanmoqda.



2-rasm. **Islom moliyasi aktivlarining yillar kesimidagi ko‘rsatkichlari (trln.AQSh**

[50] ICD–LSEG Islamic Finance Development Report 2025 — 50 Years of Exponential Growth

dollarida) [51]

Islom moliyasi aktivlari hajmining o‘sishi barqaror kechayotganini yuqoridagi 2-rasm ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin. Bunga albatta islom moliyasining xalqaro integratsiyalashuvi, sohaga raqamli texnologiyalarning ham joriy etilganligi va dunyo miqyosida barqaror va axloqiy jihatdan shaffof moliyaviy instrumentlarga bo‘lgan talab va qiziqishning oshgani ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Islomiy moliyaning o‘sishi bilan birga ushbu sektorni tartibga soluvchi qoidalar va me’yorlarni unifikatsiya qilish hamda standartlashtirish zarurati ham tobora ortib bormoqda. Global miqyosda tartibga solishning kuchayishi islomiy moliyaviy operatsiyalarning shaffofligi, adolatliligi va barqarorligini ta’minlashga qaratilgan. Islomiy moliyaviy xizmatlar kengashi (IFSB) va Islomiy moliya muassasalari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI) kabi xalqaro tashkilotlar xalqaro standartlar va amaliyotlarni ishlab chiqish hamda joriy etishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu standartlar investorlar va iste’molchilar tomonidan islomiy moliyaviy instrumentlar va xizmatlarga ishonchning ortishiga, korporativ boshqaruvning yaxshilanishiga va risklarning kamayishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, islomiy moliya muhim rol o‘ynaydigan ko‘plab davlatlar islomiy moliyaviy tizimning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan milliy tartibga solish tizimlarini faol ishlab chiqmoqda va joriy etmoqda.

Mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda islom moliyasiga qiziqish va talab kuchayib bormoqda va shularni inobatga olgan holda 27.03.2026 yildagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun yurtimizda islom moliyasi xizmatlari va instrumentlarini joriy qilishdagi muhim kata qadam hisoblanadi va kelgusida amalga oshiriladigan moliyaviy va iqtisodiy munosabatlarga muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Ko‘plab afzalliklarga qaramay, islomiy moliya global iqtisodiyotga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun hisobga olinishi zarur bo‘lgan bir qator muammolarga duch kelmoqda:

Ko‘plab aholi va tashkilotlar, ayniqsa nomusulmon davlatlarda, islomiy moliyaning tamoyillari va afzalliklari haqida yetarlicha ma’lumotga ega emas. Bu ularning keng tarqalishi va qabul qilinishiga to‘siq yaratadi. Ta’lim dasturlari, seminarlar va axborot kompaniyalari islomiy moliya haqidagi xabardorlik darajasini va tushunchani oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Dunyoning ba’zi hududlarida islomiy moliya uchun infratuzilma va institutsional qo‘llab-quvvatlash hali ham cheklangan. Bunga shariat tamoyillariga mos keladigan ixtisoslashgan moliya muassasalari, ekspertlar va normativ-huquqiy bazalarning yetishmasligi misol bo‘ladi. Zarur infratuzilmani rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlovchi institutlarni yaratish islomiy moliyani mustahkamlashning muhim qadamlaridan hisoblanadi.

Tartibga soluvchi va huquqiy to‘siqlar turli davlatlarda islomiy moliyaning rivojlanishini qiyinlashtirishi mumkin. Ba‘zi yurisdiksiyalarda islomiy moliyaviy vositalarning faoliyat yuritishini ta’minlaydigan adekvat huquqiy asoslar mavjud emas. Ushbu to‘siqlarni bartaraf etish uchun islomiy moliyaviy tizimning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va standartlarni tartibga solish zarur.

Xulosa va takliflar.

Islomiy moliya jahon moliyaviy tizimining o‘ziga xos va tez rivojlanayotgan qismi bo‘lib, kapitalni boshqarish va investitsiyalashga nisbatan alternativ yondashuvlarni taklif etadi. Uning shariat tamoyillarining axloqiy va adolatli asoslariga tayanishi nafaqat musulmon davlatlarning, balki butun dunyoning e’tiborini jalb qilmoqda. Global beqarorlik va iqtisodiy sinovlar sharoitida islomiy moliyaviy model barqarorlik va ishonchlilikni namoyish etib, risklar va foydaning yanada adolatli taqsimlanishini ta’minlamoqda.

Islomiy moliyaning afzalliklari — axloqiylik, inqirozlarga chidamlilik, shaffoflik va

[51] [51] ICD–LSEG Islamic Finance Development Report 2025 — 50 Years of Exponential Growth

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ijtimoiy mas’uliyat kabilar — uni keng ko‘lamdagi investorlar va iste’molchilar uchun jozibador qilmoqda. Shu bilan birga, bir qator muammolar ham mavjud: xabardorlikning yetishmasligi, cheklangan infratuzilma, tartibga soluvchi to‘siqlar va risklarni boshqarish masalalari. Ushbu muammolarni muvaffaqiyatli bartaraf etish uchun xalqaro tashkilotlar, hukumatlar va moliya institutlarining birgalikdagi sa’y-harakatlari talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Usmonov A. A. Islomiy moliya: nazariya va amaliyot. Toshkent, Iqtisodiyot nashriyoti, 2020. 256 b.

2. Ayub M. Understanding Islamic Finance. Chichester, John Wiley and Sons, 2007. 512 p.

3. Iqbol Z., Mirakhor A. An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. Singapore, Wiley Finance, 2011. 400 p.

4. Хан М. Ф., Бхатти М. И. Исламские финансы: принципы и практика. Москва, Юрайт, 2019. 368 с.

5. AAOIFI. Shari’ah Standards. Manama, Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions, 2021. 1200 p.

6. Saaty T. L. The Analytic Hierarchy Process. New York, McGraw-Hill, 1980. 287 p.

7. Obaidullah M. Islamic Financial Services. Jeddah, Islamic Economics Research Center, 2005. 300 p.

8. Арипов Н. Маркетинг в банках исламского принципа финансирования//Актуальные вопросы современной экономики. 2023.- №1. С. 229-235

9. Исаева Е.А. Исламский банкинг: основные правила и принципы, перспективы развития в современных условиях // Финансовые рынки и банки. - 2023. - №6. - С. 140-146.

10. ICD–LSEG Islamic Finance Development Report 2025 — 50 Years of Exponential Growth

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ELEKTRON SAVDODA MUDDATLI TO‘LOV MUNOSABATLARINI MOLIYAVIY TARTIBGA SOLISH: XORIJIY TADQIQOTLAR ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL

Iskandarova Munisa Hasan qizi

Toshkent xalqaro universiteti tayanch doktoranti
munisaravshanova@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada elektron savdo platformalarida keng qo‘llanilayotgan muddatli to‘lov, jumladan, “hozir xarid qil, keyin to‘la” (Buy Now, Pay Later — BNPL) xizmatlari doirasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarni tartibga solishning zamonaviy yondashuvlari xorijiy ilmiy tadqiqotlar asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda BNPL xizmatlarining iste’molchilarning xarid xulqi, qarzdorlik darajasi va moliyaviy qarorlariga ta’siri, shuningdek, mazkur xizmatlardan foydalanish bilan bog‘liq moliyaviy risklar va iste’molchilarni moliyaviy himoya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Xorijiy tadqiqotlar natijalarini tizimlashtirish orqali muddatli to‘lov xizmatlarini tartibga solishda kreditga layoqatlilikni baholash, qarz yukini monitoring qilish, to‘lov shartlari va umumiy xarajatlarning shaffofligini ta’minlash, elektron savdo platformalari hamda moliyalashtiruvchi subyektlarning mas’uliyatini belgilash kabi asosiy yo‘nalishlar ajratib ko‘rsatiladi. Tadqiqot natijasida muddatli to‘lov xizmatlarini haddan tashqari cheklashdan ko‘ra, moliyaviy innovatsiyalar rivoji va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi mutanosib tartibga solish yondashuvi zarurligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *elektron savdo, muddatli to‘lov, Buy Now Pay Later (BNPL), moliyaviy tartibga solish, iste’mol krediti, qarz yuki, moliyaviy risk, iste’molchilarni moliyaviy himoya qilish, kreditga layoqatlilik, moliyaviy shaffoflik.*

ФИНАНСОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ОТНОШЕНИЙ РАССРОЧЕННОЙ ОПЛАТЫ В ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ ЗАРУБЕЖНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Искандарова Муниса Хасан кизи

Соискатель научной степени (докторант)
Ташкентского международного университета
munisaravshanova@mail.ru

Аннотация: *В данной статье на основе зарубежных научных исследований проводится сравнительный анализ современных подходов к финансовому регулированию отношений, возникающих при использовании рассроченной оплаты на платформах электронной коммерции, включая услуги «купи сейчас, плати потом» (Buy Now, Pay Later — BNPL). Особое внимание уделяется влиянию BNPL на покупательское поведение, уровень задолженности и финансовые решения потребителей, а также финансовым рискам и вопросам финансовой защиты потребителей. На основе систематизации результатов зарубежных исследований выделены основные направления регулирования услуг рассроченной оплаты, включая оценку кредитоспособности, мониторинг долговой нагрузки, обеспечение прозрачности условий оплаты и общей стоимости обязательств, а также определение ответственности электронных торговых платформ и субъектов, предоставляющих финансирование. В результате исследования обосновывается необходимость применения пропорционального подхода к регулированию, направленного на обеспечение баланса между развитием финансовых инноваций и защитой интересов потребителей.*

Ключевые слова: *электронная коммерция, рассроченная оплата, Buy Now Pay Later (BNPL), финансовое регулирование, потребительский кредит, долговая нагрузка,*

финансовый риск, финансовая защита потребителей, кредитоспособность, финансовая прозрачность.

FINANCIAL REGULATION OF DEFERRED PAYMENT RELATIONS IN E-COMMERCE: A COMPARATIVE ANALYSIS BASED ON INTERNATIONAL RESEARCH

Iskandarova Munisa Hasan kizi
PhD Researcher, Tashkent International University
munisaravshanova@mail.ru

Abstract: *This article provides a comparative analysis of contemporary approaches to the financial regulation of deferred payment arrangements on e-commerce platforms, including Buy Now, Pay Later (BNPL) services, based on international academic research. Particular attention is paid to the effects of BNPL services on consumer purchasing behaviour, indebtedness and financial decision-making, as well as the associated financial risks and consumer financial protection issues. By systematising the findings of international studies, the article identifies key areas of regulation, including creditworthiness assessment, debt-burden monitoring, transparency of payment terms and total financial obligations, and the allocation of responsibilities between e-commerce platforms and financing providers. The study argues for a proportionate regulatory approach that seeks to balance the development of financial innovation with the protection of consumer interests rather than relying solely on restrictive measures.*

Keywords: *e-commerce, deferred payment, Buy Now Pay Later (BNPL), financial regulation, consumer credit, indebtedness, financial risk, consumer financial protection, creditworthiness, financial transparency.*

Kirish

Raqamli iqtisodiyot va elektron savdoning jadal rivojlanishi to‘lov hamda iste’molchilarni moliyalashtirish mexanizmlarining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Shunday moliyaviy instrumentlardan biri “hozir xarid qil, keyin to‘la” (Buy Now, Pay Later — BNPL) modeli bo‘lib, u iste’molchiga tovar yoki xizmat qiymatini xarid vaqtida to‘liq to‘lamasdan, belgilangan muddat davomida qismlarga bo‘lib to‘lash imkonini beradi. Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS) tadqiqotida BNPL elektron savdo platformalarida keng qo‘llaniladigan, iste’molchi xarajatlarini bir necha foizsiz to‘lovlarga ajratish imkonini beruvchi moliyalashtirish mexanizmi sifatida tavsiflanadi [1]. Mazkur modelning an’anaviy iste’mol kreditidan muhim farqlaridan biri shundaki, BNPL xizmatlarida kredit ajratish jarayoni ko‘pincha soddalashtirilgan baholash asosida amalga oshiriladi va bunday majburiyatlar ayrim bozorlarda kredit axboroti tizimlarida to‘liq aks etmasligi mumkin [1].

BNPL xizmatlarining rivojlanishi elektron savdo ekotizimidagi moliyaviy munosabatlarning tarkibini ham murakkablashtirmoqda. Mazkur munosabatlarda iste’molchi va sotuvchidan tashqari BNPL provayderi yoki boshqa moliyalashtiruvchi tashkilot ham ishtirok etadi. Odatdagi modelda BNPL provayderi sotuvchiga xarid qiymatini to‘lab beradi va iste’molchining tegishli majburiyatini o‘z zimmasiga oladi, iste’molchi esa belgilangan to‘lov jadvali asosida qarzdorligini bosqichma-bosqich qaytaradi [1]. Shu sababli BNPLni faqat elektron to‘lov usuli sifatida emas, balki elektron savdo jarayoniga integratsiyalashgan qisqa muddatli moliyalashtirish munosabati sifatida o‘rganish zarurati yuzaga kelmoqda.

BNPL bozorining kengayishi ushbu masalaning dolzarbligini yanada oshirmoqda. AQSh Iste’molchilarni moliyaviy himoya qilish byurosi (CFPB) tomonidan o‘rganilgan beshta yirik BNPL kompaniyasi 2021-yilda qariyb **180 millionta kreditni, umumiy qiymati 24 milliard AQSh dollaridan ortiq hajmda** ajratgan bo‘lib, mazkur ko‘rsatkich 2019-yilga nisbatan qariyb o‘n baravar oshgan [2]. CFPBning keyingi tadqiqotlari ham AQSh BNPL bozori 2019–2023-yillarda kengayishda davom etganini ko‘rsatadi [3]. BIS tomonidan mamlakatlararo ma’lumotlar asosida amalga oshirilgan tahlilda esa BNPL orqali amalga oshirilgan operatsiyalarning yalpi

qiymati 2019–2023-yillar oralig‘ida global miqyosda olti baravardan ko‘proq oshgani qayd etilgan [1].

Muddatli to‘lov xizmatlari iste’molchilar uchun muayyan moliyaviy qulayliklarni yaratishi bilan birga, yangi moliyaviy risklarni ham shakllantiradi. OECD tadqiqotiga ko‘ra, qisqa muddatli onlayn kredit va BNPL mahsulotlari vaqtinchalik daromad yetishmovchiligi sharoitida iste’mol xarajatlarini muvozanatlashtirish imkonini berishi mumkin, biroq ulardan yetarli darajada tushunmasdan foydalanish ortiqcha qarzdorlik va impulsiv xaridlarning ko‘payishi kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin [4]. CFPB BNPL bilan bog‘liq iste’molchi risklarini iste’molchiga bevosita zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan amaliyotlar, iste’molchilar ma’lumotlaridan foydalanish hamda qarz oluvchining moliyaviy imkoniyatidan ortiq majburiyat olishi bilan bog‘liq xavflar kabi yo‘nalishlarda tahlil qilgan [2].

Mazkur xavflar ilmiy tadqiqotlarda ham turli nuqtai nazardan o‘rganilmoqda. Kumar, Salo va Bezawada BNPL xizmatining joriy etilishi iste’molchilarning onlayn xarid xulqiga ta’sir ko‘rsatishini empirik tahlil qilgan bo‘lib, tadqiqot natijalarida BNPLdan foydalangan iste’molchilarning onlayn xarajatlari oshishi aniqlangan [5]. Cervellati va hammualliflar 1 457 nafar italiyalik iste’molchi ishtirokidagi tadqiqot asosida BNPLdan xabardorlik va undan foydalanish holatini iste’molchilarning moliyaviy qarorlari hamda boshqa iste’mol krediti xizmatlariga munosabati bilan birgalikda o‘rgangan [6]. Ushbu natijalar muddatli to‘lov mexanizmining ta’siri faqat muayyan xaridni moliyalashtirish bilan cheklanmasdan, iste’molchining kengroq kredit xulq-atvori bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

BNPLni moliyaviy tartibga solishda iste’molchilarning qarz yukini baholash va axborot assimetriyasini kamaytirish alohida ahamiyat kasb etadi. Johnson, Rodwell va Hendry BNPL bozorini xulq-atvorga asoslangan tartibga solish yondashuvi orqali o‘rganib, axborot assimetriyasini ushbu bozordagi muhim muammolardan biri sifatida ko‘rsatadi [7]. Bunda moliyaviy mahsulotni taqdim etuvchi subyekt iste’molchiga nisbatan ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishi, iste’molchi esa moliyaviy majburiyatning oqibatlarini yetarli darajada baholay olmasligi mumkin. Shu jihatdan muddatli to‘lov shartlari, to‘lov muddatlari, kechiktirish oqibatlari va umumiy moliyaviy majburiyatlar to‘g‘risidagi axborotning shaffofligi moliyaviy iste’molchilarni himoya qilishning muhim elementiga aylanadi [7].

Biroq BNPL xizmatlarini tartibga solish faqat cheklovlarni kuchaytirish bilan bog‘liq jarayon sifatida qaralmasligi lozim. Dehghani va hammualliflarning 34 mamlakat bo‘yicha to‘rt yillik panel ma’lumotlari hamda Germaniya, Tailand va Buyuk Britaniyada o‘tkazilgan iste’molchi tadqiqotlarini birlashtirgan tahlili BNPLdan foydalanish iqtisodiy, institutsional va xulq-atvor omillarining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanishini ko‘rsatadi [8]. Tadqiqotda tartibga solish sifati BNPLdan foydalanish bilan ijobiy bog‘liqligi aniqlanib, mualliflar aniq va mutanosib nazorat iste’molchilarning ishonchini mustahkamlashi hamda BNPLning mas’uliyatli rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashi mumkinligini ta’kidlaydi [8]. Bu natija muddatli to‘lovlarni moliyaviy tartibga solishda innovatsiyalarni cheklash va iste’molchilarni himoya qilish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi.

Xalqaro amaliyotda ham BNPLga nisbatan tartibga solish yondashuvlari bosqichma-bosqich takomillashmoqda. Jumladan, Buyuk Britaniyada 2026-yil 15-iyuldan boshlab foizsiz Deferred Payment Credit mahsulotlari Financial Conduct Authority tartibga solish doirasiga kiritildi va bunday xizmatlarni taqdim etuvchi kreditorlar uchun tegishli ruxsat hamda iste’molchilarni himoya qilish talablari joriy qilindi [9]. Bu holat BNPLning oddiy texnologik to‘lov funksiyasidan tashqari, moliyaviy tartibga solish obyektiga aylanib borayotganini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, mavjud xorijiy tadqiqotlarda BNPL xizmatlarining iste’molchilarning xarid xulqiga ta’siri, qarzdorlik xavfi, kredit qarorlari, axborot assimetriyasi va iste’molchilarni moliyaviy himoya qilish masalalari turli yo‘nalishlarda tadqiq etilgan [5–8]. Biroq ushbu ilmiy natijalarni elektron savdo platformalarida yuzaga keladigan muddatli to‘lov munosabatlarini moliyaviy tartibga solish nuqtai nazaridan o‘zaro bog‘liq holda qiyoslash va tizimlashtirish

zarurati saqlanib qolmoqda. Shu munosabat bilan mazkur maqolaning maqsadi xorijiy ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tartibga solish amaliyotlarini qiyosiy tahlil qilish asosida elektron savdoda muddatli to‘lov munosabatlarining moliyaviy xususiyatlari va asosiy risklarini aniqlash hamda ularni samarali tartibga solishning ustuvor yo‘nalishlarini tizimlashtirishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Elektron savdoda muddatli to‘lov munosabatlarining rivojlanishi so‘nggi yillarda iqtisodiyot, moliya, marketing va huquq yo‘nalishlaridagi ilmiy tadqiqotlarning muhim obyektiga aylandi. Xorijiy adabiyotlarda Buy Now, Pay Later (BNPL) xizmatlari asosan iste’molchilarning xarid xulq-atvoriga ta’siri, qarzdorlik xavfi, moliyaviy qarorlar, iste’molchilarni himoya qilish va tartibga solish mexanizmlari nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Mavjud ilmiy ishlarni umumlashtirish BNPLning an’anaviy to‘lov vositasi va iste’mol krediti xususiyatlarini birlashtiruvchi, elektron savdo jarayoniga bevosita integratsiyalashgan moliyaviy instrument sifatida shakllanayotganini ko‘rsatadi [1, 4].

BNPLning iste’molchilarning xarid xulqiga ta’siri bo‘yicha muhim empirik tadqiqotlardan biri Kumar, Salo va Bezawada tomonidan amalga oshirilgan. Mualliflar elektron savdo platformasidagi real tranzaksiya ma’lumotlari asosida Synthetic Difference-in-Differences usulidan foydalanib, BNPLni qabul qilishning onlayn xarid hajmiga ta’sirini baholaganlar [5]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, BNPLni qabul qilish iste’molchining bir buyurtmaga to‘g‘ri keladigan xarajatini o‘rtacha 6,42 foizga oshirgan. Shuningdek, BNPLning xarajatlarni oshiruvchi ta’siri yosh va daromadi nisbatan past iste’molchilarda kuchliroq namoyon bo‘lgan [5]. Mazkur holat muddatli to‘lov mexanizmi iste’molchining joriy likvidlik cheklovini yumshatishi bilan birga, uning xarid qilish imkoniyatini va xarajat hajmini ham o‘zgartirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Mualliflar BNPLning ta’siri barcha mahsulot va iste’molchi guruhlarida bir xil emasligini ham aniqlaganlar. Xususan, past qiymatli tovarlar bo‘yicha BNPL va mahsulot qiymati o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir xarajatlarning qo‘shimcha 19,30 foizga oshishi bilan bog‘liq bo‘lgan [5]. Bundan tashqari, turli mahsulot kategoriyalarida faol xarid qiluvchi va aksiyalarga sezgir iste’molchilarda BNPL qabul qilingandan keyingi xarajat o‘sishi kuchliroq kuzatilgan [5]. Ushbu natijalar muddatli to‘lov xizmatlarini tartibga solishda faqat kredit miqdorini emas, balki iste’molchining xulq-atvori va elektron savdo platformalarida qo‘llaniladigan marketing mexanizmlarini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Kumar, Salo va Bezawada tadqiqotining muhim jihatlaridan yana biri mualliflarning o‘zlari qayd etgan ilmiy cheklovlardir. Ularning modeli asosan **iste’molchi–sotuvchi** munosabatiga qaratilgan bo‘lib, iste’molchi bilan BNPL provayderi hamda sotuvchi bilan BNPL provayderi o‘rtasidagi munosabatlar to‘liq o‘rganilmagan [5]. Shuningdek, tadqiqotda BNPLdan foydalanishning iste’molchilarning uzoq muddatli moliyaviy farovonligiga ta’siri aniqlanmagan [5]. Mazkur cheklov elektron savdodagi muddatli to‘lov munosabatlarini barcha asosiy ishtirokchilarni qamrab oluvchi yaxlit moliyaviy munosabat sifatida tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

BNPLning iste’mol krediti bozoridagi o‘rni Cervellati, Filotto, Sgrulletti va Stella tomonidan Italiya misolida tadqiq etilgan [6]. Tadqiqot 1 457 nafar iste’molchidan olingan ma’lumotlarga asoslangan bo‘lib, respondentlarning moliyaviy savodxonligi, moliyaviy tizimga ishonchi, iste’mol kreditiga munosabati, BNPLdan xabardorligi va undan amalda foydalanishi o‘rganilgan [6]. Mualliflar BNPLga bo‘lgan munosabat, undan xabardorlik va foydalanish iste’molchilarning boshqa kredit mahsulotlariga murojaat qilish ehtimoli bilan bog‘liqligini aniqlaganlar. Natijada BNPLni faqat alohida xaridni amalga oshirishga xizmat qiluvchi to‘lov mexanizmi sifatida emas, balki iste’molchining keyingi moliyaviy qarorlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan iste’mol krediti instrumenti sifatida baholash zarurati yuzaga keladi [6].

Muddatli to‘lov xizmatlarining rivojlanishi bilan bog‘liq ikkinchi muhim ilmiy yo‘nalish — iste’molchilar qarzdorligi va xulq-atvor omillaridir. Ackert, Khayati va Kelani tomonidan olib

borilgan eksperimental tadqiqotda BNPL va kredit kartasi orqali moliyalashtirish sharoitida iste’molchilarning xarid qilish qarorlari qiyoslangan [10]. Tadqiqot BNPL mavjud bo‘lgan sharoitda xarid qilishga moyillik yuqoriroq bo‘lishini hamda BNPLdan foydalanishga doir ijtimoiy me’yorlar iste’molchining qarz olish xatti-harakatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatadi [10]. Bu esa BNPL bilan bog‘liq moliyaviy risklarni faqat foiz stavkasi yoki to‘lov muddati orqali baholash yetarli emasligini, iste’molchining moliyaviy qaroriga ta’sir qiluvchi xulq-atvor omillari ham tartibga solish jarayonida hisobga olinishi lozimligini anglatadi.

Johnson, Rodwell va Hendry BNPLni moliyaviy xizmatlarni tartibga solish va bozor muvaffaqiyatsizliklari nuqtai nazaridan o‘rganib, axborot assimetriyasini asosiy muammolardan biri sifatida ajratib ko‘rsatganlar [7]. Mualliflarning fikricha, moliyaviy xizmatlarni tartibga solish kamida moliyaviy tizim barqarorligini ta’minlash va iste’molchilarni himoya qilish vazifalarini bajarishi lozim. BNPL bozorida esa provayder va iste’molchi o‘rtasidagi axborot nomutanosibligi hamda iste’molchining o‘z moliyaviy manfaatlarini to‘liq baholay olmasligi tartibga solish zaruratini kuchaytiruvchi omillar hisoblanadi [7].

Mazkur muammo BNPL xizmatlarining elektron savdo platformalaridagi marketing xususiyatlari bilan yanada murakkablashadi. Kumar, Salo va Bezawada BNPL xizmatlarida xarid vaqtida “to‘lovsiz” yoki “qo‘shimcha haq olinmaydi” kabi jihatlarning ko‘zga tashlanadigan tarzda taqdim etilishi, boshqa muhim moliyaviy shartlarning esa iste’molchi e’tiboridan chetda qolishi mumkinligini qayd etadilar [5]. Soni esa ayrim iste’molchilar BNPLni umuman kredit sifatida qabul qilmasligi mumkinligini ta’kidlaydi [11]. Shunday sharoitda iste’molchiga faqat shartnoma matnini taqdim etishning o‘zi samarali moliyaviy himoyani ta’minlamasligi mumkin.

Soni BNPLni tartibga solishga bag‘ishlangan tadqiqotida aynan shu masalani kengroq yondashuv asosida ko‘rib chiqadi. Muallif BNPLni mavjud kredit karta qoidalariga moslashtirishga asoslangan yondashuv ushbu bozorning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq qamrab olmasligi mumkinligini ta’kidlaydi [11]. Buning asosiy sabablaridan biri BNPL bozorida sotuvchilar va elektron savdo subyektlarining xizmatni iste’molchiga taklif etish va targ‘ib qilishdagi faol rolidir. Shu sababli muallif tartibga solish faqat BNPL kreditoriga qaratilmasdan, BNPLni xaridorlarga taklif qiluvchi merchantlarning faoliyatini ham qamrab olishi kerakligini ilgari suradi [11].

Ushbu yondashuv elektron savdoda muddatli to‘lov munosabatlarini tushunishda alohida ahamiyatga ega. Chunki mazkur munosabat faqat **“kreditor–qarz oluvchi”** shaklida emas, balki **“iste’molchi–elektron savdo platformasi yoki sotuvchi–BNPL provayderi”** o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq moliyaviy munosabatlar majmui sifatida shakllanadi. Shuning uchun to‘lov shartlarining shaffofligi, reklama va BNPLni taklif qilish usullari, kreditga layoqatlilikni baholash hamda iste’molchi huquqlarini himoya qilish bo‘yicha mas’uliyatni ushbu subyektlar o‘rtasida aniq taqsimlash moliyaviy tartibga solishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [7, 11].

O’Brien, Ramsay va Ali tomonidan Avstraliya BNPL bozori bo‘yicha amalga oshirilgan empirik tadqiqot ushbu masalaning ijtimoiy jihatini yanada chuqurlashtiradi [12]. Mualliflar, ayniqsa, past daromadli iste’molchilar orasida BNPLdan foydalanish va undan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan consumer harm masalalarini o‘rganganlar. Tadqiqotda iste’molchilar bilan ishlaydigan mutaxassislar ishtirokidagi fokus-guruhlar hamda BNPL foydalanuvchilarining onlayn so‘rov ma’lumotlaridan foydalanilgan [12]. Ushbu yondashuv muddatli to‘lov xizmatlarini tartibga solishda barcha iste’molchilarga bir xil risk darajasini belgilash o‘rniga, moliyaviy jihatdan zaif guruhlarning xususiyatlarini alohida hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

BNPLning moliyaviy va ijtimoiy xususiyatlariga Loomis va Cockayne ham e’tibor qaratganlar [13]. Ular BNPL provayderlarining biznes modelida tranzaksiya ma’lumotlarining iqtisodiy qiymati va turli platformalardan olingan ma’lumotlarni birlashtirish imkoniyatini tahlil qiladilar. Mualliflar BNPLni xarid, to‘lov va moliyalashtirish xizmatlarini birlashtiruvchi kengroq raqamli platforma ekotizimining tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqadilar [13]. Mazkur yondashuv BNPLni tartibga solishda kredit riskidan tashqari iste’molchilarning moliyaviy va

tranzaksiya ma’lumotlaridan foydalanish bilan bog‘liq masalalarning ham ahamiyati ortayotganini ko‘rsatadi.

BNPL bozoridagi jarayonlar turli mamlakatlarda bir xil shakllanmasligi Dehghani va hammualliflarning tadqiqotida ham tasdiqlanadi [8]. Mualliflar 34 mamlakatni qamrab olgan panel tahlili hamda Germaniya, Tailand va Buyuk Britaniyada amalga oshirilgan mikro darajadagi tadqiqotlarni birlashtirganlar. Natijalar BNPLdan foydalanishga inflyatsiya, uy xo‘jaliklari qarzdorligi, tartibga solish sifati va individual xulq-atvor omillari birgalikda ta’sir qilishini ko‘rsatgan [8]. Germaniya namunasida impulsivlik BNPL tanlovi bilan ijobiy bog‘langan bo‘lsa, Tailandda xavfsizlik va institutsional noaniqlik bilan bog‘liq omillar muhimroq rol o‘ynagan [8]. Bu esa bitta tartibga solish modelini turli iqtisodiy va institutsional sharoitlarga mexanik tarzda ko‘chirish maqsadga muvofiq emasligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Dehghani va hammualliflar BNPLga muqobil sifatida “Save Now, Buy Later” (SNBL) modeliga ham e’tibor qaratadilar [8]. BNPL kelajakdagi daromad hisobidan joriy xaridni moliyalashtirishga asoslangan bo‘lsa, SNBL iste’molchining xariddan oldin mablag‘ jamg‘arishini nazarda tutadi. Shu sababli qarzdorlik xavfiga sezgir iste’molchilar uchun jamg‘arishga asoslangan muqobil to‘lov mexanizmlarining rivojlanishi elektron savdo platformalaridagi moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qilish yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin [8].

Yuqoridagi tadqiqotlarni qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, xorijiy ilmiy adabiyotlarda BNPL bilan bog‘liq muammolar bir necha alohida yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Kumar, Salo va Bezawada BNPLning xarid hajmiga ta’sirini [5], Cervellati va hammualliflar uning iste’mol kreditiga oid keyingi moliyaviy qarorlar bilan aloqasini [6], Ackert, Khayati va Kelani ijtimoiy me’yorlar va qarzdorlik xulqini [10], Johnson, Rodwell va Hendry axborot assimetriyasi hamda tartibga solishdagi kamchiliklarni [7], Soni merchant va BNPL kreditori o‘rtasidagi institutsional mas’uliyatni [11], O’Brien, Ramsay va Ali esa moliyaviy jihatdan zaif iste’molchilarga yetishi mumkin bo‘lgan zararni tadqiq etganlar [12].

Biroq mavjud adabiyotlarning mazkur yo‘nalishlarga bo‘linib ketganligi elektron savdoda muddatli to‘lov munosabatlarini yaxlit moliyaviy tizim sifatida tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, iste’molchining kreditga layoqatliligini baholash, bir nechta provayderlar bo‘yicha shakllangan umumiy qarz yukini hisobga olish, muddatli to‘lov shartlarining shaffofligini ta’minlash, elektron savdo platformasi va moliyalashtiruvchi tashkilot mas’uliyatini belgilash hamda iste’molchilarni moliyaviy himoya qilish elementlarini yagona tartibga solish mexanizmida o‘zaro bog‘lash masalasi qo‘shimcha ilmiy tizimlashtirishni talab etadi [5, 7, 11, 12].

Shu jihatdan mazkur tadqiqotning yondashuvi xorijiy adabiyotlarda aniqlangan natijalarni alohida-alohida takrorlash emas, balki ularni **moliyaviy risk – iste’molchining qarz yuki – axborot shaffofligi – platforma va moliyalashtiruvchi subyekt mas’uliyati – iste’molchilarni moliyaviy himoya qilish** o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asosida qiyosiy tizimlashtirishdan iborat. Bunday yondashuv elektron savdoda muddatli to‘lov xizmatlarini tartibga solishda moliyaviy innovatsiyalar rivojini saqlab qolish bilan birga, mas’uliyatli moliyalashtirish va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan institutsional mexanizmni shakllantirish uchun nazariy asos yaratadi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda elektron savdoda muddatli to‘lov munosabatlarini moliyaviy tartibga solish bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarni tizimlashtirish va o‘zaro taqqoslashga asoslangan qiyosiy tahlil usuli qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy va axborot bazasini BNPL xizmatlarining moliyaviy xususiyatlari, iste’molchilar qarzdorligi, xarid xulqi, moliyaviy risklar hamda iste’molchilarni himoya qilish masalalariga bag‘ishlangan xorijiy ilmiy maqolalar, shuningdek, BIS, OECD, CFPB va FCA materiallari tashkil etdi [1–13].

Tadqiqot jarayonida **ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, qiyosiy tahlil, guruhlash**

va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Xorijiy tadqiqotlar BNPLning iste’molchi xulqiga ta’siri, qarz yuki va moliyaviy risklar, axborot shaffofligi, kreditga layoqatlilikni baholash hamda elektron savdo platformalari va moliyalashtiruvchi subyektlarning mas’uliyati mezonlari bo‘yicha qiyoslandi. Olingan natijalar asosida muddatli to‘lov munosabatlarini moliyaviy tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari tizimlashtirildi.

Muhokama va natijalar

O‘rganilgan xorijiy tadqiqotlar natijalari elektron savdoda muddatli to‘lov xizmatlarining ikki tomonlama iqtisodiy xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bir tomondan, BNPL iste’molchiga xarid qiymatini vaqt bo‘yicha taqsimlash orqali joriy likvidlik cheklovlarini yumshatadi va elektron savdoda xarid imkoniyatini kengaytiradi. Ikkinchi tomondan, to‘lovning kelgusi davrlarga ko‘chirilishi iste’molchining real moliyaviy majburiyatini xarid vaqtida to‘liq his qilmasligi, bir vaqtning o‘zida bir nechta muddatli to‘lov majburiyatlarini shakllantirishi hamda qarz yukining ortishiga olib kelishi mumkin [1, 2, 4].

BNPLning elektron savdodagi xarid xulqiga ta’siri Kumar, Salo va Bezawada tadqiqotida empirik jihatdan tasdiqlangan. Synthetic Difference-in-Differences modeli natijalariga ko‘ra, BNPLni qabul qilish onlayn buyurtma hajmining o‘rtacha **6,42 foizga oshishi** bilan bog‘liq bo‘lgan [5]. Bundan tashqari, yosh va daromadi past iste’molchilarda BNPL qabul qilingandan keyingi xarajatlarning o‘sishi kuchliroq kuzatilgan [5]. Bu natija BNPLni elektron savdo korxonalari uchun savdoni rag‘batlantiruvchi instrument sifatida baholash mumkinligini ko‘rsatsa-da, moliyaviy tartibga solish nuqtai nazaridan iste’molchining to‘lov qobiliyati va umumiy qarz yukini baholash masalasini ham yuzaga chiqaradi.

Mazkur xulosani Ackert, Khayati va Kelani tadqiqoti xulq-atvor nuqtai nazaridan to‘ldiradi. Ularning eksperimental tadqiqotida ishtirokchilar BNPL taklif etilganda kredit kartasi taklif etilgan holatga nisbatan xaridni amalga oshirishga ko‘proq moyillik bildirganlar [10]. Mualliflar BNPLdan foydalanish bilan bog‘liq ijtimoiy me’yorlar ham iste’molchilarning qarz olish qarorlariga ta’sir qilishi mumkinligini aniqlaganlar [10]. Demak, muddatli to‘lovni tartibga solishda faqat to‘lov muddati va xarajatlarini emas, balki ushbu moliyaviy instrumentning iste’molchiga qanday taqdim etilishini ham hisobga olish zarur.

Cervellati va hammualliflarning 1 457 nafar italiyalik iste’molchi ishtirokidagi tadqiqoti BNPLning boshqa iste’mol krediti bo‘yicha moliyaviy qarorlar bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi [6]. Bu holat muddatli to‘lov bo‘yicha riskni faqat bitta BNPL shartnomasi doirasida baholash yetarli emasligini anglatadi. Iste’molchining boshqa kredit majburiyatlari ham mavjud bo‘lsa, uning haqiqiy qarz yukini aniqlash uchun majburiyatlarni imkon qadar umumlashtirilgan holda baholash muhimdir.

Tahlil natijasida aniqlangan ikkinchi muhim masala — **moliyaviy axborotning shaffofligi**. Johnson, Rodwell va Hendry BNPL bozorida axborot assimetriyasi mavjudligini tartibga solish bilan bog‘liq muhim muammolardan biri sifatida ko‘rsatadilar [7]. Soni esa BNPLning ayrim iste’molchilar tomonidan kredit sifatida qabul qilinmasligi va faqat an’anaviy kredit mahsulotlariga xos disclosure talablarini BNPLga ko‘chirish yetarli bo‘lmasligi mumkinligini ta’kidlaydi [11]. Shu sababli muddatli to‘lov taklif etilayotgan paytda iste’molchiga to‘lovlar soni va muddati, kechiktirish oqibatlari hamda majburiyatning umumiy qiymati sodda va tushunarli shaklda taqdim etilishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqotlarning qiyosiy tahlili BNPL munosabatlarini faqat **“kreditor–iste’molchi”** munosabati sifatida tartibga solish yetarli emasligini ham ko‘rsatadi. Soni BNPL bozorida merchantlarning xizmatni iste’molchiga taklif qilish va targ‘ib etishdagi rolini hisobga olib, tartibga solish doirasida sotuvchilarning faoliyatiga ham e’tibor qaratish zarurligini asoslaydi [11]. Kumar, Salo va Bezawada ham BNPL tranzaksiyasida iste’molchi, sotuvchi va BNPL provayderidan iborat uch tomonlama munosabat mavjudligini qayd etadilar [5]. Shundan kelib chiqib, elektron savdoda muddatli to‘lov munosabatlarini **iste’molchi – elektron savdo platformasi/sotuvchi – moliyalashtiruvchi subyekt** o‘rtasidagi yaxlit moliyaviy munosabat

sifatida tartibga solish maqsadga muvofiq.

Xorijiy mamlakatlar bo‘yicha natijalar esa yagona tartibga solish modelini barcha bozorlarga bir xil tatbiq etish to‘g‘ri emasligini ko‘rsatadi. Dehghani va hammualliflarning 34 mamlakat bo‘yicha tahlilida uy xo‘jaliklari qarzdorligi va inflyatsiyaning yuqoriligi BNPLdan ko‘proq foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan. Shu bilan birga, tartibga solish sifatining yuqoriligi ham BNPLdan foydalanish darajasi bilan ijobiy bog‘liqlik ko‘rsatgan [8]. Mazkur natijani sababiy bog‘liqlik sifatida emas, balki samarali institutsional muhit moliyaviy innovatsiyalardan foydalanish bilan bir vaqtda mavjud bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatuvchi empirik bog‘liqlik sifatida talqin qilish lozim.

O‘tkazilgan qiyosiy tahlil natijalari asosida elektron savdoda muddatli to‘lov munosabatlarida yuzaga keladigan moliyaviy risklar, ularni tartibga solish yo‘nalishlari hamda mas’uliyatli muddatli to‘lov mexanizmi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik quyidagi konseptual sxemada tizimlashtirildi.



1-rasm. Elektron savdoda muddatli to‘lov munosabatlarini moliyaviy tartibga solishning konseptual mexanizmi

Manba: muallif tomonidan xorijiy tadqiqotlar [5–13] natijalarini qiyosiy umumlashtirish asosida ishlab chiqilgan.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari elektron savdoda muddatli to‘lovlarni moliyaviy tartibga solishning markazida faqat BNPL xizmatining o‘zi emas, balki **iste’molchining to‘lov qobiliyati, umumiy qarz yuki, moliyaviy axborot shaffofligi hamda platforma va moliyalashtiruvchi subyektlarning o‘zaro mas’uliyati** turishi lozimligini ko‘rsatadi. Bunda tartibga solishning maqsadi muddatli to‘lov xizmatlarini cheklash emas, balki ular bilan bog‘liq risk darajasiga mutanosib talablarni shakllantirish orqali mas’uliyatli moliyalashtirish

mexanizmini yaratishdan iborat.

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan qiyosiy tahlil natijalari elektron savdoda muddatli to‘lov, xususan BNPL xizmatlari iste’molchilarning xarid imkoniyatlarini kengaytiruvchi va elektron savdo faolligini rag‘batlantiruvchi moliyaviy instrument ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, xorijiy tadqiqotlarda BNPLdan foydalanish xarajatlarning ortishi, bir nechta moliyaviy majburiyatlarning bir vaqtda shakllanishi, qarz yukining oshishi hamda iste’molchining o‘z moliyaviy majburiyatlarini yetarlicha baholamasligi kabi risklar bilan bog‘liqligi aniqlangan [5, 6, 10].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, elektron savdoda muddatli to‘lov munosabatlarini faqat an’anaviy iste’mol krediti doirasida tartibga solish yetarli emas. Chunki mazkur munosabatlarda iste’molchi va moliyalashtiruvchi subyektdan tashqari elektron savdo platformasi yoki sotuvchi ham faol ishtirok etadi. Shu sababli tartibga solish mexanizmi **“iste’molchi – platforma/sotuvchi – moliyalashtiruvchi subyekt”** o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlarni kompleks ravishda qamrab olishi maqsadga muvofiq [5, 11].

Qiyosiy tahlil asosida quyidagi takliflar shakllantirildi: **birinchidan**, muddatli to‘lov taqdim etishda iste’molchining to‘lov qobiliyatiga mutanosib kreditga layoqatlilik baholashini joriy etish; **ikkinchidan**, bir nechta BNPL va boshqa kredit majburiyatlarining jamlanishi natijasida yuzaga keladigan qarz yukini monitoring qilish mexanizmini rivojlantirish; **uchinchidan**, xaridni tasdiqlashdan oldin to‘lovlar soni va muddati, umumiy moliyaviy majburiyat hamda kechiktirish oqibatlarini standart va tushunarli shaklda oshkor etish; **to‘rtinchidan**, BNPL xizmatini taklif qilish va targ‘ib etishda elektron savdo platformasi, sotuvchi va moliyalashtiruvchi subyektlarning mas’uliyat chegaralarini aniq belgilash; **beshinchidan**, iste’molchilarning moliyaviy va tranzaksiya ma’lumotlaridan foydalanishda shaffoflik hamda tegishli himoya talablarini kuchaytirish [7, 11–13].

Umuman olganda, elektron savdoda muddatli to‘lovlarni tartibga solishning asosiy maqsadi ushbu xizmatlarni cheklash emas, balki **moliyaviy innovatsiyalar rivoji va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydigan mas’uliyatli muddatli to‘lov mexanizmini shakllantirish**dan iborat bo‘lishi lozim. Bunda kreditga layoqatlilik, qarz yuki monitoringi, moliyaviy shaffoflik, platforma va provayder mas’uliyati hamda iste’molchilarni moliyaviy himoya qilish o‘zaro bog‘langan yagona tartibga solish tizimining asosiy elementlari sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Cornelli G., Gambacorta L., Pancotto L. Buy now, pay later: a cross-country analysis // BIS Quarterly Review. – December 2023. – P. 61–75.

2. Consumer Financial Protection Bureau. *Buy Now, Pay Later: Market Trends and Consumer Impacts*. Washington, DC: CFPB, 2022.

3. Consumer Financial Protection Bureau. The Buy Now, Pay Later Market. – Washington, DC: CFPB, 2025.

4. OECD. Supporting informed and safe use of short-term online credit and Buy Now Pay Later through digital financial literacy. – Paris: OECD Publishing, 2025.

5. Kumar A., Salo J., Bezawada R. The effects of buy now, pay later (BNPL) on customers’ online purchase behavior // *Journal of Retailing*. – 2024. – Vol. 100, No. 4. – P. 602–617.

6. Cervellati E.M., Filotto U., Sgrulletti D., Stella G.P. Buy now, pay later consumer credit behavior: impacts on financing decisions // *Qualitative Research in Financial Markets*. – 2026. – Vol. 18, No. 1. – P. 287–299.

7. Johnson D., Rodwell J., Hendry T. Analyzing the impacts of financial services regulation to make the case that Buy-Now-Pay-Later regulation is failing // *Sustainability*. – 2021. – Vol. 13. – Article 1992.

8. Dehghani M.A., Rese A., Karavidas D., Chotisarn N., Dwivedi Y.K. Beyond buy now pay later adoption across markets: Consumer choices and the emergence of save now buy later // *Journal of Retailing and Consumer Services*. – 2026. – Vol. 93. – Article 104961.

9. Financial Conduct Authority. PS26/1: Regulation of Deferred Payment Credit (unregulated Buy Now Pay Later). – London: FCA, 2026.

10. Ackert L.F., Khayati A., Kelani Z. Buy Now, Pay Later Loans, Social Norms, and Consumer Indebtedness // *Journal of Behavioral Finance*. – 2025. – Vol. 26, No. 4. – P. 558–569.

11. Soni S. Regulating Buy Now, Pay Later: Consumer Financial Protection in the Era of Fintech // *Columbia Law Review*. – 2023. – Vol. 123. – P. 2035–2076.

12. O’Brien L., Ramsay I., Ali P. Innovation, Disruption and Consumer Harm in the Buy Now Pay Later Industry: An Empirical Study // *UNSW Law Journal*. – 2024. – Vol. 47, No. 2. – P. 657–698.

13. Loomis J., Cockayne D. A feminist approach to fintech: exploring ‘buy now, pay later’ technologies and consumer fintech // *Journal of Cultural Economy*. – 2025. – Vol. 18, No. 1. – P. 1–17.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

SUG‘URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA RISKNI MOLIYALASHTIRISH USULLARI VA QAYTA SUG‘URTA: MARKAZIY OSIYO SHAROITI

Ubaydullayeva Nargiza Ravshanovna
“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi menejeri.
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchi
E-mail: ubaynargiza@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada sug‘urta va yirik korporativ subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda riskni moliyalashtirishning (risk financing) asosiy usullari – franshizani oshirish va ushlab qolish (self-insured retention), maxsus zahira fondi (funded retention) hamda keptiv tuzilmalar (captive, rent-a-captive, PCC) – nazariy jihatdan tahlil qilinadi va ularning qayta sug‘urta bilan o‘zaro bog‘liqligi ochib beriladi. Tadqiqotda ushbu usullar riskni ushlab qolish va transfer qilish kontinuumi doirasida yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqilib, ularni Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston sug‘urta bozori sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari baholanadi. Muallif riskni moliyalashtirish usullarini ko‘p qatlamli qayta sug‘urta modeli tarkibiy qismi sifatida qo‘llash yondashuvini taklif etadi. Shuningdek, O‘zbekiston sug‘urta bozorining 2019–2025-yillardagi rasmiy statistikasi (mukofotlar dinamikasi, tarkibi va zararlilik koeffitsiyenti) asosida empirik tahlil keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *riskni moliyalashtirish (risk financing), riskni ushlab qolish (retention), riskni transfer qilish, self-insured retention (SIR), maxsus zahira fondi (funded retention), keptiv tuzilmalar (captive, rent-a-captive, PCC), qayta sug‘urta, ko‘p qatlamli qayta sug‘urta modeli, katastrofik ekssedent zarar (Cat XoL), moliyaviy barqarorlik, zararlilik koeffitsiyenti, Markaziy Osiyo, O‘zbekiston sug‘urta bozori.*

МЕТОДЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ РИСКОВ И ПЕРЕСТРАХОВАНИЕ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ: УСЛОВИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Убайдуллаева Наргиза Равшановна
Страховая компания экспортно-импортного страхования «O‘zbekinvest», менеджер.
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека независимый исследователь
E-mail: ubaynargiza@gmail.com

Аннотация. *В статье теоретически анализируются основные методы финансирования рисков (risk financing), применяемые для обеспечения финансовой устойчивости страховых компаний и крупных корпоративных субъектов, — увеличение франшизы и собственного удержания риска (self-insured retention), специальный резервный фонд (funded retention), а также кептивные структуры (captive, rent-a-captive, PCC), и раскрывается их взаимосвязь с перестрахованием. В рамках исследования указанные методы рассматриваются как целостная система в контексте континуума удержания и передачи риска, а также оцениваются возможности их адаптации к условиям Центральной Азии, в частности страхового рынка Узбекистана. Автор предлагает подход, предусматривающий применение методов финансирования рисков*

как составной части многоуровневой модели перестрахования. Кроме того, представлен эмпирический анализ на основе официальной статистики страхового рынка Узбекистана за 2019–2025 годы, включая динамику страховых премий, их структуру и коэффициент убыточности.

Ключевые слова: *финансирование рисков (risk financing), удержание риска (retention), передача риска, self-insured retention (SIR), специальный резервный фонд (funded retention), кептивные структуры (captive, rent-a-captive, PCC), перестрахование, многоуровневая модель перестрахования, катастрофический эксцедент убытка (Cat XoL), финансовая устойчивость, коэффициент убыточности, Центральная Азия, страховой рынок Узбекистана.*

RISK FINANCING METHODS AND REINSURANCE IN ENSURING THE FINANCIAL STABILITY OF INSURANCE COMPANIES: THE CENTRAL ASIAN CONTEXT

Ubaydullayeva Nargiza Ravshanovna
“O‘zbekinvest” Export-Import Insurance Company, Manager.
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Independent Researcher
E-mail: ubaynargiza@gmail.com

Abstract. *The article theoretically analyzes the main risk financing methods used to ensure the financial stability of insurance companies and large corporate entities, including increased deductibles and self-insured retention (SIR), funded retention through special reserve funds, and captive structures (captive, rent-a-captive, and PCC), while examining their interrelationship with reinsurance. Within the study, these methods are considered as an integrated system within the risk retention and risk transfer continuum, and the possibilities of adapting them to the conditions of Central Asia, particularly the insurance market of Uzbekistan, are assessed. The author proposes an approach that incorporates risk financing methods as an integral component of a multi-layer reinsurance model. In addition, an empirical analysis is presented based on official statistics of the Uzbekistan insurance market for 2019–2025, including the dynamics and structure of insurance premiums and the loss ratio.*

Keywords: *risk financing, risk retention, risk transfer, self-insured retention (SIR), funded retention, captive structures (captive, rent-a-captive, PCC), reinsurance, multi-layer reinsurance model, catastrophic excess of loss (Cat XoL), financial stability, loss ratio, Central Asia, Uzbekistan insurance market.*

Kirish

Bugungi kunda moliya bozorlarida yuz berayotgan tezkor o‘zgarishlar, iqtisodiy noaniqliklarning kuchayishi, tabiiy va texnogen katastrofik hodisalar sonining ortishi hamda korporativ faoliyat ko‘lamining kengayishi sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalasini yanada dolzarb qilmoqda. Sug‘urta tashkilotlari o‘z faoliyati davomida turli xil risklarni qabul qilishi sababli ularning moliyaviy holati nafaqat sug‘urta mukofotlari hajmi va investitsiya daromadlariga, balki qabul qilingan risklarning tarkibi, konsentratsiyasi, kutilayotgan zararlar va ularni moliyalashtirish mexanizmlariga ham bevosita bog‘liq. Shu sababli zamonaviy sug‘urta amaliyotida risklarni faqatgina sug‘urta yoki qayta sug‘urta orqali transfer qilish emas, balki ularni maqsadli ravishda ushlab qolish va moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Riskni moliyalashtirish sug‘urta kompaniyalari va yirik korporativ subyektlarning ehtimoliy zararlarini qoplash uchun oldindan moliyaviy resurslarni shakllantirish, riskning

ma’lum qismini o‘z zimmasida qoldirish hamda zararning yuqori darajadagi qismini tashqi moliyaviy mexanizmlar orqali qoplash imkonini beradi. Bunda self-insured retention (SIR), funded retention, oshirilgan franshiza, maxsus rezerv fondlari va keptiv sug‘urta tuzilmalari kabi mexanizmlar alohida o‘rin tutadi. Mazkur instrumentlar riskni to‘liq transfer qilish va to‘liq ushlab qolish o‘rtasida turli darajadagi moliyaviy himoyani shakllantirish imkonini beradi.

Qayta sug‘urta esa sug‘urta kompaniyasining qabul qilgan risklarini qayta taqsimlash, yirik va katastrofik zararlar ta’sirini kamaytirish hamda kapital yetarliligini qo‘llab-quvvatlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, excess of loss, catastrophe excess of loss (Cat XoL) va boshqa qatlamli qayta sug‘urta mexanizmlaridan foydalanish orqali sug‘urta kompaniyalari zararlarni ularning hajmiga qarab turli moliyalashtirish qatlamlariga ajratishi mumkin. Natijada kichik va o‘rtacha zararlar kompaniyaning o‘z mablag‘lari hisobidan qoplanishi, yirik zararlar esa qayta sug‘urta mexanizmlari orqali transfer qilinishi mumkin. Bunday yondashuv risklarni boshqarish xarajatlari va moliyaviy himoya darajasi o‘rtasida muvozanatni shakllantirish imkonini beradi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari sug‘urta bozorlari rivojlanish bosqichida bo‘lib, ularning institutsional tuzilmasi, sug‘urta mahsulotlari tarkibi, qayta sug‘urta amaliyoti va risklarni boshqarish mexanizmlari rivojlangan sug‘urta bozorlaridan ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Mintaqada iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida yirik infratuzilmaviy loyihalarning amalga oshirilishi, tabiiy-iqlimiy xavflarning mavjudligi, korporativ risklarning konsentratsiyasi va sug‘urta bozorlarining xalqaro qayta sug‘urta tizimlari bilan integratsiyalashuvi risklarni moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishni talab etmoqda.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida ham so‘nggi yillarda sug‘urta xizmatlari hajmining kengayishi, sug‘urta kompaniyalari faoliyatining diversifikatsiyalashuvi va risklarni boshqarish tizimlarining takomillashuvi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, sug‘urta portfelining ayrim turlar bo‘yicha konsentratsiyasi, yirik risklarni qoplash zaruriyati va katastrofik zararlar yuzaga kelishi ehtimoli sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda riskni saqlab qolish va qayta sug‘urtalash o‘rtasidagi optimal nisbatni aniqlash masalasini yuzaga keltirmoqda. Shuning uchun O‘zbekiston sharoitida riskni moliyalashtirishning zamonaviy shakllarini o‘rganish va ularni qayta sug‘urta mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirish ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta’minlashda riskni moliyalashtirish va qayta sug‘urta mexanizmlarining o‘zaro bog‘liqligini nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etish, shuningdek, ushbu mexanizmlarni Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston sug‘urta bozori sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot doirasida riskni ushlab qolish, self-insured retention, funded retention, keptiv tuzilmalar va qatlamli qayta sug‘urta mexanizmlarining moliyaviy barqarorlikka ta’siri o‘rganiladi hamda ularni yagona riskni moliyalashtirish tizimi doirasida qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy yondashuv ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalasi, avvalo, risklarni samarali boshqarish, ularni kompaniyaning moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib ushlab qolish hamda ortiqcha risklarni qayta sug‘urta orqali transfer qilish bilan bog‘liq. Risklarni boshqarish nazariyasida korxona va sug‘urta tashkilotlari uchun riskni aniqlash, baholash, moliyalashtirish va nazorat qilish yagona tizim sifatida qaraladi [3]. Shu nuqtayi nazardan, riskni moliyalashtirish mexanizmlarini sug‘urta kompaniyasining umumiy risk-menejment strategiyasidan ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq emas.

Doherty [3] riskni moliyalashtirishni riskni kamaytirish va riskni transfer qilish bilan bir qatorda risk-menejmentning muhim tarkibiy elementi sifatida ko‘rib, korxona o‘z zimmasida qoldiradigan risk hajmi bilan tashqi moliyaviy himoya o‘rtasidagi nisbatni optimal shakllantirish zarurligini asoslaydi. Ushbu yondashuv sug‘urta kompaniyalari uchun self-insured retention va

boshqa retention mexanizmlarining iqtisodiy mohiyatini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [3].

Harrington va Niehaus [4] sug‘urta va risklarni boshqarish masalalarini tahlil qilib, riskni ushlab qolish va uni sug‘urta orqali transfer qilish o‘rtasidagi tanlov sug‘urta tashkilotining kutilayotgan zararlar, kapital imkoniyatlari va sug‘urta xarajatlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, yuqori darajadagi risklarni to‘liq qayta sug‘urtalash o‘rniga, zararlarning ma’lum qismini kompaniyaning o‘zida qoldirish va faqat yirik zararlarni qayta sug‘urta qilish iqtisodiy jihatdan asoslangan risk-moliyalashtirish modeli sifatida qaralishi mumkin [4].

O‘zbekiston sug‘urta bozorining huquqiy asoslarini shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni muhim ahamiyatga ega. Mazkur Qonunda sug‘urta faoliyatini tashkil etish, sug‘urtalovchilarning huquq va majburiyatlari, sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish hamda qayta sug‘urta bilan bog‘liq munosabatlarning huquqiy asoslari belgilangan [1]. Shu sababli O‘zbekistonda riskni moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishda milliy qonunchilik talablari asosiy institutsional omillardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston sug‘urta bozorining rivojlanish dinamikasini baholashda Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan e’lon qilinadigan rasmiy statistik ma’lumotlar alohida ahamiyatga ega. 2019–2025-yillardagi sug‘urta bozori ko‘rsatkichlari sug‘urta mukofotlari hajmi, sug‘urta faoliyatining tarkibi va bozorning umumiy rivojlanish tendensiyalarini baholash imkonini beradi [2]. Mazkur statistik baza sug‘urta kompaniyalarining risklarni qabul qilish hajmi va moliyaviy barqarorligi bilan bog‘liq empirik tahlillarni amalga oshirish uchun muhim manba hisoblanadi [2].

Qayta sug‘urtaning moliyaviy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati Narkayev [5] tomonidan ham alohida ta’kidlangan. Muallif qayta sug‘urtani sug‘urta tashkilotlarining yirik risklarini qayta taqsimlash, zararlarning moliyaviy natijalarga salbiy ta’sirini kamaytirish va sug‘urta majburiyatlarini bajarish barqarorligini ta’minlash vositasi sifatida ko‘rib chiqadi [5]. Bu yondashuv qayta sug‘urtani faqat risk transferi emas, balki sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini qo‘llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida baholash imkonini beradi.

Markaziy Osiyo sharoitida risklarni boshqarish masalasi hududning iqtisodiy va tabiiy-geografik xususiyatlari bilan ham bog‘liq. Asian Development Bank va CAREC dasturi tomonidan tayyorlangan O‘zbekistonning Country Risk Profile hisobotida mamlakatga xos turli iqtisodiy, tabiiy va institutsional risklar tahlil qilingan [6]. Mazkur yondashuv sug‘urta kompaniyalari uchun risklarni geografik, tarmoq va katastrofik xususiyatlariga ko‘ra tabaqalashtirish hamda tegishli moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi [6].

Tabiiy katastrofalar bilan bog‘liq risklarning kuchayishi sug‘urta kompaniyalarining qayta sug‘urta strategiyasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Swiss Re Institute tomonidan tayyorlangan *Natural Catastrophes* hisobotida tabiiy ofatlar bilan bog‘liq iqtisodiy va sug‘urta zararlarining dinamikasi hamda sug‘urta sektorining bunday hodisalarga moliyaviy tayyorgarligi masalalari yoritilgan [7]. Katastrofik risklarning katta hajmdagi zarar keltirib chiqarish ehtimoli sababli bunday risklarni kompaniyaning faqat ichki resurslari hisobidan qoplash moliyaviy barqarorlikka bosim yaratishi mumkin. Shu sababli Cat XoL kabi katastrofik qayta sug‘urta mexanizmlari riskni moliyalashtirishning yuqori qatlamida qo‘llanilishi mumkin [7].

Mavjud adabiyotlarni umumlashtirganda, riskni moliyalashtirishni **riskni ushlab qolish va riskni transfer qilishning uzluksiz tizimi** sifatida ko‘rish mumkin. Bunda odatiy va kichik zararlar kompaniyaning o‘z mablag‘lari yoki maxsus rezervlari hisobidan qoplanishi, o‘rta hajmdagi zararlar retention va qayta sug‘urta kombinatsiyasi orqali boshqarilishi, yirik va katastrofik zararlar esa noproporsional qayta sug‘urta mexanizmlari orqali transfer qilinishi mumkin [3; 4; 5; 7]. Bunday ko‘p qatlamli yondashuv sug‘urta kompaniyasining risk ishtahasi, kapital imkoniyatlari va qayta sug‘urta xarajatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlarda riskni boshqarish, qayta sug‘urta va sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi alohida yo‘nalishlarda keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, **self-insured retention, funded retention, captive/PCC va Cat XoL mexanizmlarini O‘zbekiston va Markaziy Osiyo sug‘urta bozori sharoitida yagona ko‘p qatlamli riskni moliyalashtirish modeli sifatida integratsiyalash** masalasi yetarlicha tizimli tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy-amaliy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda riskni moliyalashtirish va qayta sug‘urta mexanizmlarining o‘rni kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini risklarni boshqarish, riskni ushlab qolish va riskni transfer qilish konsepsiyalari tashkil etadi. Bunda sug‘urta kompaniyasining risk portfeli, moliyaviy imkoniyatlari, sug‘urta mukofotlari, zararlar hajmi hamda qayta sug‘urta imkoniyatlari o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilindi.

Tadqiqotda **tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, dinamik tahlil, tarkibiy tahlil va umumlashtirish** usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv asosida riskni moliyalashtirishning asosiy elementlari — riskni kompaniyaning o‘zida saqlab qolish, maxsus rezervlar shakllantirish, franshizadan foydalanish, qayta sug‘urtalash va katastrofik risklarni transfer qilish yagona mexanizm sifatida ko‘rib chiqildi.

Empirik tahlil O‘zbekiston sug‘urta bozorining **2019–2025-yillardagi rasmiy statistik ma’lumotlari** asosida amalga oshirildi. Sug‘urta mukofotlarining yillar bo‘yicha o‘zgarishi, sug‘urta bozorining tarkibiy tuzilishi va zarar ko‘rsatkichlarining dinamikasi tahlil qilindi. Dinamik tahlil orqali bozor rivojlanishining asosiy tendensiyalari aniqlanib, sug‘urta kompaniyalarining risklarni qoplash imkoniyatlari baholandi.

Tadqiqotda riskni moliyalashtirish mexanizmlari **riskni ushlab qolish va riskni transfer qilish kontinuumi** asosida guruhlandi. Birinchi qatlamda odatiy va nisbatan kichik zararlarni kompaniyaning o‘z mablag‘lari hisobidan qoplash, ikkinchi qatlamda maxsus rezerv va self-insured retention mexanizmlaridan foydalanish, yuqori qatlamlarda esa qayta sug‘urta va katastrofik excess of loss mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari o‘rganildi.

Shuningdek, **captive, rent-a-captive va protected cell company (PCC)** kabi alternativ riskni moliyalashtirish vositalarining Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari nazariy jihatdan baholandi. Ushbu mexanizmlarning afzalliklari va cheklovlari sug‘urta kompaniyalarining kapital imkoniyatlari, risk portfeli va institutsional muhit nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil qilindi.

Metodologik yondashuvning yakuniy bosqichida riskni ushlab qolish va qayta sug‘urtani alohida mexanizmlar sifatida emas, balki **ko‘p qatlamli riskni moliyalashtirish tizimi** sifatida birlashtirish imkoniyati asoslandi. Shu asosda O‘zbekiston sug‘urta bozori uchun riskning kichik, o‘rta, yirik va katastrofik darajalariga mos ravishda turli moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanishni nazarda tutuvchi konseptual yondashuv ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Sug‘urta kompaniyalari va yirik korporativ subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash zamonaviy risk-menejmentning markaziy vazifalaridan biri hisoblanadi. An’anaviy ravishda risklarni boshqarish asosan an’anaviy sug‘urta orqali, ya’ni riskni to‘liq sug‘urta kompaniyasiga transfer qilish yo‘li bilan amalga oshirilgan. Biroq sug‘urta bozorining rivojlanishi, risklarning murakkablashuvi va sug‘urta xarajatlarining oshishi bilan riskni moliyalashtirishning muqobil usullari – riskni ongli ravishda ushlab qolish va uni samarali moliyalashtirishga asoslangan yondashuvlar – tobora keng qo‘llanilmoqda.

Riskni moliyalashtirish (risk financing) – subyekt duch kelishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash uchun moliyaviy resurslarni oldindan rejalashtirish va ta’minlash jarayonidir. U riskni boshqarishning riskni nazorat qilish (sifatli anderrayting, preventiv choralar) bilan bir qatorda

ikkinchi asosiy yo‘nalishini tashkil etadi. Riskni moliyalashtirish usullari riskni ushlab qolish (retention) va riskni transfer qilish (transfer) o‘rtasidagi kontinuumda joylashadi: bir qutbda – riskni to‘liq o‘zida qoldirish, ikkinchi qutbda – uni to‘liq sug‘urta yoki qayta sug‘urtaga berish.

Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston sug‘urta bozori uchun riskni moliyalashtirish usullarini o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Mintaqa bozorlarining kapital sig‘imi nisbatan cheklangan, xorijiy qayta sug‘urtaga bog‘liqligi yuqori va katastrofik (ayniqsa zilzila) risklarga sezgirligi katta. Ushbu sharoitda riskni oqilona ushlab qolish, milliy sig‘imni rivojlantirish va qayta sug‘urta bilan riskni moliyalashtirish usullarini uyg‘unlashtirish sug‘urta tizimining barqarorligini ta’minlashning strategik vazifasiga aylanadi. Mazkur maqolaning maqsadi – riskni moliyalashtirishning asosiy usullarini nazariy tahlil qilish, ularning qayta sug‘urta bilan bog‘liqligini ochib berish va O‘zbekiston bozori sharoitiga tatbiq etish imkoniyatlarini baholashdan iborat.

Tadqiqot nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv usullariga asoslanadi. Riskni moliyalashtirish usullari risk-menejmentning xalqaro amaliyotida shakllangan metodologik yondashuvlar doirasida ko‘rib chiqiladi va O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi qonunchiligi – “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi ZRU-730-sonli Qonun hamda tegishli qarorlar kontekstida tahlil qilinadi. Riskni moliyalashtirish usullari shartli ravishda uchta asosiy guruhga ajratiladi: riskni ushlab qolishning moliyalanmagan shakllari (unfunded retention), moliyalangan shakllari (funded retention) va keptiv tuzilmalar orqali moliyalashtirish. Quyida ularning har biri batafsil ko‘rib chiqiladi. Empirik tahlil uchun O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA) ning 2019–2025-yillardagi rasmiy ma’lumotlaridan foydalanildi; o‘sish sur’atlari, tarkibiy ulushlar va zararlilik (to‘lov) koeffitsiyenti hisoblab chiqildi.

Riskni moliyalashtirishning eng oddiy va keng tarqalgan usuli – franshizani oshirish yoki ushlab qolish darajasini (self-insured retention, SIR) belgilashdir. Bunda subyekt belgilangan darajagacha bo‘lgan zararlarni o‘z hisobidan qoplaydi, undan oshgan qism uchun esa sug‘urta himoyasini saqlab qoladi. Franshiza va SIR o‘rtasida muhim farq bor: franshizada sug‘urtalovchi zararni to‘lab, keyin franshiza miqdorini chegirib tashlaydi; SIRda esa subyekt zararni ushlab qolingan daraja doirasida mustaqil ravishda boshqaradi va to‘laydi.

Agar ushlab qolingan zararlar maxsus fond yaratmasdan, subyektning kundalik operatsion mablag‘lari yoki bo‘sh turgan zaxiralari hisobidan qoplansa, bunday usul moliyalanmagan ushlab qolish (unfunded retention) deb ataladi. Uning asosiy afzalligi – sug‘urta mukofoti miqdorining pasayishi va amalga oshirish soddaligidir: alohida yuridik shaxs yoki maxsus kapital fondi tashkil etish talab etilmaydi. Sug‘urta mukofoti tarkibida nafaqat kutilayotgan zararlar, balki sug‘urtalovchining xarajatlari, kapital tannarxi va foyda marjasi ham mavjud bo‘lganligi sababli, kichik va bashorat qilish mumkin bo‘lgan zararlarni o‘zida qoldirish subyekt uchun iqtisodiy jihatdan foydali bo‘lishi mumkin.

Ushbu usulning afzalliklari past risk profiliga va barqaror, past zararlilik tarixiga ega subyektlar uchun ayniqsa namoyon bo‘ladi. Diversifikatsiyalashgan portfel (masalan, ko‘p sonli alohida obyektlar) sharoitida yirik zararning ushlab qolish darajasidan oshib ketish ehtimoli pasayadi, zararlar esa obyektlar o‘rtasida taqsimlanib, boshqariluvchi bo‘ladi. Bundan tashqari, ushlab qolish darajasining oshishi subyektni riskni faolroq boshqarishga – preventiv choralar ko‘rish, xodimlarni o‘qitish va xavfsizlik nazoratini kuchaytirishga – rag‘batlantiradi, bu esa uzoq muddatli perspektivada zararlar chastotasini kamaytiradi.

Ayni paytda moliyalanmagan ushlab qolishning jiddiy kamchiliklari ham mavjud. Birinchisi – pul oqimining noaniqligi (cash-flow volatility): bir vaqtning o‘zida bir nechta zarar yuz bersa, subyektning pul oqimiga bosim oshib, uning moliyaviy rejalariga putur yetkazishi mumkin. Ikkinchisi – risklarning to‘planishi (aggregation risk): diversifikatsiyaga qaramay, yagona hodisa (masalan, pandemiya yoki tabiiy ofat) ko‘p sonli obyektlarni bir vaqtda qamrab olishi mumkin. Shu bois moliyalanmagan ushlab qolish faqat past og‘irlikdagi, bashorat qilinadigan risklarga nisbatan qo‘llanilishi, yirik va katastrofik risklar uchun esa sug‘urta yoki

qayta sug‘urta saqlanib qolishi lozim.

Riskni moliyalashtirishning ikkinchi usuli – moliyalangan ushlab qolish (funded retention), ya’ni ushlab qolingan zararlarni qoplash uchun oldindan maxsus zahira fondi tashkil etishdir. Moliyalanmagan usuldan farqli ravishda, bunda subyekt operatsion mablag‘larni ishlatmasdan, bo‘lajak zararlarni qoplash uchun doimiy ravishda belgilangan miqdordagi mablag‘ni maxsus hisobda zaxiraga yo‘naltiradi. Zarar yuz berganda to‘lov ushbu zahira fondi hisobidan amalga oshiriladi, yirik zararlar uchun esa sug‘urta yoki qayta sug‘urta saqlanib qoladi.

Ushbu usulning asosiy afzalligi – moliyaviy aniqlik va pul oqimini himoya qilishdir. Zahira fondi oldindan shakllantirilgani sababli, zarar yuz berganda subyekt xodimlar oyligi, ijara yoki investitsiya kabi maqsadlarga mo‘ljallangan mablag‘larni to‘satdan ishlatishga majbur bo‘lmaydi. Ikkinchi muhim afzallik – kapitalning subyekt ichida yig‘ilishi: mablag‘lar tashqi sug‘urtaga ketib qolmasdan, subyektning o‘z zaxirasida saqlanadi va sug‘urtada qoplanmaydigan (masalan, ayrim istisno risklar) zararlar uchun qo‘shimcha likvidlik manbai bo‘lib xizmat qiladi. Uchinchidan, zaxiradagi mablag‘lar zararlarni qoplashga kerak bo‘lmagunicha davlat obligatsiyalari yoki depozitlarga joylashtirilib, investitsion daromad keltirishi mumkin. To‘rtinchidan, ushbu usul kichik og‘irlikdagi zararlarni zahira hisobidan qoplab, yirik risklarni sug‘urtaga qoldirish orqali an’anaviy sug‘urtaga ehtiyojni va sug‘urta mukofoti miqdorini kamaytiradi.

Moliyalangan ushlab qolishning kamchiliklari ham e’tiborga olinishi lozim. Birinchisi – kapitalning “muzlatilishi”: zaxiradagi mablag‘lar subyektning o‘sishiga, yangi loyihalarga yoki investitsiyalarga ishlatilmaydi. Ikkinchisi – zahiraning optimal miqdorini aniqlashning murakkabligi: ortiqcha zaxira mablag‘larning bekor turishiga, yetarli bo‘lmagan zaxira esa yirik zarar paytida yetishmovchilikka olib keladi. Uchinchisi – tarixiy ma’lumotlarga tayanib belgilangan limitlar kelajakda ham o‘sha tarzda amal qilishini kafolatlamaydi, ayniqsa kamyob va og‘ir hodisalar sharoitida. To‘rtinchisi – buxgalteriya, soliq va tartibga solish talablari: sug‘urta mukofotlaridan farqli ravishda, o‘z zaxiralari ko‘pincha soliqqa tortiladigan bazadan zararli hodisa yuz bermagunicha chiqarilmaydi, bu esa usulning moliyaviy afzalligini qisman kamaytirishi mumkin.

Riskni moliyalashtirishning eng rivojlangan shakli – keptiv sug‘urta kompaniyasini (captive) tashkil etishdir. Keptiv – asosiy faoliyati sug‘urta bo‘lmagan subyekt yoki guruh tomonidan o‘z risklarini sug‘urtalash uchun tashkil etilgan sug‘urta kompaniyasidir. U moliyalangan ushlab qolish va riskni transfer qilish elementlarini o‘zida uyg‘unlashtiradi: keptiv zaxiralarni yig‘ib, ushlab qolingan zararlarni to‘laydi, yirik risklar uchun esa tashqi bozorda qayta sug‘urta sotib oladi. Bunda anderrayting foyda chakana sug‘urta kompaniyasiga ketib qolmasdan, guruh ichida saqlanib qoladi.

Keptivning asosiy afzalliklari bir nechta. Birinchidan, sug‘urta mukofotlari miqdorining potensial kamayishi va anderrayting foydaning guruh ichida qolishi: yaxshi zararlilikka ega yirik, diversifikatsiyalashgan portfelga ega subyektlar keptiv orqali mukofotlarning sezilarli qismini yig‘ilgan daromad shaklida o‘ziga qaytarib olishi mumkin. Ikkinchidan, qayta sug‘urta bozoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘l: keptiv bashorat qilinadigan zararlarni o‘zida ushlab qolib, yirik va katastrofik risklarni bevosita qayta sug‘urtaga joylaydi va chakana sug‘urtaning marja hamda xarajatlarini chetlab o‘tadi. Uchinchidan, qoplamalarning moslashuvchanligi: keptiv standart sug‘urta polislarida istisno bo‘lgan risklarni ham sug‘urtalashi mumkin. To‘rtinchidan, investitsion daromad – moliyalangan ushlab qolishdagi kabi.

To‘laqonli keptiv tashkil etishning muqobillari sifatida rent-a-captive va PCC (Protected Cell Company) tuzilmalaridan foydalanish mumkin. Rent-a-captive’da subyekt alohida keptiv yaratmasdan, boshqa sug‘urta kompaniyasida mavjud keptiv tuzilmasidan foydalanadi, ya’ni tayyor kapital va xizmatlarni ijaraga oladi. PCC’da esa subyekt tayyor keptiv kompaniya ichida alohida “yacheyka” (cell) oladi: ushbu yacheykaning aktivlari va majburiyatlari boshqa yacheykalardan ajratilgan holda saqlanadi, faqat ma’muriy xarajatlar (buxgalteriya, audit, boshqaruv) a’zolar o‘rtasida taqsimlanadi.

Keptiv tuzilmalarning kamchiliklari, asosan, xarajatlar va murakkablik bilan bog‘liq. Birinchidan, alohida keptiv bo‘ladimi yoki ijaraga olinadimi, u qo‘shimcha xarajat – kapital, buxgalteriya, qonunchilik, boshqaruv, audit va mutaxassislar xarajatini talab qiladi. Ikkinchidan, keptiv alohida litsenziyaga ega va tartibga soluvchi talablarga rioya qilishi lozim bo‘lgan kompaniya bo‘lib, asosiy faoliyati sug‘urta bo‘lmagan subyekt uchun bu qo‘shimcha normativ yuklama yaratadi. Uchinchidan, keptiv to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishi uchun yetarli miqdordagi sug‘urta mukofotini yig‘a olishi zarur; kichik hajmdagi risklar uchun rent-a-captive yoki PCC kamroq xarajatli va maqsadga muvofiqroq yechim bo‘lishi mumkin.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan uchta usul – ushlab qolish, maxsus zahira va keptiv – yagona kontinuumning turli bosqichlarini tashkil etadi. Ularning hech biri riskni transfer qilish, ya’ni sug‘urta va qayta sug‘urtani to‘liq o‘rnini bosa olmaydi; aksincha, ular qayta sug‘urta bilan uzviy bog‘liq va birgalikda riskni boshqarishning yaxlit arxitekturasini tashkil etadi. Barcha usullarda umumiy tamoyil amal qiladi: past og‘irlikdagi, bashorat qilinadigan zararlar subyekt tomonidan ushlab qolinadi va moliyalanadi, yirik hamda katastrofik risklar esa qayta sug‘urtaga transfer qilinadi.

Markaziy Osiyo va O‘zbekiston sug‘urta bozori sharoitida ushbu usullarni qo‘llash bir qator o‘ziga xos imkoniyatlar va cheklovlarga ega. Bir tomondan, milliy bozorning xorijiy qayta sug‘urtaga yuqori bog‘liqligi sharoitida riskni oqilona ushlab qolish va milliy sig‘imni rivojlantirish mablag‘larning mamlakatdan tashqariga oqib chiqishini kamaytiradi. O‘zbekistonda bu yo‘nalishdagi davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda: Prezidentning 2025-yil 23-maydagi PP-191-sonli qarori bilan milliy qayta sug‘urta sig‘imiga ustuvorlik berish mexanizmi joriy etildi va ustav kapitali kamida 300,0 mlrd. so‘m bo‘lgan milliy qayta sug‘urta kompaniyasi tashkil etildi. Ushbu choralar riskni moliyalashtirishning milliy darajadagi shakllarini rivojlantirish uchun huquqiy va institutsional asos yaratadi.

Ikkinchi tomondan, mintaqaning yuqori seysmik faolligi va katastrofik risklarga sezgirligi riskni moliyalashtirish usullarini qo‘llashda ehtiyotkorlikni talab qiladi. Ushlab qolish va zaxira fondlari faqat bashorat qilinadigan, past og‘irlikdagi risklarga nisbatan samarali bo‘lib, katastrofik risklar uchun ular qayta sug‘urta va katastrofik moliyalashtirish mexanizmlari bilan to‘ldirilishi shart. Aynan shu bois muallif milliy darajada katastrofik risklarni qoplash uchun maxsus katastrofik fond tashkil etish va uni ko‘p qatlamli qayta sug‘urta modeli bilan uyg‘unlashtirish zaruratini ta’kidlaydi.

Riskni moliyalashtirish usullarini tanlash bozorning hajmi, o‘sish dinamikasi va zararlilik darajasiga bevosita bog‘liq. Ushbu davr mobaynida yalpi sug‘urta mukofotlari 2 313,9 mlrd. so‘mdan 13 463,5 mlrd. so‘mga yetdi, ya’ni 5,8 barobar oshdi (o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati – CAGR ≈ 34,1%). Bozorning bunday jadal o‘sishi milliy sug‘urta sig‘imining kengayishi va riskni ushlab qolish (retention) imkoniyatlarining ortishi uchun zamin yaratadi (1-jadval).

1-jadval.

O‘zbekiston sug‘urta bozorining asosiy ko‘rsatkichlari (2019–2025 yy.)*

Yil	Mukofotlar, mlrd. so‘m	O‘sish sur’ati, %	To‘lovlar, mlrd. so‘m	To‘lov koeffitsiyenti,%
2019	2 313,9	–	813,5	35,2
2020	2 213,7	-4,3	737,6	33,3
2021	3 732,0	68,6	1 235,1	33,1
2022	6 231,7	67,0	2 596,9	41,7
2023	8 059,7	29,3	2 022,1	25,1
2024	9 770,1	21,2	2 204,5	22,6
2025	13 463,5	37,8	2 985,5	22,2

**Manba: ILMA ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.*

Umumiy to‘lov (zararlilik) koeffitsiyenti past va pasayib bormoqda: 2019-yildagi 35,2% dan 2025-yilda 22,2% gacha. Past zararlilik riskni ushlab qolishning (SIR va funded retention) iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi: bashorat qilinadigan, past og‘irlikdagi

zararlarni o‘zida qoldirish sug‘urta mukofoti tarkibidagi xarajat va foyda marjasini tejash imkonini beradi. Ayni paytda past zararlilik bozorning katastrofik risklarga kam ta’sirlanganini emas, balki bunday risklarning hali yetarlicha sug‘urtalanmaganini aks ettiradi.

Aynan shu tamoyil ko‘p qatlamli qayta sug‘urta modeli asosini tashkil etadi. Ushbu modelda riskni ushlab qolish (uning moliyalanmagan yoki moliyalangan shakli, shuningdek keptiv orqali) birinchi qatlamni, proporsional va noproporsional qayta sug‘urta esa keyingi qatlamlarni tashkil etadi; katastrofik zararlar uchun katastrofik zarar ekssedenti (Cat XoL) va parametrik vositalar qo‘llaniladi. Shunday qilib, riskni moliyalashtirish usullari – bu qayta sug‘urtaga muqobil emas, balki uni to‘ldiruvchi va optimallashtiruvchi vositalardir: ular ushlab qolish darajasini samarali moliyalashtirish orqali qayta sug‘urta dasturining umumiy tannarxini pasaytiradi.

Keptiv tuzilmalarga kelsak, ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash hozircha boshlang‘ich bosqichda bo‘lib, tegishli huquqiy baza va bozor infratuzilmasining rivojlanishini talab qiladi. Ayni paytda rent-a-captive va PCC kabi moslashuvchan tuzilmalar yirik milliy korporatsiyalar va eksportyorlar uchun istiqbolli vosita bo‘lishi mumkin, ayniqsa investitsiya loyihalari va yirik korporativ risklarni moliyalashtirishda. Ushbu yo‘nalishni rivojlantirish mintaqa sug‘urta bozorining xalqaro amaliyotga integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Bozor tarkibida ixtiyoriy umumiy (non-life) sug‘urta ustunlik qiladi: uning yalpi mukofotlardagi ulushi 2019-yildagi 62,2% dan 2025-yilda 89,6% gacha oshdi, majburiy sug‘urtaning ulushi esa 7,1% gacha pasaydi. Segmentlar bo‘yicha zararlilik keskin farqlanadi (2-jadval): non-life da u nisbatan past (2025-yilda ≈20,6%), demak bu segmentda ushlab qolish darajasini oshirish o‘rinli; majburiy sug‘urtada zararlilik yuqoriroq (40–52%), hayot sug‘urtasida esa jamg‘arma tabiati sababli ayrim yillarda 99% gacha yetgan. Yuqori zararlilikka ega turlarda transfer (qayta sug‘urta) ustuvor bo‘lib qoladi.

2-jadval.

Segmentlar bo‘yicha zararlilik (to‘lov) koeffitsiyenti (%)*

Yillar / Sug‘urta turlari	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Majburiy	30,2	37,0	38,0	46,7	37,3	52,4	42,3
Ixtiyoriy umumiy (non-life)	13,7	19,1	17,2	20,5	18,8	19,6	20,6
Hayot sug‘urtasi	92,9	102,7	87,9	99,4	172,0	50,1	20,6

**Manba: ILMA ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.*

Bozorning jadal o‘sishiga qaramay, katastrofik (ayniqsa seysmik) risklarni qoplash darajasi past: ADB/CAREC baholashlariga ko‘ra turar joylarning atigi 10% ga yaqini sug‘urtalangan, yer qimirlashdan o‘rtacha yillik kutilayotgan zarar 214 mln. dollarni, 475-yilda bir takrorlanadigan ssenariyda esa 4,6 mlrd. dollarni tashkil etishi mumkin. Bunday sharoitda moliyalanmagan ushlab qolish yetarli emas: katastrofik qatlam uchun maxsus zahira fondi (funded retention), katastrofik ekssedent zarar (Cat XoL) qayta sug‘urtasi, ILS/katastrofik obligatsiyalar, parametrik sug‘urta va milliy katastrofik risklar fondi kabi mexanizmlar zarur. Shunday qilib, empirik tahlil yuqorida bayon etilgan riskni moliyalashtirish usullarini ko‘p qatlamli qayta sug‘urta modeli doirasida uyg‘unlashtirish zaruratini tasdiqlaydi.

O‘tkazilgan tahlil riskni moliyalashtirishning asosiy usullari – franshizani oshirish va ushlab qolish, maxsus zahira fondi hamda keptiv tuzilmalar – sug‘urta va yirik korporativ subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim vosita ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu usullar riskni ushlab qolish va transfer qilish kontinuumida joylashib, qayta sug‘urtaga muqobil emas, balki uni to‘ldiruvchi va optimallashtiruvchi mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston sug‘urta bozori sharoitida riskni moliyalashtirish usullarini qo‘llash milliy sig‘imni rivojlantirish, xorijiy qayta sug‘urtaga bog‘liqlikni kamaytirish

va sug‘urta dasturlari tannarxini optimallashtirish imkonini beradi. Ayni paytda mintaqaning yuqori katastrofik risk profili ushbu usullarni qayta sug‘urta va katastrofik moliyalashtirish mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Muallif riskni moliyalashtirish usullarini ko‘p qatlamli qayta sug‘urta modeli tarkibiy qismi sifatida qo‘llash, milliy qayta sug‘urta infratuzilmasini mustahkamlash hamda keptiv va PCC kabi moslashuvchan tuzilmalarni bosqichma-bosqich joriy etish zaruratini asoslaydi. Ushbu yondashuv O‘zbekiston sug‘urta bozorining moliyaviy barqarorligini va xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash faqat sug‘urta mukofotlarini oshirish yoki risklarni to‘liq qayta sug‘urtalash bilan cheklanmaydi. Moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun riskni kompaniyaning o‘zida oqilona ushlab qolish, ichki moliyaviy rezervlardan foydalanish va yuqori darajadagi risklarni qayta sug‘urta orqali transfer qilish mexanizmlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish talab etiladi.

Tadqiqot davomida riskni moliyalashtirishning **self-insured retention, funded retention, oshirilgan franshiza va keptiv tuzilmalar** kabi mexanizmlari sug‘urta kompaniyalarining risklarni boshqarish imkoniyatlarini kengaytirishi aniqlandi. Bunday mexanizmlardan foydalanish kompaniyaga kichik va tez-tez takrorlanadigan zararlarni o‘z mablag‘lari hisobidan qoplash, katta hajmdagi zararlarni esa tashqi moliyaviy himoya mexanizmlari orqali qoplash imkonini beradi.

Qayta sug‘urta mexanizmlari, ayniqsa **excess of loss va Cat XoL**, yirik hamda katastrofik zararlarning sug‘urta kompaniyasi kapitaliga ta’sirini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, qayta sug‘urtaga haddan tashqari bog‘lanish qayta sug‘urta xarajatlarining oshishi va tashqi qayta sug‘urtalovchilarga qaramlikni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli qayta sug‘urta hajmini kompaniyaning risk ishtahasi, kapital yetarliligi, zararlar chastotasi va portfel tarkibiga mos ravishda belgilash maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston sug‘urta bozorining 2019–2025-yillardagi ko‘rsatkichlarini tahlil qilish sug‘urta xizmatlari bozorining rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi. Biroq bozorning yanada rivojlanishi bilan bir qatorda yirik korporativ risklar, tabiiy katastrofalar va boshqa yuqori darajadagi risklarni moliyalashtirishga bo‘lgan ehtiyoj ham ortadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalarida an’anaviy qayta sug‘urta mexanizmlari bilan bir qatorda zamonaviy risk-financing instrumentlarini bosqichma-bosqich joriy etish muhim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi **takliflar** ishlab chiqildi:

1. **Ko‘p qatlamli riskni moliyalashtirish modelini joriy etish.** Sug‘urta kompaniyalarida risklarni kichik, o‘rta, yirik va katastrofik zararlar bo‘yicha tabaqalashtirib, har bir qatlam uchun alohida moliyalashtirish mexanizmini belgilash maqsadga muvofiq. Kichik zararlar ichki mablag‘lar hisobidan, yirik zararlar qayta sug‘urta, katastrofik zararlar esa Cat XoL kabi mexanizmlar orqali qoplanishi mumkin.
2. **Self-insured retention mexanizmini rivojlantirish.** Moliyaviy jihatdan barqaror sug‘urta kompaniyalariga riskning ma’lum qismini o‘zida ushlab qolish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bunda retention darajasi kompaniyaning kapitali, likvidligi, zararlar tarixi va risk portfeliga muvofiq belgilanishi lozim.
3. **Maxsus risk-rezerv fondlarini takomillashtirish.** Kutilayotgan yirik zararlarni qoplash uchun maqsadli rezervlar shakllantirish sug‘urta kompaniyasining qayta sug‘urtaga bo‘lgan ehtiyojini qisman kamaytirishi va moliyaviy barqarorlikni oshirishi mumkin.
4. **Cat XoL qayta sug‘urtasidan foydalanishni kengaytirish.** Tabiiy ofatlar va boshqa katastrofik hodisalar bilan bog‘liq risklar uchun alohida qayta sug‘urta qatlamlarini shakllantirish, ayniqsa yirik korporativ va infratuzilmaviy loyihalarni sug‘urtalashda muhim ahamiyatga ega.
5. **Keptiv sug‘urta mexanizmlarini o‘rganish va institutsional jihatdan rivojlantirish.** Yirik korporativ guruhlar uchun captive, rent-a-captive va PCC modellaridan foydalanish

imkoniyatlarini o‘rganish, ularning huquqiy va iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

6. **Qayta sug‘urta dasturlarini risk ishtahasi bilan bog‘lash.** Qayta sug‘urta shartnomalarini tuzishda faqat sug‘urta mukofotlari hajmi emas, balki kompaniyaning kapital yetarliligi, likvidligi, zararlar chastotasi va maksimal ehtimoliy zarari ham hisobga olinishi kerak.

7. **Risklarni muntazam stress-test qilish tizimini rivojlantirish.** Sug‘urta kompaniyalari tabiiy ofatlar, yirik korporativ zararlar, qayta sug‘urtalovchining majburiyatlarini bajarmasligi va likvidlik yetishmovchiligi kabi ssenariylar asosida stress-testlarni muntazam o‘tkazishi zarur.

8. **Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida qayta sug‘urta hamkorligini kuchaytirish.** Mintaqadagi sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida risklarni diversifikatsiya qilish, qayta sug‘urta imkoniyatlarini kengaytirish va katastrofik risklar bo‘yicha qo‘shma mexanizmlarni shakllantirish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, O‘zbekiston sharoitida sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun **“retention + reserve + reinsurance + catastrophe protection”** tamoyiliga asoslangan ko‘p qatlamli riskni moliyalashtirish modelini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv risklarni kompaniya va qayta sug‘urta bozori o‘rtasida optimal taqsimlash, yirik zararlarning kapitalga salbiy ta’sirini kamaytirish va sug‘urta kompaniyalarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2021-yil 23-noyabr, O‘RQ-730-son. – LexUZ.

2. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA). *Sug‘urta bozori ko‘rsatkichlari: 2019–2025 yy.* – URL: napp.uz

3. Doherty, N. A. *Integrated Risk Management: Techniques and Strategies for Managing Corporate Risk.* – New York: McGraw-Hill, 2000.

4. Harrington, S. E., Niehaus, G. R. *Risk Management and Insurance*. 2nd ed. – New York: McGraw-Hill/Irwin, 2003.

5. Narkayev, V. F. *Perestraxovaniye kak instrument obespecheniya finansovoy ustoychivosti straxovых organizatsiy*. – Moskva, 2011.

6. Asian Development Bank; CAREC Program. *Country Risk Profile: Uzbekistan*. – Manila: ADB, 2022.

7. Swiss Re Institute. *Natural Catastrophes*. Sigma No. 1/2025. – Zurich: Swiss Re Institute, 2025.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

XORAZM VILOYATI EKSPORT SALOHIYATINI BAHOLASH: 2010–2024 YILLAR TENDENSIYALARI VA DIVERSIFIKATSIYA IMKONIYATLARI

Xolmurotov Fozil Saribayevich

buxgalteriya hisobi kafedrasi dotsenti
Ma’mun Universiteti
E-mail: xolmurodov_fozil@mamunedu.uz
ORCID: 0000-0003-2745-1832

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot Xorazm viloyatining O‘zbekistondagi eksport salohiyatini o‘rganib, uning iqtisodiy ahamiyati va diversifikatsiya imkoniyatlariga e’tibor qaratadi. Tadqiqot 2010 yildan 2024 yilgacha bo'lgan eksport tendentsiyalarini tahlil qilish uchun ham sifat, ham miqdoriy usullarni qo'llaydi, paxta va meva kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ta'kidlaydi. Muhim xulosalar paxta eksportidan rivojlangan transport infratuzilmasi va rivojlanayotgan bozor talablari bilan qo'llab-quvvatlanadigan ko'p tarmoqli qishloq xo'jaligi mahsulotlariga sezilarli siljish borligini ko'rsatadi. Regressiya va korrelyatsiya tahlillari eksport faoliyatining mintaqaviy rivojlanishga iqtisodiy ta'sirini ko'rsatib, logistika va innovatsiyalarning muhim rolini ta'kidlaydi. Tadqiqot sanoatni diversifikatsiya qilishdagi muammolarni hal qilish va strategik siyosatlar orqali eksport raqobatbardoshligini oshirish uchun amaliy tavsiyalar beradi. Ushbu tushunchalar barqaror mintaqaviy iqtisodiy o'sish va xalqaro savdo integratsiyasi bo'yicha kengroq munozaraga hissa qo'shadi.*

Kalit so’zlar: *Xorazm viloyati, Eksportni diversifikatsiya qilish, Iqtisodiy rivojlanish, Logistika, Xalqaro savdo.*

ПОТЕНЦИАЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ЭКСПОРТА В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ ОЦЕНКА

Холмуротов Фозил Сарибаевич

доцент кафедры бухгалтерский учет
Университет Мамуна
E-mail: kholmurodov_fozil@mamunedu.uz
ORCID: 0000-0003-2745-1832

Аннотация. *В данном исследовании рассматривается экспортный потенциал Хорезмской области Узбекистана с упором на ее экономическое значение и возможности диверсификации. В исследовании используются как качественные, так и количественные методы для анализа тенденций экспорта с 2010 по 2024 год, при этом особое внимание уделяется сельскохозяйственной продукции, такой как хлопок и фрукты. Важные результаты указывают на значительный сдвиг от экспорта хлопка к диверсифицированной сельскохозяйственной продукции, поддерживаемой развитой транспортной инфраструктурой и потребностями развивающихся рынков. Регрессионный и корреляционный анализ демонстрируют экономическое влияние экспортной деятельности на региональное развитие, подчеркивая важную роль логистики и инноваций. В исследовании даны практические рекомендации по решению проблем промышленной диверсификации и повышению конкурентоспособности экспорта посредством стратегической политики. Эти идеи вносят вклад в более широкую дискуссию по вопросам устойчивого регионального экономического роста и международной торговой интеграции.*

Ключевые слова*: Хорезмская область, Диверсификация экспорта, Экономическое развитие, Логистика, Международная торговля.*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

POTENTIAL OPPORTUNITIES FOR EXPORT DEVELOPMENT IN KHOREZM REGION AND THEIR ASSESSMENT

Kholmurotov Fozil Saribayevich

Associate Professor
Department of Accounting
Mamun University
E-mail: xolmurodov_fozil@mamunedu.uz
ORCID: 0000-0003-2745-1832

Abstract*. This study examines the export potential of Khorezm region in Uzbekistan, focusing on its economic importance and diversification opportunities. The study uses both qualitative and quantitative methods to analyze export trends from 2010 to 2024, highlighting agricultural products such as cotton and fruits. Key findings show a significant shift from cotton exports to diversified agricultural products supported by a developed transport infrastructure and emerging market demands. Regression and correlation analyses demonstrate the economic impact of export activities on regional development, highlighting the important role of logistics and innovation. The study provides practical recommendations for addressing challenges in industrial diversification and enhancing export competitiveness through strategic policies. These insights contribute to the broader debate on sustainable regional economic growth and international trade integration.*

Keywords*: Khorezm region, Export diversification, Economic development, Logistics, International trade.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlaridan biri eksport salohiyatini oshirish va uni diversifikatsiya qilishdir. Bu jarayon mamlakatning umumiy iqtisodiy barqarorligiga erishish va xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashuvni kuchaytirish maqsadlarini amalga oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ayniqsa, Xorazm viloyati o‘zining strategik geografik joylashuvi, boy tabiiy resurslari va rivojlangan qishloq xo‘jaligi bilan mamlakatning iqtisodiy o‘sishida muhim rol o‘ynaydi.

Xorazm viloyati iqtisodiyoti asosan qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga tayanib, bu yerda paxta, meva-sabzavot va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiriladi. Ushbu mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi viloyat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, viloyatdagi eksport hajmining o‘sishi nafaqat iqtisodiy daromadlarni oshiradi, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, infratuzilmani yaxshilash va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Biroq, viloyat eksport salohiyatini to‘liq ishga solishda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, mahsulot diversifikatsiyasining yetarli darajada rivojlanmagani, ishlab chiqarishning qo‘shimcha qiymat yaratishga yo‘naltirilmaganligi va transport-logistika infratuzilmasidagi cheklovlar eksport salohiyatidan samarali foydalanishni cheklamoqda. Shu sababli, Xorazm viloyatida eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqish zarur.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Xorazm viloyatidagi eksport salohiyatini tahlil qilish, mavjud imkoniyatlarni baholash va uni rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda viloyat eksportining tarkibiy o‘zgarishlari, asosiy mahsulot turlari va ularning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, eksportning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri va mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘llari o‘rganiladi.

Shunday qilib, tadqiqot Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratadi. Bu nafaqat viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish, balki butun O‘zbekistonning eksport salohiyatini mustahkamlashda muhim qadam bo‘ladi.

Adabiyotlar sharhi

Xorazm viloyatida eksport salohiyatini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va O‘zbekiston Respublikasining kengroq iqtisodiy strategiyasiga mos kelishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu strategiya barqaror iqtisodiy o'sishga, raqobatbardoshlikni oshirishga va xalqaro bozorda kuchli ishtirok etishga urg'u beradi. Xorazm viloyati o‘zining noyob sanoat va qishloq xo‘jaligi imkoniyatlariga ega bo‘lib, bu davlat dasturida muhim o‘rin tutadi. Eksportni diversifikatsiya qilish va rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibor mintaqaning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan strategik yo‘nalishlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Eksportni diversifikatsiya qilish O‘zbekiston iqtisodiy strategiyasining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, u cheklangan turdagi tovarlarga qaramlikni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni oshirishga qaratilgan[1]. Xorazm viloyati strategiyasi eksport salohiyatini oshirish maqsadida mashinasozlik va paxta-to‘qimachilik kabi sanoat klasterlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi[2]. Diversifikasiya bo‘yicha sa’y-harakatlar yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradigan siyosatlar bilan qo‘llab-quvvatlanadi, bu esa mintaqaning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi[3].

Eksportni diversifikatsiya qilish global bozor tebranishlari bilan bog'liq xavflarni yumshatish va mintaqaning tashqi iqtisodiy o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikka yordam beradi[4]. Xorazm viloyatini rivojlantirish strategiyasi barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va uning iqtisodiy salohiyati samaradorligini oshirishga e’tibor qaratgan holda milliy maqsadlarga hamohangdir[5]. Mintaqaviy rivojlanishning milliy iqtisodiy siyosat bilan integratsiyalashuvi Xorazm viloyatining O‘zbekistonning umumiy iqtisodiy barqarorligiga sezilarli hissa qo‘shishini ta’minlaydi[6].

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy strategiyasi yangi bozorlarni ochib, eksport raqobatbardoshligini oshirishga qodir bo'lgan JST kabi xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishni o'z ichiga oladi. Markaziy Osiyoda, jumladan, Xorazm viloyatida transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish savdo aloqalarini yaxshilash va eksport o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega[7]. Siyosiy tashabbuslar tartibga soluvchi islohotlar va asosiy tarmoqlarga sarmoya kiritish orqali eksport o‘sishi uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan.

O‘zbekistonning iqtisodiy strategiyasida eksportni diversifikatsiya qilish va rivojlantirish, xususan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Xorazm kabi agrar hududlarda alohida e’tibor qaratilgan. Mamlakatda ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, innovatsiyalarni joriy etish borasidagi sa’y-harakatlar eksport imkoniyatlarini kengaytirish va qo‘shimcha qiymat yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq institutsional islohotlar, infratuzilmaga sarmoya kiritish, mintaqaviy va milliy ustuvorliklarni muvozanatlash kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Eksportni diversifikatsiya qilish iqtisodiy o'sish uchun juda muhim, chunki u eksportning beqarorligi va birlamchi mahsulotlar bilan bog'liq savdo shartlarining salbiy ta'sirini bartaraf etishga yordam beradi[8]. O'zbekiston strategiyasi yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushini oshirish va xizmatlar eksportini kengaytirishni o'z ichiga oladi. Eksportning diversifikatsiyasi aholi jon boshiga daromadlar o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini empirik dalillar ko‘rsatmoqda, xususan, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda.

Eksportni tezroq diversifikatsiya qilish uchun iqtisodiy siyosatning kompleks chora-tadbirlari, jumladan savdo, investitsion va sanoat siyosati zarur. Institutsional islohotlar mintaqaviy rivojlanishning huquqiy asoslarini takomillashtirish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash uchun muhim ahamiyatga ega[9]. Infratuzilmaga investitsiyalar eksport faoliyati va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun juda muhim[10].

O‘zbekistonning mintaqaviy integratsiya strategiyasi mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash va Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan[11]. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish

maqsadida maxsus iqtisodiy zonalar (EIZ) tashkil etilmoqda. 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida asosiy e’tibor iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, inson kapitaliga sarmoya kiritish va inklyuziv o‘sishni ta’minlash uchun qishloq taraqqiyotini rag‘batlantirishga qaratilgan.

O‘zbekistonda eksportni diversifikatsiya qilish va rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibor istiqbolli bo‘lsa-da, qashshoqlikni kamaytirish va barqaror iqtisodiy o‘sish kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Mamlakatning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) integratsiyalashuvi raqobatbardosh eksport uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratishi mumkin, biroq u global ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni puxta ko‘rib chiqishni ham taqozo etadi. Uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik va o‘sishga erishish uchun institutsional islohotlar, infratuzilmaga sarmoya kiritish, mintaqaviy va milliy ustuvorliklarni muvozanatlash borasidagi sa’y-harakatlarni davom ettirish zarur.

Jahon banki va xalqaro moliya institutlari tomonidan e’lon qilingan hisobotlar esa O‘zbekistonning xalqaro savdo aloqalarini diversifikatsiya qilish va mintaqaviy integratsiyadagi rolini kuchaytirishning dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Xorazm viloyatining eksport imkoniyatlarini rivojlantirish uchun transport va logistika infratuzilmasini yaxshilash muhim ekani ko‘p tadqiqotlarda qayd etilgan.

Shuningdek, Xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari Xorazm viloyatida eksportning tarkibiy o‘zgarishlari va diversifikatsiya qilishning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ularning tadqiqotlari paxta eksportidan oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar eksportiga o‘tishning iqtisodiy samaradorligini isbotlab berdi. Eksport faoliyatining hududiy rivojlanishga ta’siri mavzusi bo‘yicha xalqaro tajribaga asoslangan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Porter (1990) nazariyasiga ko‘ra, mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish uchun mahalliy iqtisodiyotning kuchli tomonlarini aniqlash va ulardan samarali foydalanish talab etiladi. Ushbu yondashuv Xorazm viloyatida eksport strategiyasini shakllantirish uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar sharxi Xorazm viloyatida eksport faoliyatini rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish va xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirishning dolzarbligini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqot ushbu masalalarga yangi ilmiy yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda Xorazm viloyatining eksport salohiyatini baholash va rivojlantirish bo‘yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash uchun sifat va miqdoriy yondashuvlardan foydalanildi. Xorazm viloyatidagi eksport hajmi, mahsulot tarkibi va asosiy eksport bozorlariga oid 2010–2024 yillardagi statistik ma’lumotlar yig‘ildi. Ma’lumotlar Davlat statistika qo‘mitasi, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar ma’lumotlar bazasidan olindi. Tadqiqotda eksportning tarkibiy o‘zgarishlarini o‘rganish uchun trend tahlili va o‘rtacha yillik o‘sish sur’atlari hisoblandi. Bundan tashqari, eksport salohiyatining iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini baholash uchun korrelyatsion va regresion tahlil usullari qo‘llandi. Xorazm viloyatining eksport faoliyatida paxta va oziq-ovqat mahsulotlarining o‘rni, logistika infratuzilmasining ta’siri, hamda yangi bozorlarni o‘zlashtirish imkoniyatlari chuqur o‘rganildi. Hududiy va xalqaro savdo siyosatining eksportga ta’siri kontekstida sifat tahlili o‘tkazildi. Bu jarayonda ekspertlar bilan suhbat va xalqaro tajribalarni o‘rganishga asoslangan yondashuv qo‘llandi

Xorazm viloyati, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi tarmog‘i orqali mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. Viloyat iqtisodiyoti asosan qishloq xo‘jaligiga tayanib, asosiy e’tibor paxta, meva va sabzavotlar kabi ekinlarga qaratiladi. Ushbu qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish mintaqaning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, daromad manbai bo‘lib, O‘zbekistonning umumiy iqtisodiy o‘sishiga xizmat qilmoqda. Hududning strategik joylashuvi va rivojlangan transport infratuzilmasi eksport salohiyatini yanada oshirib, xalqaro bozorlarga integratsiyalashuv imkonini bermoqda.

Xorazm viloyati iqtisodiyoti asosan qishloq xo‘jaligi bo‘lib, yerlarining katta qismi paxta, meva va sabzavotlar yetishtirishga ajratilgan. Mintaqaning qishloq xo'jaligi faoliyati sug'orish kanallarining zich tarmog'i bilan qo'llab-quvvatlanadi, bu mintaqadagi qurg'oqchil iqlim va suv tanqisligi muammolarini hisobga olgan holda hal qiluvchi ahamiyatga ega[12]. Mintaqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xususan, ko'pincha "oq oltin" deb ataladigan paxta asosiy eksport tovarlari hisoblanadi. Ushbu mahsulotlarning eksporti mintaqa iqtisodiyoti uchun juda muhim bo'lib, uning daromadlarining katta qismini ta'minlaydi va qishloq turmushini qo'llab-quvvatlaydi[13]. Xorazm viloyati yuklarning xalqaro bozorlarga samarali harakatlanishini osonlashtiradigan rivojlangan transport infratuzilmasidan foydalanadi. Ushbu infratuzilma transport xarajatlarini optimallashtirish va mintaqa eksportining raqobatbardoshligini oshirish uchun zarurdir[14].

Xorazm viloyati eksporti mintaqa iqtisodiy o'sishiga katta hissa qo'shadi. Eksport faoliyati mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, soliq tushumlarini oshiradi va mintaqaning umumiy iqtisodiy salohiyatini oshiradi[15]. Mintaqaning tashqi iqtisodiy faoliyati uning raqobatbardosh rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xorazm viloyati xalqaro savdo bilan shug‘ullanish orqali o‘zining qishloq xo‘jaligidagi afzalliklaridan foydalanishi va global miqyosdagi iqtisodiy mavqeini oshirishi mumkin. Xorazm viloyatidagi eksport sektori ham innovatsiyalar va raqobatbardoshlikning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Susan(Kunjut) kabi eksport qilinadigan tovarlarning sifati va miqdorini yaxshilashga e'tibor qaratish orqali mintaqa qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini oshirishi va eksport imkoniyatlarini oshirishi mumkin.

1-jadval.

Xorazm viloyatida export tarkibi 2010-2024 yillar*

Yillar	Paxta tolasi	oziq-ovqat mahsulotlari	kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	energiya manbaalari va neft mahsulotlari	qora va rangli metallar	mashina va asbob-uskunalar	xizmatlar	boshqalar
2010	83,8	1,1	0,0	0,0	0,0	0,2	2,5	12,4
2011	85,0	0,3	0,2	0,0	0,0	0,1	3,9	10,6
2012	82,3	0,7	0,5	0,0	0,0	0,0	6,6	9,8
2013	65,3	1,4	0,4	0,0	0,0	0,0	27,8	5,1
2014	84,8	2,6	0,6	0,0	0,0	0,0	9,3	2,6
2015	75,2	2,5	0,7	0,0	0,1	0,0	8,0	13,5
2016	55,3	10,1	0,8	0,0	0,0	0,0	8,2	25,6
2017	43,1	11,6	0,8	0,0	0,0	0,0	8,1	36,3
2018	10,7	27,8	1,0	0,1	0,1	1,4	13,6	45,3
2019	5,2	49,1	0,6	0,9	1,0	0,1	11,4	31,7
2020	4,3	31,7	0,8	0,0	0,8	0,1	5,2	57,1
2021	0,5	31,1	0,8	0,6	0,9	0,2	8,1	57,9
2022	0,1	33,0	0,9	2,1	1,6	0,1	6,6	55,6
2023	0,0	46,3	0,9	1,0	0,0	0,2	6,2	45,2
2024	0,0	58,9	0,3	0,9	0,0	0,2	4,9	34,9

*Muallif ishlanmasi.

1-jadval Xorazm viloyatida 2010–2024 yillar davomida eksport tarkibining dinamikasini ko’rishimiz mumkin. Unga ko’ra, 2010 yilda paxta tolasi eksporti umumiy tarkibning 83,8 foizini tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024 yilga kelib 0 foizga tushib ketgan. 2013 va 2014 yillarda qisqa vaqt ichida sezilarli o‘sish kuzatilgan (65,3% dan 84,8% gacha). Bu o‘zgarishlar Xorazm viloyatida paxta tolasi eksportining kamayib borayotganligini va ehtimol, diversifikatsiyaga o‘tilganligini ko‘rsatadi. 2010 yilda ushbu oziq-ovqat mahsulotlar ulushi atigi 1,1 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib bu ko‘rsatkich 58,9 foizga oshgan. Oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti iqtisodiyotda ushbu sektorning rivojlanayotganini bildiradi. Kimyo

mahsulotlari va unda tayyorlangan buyumlarning ulushi past darajada qolmoqda, 2010 yilda 0 foiz, 2024 yilda esa 0,3 foizni tashkil qilgan. Bu Xorazm viloyatining kimyo sanoatida eksport imkoniyatlarini yetarli darajada rivojlantirmaganligini ko‘rsatadi. Energiya manbalari va neft mahsulotlari 2010–2014 yillar davomida ushbu mahsulotlar eksporti kuzatilmagan. 2022 yildan boshlab, ularning ulushi biroz o‘sib, 2,1 foizga yetgan. Energiya mahsulotlarining eksportga kiritilishi yangi imkoniyatlar ochilganligini bildiradi. Qora va rangli metallar eksporti deyarli yo‘q yoki juda kichik hajmda amalga oshirilmoqda (2010–2024 yillarda ulushi 0%–1,6% oralig‘ida). Bu sohada rivojlanish imkoniyatlari hali to‘liq foydalanilmaganligini bildiradi. Mashina va asbob-uskunalar 2010 yilda ulushi 0,2% bo‘lgan, 2024 yilga kelib bu ko‘rsatkich 0,2% atrofida qolgan. Mashinasozlik va asbob-uskunalar ishlab chiqarish eksportining sezilarli rivoji kuzatilmagan. Xizmatlar 2010 yilda xizmatlar eksporti 2,5 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib bu ko‘rsatkich 4,9 foizga oshgan. Bu Xorazm viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasida bir qadar o‘sish kuzatilayotganini bildiradi. Mazkur tahlil Xorazm viloyatining eksport salohiyatini rivojlantirish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqish zaruratini ko‘rsatmoqda[16].

Xorazm viloyatining iqtisodiy rivojlanishida eksport muhim o‘rin tutib, uning o‘sishi va barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu strategik ahamiyatga ega bo'lgan ba'zi muhim jihatlar:

Iqtisodiy o'sish va diversifikatsiya

Eksport daromad keltirish va ish o‘rinlarini yaratish orqali iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi . Xorazmda qishloq xo‘jaligi, xususan, paxta va bog‘dorchilik mahsulotlari eksport asosini tashkil etadi[17]. Xalqaro bozorlarga kirish orqali mintaqa o'z iqtisodiyotini mahalliy iste'moldan tashqari diversifikatsiya qilishi, ichki bozorlarga qaramlikni kamaytirishi va iqtisodiy o'zgarishlarga chidamliligini oshirishi mumkin. Bu diversifikatsiya barqaror rivojlanish uchun juda muhim, chunki u yangi bozorlar va mahsulotlarni o‘rganish, innovatsiyalar va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Valyuta daromadlari

Eksport faoliyati mamlakatning iqtisodiy barqarorligi uchun muhim bo'lgan valyuta daromadlari uchun zarurdir. Xorazm uchun eksport hajmining oshishi to‘lov balansining mustahkamlanishiga olib kelishi mumkin, bu esa mintaqaga mahalliy ishlab chiqarilmaydigan zarur tovarlar va xizmatlarni import qilish imkonini beradi[18]. Xorijiy valyutaning ushbu oqimi infratuzilma va ijtimoiy xizmatlarga investitsiyalarni qo'llab-quvvatlab, iqtisodiy o'sishni yanada rag'batlantirishi mumkin.

Ishga joylashish imkoniyatlari

Eksport sektori Xorazmda muhim bandlik manbai hisoblanadi . Korxonalar xalqaro talabni qondirish uchun kengayib borar ekan, ular ko‘pincha ko‘proq mehnat talab qiladi, bu esa turli sohalarda, jumladan, qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish va logistika sohasida ish o‘rinlari yaratilishiga olib kelishi mumkin[19]. Bu nafaqat ishsizlik darajasini pasaytirishga yordam beradi, balki aholining turmush darajasini yaxshilaydi va umumiy mintaqaviy rivojlanishga hissa qo'shadi.

Infratuzilmani rivojlantirish

Eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash zarurati ko'pincha transport va logistika infratuzilmasini yaxshilaydi. Xorazmda avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar va omborxonalarning yaxshilanishi savdo operatsiyalarini bir tekisda olib borish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlarga chiqishini osonlashtirishi mumkin[20]. Yaxshilangan infratuzilma nafaqat eksportchilarga foyda keltiradi, balki umumiy iqtisodiy muhitni yaxshilaydi, investitsiyalarni yanada jalb qiladi va mintaqaviy rivojlanishga yordam beradi.

Mintaqaviy integratsiya va hamkorlik

Eksport ham mintaqaviy integratsiya va hamkorlikni rivojlantirishi mumkin. Xorazm qo‘shni davlatlar bilan savdo-sotiqni yo‘lga qo‘yish orqali iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashi va barcha manfaatdor tomonlarga foyda keltiradigan hamkorlik tashabbuslarini rivojlantirishi

mumkin. Bu o‘zaro bog‘liqlik umumiy resurslar, bilimlar almashinuvi va qo‘shma korxonalarga olib kelishi mumkin, bu esa mintaqaning iqtisodiy manzarasini yaxshilaydi.

Tahlil va natijalar

2010–2024-yillarda Xorazm viloyati eksport salohiyati bosqichma-bosqich shakllanib, eksport hajmi va uning tarkibida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Dastlabki davrda eksport tarkibida an’anaviy xomashyo va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ustun bo‘lgan bo‘lsa, keyingi yillarda oziq-ovqat, sanoat va tayyor mahsulotlar ulushining ortishi kuzatildi. Tadqiqotlarda ham 2010–2024-yillarda paxta tolasi eksportining qisqarib, meva-sabzavot va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ahamiyati oshgani qayd etilgan.

2010–2024-yillar tendensiyasining muhim jihati — eksportning barqaror o‘sish bilan birga ayrim yillarda tebranishlarga ega bo‘lganidir. 2024-yilda viloyatning eksport hajmi **386,3 mln AQSH dollarini** tashkil etib, 2023-yilga nisbatan **27,0 % ga oshgan**. Eksportning 93,2 %ini tovarlar, qolgan qismini xizmatlar tashkil etgan. Tovar eksportida oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar **57,2 %**, sanoat tovarlari **30,3 %**, turli tayyor buyumlar esa **2,4 %** ulushga ega bo‘lgan.

Eksport geografiyasida ham muayyan konsentratsiya mavjud. 2024-yilda Rossiya Xorazmning asosiy tashqi savdo hamkorlaridan biri bo‘lib, ushbu davlat bilan tashqi savdo aylanmasi 236,4 mln dollarni, eksport esa 112,2 mln dollarni tashkil qilgan. Shu bilan birga, Xitoy bilan eksport 12,6 mln dollar bo‘lgan. Bu holat eksport bozorlarini kengaytirish va bir nechta asosiy mamlakatlarga haddan tashqari bog‘lanish xavfini kamaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Natijalar

Tahlil natijasida Xorazm viloyatining eksport salohiyatini rivojlantirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlari aniqlandi:

1. **Eksport tarkibini diversifikatsiya qilish** — xomashyo eksportidan qayta ishlangan, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar eksportiga bosqichma-bosqich o‘tish.
2. **Agroeksportni chuqur qayta ishlash** — meva-sabzavot, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyor mahsulot shaklida eksport qilish.
3. **Sanoat eksportini kengaytirish** — tayyor to‘qimachilik, elektrotexnika, qurilish materiallari va boshqa sanoat mahsulotlari ulushini oshirish.
4. **Eksport geografiyasini kengaytirish** — Rossiya bozoridagi mavjud imkoniyatlar bilan bir qatorda Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo va boshqa bozorlarga chiqishni kuchaytirish.
5. **Logistika va eksport infratuzilmasini rivojlantirish** — transport xarajatlarini kamaytirish, saqlash va qadoqlash tizimlarini takomillashtirish eksport raqobatbardoshligini oshiradi.

Umuman olganda, 2010–2024-yillarda Xorazm viloyatining eksport salohiyati miqdoriy jihatdan kengayib, tarkibiy jihatdan ham diversifikatsiya jarayoniga kirgan. Biroq 2024-yil ma’lumotlarida oziq-ovqat mahsulotlarining eksport tarkibidagi 57,2 %lik ulushi eksport portfelida konsentratsiya hali yuqori ekanini ko‘rsatadi. Shuning uchun keyingi bosqichda asosiy vazifa eksport hajmini shunchaki oshirish emas, balki **yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar, yangi eksport bozorlari va texnologik jihatdan murakkab mahsulotlar ulushini ko‘paytirish**dan iborat bo‘lishi lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Xorazm viloyatida eksport faoliyati iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, viloyatning eksport salohiyati xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar yetkazib berish orqali nafaqat mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish, balki O‘zbekistonning umumiy eksport

strategiyasiga hissa qo‘shish imkoniyatiga ega.

Paxta tolasi eksportining kamayib, oziq-ovqat mahsulotlari eksportining o‘sishi viloyat iqtisodiyotining diversifikatsiyasini aks ettiradi. Shu bilan birga, transport va logistika infratuzilmasining rivojlantirilishi mintaqaning eksport hajmini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishga qaratilgan strategiyalar yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi turmush darajasini yaxshilash va iqtisodiy barqarorlikka erishish imkonini bermoqda.

Biroq, tahlil shuni ko‘rsatadiki, ba’zi sohalarda, masalan, mashinasozlik va kimyo sanoati, eksport salohiyati hali to‘liq amalga oshirilmagan. Shu sababli, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilishni rag‘batlantirishga qaratilgan siyosat va tashabbuslarni yanada rivojlantirish zarur. Bundan tashqari, xalqaro bozorlarga chiqishni osonlashtirish uchun institutsional islohotlarni davom ettirish va yangi bozorlarni o‘zlashtirish ustida ish olib borish muhimdir.

Mazkur tadqiqot Xorazm viloyatining eksport salohiyatini yanada rivojlantirish uchun strategik yo‘nalishlarni belgilashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Eksportni kengaytirish orqali viloyat O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sishiga sezilarli hissa qo‘shib, mintaqaviy va global savdo aloqalarida faol ishtirok etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Aaron, Rae, Stephens. (2023). The Central Asian tiger: Export specialization in Uzbekistan: Opportunities for economic diversification and development. The European Journal of Applied Economics, 20(1):22-38. doi: 10.5937/ejae20-41446

2. Р.П., Жуманиёзов. (2022). Strategy for the development of industry in the Khorezm region of the Republic of Uzbekistan. Экономика и предпринимательство, 393-398. doi: 10.34925/eip.2021.137.12.077

3. G., Sultanova. (2024). Trends in development and diversification of exports of the republic of uzbekistan. doi: 10.60078/2992-877x-2024-vol2-iss10-pp232-249

4. I., Kutenina. (2022). Foreign economic potential and its impact on sustainability of the regional economy. Naučnye trudy Vol′nogo èkonomičeskogo obŝestva Rossii, 237(5):184-201. doi: 10.38197/2072-2060-2022-237-5-184-201

5. АВЕЗОВ, М.К., АВЕЗОВ, М.К.. (2024). Strategic directions for improving the efficiency of the economic potential of the region. Экономика и предпринимательство, 559-562. doi: 10.34925/eip.2024.165.4.109

6. Foreign Economic Strategy and Innovative Economic Development of Uzbekistan. doi: 10.54216/jsdgt.030201

7. V., L., Belozerov., K., K., Kobesov., Petr, Kurenkov., E., V., Zotova. (2024). Prospects for further development of logistics and trade in Central Asian Countries. BRISS transport, 3(3):1-6. doi: 10.46684/2024.3.1

8. Heiko, Hesse. (2008). Export diversification and economic growth. World Bank Publications, 1-36.

9. Э.Т., Якубова. (2023). Mechanisms for increasing diversification and deepening the competitive advantages of the region's industry. Экономика и предпринимательство, 490-493. doi: 10.34925/eip.2022.145.8.097

10. Sattarov, Sayidmurod, Abdusharipovich. (2018). Special Economic Zones as an Engine of Regional Economic Development: the best Practices and Implications for Uzbekistan. International Journal of Management Science and Business Administration, 4(4):48-55. doi: 10.18775/IJMSBA.1849-5664-5419.2014.44.1006

11. Junling, Shao. (2023). Analysis of sustainable development of uzbekistan's regional economy. doi: 10.47390/sp1342v3i11y2023n09

12. Paul, L., G., Vlek., John, P., A., Lamers., Christopher, Martius., Inna, Rudenko., A., M., Manschadi., Ruzumbay, Eshchanov. (2012). Cotton, Water, Salts and Soums – Research and

Capacity Building for Decision-Making in Khorezm, Uzbekistan. 3-22. doi: 10.1007/978-94-007-1963-7_1

13. Kudrat, Nurmetov., Ján, Pokrivčák., Sanatbek, Salaev., Elmurod, Baynazarov. (2015). Fruits and vegetables sector of khorezm, uzbekistan: challenges and perspectives. Journal of Agribusiness and Rural Development, 9(36):257-265. doi: 10.17306/JARD.2015.27

14. Irina, Kovaleva. (2023). Development of foreign economic activities of the industry sector of the region. Vestnik of Kazan State Agrarian University, doi: 10.12737/2073-0462-2023-160-167

15. Ulugbek, Tursunov. (2018). The Export Performance of the Regions of Uzbekistan and its Main Determinants. doi: 10.36880/C10.02170

16. Холмуротов, Ф. С. (2023). VILOYAT QISHLOQ XO ‘JALIGIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANISH TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ “MA'MUN SCIENCE”, 1(2).

17. Qodirov, A., Urakova, D., Amonov, M., Masharipova, M., Ibadullaev, E., Xolmurotov, F., & Matkarimov, F. (2024). The dynamics of tourism, economic growth, and CO2 Emissions in Uzbekistan: an ARDL approach. International Journal of Energy Economics and Policy, 14(6), 365-370.

18. Saribayevich, X. F., Sariyevich, X. X., Davlatov, S., Turobova, H., & Ruziyev, S. (2024). Analysis of factors affecting CO2 emissions: In the case of Uzbekistan. International Journal of Energy Economics and Policy, 14(4), 207-215.

19. Холмуротов, Ф. (2023). MINTAQADA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA QISHLOQ XO ‘JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR RO ‘LINI BAHOLASH. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 3(7), 83-91.

20. Холмуротов, Ф. С. (2021). Разработка прогнозных значений ключевых показателей сельского хозяйства Хорезмской области. Экономика и предпринимательство, (6), 577-581.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

THE SIGNIFICANCE OF CULTURAL EVENTS AND FESTIVALS IN ENHANCING TOURISM ATTRACTIVENESS

Gofurjonova Musharrafkhon Shukhratjon kizi
Researcher at Tashkent State University of Economics (TSUE)
E-mail: musharraf0555@gmail.com
ORCID: 0009-0001-7787-4596

Abstract. *This article examines the role and significance of cultural events and festivals in enhancing the attractiveness of tourism destinations. It provides a comparative analysis of locally rooted festivals and imported festival formats in terms of distinctiveness, scalability, and their impact on tourism demand. Particular attention is paid to the influence of seasonality, attendee composition, and event timing on festival effectiveness. The findings show that festivals can strengthen destination image, create additional activities for tourists, and contribute to the redistribution of tourism flows over time. However, the actual tourism value of a festival depends not only on total attendance but also on its seasonal and structural characteristics.*

Keywords: *festivals, event tourism, destination attractiveness, seasonality, tourism flows, tourism destination, authenticity.*

TURIZM JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MADANIY TADBIRLAR VA FESTIVALLARNING AHAMIYATI

Gofurjonova Musharrafxon Shuhratjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi
E-mail: musharraf0555@gmail.com
ORCID: 0009-0001-7787-4596

Annotatsiya. *Mazkur maqolada madaniy tadbirlar va festivallarning turistik destinatsiyalar jozibadorligini oshirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda mahalliy madaniyat va an’analarga asoslangan festivallar hamda boshqa hududlardan o‘zlashtirilgan festival formatlarining o‘ziga xos xususiyatlari, miqyoslashtirish imkoniyatlari va turistik talabga ta’siri qiyosiy baholangan. Shuningdek, festival samaradorligiga mavsumiylik, tashrif buyuruvchilar tarkibi va tadbirning o‘tkazilish vaqti kabi omillarning ta’siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari festivallarning turistik imijni shakllantirish, turistlar uchun qo‘shimcha faoliyat turlarini yaratish hamda turistik oqimlarni vaqt bo‘yicha taqsimlashda muhim vosita bo‘lishini ko‘rsatadi. Festivalning haqiqiy turistik qiymati esa faqat ishtirokchilar soni bilan emas, balki uning mavsumiy va tarkibiy xususiyatlari bilan ham belgilanadi.*

Kalit so‘zlar: *festival, tadbirlar turizmi, turistik jozibadorlik, mavsumiylik, turistlar oqimi, destinatsiya, autentiklik.*

ЗНАЧЕНИЕ КУЛЬТУРНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ И ФЕСТИВАЛЕЙ В ПОВЫШЕНИИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ

Гофуржонова Мушаррафхон Шухратжон кизи
Исследователь Ташкентского государственного экономического университета
E-mail: musharraf0555@gmail.com
ORCID: 0009-0001-7787-4596

Аннотация. *В статье рассматриваются роль и значение культурных мероприятий и фестивалей в повышении привлекательности туристских дестинаций.*

Проведён сравнительный анализ фестивалей, основанных на местной культуре и традициях, и заимствованных фестивальных форматов с точки зрения их уникальности, масштабируемости и влияния на туристический спрос. Особое внимание уделено таким факторам, как сезонность, состав посетителей и время проведения мероприятия. Результаты исследования показывают, что фестивали способствуют формированию туристического имиджа территории, созданию дополнительных видов активности для туристов и перераспределению туристических потоков во времени. При этом реальная туристическая ценность фестиваля определяется не только количеством участников, но и его сезонными и структурными характеристиками.

Ключевые слова: *фестивали, событийный туризм, туристическая привлекательность, сезонность, туристический поток, туристская дестинация, аутентичность.*

Introduction

Cultural events and festivals occupy a settled place in destination strategy. They are held to enliven a place, to express its culture, and to make it more attractive to visitors, and the last of these is usually stated without specifying the mechanism.

The specification matters because attractiveness has several components and festivals do not act on them equally. A festival is a strong instrument for one purpose, a weak one for another, and on at least one component it works against the destination.

A second question concerns the kind of festival. Events that express an existing local practice and events that import a successful format elsewhere are treated in policy as variants of the same thing. They differ in the property that matters most for a destination, namely whether a competitor can copy them.

Accordingly, the article has four objectives: to distinguish between rooted festivals and imported event formats; to identify which components of destination attractiveness festivals can realistically influence; to explain how seasonality and attendee composition determine tourism value; and to formulate design and evaluation implications for cultural events used as tourism instruments.

Literature Review

The literature on destination attractiveness and event tourism provides the theoretical basis for assessing the real contribution of festivals to tourism development. Formica and Uysal [1] conceptualise destination attractiveness through the relationship between what a destination supplies and what a market demands. Within this perspective, a festival should not be treated as an all-purpose instrument: its contribution depends on the particular component of attractiveness that it changes.

Event tourism is a well-established field. Getz [5] defines and systematises event tourism, while Getz and Page [6] review its development and note the need for greater precision in claims about event impacts. This is especially relevant when attendance is used as a proxy for tourism value, although the composition of visitors and the timing of the event may determine whether the destination receives any additional tourism benefit at all.

Research on festival sustainability and creative tourism highlights the difference between culturally rooted practices and transferable event formats. Quinn [2] discusses the risks that arise when local cultural practices are instrumentalised for tourism, while Richards [3] emphasises participation in creative practices as a source of tourism value. Together, these studies support the distinction between events whose uniqueness derives from a local tradition and formats that can be reproduced elsewhere.

Destination-image research provides a further dimension. Gartner [4] treats image as the product of a long-term formation process, while Baloglu and McCleary [8] show that destination image develops through multiple information sources and perceptions. Consequently, a single

festival may contribute to image formation, but its effect is likely to be gradual and difficult to isolate from the wider stock of information accumulated about the destination.

Crompton [7] distinguishes motives that push people to travel from attributes that pull them toward a particular destination. Festivals operate mainly on the latter side: they may supply a reason to choose a destination and, importantly, a reason to choose a specific date. Taken together, the literature suggests that the tourism role of festivals should be evaluated through clearly specified mechanisms rather than through the broad assumption that any successful cultural event automatically enhances tourism attractiveness.

Research methodology

The study is conceptual and analytical. No primary data were collected, no individual festival was empirically assessed, and no quantitative claim is made about a specific destination. The purpose is to clarify the mechanisms through which cultural events may affect tourism attractiveness and to derive a structured framework for design and evaluation.

The analysis proceeds in three stages. First, two festival logics - rooted festivals and imported formats - are compared according to replicability, scalability, distinctiveness and their principal design risks. Second, the effect of festivals is assessed across five components of destination attractiveness: product, seasonality, image, access and price. Third, season and attendee composition are cross-classified to identify the conditions under which a festival creates high, low, neutral or purely local value.

The source base is divided into three categories: A for peer-reviewed research, B for institutional publications and C for other materials. The conceptual decomposition of destination attractiveness follows the established supply-and-demand treatment of the construct [1]. The article also draws on the event-tourism literature [5,6], festival sustainability and creative-tourism research [2,3], and destination-image and travel-motivation studies [4,7,8].

Analysis and Discussion of Results

Rooted Festivals and Imported Event Formats

The first analytical distinction concerns the origin of the event. Rooted festivals express a cultural practice that exists independently of tourism, whereas imported formats bring a template that has already proved successful elsewhere. These two logics differ in precisely the properties that matter for destination competitiveness: distinctiveness and scalability.



Figure 1. Rooted festivals and imported formats compared on four properties*

**Author's construction.*

The rooted festival expresses a practice that exists independently of the visitor: a craft season, a harvest, a musical tradition. Its distinctive property is that a rival destination cannot copy it, because the practice is not theirs. Its limitation is that it does not scale: increasing attendance changes the conditions of the practice, and beyond some point the thing being visited is no longer the thing that was there.

The imported format brings a template that works elsewhere: a film festival, a light show, a food event with an international line-up. It scales readily and it can be reproduced by a competitor within a single season, which means it confers no durable distinctiveness.

The tension between the two is not a matter of taste. Distinctiveness in the first column arises precisely from non-transferability, and scalability in the second arises precisely from transferability. Policy that seeks the scale of the second and the distinctiveness of the first is seeking two properties that come from opposite sources.

The literature on festival tourism has documented the associated risk in the first column, namely that a local practice instrumentalised for visitors gradually changes in response to them, so that what attracted the visitor is diminished by the visiting [2]. This is not an argument against tourism use; it is an argument for setting a capacity limit as part of the design rather than after congestion appears.

The creative tourism literature offers the constructive form of the same point: participation in the practice, rather than observation of a staged version of it, is what carries value and is also what constrains scale [3].

Table 1.

Two festival logics

Property	Rooted festival	Imported format
Copied by a rival	Not easily	Yes, within a season
Scales	Poorly, scale changes the practice	Well
Supplies distinctiveness	Yes	No
Main risk	The practice changes in response to visitors	Indistinguishable from the same event elsewhere

Effects on the Components of Destination Attractiveness

The second stage assesses the effect of a festival on individual components of destination attractiveness. The results show that festivals are not equally effective across all components and that their strongest contribution may differ from the justification most commonly used in policy discourse.



Figure 2. Effect of a festival on each component of destination attractiveness*

**Author's construction.*

Product: strong. A festival is a bookable thing to do on stated dates. For a destination whose constraint is that there is nothing specific to plan a trip around, this is the direct remedy.

Seasonality: strong. A festival can move demand into a period when capacity would otherwise be idle. This is the contribution most often available and least often claimed.

Image: weak and slow. A single occasion is a small addition to a stock that has accumulated over years from many sources [4], and the channels through which it could act are limited and largely outside the organiser's control. The effect is not zero, but it is the weakest of the available channels and the hardest to detect.

Access: none. Flights, routes and visa rules are unaffected by a festival.

Price: adverse. Prices for accommodation typically rise during a festival, which reduces attractiveness for visitors who are not attending it.

The pattern deserves emphasis because it inverts the usual justification. The claim

ordinarily made for a festival is the image claim, which is the weakest one; the two strong claims, product and seasonality, are rarely the ones advanced, although both are observable within a single year and neither requires a survey.

The distinction also affects who should judge success. The image claim can only be assessed years later and by someone else; the product and seasonality claims can be assessed by the destination itself, from occupancy and booking records it already holds.

A further point concerns what a festival does for the traveller's decision. Motives that move a person to travel are distinct from the attributes that draw them to one destination rather than another [7], and a festival acts on the second. It supplies a reason to choose a place and a reason to choose a date, which is why its effect appears in the timing of demand before it appears anywhere else. Where the image channel is nonetheless the one of interest, the mechanism runs through sources the destination does not control [8], and the appropriate measurement is of those sources rather than of attendance.

Table 2.

Effect on components of attractiveness

Component	Effect	Reason
Product	Strong	A thing to do on stated dates
Seasonality	Strong	Moves demand into a trough
Image	Weak and slow	One occasion against an accumulated stock
Access	None	Flights and visas unaffected
Price	Adverse	Accommodation prices rise during the event

Seasonality and Attendee Composition

The third stage considers two variables that determine the tourism value of a festival: the season in which it is held and the composition of its audience. Attendance alone is insufficient because the same headcount may represent additional tourism demand, displaced demand or purely local participation.



Figure 3. Tourism value of a festival by season and attendee composition*

**Author's construction.*

Peak season, mostly local attendance. Low value. The headcount is real and the additional tourism value is not, because the capacity used would have been occupied.

Peak season, substantial non-local attendance. Neutral or negative. Festival visitors occupy capacity that other visitors would have filled, and where the festival crowd pays less or stays more briefly the destination is worse off.

Low season, mostly local attendance. Genuine local value and no tourism value. Such festivals are worth holding for residents, and the honest description is that they are cultural policy rather than tourism policy.

Low season, substantial non-local overnight attendance. The highest value, because the capacity filled would otherwise have stood empty.

The design rule follows immediately: the tourism case for a festival rests on the date rather than on the programme. A festival held during the peak has little tourism value however good it is, and one held in the trough has value even if modest, provided it draws visitors from

outside.

Two practical points support the rule. Both variables are recorded rather than estimated: the season is known in advance, and attendee origin and overnight stay can be captured at registration or through accommodation records. And both are decided before any programming choice, which means the tourism case can be settled at the outset rather than defended afterwards.

Table 3.

Season and attendee mix

Season	Attendee mix	Tourism value	Correct description
Peak	Mostly local	Low	Cultural event, not a tourism instrument
Peak	Substantial non-local	Neutral or negative	Displaces higher yielding demand
Low	Mostly local	None for tourism	Cultural policy
Low	Substantial non-local overnight	Highest	Fills idle capacity

Design and Evaluation Implications

The preceding analysis implies that festival design should begin with the tourism objective and the demand context rather than with the programme itself. The sequence of decisions matters because several of the variables that determine tourism value are known before the event is designed.

Choose the date first. Place the festival in the demand trough. Where an existing festival sits in the peak for reasons of tradition, the honest conclusion is that its justification is cultural rather than touristic, and its evaluation should say so.

Decide the intended attendee mix. A festival for residents and one for visitors differ in language, ticketing, timing within the week and promotion channel. Attempting both usually produces an event that serves neither well.

Set the capacity limit as part of the design. For rooted festivals this protects the practice that constitutes the attraction. For imported formats it is a commercial question rather than a conservation one.

Record what will be needed for evaluation. Attendee origin and overnight status, collected during the event. Retrospective reconstruction is not possible, and it is the omission that most often leaves a festival unable to demonstrate anything.

State which claim is being made. Product, seasonality, image or local cultural value. These are different claims with different evidence, and combining them produces a report that cannot be assessed.

Table 4.

Design decisions and their order

Decision	When taken	Why first
Date	Before programming	Determines whether tourism value is possible at all
Intended attendee mix	Before programming	Determines language, ticketing and channel
Capacity limit	At design	Protects the practice or sets the commercial ceiling
Data to be recorded	Before the event	Cannot be reconstructed afterwards
Claim to be made	Before evaluation	Different claims require different evidence

Conclusions and Recommendations

Festivals contribute to destination attractiveness through specific channels, not generally. They supply a bookable thing to do and they can move demand into a period when capacity is

idle. Both are strong effects and both are observable within a year from records the destination already holds.

The claim usually advanced for festivals is the image claim, and it is the weakest of the available channels: one occasion is a small addition to a stock accumulated over years, and the effect is correspondingly hard to detect.

The decisive variables are the date and the attendee mix, not the programme. A festival in the peak displaces guests who would have come anyway, so its tourism value is low or negative however good it is, while a festival in the trough that draws overnight visitors fills capacity that would otherwise stand empty.

Finally, the two festival logics deliver incompatible properties. A rooted festival cannot be copied and cannot be scaled; an imported format scales and can be copied within a season. Seeking both at once is the most common design error in this field, and the corresponding discipline is to choose which property is wanted and to accept the limitation that comes with it.

Based on the analysis, the following recommendations are proposed for the design and evaluation of cultural events and festivals as tourism instruments:

1. Festival dates should be selected with seasonality in mind. Where the tourism objective is to generate additional demand, priority should be given to low-demand periods rather than peak periods in which displacement is likely.

2. The intended attendee mix should be defined before programming begins. Events designed primarily for residents and events intended to attract non-local overnight visitors require different language, ticketing, scheduling and promotion strategies.

3. Rooted festivals should include capacity limits that protect the cultural practice on which their distinctiveness depends. Scaling should not be pursued at the cost of changing the practice itself.

4. Attendee origin and overnight-stay status should be recorded during registration or through accommodation data so that tourism value can be evaluated directly rather than inferred retrospectively.

5. Evaluation should state clearly whether the intended outcome concerns product development, seasonality, destination image or local cultural value, because each claim requires different evidence and should not be combined into a single undifferentiated success indicator.

References

1. Formica S, Uysal M. Destination attractiveness based on supply and demand evaluations: an analytical framework. Journal of Travel Research. 2006;44(4):418-430. doi:10.1177/0047287506286714

2. Quinn B. Problematising festival tourism: arts festivals and sustainable development in Ireland. Journal of Sustainable Tourism. 2006; 14(3):288-306. doi:10.1080/09669580608669059

3. Richards G. Creativity and tourism: the state of the art. Annals of Tourism Research. 2011;38(4):1225-1253. doi:10.1016/j.annals.2011.07.008

4. Gartner WC. Image formation process. Journal of Travel & Tourism Marketing. 1993;2(2-3):191-216. doi:10.1300/J073v02n02_12

5. Getz D. Event tourism: definitions, evolution, and research. Tourism Management. 2008;29(3):403-428. doi:10.1016/j.tourman.2007.07.017

6. Getz D, Page SJ. Progress and prospects for event tourism research. Tourism Management. 2016;52:593-631. doi:10.1016/j.tourman.2015.03.007

7. Crompton JL. Motivations for pleasure vacation. Annals of Tourism Research. 1979;6(4):408-424. doi:10.1016/0160-7383(79)90004-5

8. Baloglu S, McCleary KW. A model of destination image formation. Annals of Tourism Research. 1999;26(4):868-897. doi:10.1016/S0160-7383(99)00030-4

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Xasanova Lola Mamasharifovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0008-5925-9072

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash amaliyoti mahsulot tanlash, kredit arizasini ko‘rib chiqish, moliyalashtirish, monitoring va restrukturizatsiya bosqichlari kesimida tadqiq etilgan. O‘zbekistonning rasmiy statistik ma’lumotlari asosida kreditlash samaradorligini baholashda nafaqat ajratilgan kreditlar hajmi, balki moliyaviy qamrov, mablag‘lardan foydalanish samaradorligi va yakuniy natijadorlik ko‘rsatkichlarini ham hisobga olish zarurligi asoslangan. Shuningdek, aylanma mablag‘larni kreditlash, ta’minot zanjirlarini moliyalashtirish, faktoring, lizing, yashil kreditlash va portfel monitoringini o‘zaro uyg‘unlashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kreditlash amaliyoti, aylanma mablag‘, faktoring, lizing, yashil kreditlash, monitoring.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАКТИКИ КРЕДИТОВАНИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Xasanova Lola Mamasharifovna

Независимый исследователь Ташкентского государственного экономического университета
ORCID: 0009-0008-5925-9072

Аннотация: *В статье исследуется практика кредитования малого бизнеса и частного предпринимательства на этапах выбора продукта, рассмотрения заявки, финансирования, мониторинга и реструктуризации. На основе официальной статистики Узбекистана обоснована необходимость оценивать не только объем кредитов, но и охват и результативность. Разработаны практические рекомендации, объединяющие оборотные кредитные линии, финансирование цепочек поставок, факторинг, лизинг, зеленые кредиты и портфельный мониторинг.*

Ключевые слова: *малый бизнес, частное предпринимательство, кредитная практика, оборотный капитал, факторинг, лизинг, мониторинг.*

IMPROVING LENDING PRACTICES FOR SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP

Kasanova Lola Mamasharifovna

Independent researcher at Tashkent State University of Economics
ORCID ID: 0009-0008-5925-9072

Abstract: *The article studies lending practices for small business and private entrepreneurship across product selection, application review, financing, monitoring, and restructuring. Official statistics for Uzbekistan support the need to measure outreach and outcomes in addition to loan volume. The article develops practical recommendations combining*

revolving working-capital facilities, supply-chain finance, factoring, leasing, green lending, and portfolio monitoring.

Keywords: *small business, private entrepreneurship, lending practice, working capital, factoring, leasing, monitoring, restructuring.*

Kirish.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotda bandlik, hududiy daromad va bozor raqobatini shakllantiradi. Milliy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, kichik tadbirkorlikning jami bandlikdagi ulushi 2024 yilda 73,9 foiz, 2025 yilda 74,9 foizni tashkil etgan [3]. Uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2024 yilda 53,5 foiz va 2025 yilda 52,2 foiz bo‘lgan. Bu sektorning kreditga kirishi faqat tadbirkorning shaxsiy masalasi emas, balki ishlab chiqarish, xizmat va ish o‘rinlarining barqarorligiga ta’sir qiluvchi omildir.

Kreditlash amaliyotida bankning maqsadi kreditni ko‘proq berish emas, qarz oluvchining ehtiyojiga mos muddat va to‘lov jadvalida, qaytarish manbai tushunarli bo‘lgan moliyalashtirishni taqdim etishdir. Bir martalik kredit aylanma mablag‘i doimiy yangilanadigan korxonaga mos kelmasligi, uzoq muddatli uskuna qisqa muddatli resurs bilan moliyalashtirilganda likvidlik bosimi paydo bo‘lishi mumkin. Shuning uchun kredit mahsuloti biznesning pul aylanishi va investitsiya muddatiga moslashtiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

OECDning 2025 yilgi tahlilida yuqori foiz stavkalari va iqtisodiy noaniqlik kichik biznes kreditlashini cheklagani, moliyalashtirishning qisqa muddatli ehtiyojlarga siljishi uzoq muddatli investitsiya, unumdorlik va raqobatbardoshlikka salbiy ta’sir qilishi qayd etilgan [7]. IFC kichik korxonalar uchun moliyaviy hisobot yetishmasligini raqamli to‘lov, elektron savdo va tranzaksiya ma’lumotlari bilan qisman bartaraf etish mumkinligini ko‘rsatadi [6]. Bu qarashlar kredit amaliyotida mahsulot va baholash usulini korxonaning o‘lchami va ma’lumot iziga moslashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Xalqaro tadqiqotlarda kreditdan tashqari lizing, faktoring, savdo krediti, kafolat va kapital moliyasi kichik biznesning turli ehtiyojlarini qoplovchi vositalar sifatida qaraladi. Bank kreditni yagona yechim sifatida taklif qilganda, aktiv xaridi uchun lizing yoki tasdiqlangan debitorlik qarzi uchun faktoring samaraliroq bo‘lishi mumkin. Moliyalashtirish vositalarining xilma-xilligi korxona balansiga tushadigan yukni kamaytiradi va bankning riskini aniq aktiv yoki pul oqimiga bog‘laydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda statistik guruhlash, kredit mahsulotlarini funksional taqqoslash, mijoz segmentlari bo‘yicha tahlil va kredit hayot siklini baholash usullari qo‘llanildi. Markaziy bankning kreditlar bo‘yicha statistik byulleteni, Milliy statistika qo‘mitasining kichik biznes ko‘rsatkichlari, O‘zbekistonning qo‘llab-quvvatlash dasturlari hamda IFC va OECD tavsiyalari tahlil qilindi. Amaliy takliflar bank rentabelligi, qarz oluvchining to‘lov qobiliyati va iqtisodiy natija mezonlari bo‘yicha shakllantirildi.

Tahlil va natijalar.

2024 yilda kichik va o‘rta tadbirkorlik hamda aholiga tadbirkorlik maqsadlari uchun 92,4 trillion so‘m kredit ajratilgani kredit bozorining ko‘lamini ko‘rsatadi [2]. Biroq kredit sonining 538 mingdan oshishi mijozlarning takroriy kreditlarini ham o‘z ichiga olishi mumkin. Shuning uchun bank va davlat dasturlari qamrovni noyob qarz oluvchilar, birinchi marta kredit olganlar, ayollar va yoshlar boshqaruvidagi bizneslar, hududlar va faoliyat turlari bo‘yicha ochishi kerak. Bu kredit resurslarining qaysi segmentga yetib bormayotganini aniqlashga yordam beradi.

Aylanma mablag‘ni moliyalashtirishda qayta tiklanuvchi kredit liniyasi bir martalik kreditdan samaraliroq. Limit korxonaning tushum aylanishi va mavsumiy ehtiyojiga asoslanadi,

foydalanilgan qism uchun foiz hisoblanadi, tushum kelganda qarz avtomatik kamayadi. Bunday mahsulotning riski hisobvaraq aylanmasi va limitdan foydalanish intizomi orqali kundalik kuzatiladi. Limitni har safar yangidan rasmiylashtirish o‘rniga yillik qayta baholash va aniq kovenantlar mijoz hamda bank xarajatini kamaytiradi.

Yetkazib berish zanjiri moliyasi yirik xaridorning kredit sifatidan foydalanib, uning kichik yetkazib beruvchilariga arzonroq resurs beradi. Tasdiqlangan hisob-faktura bank uchun talab huquqi, kichik korxona uchun esa pulni muddatidan oldin olish imkonidir. Xaridor, yetkazib beruvchi va bank o‘rtasidagi elektron ma’lumot almashuvi qalbaki hujjat riskini kamaytiradi. Ushbu mahsulot, ayniqsa, to‘lov muddati uzun bo‘lgan savdo va ishlab chiqarish zanjirlarida likvidlik muammosini yumshatadi.



1-rasm. Kichik biznesni kreditlash amaliyotining hayot sikli

Manba: muallif ishlanmasi.

. Asosiy vosita va uskunalarni moliyalashtirishda lizing aktivning o‘zini ta’minot sifatida ishlatadi. Kredit to‘lov jadvali uskunaning daromad keltira boshlash davriga moslashtirilsa, loyiha boshidagi bosim kamayadi. Import uskunasida valyuta riski, yetkazib berish va ishga tushirish muddati alohida hisobga olinadi. Bank yoki lizing kompaniyasi yetkazib beruvchini tekshirish, sug‘urta va texnik xizmat shartlarini moliyalashtirish paketiga kiritishi mumkin.

Kredit arizasini ko‘rib chiqishda kichik biznes uchun alohida vakolat darajasi va standart kredit xulosasi kerak. Amaldagi kompleks dasturda arizani besh ish kunidan oshmagan muddatda ko‘rib chiqish va 1 milliard so‘mgacha kredit bo‘yicha qarorni bankning hududiy filiali qabul qilishi nazarda tutilgan [10]. Bank ichki jarayonida vaqtning qaysi qismi mijoz hujjatini kutishga, qaysi qismi tahlil va qo‘mita navbatiga ketayotgani o‘lchansa, kechikishning haqiqiy sababi aniqlanadi.

Monitoring amaliyoti kredit maqsadli ishlatilganini bir marta tekshirish bilan tugamasligi kerak. Hisobvaraq aylanmasi, tushum, soliq to‘lovi, debitor va kreditor qarz, ombor zaxirasi, asosiy shartnomalar va kredit jadvali dinamikasi yagona panelda kuzatiladi. Sog‘lom korxonadagi mavsumiy pasayish bilan biznes modelidagi doimiy buzilish ajratiladi. Monitoring xodimi signalni faqat kechikishdan keyin emas, pul oqimi yomonlashgan paytda olishi zarur.

Restrukturizatsiya amaliyoti ham standart mezonlarga ega bo‘lishi kerak. Vaqtinchalik likvidlik muammosi, bozor yo‘qolishi va boshqaruvdagi tizimli nosozlik bir xil yechimni talab qilmaydi. Iqtisodiy jihatdan hayotiy korxona uchun asosiy qarzni kechiktirish, mavsumiy jadval, aylanma limitini qayta tuzish yoki aktiv sotish rejasi qo‘llanishi mumkin. Hayotiyligi tiklanmaydigan holatda esa zararni kechiktirmasdan tan olish va ta’minotni huquqiy tartibda undirish bank portfeli sifatini himoya qiladi.

Yashil va raqamli modernizatsiya kreditlari kichik biznes unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Energiya tejamkor uskuna, quyosh energiyasi, suv tejash, hisob va savdo jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha kreditda iqtisodiy samara energiya xarajatining kamayishi, savdo aylanmasi yoki mehnat unumdorligi orqali o‘lchanadi. IFCning barqaror kichik biznes moliyasi qo‘llanmasi banklarga muvofiq xarajatlar ro‘yxati, baholash va hisobot ko‘rsatkichlarini oldindan belgilashni tavsiya qiladi [9].

Kredit xodimining rag‘batlantirish tizimi faqat ajratilgan kredit hajmiga bog‘lansa, sifat va mijoz ehtiyoji ikkinchi o‘ringa tushadi. Rag‘bat portfel rentabelligi, erta kechikish, mijozni saqlash, hujjat sifati va kreditdan keyingi natijalar bilan muvozanatlashtirilishi kerak. Savdo va

risk funksiyalarining vazifalari ajratiladi, lekin ular bitta segment strategiyasi va ma’lumotlar bazasi asosida ishlaydi.

1-jadval

Kichik biznes ehtiyojiga mos moliyalashtirish vositalari

Ehtiyoj	Mos vosita	Asosiy nazorat
Mavsumiy aylanma mablag‘	Qayta tiklanuvchi kredit liniyasi	Tushum aylanishi va limit intizomi
Tasdiqlangan debitorlik	Faktoring	Xaridor sifati va hisob-faktura
Yetkazib beruvchi likvidligi	Supply-chain finance	Yirik xaridor tasdig‘i
Uskuna xaridi	Lizing yoki investitsion kredit	Aktiv qiymati va ishga tushish
Energiya tejamkorligi	Yashil kredit	Tejalgan resurs va pul oqimi
Vaqtinchalik qiyinchilik	Restrukturizatsiya	Biznes hayotiyligi va tiklanish rejasi

Manba: muallif tomonidan rasmiy manbalar asosida tuzilgan.

Bank mahsulot katalogida kichik biznes uchun ortiqcha o‘xshash kreditlar bo‘lishi mijoz va xodim tanlovini qiyinlashtiradi. Mahsulotlar ehtiyoj, muddat va qaytarish manbai bo‘yicha guruhlanishi kerak: kundalik aylanma, mavsumiy xarajat, uskuna, debitorlik, eksport va energiya samaradorligi. Har bir mahsulot uchun standart limit, zarur ma’lumot, qaror muddati va narx diapazoni e’lon qilinadi. Mijoz qisqa diagnostika orqali mos mahsulotni tanlaydi, murakkab holat esa mutaxassisga yo‘naltiriladi.

Hududiy filial vakolatini kengaytirish tezlikni oshiradi, biroq kredit standartlarining hududlar bo‘yicha farqlanish xavfini tug‘diradi. Shu sababli markaziy bank funksiyasi yagona metodologiya, model, soha limiti va nazorat namunalarini belgilaydi; filial esa mahalliy bozor va mijozni bilish afzalligidan foydalanadi. Qarorlarning sifati tasodifiy qayta ko‘rib chiqish, portfel vintage tahlili va filiallar o‘rtasidagi taqqoslash orqali nazorat qilinadi. Vakolat natija yaxshi bo‘lsa kengaytiriladi, buzilishlar ko‘paysa vaqtincha cheklanadi.

Mikro va kichik korxonalar uchun moliyaviy savodxonlik kredit jarayonining bir qismi bo‘lishi mumkin. Bank ariza beruvchiga pul oqimi jadvali, xarajat va tushumni ajratish, soliq hamda kredit to‘lovini rejalashtirish bo‘yicha qisqa vositalar taqdim etadi. Maslahat kreditni majburan sotish vositasi bo‘lmasligi, tadbirkor qaroriga xolis yordam berishi kerak. Moliyaviy hisobni yaxshilagan mijoz keyingi safar kamroq hujjat bilan, aniqroq limit va qulayroq narxda kredit olish imkoniga ega bo‘ladi.

Ayollar va yoshlar boshqaruvidagi bizneslarni alohida segment sifatida kuzatish faqat kvota belgilashdan iborat emas. Ularning faoliyat sohasi, biznesning yoshi, garov egaligi, rasmiy daromad tarixi va hududiy sharoiti kreditga kirishga turlicha ta’sir qiladi. Mahsulot dizayni ushbu to‘siqlarni aniqlab, kafolat, maslahat yoki mos to‘lov jadvali bilan javob berishi kerak. Natijalar kredit soni bilan birga omon qolish, savdo, bandlik va qaytish sifati orqali o‘lchanadi.

Muammoli kredit bilan ishlashda aloqaning vaqti va ohangi katta ahamiyatga ega. Birinchi kechikishdan oldin eslatma, to‘lov sanasini tushuntirish va hisobvaraqda mablag‘ yetishmasligi haqida xabar berish texnik kechikishni kamaytiradi. Kechikish yuzaga kelganda tahdidli muloqot o‘rniga sabab, kutilayotgan tushum va yechim variantlari qayd etiladi. Undiruv xodimi bilan kredit maslahatchisining vazifalari ajratiladi, lekin ma’lumotlar bir tizimda saqlanadi.

2-rasm. Taklif etilayotgan amaliy boshqaruv yo‘nalishlari

Manba: muallif ishlanmasi.

Amaliyot samaradorligini baholash uchun kredit vintage tahlili qo‘llaniladi. Muayyan oy yoki chorakda ajratilgan kreditlar keyingi 3, 6, 12 va 24 oyda bir xil usulda kuzatiladi. Bu yangi mahsulot, skoring modeli yoki filial vakolati o‘zgarganidan keyin sifatning qachon va qaysi segmentda yomonlashganini ko‘rsatadi. Vintage natijasi iqtisodiy sharoit bilan birga tahlil qilinib, limit, narx va monitoring chastotasini qayta belgilashga asos bo‘ladi.

Xulosa va takliflar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash amaliyoti mahsulot, jarayon va monitoringning o‘zaro mosligiga bog‘liq. Kredit muddati aktiv yoki pul aylanishiga mos kelmasa, tez ajratilgan kredit ham qarz oluvchi va bank uchun muammoga aylanishi mumkin.

Quyidagilar taklif etiladi:

1) aylanma mablag‘ uchun qayta tiklanuvchi liniyalarni kengaytirish;

2) tasdiqlangan hisob-fakturalar asosida yetkazib berish zanjiri moliyasi va faktoringni rivojlantirish;

3) uskuna xaridida lizing va kreditni taqqoslab taklif qilish;

4) qaror muddatini bosqichlar bo‘yicha o‘lchash;

5) portfel monitoringini tranzaksiya va soliq signallari bilan avtomatlashtirish;

6) restrukturizatsiyani biznes hayotiyligi asosida standartlashtirish;

7) xodim rag‘batini kredit hajmi bilan birga portfel sifati va mijoz natijalariga bog‘lash;

8) yashil va raqamli kreditlarda o‘lchanadigan samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2025 yil uchun yillik hisobot. Toshkent, 2026. https://cbu.uz/uz/publications/annual-report/

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten, 2025 yil. https://cbu.uz/uz/statistics/

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Kichik biznes va tadbirkorlik bo‘yicha rasmiy statistika. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2

4. World Bank. Good Practices for Financial Consumer Protection. Washington, DC, 2017.

5. World Bank and FIRST Initiative. Principles for Public Credit Guarantee Schemes for SMEs. Washington, DC, 2015.

6. IFC. MSME Banking in the Digital Era. Washington, DC, 2025.

7. OECD. Financing SMEs and Entrepreneurs Scoreboard 2025 Highlights. OECD Publishing, Paris, 2025.

8. G20 Global Partnership for Financial Inclusion. Action Plan for MSME Financing. 2025.

9. IFC. Sustainable MSME Finance Reference Guide. Washington, DC, 2023.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 yanvardagi 37-son qarori.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ЖАМОАТЧИЛИКНИНГ БЮДЖЕТ ЖАРАЁНИДА ИШТИРОКИ ВА НАЗОРАТИНИНГ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Умаров Умид Панжиевич

Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил тадқиқотчиси

Аннотация. *Мақолада жамоатчиликнинг бюджет жараёнида иштироки ва назоратининг бюджет маблағларидан фойдаланиш иқтисодий самарадорлигига таъсири назарий ва эмпирик жиҳатдан тадқиқ этилган. Жамоатчилик иштироки бюджет маблағларини аҳолининг реал эҳтиёжларига мувофиқ тақсимлаш, ахборот асимметриясини камайтириш, давлат харажатларининг манзиллилигини ошириш ҳамда лойиҳалар ижроси устидан жамоатчилик назоратини кучайтириш механизми сифатида баҳоланган. Маҳаллий, Россия, Европа ва Америка олимларининг тадқиқотлари асосида жамоатчилик иштирокининг аллокацион самарадорлик, давлат хизматлари сифати, ижтимоий фаровонлик ва бюджет ҳисобдорлигига таъсири тизимлаштирилган. Тадқиқот натижасида “Жамоатчилик иштирокида бюджет самарадорлиги индекси”ни жорий этиш, лойиҳаларни ижросидан кейин жамоатчилик томонидан қабул қилиш механизмини кучайтириш, бюджет лойиҳалари бўйича “натижа паспорти”ни шакллантириш, ҳудудий иштирок самарадорлигини баҳолаш ва шериклик асосидаги молиялаштиришнинг бюджет мультипликаторини ҳисоблаш бўйича илмий-амалий таклифлар ишлаб чиқилган.*

Калит сўзлар: *бюджет жараёни, жамоатчилик иштироки, жамоатчилик назорати, ташаббусли бюджет, OpenBudget, бюджет самарадорлиги, аллокацион самарадорлик, очиқлик, ҳисобдорлик, шериклик асосида молиялаштириш, маҳаллий бюджет, жамоатчилик фикри.*

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧАСТИЯ ОБЩЕСТВЕННОСТИ В БЮДЖЕТНОМ ПРОЦЕССЕ И ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ

Умаров Умид Панжиевич

Независимый соискатель Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация. *В статье с теоретической и эмпирической точек зрения исследуется влияние участия общественности в бюджетном процессе и общественного контроля на экономическую эффективность использования бюджетных средств. Участие общественности рассматривается как механизм распределения бюджетных ресурсов в соответствии с реальными потребностями населения, снижения информационной асимметрии, повышения адресности государственных расходов, а также усиления общественного контроля за реализацией бюджетных проектов. На основе исследований отечественных, российских, европейских и американских учёных систематизировано влияние общественного участия на аллокационную эффективность, качество государственных услуг, общественное благосостояние и бюджетную подотчётность. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения по внедрению «Индекса эффективности бюджета с участием общественности», совершенствованию механизма общественной приёмки проектов после их реализации, формированию «паспорта результатов» бюджетных проектов, оценке эффективности общественного участия на территориальном уровне, а также расчёту бюджетного*

мультипликатора финансирования на основе партнёрства.

Ключевые слова: *бюджетный процесс, участие общественности, общественный контроль, инициативное бюджетирование, OpenBudget, бюджетная эффективность, аллокационная эффективность, открытость, подотчётность, финансирование на основе партнёрства, местный бюджет, общественное мнение.*

WAYS TO IMPROVE THE ECONOMIC EFFICIENCY OF PUBLIC PARTICIPATION AND OVERSIGHT IN THE BUDGET PROCESS

Umarov Umid Panjiyevich

Independent Researcher at
Tashkent State
University of Economics

Abstract. *This article examines the impact of public participation and oversight in the budget process on the economic efficiency of public fund utilization from both theoretical and empirical perspectives. Public participation is considered a mechanism for allocating budgetary resources in accordance with the actual needs of the population, reducing information asymmetry, improving the targeting of public expenditures, and strengthening public oversight of budget project implementation. Based on studies conducted by Uzbek, Russian, European, and American scholars, the research systematizes the effects of public participation on allocative efficiency, the quality of public services, social welfare, and budget accountability. As a result, the study develops scientific and practical recommendations for introducing a "Public Participatory Budget Efficiency Index," strengthening mechanisms for public acceptance and evaluation of completed projects, establishing a "Results Passport" for budget-funded projects, assessing the effectiveness of public participation at the regional level, and calculating the budget multiplier of partnership-based financing.*

Keywords: *budget process, public participation, public oversight, participatory budgeting, OpenBudget, budget efficiency, allocative efficiency, transparency, accountability, partnership-based financing, local budget, public opinion.*

Кириш

Замонавий давлат молиясини бошқаришда бюджет маблағларининг самарадорлигини таъминлаш фақат маблағларни белгиланган мақсадларга сарфлаш ёки молиявий интизомга риоя қилиш билан чекланмайди. Бюджет харажатларининг ҳақиқий иқтисодий ва ижтимоий натижадорлиги уларнинг аҳоли эҳтиёжларига қанчалик мос келиши, давлат хизматлари сифатини қай даражада яхшилаши ва жамоатчилик томонидан қандай баҳоланиши билан ҳам белгиланади.

Анъанавий бюджетлаштириш шароитида давлат органлари аҳолининг маҳаллий даражадаги эҳтиёжлари тўғрисида тўлиқ ахборотга эга бўлмаслиги мумкин. Жамоатчилик иштироки ушбу ахборот асимметриясини камайтириш, аҳоли учун энг долзарб муаммоларни тўғридан-тўғри аниқлаш ва бюджет ресурсларини уларга йўналтириш имконини беради. Шу маънода фуқаролар иштирокидаги бюджетлаштириш молиявий ресурсларни тақсимлашнинг нафақат демократик, балки иқтисодий механизми ҳисобланади.

Ўзбекистонда мазкур механизм “Очиқ бюджет” ахборот портали орқали институционаллаштирилган. Амалдаги низом “Ташаббусли бюджет”ни фуқаролар томонидан ижтимоий аҳамиятга эга муаммолар бўйича лойиҳаларни шакллантириш, саралаш, овоз бериш орқали ғолибларни аниқлаш ва уларни бюджет маблағлари ҳисобидан молиялаштириш жараёни сифатида белгилайди. Низомда лойиҳалар ижросининг хронологиясини портал орқали кузатиш, ҳисобдорлик, очиқлик ва жамоатчилик назорати учун алоҳида механизмлар ҳам назарда тутилган [1].

Жамоатчилик иштирокини энди кичик ҳажмдаги экспериментал механизм сифатида эмас, балки маҳаллий бюджет харажатларининг сезиларли қисмини аҳоли афзалликлари асосида шакллантирувчи институт сифатида баҳолаш зарурлигини кўрсатади. Шу билан бирга, иштирокчилар ёки овозлар сонининг кўпайиши ўз-ўзидан иқтисодий самарадорликни англатмайди.

Ушбу мақоладан кўзланган асосий мақсад - Ўзбекистонда жамоатчиликнинг бюджет жараёнида иштироки ва назоратининг иқтисодий самарадорлигини openbudget.uz платформасининг расмий статистикаси ҳамда хорижий эмпирик тадқиқотлар асосида баҳолаш ва мазкур самарадорликни ошириш бўйича илмий-амалий таклифлар ишлаб чиқишдан иборат.

Адабиётлар шарҳи

У.Ю. Ўроқовнинг “Ташаббусли бюджетлаштириш” ўқув қўлланмасида ташаббусли бюджетнинг мазмун-моҳияти, ҳуқуқий ва ташкилий асослари, фуқаролар томонидан таклиф киритиш, лойиҳаларни саралаш, овоз бериш ва ғолиб лойиҳаларни молиялаштириш механизмлари ягона мантиқий жараён сифатида тизимлаштирилган [5]. Муаллифнинг ёндашуви жамоатчилик иштирокини бюджет маблағларини тақсимлашнинг алоҳида босқичи эмас, балки таклифдан молиялаштиришгача бўлган узлуксиз жараён сифатида баҳолаш зарурлигини кўрсатади.

Ш. Абдуллаева ва Ф. Ахмедова бюджетни шакллантириш жараёнига аҳолини жалб қилиш бюджет шаффофлигини кучайтириши, молиявий саводхонликни ошириши, давлат институтларига ишонч ҳамда давлат ресурсларидан мақсадли фойдаланишни англайдиган солиқ тўловчи маданиятини ривожлантиришини таъкидлайдилар [6]. Уларнинг илмий ёндашувидан келиб чиқиб, жамоатчилик иштирокининг натижасини фақат овозлар сони эмас, бюджет саводхонлиги ва ҳисобдорлик эффектлари орқали ҳам баҳолаш мақсадга мувофиқ.

С.А. Воронин, Ж.А. Авлиякулова ва Р.Н. Амонов Ўзбекистонда ташаббусли бюджетлаштиришнинг тўпланган салоҳияти ва ривожланиш истиқболларини таҳлил қилиб, мазкур механизмни давлат ва фуқаролар ўртасидаги ҳамкорлик ва ишончни кучайтирувчи институт сифатида баҳолаган [7]. Уларнинг тадқиқоти Ўзбекистон тажрибасида фуқаролар ташаббуси, бюджет маблағлари ва қўшма молиялаштириш ўртасидаги боғлиқликни ривожлантириш зарурлигини кўрсатади.

Россиялик олимлар В.В. Вагин ва И.В. Петрова “Влияние гражданской партисипации на эффективность бюджетных расходов” мақоласида жамоатчилик иштироки билан бюджет харажатлари самарадорлиги ўртасидаги боғлиқликни махсус тадқиқ этган. Муаллифлар Россия давлат дастурлари ва “Комфорт шаҳар муҳитини шакллантириш” федерал лойиҳаси маълумотлари асосида фуқаролар иштирокининг бюджет харажатлари самарадорлигини оширишда аҳамиятли эканлиги ҳақида хулоса чиқарган ва жамоатчилик иштироки самарадорлигини баҳолаш учун махсус кўрсаткичлар ишлаб чиқишни тавсия этган [8].

Ушбу тадқиқотнинг мазкур мақола учун муҳим жиҳати - аллокацион самарадорлик тушунчасидир. Яъни фуқаролар иштироки мавжуд ресурслардан кўпроқ маблағ яратиб бермаслиги мумкин, бироқ мавжуд маблағларни аҳоли учун юқорироқ наф келтирадиган йўналишларга қайта тақсимлаш орқали иқтисодий самарадорликни оширади.

Э.А. Титов ва В.А. Паксиваткина рақамли фуқаролик иштироки платформаларини Россия ва хорижий тажриба асосида баҳолаган. Улар 28 та индикатордан иборат баҳолаш тизимини таклиф этиб, рақамли платформаларни институционал тузилма, контент, хизматлар, иштирок ва технологиялар бўйича баҳолашган. Тадқиқотда кўриб чиқилган 24 та Россия портали ичида атиги 8 таси медиан баҳолаш чегарасидан юқори натижа кўрсатган, аксарият порталлар эса кўпроқ ахборот бериш функцияси билан чекланган [9]. Муаллифлар фойдаланувчилар сўровларини, автоматлаштирилган баҳолаш ва сунъий

интеллект имкониятларини қўллаш орқали рақамли иштирок платформалари самарадорлигини баҳолашни такомиллаштиришни таклиф этадилар.

Мазкур ёндашув OpenBudget.uz платформасининг самарадорлигини ҳам фақат электрон овоз бериш имконияти билан эмас, балки таклиф билдириш, лойиҳани кузатиш, натижани баҳолаш ва тескари алоқа функцияларининг тўлиқлиги билан ўлчаш лозимлигини асослайди.

Француз ва немис тадқиқотчилари Yves Sintomer, Carsten Herzberg ва Anja Röcke Европа мамлакатларидаги иштирокчи бюджетлаштириш амалиётини қиёсий ўрганиб, Бразилиядан Европа мамлакатларига кўчирилган модель турли институционал шаклларга эга бўлганини кўрсатган [10]. Муаллифлар ягона универсал модел мавжуд эмаслиги, самара институтларнинг дизайни, фуқаролар иштирокининг реал таъсир даражаси ва маҳаллий бошқарув тизимига боғлиқ эканлигини асослайдилар.

Yves Cabannes 25 та Лотин Америкаси ва Европа муниципалитетлари тажрибасини ўрганиб, иштирокчи бюджетлаштиришни маҳаллий демократия ва ҳудудий ривожланиш соҳасидаги муҳим институционал инновация сифатида баҳолайди [11]. Унинг таҳлили иштирок механизмининг қиймати фуқароларга шунчаки маслаҳат бериш ҳуқуқи эмас, балки реал молиявий қарор қабул қилиш ваколатининг маълум қисмини бериш билан боғлиқлигини кўрсатади.

Европа тажрибасида иштирок кўлами ҳам муҳим. Масалан, Португалиянинг Кашкайш шаҳридаги иштирокчи бюджетлаштиришнинг дастлабки олти йиллик тажрибасида 206 минг аҳолига эга шаҳарда 150 мингдан зиёд фуқаро жараёнларга жалб этилган ва 88 та жамоатчилик томонидан танланган лойиҳа амалга оширилган. Бу иштирокнинг муниципал бошқарувга ишонч билан боғлиқлигини кўрсатувчи амалий мисолдир.

Sónia Gonçalves Бразилия муниципалитетларининг 1990–2004 йиллардаги маълумотларини таҳлил қилиб, иштирокчи бюджетлаштириш жорий қилинган муниципалитетларда бюджет харажатлари аҳоли афзалликларига яқинроқ шаклланганини аниқлаган. Хусусан, санитария ва соғлиқни сақлаш соҳаларига харажатлар улуши ошган ва бу жараён чақалоқлар ўлими даражасининг пасайиши билан боғланган [12].

Бу натижа жамоатчилик иштирокининг иқтисодий самарасини фақат “қанча маблағ ажратилди?” деган савол билан эмас, балки маблағ қандай ижтимоий натижага айланди? деган мезон орқали баҳолаш зарурлигини кўрсатади.

Америкалик сиёсатшунослар Michael Touchton ва Brian Wampler Бразилиянинг йирик шаҳарлари бўйича узоқ муддатли маълумотларни таҳлил қилиб, иштирокчи демократик институтлар аҳоли фаровонлиги билан ижобий боғлиқ эканлигини кўрсатган [13]. Улар иштирок, институционаллашув ва давлатнинг ижтимоий сиёсатини биргаликда амалга ошириш юқорироқ ижтимоий натижаларга олиб келиши мумкинлигини асослайдилар.

Шу тариқа, адабиётлар таҳлилидан келиб чиқадиган асосий илмий бўшлиқ шундаки, иштирокчи бюджетлаштириш кўп ҳолларда демократик иштирок ёки шаффофлик нуқтаи назаридан баҳоланади, аммо иштирок, бюджет тақсимоти, лойиҳа ижроси, жамоатчилик назорати, якуний ижтимоий-иқтисодий натижа занжири ягона комплекс кўрсаткич асосида етарлича баҳоланмайди.

Тадқиқот методологияси

Тадқиқотда тизимли, қиёсий, динамик, институционал ва иқтисодий-статистик таҳлил усулларидан фойдаланилди.

Эмпирик база сифатида openbudget.uz порталининг 2024–2026 йиллардаги “Ташаббусли бюджет” статистикаси, Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг очиқ маълумотлари ҳамда амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар олинди. openbudget.uz порталининг мавсумий статистикаси ғолиб лойиҳалар сони, маблағлар

ҳажми, овозлар ва қониқиш даражасини таққослаш имконини беради.

Бир ғолиб лойиҳага тўғри келадиган ўртача бюджет маблағи қуйидагича ҳисобланди:

O‘LQ = BM / GL,

бу ерда:

O‘LQ – бир ғолиб лойиҳага тўғри келадиган ўртача қиймат;

BM – ғолиб лойиҳаларнинг умумий молиялаштириш қиймати;

GL – ғолиб лойиҳалар сони.

Жамоатчилик иштирокининг иқтисодий самарадорлиги қуйидаги беш ўлчовда баҳоланди:

1. **Тақсимлаш самарадорлиги –** бюджет ресурсларининг аҳоли эҳтиёжлари ва афзалликларига мувофиқ тақсимланиши;
2. **Натижавий самарадорлик –** молиялаштирилган лойиҳанинг аниқ товар, хизмат ёки инфраструктура натижаси;
3. **Ижро самарадорлиги –** лойиҳаларнинг ўз вақтида ва сифатли бажарилиши;
4. **Назорат самарадорлиги –** жамоатчилик учун маблағ ва ижрони кузатиш имконияти;
5. **Молиявий мультипликация самараси –** бюджет маблағига қўшимча равишда жамоатчилик маблағларининг сафарбар қилиниши.

Тадқиқотнинг чеклови шундаки, openbudget.uz статистикаси иштирок кўлами ва молиялаштириш ҳажмини яхши акс эттиради, бироқ барча лойиҳаларнинг узоқ муддатли иқтисодий натижалари бўйича ягона панель маълумотлар базаси ҳозирча мавжуд эмас. Шу сабабли Ўзбекистон қисмида сабабий таъсир эмас, асосан дескриптив ва институционал самарадорлик баҳоланади; сабабий боғлиқлик бўйича хулосалар хорижий эмпирик тадқиқотлар билан қиёсланади.

Натижалар

2024 йил биринчи мавсуми маълумотлари жамоатчилик овозлари натижасини аниқ физик кўрсаткичларда ўлчаш имконияти яратилаётганини кўрсатади. Лойиҳаларни шакллантириш жараёнининг рақамлаштирилиши ва товар-хизматлар классификаторининг жорий қилиниши натижасида ҳар бир ғолиб лойиҳа бўйича эришиладиган натижани ҳисоблаш имконияти пайдо бўлган.

Масалан, 2024 йил биринчи мавсуми доирасида мактаблар учун 4 646 та интерактив доска, 68 мингта парта ва 2,7 мингта компьютер харид қилиниши 130 минг ўқувчининг замонавий таълим шароитларидан фойдаланиш имкониятини яхшилаши қайд этилган. Бу ҳолат жамоатчилик иштирокининг иқтисодий самарадорлигини баҳолашда янги ёндашувни талаб этади: “ажратилган маблағ” – “харид қилинган ресурс” – “қамраб олинган аҳоли” –“давлат хизмати сифатидаги ўзгариш”. Шундай ёндашув бюджет маблағларининг фақат ўзлаштирилиши эмас, уларнинг бир бирлиги ҳисобига яратилган жамоат нафини аниқлаш имконини беради.

Амалдаги ташаббусли бюджет низомида ҳисобдорлик ва очиқлик билан бир қаторда жамоатчилик назорати алоҳида боб сифатида белгиланган. Ғолиб лойиҳаларни молиялаштириш босқичларини фуқаролар портал орқали бевосита кузатиш имконини берувчи “лойиҳаларни амалга ошириш хронологияси” механизми мавжуд.

Мазкур механизм иқтисодиёт назариясидаги «принципал - агент» муносабатларида юзага келадиган ахборот асимметрияси ва манфаатлар зиддиятини юмшатишга хизмат қилади. Бунда лойиҳаларни танлашда иштирок этувчи аҳоли, уларнинг ижросини таъминловчи давлат ташкилотлари ҳамда пудратчилар ўртасидаги ахборот номутаносиблигининг қисқариши бюджет маблағларидан фойдаланиш шаффофлиги ва ижро интизомини мустаҳкамлаш учун иқтисодий замин яратади.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

International Budget Partnership’нинг 2025 йилги глобал тадқиқоти ҳам бюджет очиқлигининг ўзи етарли эмаслигини кўрсатади. 82 мамлакатни қамраб олган тадқиқотда кўплаб ҳукуматлар фуқаролар фикрини сўраса-да, атиги 7 мамлакат олинган таклифлар ва улар қандай ҳисобга олингани ҳақида тўлиқ маълумот эълон қилган. IBP жамоатчилик бюджет ижросини кузатиб борганида ҳукуматлар олдида маълумотни очиш, қарорларни асослаш ва камчиликларни тузатиш учун босим кучайишини таъкидлайди.

Демак, иқтисодий самарадорлик учун иштирок овоз бериш босқичида тугамаслиги, балки лойиҳани қабул қилиб олиш ва кейинги эксплуатация натижаларини баҳолашгача давом этиши керак.

2025 йил 17 декабрдаги ҚҚ-280-V-сон қарор билан аҳоли ва давлат ўртасида ташаббусли бюджет лойиҳаларини шериклик асосида молиялаштириш тартиби жорий қилинди. Умумий тартибда лойиҳа қийматининг 50 фоизи аҳоли, қолган 50 фоизи бюджет ҳисобидан молиялаштирилади. “Энг яхши солиқ тўловчи маҳалла” рўйхатига кирган маҳаллалар учун эса аҳоли ҳиссаси 25 фоиз, бюджет ҳиссаси 75 фоизни ташкил этади [4]. 50/50 моделда ҳар бир 1 сўм бюджет маблағи 1 сўм жамоатчилик маблағини сафарбар қилиб, жами 2 сўмлик жамоат активини молиялаштириш имконини беради. Яъни шартли бюджет мультипликатори:

$$BM = LQ / BQ = 2,0$$

бу ерда

LQ — лойиҳанинг умумий қиймати,

BQ — бюджет ҳиссаси.

25/75 моделда ҳар бир 1 сўм бюджет маблағига 0,33 сўм аҳоли маблағи тўғри келади ва умумий лойиҳа қиймати бюджет ҳиссасига нисбатан 1,33 бараварни ташкил этади. 2026 йил биринчи мавсумида OpenBudget статистикаси 16 та шериклик лойиҳасини ғолиб сифатида қайд этган. 2026 йил иккинчи мавсумида эса шериклик асосида молиялаштириш учун 693 та ташаббус келиб тушган. Бу янги механизмга аҳолининг амалий қизиқиши шаклланаётганини кўрсатади.

Муҳокама

Тадқиқот натижаларини умумлаштириш асосида жамоатчилик иштирокининг бюджет самарадорлигига таъсирини қуйидаги занжир орқали ифодалаш мумкин:

Жамоатчилик иштироки → маҳаллий аҳоли эҳтиёжлари тўғрисида тўлиқ ва ишончли ахборот шаклланиши → бюджет устуворликларини асосли белгилаш → бюджет ресурсларини тақсимлашдаги номутаносибликларни камайтириш → ижтимоий-иқтисодий нафли лойиҳаларни танлаш → жамоатчилик назоратини кучайтириш → лойиҳалар ижросида интизом ва сифатни ошириш → бюджет маблағларидан фойдаланишнинг иқтисодий ва ижтимоий натижадорлигини юксалтириш.Хорижий эмпирик тадқиқотлар мазкур механизмни қўллаб-қувватлайди.

Gonçalves’нинг Бразилия бўйича тадқиқоти харажатлар санитария ва соғлиқни сақлашга қайта тақсимланганини ва ижтимоий натижалар яхшиланганини кўрсатади; Sihotang’нинг Нью-Йорк бўйича натижалари эса иштирокчи бюджетлаштириш давлат хизматлари бўйича умумий шикоятларни камайтириш билан боғлиқ эканлигини кўрсатган.

Шу сабабли жамоатчилик иштирокининг иқтисодий самарадорлиги овозлар сони билан эмас, овоз натижасида аҳоли учун яратилган қўшимча жамоат нафининг миқдори билан ўлчаниши лозим.

Овоз бериш механизми аҳолининг афзалликларини аниқлайди, аммо юқори овоз олган лойиҳа автоматик равишда энг юқори ижтимоий-иқтисодий самарага эга деган хулосани бермайди.

Аҳолиси кўп маҳалла оз сонли аҳоли яшайдиган, аммо инфратузилма эҳтиёжи анча юқори бўлган ҳудуддан кўпроқ овоз йиғиши мумкин. Шунингдек, юқори ташкилий

ресурсга эга ташкилот ёки жамоа овоз тўплашда устунликка эга бўлиши эҳтимоли мавжуд. Шу боис ташаббусли бюджетда демократик танлов + ижтимоий адолат + иқтисодий натижадорлик ўртасида мувозанат таъминланиши лозим.

2025 йил охиридаги амалдаги таҳрирда туман ва шаҳар бюджетларида иштирок этаётган маҳаллалар сонидан келиб чиқиб, қоида тариқасида камида 6 та ва кўпи билан 30 та лойиҳа учун етарли маблағ режалаштириш белгиланган. Бу ҳудудлар ўртасида имкониятлар концентрациясини камайтиришга қаратилган институционал чора сифатида баҳоланиши мумкин.

Илмий янгилик ва амалий таклифлар

Бизнинг фикримизча, Ўзбекистонда жамоатчиликнинг бюджет жараёнида иштироки ва назоратининг иқтисодий самарадорлигини ошириш учун қуйидаги механизмларни жорий этиш мақсадга мувофиқ.

1. “Жамоатчилик иштирокида бюджет самарадорлиги индекси”ни жорий этиш. Ҳозирги статистикада асосан лойиҳалар, овозлар ва маблағлар кўрсатилади. Уларни ягона комплекс баҳога бирлаштириш таклиф этилади:

$$JIBSI = w_1P + w_2A + w_3E + w_4Q + w_5C + w_6L$$

бу ерда:

P - аҳолининг иштирок қамрови;

A - маблағларнинг аҳоли афзалликларига мувофиқлиги;

E - лойиҳалар ижросининг ўз вақтидалиги;

Q - аҳолининг натижадан қониқиши;

C - жамоатчилик назорати ва ахборот очиқлиги;

L - бюджетдан ташқари жамоатчилик маблағларини жалб қилиш даражаси;

w_1–w_6 — тегишли вазн коэффициентлари.

Барча компонентларни 0–100 оралиғида нормаллаштириш орқали ҳар бир туман, шаҳар ва вилоят учун JIBSI ҳисоблаш мумкин.

Бу “қайси ҳудуд кўпроқ овоз тўплади?” деган баҳолашдан “қайси ҳудуд иштирокни реал бюджет натижасига самарали айлантирди?” деган баҳолашга ўтиш имконини беради.

2. Ҳар бир ғолиб лойиҳа учун “Бюджет натижаси паспорти”ни шакллантириш. Паспортда қуйидагилар акс эттирилиши лозим: муаммо → ажратилган маблағ → харид қилинган товар/иш → қамраб олинган аҳоли → ижро муддати → иқтисод қилинган маблағ → фуқаролар қониқиши → кейинги эксплуатация ҳолати.

Масалан, “мактабни жиҳозлаш учун 1 млрд сўм ажратилди” деб кўрсатиш ўрнига: 1 млрд сўм → 20 та интерактив доска + 300 та парта → 1 200 нафар ўқувчи → қониқиш 91% каби натижавий форматга ўтиш мақсадга мувофиқ.

3. Лойиҳани қабул қилишда ташаббускор ва жамоатчилик иштирокини мажбурий элементга айлантириш. Пудратчи ёки буюртмачи лойиҳани якунлаганидан кейин портал орқали: техник қабул + ташаббускор тасдиғи + жамоатчилик баҳоси механизми амал қилиши лозим.

Агар ташаббускор бажарилган ишда камчилик кўрсатса, лойиҳа автоматик тарзда “якунланган” ҳолатига ўтмасдан, тузатиш учун буюртмачига қайтарилиши мумкин.Бу назоратни ex post auditдан real-time public controlга яқинлаштиради.

4. Шериклик асосидаги лойиҳалар учун “бюджет мультипликатори” кўрсаткичини жорий қилиш. Ҳар бир ҳудудда: BM = умумий лойиҳа қиймати / бюджет маблағи ҳисобланиши лозим.

50/50 шерикликда BM = 2,0.

Бу ҳар бир бюджет сўми ҳисобига яна бир сўм хусусий/жамоатчилик ресурси жалб қилинганини кўрсатади. Шу орқали ҳудудларда жамоатчиликнинг фақат овоз билан эмас, молиявий иштирок орқали ҳам бюджет самарадорлигига қўшган ҳиссаси баҳоланади.

5. “Овоз бериш”дан “маслаҳатлашувчи бюджетлаштириш”га ўтиш

элементларини жорий қилиш. Йирик ёки бир-бирига яқин овоз олган лойиҳалар бўйича овоз беришдан олдин портал орқали:

- қисқа иқтисодий асос;
- аҳоли қамрови;
- эксплуатация харажатлари;
- муқобил вариантлар;
- лойиҳа амалга оширилмаса келиб чиқадиган ижтимоий харажат
- кўрсатилиши лозим.

Бу фуқаронинг қарорини фақат эмоционал ёки шахсий манфаатга эмас, ахборотли танловга айлантиради. International Budget Partnership ҳам мазмунли иштирок учун фуқарога иштирокдан олдин етарли маълумот ва иштирокдан кейин унинг фикри қандай ҳисобга олингани ҳақида ҳисобот зарурлигини таъкидлайди.

Хулоса

Тадқиқот натижалари жамоатчиликнинг бюджет жараёнида иштироки ва назорати бюджет маблағларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг муҳим институционал омили бўлиши мумкинлигини кўрсатди.

Бироқ жамоатчилик иштирокининг иқтисодий самарадорлигини фақат овоз берувчилар, ғолиб лойиҳалар ёки ажратилган маблағлар сони билан баҳолаш етарли эмас. Мазкур кўрсаткичлар input ва process indicators, яъни ресурс ва жараён кўрсаткичларидир. Самарадорликни тўлиқ баҳолаш учун output, outcome ва impact - яъни яратилган инфратузилма, аҳоли қамрови, давлат хизмати сифати ва узоқ муддатли ижтимоий натижа кўрсаткичларига ўтиш зарур.

Хорижий илмий тадқиқотлар ҳам ушбу хулосани қўллаб-қувватлайди. Бразилияда иштирокчи бюджетлаштириш харажатларни аҳоли устуворликларига мувофиқ қайта тақсимлаш ва соғлиқ-саломатлик натижалари билан, Нью-Йорк тажрибасида эса айрим давлат хизматлари натижадорлигининг яхшиланиши билан боғланган. Европа тажрибаси эса иштирокнинг самараси институт дизайни, ажратилган ресурслар ҳажми ва фуқароларнинг қарорларга реал таъсир қилиш даражасига боғлиқлигини кўрсатади.

Ўзбекистонда 2025–2026 йилларда жорий этилган аҳоли ва давлат шериклиги механизми жамоатчилик иштирокининг янги иқтисодий босқичини шакллантирмоқда. 50/50 шаклидаги шериклик бюджет маблағларига қўшимча жамоатчилик ресурсларини жалб қилиш орқали молиявий мультипликация эффектини яратиши мумкин. 2026 йил иккинчи мавсумида ушбу механизм бўйича 693 та ташаббус келиб тушгани унинг амалий салоҳияти мавжудлигини кўрсатади.

Фикримизча, таклиф этилаётган Жамоатчилик иштирокида бюджет самарадорлиги индекси (JIBSI), Бюджет натижаси паспорти, бир бенефициарга харажат кўрсаткичи, шериклик бюджет мультипликатори ва жамоатчилик назорати рақамли панели мазкур трансформация учун услубий асос бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Натижада жамоатчиликнинг бюджет жараёнида иштироки фақат демократик бошқарув институти эмас, балки чекланган бюджет ресурсларини аҳоли учун энг юқори ижтимоий ва иқтисодий наф яратадиган йўналишларга тақсимлаш ҳамда уларнинг ижроси устидан узлуксиз назорат ўрнатиш механизмига айланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг 2024 йил 30 январдаги КҚ-666-IV-сон “Ташаббусли бюджет жараёнларини ўтказиш ҳамда молиялаштириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг 2025 йил 13 январдаги КҚ-34-V-сон қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 29 августдаги ПҚ-264-сон

“Ташаббусли бюджет жараёнларини такомиллаштириш доирасида халқ вакиллари ва сайловчилар ўртасида ҳамкорликни кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг 2025 йил 17 декабрдаги КҚ-280-V-сон қарори ва шериклик асосида биргаликда молиялаштириш тўғрисидаги низом.

5. O‘roqov U.Yu. Tashabbusli byudjetlashtirish: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Diadema nur servis, 2025. – 232 b. ISBN 978-9910-09-121-6.

6. Абдуллаева Ш., Ахмедова Ф. Повышение роли вовлеченности граждан в процесс формирования государственного бюджета. – 2025. – Т.4, №1. – С.334–338. DOI: 10.60078/2025-vol4-iss1-pp334-338.

7. Воронин С.А., Авлиякулова Ж.А., Амонов Р.Н. Инициативное бюджетирование в Республике Узбекистан: накопленный потенциал и перспективы его развития // Россия: тенденции и перспективы развития. – 2022. – №17-2. – С.204–212.

8. Вагин В.В., Петрова И.В. Влияние гражданской партисипации на эффективность бюджетных расходов // Финансовый журнал. – 2020. – Т.12, №6. – С.25–38. DOI: 10.31107/2075-1990-2020-6-25-38.

9. Титов Э.А., Паксиваткина В.А. Цифровые платформы участия граждан: российский и зарубежный опыт // Ars Administrandi. – 2025. – Т.17, №1. – С.111–132. DOI: 10.17072/2218-9173-2025-1-111-132.

10. Sintomer Y., Herzberg C., Röcke A. Participatory Budgeting in Europe: Potentials and Challenges // International Journal of Urban and Regional Research. – 2008. – Vol.32, No.1. – P.164–178. DOI: 10.1111/j.1468-2427.2008.00777.x.

11. Cabannes Y. Participatory Budgeting: A Significant Contribution to Participatory Democracy // Environment and Urbanization. – 2004. – Vol.16, No.1. – P.27–46.

12. Gonçalves S. The Effects of Participatory Budgeting on Municipal Expenditures and Infant Mortality in Brazil // World Development. – 2014. – Vol.53. – P.94–110. DOI: 10.1016/j.worlddev.2013.01.009.

13. Touchton M., Wampler B. Improving Social Well-Being Through New Democratic Institutions // Comparative Political Studies. – 2014. – Vol.47, No.10. – P.1442–1469. DOI: 10.1177/0010414013512601.

14. International Budget Partnership. Open Budget Survey 2025: Global Report.

15. www.openbudget.uz.